


JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

MIGEL DE SERVANTES  
**Don Kixotning**  
**SARGUZASHTLARI**



**JAHON ADABIYOTI DURDONALARI**

**MIGEL DE  
SERVANTES**

**DON KIXOTNING  
SARGUZASHTLARI**

*(sarguzasht roman)*

**«Ilm-ziyo-zakovab»  
TOSHKENT – 2019**

UO'K: 822.101.03

KBK:84(4Isp)

S-46

Migel de Servantes. «Don Kixotning sarguzashtlari» / roman / ruschadan Sotiboldi Yo'ldoshev tarjimasini / «Jahon adabiyoti durdonalari» turkumi – T.: «Ilm-ziyo-zakovat», 2019. 608 b.

Nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:  
Ergashboy MATYOQUBOV

#### **AZIZ KITOBXONLAR!**

*Qo'lingizdagi ushbu kitob ispan adibi Migel de Servantes (1547-1616) qalamiga mansub "El ingenioso hidalgo Don Quijote de la Mancha" romanining rus tili orqali (ispan tilidan rus tiliga Nikolay Mixaylovich Lyubimov «Хитроумный удалец Дон Кихот Ламанчский» nomi ostida tarjima qilgan) Sotiboldi Yo'ldoshev tomonidan "Don Kixotning sarguzashtlari" nomi ostida tarjima qilingan ko'rinishidir.*

*Shuni bilingki, badiiy asarni tarjima qilish (ayniqsa, turkiy tillarga mansub bo'lmagan tildan tarjima qilish) shu asarni qaytadan yozish bilan teng qiyinchilikka ega. Shu tildagi iboralarni so'zlarni, jumtalarni yoki maqol-matallarni maromiga yetkazib tarjima qilish juda mushkul ish hisoblanadi. Chunki bunda tarjimondan bevosita eng kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilish, shuningdek, o'sha til egalari – xalqning turmush-tarzi, etnografiyasini, madaniyatini va tarixini mukammal bilish talab etiladi. Shuning uchun Sotiboldi Yo'ldoshev ham doimo xalqimizning, ayniqsa, o'quvchi yoshlarimizning tahsin-u tashakkuriga sazovor bo'lgan. Biz ham shular qatorida tarjimon – Sotiboldi Yo'ldoshevdan ushbu xizmatlari uchun behad xursandmiz!*

*«Don Kixotning sarguzashtlari» asari – jahon adabiyotining o'lmas durdonalaridan biri hisoblanadi! Bu asar nafaqat badiiy kitob orqali, balki yurtimiz telekanallarida yiliga bir necha bor berilgan videofilmi orqali ham juda mashhur.*

*Migel de Servantes «Don Kixot» ushbu asar orqali nafaqat soddalik va mug'ambirlikni hayj qiladi, balki shu bilan birga yuksak insoniy fazilatlarini ham tarannum etadi. Bu fikrimizning isbotida quyida berilgan «Yondaftarga muhrlanuvchi bitiklar»da ko'rishingiz mumkin.*

*Ushbu kitob ilk bor o'zbek tilida 1990-yilda chop etilgan. Bu davrdagi nashrida ayrim so'z va jumtalarning ma'nosi izohlanmagan yoki ruscha so'zlar, yoki baynalmilal jumalar orqali berilgan edi. Bu holat bilan biz tarjimonlarni yoki o'sha davr nashriyoti xodimlarini kamsitish fikridan viroqmi. Faqat hozirgi davr kitobxonlarining talab va iltimoslariga asosan asar tarjimasiga qo'shimcha iqtiboslar kiritildi va hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalari asosida avva tahrirlandi.*

UO'K: 822.101.03

KBK:84(4Isp)

ISBN: 978-9943-5858-4-3

© Migel de SERVANTES.

© «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti 2019 y.

## YONDAFTARGA MUHURLANUVCHI BITIKLAR

(Migel de Servantesning «Don Kixot» romanidan)

Hech mahal o'zboshimchalik bilan ish tutma, o'zini aqlli sanovchi nodonlargina shunday qiladilar.

\* \* \*

Qashshoqlarning ko'z yoshi ko'nglingga rahm solsin, ammo bu shafqat badavlat kimsaning arz-u shikoyatiga o'xshab adolat me'yoridan oshib ketmasin.

\* \* \*

Doim haqiqat yo'lida bo'l, buning uchun senga sovg'alar ham, boylarning va'dalari ham, kambag'allarning yolvorish va duolari ham xalaqit berolmaydi.

\* \* \*

Qayerdagi beg'arazlik mavjud bo'lsa, javobgarni qattiq jazolama, zeroki toshko'ngil sudyaning shon-sharafı hojatbaror sudyaning sharafidan ortiq emas.

\* \* \*

Agar qonunni yengillashtirmoqchi bo'lsang, buni faqat senga va'da qilgan sovg'alar haqqi emas, balki gunohkorga rahm-shafqat yuzasidan qil.

\* \* \*

Agar qachon bo'lmasin o'z dushmaningning da'vosini tekshiradigan bo'lsang, unga nisbatan bo'lgan dushmanligingni yodingdan chiqarib yubor, haqiqat qaysi tomondaligini o'yla faqat.

\* \* \*

Boshqalarning ishini tekshirishda shaxsiy manfaatingni ko'zlama, yo'qsa hech qachon to'g'rilab bo'lmaydigan xatoga

yo'l qo'yan. Agar huzuringga biror go'zal ayol adolat talab qilib kelib qolsa, uning ko'z yoshlariga va oh-vohlariga qaramay, qattiq turib uning talablariga quloq sol. Aks holda, butun fikri-zikring uning oh-vohi-yu ko'z yoshlari bilan band bo'lib qoladi.

\* \* \*

Mabodo birovni jazolamoqchi bo'lsang, uni qattiq so'kma, chunki bu baxtiqaroning g'ami o'zi bir jazo.

\* \* \*

Aybdorga gunohkor bandasining zaif tabiati yo'ldan ozdirgan bir baxtiqaro odam deb qara va shu sababli unga nisbatan rahm-shafqatli bo'l; yodingda tut: rahm-shafqatli bo'lish har qanday saxovatlikdan ustun turadi.

\* \* \*

Avvalo, doim toza yurishni maslahat qilaman, soch tarab, soqol-mo'ylovingni, tirnoqlaringni tez-tez olib tur, aks holda ular kaltakesakxo'r qirg'iyning o'tkir tirnoqli panjalariga o'xshab ketadi. Hech qachon boshqalarning ko'ziga yirtiq va irkit kiyimda ko'rinma, chunki faqat dangasa va bebosh odamlargina shunday yurishadi, Sancho.

\* \* \*

Agar yuksak martabang xizmatchilaringning uqali kiyim kiyishini taqozo etsa, u holda, bu libos juda ham hashamdor va yarqiragan bo'lmasin, ularni xizmatkorlarning hamda kambag'allarga bab-baravar bo'lib ber, olti mahramni kiyintirgandan ko'ra uch kambag'al bilan uch mahramni kiyintir, shundagina bu dunyoying ham, u dunyoying ham but bo'ladi.

\* \* \*

Yurganda ohista qadam tashla, vazmin-xotirjam so'zla, lekin o'zingga o'zing gapirayotgandek ming'irlama, chunki har qanday balandparvoqlik – yaramas odat.



\*\*\*

Tush paytida kamroq ovqat ye, kechqurun undan ham kamroq, chunki tanimizning salomatligi oshqozonga bog'liq.

\*\*\*

Ko'p uxlama, kimki quyosh bilan baravar uyg'onmasa, kunning go'zalligidan bahramand bo'lolmaydi. Shuni ham unutmaki, Sancho, omad kaliti – harakat, ammo tanballik bilan orzuga erisholmaydi kishi.

\*\*\*

Har kim o'z gunohiga o'zi javob beradi: Xudo bor, u yomonlik qilganlarni odillik bilan jazolaydi, yaxshilikka marhamat ko'rsatadi. Bandalari esa boshqa odamlarning jallodlari bo'lib qolmasliklari kerak.

\*\*\*

Oliyjanob kishilar o'zlariga yaxshilik qilgan kishilardan hamisha minnatdor bo'ladilar, chunki qadr bilmaslikdan zo'rroq gunoh yo'q.

\*\*\*

Yaxshilik yo'li tor bo'ladi-yu, yomonlikniki keng. Biroq keng va yalang yo'l o'limga, yaxshilikning tor va mashaqqatli yo'li esa hayotga, ya'ni mangu hayotga olib keladi.

\*\*\*

Shon-shuhrat ishtiyoqida qilingan bu harakatlarning hammasini bandalar oliy mukofot hamda abadiylik deb bilganlar. Biroq shon-shuhratga intilarkanmiz, biz or-nomus hamda yaxshilik chegarasidan chiqib ketmasligimiz kerak. Polvonlarni yengish bilan biz g'ururni yo'qotishimiz, oliyjanoblik bilan hasadni, bosliqlik bilan g'azabni, ovqatdan o'zimizni tortish bilan ochko'zlikka moyillikni, yengishimiz lozim. Doimo haqiqiy

shuhratga hamroh bo'ladigan maqtovg'a sazovor bo'lishga ana shunday erishiladi

\* \* \*

Mening barcha orzu-umidlarim doim oliyjanob maqsadga – hammaga yaxshilik qilish va hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaslikka qaratilgan.

\* \* \*

Qadr bilmaslik, ya'ni nonko'rlik – mag'rurlik arzandasidir, olamda mavjud bo'lgan gunohlarning eng azimidir, lutf aylab yaxshilik qilgan odamga nisbatan minnatdorchilik bildirgan kimsa o'zining yaxshilikni biluvchi, Tangrining ko'rsatgan marhamatiga shukronalar o'quvchi oliyjanob kishi ekanligini namoyish qiladi.

\* \* \*

Vijdoning pok bo'lsa bas, qo'yaver, odamlar og'izlariga kelganini gapiraversinlar. Fisqi-fasodchi odamning tilini bog'lab qo'yish bepoyon dalaga darvoza qurib, qulflab qo'yishdek mushkul bir narsa.

\* \* \*

Adolatsiz o'ch olishni izlash (adolatli o'ch olish umuman yo'q) dushmanlarga yaxshilik qilish, bizni ko'rolmaydiganlarni sevishni talqin qiluvchi muqaddas dinimizga qarshi borish demakdir. Ko'plarga ana shu tariqatga rioya qilish qiyinga o'xshab ko'rinadi, faqat bu kishilar Xudodan ko'ra bu dunyo ishlarini ko'proq o'ylaganidan shunday bo'ladi.

*Nashrga tayyorlovchi – «GOLD STAR EDUCATION»  
NTM direktori MATYOQUBOV E. R.*

## BIRINCHI BOB

### LAMANCHLIK DON KIXOTNING KIMLIGI

Lamanch viloyatiga qarashli jo'ngina qishloqchada don Kexana degan idalgo<sup>1</sup> yashardi. Boshqa dvoryanlar<sup>2</sup> singari u ham tag-tugli nasabi bilan faxrlanar, almisoqdan qolgan qalqon bilan ajdodlaridan meros bo'lib kelayotgan nayzani muqaddas bilib asrardi. Hovlisida qirchang'i oti va tozi iti bor edi. Topgan daromadining to'rtidan uch qismi kechki ovqatga – sabzavotdan tayyorlanadigan go'shti sho'rva bilan moshkichriga ketardi. Har juma yosmiq yovg'oniga qanoat qilib kun kechirsa, yakshanba kunlari qovurilgan kabutar go'shti yeb maza qilardi. Don Kexana bayram kunlari nafis movutdan tikilgan chakmon, duxoba shim,

---

<sup>1</sup> **Idalgo** – kichik yerga ega bo'lgan dvoryan. Mavrlar bilan shiddatli kurash davrida (XI–XIV asrlar) Ispaniya hayotida mayda dvoryanlik muhim rol o'ynagan edi. Ispaniyani chet elliklardan tozalashda ozodlik qo'shinlari asosan shulardan tuzilgan. Shuning uchun ham bu dvoryanlar kurashlarda qo'lga kiritilgan yerlarga puxta o'mashib olgan edilar. Biroq XV va XVI asrlarga kelib, qirollik hukmronligining kuchaygan davrida dvoryanlarning bu guruhi asta-sekin qirol qo'shinining oddiy xizmatkorlariga, rasmiy amaldor va saroyning mayda xodimlariga aylanib, o'z nufuzlarini yo'qota bordilar. XV asr oxirlarida boshlangan kapitalistik xo'jalik formasiga tomon burilish va birinchi darajali iste'mol bahosining tobora o'sib borishi mayda dvoryanlikni asta-sekin to'la xonavayronlikka olib keladi. Servantes davrida so'nggi parcha yeridan ham ajralib qashshoqlashgan idalgo ispan hayotining xarakterli vakiliga aylanib qolgan edi.

<sup>2</sup> **Dvoryanlar** (*ruscha*: – князь, podsho saroyida xizmat qiluvchi shaxs) – Rossiyada va ba'zi Yevropaning ba'zi davlatlarida feodalizm va kapitalizm davrlarida xizmat ko'rsatib, martaba orttirgan pomeschchik va mulkdorlar, ularning aslzodlaridan hamda podshohga xizmat ko'rsatib, martaba orttirgan amaldorlardan iborat hukmron, imtiyozli tabaqa; oqsuyaklar, zodagonlar.



saxtiyon<sup>1</sup> tufli kiysa, boshqa kunlarda xonaki dag'al movutdan<sup>2</sup> tikilgan kostyumda yurardi. Uning uyida yoshi qirqlardan oshgan ekonomka<sup>3</sup>, hali yigirmaga ham kirmagan qiz jiyani hamda qarib munkillab qolgan bir xizmatkor yashardi. Idalgoning o'zi ellik yoshlarga borib qolgan, juda ozg'in, eti suyagiga yopishib ketgan skelet nusxa bir zot edi. Shu qashshoqligiga qaramay, joni qattiq, chidam-bardoshi zo'r odam edi.

Don Kexana bo'sh vaqtini – darvoqe, kecha-kunduz bo'sh edi – ritsarlar<sup>4</sup> tavsif qilingan kitoblarni o'qib o'tkazardi. Shu mashg'ulotga tamom berilib ketib, u ovni, xo'jalik ishlarini yig'ishtirib qo'ydi. Uning mutolaaga ishqibozligi shu darajaga borib yetdiki, ritsarlar haqidagi kitoblarni olishga yerining kattagina qismini o'ylamay-netmay sotib yubordi.

«Huquq – nafsoniyatimga nisbatan siz qo'llagan adolat-sizlik mendagi odil haqiqatni shunchalik poymol qiladirkim, binobarin, men sizning nohaqligingizga haqli ravishda e'tiroz bildiraman...» yoki «...porloq yulduzlari bilan zoti ilohiy-ligingizni kamoli muqarrar etguvchi va sizning munosib ulug'-vorligingizga barcha izzat-ikromlarni ravo ko'rguvchi yetti qavat osmoni gumbaz...» singari romanlarda ko'p uchraydigan baland-parvoz sevgi maktublari va yakkama-yakka olishuvga tantanavor da'vatlar bizning idalgoga juda yoqardi. Bechora kabalero<sup>5</sup> bunday iboralarning ma'nosini bilib olishga tirishib tunlarni bedor o'tkazar, paydar-pay fikrlardan boshi gangib, ko'z o'ngini tuman bosardi. Ustiga-ustak sevib o'qiydigan romanlarida uchrayveradigan g'alati, g'ayritabiiy hollar ham bechorani dovdiratib qo'yardi. Chunonchi, mashhur ritsar Belyanisning o'zgalarga

---

<sup>1</sup> Saxtiyon (*forscha*; oshlangan echki terisi) – echki yoki qo'y terisini o'simlik moylari bilan oshlab tayyorlangan yumshoq charm.

<sup>2</sup> Movut – o'ng tomoni silliq jun yoki yarmi jun mato.

<sup>3</sup> Ekonomka (*ruscha*) – boshqalarning xo'jalik ishlarini boshqaruvchi xotin.

<sup>4</sup> Ritsar (*nemischa*: Ritter – otliq, chavandoz) – o'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropada yoshligidan jasorat, mardlik, burchga sadoqat, ayollarga nisbatan oliyjanoblik ruhida tarbiyalangan jangovar feodal.

<sup>5</sup> Kabalero (*ispancha*; timsol; otliq, ritsar) – X-XVI asrlarda Ispaniyada otliq askarlar sifatida harbiy xizmatni o'tagan asizodalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Keyinchalik esa ispan tilida gaplashadigan mamlakatlarda erkak kishiga nisbatan ishlatiladigan murojaat.

dahshatli zarbalar berib, o'zi benihoya qattiq shikastlanganligiga idalgoning aqli shoshardi, negaki bu ritsarni davolagan tabib-larning mahorat va karomatlari bo'lganda ham, baribir, uning yuzi va tanasi chandiq hamda dahshatli yamoqlar bilan qoplanib ketishi kerak edi. Vaholanki, romanda Belyanis har doim bejirim, navqiron, qilichdek yigit timsolida namoyon bo'lardi.

Darvoqe, shunday bo'lsa ham, don Kexana romanlardagi shavkatli qahramonlar kechirgan ajoyib-g'aroyib sarguzashtlar va ular ko'rsatgan jasoratlarga mahliyo bo'lib, o'zini tamomila unutardi. Roman qahramonlarining taqdiri uni ergashtirib ketardi, agarda muallif kitobning so'nggi sahifasida bu tuganmas voqeani kelgusi kitobda davom ettirmoqchi ekanini aytsa, uning sevinchi ichiga sig'masdi. Ko'pincha, bizning kabalero botirlikda angliyalik Palmerin<sup>1</sup> yoki galliyalik Amadis<sup>2</sup> zo'rmi degan masala ustida ruhoniy do'sti bilan uzoq-uzoq bahslashib qolardi. Don Kexana Amadis zo'r desa, ruhoniy Palmerin derdi; shu yerlik sartarosh – usta Nikolas esa Amadis bilan Palmerinning ikkovidan birortasi ham ritsar Febaning<sup>3</sup> oldida ip esholmaydi derdi, Nikolasning fikricha, Feba tantiq Amadisdan o'zining ma-

---

<sup>1</sup> «Angliyalik Palmerin» romani – «Galliyalik Amadis»ga taqlid qilib yozilgan kitoblardan biri. Palmerin – Angliya qiroli don Duerte (Eduard)ning o'g'li. U o'z ukasi, sipohlik timsoli Florian bilan birgalikda ma'shuqasi yo'lida hisobsiz qahramonliklar ko'rsatadi, qudratli jodugar Deliantni yengadi, sehrli orolga tushib qoladi va hokazo. «Angliyalik Palmerin»ning ko'p epizodlari ingliz solnomalari va solnomalaridan olinganligi bilan «Galliyalik Amadis» romanidan ajralib turadi.

<sup>2</sup> **Galliyalik Amadis** – Ispaniyada, ayniqsa, XVI asrda katta muvaffaqiyat qozongan ritsarlik romanining qahramoni. Bu romanning mazmuni butunlay fantaziya asoslangan. Ingliz malikasi Elezena o'g'il ko'radi. Benikoh tug'ilgan bolaning isnodiga chidolmay, ona uni dengizga uloqtiradi. Noma'lum ritsar uni qutarib, Shotlandiyaga olib ketadi. Amadis ulg'aygach, Lizuartning qizi, go'zallikda beqiyos Orianani sevib qoladi. Amadis uning muhabbatini qozonish uchun butun Yevropani kezadi, sirli, sehrli mamlakatlarga borib qoladi, haybatli pahlavonlar, jodugarlar, sehrgarlar bilan olishadi va minglarcha boshqa ajoyib jasoratlar ko'rsatadi. Roman Amadisning g'alabasi bilan tugaydi. Nihoyat, u ko'nglini band etgan go'zal qiz Orianaga uylanadi. Romanning hamma qahramonlari to'qima shaxslardir. U yoki bu hodisa-voqealarning qaysi mamlakatda sodir bo'layotganini anglab yetish qiyin. Ularning harakati qaysi asrga mansubligini bilish undan ham qiyin. Roman muallifi voqealarni tarixiy haqiqatga o'xshatib tasvirlashga intilmagan ham. Uning asosiy maqsadi – dovyurak, oliyanob, mehribon, shu bilan bir qatorda epchil, kuchli va sabotli jangchi bo'lgan haqiqiy ritsarni aks ettirishdan iborat edi.

<sup>3</sup> Feb – qadimgi yunon afsonlarida tasvirlangan quyosh va yorug'lik ma'budi.

tonati bilan ustun edi.

Oliyjanob idalgo asta-sekin o'qishga shunday berilib ketdiki, tongdan oqshomgacha, oqshomdan tonggacha kitobdan bosh ko'tarmaydigan bo'lib qoldi. U hamma ishini yig'ishtirib qo'ydi, deyarli uxlamasdi, ko'pincha, ovqat yeyishni ham unutib qo'yardi. Uning boshida ritsar kitoblaridan o'qigan turli bema'ni qissalar g'ujg'on o'ynardi, hatto o'ngida ham qonli janglar, ritsarlarning yakkama-yakka olishuvlari, oshiq-ma'shuqlarning uchrashuvlari, o'g'irlab ketishlar, yovuz jodugarlar va oliyjanob sehrgarlarni tasavvur qilib, alahlardi. U bora-bora rostni yolg'ondan mutlaqo farq qilolmay qoldi, uning nazarida, dunyoda shu qissalarda tasvirlangan voqealardan o'zga haqiqat yo'qday bo'lib qoldi. U turli romanlarning qahramonlari haqida shunday jo'shqin gaplar aytardiki, go'yo bu qahramonlar uning eng yaqin do'stlari va tanishlari edi.

U Sayd Rui Diasning oliyjanob, shavkatli ritsarligiga tan berardi-yu, lekin uning bir urishda ikki devni nimtalagan Zulfiqor degan ritsarga yetishiga yo'l bo'lsin, deb ilova qilardi. U Ronseval darasida<sup>1</sup> yengilmas Rolanddan g'olib kelgan Bernard de Karpioni ancha yuksak qo'yardi. U o'zining iltifotlilik va xushmuomalaligi bilan boshqa pahlavonlardan mutlaqo ajralib turuvchi Morgante polvon haqida ham juda yaxshi fikrda edi. Lekin Muhammadning oltin sanamini o'g'irlashda dong taratgan va son-sanoqsiz yo'l sarguzashtlarini boshdan kechirgan qahramon Montalbaniyalik Reynaldoni hammadan ko'p maqtardi.

Bechora idalgo to'rt devor ichidan chiqmay, tunlari uxlamay, nuqul kitob o'qiyverib, oxir-oqibat butunlay aqldan ozdi. Ana shunda jahonda hech qaysi telba-tentakning boshiga kelmagan xayol bizning kabalero miyasini chulg'ab oldi – u jahongashta ritsarlar safiga kirishni ham farz, ham qarz deb bildi. U, don Kexana, o'z shon-u shuhratini orttirish uchun ona yurti

---

<sup>1</sup> Ronseval darasidagi jang – Buyuk Karl ispan yurishidan qaytayotganda (778-yil) qo'shinining arergardi (arergard – harbiy yurishda asosiy kuchlardan keyinda boruvchi qismlar) Ronseval darasida to'satdan dushmanga to'qnashib qolib, deyarli butunlay qirib tashlangan. Bu jangda Karlning safdoshlaridan biri – Xruadland (Roland) halok bo'ladi. Bu voqea fransuz eposining mashhur «Roland haqida qo'shiq» asarida yoritiladi. Bernard de Karpio – o'rta asr ispan eposining afsonaviy qahramoni.

manfaatini ko'zlab qurollanmog'i, otga minib mojarolar ketidan el-yurt kezmog'i, alamzada xo'rlanganlar tarafini olib, yomonlarning ta'zirini bermog'i, poymol bo'lgan adolat, haqqoniyatni tiklamog'i lozim. Qalbida ko'rsatilajak jasorat va qahramonliklar orzusi jo'sh urgan idalgo o'z ahdi ustidan chiqishga shoshildi. U, avvalo, ota-bobolaridan qolgan chordoqning bir chetida ko'p yillar zanglab, chang bosib yotgan yarog'-aslahalarni topdi, tozaladi; ularni ko'zdan kechirarkan, dubulg'aning qubbador tepasigina qolganini ko'rib nihoyatda dili siyoh bo'ldi. Kamko'stini tuzatish uchun bor kashfiyotchilik iste'dodini ishga soldi. Kartondan sipar<sup>1</sup> bilan quloqchin<sup>2</sup> yasab, dubulg'asiga yopishtirdi. Oqibatda rostakamga o'xshagan dubulg'a yasashga muvaffaq bo'ldi. Endi dubulg'asining jangda bardosh bera olish-olmasligini sinab ko'rgisi kelib qoldi. Qilichini sug'urib, havoda o'ynatdi-da, dubulg'aga ikki marta tushirdi. Birinchi zarbadayoq dubulg'a bo'lak-bo'lak bo'lib, qilgan mehnati chippakka chiqdi. Idalgoning fig'oni oshdi. U yana ishga kirishib ketdi, lekin bu gal, dubulg'a pishiq bo'lsin deb, kartonning tagidan tunuka qo'ydi. Bu ehtiyotkorligidan ko'ngli taskin topdi, dubulg'asini ikkinchi marta sinab ko'rishni ortiqcha deb bildi. Endi sipari ustalik bilan yasalgan haqiqiy dubulg'asi borligidan ko'ngli taskin topdi.

Shundan keyin don Kexana otxonaga kirib, otini diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Bu ot qarib qovurg'alari sanalib qolgan kasalmand bir qirchang'i bo'lib, rostini aytganda, suv tashishgagina yarardi, xolos. Biroq kabaleromiz otining ko'rinishidan mamnun bo'lib, mening otimga na hazrati Iskandarning<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Sipar (*forscha*; qalqon; to'siq, g'ov) – qalqon, sovut; o'q, nayza, qilich va shu kabi qurollar zarbidan saqlanish uchun qo'llangan doira yoki biror boshqa shakldagi qadimiy aslaha; qalqon.

<sup>2</sup> Quloqchin – tushirib qo'yiladigan qalpoqlari bor issiq telpak.

<sup>3</sup> Aleksandr (Iskandar) (miloddan avvalgi 356 – miloddan avvalgi 323) – Sharq mamlakatlarida Iskandar Maqduniy, Iskandar, Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi. Qadimgi dunyo tarixidagi eng katta saltanatning asoschisi. Uning davlati Dunay daryosidan Hind daryosigacha bo'lgan.

Butsefali<sup>1</sup>, na Saydning uchqur Babeki<sup>2</sup> tenglasha oladi, degan qarorga keldi. Jangari otiga jarangdor va chiroyli nom topmoqchi bo'ldi, zeroki ovloq bir qishloqda yashovchi xo'jayini o'zining faqirona turmushini jahongashta ritsarning qaynoq faoliyati bilan almashtirar ekan, unda oti ham o'zining qishloqcha laqabini yangi, shuhratli va dabdabali nom bilan almashtirishi kerak-da, deb o'ylardi u. Ana shunday munosib nomni topishiga to'rt kun ketdi. Turli nomlarni o'ylab chiqaraverib, ularni taqqoslab, muhokama qilib, chamalab ko'raverib, rosa boshi qotdi. Nihoyat, Rosinant degan nom ma'qul bo'ldi. Bu nom unga jarangdor va balandparvoz nom bo'lib tuyuldi. Bundan tashqari, ana shu nom otning avval qanday ahvolda ekanligini ham anglatardi. Bu nom rocin (qirchang'i) va antes (sobiq) degan ikki so'zdan yasalgan bo'lib, «sobiq qirchang'i» ma'nosini anglatardi.

U otimga yaxshi laqab topganimdan keyin, endi o'zimga ham loyiq nom topishim kerak, degan qarorga keldi. O'ziga munosib bunday nomni o'ylayverib bir haftani o'tkazib yubordi, nihoyat xayoliga ajoyib fikr keldi: u o'zining oddiygina Kexana nomini xiylagina jarangdorroq ism bilan, ya'ni don Kixot deb o'zgartib qo'ya qoldi. Lekin shu paytda uning yodiga bir narsa tushib qoldi: dovyurak Amadis nomim bilan birga vatanimning nomi ham dovrug' solsin deb, hamisha o'zini shunchaki Amadis emas, balki galliyalik Amadis deb atagan. Don Kixot ham ana shu botir ritsardan o'rnak olib, bundan buyon o'zini «lamanchlik don Kixot» deb atashga qaror qildi. Endi ishlar joyida: uning kim va qayerlik ekanini hamma darhol payqab ololadi, endi uning ko'rsatgan jasoratlaridan ona vatanning shuhrati ortadi.

Nihoyat, yarog'-aslahasi tozalanib, dubulg'asi bilan sipari

---

<sup>1</sup> **Butsefal** – Makedoniya podshosi va qadimgi zamonning mashhur sarkardasi Buyuk Iskandarning ( miloddan avvalgi 356-323-yillar) oti. Butsefal jang suronidan hurkmas, naq dushman to'dasiga tashlanardi, u shiddati, dahshati va bardoshi bilan shuhrat qozongan ot. U qonli janglardan birida halok bo'lgunicha Iskandarga uzoq va sodiq xizmat qiladi. Iskandar o'z otini katta motam marosimi bilan dafn qiladi, uning qabri o'rmda butun bir shahar barpo etadi va shaharni Butsefaliya deb oti nomiga qo'yadi.

<sup>2</sup> **Saidning Babekasi** – qator romanslarda shuhrati kuylanadigan Sidning oti. Sidning oti Butsefal singari nihoyatda uchqur, kuchli va bardoshi bo'lgan. Mavrlar bilan bo'lgan janglarda u egasini bir necha bor xatardan saqlab qolgan.

tuzatilgach, qirchang'isiga yangi laqab topib, o'zi ham nomini o'zgartirgach, endi o'ziga ma'shuqa izlab topishdan boshqa ishi qolmadi, zeroki har qanday jahongashta ritsar ham ko'nglini band etgan ma'shuqasi bo'lmasa, u bargsiz va mevasiz bir daraxtday gap. Don Kixot o'ziga o'zi shunday dedi: «Basharti taqdir taqozosi bilan biror devga ro'para kelib qolgudek bo'lsam (jahongashta ritsarlar esa bunday hollarga ko'p uchraydilar), dastlabki olishuvdayoq uni ko'tarib yerga urib, shafqat tilashga majbur etsam, unda ritsarlar qonuniga ko'ra, men uni ma'shuqamning huzuriga yuborishim kerak. Shunda u qalbm xoqoni – nozanin malikaning oldiga kiradi-da, oyog'iga bosh urib, itoatkorona gap boshlaydi: «Men Malindraniya orolining podshohi, Karakulyambro degan dev bo'laman. Bahodir ritsar lamanchlik don Kixot meni jangda yengdi. U sizning huzuringizga kelib mehr-shafqat so'rashimni buyurdi, mening taqdirim siz janobi oliyalarining xohishlariga bog'liq ekan...» «O! – deb xitob qildi idalgo, – albatta, o'z ma'shuqamga ega bo'lishim kerak: yolg'iz uning o'zigina ritsarning mardligini munosib qadrlaydi. Shundayku-ya, lekin ma'shuqani qayerdan topsam ekan?» Don Kixot shunday dedi-yu, xomush xayolga cho'mdi. Nogahon miyasiga ajoyib bir fikr keldi. Qo'shni qishloqda yashaydigan Aldonsa Lorenzo degan ko'hlikkina dehqon qizi esiga tushdi. Ritsarimiz ma'shuqalikka shu qizni tanladi. O'sha qizga uning asl ismidan uncha farq qilmaydigan va ayni vaqtda birorta qirolicha yoki mashhur sinoraning<sup>1</sup> nomini eslatadigan nomni o'ylarkan, uni Tobosolik Dulsineya deb atashga ahd qildi, chunki qiz tobosolik edi-da. Don Kixotning nazarida, bu nom chiroyli, ohangdor va ayni vaqtda, yo'lida jasorat ko'rsatishi kerak bo'lgan zotga mutlaqo munosib nomday tuyuldi.

---

<sup>1</sup> Sinora – xonim, bonu (Italiyada).

## IKKINCHI BOB

### DON KIXOTNING BIRINCHI BOR O'Z MULKI- DAVLATIDA UZOQLASHIB SAFARGA CHIQQANI

Ana shu tayyorgarliklar ko'rib bo'lingach, don Kixot hayallamay uyini tark etish va ritsarlik sarguzashtlarini izlab safarga chiqishga ahd qildi. Uning nazarida, bunday ishda sustkashlik qilish insoniyat oldida zo'r gunoh qilgan bilan teng edi, axir, qanchadan qancha haqoratlanganlar intiqom olishga, qanchadan qancha haq-huquqidan mahrum qilinganlar himoyaga, qanchadan qancha mazlumlar ozodlikka muhtoj! Ajoyib yoz kunlaridan birida u hali tong otmay o'rnidan turdi, yarog'-aslahalarini taqdi, boshiga pachoq dubulg'asini kiyib, ko'k quloqchinini tortib bog'ladi. Rosinantga irg'ib mindi, qalqoni va nayzasini qo'liga olib, zo'r, sharafli ishga qadam qo'yanidan xursand bo'lib, molxonaning orqa eshigidan hech kimga bildirmay dalaga chiqdi. Lekin hali katta yo'lga chiqmasidan xayoliga shunday dahshatli fikr keldiki, uyga qaytishiga sal qoldi. Don Kixot qo'qqisidan o'ziga hali ritsarlik unvoni berilmaganini<sup>1</sup>, binobarin, ritsarlik qonunlariga muvofiq, ritsarlarning birortasi bilan ham jangga kirolmasligini va bunga jur'at eta olmasligini eslab qoldi. Unga ritsarlik unvoni berilganda ham, ritsarlik sohasida hali yangi ekanligini hamma darhol ko'rish uchun dastlab oq yarog'-aslaha taqib yurishi va qalqoniga belgi qo'ymasligi kerak edi. Don Kixot nima qilishini bilmay, bir joyda xiyla turib qoldi, lekin yo'lga tushishga bo'lgan kuchli ishtiyoqi uning ko'nglidagi bar-

---

<sup>1</sup> Ritsarlik unvoni berish – Servantes haqiqiy ritsarlikka o'tkazish marosimini katta maroq bilan masxara qiladi. Ritsarlik ravnaq topgan davrda (XI–XIII asrlar) bu marosim, ayniqsa, tantana va dabdaba bilan o'tkazilgan. Har bir ritsarlikka o'tuvchi odam unvon olishdan oldingi tunni qurol-yarog'larni qo'riqlab, cherkovda o'tkazishi lozim edi. Ertalab ibodat vaqtida bu qurol-yarog' tabarrukot qilinardi. Yangi ritsar uning ustida ritsarlikning hamma qonun va qoidalariga qat'iy amal qilajagiga tantanali va'da berardi. Keyin birorta dongdor va jangovar ishda chiniqqan ritsar chiqib, qo'liga qilich olar va u bilan unvon oluvchining chap yelkasiga uch marta urib: «Seni ritsarlikka o'tkazaman», – derdi. Shu bilan marosim ham tugardi. Ritsarlikka o'tuvchining beliga qilich osishib, oltin shporlar taqib qo'yishardi. U yerda hozir bo'lganlarning hammasi yangi ritsar sharafiga uyushtirilgan ziyofatga yo'l olishardi.

cha shubhalardan ustun keldi. U yo'lida uchragan birinchi ritsardan o'ziga ritsarlik unvoni berishini so'rashini ko'ngliga tugib oldi. Betinim o'qiyverish oqibatida idalgomizning ana shunday ayanchli ahvolga tushishiga sabab bo'lgan o'sha romanlar qahramonlarining ko'pchiligi noilojlikdan shunday qilgan edilar. Oq yarog'-aslahalariga kelganda, oq suvsardan<sup>1</sup> ham oppoq qilib boplab tozalab olaman deb so'z berdi o'ziga-o'zi. Shu gaplarni xayolidan o'tkazarkan, ko'ngli tinchidi, otning yuganini bo'sh qo'yganча yo'lida davom etdi: uning fikricha, jahongashta ritsar safarda ana shunday qilishi kerak edi.

Rosinant mayda-mayda qadam tashlab surgalib borar, demak, bizning kabalero ham xotirjam o'yga cho'msa bo'lardi.

– Jasoratlarimning bo'lajak tarixchisi dastlabki safarimni yozishga kirishganida, – derdi don Kixot o'z-o'ziga, – u o'zining qissasini: zar kokilli Feb beqiyos go'zal zarrin soch tolalarini yer yuziga endigina yoygan, sayroqi qushlar bir xil navo bilan endigina jamol ko'rsatib kelayotgan Avrorani olqishlay boshlagan subhidamda mashhur ritsar lamanchlik don Kixot o'zining ajoyib oti Rosinantga minib, qadimiy Montel vodiysi bo'ylab yo'lga tushdi, – deb boshlasa kerak.

So'ngra qo'shib qo'ydi:

– Nihoyat, mening shonli jasoratlarim sahifalarga bitilgan, rassomlar ijodida o'z aksini topgan, marmarlarda ifodalangan asar asarlar ichida eng baxtiyori bo'ladi. O, mening qahramonliklarimni bituvchi solnomachi, donishmand sehrgar, kim bo'lishingdan qat'i nazar, sendan so'raymanki, oliyjanob Rosinantimni unutma.

Keyin dilini band qilgan ma'shuqasini esladi:

– O, shaydo ko'nglimning xoqoni, dilrabo Dulsineya! Meni ostonangizdan quvib beqiyos chiroyingizdan bebahra etdingiz, diydoringizni ko'rsatishga maylingiz yo'qligini bildirib, o'z shafqatsizligingiz bilan meni bag'oyat ranjittingiz. Sizga bo'lgan muhabbati tufayli har qanday jafu-yu azob-uqubatlarga

---

<sup>1</sup> Suvsar – qimmatbaho, qalin va yumshoq mo'ynali yirtqich sutemizuvchilar oilasining bir turining mo'ynasi.



bardosh berishga tayyor sodiq ritsaringizni eslab qo'ysangiz bas, sinora!

Ana shunday hasrat va xayollar og'ushida xiyla vaqt o'tib ketdi. Don Kixot chang yo'ldan asta borardi. Quyosh allaqachon tepaga ko'tarilgandi, uning qaynoq nuri bechora ritsarning boshida qolgan ozgina miyasini ham eritib yuborgudek edi. U kun bo'yi yo'l bossa hamki, hech qanday g'aroyib hodisani uchratmadi. Bu uning fig'onini oshirib va zabardast bilaklari kuchini sinab ko'rishni istardi. Kechqurun uning o'zi ham, qirchang'isi ham ochlikdan naq o'layozdi. Don Kixot dam olib qorin to'y-g'azish mumkin bo'ladigan qal'a yoki cho'pon kapasini topish umidida tevarak-atrofga nazar tashladi. Umidi puchga chiqmadi: yo'ldan sal chetroqda qad ko'targan karvonsaroyga ko'zi tushdi; ritsarimiz Rosinantning biqiniga niqtab, qosh qoraya boshlaganda karvonsaroyga kirib bordi. Shuni unutmashimiz kerakki, sarguzasht izlovchimizning tasavvurida uning atrofini o'rab olgan hamma narsa aslicha emas, balki o'zi o'qigan sevimli ritsarlik romanlarida tasvirlanganidek sehrli edi. Shuning uchun ham karvonsaroyga ko'zi tushishi bilan uni to'rt minorali, noyob kumush tomli, ko'tarma ko'priki va tevaragi chuqur xandaqli qal'a deb o'yladi. U o'z tasavvuridagi ana shu qal'aga yaqinlasharkan, mana hozir qal'a minoralarining kunguralari<sup>1</sup> orasida birorta pak-pakana odam paydo bo'ladi-yu, karnay chalib ritsarning kelganini ma'lum qiladi, deb kutib, darvoza bir necha qadam qolganda Rosinantni to'xtatdi. Xuddi shu daqiqada allaqanday bir cho'chqaboqar cho'chqalarni bir joyga to'plash uchun burg'usini<sup>2</sup> chalib yubordi, don Kixot esa, pakana odam mening kelganimni xabar qilyapti, deb o'yladi.

Don Kixot qo'lidagi nayzasi bilan mehmonxona darvozasini taqillatdi, buni eshitib, g'oyat semiz, semizligidan juda yuvosh ko'ringan xo'jayin chiqib keldi. U g'alati qurollanib olgan bu alomat chavandozni ko'rib, sal bo'lmasa, qah-qah urib

<sup>1</sup> **Kungura** (*forscha*: devor yoki to'siqning dandanasi) – qal'a devorlari yoki imorat aylanisiga tishga o'xshatib ishlangan me'moriy bezak; dandana.

<sup>2</sup> **Burg'u** – karnay yoki sumay ahaklidagi qadimiy cholg'u asbobi. Odatda, bu cholg'u asbobi urush paytida chalinadi.

kulib yuboray dedi. Biroq yarog'-aslahalarni harbiychasiga taqib olgan don Kixotning haybatini ko'rarkan, ko'nglida unga hurmat tug'ilib, xushmuomalalik bilan dedi:

– Agar sizday iltifotli janob, sinor<sup>1</sup> ritsar, bu yerda qo'nishni lozim ko'rsalar, qulay ko'rpa-to'shakdan boshqa nimaiki xohlasalar, barini topadilar: mehmonxonamizda birorta ham bo'sh karavot yo'q.

Don Kixot qal'a boshlig'ining o'ziga ehtirom bilan qilayotgan muomalasini eshitib, javob berdi:

– Sinor qal'a xo'jasi, menga nimani loyiq ko'rsalar, hammasidan mamnun bo'laman, zotan, aytganlaridek:

*Libosimdir sovut qalqonim,  
Oromim-chi, qaynoq janglarda<sup>2</sup>.*

– Demak, siz muhtaram janoblari uchun qattiq tosh-to'shak, doimiy bedorlik uyqu ekan-da? Unday bo'lsa, marhamat qilib otdan tushsinlar, menda hamma zarur narsalarni topa olishlariga, xohlasalar, bir kechagina emas, butun bir yilni uyqusiz o'tkaza olishlariga ishonaversinlar.

Xo'jayin shunday deya uzangini ushlar ekan, don Kixot otdan zo'rg'a tushdi, chunki u kun bo'yi tuz totmagan edi.

Keyin u xo'jayindan Rosinantga alohida qarashni o'tinar-kan, arpa yeydigan jonivorlar orasida bu ot eng noyob ekanini ham uqtirib o'tdi. Xo'jayin Rosinantga bir qaradi-da, unda don Kixot aytganidek noyoblik ko'rmadi, lekin fikrini aytib qo'yishdan ehtiyot bo'lib, jilovidan ushlaganicha otxonaga yetaklab ketdi. Don Kixot esa yarog'-aslahalarini yecha boshladi. Bunday qiyin va murakkab ishda unga yetib kelgan ikki xizmatkor ayol yordam berishdi. Don Kixotning ularni qal'a bekalari, aslzoda xonimlar deb o'ylashi o'z-o'zidan ma'lum, albatta. Ular hamma-lari sovutni bir amallab olib qo'ydilar. Lekin dubulg'asi bo'yniga mahkam qilib bog'lab qo'yilgan ko'k tasmalar chigal bo'lib ket-

---

<sup>1</sup> Sinor – janob, muhtaram zot (Italiyada).

<sup>2</sup> She'rlarni Abdulla Oripov tarjima qilgan.

gani uchun ularni sira yechisholmadi. Tasmalarni qirqishdan boshqa iloj yo'q edi. Biroq don Kixot tun bo'yi dubulg'ada qiynalib chiqishni afzal bilib, bunga rozi bo'lmadi. Ayollar don Kixotning yarog'-aslahalarini yechishar ekan, u o'zining kelgusida ko'rsatgan jasoratlarini, ajoyib oti Rosinant haqida va nafosatli xonimlardan juda minnatdor bo'lganligi haqida og'iz ko'pirtirib vaysar, o'zi to'qigan quyidagi bema'ni she'rni berilib o'qirdi:

*Don Kixotning hajrida  
Kuygan kabi hech qachon  
Boshqa paladinni<sup>1</sup> deb  
Yonmagan parirolar.  
O'z elidan kelganga  
Yosh go'zallar xizmatda.  
Arg'umog'iga esa  
Qarashar grafinyalar<sup>2</sup>.*

Yo'rg'a deganim bu – Rosinant, ha, otimning nomi shunaqa, oliyhimmat sinoralar, o'zimning nomim esa lamanchlik don Kixot. To'g'ri, buyuk jasoratlarim bilan butun dunyoda shuhrat topgunimcha nomimni oshkor qilmoqchi emas edim, lekin uni sir saqlasam, siz sinoralarimga hurmatsizlik qilgan bo'lur edim. Ha, aytganday, sizlarga naqadar bajonidil xizmat qilish ishtiyoqida yonayotganimni mana shu zabardast qo'llarim ko'rsatib qo'yadigan vaqtga oz qoldi.

Xijolatda qolgan xizmatkor ayollar nima deb javob berishni bilmaganlaridan kamsuqumlik bilan indamay turishardi.

Bu orada otxonadan qaytib kelgan xo'jayin don Kixotdan ko'ngillari nima tusashini so'radi.

– Menga qolsa, yaxshilab tamaddi qilib olar edim, – deb

---

<sup>1</sup> **Paladin** – Dastlab Buyuk Karlning (VIII asr oxiri – IX asr boshlarida yashab hukmronlik qilgan) aslzoda yaqin kishilari paladin deb atalgan, ular imperator bilan uning saroyida birga yashaganlar (lotinchada saroyini – palatium deyilgan) va uni yurishlarda kuzatib borganlar. Keyinchalik har qanday aslzoda va shavkatli ritsarni paladin deb atashgan.

<sup>2</sup> **Grafinya (nemischa)** – ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi grafliklarda qirol nomidan hokimiyatni boshqargan mansabdor shaxsning xotini yoki bevasi.

javob berdi idalgo, – axir, kuchimga kuch qo‘shishim kerak-da.

Aksiga olib, bugun juma kuni bo‘lgani uchun mehmonxonada sho‘r baliqdan boshqa hech nima topilmadi.

Xo‘jayin don Kixotga qaynatilgan baliq, xuddi ritsarning yarog‘-aslahalariday qop-qora va mog‘orlab ketgan bir burda non keltirib berdi. Don Kixotning qanday mashaqqat bilan ovqatlanayotganini ko‘rgan kishi o‘zini kulgidan tiyishi amrimahol edi: og‘ziga qoshiqni olib boray desa, boshidagi dubulg‘a xalaqit berardi. Qo‘li labiga yetmagani uchun ovqatni og‘ziga biror kishi solib qo‘yishi kerak edi. Basharti xo‘jayin qamish naycha olib kelmaganida, tashnaligini qondirishning sira iloji yo‘q edi; u qamishning bir uchini don Kixotning og‘ziga solib, boshqa uchidan vino quya boshladi. Don Kixot dubulg‘aning bog‘ichini qirqib tashlamasalar bas, deb hammasiga bardosh berdi. Shu payt tasodifan karvonsaroyga kirib qolgan dehqon qamish sivizg‘asini chalib yubordi. Don Kixot allaqanday bir ajoyib qal‘aga kirib qolganiga, ziyofatda musiqa chalinayotganiga, sho‘r baliqning endigina pishirilgan xonbaliq, qora nonning – oq bulka, karvonsaroy egasining esa qal‘a xo‘jayini ekaniga ishonishi uchun shuning o‘zi kifoya edi. Shu sababli u o‘zining dastlabki safaridan bag‘oyat xursand edi. Uni faqat bir narsagina tashvishlantirardi – hali ritsarlik unvonini olmagan uchun uni istagan paytda qallob deb hamma yoqqa jar solishlari mumkin edi.

## UCHINCHI BOB

### ***DON KIXOTNING RITSARLIKKA O‘TISHI***

Shu o‘y-xayol bilan gangib qolgan don Kixot faqirona ovqatini tezroq yeb bo‘lib, o‘rnidan turdi, xo‘jayinni bir chekka-ga chaqirib, uni otxonaga boshlab kirdi-da, tiz cho‘kib yolvora boshladi:

– O, shavkatli ritsar, marhamatingiz bilan iltimosim bajo keltirilmaguncha o‘nimdan turmayman. Qiladigan iltimosim sizga shon-u shuhrat, inson zotiga baxt-saodat keltiradi.

Xo'jayin mehmonning tiz cho'kib turganini ko'rib, uning g'alati so'zlarini eshitarkan avvaliga dovdirab, don Kixotga angrayganicha qarab qoldi, u nima qilarini ham, nima deyarini ham bilmasdi. O'zini tutib olgandan keyin esa don Kixotdan o'rnidan turishni iltimos qilib, yalina boshladi. Lekin xo'jayin iltimosini bajo keltirishga so'z bermagunicha u o'rnidan turmadi.

– Cheksiz oliyjanobligingiz tufayli iltimosimni bajarishdan bosh tortmasligingizga imonim komil edi, sinor, – dedi don Kixot. – Men sizdan ertaga tongotarda menga ritsarlik unvoni berishingizni va marhamatingizdan meni bahramand etishingizni so'rayman. Men bugun qal'angizdagi ibodatxonada qurol tutib, tun bo'yi mijja qoqmay chiqaman. Tongotarda esa menga ritsarlik unvoni berish marosimini o'tkazasiz. Shundan keyin men, nihoyat, jahongashta ritsarlarning barcha haq-huquqlariga ega bo'laman-u, sarguzasht izlab yo'lga tushaman. Qurolim yer yuzida haqiqat va adolatning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi, chunki men mansub bo'lgan, shon-shuhrati olamga yoyilgan o'sha buyuk ritsarlik ordeni shuni taqozo etadi.

Don Kixotni savdoyi deb boya shubhalana boshlagan xo'jayin endi bunga to'la ishondi, uning telbaligidan miriqib ko'ngil ochish ilinjida qo'ltig'iga suv purkashga ahd qildi. Shuning uchun ham u don Kixotga javob berarkan, istak va iltimoslari g'oyat oqilona, o'zining mag'rurona qiyofasi, kelishgan qaddi-qomati va yurish-turishi oliyjanob ritsar bo'lishidan dalolat berishini hamda uning niyatlari bu unvoniga nihoyatda munosib ekanini aytdi. «Mening o'zim ham, – deb ilova qildi xo'jayin, – yoshligimda bu faxrli kasb bilan shug'ullanganman. Sarguzasht izlab butun Ispaniyani izg'iganman, Sevilya, Grenada, Kurdoba, Toledo va boshqa ko'pgina shaharlarda bo'lganman. Turli-tuman sho'xlik, to'polon, mushtlashishlarga aralashganman. Demakki, Ispaniyaning barcha sud va turmalarida o'ning qashqasiday tanilganman. Biroq mana endi yoshim qaytib, quyilib qoldim, mana shu qal'ada osoyishta umr kechirib, naslnasabi-yu unvoni qandayligidan qat'i nazar, jahongashta ritsarlarning hammasini o'z qal'amda ehtirom bilan kutib olaman, qo'limdan keladigan xizmatimni ulardan ayamayman. Bu ish-

larni faqat ularga bo'lgan buyuk muhabbatim tufayli hamda ko'rsatgan yaxshi munosabatim evaziga ularning o'z mol-mulklarini men bilan bo'lishishlarini shart qilib bajo keltiraman, albatta». Shundan keyin xo'jayin, qurol ko'tarib tunni bedor o'tkazish uchun saroyda ibodatxona yo'q, dedi. Biroq zarur bo'lib qolgan taqdirda shunday unvonga sazovor bo'lishdan oldingi tunni xohlagan joyda o'tkazish ritsarlik qonunlariga xilof emasligini o'ziga ma'lum ekanini aytdi, shuning uchun ham don Kixotning qal'a hovlisida bemalol qurol-yarog'ini qo'riqlab chiqishi mumkin ekanini, ertaga esa, xudo yor bo'lsa, unga hamma udumlarini, udumlar bo'lganda ham hali dunyoda hech kim bilmagan va ko'rmagan udumlarni o'rniga qo'yib, ritsarlik unvoni berilajagini aytdi.

Suhbat oxirida qovoqxona xo'jayini don Kixotning puli bor-yo'qligini surishtirdi. Don Kixot esa yonida bir miri ham yo'qligini, chunki o'qigan romanlarida jahongashta ritsarlarning o'zlari bilan pul olib yurganlarini uchratmaganini aytdi. Bunga xo'jayin don Kixotning yanglishayotganini aytib, e'tiroz bildirdi. Jahongashta ritsarlar yonlarida pul olib yurishlari kerakligi o'zo'zidan ma'lum bo'lgani uchungina bu haqda romanlarda hech narsa yozilmagan, dedi. Jahongashta ritsarlar, har ehtimolga qarshi, yonlarida liq to'la hamyongina emas, balki toza ko'ylaklar hamda yaralanganda surish uchun bir shisha shifobaxsh malham ham olib yurishlari zarurligi unga aniq manbalardan ma'lum ekan. Yaradorga birorta mitti qizaloqdan shishada mo'jizador mumiyo'i asl berib yuboradigan rahmdil sehrgarning yordamiga har gal ham umid bog'lab bo'lmaydi-ku, axir. Bunday paytlarda faqat o'zinggagina ishonganing ma'qul, boshqa odam kunningga yararmidi. Xo'jayin shunday deb, bundan buyon sira pulsiz va zarur narsalarsiz yo'lga tushmaslikni don Kixotga maslahat berdi. Bu narsalarning qanchalik asqatishini ritsarning o'zi sayohatda ko'rib bilib oladi.

Don Kixot uning maslahatiga to'la amal qilishga va'da berdi-da, unvon olishdan oldingi tunni mehmonxona hovlisida o'tkazishga hozirlik ko'ra boshladi. U o'zining yarog'-aslahalarini yig'ib, mollar suv ichadigan oxurga olib borib qo'ydi,

keyin nayza bilan qalqonini qo'liga olib, savlat to'kib oxur atrofida aylana boshladi. Don Kixot bu ishga kirishganda allaqachon qosh qoraygan edi.

Bu orada xo'jayin mehmonxonaga kirib, ijaradorlarga ritsarlik unvonini olish niyatida qurol ko'tarib yarog'-aslahalarini qo'riqlayotgan telba idalgo to'g'risida gapirib berdi. Bu g'alati, miyasi aynigan odamning kimligini bilishga qiziqib qolgan ijaradorlar tentakni ko'rish niyatida hovliga otildilar. Don Kixot mag'rurona qiyofada bir maromda qadam tashlab, u yoqdan bu yoqqa borib-kelib turardi. Ba'zan u yurishdan to'xtab, nayzasiga tayanganicha yarog'-aslahalariga uzoq tikilib qolardi. Sutdek oydinda ritsarlik unvonini olmoqchi bo'lgan qahramonimizning har bir harakati tomoshabinlarga olisdan yaqqol ko'rinib turardi.

Mehmonxonada tunab qolgan xachir haydovchilardan biri, baxtga qarshi, xachirlarini sug'ormoqchi bo'lmaganida-ku, tun tinch va osoyishta o'tardi, albatta. U hech narsadan shubhalanmay oxur tomon yo'l oldi. Uning odim sharpasini eshitgan don Kixot xitob qildi:

– Barcha jahongashta ritsarlar ichida eng shavkatli hisoblangan ritsarning yarog'-aslahalariga qo'l cho'zgan ey beadab ritsar, kim bo'lishingdan qat'i nazar, nima qilayotganingni avval o'ylab ko'r! Tega ko'rma ularga, yo'qsa bu beadabliging uchun rosa ta'ziringni yeysan.

Xachir haydovchi bunga parvo ham qilmadi. Oxurning yoniga keldi-da, yarog'-aslahalarni tasmaidan ushlab nariga uloqtirib yubordi. Buni ko'rgan don Kixot ko'zlarini ko'kka tikib, sinorasi Dulsineyaga fikran murojaat qilib shunday dedi:

– Siz band etgan shavkatli yuragiga sanchilgan birinchi haqorat tig'i jarohati evaziga qasos olish uchun menga madad bering, sinoram, birinchi sinovda o'z mehr-shafqatingizdan meni begona qilmang.

U shu so'zlarni aytarkan, qalqonini bir chekkaga qo'yib, nayzasini ikki qo'llab baland ko'targancha xachir haydovchini jon-jahdi bilan tushirgan edi, u o'zini bilmay yumalab qoldi. Don Kixot esa yarog'-aslahasini yig'ishtirib olib, yana oxurga qo'ydi-da, hech narsa yuz bermaganday, pinagini buzmay, bamaylixotir

oxur atrofida aylana boshladi. Bir necha daqiqadan keyin ikkinchi xachir haydovchi chiqib keldi. Oshnasining boshiga tushgan ayanchli ahvoldan bexabar bu ham badbaxt yarog'-aslahalarni oxurdan olib tashlamoqchi bo'ldi. Biroq don Kixot uni ham ogohlantirdi. U bir og'iz ham so'z qotmay, shartta nayzasini ko'tarib xachir haydovchining boshiga tushirdiki, u sho'ring qurg'ur ham «gurs» etib yerga yiqildi. Shovqinni eshitgan mehmonxonadagilar xo'jayin boshchiligida yugurib yetib kelishdi. Ularga ko'zi tushgan zahoti don Kixot qalqonini qo'liga oldi-da, qilichini qinidan sug'urib, xitob qildi:

– O, qalbimning xoqoni, yuragimning tayanchi, go'zallarining go'zali! Ishqingda buyuk jangga kirayotgan ritsaringga kamol e'tiboring bilan bir nigoh tashlaydigan fursat keldi.

Duoday yangrab ketgan bu so'zlar idalgomizning qalbida shunday mardlikni qo'zg'atib yubordiki, butun dunyodagi xachir haydovchilar birgalashib hujum qilganlarida ham, u chekinmasdi. Yaralanganlarning o'rtoqlari uzoqdan otayotgan toshbo'roni ostida u qimir etmay turardi; qo'lidagi qalqoni bilan o'zini himoya qilardi-yu, yarog'-aslaha turgan oxur yonidan bir qadam ham jilmasdi. Hovlida shovqin-suron ko'tarildi. Xachir haydovchilar baqirib-chaqirishar, so'kinishardi. Esxonasi chiqib ketgan xo'jayin ularga janjalni bas qilinglar, deb yalinardi. Don Kixot esa tovushining boricha do'q urardi:

– Ey, razil, pastkash qullar! Men sizlardan jirkanaman! Mayli, toshbo'ron qilaveringlar, bostirib kelaveringar, hamla qilaveringlar! Bu surbetlik va ahmoqchiliklaring uchun hozir jazolaringni tortasanlar.

Don Kixotning bu xitobida shu qadar ko'p jasorat va g'azab yangrab turardiki, bundan hujum qiluvchilarning o'takasi yorilayozdi. Ular asta-sekin tinchlanib, tosh otmay qo'ydilar. Shundan keyin don Kixot yaradorlarni olib ketishlariga rozilik berdi, yarog'-aslahalarini yana boyagiday viqor va xotirjamlik bilan muhofaza qila boshladi.

Biroq sodir bo'lgan mojaro xo'jayinga yoqmasdi va yangi falokat yana yuz bermasdan oldin u tezlikda mehmonni savil qolgur ritsarlik ordeniga o'tkazib qo'ya qolishga ahd qildi. U eh-



tiron bilan don Kixotga yaqinlashib shunday dedi:

– Bu behayo malaylardan g‘azablanmang, muhtaram janob! Sizga va‘da berib aytamanki, ular bu beadabgarchiliklariga yarasha ibrat bo‘larli jazolarini oladilar. Xo‘sh, endi muqaddas udumni bajo keltirish vaqti yetmadimikan? Odatda, yarog‘-aslahani qo‘riqlash ikki soatdan oshmasligi kerak, siz esa muhofazani to‘rt soat davom ettirdingiz. Qasrimda ibodatxona yo‘qligini sizga boya ma‘lum qilgan edim. Biroq busiz ham ishni bitkazishga jazm qilsak bo‘laveradi. Unvon berishning asosiy taomili gardanga musht tushirish-u, qilich bilan chap yelkaga urishdan iborat. Buni esa ochiq maydonda o‘rinlatsa ham bo‘ladi. Shunday ekan, g‘animat vaqtini qo‘ldan bermaylik.

Ritsarimiz xo‘jayinning so‘ziga laqmalik bilan ishonib, uning amriga itoat etishga tayyor ekanini aytdi.

– Sizdan faqat bir narsani iltimos qilaman, – deb qo‘shib qo‘ydi u, – bu muqaddas udumni tezroq amalga oshiring. Nega desangiz, unvon olganimdan keyin menga biron kimsa hujum qilgudek bo‘lsa, qasrda biror tirik jon zotini qoldirmayman. Muhtaram qal‘a sohibi, sizga bo‘lgan hurmatim tufayli, kimni o‘z himoyangizga olsangiz, o‘shanga shafqat qilaman, xolos.

Ritsarning yuqoridagi so‘zlari xo‘jayinning bu beorom mehmondan tezroq qutulish ishtiyoqini yanada kuchaytirdi.

Farosatli, hozirjavob va epchil bu odam o‘sha zahotiy oq xachir haydovchilarga berilgan arpa va somonning miqdori yozib boriladigan qalin daftarini olib chiqdi-yu, ikki xizmatkor ayol bilan yonib turgan shamni ko‘tarib kelayotgan bola kuzatuvida don Kixotning yoniga bordi, unga tiz cho‘kishni buyurdi, o‘zini qalin daftardan qandaydir duoni o‘qiyotgan kishi qilib ko‘rsatib, qulochkashlab turib ritsarimizning yelkasiga musht tushirdi, so‘ngra allanimalarni pichirlab don Kixotning yelkasiga uning o‘z qilichi bilan urib qo‘ydi. Shundan keyin xizmatkor ayollardan biriga qilichni don Kixotning beliga bog‘lashni buyurdi. Buni xizmatkor ayol juda chaqqonlik bilan bajardi. To‘g‘ri, ayolning kulgidan ichagi uzilayozdi, lekin ko‘zi oldida boya ritsarimizning ko‘rsatgan jasorati kulgisini tiyishga majbur etdi. Xushaxloq sinora don Kixotning belbog‘iga qilichini bog‘lar ekan:

– Muhtaram janobning ritsarlik ishlari va janglarda muvaffaqiyat qozonishiga xudoning o‘zi yor bo‘lsin, – dedi.

Don Kixot bu lutf-ehson uchun o‘z bilak kuchi-la erishadigan shon-shuhratini vaqti kelib qaysi xonim bilan baham ko‘rish kerakligini bilish ishtiyoqida bu ayolning ismini so‘radi. U kamoli muloyimlik bilan javob berib, ismi Tolosa, o‘zi toledolik yamoqchining qizi ekanini hamda don Kixotga hamisha sodiq qul bo‘lib qolishga tayyor ekanini aytdi. Don Kixot unga bo‘lgan muhabbati tufayli bundan buyon o‘zini donya Tolosa deb atashini qizdan iltimos qildi. Qiz uning iltimosini bajo keltirishga va‘da berdi. Shundan keyin boshqa xonim don Kixotning oyog‘iga shporlarini<sup>1</sup> taqib qo‘ydi. So‘ngra don Kixot boya belbog‘iga qilich taqib qo‘ygan ayol bilan qanday gaplashgan bo‘lsa, bu ayol bilan ham shu xilda gaplashdi. Ayolning ismini so‘radi, ayol ismi Molinera, o‘zi antekeralik halol tegirmonchining qizi ekanini aytdi; don Kixot ismi oldiga donya so‘zini qo‘shishni undan iltimos qilarkan, uni behisob minnatdorchilikka ko‘mib yubordi. Bu tantanali marosim tamom bo‘lganidan keyin don Kixot otga minishga oshiqdi: chunki sarguzasht izlab yo‘lga tushishga sabri chidamasdi. U Rosinantni egarlab, unga bir sakrab minib oldi-da, xo‘jayinga shunday ajoyib va g‘aroyib ifodalar bilan tashakkur izhor qildiki, buni so‘z bilan ta‘riflab berishning sira iloji yo‘q. Nihoyat, ritsardan qutulganidan xursand bo‘lgan xo‘jayin don Kixotga qisqa-qisqa, ammo dabdabali so‘zlar bilan javob qaytarib, tunaganiga ham bir tiyin haq olmay, uni iliq-issig‘ida sog‘-salomat kuzatib qo‘ydi.

---

<sup>1</sup> Shpor – otliqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki.

**RITSARIMIZNING MEHMONXONADAN JO'NAB  
KETGANDAN KEYINGI KECHIRGAN  
SARGUZASHTLARI**

Don Kixot mehmonxonadan yo'lga chiqqanida tong ota boshlagan edi. Mehmonxona egasining pul, kiyim-kechak va boshqa narsalar haqidagi gaplarini eslab, u, eng avvalo, barcha zarur buyumlarni taxt qilib olish va o'ziga qurolbardor<sup>1</sup> topish uchun uyiga qaytishga ixtiyor qildi va Rosinantni o'z qishlog'i tomon burdi. Rosinant ham go'yo egasining istagini tushunganday, bajonidil yelib ketdi, go'yo tuyoqlari yerga tegmay uchdi.

Biroq ritsarimiz bir necha qadam yo'l yurmasdanoq o'rmonzordan mungli ingragan tovush eshilib qoldi. Don Kixot Rosinantning jilovidan tortib, xitob qildi:

– Xudoning marhamatiga shukr! Mana, nihoyat men ritsarlik burchimni ado etish va oliyjanob niyatimning mevasini totish sharafiga muyassar bo'layotirman. Bu nola chekayotgan mening himoyam va ko'magimga muhtoj biror baxtiqaro odam bo'lsa kerak.

Don Kixot Rosinantning jilovini burib, nola eshitalayotgan tomonga shoshildi. U hali o'rmonzorga kirmasdanoq shunday manzaraga ko'zi tushdi: davangirday bir dehqon beligacha

---

<sup>1</sup> **Qurolbardor** – qurolbardorlik kasbi past ish emas edi. U xizmatkor bo'lmay, balki ritsaming jangovar yordamchisidir. Qadimiy va badavlat dvoryan oilalariga mansub bo'lgan o'spirinlar o'z qahramonliklari bilan shuhrat qozongan ritsarlarga jon deb qurolbardor bo'lganlar. Bunday mashhur ritsarga qurolbardorlik qilish yaxshigina harbiy maktab hisoblangan. Bundan tashqari, ritsar homiyligida saroydan e'tiborli tanishlar orttirishga, yuqori mansablarga ko'tarilishga umid qilish mumkin edi. Lekin eng muhimi – qurolbardor bo'lish ritsarlik unvonini olishda birdan bir to'g'ri yo'l edi. Qurolbardorlar maosh olishmasdi. Ammo odatda ritsar qo'lga kiritgan o'z harbiy o'ljalardan unga ma'lum ulush ajratib va sovg'alar berib turardi. Ritsar biror e'tiborli lavozimga ko'tarilar ekan, hech qachon o'z qurolbardorini esdan chiqarmas va uning mumkin qadar yaxshiroq ishga joylashib olishiga yordamlashardi. Chin ritsarlik qoidalariga asosan oddiy dehqon ayol Aldonsa Lorenzo iffatli xonim roliga qanchalik mos kelmasa, Sancho ham qurolbardorlikka xuddi shunchalik mos kelmasdi.

yalang'ochlab tashlangan o'n besh yoshlar chamasidagi bolani daraxtga bog'lab, yo'g'on tasma bilan savalayotgan edi. Bola o'zini qo'yarga joy topolmay dodlar, dehqon esa:

– Qilg'iliqni qilib qo'yib, endi nega dodlaysan! – derdi sovuqqonlik bilan.

– Endi sira bunday qilmayman, sinor! – deb javob berdi hiqillab bola. – Rost, endi sira bunday qilmayman! Endi podaga yaxshi qarayman.

Buni ko'rib don Kixot g'azab bilan xitob qildi:

– Ey, yaramas ritsar, o'zini himoya qilolmaydigan ojizlarga hujum qilish uyat, bu qilmishingizning naqadar pastkashlik ekanini hozir men sizga amalda isbotlab beraman!

Tish-tirnog'igacha qurollangan, nayzasini naq burni tagida o'ynatib turgan otliqni ko'rgan dehqon, endi kunim bitibdi, deb o'yladi-da, titrab-qaqshab javob berdi:

– Sinor ritsar, bu bola mening cho'ponim, u shunday yalqov va anqovki, deyarli har kuni bir qo'y yo'qotmasa, iloji yo'q. Uni shuning uchun jazolayotirman, u esa haq jazolanish alam qilayotganidan shunday qilyapti, deydi.

– Boshimizdan nur sochayotgan quyosh haqqi, qasamyod etamanki, naq ko'ksingga nayza sanchaman! Bechorani qo'yib yubor va hoziroq uning ish haqini bir chaqasini ham qoldirmay ber. Yo'qsa bir zarba bilan turgan joyingda masalangni hal qilaman! Hoziroq yechib yubor uni.

Qo'rqib ketgan dehqon lom-mim demay bolani daraxtdan yechib yubordi. Don Kixot boladan xo'jayinning qancha qarzdorligini so'radi. Bola oyiga yetti realdan<sup>1</sup>, to'qqiz oylik maosh qarzdor ekanini aytdi. Don Kixot hisoblasa, jami oltmish uch real ekan, shundan keyin xo'jayinga, yo bolaning haqini hoziroq to'la, yoki u dunyoga jo'naysan, dedi. Dehqon yuragi chiqib ketganidan g'o'ldirab qolib, bu puldan bolaga olib bergan uch juft boshmoq bilan kasal bo'lganida ikki marta qon quydirib to'lagan bir realni olib qolishim kerak, deb javob berdi.

– Xo'sh, mayli, shunday deylik, – dedi don Kixot. – Lekin

<sup>1</sup> Real (real le plata) – to'rt kuartodan iborat, 20 tiyinga yaqin tanga.

uni kaltaklab, etikning ham, qon quyishning ham haqini undirib oldingiz. Chunki u sotib olib berganingiz charm boshmoqni yirtgan bo'lsa, siz uning naq terisini shilib oldingiz. U kasal bo'lganida satarosh unga qon quygan bo'lsa, sog' paytida siz uning qonini to'kyapsiz. Demak, orangiz ochiq.

– So'zlargizga tamomila qo'shilaman, sinor ritsar, biroq hamma balo shundaki, yonimda pul yo'q.

– Mayli, Andres men bilan birga qishloqqa borsin, bir realini ham qoldirmay hamma pulini beraman!

– Men u bilan birga borarkanmanmi? – xitob qildi bola. – Sirayam bormayman, sinor! Buni hatto xayolimga ham keltirmayman. Ikkalamiz yolg'iz qoldik deguncha, u terimni shilib oladi.

– Bunday qilmaydi, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – men amr qildimmi, demak, amrimni bajaradi. U, o'zi mansub bo'lgan ritsarlik ordeni haqqi, qasamyod etsa bas, uni qo'yib yuboraman va haqingni berishiga ishonaman.

– Gapingizni o'ylab gapiryapsizmi, muhtaram sinor! – xitob qildi bola. – Xo'jayinim ritsar ham emas, hech qanday ritsarlik ordeniga yozilgan ham emas, axir, u Kintanar qishlog'ilik Xuan Aldudo degan boy-ku.

– Buning ahamiyati yo'q, – deb javob berdi don Kixot, – Aldudo ham ritsar bo'la olishi mumkin. Har qaysimiz ham xayrli ishlarga qodir o'g'lonlarmiz.

– Xo'jayinim xizmat haqimni to'lashdan bosh tortib turibdi-yu, xayrli ish qilarkanmi? – dedi bola.

– Bosh tortayotganim yo'q, o'g'lim, Andres, – dedi dehqon. – Men bilan yur. Dunyodagi bor jamiki ritsarlik ordenlari haqqi, qasamyod etamanki, bir realini ham qoldirmay, yana yangi pul bilan hamma haqingni to'layman.

– Eskisi bilan to'lashingizga ham ruxsat etaman, – dedi don Kixot. – Oddiy reallarning o'zi ham kifoya. Lekin bilib qo'ying, so'zingizning uddasidan chiqsangiz, chiqqaningiz; chiqmasangiz, qasamyod etamanki, qattiq jazolanasiz: kaltakesakday kovak-kovakka yashirinib olsangiz ham, baribir, topib olaman. Sizga bundoq buyruq berayotgan kishini bilmoqchi bo'l-

sangiz, tanib oling: men dilozor va adolatsiz kimsalardan qasos oluvchi shavkatli lamanchlik don Kixot bo'laman.

U shunday dedi-da, Rosinantga qamchi bosib jo'nab ketdi. Dehqon ritsarning o'rmonzor ichkarisiga kirib ketishini kutib turdi-da, keyin Andresga qarab:

– Qani beriroq kel-chi, o'g'lim, haligi dilozorlardan qasos oluvchining buyrug'ini bajo keltirib, senga qarzlarimni to'lab qo'yay, – dedi.

– Rostini aytsam, – dedi Andres, – siz, muhtaram janob, o'sha mehribon ritsarning buyrug'ini ado etsangiz, juda yaxshi qilgan bo'lasiz. Jasorati va odilligi uchun unga xudo ming yil umr bersin!

– Men seni g'oyat yaxshi ko'rganimdan, – deb javob berdi xo'jayin, – xizmat haqingni ko'paytirib berish uchun hozir qarzimni yanada ko'paytiraman.

Shunday deb bolani qo'lidan ushlab oldi-da, yana dub daraxtiga bog'lab, chalajon qilib savaladi.

– Xo'sh, qalay, sinor Andres, – dedi xo'jayin, – ana endi bemalol himoyachingizni qidiravering. Ha, aytganday, men sizni, aftidan, uncha xafa qilmadim, shekilli. Aslida, butun teringizni juda-juda shilib olgim kelib turibdi.

Shundan keyin dehqon bolani yechib yubordi-da, bor, o'sha valine'matingni izlab top, deb maslahat berdi. Andres yum-yum yig'lagancha ritsarni topib, hamma gapni aytib beraman, deb surgalib o'rmon ichkarisiga kirib ketdi, xo'jayin esa mazax qilib kulgancha uning ortidan qarab qoldi.

Don Kixotning bolaning tarafini olgani mana shunday oqibatga olib keldi.

Vaholanki, ritsarimiz nazarida o'z ritsarlik jasoratiga ajoyib asos solganday bo'lgan edi. U ana shu sarguzashtdan to'la qanoatlanib, pichirlagancha yo'lida osoyishta davom etdi:

– O, go'zal Tobosolik Dulsineya, sen o'zingni hozir yer yuzida yashab turgan barcha ayollar orasida eng baxtiyori hisoblashing mumkin. O, go'zallar go'zali! Taqdir senga lamanchlik don Kixotdek jasur va shavkatli ritsarga xuddi itoatkor qulingday amr qilmoqni baxsh etdi. Kechagina ritsarlik unvoniga ega bo'l-

ganiga qaramay, bugunning o'zidayoq uning dilozor va adolat-sizdan qasos olganidan butun dunyo xabardor. U hali ona suti og'zidan ketmagan norasida bolani azoblayotgan bir vijdotsiz yovuzning qo'lidan darrani tortib oldi.

Ko'p o'tmay u ikki yo'l kesishgan chorrahaga yetib keldi. Uningdek jahongashta ritsarlar odatda chorrahaga kelganlarida qaysi yo'ldan borishni o'ylab biroz to'xtab qolishlari yodiga tushib, ularga taqlidan don Kixot ham xuddi qay tomonga yurishini bilmayotganday bir necha daqiqa turib qoldi. Keyin yo'l tanlashni Rosinantning o'ziga qo'yib berdi. Rosinant otxonaga olib boradigan yo'lni tanladi, albatta, binobarin, don Kixot ham ona qishlog'iga ravona bo'ldi. Ikki milcha<sup>1</sup> yo'l bosganidan keyin olisidan kelayotgan otliqlar to'dasiga ko'zi tushdi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ular ipak xarid qilish uchun Mursiyaga ketayotgan toledolik savdogarlar ekan. Savdogarlar olti kishi bo'lib, to'rt otliq xizmatkor va uch piyoda xachir haydovchilar kuza-tuvida soyabon tutib borayotgan edilar. Shu zahotiy oq don Kixotning xayoliga, mana hozir ajoyib bir mojar o sodir bo'ladi, degan o'y keldi. Shuning uchun ham egarga o'rnashib oq o'tirdida, nayzasini mahkam ushlab, qalqon bilan ko'kragini to'sgan-cha yo'lning o'rtasida turib olib, o'zi jahongashta ritsarlar deb tasavvur qilgan savdogarlarning yaqinlashuvini mag'rurona va mardona qiyofada kuta boshladi. Ular yaqinlashib kelgandan keyin esa ovozin balandlatib, mutakabbirlik bilan dedi:

– Dunyoda beqiyos Tobosolik Dulsineyadan ko'ra go'zal-roq qiz yo'qligini tan olmaganlaringizcha, orangizdan biror-tangiz ham oldinga bir qadam siljiyolmaysiz!

Savdogarlar bu so'zlarni eshitib to'xtashdi. Ular bu notanish kishining g'alati gaplari va ajabtovur kiyimidan qarshilarida telba bir kimsa turganini darhol fahmladilar. Don Kixotning qattiq talabi ularga g'alati tuyuldi, oralaridan hazilkash va quvnoq bir odam shunday deb javob berdi:

– Sinor ritsar, siz tilga olgan o'sha ajoyib sinorani biz tani-

---

<sup>1</sup> Mil, milya – Suvda 1 mil 1,8 kilometrga, quruqlikda esa 1 mil 1,6 kilometrga teng uzunlik o'lchovi birligi.

maymiz. Uni bizga bir ko'rsatsangiz, agar u siz aytganday chindan ham juda chiroyli bo'lsa, unda mayli, talabingizni bajonidil ado etamiz.

– So'zlarimning chindan rostligiga ishonmoq uchun, – dedi don Kixot, – uni o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz shart emas! Sizdan malikamni ko'rmay turib ham, gapimning haq ekanligini tasdiqlashingizni va buni tan olishingizni talab qilaman, aks holda hammangizni jangga chaqiraman. Yo ritsarlik qonunlariga muvofiq, navbatma-navbat yo hammangiz bir yo'la maydonga chiqavering. O'zimning beshak haqligimga imonim komilki, men hammangizga barobar kelishga qodirman.

– Sinor ritsar, – deb javob berdi savdogar, – biz sira eshitmagan va hech qachon ko'rmagan narsamizni to'g'ri deb gunoh qilib qo'yishdan qo'rqamiz. Shuning uchun ham men o'z hamrohlarim bo'lgan mana shu sinorlar nomidan siz muhtaram zotdan o'tinib so'raymanki, bizga o'sha sinoraning birorta suratini ko'rsating. Basharti xonimingizning bir ko'zi g'ilay bo'lsa ham mayli, suratini ko'rgach, istagingizga qarab uni go'zallarning go'zali deb tan olamiz, shunda tilagingizga yetib, ko'nglingiz joyiga tushadi.

Don Kixot achchiqlanganidan o'dag'aylab yubordi:

– Go'zallikda beqiyos malikam sha'niga aytayotgan haqoratli so'zlaringiz uchun mendan osonlik bilan qutulolmaysiz!..

U shunday deb nayzasini o'qtalgancha darg'azab bo'lib suhbatdoshi ustiga ot qo'ydi. Bu beadab savdogarning baxtiga Rosinant toshga qoqilib ketmaganida, uning abjag'i chiqardi. Rosinant yiqilib, don Kixot ancha nariga uchib tushdi. U jonjahdi bilan o'midan turishga urinar, nayzasi, qalqoni, oyog'idagi shporlari, dubulg'asi bilan eskirib ketgan og'ir yarog'-aslahalari bunga xalaqit berardi. Yotgan joyda behuda tipirchilarkan:

– Qochmanglar, ey, nomardlar, muttahamlar, shoshmalar! Yiqilishimga men emas, otim aybdor! – deb qichqirardi.

Aftidan, sirkasi suv ko'tarmaydigan bag'ritosh bo'lsa kerak, xachir haydovchilardan biri bu haqoratlarga chidayolmay, ritsarning adabini berib, qovurg'asini sanab qo'ymoqchi bo'ldi. U don Kixotning oldiga yugurib bordi, qo'lidan nayzasini tortib



olib, bo'lak-bo'lak qilib tashladi-da, bir bo'lagi bilan ritsarimizni savalashga tushdi, qalqon-u sovuti qattiq bo'lsa ham, uni bir qop bug'doyday tuyib tashladi. Savdogarlar shuncha hay-haylashsa ham, baribir, xachir haydovchi jahlidan tushmadi. Yerda yotgan nayza bo'laklarini bitta-bitta olib, u kukun bo'lib ketgunicha yer tishlab yotgan ritsarni savalayverdi. Ritsar ham boshiga yog'iyotgan kaltak zarbiga qaramay, hamon baqirar, osmon-u zaminga va o'zi qaroqchilar deb o'ylagan kishilarga qarab do'q urardi.

Nihoyat, xachir haydovchi charchab, sho'rlikni kaltaklashni bas qildi; savdogarlar yana yo'lga tushishdi; ularga ermak topildi, to manzilga yetguncha kaltaklangan sho'rlik ritsar haqida chaqchaqlashib boradigan bo'ldilar. Dushmanlari ketib qolganini ko'rgan don Kixot yana o'rnidan turishga urinib ko'rdi. Biroq xachir haydovchi uni chalajon qilib tashlagan edi, sho'rlik idalga hatto barmoqlarini ham qimirlata olmadi. Lekin shunda ham umidsizlanmadi; u jahongashta ritsarlar boshiga bunday falokatlar ko'p tushishini, bu bilan o'zining shubratiga hech qanday putur yetmaganini, bu baxtsizlikka oti sababchi bo'lganini bilardi.

## *BESHINCHI BOB*

### **RITSARIMIZNING UYGA QAYTIB KELGANI**

Ritsarimiz qimirlashga ham holi qolmaganiga qanoat hosil qilganidan keyin, odaticha, o'zini yupatishga – romanlardan bugungiga o'xshaydigan bironta voqeani eslashga harakat qilib ko'rdi. Shu ondayoq telbanamo tasavvurida kimsasiz tog'lar orasida yolg'iz tashlab ketilgan yarador Balduin gavdalandi. Don Kixotga ana shu ritsarning chekkan nola-yu fig'oni o'zining hozirgi ayanchli holiga tamoman mos keladigandek tuyuldi, shuning uchun ham idalgomiz o'zi tasavvur qilib yurgan xonimni zo'r his bilan o'z huzuriga chorlay boshladi:

*O sinoram, huzurimga kel,  
Qayg'um arit, boqib bir qiyo!  
Yoki bundan yo'qmi xabaring,  
Menga rahming kelmaydimi yo?!*

Lekin u:

*O, Mantuan hukmdori sen,  
Tog'ajonim, qiblagohimsan, –*

satrlarini aytib bo'lmasdanoq joniga taqdir ora kirdi. Yo'lda don Kixotning hamqishlog'i bo'lgan bir dehqon ko'rindi. U tegirmondan kelayotgan edi; tuproqqa qorishib yerda cho'zilib yotgan odamni ko'rib, oldiga keldi-da, unga nima bo'lganini, nega bunday mungli ingrayotganini so'radi.

Don Kixot tepasidagi dehqonni amakisi Mantuanlik Markiz deb o'yladi, shekilli, savollariga javob bermay, ritsar Balduinning boshiga tushgan baxtsizliklar kuylangan romansni<sup>2</sup> hadeb takrorlayverdi.

Dehqon bundan juda hayratda qoldi. U tayoq zarbidan qayrilib ketgan siparni shosha-pisha ortga surarkan, o'ziga tanish chehraga ko'zi tushdi.

– Sinor Kexana, – dedi u, – sizga kim bunaqa ozor berdi?

Bu soddadil odam sho'rlik ritsarning yaralangan-yaralanmaganini ko'rish uchun uning ko'krak va orqa siparini olib tashladi. Na biron jarohat, na qonagan joy ko'rindi. Shundan keyin u don Kixotni dast ko'tarib, zo'rg'a eshagiga o'tqazdi, chunki eshakda bu sho'rlik uncha qiynalmaydi, deb o'yladi. Dehqon sho'ring qurg'ur idalgoni qulayroq o'tqazib qo'ygach, uning yarog'-aslahalarini yig'ishtirib olib, Rosinantning egariga bog'ladi, keyin ot bilan eshakning jilovidan ushlab oldi-da, indamay qishloqqa jo'nadi. Don Kixot ham indamas va o'ychan ko'ri-nardi. Xachir haydovchi uni shu qadar boplab kaltaklaganidan

<sup>1</sup> Mantuanlik Markiz va jiyani ritsar Balduin haqidagi qadimiy romans Ispaniyada tildan tilga o'tib yurardi.

<sup>2</sup> Romans – ashulabop kichkina she'riy asar.

egarda arang o'tirar, goho-goho nafasi ko'kka yetguday xo'rsinib qo'yardi. Bundan tashvishga tushgan dehqon undan qayeri og'riyotganini yana so'radi. Bu orada don Kixot Balduinni unutkan, endi uning yodiga Antekera hokimi Rodrigo de Narvaesning mavr Abindarraesni qanday ushlab olgani va o'z qal'asiga qamab qo'ygani haqidagi voqea tushgandi. Shuning uchun ham Rodrigo de Narvaesga asir Abindarraes qanday iboralar bilan javob qaytargan bo'lsa, dehqonning savollariga don Kixot ham shunday javob berdi.

– Shuni bilib qo'yingki, iltifotli sinor don Rodrigo de Narvaes, – ritsar o'z gapini shunday yakunladi, – hozirgina sizga tasvirlab berganim, sharafiga men hali dunyoda hech kim ko'rmagan, ko'rmayotgan va bundan keyin ham hech qachon ko'rmaydigan shonli jasoratlar ko'rsatgan, ko'rsatayotgan va bundan buyon ham ko'rsatadigan go'zal Xarifa endilikda – suluv Tobosolik Dulsineyadir.

– Axir, tushunsangiz-chi, iltifotli sinor, men umuman don Rodrigo de Narvaes emasman, ham qishlog'ingiz Pedro Alonso-man; muhtaram janoblari Balduin ham, Abindarraes ham emas, hurmatli idalgo, sinor Kexanasiz.

– Kimligimni o'zim bilaman, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – dunyodagi barcha ritsarlar ko'rsatgan jasoratlarning jami mening jasoratimga teng kelolmasligini ham bilaman.

Ular ana shunday gaplar bilan kechga yaqin qishloqqa yetib borishdi.

Kaltak zarbidan ayanchli ahvolga tushib qolgan don Kixotning eshakda kelayotganini biror kimsa ko'rishini istamagan dehqon qosh qorayishini kutish niyatida qishloq chekka-sidagi g'ov yonida to'xtadi. Qorong'i tushganidan keyin esa qishloqqa kirib, don Kixotning uyi tomon yo'l oldi. Uydan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlar eshilib turardi: idalgomizning eng qalin ikki oshnasi – ruhoniylar bilan sartarosh – uning uy ichidagilar bilan kengashib o'tirishardi. Ekonomka shang'illab shunday derdi:

– Iltifotli sinor litsensiat<sup>1</sup> Pero Peres, – ruhoniylarning nomi

<sup>1</sup> Litsensiat – universitetlarda o'qitish huquqini beruvchi ilmiy unvon.

shunday edi, – xo‘jayinim haqida qanday fikrdasiz? Mana ikki kundirki, uning o‘zi bilan birga qirchang‘isi ham, nayzasi ham, yarog‘-aslahalari ham g‘oyib bo‘ldi!.. O, qanday baxtsiz ayolman-a! Bu la‘nati ritsarlik romanlari uni aqldan ozdirgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. O‘zi bilan o‘zi gaplashib o‘tirib, sarguzashtlar izlash uchun uyidan chiqib ketishi haqida necha martalab qasam ichganlari yodimda. Butun Lamanchda eng dono kimsani yo‘ldan ozdirgan bu kitoblar qurib ketsin!

Jiyani ham shunday fikrda edi:

– Bilasizmi, sinor usta Nikolas, – sartaroshning nomi shunday edi, – sinor tog‘am, bu yaramas romanlarni naq ikki kunlab mijja qoqmay o‘qib chiqardi. Oxiri shu darajaga borib yetardiki, qizishib ketganidan kitobni uloqtirib yuborib, qilichini yalang‘ochlaganicha, qulochkashlab devorni chopaverardi. Holdan toyganidan keyin, minoraday-minoraday to‘rtta devni o‘ldirdim, deb baqiraverardi. Tinka-madori quriganidan tog‘amning a‘zoyi badanidan ter quyib ketar, o‘zi esa bu termi jangda yaralangan joylarimdan oqayotgan qon deb o‘ylardi. Shundan keyin katta cho‘michni to‘ldirib muzdek suv icharkan, bu suv emas, do‘stim, buyuk sehrgar Eskife olib kelib bergan noyob dori derdi. Bu ko‘rgiliklar uchun men o‘zimni aybdor deb hisoblayman. Tog‘amning alahlashlarini siz iltifotli janoblarga ma‘lum qilishga ilgari aqlim yetmagani uchun o‘zimni kechirolmayman. Sizlar bunga chek qo‘yadingiz, albatta. Buning uchun tog‘amni aqldan ozdirgan kitoblarni yoqib tashlashning o‘zi kifoya edi.

– Men fikringizga batamom qo‘shilaman, – dedi ruhoniy, – bechora do‘stimizni bundan buyon jinni qilib qo‘ymasligi uchun bu ahmoqona kitoblarni ertagayoq o‘tga tashlashga so‘z beraman.

Don Kixot bilan hamrohi bu gaplarni oxirigacha eshitishdi. Dehqon qo‘shnisining alahlash sabablarini endi tushundi. Shuning uchun ham u:

– Eshikni oching, sinora! Og‘ir yaralangan sinor Balduin, Mantuanlik Markiz, ya‘ni sinor mavr Abindarraesning o‘zlari keldilar, uni Antekeraning hukmdori jasur Rodrigo de Narvaes olib kelmoqda, – deb qichqirdi.

Dehqonning tovushini eshitib hamma yugurib chiqdi; erkaklar o'z do'stlarini, ayollar esa o'z xo'jayinlari va tog'alarini tanib, u bilan quchoq yozib ko'rishishdi. Lekin madori quriganidan eshakdan ham tusholmagan don Kixot ularga shunday dedi:

– Shoshmanglar! Otimning aybi bilan qattiq yaralandim. Darhol to'shakka olib kirib yotqizinlar-u, iloji bo'lsa, tezroq dono sehrgar Urganda<sup>1</sup> xonimni chaqirtirib kelinglar, yaralarimni bog'lab dori-darmon qilib tuzatsin.

– Ko'rdinglarmi, qanday falokat yuz beribdi! – xitob qildi ekonomka. – Yuragim bekorga g'ash bo'lmagan ekan! Bemalol kiravering, muhtaram janob, sizni har qanday sehrgar xonimlarsiz ham davolay olamiz. Siz iltifotli xo'jamni shu ahvolga solgan bu ritsarlik kitoblari ming bir baloga giriftor bo'lsin!

Don Kixotni o'rniga yotqizishib, jarohatlarini malhamlab bog'lab qo'yishmoqchi bo'lishgan edi, hech qanday yaralangan joy ko'rinmadi. U, o'nta dev bilan olishayotib, jang rosa avjiga chiqqan paytda otim Rosinant bilan birga yerga yiqilib tushib sal lat yedim, deb tushuntirdi. Uning so'ziga qaraganda, yer bu maxluqlardan battarroq surbet va vahshiy jonivorlarni ko'rman-gan emish.

– Voy-bo'y, – uning so'zini bo'ldi ruhoniy, – hali yurtimizda devlar ham paydo bo'lib qolishibdi-da? Qasamyod etamanki, ertaga quyosh chiqmasdanoq ulardan asar ham qolmaydi.

Ular don Kixotdan boshidan kechirganlarini surishtira boshlashdi, lekin u hech narsani gapirib berishni istamadi. U faqat ovqat berishlarini va tinch qo'yishlarini iltimos qildi, chunki nihoyatda qorni ochgan va uyqudan qolgan edi. Iltimos bajo keltirildi, ruhoniy esa dehqondan don Kixotni qayerdan va qanday ahvolda topganini surishtira boshladi.

Dehqon bo'lgan voqeani bajonidil aytib berdi va hatto idalgoning ba'zi bema'ni gaplarini ham takrorladi.

---

<sup>1</sup> Urganda – don Kixot yoqtirgan «Esplandian» ritsarlik romanidagi asosiy qahramonlardan biri, sehrgar ayol.

Bu esa ruhoniyning don Kixot kitoblarini yoqib tashlashga bo'lgan ishtiyoqini yanada kuchaytirib yubordi. Ertasiga ertalab satarosh do'stining oldiga kirdi va ikkalasi idalgomizning uyiga jo'nashdi.

Don Kixot hamon uyquda edi. Ruhoniy don Kixotning jiyanidan barcha baxtsizliklarga sabab bo'lgan kitoblar qo'yilgan xonaning kalitini so'radi. Ekonomka ularni o'sha xonaga boshlab ketdi. Xonadagi javonlarda yuzga yaqin qalin va yana anchagina ajoyib muqovali kichikroq tomlar qalashib yotardi. Ekonomka bir daqiqa shoshilmay turishni ruhoniydandan iltimos qilib, xonadan chiqdi-da, hademay bir piyola obi rahmat bilan purkagich olib keldi.

– Mana buni olib, sinor ruhoniy, avval xonaga suv purkab chiqing, yo'qsa bu kitoblarda hikoya qilinuvchi sehrgarlardan birortasi hozir bo'lib, urug'-aymoqlarini dunyodan sug'urib tashlamoqchi bo'layotganimiz uchun qasos olib, yana bizni biror maxluqqa aylantirib qo'ymasin.

Ruhoniy soddadil ekonomkaning bu hadiksirashidan kulib qo'ydi-da, kitoblarini bitta-bittalab olib berishni sataroshdan iltimos qildi. U durust kitoblarni ajratib olmoqchi edi.

– Yo'q, yo'q, – deb xitob qildi jiyan, – ularning birortasi ham ayashga arziydigan emas, boshimizga falokat tushishida hammasi ham aybdor. Yaxshisi, hammasini derazadan hovliga uloqtirib, yoqib tashlaymiz.

Ekonomka ham shu fikrni ma'qulladi. Biroq ruhoniy ularning bo'lmag'ur gapiga sira e'tibor bermay, kitoblarining, hech bo'lmasa, nomini ko'rib chiqishga ahd qildi. Unga usta Nikolas qalin bir romanni uzatdi. Bu roman to'rt qismdan iborat bo'lib, galliyalik Amadisning tarixi ekan. Uni ko'rib ruhoniy shunday dedi:

– Eshitishimga qaraganda, bu Ispaniyada nashr etilgan birinchi ritsarlik romani bo'lib, qolganlari uning davomidir. Shuning uchun men buni, albatta, yoqib tashlashimiz kerak deb o'ylayman.

– E, yo'q, sinor! – e'tiroz bildirdi satarosh. – Eshitishimcha, bu roman hozirgacha yozilgan asarlar ichida eng yaxshisi,

shunday bo'lgach, uni olib qolsak arziydi.

– Sizing gapingiz ma'qulga o'xshaydi, – javob berdi ruhoniy, – biz uni hisobga olib, hozircha tegmay turamiz. Qani endi, anavi kitobni ko'raylik-chi.

– Galliyalik Amadisning qonuniy o'g'li Esplandianning jasoratlari, – dedi sartarosh.

– Lekin insof bilan aytganda, – dedi ruhoniy, – otaning xizmatlari bolasini asrab qololmaydi. Qani, sinora ekonomka, derazani oching-da, uni hovliga uloqtiring-chi, gulxanimizning dastlabki qalovi bo'lsin.

Ekonomka buni bajonidil bajo keltirdi.

– Qani, keyingisi-chi, – dedi ruhoniy.

– Keyingisi, – deb so'zida davom etdi sartarosh. – Amadis Yunoniy, menimcha, bu javondagi kitoblarning hammasi Amadislar urug'iga mansub.

– Unday bo'lsa, hammasi hovliga uloqtirilsin, – dedi ruhoniy.

– Men ham shunday fikrdaman, – dedi sartarosh.

– Men ham, – uning so'zini ma'qulladi jiyan.

– Shunday bo'lgandan keyin, – dedi ekonomka, – hammasini yoqib tashlash kerak.

Birin-ketin qalin va yupqa jildlar hammasi derazadan uloqtirildi.

Ruhoniy ritsarlik romanlarini saranjom qilganidan keyin turli she'r va dostonlar to'plamlari qo'yilgan javonga ko'z tashladi. Lekin u qo'lga hali birinchi to'plamni ham olmasdanoq don Kixotning qattiq tovushi eshilib qoldi:

– Bu yoqqa kelinglar, bu yoqqa, dovyurak ritsarlar, – deb baqirardi u. – Zabardast bilaklaringizning kuchini ko'rsatadigan payt keldi! Saroy ritsarlari kurashda g'alabani o'zlariniki qilib olmoqchilar.

Bu qichqiriqdan tashvishga tushgan do'stlarimiz kitoblarni duch kelgan tomonga uloqtirib, tovush chiqqan yoqqa yugurishdi.

Ular yotoqxonaga kirishdi, qarashsa, don Kixot o'rnidan turib olibdi, u g'azabi qaynab o'zi tasavvur qilgan dushmanlarga

epchillik bilan qilich sanchib, jon-jahdi bilan chopib tashlardiki, go'yo o'zini sira bemor va bemador his etmasdi.

Ruhoniy bilan usta uning oldiga yugurib borib, zo'rlik bilan o'miga yotqizishdi, don Kixot bir muncha tinchlanganidan keyin ruhoniya murojaat qildi:

– Rostini aytsam, sinor arxiyepiskop<sup>1</sup> Turpin<sup>2</sup>, jahongashta ritsarlar qo'lga kiritgan g'alabani saroy ritsarlarining o'zlariniki qilib olishlariga yo'l qo'yib berish o'n ikki per<sup>3</sup> uchun nihoyatda uyat. Yo'q, bunday tahqirga men aslo yo'l qo'ymayman!

– Tinchlaning, iltifotli sinor og'ayni, – dedi ruhoniy. – Xudo xohlasa, ertaga hamma narsa joyiga tushadi, bugun boy bergan narsalarimizni o'n hissa qilib to'latib olamiz. Hozircha muhtaram oshnamiz o'z salomatliklarini o'ylasinlar. Menimcha, yaralanmagan bo'lsangiz ham, qattiq charchaganga o'xshaysiz.

– Yo'q, men yaralanganim yo'q, – dedi don Kixot, – lekin, haqiqatan ham, rosa savalanib ezib tashlanganman. Makkor va baxil don Roldan<sup>4</sup> meni dub daraxti tanasi bilan savaladi, negaki ritsarlik janglarida uning yagona raqibi ekanimni bilardi. O'mimdan turadigan bo'lib olsam, bas, adabini berib qo'yaman. Endi menga nonushta keltiringlar, chunki hozir, eng avvalo, kuch yig'ib, baquvvat bo'lib olishim kerak. Undan keyinchalik ham qasos olaveraman.

Aytganini qilib, unga ovqat keltirishdi. Don Kixot ovqat-

---

<sup>1</sup> Arxiyepiskop (*yunoncha*; katta yepiskop) – yepiskopdan yuqori unvon va shu unvonga ega bo'lgan ruhoniy.

<sup>2</sup> Arxiyepiskop Turpin – VIII asr oxiridagi Reyms arxiyepiskopi. Uzoq vaqt «Buyuk Karlning hayoti haqida»gi mashhur yilnoma («Turpin yilnomasi»ni tuzgan shaxs shu kishi deb kelinadi. Buyuk Karl bilan uning Ispaniyadagi jiyani Rolandning qahramonliklari va sarguzashtlari haqidagi bu yilnoma tarixiy haqiqatdan uzoq fantastik, afsonaviy hikoyalardan iborat «Turpin yilnomasi». Buyuk Karl va uning safdoshlari haqidagi ko'pgina ritsarlik romanlariga asoslanadi).

<sup>3</sup> Per (*lotincha*: pares – teng) – Angliyada va Fransiyada 1848-yilgacha davlatni boshqarishda qamashadigan oliy dvoryanlik tabaqasining vakili. O'n ikki per – Buyuk Karl safdoshlaridan bo'lgan o'n ikki afsonaviy ritsami shunday deb atashardi. Ular orasida eng mashhurlari: Roland, Olive, Montalbanlik Reynaldlar edi. «Turpin yilnomasi»da bu ritsarlarning mutlaqo aql bovar qilmaydigan qahramonliklari va sarguzashtlari tasvirlanadi.

<sup>4</sup> Roldan – Roland nomining xalq tomonidan o'zgartirilgan shakli.



lanib olgach, yana qattiq uyquga ketdi.

O'sha kechasi ekonomka uydagi bor kitoblarning hammasini yoqib yubordi, ruhoniy ayagan kitoblar ham olovda kul bo'lib ketdi. Ertasiga kutubxona eshigini g'isht bilan urib, ustidan suvab tashlashdi. Don Kixotga xonani bor kitoblari, javonlari va jihozlari bilan birga qandaydir bir sehrgar o'g'irlab ketdi, deb aytishga qaror qilishdi. Bu ishlarni tamomlaganlaridan keyin hammalari idalgoning sog'ayib ketishini sabrsizlik bilan kuta boshlashdi. Ikki kundan keyin don Kixot anchagina quvvatga kirib, endi o'rnidan tura oladigan bo'ldi. U, eng avvalo, kitoblarini ko'rmoqchi bo'ldi, albatta. O'z kutubxonasining eshigini topa olmay hayratlanganini ko'rsangiz edi. Ancha vaqt uyda daydib yurdi, xonalarni birma-bir aylanib chiqdi, suvab tashlangan eshik yoniga qayta-qayta kelib, qo'llari bilan paypaslab ko'rarkan, hayron bo'lib atrofga alanglab qarab qo'yardi. Nihoyat, ekonomkadan kutubxonaning eshigini so'radi. Bunga qanday javob berishni ruhoniy ekonomkaga o'rgatib qo'ygan edi. U shunday dedi:

– Kutubxona eshigimi? Nimasini aytasiz, muhtaram senor! Kutubxona ham, kitoblar ham allaqachon g'oyib bo'lgan. Hammasini shayton o'g'irlab ketgan.

Shunda jiyani gapga aralashdi:

– Siz iltifotli tog'am, sayohatga chiqib ketganingizda bir kuni kechasi sehrgar uchib keldi. O'zi uchib kelgan ajdahodan bir sakrab yerga tushdi-da, kutubxonaga kirdi: u yerda nima qilganini ko'zim bilan ko'rganim yo'q, lekin bir necha daqiqadan keyin tonning orasidan uchib chiqib ketdi, uyni esa tutun bosdi, hech narsani ko'rolmay qoldik. Birozdan keyin uning nimalar qilganini bilmoqchi bo'lib qarasak, xonadan ham, kitoblardan ham nomi-nishon qolmabdi. Lekin bir narsani yaxshi eslab qoldik: o'sha yovuz chol uchib ketayotib, otim Munyaton, deb qichqirdi do'rillab.

– Munyaton emas, Freston, – so'zini bo'ldi don Kixot.

– Oti Frestonmi, Fritonmi, buni xudo biladi, – dedi ekonomka, – faqat oti «ton» bilan tugashi yaxshi esimda qoldi.

– Ha, bu o'sha ashaddiy dushmanim – donishmand sehr-

garning xuddi o'zi, — dedi don Kixot. — Meni ko'rarga ko'zi yo'q, chunki o'zi muruvvat ko'rsatayotgan ritsar bilan bir kuni mening olishishimni va bu jangda g'alaba qozonishimni o'zining sehrli kitoblari hamda jodugarligi yordamida bilib olgan. Ana shuning uchun ham u meni turli falokatlarga duchor qilib, yo'limga to'g'anoq bo'lishga qasd qilgan.

### *OLTINCHI BOB*

#### **AJOYIB RITSARIMIZ LAMANCHLIK DON KIXOTNING IKKINCHI SAFARI**

O'sha voqeadan keyin don Kixot ikki hafta davomida uyda tinchgina o'tirdi. Uning g'ayritabiiy sarguzashtlarga bo'lgan ishtiyoqi so'nganini ekonomka bilan jiyani payqab quvonishdi. Ha, aytganday, ba'zan u o'z oshnalari bo'lmish ruhoniylar bilan sartaroshga yer yuzida oltin davrni qayta tiklashga da'vat etilgan jahongashta ritsarlarga dunyo hamma narsadan ham ko'proq muhtojdir, deb qo'yardi. Hali aldanchilik, makr, yolg'on haqiqat va samimiylik bilan qarishib ketmagan; hali na g'araz, na hirs, na sudyalarning o'zboshimchaligidan odamlar jabrlangan; hamma yerda tinchlik va osoyishtalik hukm surgan hamda to'le baland inson tabiatning ajoyib lutf-ehsonlaridan sira tashvishlanmay bahramand bo'ladigan o'sha baxtiyor davr haqida don Kixot zavq bilan gapirardi. U insonlarni ana shu ajoyib kunlarga qaytarish taqdir taqozosi bilan o'z zimmasida ekaniga ko'r-ko'rona ishonardi. Ruhoniy don Kixotga ba'zan e'tiroz bildirar, ba'zan uning fikriga qo'shilmaydi, zotan ustalik qilmay turib bunday fikrlarning bema'niligini sho'ring qurg'ur idalgoga isbotlashni xayolga keltirmasa ham bo'lardi.

Biroq don Kixot o'zining tentakona rejalariga ich-ichidan ishonar va bunga sodiq qolaverar edi. U uy ichidagilardan yashiriqcha bir dehqonni, oliyjanob (agar oliyjanobligi juda kam odamni ham shu nom bilan atash mumkin bo'lsa), lekin o'ylab-netib o'tirmay ish tutadigan odamni o'ziga qurolbardor bo'lishga

unday boshladi. Don Kixot uni bu ishga jon-jahdi bilan qiziq-tirarkan, unga boylik va shon-shuhrat va'da qilardi. Darvoqe, u o'z jasorati bilan zabt etadigan birinchi orolini o'sha dehqonga bir umrga mulk qilib berishni va'da qildi. Uning gapiga qaraganda, bunday zafarga juda tez muddatda erisharkan. Sancho Pansa deb atalgan bu dehqon boshi aylanib, uning gaplariga chip-pa-chin ishon-di-yu, xotini va bolalarini o'z holiga tashlab, don Kixot xizmatiga kirdi.

Shundan keyin don Kixot pul topishga kirishdi: buyum-larining ba'zilarini sotdi, ba'zilarini garovga qo'yib, ancha mab-lag' to'pladi. Bundan tashqari, u og'aynilarining biridan vaqtin-chalikka dumaloq qalqon oldi, pachag'i chiqib ketgan dubul-g'asini tuzatdi. Ishlarini bitkazib bo'lganidan keyin qurolbardori Sanchoga falon kuni, falon soatda yo'lga tushish niyatida ekanini ma'lum qildi-da, asbob-anjomlarini taxt qilib qo'yishini tayin-ladi. Don Kixot Sanchoga safar to'rvasini olishni unutilib qo'y-maslikni alohida ta'kidladi. Sancho to'rvani unutilib qo'y-maslikka va'da berdi, shuningdek, piyoda borishga uncha layoqati bo'l-magani uchun eshagini olish niyatini ham aytdi. Sanchoning bu gapi don Kixotning ko'ngliga bir muncha g'ulg'ula solib qo'ydi. U jahongashta ritsarlardan qaysi birining qurolbardori eshak minib yurganini eslashga urinib ko'rdi, lekin sira eslay olmadi. Ammo birorta beadab ritsar bilan birinchi to'qnashuvdayoq otini tortib olib, eshakka qaraganda o'z sha'niga ancha munosibroq bu jonivorni qurolbardoriga berishini xayol qilib, ko'ngli taskin topdi-yu, Sanchoning gapiga rozi bo'ldi.

Nihoyat, hamma narsa taxt bo'lganidan keyin bir kuni kechasi ular hech kimga bildirmay qishloqdan chiqib ketishdi. Sancho xotini va bolalari bilan, don Kixot esa ekonomkasi va jiyani bilan xayrlashmadi. Ular tun bo'yi yo'l yurib, tong ota boshlaganda qishloqdan ancha uzoq ketib qolishgan, endi ta'qib etishlaridan qo'rqishmasa ham bo'lardi.

Shirin xayollarga g'arq bo'lgan Sancho Pansa o'z eshagi-da savlat to'kib borardi. U va'da qilingan orolga tezroq gubernator bo'lish ishtiyoqida yonardi. Don Kixot tasodifan Montel tekisligidan o'tadigan yo'lni tanladi, u birinchi sayohatida ham

shu yo'ldan ketgan edi. Lekin hozir bu yo'ldan borish maroqliroq edi, negaki hali vaqt erta, quyosh o'z qaynoq nurlarini sayohatchilarimizga hali sochganicha yo'q edi. Sancho Pansa o'z xo'jayiniga shunday dedi:

– Muhtaram sinor, jahongashta ritsar janoblari, tag'in orol haqidagi va'dangizni unutib qo'ymang. Orol har qancha katta bo'lganida ham, baribir, uni boshqara olaman.

Bunga don Kixot shunday javob qaytardi:

– Do'stim, Sancho Pansa, shuni qulog'ingga yaxshilab qo'yib olginki, zabt etgan orol yoki podsholiklariga o'z qurolbardorlarini hokim qilib tayinlash odati qadim zamonlarda jahongashta ritsarlar orasida juda keng tarqalgan odat edi, men ham ana shu ajoyib odatga amal qilishga qat'iy bel bog'laganman. Biroq buning bir lekini ham bor. Qadim zamonlarda ritsarlar o'z qurolbardorlariga biror viloyatni ko'p yillik mashaqqatli xizmati evazigagina in'om qilganlar. Va'da qilingan in'omni kutaverib qarib ketgan qurolbardorlar ham ko'p bo'lgan. Men esa, basharti ikkovimiz ham tirik qolsak, yaqin kunlarda bir emas, bir necha podsholikni zabt etaman. Ana o'shanda, darhol ulardan eng yaxshisini senga hadya qilaman. Tag'in bekorga lof uryapti deb o'ylama: bilasanmi, jahongashta ritsarlar yetti uxlab tushingga kirmaydigan ajoyib-g'aroyib hodisalarni boshdan kechiradilar. Inchunin, senga va'da qilganimdan ham ko'ra a'loroq hadya berish men uchun hech gap emas.

– Mabodo men, – dedi Sancho, – qirol bo'lib olsam, unda xotinim Teresa Pansa kam deganda qirolicha-yu, bolalarim shahzoda va malika bo'lisharkan-da, a?

– Bunga amin bo'laver, – deb javob berdi don Kixot.

– Biroq mening shubham bor, – dedi Sancho Pansa, – nega desangiz, agarda tojlar yerga xuddi do'lday yog'ilib ketgan taqdirda ham, Teresa Pansa ulardan birortasiga munosib emas. Axir, u qanday qilib qirolicha bo'la olardi, sinorim! U qirolicha sifatida ikki chaqaga ham arzimaydi. Balki, graflik<sup>1</sup> munosib ke-

---

<sup>1</sup> Graf (*nemischa*) – Yevropada oliy tabaqali dvoryanlarning knyazdan quyi, barondan yuqori unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

lar, shunda ham xudo ol qulim, deb yuborsa.

– Buni xudoyi taoloning o‘ziga qo‘yib qo‘yaver, Sancho, – dedi don Kixot. – Xudoyi taoloning o‘zi unga nima loyqligini biladi, sen esa o‘zingni bunaqa past ham olma, hech bo‘lmaganda, gubernatorlikdan kamini ham o‘ylama.

– O‘ylamayman ham, sinorim, – deb javob berdi Sancho, – xo‘jayinimning qanchalik qudratli va qanday oliyhimmatligidan xabardorman. Marhamatli janob, menga ham kuchim yetadigan, ham ko‘nglimga xush keladigan lavozimni bersangiz kerak, albatta.

## YETTINCHI BOB

### SHU MAHALGACHA KO‘Z KO‘RIB, QULOQ ESHITMAGAN SHAMOL TEGIRMONLARIGA QARSHI DAHSHATLI JANGDA SHAVKATLI DON KIXOTNING G‘ALABA QOZONGANI

Shu paytda ular dalaning o‘rtasida qaqqayib turgan o‘ttiz yoki qirqtacha shamol tegirmonini ko‘rib qolishdi. Ularni olisdanoq payqagan don Kixot o‘z qurolbardoriga shunday dedi:

– Taqdiri azal ishimizning kushoyishini berib, omadimiz o‘ngidan kelyapti. Do‘stim Sancho, hov anavi tomonga qara! Hov anavi tekislikda devlar yig‘ilishib turishibdi. Hozir men ularga qarshi jang boshlab, birortasini ham qoldirmay qirib tashlayman. Ularning bitmas-tuganmas xazinalari bor: ularni yenganimizdan keyin boyib ketamiz. Buni adolatli jang deyishadi, bunaqangi yovuzlarning tuxumini yer yuzidan quritish Xudoga xush keladi.

– Qani o‘sha aytayotgan devlaringiz? – deb so‘radi Sancho Pansa.

– Huv ana, ro‘parangda turishibdi-ku! – deb javob berdi don Kixot. – Qo‘llarining bahaybatligini ko‘ryapsanmi? Ba‘zilarining qo‘li ikki mil keladi.

– So‘zimga ishoning, marhamatli sinorim, bular dev emas,

shamol tegirmoni, qo‘l deb aytayotgan narsalaringiz qo‘l emas, shamolda aylanib tegirmon toshini yurgizadigan parraklar.

– Ritsarlik sarguzashtlarida hali tajriba orttirmaganliging yaqqol ko‘rinib turibdi, – dedi don Kixot. – Bular devlar! Agar cho‘chiyotgan bo‘lsang, bir chekkaga chiqib duo qilib tur, men bular bilan tengsiz va qaqshatqich jangga kirishaman!

Don Kixot shu so‘zlarni aytarkan, shporlari bilan Rosinantning biqiniga niqtadi-yu, o‘z qurolbardorining ohi zoriga quloq solmay, ot yeldirib ketdi.

– Qochmalaring, razil maxluqlar, – deb qichqirdi u. – Sizlar ko‘pchiliksiz! Raqibingiz esa bitta ritsar, xolos!

Shu daqiqada yengilgina shamol ko‘tarilib, ulkan parraklar aylana boshladi. Don Kixot buni ko‘rib, yana qattiqroq qichqirdi:

– Qo‘llaringiz bahaybat Briareyning<sup>1</sup> qo‘llaridan kattaroq bo‘lganida ham, baribir, mendan qochib qutulolmaysiz!

Shunday qilib, don Kixot o‘z jonini Tobosolik Dulsineya xonimga topshirib, eng yaqinida turgan tegirmonga qarab ot soldi-yu, qo‘lidagi nayzasini qulochkashlab uning parragiga qadadi.

Biroq shu paytda ko‘tarilgan kuchli shamol parrakni aylantirib yubordi. Nayza sinib ketib, ritsar ot-poti bilan bir chekkaga borib tushdi.

Buni ko‘rgan Sancho xo‘jayiniga yordam berish uchun eshagini shitob bilan yo‘rg‘alatib ketdi. Tegirmon parragining dahshatli zarbidan gangib qolgan don Kixot yerda xuddi o‘likday cho‘zilib yotardi.

– Mana ko‘rdingizmi, azizim! – deb xitob qildi Sancho, – bular devlar emas, shamol tegirmonlari deb aytmabmidim. Miyasi aynib qolgan telbalargina bularning tegirmonligini bilmaydi.

– Bas qil, do‘stim Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – ritsarlik ishlarida hech narsaga aqling yetmaydi. Bu mening kutubxonamni o‘g‘irlab ketgan o‘sha sehrgar Frestonning yangi nayranglari ekanligiga ishonchim komil. Meni zafar shon-shuh-

---

<sup>1</sup> Briarey – qadimgi yunonlar afsonalarida tasvirlangan dengiz ma‘budi Poseydon va ma‘buda Fetidaning o‘g‘li. U yuz qo‘lli, o‘t-olov purkovchi haddan ziyod kuchli pahlavon bo‘lgan.

ratarlarga burkanmasin deb, devlarni tegirmonga aylantirib qo‘ygan ham o‘sha. Ha, uning menga nisbatan bo‘lgan adovati ana shunday kuchli. Lekin g‘am yema. Bir kunmas-bir kun uning hamma qabih sehrlarini kunpayakun qilib tashlayman.

– Dunyoda bo‘lmaydigan ish yo‘q, – gapiga qo‘shildi Sancho Pansa. Keyin don Kixotga o‘rnidan turishga yordamlashib, uni sehrlangan devlar bilan bo‘lgan ana shu baxtsiz olishuvda, sal bo‘lmasa, naq oldingi oyog‘i chiqib ketayozgan Rosinantga mindirdi.

Ritsarimiz o‘zining sodiq qurolbardori bilan hozirgina sodir bo‘lgan voqea haqida suhbatlashganicha yo‘lga tushdi.

– Hammasidan ham nayzadan ajralganimizga xafaman, – dedi don Kixot. – Lekin Diego Peres de Vargas ismli bir ispan ritsari boshidan kechirgan sarguzasht yodimda, jang paytida o‘sha ritsarning qilichi sinib ketgan, o‘shanda u darhol bir katta dub shoxini sindirib olgan-da, ana o‘sha tayoq bilan qanchadan qancha jasorat ko‘rsatgan, qanchadan qancha mavrlarni qirib tashlaganki, buning natijasida uni Vargas-Tayoq deb atay boshlashgan. Men ham xuddi Vargasday qilaman, yo‘lda uchragan birinchi dubning kattakon, zalvarli shoxini sindirib olaman-da, u bilan ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan qahramonliklar ko‘rsataman, bunday jasoratlarning shohidi bo‘lganingdan sen o‘zingni eng baxtiyor kishi deb bilasan!

– Xudovandi karimning erk-irodasi benihoya, – deb javob berdi Sancho, – siz janobi oliylarining hamma gaplariga ishonaman. Lekin sinorim, aftidan, juda qattiq shikastlanganga o‘xshaysiz. Bir yoqqa og‘ib ketyapsiz, egarga mahkamroq joylashib o‘tirib oling.

– Gaping rost, – dedi don Kixot, – og‘riqdan shikoyat qilmayotganimning sababi shundaki, butun ichak-chavoqlari ag‘darib tashlangan taqdirda ham jahongashta ritsarlar voy demasliklari kerak.

– Unday bo‘lsa, men bunga hech e‘tiroz bildirolmayman, – deb javob berdi Sancho, – o‘z haqimda shuni aytishim kerakki, basharti ritsarlik qoidalari jahongashta ritsarlarning qurolbardorlariga og‘riqdan baqirishni man etmagan bo‘lsa, unda men et-

betim sal tilinsa ham, dodlayveraman.

Don Kixot Sanchoning soddaligidan kulib yubordi, ritsarlar qurolbardorlari og'riqdan ingrashlari kerakmi-yo'qmi degan narsani ritsarlik romanlarida sira o'qimaganini, shunday bo'lgach, Sancho Pansa xohlaganicha ingrab, dod-voy solaverishi mumkinligini aytdi.

Bu orada Sancho quyoshga bir qarab qo'ydi-da, ozgina tamaddi qilib olsak, yomon bo'lmasdi, dedi.

Don Kixot bunga javoban hali qorni ochmaganini, Sanchoning ovqat yegisi kelayotgan bo'lsa, tortinib turmay, ovqatlana berishi mumkinligini aytdi.

Don Kixotning marhamatli ruxsatini olgan Sancho eshagiga qulayroq joylashib o'tirdi-da, safar to'rtvasidan ovqat olib yeya boshladi. Har yutim ovqatdan keyin u meshdagi vinodan shu qadar ishtaha bilan ichardiki, buni ko'rgan har qanday karvonsaroy egasining og'zidan suvi kelishi mumkin edi. Eshagini ohista haydab, qadam-baqadam vinodan ho'plab borarkan, sarguzasht qidirib har qanday xavfli sayohatlarga ham chiqish mehnat emas, jonning rohati ekan, degan fikr Sanchoning miyasidan joy olgan edi.

Bu orada qorong'i tushib, yo'lovchilarimiz yo'lni burib, tunagani to'xtashdi. Don Kixot yaqinroqdagi daraxtdan bir shoxini sindirib oldi-da, unga sinib ketgan nayzasining tig'ini bog'lab qo'ydi. U o'zi sevgan romanlarning shonli qahramonlari singari bir daqiqa ham mijja qoqmay, Dulsineyani o'ylab tong otirishga ahd qildi.

Sancho esa yaxshilab ovqatlanib oldi-da, ertalabgacha dong qotib uxladi. Don Kixot uyg'onmaganida to'g'ri yuziga tushgan quyosh nuridan ham, yangi kunni quvonch bilan qutlayotgan son-sanoqsiz qushlarning sayrashlaridan ham uyg'onmasdi. U uyqudan bosh ko'tarishi bilan eng avval meshni chamlab ko'rdi, vinosi ozayib qolganidan juda xafa bo'ldi. U yaqin orada meshni vinoga yana to'ldirib ololmaslikdan cho'chirdi. Lekin don Kixot nonushta qilishdan voz kechdi, chunki avval aytganimizdek, u shirin xayollar bilan to'yib yurardi.

Ular Puerto Lapise darasiga qarab yo'l olishib, kunduzi



soat uchlarda u yerga yetib borishdi.

– Birodarim Sancho, – dedi don Kixot, – bu yerda bizni ajoyib va g‘aroyib sarguzashtlar kutib turibdi. Lekin bir narsani unutmagilki, boshimga har qanday xavf kelgan taqdirda ham, sen meni himoya qilish niyatida qilich ko‘tarmasliging kerak. Qora xalqdan chiqqan ba‘zi bir yaramas qalang‘i-qasang‘ilar to‘dasi hujum qilgan taqdirdagina qurolbardorning o‘z xo‘jayiniga yordamlashishiga ruxsat etiladi. Mabodo ular ritsar bo‘lsa, unda ritsarlik qonunlariga muvofiq, hali sen ritsarlik unvoniga ega emas ekansan, jangga kirishing qat‘iyan man etiladi.

– Xotirjam bo‘laving, sinor, – deb javob berdi Sancho, – amri-farmoningizni aslo buzmayman: men tabiatan yuvosh odamman va hech mahal oldin musht ko‘tarishga jazm etmayman. Lekin shuni ochiq aytib qo‘yayki, basharti o‘zimni o‘zim muhofaza qilishga majbur bo‘lsam, unda hech qanday ritsarlik qonunlariga qarab o‘tirmay, dilozorlardan o‘zimni qo‘limdan kelgancha asrayman.

– Bu sening ishing, – dedi don Kixot, – men seni ogohlantirib qo‘ymoqchiman, xolos. Ritsarlarga qarshi olishuvlarimga hech qachon aralashma. O‘z g‘ayrating va jo‘sh urgan mardligingni bosib turishga harakat qil.

– Bu masalada xotirjam bo‘laving, marhamatli janobim. Diniy udumlarga amal qilib, yakshanba kunlarini qanday bayram qilsam, sizning buyruqlaringizni ham shunday bajo etishga va‘da beraman!

## QO'RQMAS BISKAYLIK<sup>1</sup> BILAN JASUR LAMANCHLIK O'RTASIDAGI MASHHUR JANG

Ular shu masalada suhbatlashib borisharkan, yo'lda ikki benediktchi<sup>2</sup> rohib<sup>3</sup> ko'rindi. Ular tuyadek-tuyadek keladigan norg'il xachirlarda kelishardi. Jazirama issiq va chang yo'lovchilarni keng soyabonlarini tutib, safar ko'zoynaklarini taqib olishga majbur qilgan edi. Rohiblar ketidan to'rt yoki besh otliq bilan ikki piyoda qo'riqchiligida bir kareta<sup>4</sup> kelardi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, karetada o'tirgan xonim Sevilyaga, erining huzuriga kelayotgan ekan. Rohiblarga ko'zi tushgan zahoti don Kixot o'z qurolbardoriga qichqirdi:

– Mana, birodarim Sancho, shunday ajoyib sarguzashtning ustidan chiqib qoldikki, bunaqasini buyurtirib ham uchratib bo'lmaydi! Huv anavi qora kiyimli otliqlar yovuz niyatli sehrgarlarning o'zi, bunga shubha yo'q, ular biror qirolichani o'g'irlab, Xudo biladi, qayerga olib qochib ketishayotgan ekan. Ammo men qanday qilib bo'lsa ham, ularning jirkanch nayranglarini puchga chiqarishim kerak.

– O'ylab ko'ring, marhamatli sinorim, – deb javob berdi Sancho, – tag'in yaramas ahvolga tushib qolmang. Qora kiyimli bu otliqlar oddiy benediktchi rohiblar, karetada esa sayohatchilar kelishayotgan bo'lishlari kerak. Shoshmang, sinor! Nima qilayotganingizni avval yaxshilab o'ylab ko'ring!

– Men senga boya aytgan edim, Sancho, ritsarlik sarguzashtlariga aqling yetmaydi deb, lekin meni aldayolmaydilar!

U shunday dedi-yu, ot yo'rttirib ketdi. Rohiblar so'zini eshitadigan joyga yaqinlashgach, Rosinantni to'xtatib, baland tovush bilan qichqirdi:

<sup>1</sup> Biskaylik – bask.

<sup>2</sup> Benedikichi – VI asrda tashkil topgan Benedikt ordenining rohibi. Orden katta boylikka ega bo'lib, ta'siri nihoyatda kuchli edi.

<sup>3</sup> Rohib (*arabcha*; *monax*) – xristian dinidagi va unuman monax, zohid.

<sup>4</sup> Kareta (*polyakcha*) – usti va yonlari yopiq to'rt g'ildirakli yengil arava.

– Ey siz, yovuz do‘zaxilar, o‘g‘irlab olib qochib ketayotganingiz oliyjanob malikalarni darhol qo‘yib yuboring, yo‘qsa, qilgan jinoyatlaringizga yarasha jazo topasiz, o‘limingiz mening qo‘limda!

Don Kixotning g‘alati ko‘rinishi va bema’ni so‘zlarini eshitib hayron qolgan rohiblar xachirlarining jilovini tortib to‘xtashdi. Hayratlaridan o‘zlariga kelgach, shunday javob berishdi:

– Sinor ritsar, biz hech qanaqa yovuz do‘zaxilar emasmiz, avliyo Benedikt ordeni rohiblarimiz. O‘z ishimiz bilan yo‘lga chiqqanmiz. Bu karetada kim ketayotgani yoxud kimni olib ketayotganlari bizga noma‘lum.

– Yo‘q, meni aldayolmaysanlar! Sen benomus yolg‘onchilarni juda yaxshi bilaman! – deb xitob qildi don Kixot.

U shunday deyarkan, javob ham kutib o‘tirmay, shporlari bilan Rosinantni bir niqtadi-da, nayzasini o‘qtalgancha rohiblardan biriga g‘azab bilan shunday tashlandiki, agar u o‘zini yerga otmaganida, ehtimol, don Kixot uni egardan urib tushirgan va juda qattiq yarador qilgan yoki birato‘la o‘ldirib qo‘ya qolgan bo‘lard.

Rohibning yerga yotganini ko‘rgan Sancho eshagidan sakrab tushdi-da, uning ko‘ylagini yecha boshladi. Rohiblarni kuzatib borayotgan ikkala xizmatkor o‘dag‘aylab Sanchoga tashlanishdi. Sancho ritsarlik qonunlariga muvofiq xo‘jayini jangda qo‘lga kiritgan o‘ljani olishga haqli ekanligini ularga aytib, behuda qichqirardi. Xizmatkorlar ritsarlik qonunlarini yetti uxlab tushlarida ham ko‘rmagan edilar. Don Kixotning sayohatchi ayol bilan suhbatga tushib ketganini va o‘z tomonlariga qaramayotganini ko‘rib, ular Sanchoni yerga yotqizib oldilar-da, chala o‘lik qilib rosa do‘pposladilar. Bu orada jon-poni chiqib ketgan rohib o‘rnidan turdi-da, xachiriga minib, uni narida kutib turgan hamrohi yoniga haydab ketdi. Keyin har ikkala benedikatchi bu g‘alati voqeaning nima bilan tugashini ham kutib o‘tirmay, ketlaridan iblis izma-iz quvib kelayotganday qo‘rqib, cho‘qinganlaricha ilgarilab ketdilar.

Bu paytda don Kixot karetada o‘tirgan xonimga shunday so‘zlar bilan murojaat qilardi:

– Zoti oliyalari ozod qilindilar, – deb gap boshladi u, – endi nimani xush ko'rsalar, shuni qilaversinlar, chunki o'zlarini o'g'irlaganlarning nomussizligi mening zabardast bilaklarim zarbi ostida ko'kka sovurildi. Lekin siz o'z xaloskoringizning nomini bilib olishingiz kerak. Men olamda beqiyos va go'zal donya Tobosolik Dulsineyaning asiri bo'lmish jahongashta ritsar lamanchlik don Kixot bo'laman. Men sizga ko'rsatgan xizmatim mukofotiga faqat bir narsanigina so'rayman: Tobosoga borib, qalbim xoqoni bo'lmish malikam huzuriga kiring-da, sizga ozodlikni men tuhfa qilganimni ayting.

Kelib chiqishi biskaylik bo'lgan, karetani kuzatib borayotgan otboqarlardan biri o'zlarining Tobosoga qaytishlarini don Kixotning talab qilayotganini eshitib qolib, ot qo'yib keldi-da, ritsarimiz nayzasini ushlab olib, ispanchani buzib qichqirdi:

– Yo'lingdan qolma, ritsar, jo'na! Hoziroq karetani qo'yib yubor, yo'qsa, Xudo haqqi, qasamyod etamanki, boshingni sapchaday uzib tashlamasam, biskaylik nomimni boshqa qo'yaman!

Don Kixot uning gaplarini yaxshi tushunib, munosib javob qildi:

– Yaramas maxluq! Xizmatkorsan-da, basharti ritsar bo'lganingdami qo'polliging va bezbetliging uchun adabingni berib qo'yardim-a.

– Qanaqasiga men ritsar emas ekanman! Xudo haqqi yolg'on gapiryapsan! Qani nayzangni tashlab, qilichingni ol-chi! Men biskaylikman, dengizda ham, quruqlikda ham idalgoman. Ritsarmanmi, ritsar emasmanmi, buni senga bir ko'rsatib qo'yay, – deb qichqirdi g'azabi qaynab biskaylik.

Bu qo'rslik don Kixotni g'azablantirib yubordi.

– O, qalbimning xoqoni, go'zallarning guli Dulsineyam, saxovatingizni tan olib, mardona jangga kirayotgan ritsaringizga madad bering.

U shunday dedi-yu, nayzani yerga uloqtirib, qilichni oldida, haddan ziyod mardonalik bilan biskaylikka tashlandi. Biroq biskaylik ham qo'rqib-pisib o'tirmadi. Ko'z yumib-ochguncha karetadagi yostiqni olib, ko'ksiga qalqonday tutdi-yu, joyidan qo'zg'almay dushmanini kutgancha turaverdi. Tomoshabinlar bu

dahshatli olishuvni churq etmay kuzata boshladilar. Karetadagi xonim bilan uning oqsochlari avliyolarga nola qilib, o'z xizmatkorlariga madad tilay boshladilar.

Eng avval jizzaki biskaylik zarba berdi. U dushmanga shu qadar g'azab va kuch bilan tashlandiki, qo'lidagi qilichi aylanib ketmaganida bormi, bu zarba oradagi dahshatli yakkama-yakka olishuvgagina emas, balki umuman ritsarimizning bundan keyingi sarguzashtlariga ham chek qo'ygan bo'lardi. Lekin yangi jasoratlar ko'rsatish uchun don Kixotning jonini asrab qolgan muruvvatli taqdir ritsarimiz dushmanining qo'lidagi qilichni aylantirib yubordi-yu, buning natijasida qilich ritsarning chap yelkasini yalab o'tdi. Biroq uning dubulg'asi sinib, qulog'ining bir chekkasini yalab ketdi, sovutining chap yoni uzilib, darangdurunglab yerga tushdi.

Don Kixotning shu tobda g'azabi qanchalik qaynab ketganini tasvirlashga qalam topilarmikan? U uzangiga oyoq tirab qaddini rostladi-da, biskaylikning boshiga shunday qahr bilan qilich soldiki, uning og'zi, burni, quloqlaridan sharillab qon oqa boshladi, o'zi egarda chayqalib ketdi, agar xachirining bo'ynini quchoqlab qolmaganida, egardan uchib tushardi. Jilov qo'lidan chiqib ketdi, uzangidan oyoqlari sirg'alib tushdi, hurkib ketgan xachir dalada shataloq otib chopib borayotib, xo'jayinini yerga yiqitib yubordi.

Biskaylik yerga yiqilgach, don Kixot otidan sakrab tushib, shikastlangan dushmanning oldiga yugurib bordi-da, boshida qilich o'ynatib, taslim bo'l, deb qichqirdi. Biroq biskaylik kalovlab qolganidan bir og'iz so'z ham aytmadi. Olishuvning oqibati bu bechora uchun bundan ham besh battar bo'lishi mumkin edi, g'azabdan o'zini yo'qotib qo'ygan don Kixot uni ayamadi. Biroq bu sho'rlikning baxtiga yakkama-yakka olishuvni kuzatib turgan malika karetadan sakrab tushdi-da, xizmatkorimning bir qoshiq qonidan kech, deb yalinmoqchi bo'lib ritsar tomonga yugurdi.

– Xizmatigingizga hamisha tayyorman, go'zal malikam, – dedi don Kixot viqor va salobat bilan, – iltimosingizni bajonidil bajaraman, lekin buning bir sharti bor: bu ritsar Toboso degan

qishloqqa borib, mening nomimdan olamda tengi yo'q donya Dulsineya oyog'iga yiqilishiga va'da berishi kerak, keyin Dulsineya buni nima qilsa, o'zi biladi.

Qo'rqib ketgan va ranjigan malika uning nimalar deya-yotganini yaxshi anglamay, hatto Dulsineyaning kimligini so'rab ham o'tirmay, ritsarga xizmatkori uning buyrug'ini aytganiday qilib bajarajagiga so'z berdi.

– Va'dangizga ishonaman, – dedi don Kixot, – garchi qattiq jazoga loyiq bo'lsa ham, gunohidan kechaman uning.

### *TO'QQIZINCHI BOB*

## **DON KIXOT BILAN SANCHO PANSO O'RTASIDAGI ANTIQA SUHBAT**

Rohiblarning xizmatkorlari urib dabdala qilib tashlagan Sancho Pansa bir amallab o'rnidan turdi-da, don Kixotning yak-kama-yakka olishuvini zo'r diqqat bilan kuzata boshladi. U, ritsarimizga g'alaba tilab, xo'jayini gubernatorligini va'da qilgan biror orolni zabt etishiga madad berishini so'rab astoydil Xudoga iltijo qila boshladi. Jang tamom bo'lganini va xo'jayinning Rosinantga minmoqchi bo'layotganini ko'rib yugurib bordi-da, oyog'iga tiz cho'kib, qo'lini o'pdi va shunday dedi:

– Sinorim don Kixot, marhamatingizni ayamay, bu dahshatli jangda qo'lga kiritgan orolingizning gubernatorligini in'om etsangiz menga. Bu orol qanchalik katta bo'lmasin, uni olamdagi barcha gubernatorlardan kam boshqarmasligim va buni uddalay olishimga ko'zim yetib turibdi.

Bunga don Kixot shunday javob berdi:

– Shuni bilib qo'yki, birodar Sancho, jahongashta ritsarlar yo'llarning chorrahalarida bunaqa hodisalarga tez-tez duch kelib turadilar: bunday paytlarda boshing yorilishi yoki qulog'ingdan ajrashing mumkin, lekin bundan biror manfaat ko'rolmaysan. Sabr qil, bundan muhimroq hodisalarga ham duch kelamiz hali,

bernatorlikning keragi yo'q. Sizga ko'rsatayotgan cheksiz va sadoqatli xizmatim evaziga sizdan faqat bir narsani so'rayman: menga ana shu ajoyib dorining tarkibiga kiradigan dorivorlarning ro'yxatini bersangiz bas, marhamatli janobim. Sira shubham yo'qki, o'sha malhamingizning bir misqolini<sup>1</sup> hamma vaqt va hamma yerda ikki realga, balki, undan ham qimmatroqqa pullash mumkin. Bu esa umrimni halol va tinch yashab o'tkazishimga yetarlidir. Ha, aytganday, bunaqa dorini tayyorlash qimmatga tushadimi?

– Uch realga uning uch asumbrasini<sup>2</sup> tayyorlash mumkin, – deb javob berdi don Kixot.

– Unday bo'lsa nimani kutib turibsiz, marhamatli sinor! – xitob qildi Sancho. – O'zingiz o'sha dorini tayyorlasangiz, menga ham o'rgatsangiz bo'lmaydimi?

– Jim bo'l, do'stim, – deb javob berdi don Kixot, – hali men senga bundan ham katta sirlarni aytaman, bundan ham ortiq lutf-ehsonlarga ko'mib yuboraman. Endi qulog'imni tuzatish chorasini ko'raylik, uning og'rig'i jonimdan o'tib ketyapti.

Sancho to'rvasidan titilgan ip bilan malham oldi. Don Kixot dubulg'asini olarkan, uning pachochlanib ketganini ko'rib aqldan ozishiga sal qoldi. Qo'lini qilichiga qo'yib va ko'kka ko'z tikib turib shunday dedi:

– O'n sakkiz ming olamni yaratuvchisi va to'rt muqaddas kitob<sup>3</sup> haqqi, qasamyod etamanki, buyuk Mantuanlik Markiz o'z jiyani Balduinning o'limi uchun qasos olishga qasamyod etganidan keyin qanday yashagan bo'lsa, men ham bundan buyon shun-

<sup>1</sup> Misqol – qadimiy og'irlik o'lchov birligi. Sharq (arab) mamlakatlarida qimmatbaho buyumlamning og'irligi misqol bilan o'lchangan. 1 misqolning og'irligi 100 dona arpa (yoki bug'doy) doni og'irligiga tenglashtirilgan. Agar bir dona arpa donini qadimda o'rtaicha 0,0409512 grammga teng qilib olingani hisobga olinsa, u holda 1 misqol=100 arpa doni=1000,04095122 = 4,09512 gramm bo'ladi. Samarqandda (VI-VIII asrlarda) 4,46 gramga, Buxoroda (XVIII-XIX asrlarda) 4,85 gramga, Xorazmda (XIV asrda) va Farg'ona vodiysida 4,55 gramga bo'lgan. Misr va Sudanda 1 misqol 4,68 gramm, Suriyada 4,45 gramm, Irokda 4,46 gramm, Eronda (XIV asr) 4,3 gramga, XIX asr oxiridan esa 4,639 gramga, Hindistonda 4,583 gramga teng bo'lgan. Misqol Yaqin Sharqda hozir ham ishlatiladi.

<sup>2</sup> Asumbra – ikki litrdan ko'proq bo'lgan suyuqlik o'lchovi.

<sup>3</sup> To'rt muqaddas kitob – Qur', Injil, Tavrot, Zabur.

day yashayman: meni bunday haqoratlagan shaxsdan qasos olmaganimcha dasturxondan non yemaslikka, uy va kulbalarda tunamaslikka, yarog'-aslahalarimni yechmaslikka va uyimga qaytmaslikka qasam ichaman.

Sancho bu so'zlarni eshitib shunday dedi:

– Nimalar deyapsiz, muhtaram janobim, sinor don Kixot! Agar siz yenggan ritsar buyrug'ingizni bajo keltirib, Tobosolik Dulsineya xonim huzuriga oyog'iga bosh urgani jo'nagan bo'lsa, unda sizning oldingizda u begunoh va yangitdan jinoyat qilmagunicha yana jazolanishga loyiq emas-ku, axir.

– Gaping to'g'ri, Sancho, – deb javob berdi don Kixot. – Men o'sha ritsardan qasos olishdan voz kechaman. Lekin men boshqa biror ritsardan xuddi mana shu dubulg'amday ajoyib dubulg'ani tortib olmaganimcha o'z qasamimga sodiq qolaman. Yana meni, og'iz ko'pirtiryapti, deb o'ylama. Axir, men buyuk kishilardan ibrat olib, ularning izidan boraman: Mambinning dubulg'asi bilan ham shunday bo'lgan, bu Sakripantga juda qimmatga tushgan.

– Bunday niyatlaringiz baloga daf bo'lsin-e, muhtaram janob! – xitob qildi Sancho. – Bu faqat sog'liqqa ziyon, vijdon azobi-ku. Mabodo dubulg'a kiygan odamni yaqin orada uchratolmasak-chi? Unda nima qilasis. Nahotki, aqldan ozgan o'sha keksa Mantuanlik Markiz izidan borib, kiyimingizni yechmay uxlab, ochiq havoda tunab, xullas, o'zingizni ming azobga mubtalo qilib, bu niyatingizni amalga oshirmoqchi bo'lsangiz? O'zingiz o'ylab ko'ring, marhamatli sinor, bu yo'llardan qurollangan ritsarlar emas, balki shu atrofda yashovchi oddiy podachilar bilan tinch aholi qatnaydi-ku, axir.

Bu bechoralar dubulg'ani ko'rish u yoqda tursin, bunday narsa borligini eshitmagan bo'lsalar ham kerak.

– Yanglishyapsan, – deb javob berdi don Kixot. – Oradan ikki soat o'tar-o'tmas go'zal Anjelika tufayli Albrakni<sup>1</sup> qamal qilgan qo'shinlardan ham ko'proq qurollangan kishilarga duch

---

<sup>1</sup> Albrak qamali – italiyalik shoir Matteo Boyardoning (1434 – 1494) «Oshiq Roland» dostonidan epizod.



kelaman.

– Ha, mayli, siz aytganday bo‘la qolsin, – deb javob berdi Sancho. – Lekin xudo yor bo‘lib, tezroq omadimiz kelsin-u, menga juda qimmatga tushadigan o‘sha orolni zabt etaylik, ana undan keyin o‘lsam, armonim yo‘q.

– Bundan tashvishlanmagin, deb aytdim-ku senga, Sancho, orol bo‘lmasa, xuddi uzukka ko‘z qo‘yganday senga juda yoqadigan birorta qirollik, masalan, Daniya yoki Sobradisga o‘xshash mamlakat topilib qolar, bundan foyda qilsang qilasan, ziyon ko‘rmaysan, axir, qirollik bu chor atrofi quturgan dengiz bilan qurshalgan birorta kichkinagina orol emas-ku; ha, u yerga suv kechib xavf-xatarda emas, quruqlikdan xotirjamgina borsa ham bo‘ladi-ku. Darvoqe, bu haqda vaqti-soati kelganda gaplashamiz, hozir to‘rvangni qarab ko‘r-chi, yeydigan biror narsa bormikin. Tamaddi qilib olgach, biror qal‘ani izlab yo‘lga tushamiz, o‘sha yerda tunaymiz, boya senga aytgan dorini tayyorlayman, nega desang, Xudo haqqi, qulog‘imning og‘rig‘iga hech chidayolmayapman.

– To‘rvamda atigi bir dona piyoz, bir bo‘lak pishloq, birikki burda non bor, – dedi Sancho. – Bular sizdek mard bir ritsarga arzimaydigan ovqat, marhamatli xo‘jam.

– Bu masalada juda kaltafahmsan-da! – xitob qildi don Kixot. – Qulog‘ingda bo‘lsinki, Sancho, jahongashta ritsarlarning mardligi va jasorati – oylab ovqat yemay yuraverish-da! Har holda, ular ovqat tanlab o‘tirishmaydi, to‘g‘ri kelgan narsani yeb ketaverishadi, agar menchalik ko‘p roman o‘qiganingda edi, mashhur ritsarlarning o‘z sharafiga berilgan ziyofatlardagina ovqat yeyishlarini, boshqa vaqtlarda esa gullarning isiga mast bo‘lib yuraverishlarini bilgan bo‘larding. Faqat gullarning hidi bilangina qorin to‘yg‘azmay, boshqa zarur narsalarni ham yeyishgan bo‘lishi kerak, albatta. Axir, ritsarlar ham hammaga o‘xshagan odam, shunday bo‘lgach, ovqatlanmasliklari mumkin emas. Umrlarining ko‘pini o‘rmonzor va cho‘l-u biyobonlarda o‘tkazganlari uchun xuddi hozir sen menga taklif qilayotgan oddiy qishloqona ovqatlar bilan kifoyalangan bo‘lsalar kerak. Shuning uchun, do‘stim Sancho, menga quvonch baxsh etgan

narsadan sen ranjimag qo'ya qol, nega desang, men uchun ajdodlarimdan ibrat olishdan ham huzurliroq narsa yo'q. Butun fikri-yodini qusur-u illat va gunohga botgan olamni qaytadan yangilashga qaratgan odam ovqat haqida o'ylarmidi! Meni jahongashta ritsarlik muqaddas urf-odatlarini buzishga majbur etishga urinmay qo'ya qol.

– Muhtaram janobim, kechirgaylar, – deb javob berdi Sancho. – Men o'qishni ham, yozishni ham bilmayman-ku, axir. Shunday ekan, ritsarlik qoidalaridan qanday xabarim bo'lsin. Bundan buyon siz uchun qopda quritilgan turli mevalarni olib yuraman, o'zimga esa ham mazali, ham yog'liroq biror narsa g'amlab olaman.

– Men, jahongashta ritsarlar quruq mevadan boshqa hech narsa yeya olmaydilar deyayotganim yo'q, – e'tiroz bildirdi don Kixot. – Ular, odatda, quruq mevalar bilan, yana dalada o'sadigan ba'zi bir giyohlar bilan tamaddi qilishardi, demoqchi edim, xolos. Men ana o'sha giyohlarni yaxshi bilaman, ularni topishga ham qodirman.

– Mana bu juda ham foydali ilm ekan, – tan berdi Sancho, – vaqti kelib uning asqatishi turgan gap, buni yuragim sezib turibdi.

## O'NINCHI BOB

### DON KIXOTNING YANGUESLIK OTBOQARLAR BILAN BO'LGAN MASH'UM UCHRASHUVI

Shu yerga kelganda don Kixot bilan Sancho o'z yo'r-g'alaridan tushdilar, oziq-ovqat solingan to'rvani ochdilar, unda borini osoyishta va inoqlik bilan, o'z martabalariga qaramay, do'stona baham ko'ra boshladilar.

Bu orada Rosinant bilan eshak quyuq o'tzorda bemalol o'tlab yurishardi. Sancho Rosinantning yuvoshligiga ishonib, uni kishanlamadi. Biroq taqdir yoki, to'g'rirog'i, shayton qaltis hazil qilib, do'stlarimiz boshiga og'ir malomatlar soldi. Shu o'tloqda

yangueslik otboqarlarning otlari ham o'tlab yurardi. Yolg'izlikda zerikib qolgan Rosinant otlarni ko'rib, ular yoniga yo'rg'alab ketdi. Biroq Yangues tulporlari Rosinantni juda sovuq kutib olishdi, birgalashib bechorani tishlashga, tepishga kirishishdi. Oradan bir daqiqa ham o'tmay, Rosinantni eshitib otboqarlar yugurib kelishdi. Ular o'z uyurlarida begona otni ko'rib, so'yillari bilan sho'ring qurg'ur Rosinantning shunday ta'zirini berdilarki, u naq chalajon bo'lib yerga yiqildi.

– Do'stim Sancho, – dedi don Kixot, – bularning ritsar emas, balki pastkash hamda razil odamlar ekanligi ko'rinib turibdi. Binobarin, Rosinant uchun ulardan qasos olishda menga dadil yordam berishing mumkin.

– Ulardan qanday qasos olish mumkin, – deb so'z qotdi Sancho, – axir, ular yigirma kishidan oshiq bo'lsa, biz esa aslida bir yarim-u sanoqda ikki kishi bo'lsak.

– Yolg'iz o'zim yuztasiga bas kelaman, – dedi don Kixot. Shundan keyin ortiqcha gapirib o'tirmay, qilichini yalang'ochladi-yu, yanguesliklar ustiga tashlandi. O'z xo'jayinining jasoratidan dalda olgan Sancho Pansa ham uning ketidan jangga tashlandi. Don Kixot birinchi zarbadayoq otboqarlardan birini og'ir yarador qildi. Avvaliga yanguesliklar bir daqiqa hang-u mang bo'lib qolishdi, lekin hujumga otilgan ikki kishi ekanini ko'rib, o'zlarini ancha bosib olishdi-da, so'yillarini ishga solishdi. Ular raqiblarini qurshab olib, chaqqonlik va epchillik bilan beayov savalayverishdi. Bu tengsiz jang uzoqqa bormadi: bir necha daqiqa o'tmayoq Sancho yerga cho'zilib qoldi, bu olishuvda bor mahorati va mardligi ham ko'p ish berolmagan don Kixot esa Rosinantning oyoqlari yoniga quladi. Chunki g'azabi qo'zigan dehqonlar qo'lida so'yil dahshatli qurolga aylanib ketadi-da. Otboqarlar o'z dushmanlarining qimir etmay yotganini ko'rib, bu notanish kishilarni o'ldirib qo'yibmiz, deb o'ylashdi. Yanguesliklar o'zlarini qotillikda ayblab, javobgarlikka tortishlaridan qo'rqib, shosha-pisha otlariga yuklarini ortdilar-u, yerparchin bo'lib yotgan ikki sarguzasht izlovchini shu ahvolda qoldirgan-cha yo'llariga ravona bo'ldilar.

Avval Sancho Pansa o'ziga keldi. Ko'zini ochib u yoq bu

yoqqa qararkan, yonida yotgan xo‘jayiniga ko‘zi tushib:

– Sinor don Kixot! Hoy, sinor don Kixot! – dedi ohista, mungli ohangda.

– Nima deysan, birodarim Sancho! – ingrab javob qildi don Kixot.

– Siz marhamatli janobimning bir-ikki tomchi Ferta Blase malhamini mendan ayamasliklarini istardim, – deb javob berdi Sancho Pansa. – Balki, bu malham ritsar qilichi zarbini tuzatganidek, dehqon so‘yili zarbidan yetgan jarohatga ham shifo berar.

– Hayhot! – xitob qildi don Kixot. – Bunday malhamimiz bo‘lganda-yu, boshqa hech narsaning hojati yo‘q edi-ya. Ammo lekin jahongashta ritsar sharafi-la qasamyod etamanki, Sancho Pansa, agar taqdir to‘g‘anoq bo‘lmasa, uni ikki kunga qolmay topaman.

– Muhtaram janobim, bu qontalashib momataloq bo‘lib ketgan joylarimiz qachon tuzalib ketarkin? – deb so‘radi Sancho Pansa.

– O‘zinning qontalash joylarim mayli-ku-ya, – deb javob berdi rosa kaltaklangan ritsar, – ammo meni hamma narsadan ko‘ra yuz bergan voqeaga o‘zim aybdorligim qiynayapti. Ritsarlik unvonini olmagan kishilarga qarshi qilich ko‘tarmasligim kerak edi. Ana shu ritsarlik qonunlarini buzganim uchun ham janglar ma‘budi meni haqli ravishda jazoladi. Ha, Sancho Pansa, aytadigan gaplarimni qulog‘ingga quyib ol, negaki bu har ikkovimizga ham foydali: manfur avomning bizga tashlanmoqchi bo‘layotganini ko‘rishing bilanoq mening qilich yalang‘ochlashimni kutib o‘tirmay, o‘z qilichingni olgin-u, ko‘ngling xohlaganicha adabini berib qo‘y. Mabodo avomning yonini ritsarlar oladigan bo‘lsa, unda men seni himoya qilishga va ularga munosib zarba berishga qodirman. Axir, bu shavkatli qo‘llarimning qudrati naqadar buyuk ekanligiga amalda ming bora ishonadiginku.

Bechora sinorimiz jasur biskaylikni yengganidan keyin ana shunday mag‘rurlanib ketgandi. Biroq Sancho Pansa bu xususda xo‘jayiniga qaraganda boshqacharoq fikrda bo‘lgani uchun

indamay qo‘ya qolish o‘rniga shunday deb javob berdi:

– Sinor, men beozor, kamsuqum, mo‘min-qobil, kim qanday xafa qilsa ham, xo‘p deb ketaverishga tayyor odamman, chunki mening xotinim, bola-chaqam bor, ularni boqib, katta qilishim kerak. Ana shuning uchun ham, siz marhamatli janobimning ruxsatlari bilan, na avomga, na ritsarlarga qarshi sira-sira qilich ko‘tarmayman. Meni xafa qilganlarni va bundan buyon xafa qiladiganlarni oldindan kechiraman. Meni kimki xafa qilmasin – aslzodami yo avommi, badavlatmi yo kambag‘almi, idalgomi yo dehqonmi, har qanday odam bo‘lsa ham – baribir, men hech kimga tegmayman.

Don Kixot buni eshitib, shunday dedi:

– Qani endi, qovurg‘alarim bunchalik og‘rimasa-ku, sening qanchalik yanglishayotganingni tushuntirib bersam, Sancho. So‘zlarimga quloq sol, gunohkor banda. O‘zing tasavvur qilib ko‘r, basharti bizdan muruvvatini darig‘ tutayotgan taqdir shamoli to‘satdan maylimizga qarab essa-yu, orzu-istaklarimiz yelkanini qappaytirib, bizni men senga va‘da qilgan o‘sha orolning gavaniga<sup>1</sup> olib borib qo‘ysa. O‘shanda sen o‘zingning bu yangi lavozimingni uddalayolmassan deb qo‘rqaman. Chunki sen xafa qilganlari uchun qasos olishni, o‘z huquqlaring uchun mardona kurashishni istamayapsan. Vaholanki, odatda zabt etilgan mamlakatlarning aholisi yangi hokimga noxushlik bilan istar-istamas bo‘ysunadilar. Ana shunday aholi ustidan hukmronlik qilish uchun esa hokim mard va qat‘iy bo‘lishi zarur.

– Hozir men, muhtaram janoblari tilga olganlaridek, mard va qat‘iy bo‘lishni istardim, – deb javob berdi Sancho Pansa, – sababi ahvolim juda og‘ir. Kambag‘allik sha‘nim bilan qasamyod etamanki, men hozir nasihatdan ko‘ra dori-darmonga muhtojman. Sinor, o‘rningizdan turishga harakat qilib ko‘ring, zotan, u buncha hurmatga loyiq bo‘lmasa-da, Rosinantning turishiga yordam beraylik. Axir, bu ko‘rgiliklarning sababchisi-da u. Men Rosinantdan bunday ucharlikni sira-sira kutmagan edim, uni ham

---

<sup>1</sup> *Gavan* (gollandcha) – dengiz va daryolarda suv sathining to‘lqin, shamol va suv oqimlaridan sun‘iy yoki tabiiy himoyalangan kemalar turadigan va ta‘mirlanadigan qirg‘oq qismi.

hamisha o'zimday aqlli va yuvosh deb o'ylardim. O'z yaqinlaringning ichidagisini bilib olish oson emas, deb juda to'g'ri aytisharkan. Siz qilich o'ynatib, o'sha bechora jahongashta ritsarga g'olibona zarbalar berganingizdan keyin ko'p o'tmay tayoqdan yelkalarimiz yag'iri chiqadi, deb kim o'ylabdi deysiz!

– Sening yelkalarining-ku, Sancho, bunga o'rganib qolgan-a, ammo hech kim hech qachon barmog'ini ham tekkizishga jur'at etolmagan mening yelkalarimni aytmaysanmi, – deb javob berdi don Kixot. – Basharti men ko'plab ritsarlarning boshiga xuddi shunday musibatlar tushgan deb o'ylamaganimda – nimalar deyapman o'zi! Agar bunga imonim komil bo'lmaganida, allaqachon alamimga chidayolmay olamdan o'tgan bo'lardim.

Uning bu gaplariga qurolbardori shunday deb javob berdi:

– Modomiki jahongashta ritsarlarning boshiga bunday musibatlar tushishi muqarrar ekan, sinor, marhamat qilib menga ayting-chi, boshimizda hadeb shunaqa kaltak sinaveradimi yoki oradan biror ma'lum muddat o'tishi kerakmi? Shunaqangi yana ikkita hodisaga duch kelgudek bo'lsak, bardosh bera olmaymiz, deb qo'rqaman!

– Do'stim Sancho, shuni bilib qo'ygilki, – deb javob berdi don Kixot, – jahongashta ritsarlarning hayoti xavf-xatar va musibatlar bilan to'la, lekin buning evaziga ulardan har qaysisi qirollik va hatto imperatorlik tojiga ega bo'lishni umid qila oladi. Biqinlarim buncha qattiq og'rimaganida-yu, ulardan ba'zilarining bir safar ko'rsatgan jasorati bilan qirollik taxtiga chiqqanini senga aytib berardim. Lekin hatto shundan keyin ham ular azob-uqubat va musibatlariga ko'p martalab bardosh berganlar. Bu xususda ritsarlik taqdirining bevafoiligini o'z boshidan kechirgan dovyurak Galliyalik Amadis ajoyib misol bo'la oladi, bir kuni u o'zining ashaddiy dushmani sehrgar Arkalayning qo'lga tushib qoladi. Arkalay uni o'z qal'asi hovlisidagi ustunga bog'lab qo'yib, otining yugani bilan naq ikki yuz martadan ortiqroq savalagan. Shuning uchun ham boshimga tushgan azob-uqubattan nolish mutlaqo yarashmaydi, chunki ana o'sha dovyurak va oliyjanob kishilar boshiga tushgan baxtsizlik menikidan yuz chandon ortiqroq. Buning ustiga, qo'lga tasodifan tushib qolgan

qurol bilan yetkazilgan jarohat uyat hisoblanmaydi. Bu xususta yakkama-yakka olishuvlar to'g'risidagi qoidalarda aniq ko'rsatmalar borki, unda shunday deyiladi: «Mabodo bir etikdo'z qo'lidagi qolipi bilan boshqa bir etikdo'zni ursa, bu qolip yog'ochdan yasalgan bo'lsa-da, kaltak yeganni tayoq bilan kaltaklangan deb hisoblab bo'lmaydi!». Bu badbaxt olishuvda bizning sha'nimizga dog' tushdi deb o'ylama, chunki bu odamlar oddiy tayoqlar bilan jang qildi. Menimcha, ularning birortasida na qilich, na nayza, na xanjar bor edi.

– Ularning nima bilan jang qilayotganlarini ko'rishga menda vaqt bo'lmadi, – deb javob berdi Sancho. – Hash-pash deguncha ular qo'llaridagi tayoqlari bilan shunday siylab berishdiki, ko'z o'ngim qorong'ilashib, oyoqlarim chalishib ketdi. Buning ustiga, tayoq yeganim uchun sha'nimga dog' tushdimi yo yo'qmi, buni o'ylab ham o'tirmayman. Bu zarbalarning qovurg'alarimdagi singari xotiramda ham chuqur iz qoldirganlarining o'zi ham yetib ortadi.

– Shuni bilib qo'yki, oshnam Sancho, – dedi don Kixot, – unutilmaydigan alam ham, o'lim davolay olmaydigan jarohat ham yo'q.

– Nahotki, faqat vaqt yengillatib, o'lim esa davolay oladigan musibatlardan ham yomonroq g'am-alam bo'lsa olamda? – deb javob berdi Sancho. – Agar dardimizga oddiy malham davo bo'lganda-ku, alam demas edim-a buni, lekin, nazarimda, barcha dori-darmonlar hozir bizga yordam berolmaydi.

– Umidsizlanma, do'stim Sancho! Mana mendan ibrat ol, – dedi don Kixot. – Kel, yaxshisi, Rosinantning holidan xabar olaylik. Bu sho'rlik ham bizdan kam jaf o'rmagan bo'lsa kerak.

– Jahongashta tulpor bo'lganidan keyin, – deb javob berdi Sancho, – buning ajablanadigan joyi yo'q. Eshagimning esonomon qolganiga xursandman, bizlarning terimiz shilinib ketishiga sal qolgan bir paytda, uning bir tola tukiga ham ziyon yetmadi.

– Baxtsizlik yuz berganda, taqdir taqozosi bilan hamisha undan qutulishning biron iloji topiladi, – dedi don Kixot. – Men bu gapni shuning uchun aytyapmanki, eshaging bu gal Rosinant-

ning o'rnini bosishi va biror qal'aga eltishi kerak, toki u yerda jarohatlarimni davolab, menga g'amxo'rlik ko'rsatgaylar. Men umuman eshak minish ritsarni kamsitadi, deb o'ylamayman, xushchaqchaq kulgi ma'budining tutingan otasi va murabbiysi xushfe'l keksa Silenning<sup>1</sup> Yuzyolg'on shahriga ajoyib eshak minib borganini qayerdadir o'qiganim esimda.

– Hazratlari, u kishi eshakka minib olgan bo'lsalar kerak, – dedi Sancho. – Axir, egarga minish bilan xuddi ichiga axlat solingan qopdek ko'ndalangiga yotishning farqi bor-da.

Bunga don Kixot shunday deb javob berdi:

– Jangda yaralanish hamisha shuhrat keltiradi, do'stim Pansa. Shunday ekan, bahslashib o'tirmay, yaxshisi, meni eshakka qulayroq qo'ndirish taraddudini ko'r. Tungacha bu xilvat joyda qolib ketmaslik uchun shoshilishimiz kerak.

– Lekin men siz hurmatli zotning og'zilaridan jahongashta ritsarlar ochiq havoda tunashni afzal ko'radilar, deb eshitgan edim-ku, – dedi Pansa.

– Ular, – deb javob qildi don Kixot, – tunashga joy topolmaganlarida yoki oshiq bo'lib qolganlarida shunday hol yuz beradi. To'g'ri, shunaqa bir ritsar bo'lgan, u naq ikki yillab jazirama issiq, qahraton qish, har qanday ob-havo sharoitiga bardosh berib, qoyada yashagan, shunday bo'lsa ham, bundan qalbini rom etgan xonimning xabari bo'lmagan. Mashhur Galliyalik Amadis o'z dildorining g'azabiga uchrab, sakkiz yil dashtda qolib ketgan. Dashtda u tavba-tazarru va ibodat qilgan, daryo-daryo ko'z yoshi to'kib, shafqatsiz malikasidan gunohidan o'tishini so'ragan. Shu vaqt ichida u biror marta ham yopiq joyda tunamagan, issiq ovqat yemagan, kiyim-boshini ham almashtirmagan. Bundan boshqa misollarni ham keltirish mumkin.

---

<sup>1</sup> Silen – qadimgi yunon afsonalarida tasvirlangan may-uzumchilik ma'budi Vaxx (Dionis)ning tarbiyachisi. U mayxo'rlik va sho'x o'yin-kulgi, bayramlarning muxlisi bo'lgan. Silenni ko'pincha eshakka mingizilgan va mast holda tasvirlaganlar. Uning mast satirlar (qadimgi yunon afsonalarida may va aysh-ishrat ma'budining echki shaklida tasvirlangan hamrohi) va fravnlari (qadimgi Rim afsonalarida tasvirlangan o'rmon ilohi.) to'dalarining qurshovida yunon shahri Fivaga tantanali vaziyatda kirib borishi haqidagi hikoya Uyg'onish davrida katta shuhrat qozongan edi. Don Kixot xuddi shu hikoyaga ishora qilgan.



Ammo bas, Sancho, ortiqcha ezmalikning keragi yo'q. Eshak ham biror baloga uchramasidan tezroq taraddudingni ko'r.

– Yo'q, endi shayton ham yo'ldan ozdirolmaydi, – dedi Sancho.

Shundan keyin naq o'ttiz martacha oh-voh qilib, oltmish marta xo'rsinib, uni bu ahvolga solganlarni yuz bor la'natlab, arang turdi yerdan. Qaddi uch bukilib oqsoqlangancha va gandraklagancha eshagining yoniga bordi-da, uni egarladi. Eshak ham go'yo xo'jayiniga rahmi kelganday juda ayanchli ahvolda edi. Sancho unga don Kixotni qo'ndirib, Rosinantni ham ketiga bog'ladi-da, yuganidan ushlab, katta yo'l tomon arang surgalib ketaverdi.

Biroq unga taqdir shafqat qildi. U bir chaqirim ham yo'l bosmay, uzoqdagi karvonsaroyga ko'zi tushdi, don Kixot uni shu zahotiyuq qal'a deb o'yladi. Sancho buning karvonsaroy ekanini isbotlashga behuda urindi. Don Kixot bu qal'a deb turib oldi. Darvozaga yetgunlaricha tortishib bordilar. Yetib kelishgach esa Sancho qayerga kelishganini ham so'rab o'tirmay, to'ppa-to'g'ri ichkariga yetaklab kiraverdi eshagini.

## O'N BIRINCHI BOB

### RITSAR QAL'A DEB O'YLAGAN KARVONSAROYDA DON KIXOT VA UNING SODIQ QUROLBARDORI BOSHIGA TUSHGAN SAVDOLAR

Karvonsaroy egasi eshakda ko'ndalang yotgan don Kixotni ko'rib Sanchodan, bu bechoraga nima bo'ldi, deb so'radi. Sancho uning qoyadan qulab biqinlari shikastlanganini aytdi. Karvonsaroy bekasi, tabiatan ko'ngli bo'sh, rahmdil ayol, bu so'zni eshitgach, don Kixotga yordamga shoshildi. U o'zining yoshgina yoqimtoy qiziga yangi mehmonga qarashni buyurdi. Bir ko'zi g'ilay, yalpoq bo'yin, barvasta va novchadan kelgan Maritornes ismli asturiyalik xizmatkor ayol bilan ritsarimizga yaqindagina badavlat arevalolik xachir haydovchi tunagan chordoqda joy ho-

zirlashdi.

O‘rin ham juda ajoyib edi, baland-past ikki o‘rindiqqa to‘shalgan jun to‘shak bosilaverib toshday qotib ketgan, qo‘tos<sup>1</sup> terisiday qattiq ikki choyshab isqirt, ilma-teshik ko‘rpa – bu yotoqning bor jihozi shu edi.

Don Kixotni ana shu faqirona o‘ringa yotqizishdi va beka qizi bilan ikkovlashib shu zahotiyiq unga malham sura boshlashdi. Ana shu paytda beka bechora idalgoning badanida behisob qontalashgan joylarni ko‘rib, bular yiqilib tushib jarohatlanganga emas, tayoq izlariga o‘xshaydi-ku, dedi.

– Tayoq iziga deysizmi? – javob berdi Sancho. – Yo‘q, qoya juda serqirra g‘adir-budir ekan, har qaysi qirra badanida momataloq iz qoldirgan.

Keyin yana qo‘shib qo‘ydi:

– Bekam, bir yaxshilik qiling, ana shu malhamdan ozrog‘ini ehtiyot qilib olib qoling. U yana boshqa birovga ham kerak: mening o‘zimning ham belim zirqirab og‘riyapti.

– Bundan chiqdi siz ham yumalab tushgan ekansiz-da? – deb so‘radi beka.

– Men-ku yumalab tushganim yo‘g‘-a, – javob berdi Sancho Pansa, – xo‘jayinim yiqilib tushganida shunday qo‘rqib ketdimki, meni minglab so‘yil bilan kaltaklashganday badanim zirqirab ketdi.

– Ha, shunaqa bo‘ladi, – dedi bekaning qizi. – Men ham, ko‘pincha, tush ko‘rganimda, qoyadan yiqilib ketayotganga o‘xshayman-u, lekin hech yiqilib tusholmayman. Uyg‘onib ketganimdan keyin esa, chindan ham yiqilib ketganday, o‘zimni juda horg‘in sezaman.

– Hamma gap shunda-da, sinora, – dedi Sancho, – tushimda emas, o‘ngimda xo‘jayinim don Kixotga o‘xshab butun badanim ko‘karib momataloq bo‘lib ketdi.

– Bu kabaleroning ismi nima? – deb so‘radi xizmatkor ayol Maritornes.

– Lamanchlik don Kixot, – deb javob berdi Sancho Pansa.

<sup>1</sup> Qo‘tos – tog‘da yashovchi yovvoyi qoramol.

– U olamdagi eng mashhur va eng qudratli jahongashta ritsarlardan biri.

– Jahongashta ritsarlarning o‘zlari kim? – yana so‘radi xizmatkor ayol.

– Mana bu soddalikni qarang-u, – xitob qildi Sancho Pansa. – Nahotki, siz ularning kimligini eshitmagan bo‘lsangiz. Yo‘qsa bilib qo‘ying, singlim, jahongashta ritsar dunyodagi eng g‘alati zotdir. Bugun u chala o‘lik qilib kaltaklanishi, ertaga esa, qarabsizki, imperator bo‘lib olishi, bugun ojiz bir kambag‘al bo‘lishi, ertaga esa o‘z qurolbardoriga uchta-to‘rtta qirollikdan xohlaganini in‘om eta oladigan badavlat odam bo‘lishi mumkin.

– Iye, bu qanaqasi? – so‘radi beka. – Xo‘jayiningiz ana shunday katta odam bo‘lsa, nega shu mahalgacha, hech bo‘lmasa, biror graflikni qo‘lga olmadingiz?

– Bu darrov bo‘la qolmaydi-da, – deb javob berdi Sancho. – Sarguzasht izlab yo‘lga tushganimizga atigi bir oy bo‘ldi, lekin shu mahalgacha birorta ham arziydiganiga yo‘liqqanimiz yo‘q. Ba‘zan izlaganing qolib, mutlaqo boshqa narsani uchratasan. Biroq sizga shuni aytamanki, xo‘jayinim don Kixot yaralaridan qutulsa, ya‘ni lat yegan joylari tuzalib ketsa, men ham sog‘-salamat bo‘lsam, Ispaniyaning eng oldi knyazlaridan ham ulug‘-roq biror martabaga erishaman.

Don Kixot bu suhbatni juda e‘tibor bilan tingladi. U qaddini zo‘rg‘a ko‘tardi-da, bekaning qo‘lini ushlab turib, shunday dedi:

– Gapimga ishonavering, go‘zal sinora, mendek oliy zotga o‘z qal‘angizdan joy berganingizni o‘zingiz uchun bir baxt deb hisoblashingiz mumkin. Men o‘zim to‘g‘rimda sizga gapirib o‘tirmayman, chunki kimligimni u sizga ma‘lum qildi. Ammo shuni aytmoqchimanki, menga ko‘rsatgan marhamatingiz xotiramda abadiy qoladi va men buning uchun umr bo‘yi sizdan minnatdor bo‘lib yuraman. Mabodo nomini men shivirlab takrorlashgagina qodir bo‘lganim marhamatsiz go‘zalning sehrli ko‘zlari aqli-hushimni o‘g‘irlab, muhabbati meni asir qilmaganida edi, mana bu parinamo qizning qo‘llariga butun erkimni tutqazgan bo‘lardim.

Beka, uning qizi va oqko'ngil Maritorneslar jahongashta ritsarning gaplarini hayratlanib tinglarkanlar, go'yo u yunon tilida so'zlayotganday, hech narsaga tushunmadilar. To'g'ri, ular ritsarning o'zlariga yaxshi so'zlar bilan tashakkur aytayotganini fahmladilar-u, lekin unga nima deb javob berishga aqlari shoshdi, shuning uchun ham unga angraygancha tikilib turishdi. Chindan ham don Kixot ularga allaqanday alohida bir zotdek tuyuldi. Beka bilan qizi don Kixotga xayrli tun tilab chiqib ketishdi, xizmatkor ayol Maritornes esa xo'jayinidan kam bo'lmagan darajada yordamga muhtoj Sancho bilan shug'ullandi. O'z ishini ado etgach, u ham pastga tushib ketdi va sayyohlarimizning o'zlari qoldi.

Don Kixotning faqirona va qattiq karavoti chordoqqa kiraverishda birinchi edi. Sancho uning yoniga joylashdi, xachir haydovchining o'rnini biroz narida edi. U o'z xachirlaridan xabar olib, tungi ovqatlarini berib bo'lgach, chordoqqa chiqib yonboshladi-yu, shu zahotiyuq uxlab qoldi. Sancho ham shunday qilmoqchi bo'ldi-yu, lekin biqinlarining og'rig'i unga uyqu bermasdi.

Don Kixot og'riqdan Sanchodan kam azob chekmayotgan edi, u ko'zlarini chaqchaytirganicha qorong'ilikka behuda tikilib yotardi. Ko'p o'tmay uyga butunlay jimlik cho'kdi, kiraverishdagi chiroqdan boshqa chiroqlarning hammasi o'chirildi.

Bu chuqur sukunat va idalgomizning sevimli romanlarida to'lib-toshib yotgan sarguzashtlar to'g'risidagi xotiralar uning boshida faraz qilishgina mumkin bo'lgan juda g'alat va bema'ni fikrlardan birini uyg'otdi. Nazarida, u qandaydir ulug'vor qal'aga kirib qolganday va uning husni-jamoliga asir bo'lgan beka-ni qizi uni sevib qolganday, bugun kechasi huzuriga kelishga va'da berganday tuyuldi. Bu alahlashlarni chinakam haqiqat deb o'ylab, bu mash'um aldovlarga uchib, o'z oliyhimmatliligimga putur yetmasa edi, deb tashvishlana boshladi. Hatto qirolicha Jinevra<sup>1</sup> sevgi izhor qilgan taqdirda ham, o'z malikasi Tobosolik Dulsineyaga bevafoqlik qilmaslikka qat'iy qaror berdi.

---

<sup>1</sup> Jinevra – afsonaviy ingliz qiroli Arturning rafiqasi, o'rta asrdagi ko'p afsona va romanlarning qahramoni.

Baxtga qarshi Maritornesga chordoqda nimadir kerak bo'lib qoldi. U shovqin chiqarmaslik maqsadida ehtiyotkorlik bilan yuqoriga ko'tarildi. Biroq u endi ostonadan o'tishi bilanoq don Kixot uning qadam tovushini eshitib, karavotida turib o'tirdi-da, xizmatkorning yaqinlashishini kuta boshladi. Asturiyalik ayol qorong'ida don Kixotning karavotiga chindan ham tegib ketishiga sal qoldi va oliyhimmat kabaleromiz uning qo'lidan ushlab qolishga ulgurdi. Qo'rqib ketgan Maritornes jon-jahdi bilan undan qutulishga urinib ko'rdi, lekin don Kixot uni o'z karavotining chetiga o'tirg'izib, muloyimlik bilan ohista dedi:

– O, go'zal, aslzoda sinora, bir qiyo boqib, meni samoviy chiroyingizdan bahramand etgan bebaho iltifotingizga yarasha yaxshilik qilishni shunday istardimki! Biroq mash'um taqdir qalbmni allaqachon boshqa bir go'zal malika sevgisi bilan band etgan. Qalbmndagi orzu-o'ylarimning yagona hukmdori beqiyos Tobosolik Dulsineyaga mangu sodiq qolishga qasam ichganman. Basharti shunday bo'lmaganida, sira hayallamay minnatdorlik hislari bilan to'lib-toshgan yuragimni oyoqlaringiz ostiga to'kib solardim.

Biroq dovdirab qolgan Maritornes don Kixotning gaplariga quloq solmas, qo'lini tortib olishga urinardi. Nihoyat, bu shovqin-suron xachir haydovchini uyg'otib yubordi. Darvoqe, uning Maritornesga mayli bor edi. U rashki kelib, asta o'rnidan turdi-da, don Kixotning oldiga keldi. Qarasa, don Kixot qutulib qochmoqchi bo'layotgan Maritornesning qo'lidan ushlab olib, unga nimalarnidir shivirlayapti. G'azablangan xachir haydovchi ko'p o'ylab o'tirmay, bu gapga chechan ritsarning jag'iga qulochkashlab shunday tushirdiki, ritsarning og'zi qop-qora qon bo'ldi. Xachir haydovchi bu ham kam deganday don Kixotning ko'kragiga chiqib oldi-da, uni tepkilay boshladi. Omonatgina turgan karavot ikki kishini ko'tara olmay sharaqa-shuruqlab sinib ketdi. Bu qiy-chuvdan tashvishga tushgan xo'jayin chiroq ko'targancha chordoqqa yugurdi. Uni ko'rib yanada esxonasi chiqib ketgan Maritornes qochib ketayotib tinch uxlayotgan Sancho ning o'rniga qoqilib ketdi-da, uning ustiga yiqilib tushdi. Sancho uyqu aralash meni ajina bo'g'yapti, deb o'ylab mushtlarini ishga

soldi. Og'rig'iga chidayolmagan Maritornes ham har qanday ehtiyotkorlikni unutib, Sanchoni do'pposlay boshladi, ikki o'rta-da oralarida qizg'in olishuv boshlanib ketdi. Buni ko'rib xachir haydovchi Maritornesga yordamga tashlandi, yetib kelgan xo'jayin esa uchraganni savalay boshladi. Kulfat ustiga chiroq o'chib qoldi, ayovsiz zarblar duch kelganga tushaverdi.

Oxiri shunday bo'ldiki, o'sha hovlida Teledo Santa Ermandadni o'qchisi ham tunab qolgan edi, u g'alati to's-to'ponlonni eshitib, hassasini olgancha chordoqqa chiqdi-da:

– Adolat haqqi, aytamanki, bas qilinglar! Xudo haqqi hamda Santa Ermandad haqqi, bas qilinglar! Sizlarga buyuryapman buni! – deb qichqirdi.

U eng avval abjag'i chiqqan o'rnida behush yotgan don Kixotga qoqilib ketdi. O'qchi uning soqolidan tutamlagancha: «Adolat ishi uchun yordamga!» – deb qichqirdi. Biroq tutib olgan odami qimir etmay yotganini ko'rib o'ldirib qo'yishibdi, deb o'yladi-da, yanada qattiqroq qichqirdi:

– Darvozalarni bekiting! Hech kimni tashqariga chiqarmang, bu yerda qotillik yuz beribdi.

Buni eshitib hammaning quti o'chib ketdi, janjal ham bir zumda to'xtadi. Xo'jayin shoshganicha o'z xonasiga, xachir haydovchi yoping'ichi ostiga, xizmatkor ayol o'z hujrasiga jo'nab qoldi; faqat sho'rlik don Kixot bilan Sancho o'z o'rinlaridan qo'zg'alisholmasdi. Shunda o'qchi don Kixotning soqolini qo'yib yubordi-da, jinoyatchilarni ushlab qamoqqa olish niyatida chiroq izlab ketdi. Biroq ancha vaqtgacha hech narsa topolmadi, chunki xo'jayin yo'lakdagi chiroqni jo'rttaga o'chirib qo'yan edi. O'qchi o'choq boshiga borishga majbur bo'ldi, u yerda ancha urinib, zo'r mashaqqat bilan bir amallab qora chiroqni yoqdi.

**KARVONSAROYNI QAL'A DEB BILIB, O'Z BOSHIGA  
BALO ORTTIRGAN BOTIR RITSAR DON KIXOT VA  
UNING SODIQ QUROLBARDORINING TORTGAN  
BEHISOB UQUBATLARI**

Bu orada don Kixot arang o'ziga keldi, inqillab qurolbardorini chaqirdi:

– Sancho, do'stim, uxlayapsanmi? Uxlayapsanmi, do'stim Sancho?

– Ey, uyquga balo bormi bu yerda, – javob qildi Sancho alam bilan jahl aralash, – tuni bilan jin-u iblislar meni mazax qilishib chiqdi.

– Bu gapingga tamomila ishonaman, – javob qildi don Kixot, – sababi yo men hech narsani tushuna olmayapman yoki bu qal'a sehrlangan. Nega desang... Ha, darvoqe, avval sen men aytganlarni hayotligimda ham, olamdan o'tganimdan keyin ham og'zingdan chiqarmaslikka qasamyod qilishing kerak.

– Ont ichaman, – dedi Sancho.

– Bunday deyishdan maqsad, – dedi don Kixot, – biror kimsaning sha'niga dog' tushirishga vijdonim yo'l qo'ymaydi.

– Aytyapman-ku, sizga, – dedi Sancho, – toki aziz joningizni Xudoyi taolaga topshirguningizcha birovga gapirmaslikka qasam ichaman deb, Xudoyo Xudovando, ertagayoq yuragimni bo'shatishni nasib etsin.

– Nahotki, men sening dilingni og'ritgan bo'lsam, Sancho? – so'radi don Kixot, – muncha mening o'limimni tilab qolding.

– Yo'q, gap boshqa yoqda, – javob qildi Sancho, – shunchaki sir saqlashga sabri-toqatim yo'q. Bu men uchun og'ir va jirkanchli tuyuladi.

– Xo'p, yaxshi, – dedi don Kixot, – menga bo'lgan muhabbating, oliyhimmatliligingga ishonaman. Shuni bilib qo'yginki, shu tunda maqtansa, maqtangudek ajoyib bir voqea yuz berdi. Qisqasi, mening huzurimga shu qal'a xo'jayinining jahon-

da tengi yo'q go'zal qizi hozirgina keldi. Uning kiyinishini, teran aqli yoki boshqa fazilatlarini men senga qanday qilib so'zlab bera olaman, bunga malikam Tobosolik Dulsineyaga bo'lgan sadoqatim monelik qiladi. Men faqat bir narsa deya olaman, xolos: yo osmoni falak mening baxt-saodatimga hasad qildi, yo, to'g'rirog'i, qal'a sehrlangan. Nega desang, men u qiz bilan shirin suhbat qilayotganimda qandaydir bir g'oyibiy dev qulochkashlab jag'imga shunday tushirdiki, shu damgacha og'zi-burnim to'la qon, keyin rosa ezib urdi, a'zoyi badanim titilib ketdi. Buning oldida kechagi podachilarning kaltaklagani holva desa bo'ladi. Bularning hammasidan chiqadigan xulosa shuki, bu qizni sehrlangan qandaydir mavr qo'riqlab turadi, bu go'zal menga nasib bo'lmaydi.

– Ha, albatta, menga ham nasib bo'lmasa kerak, – javob qildi Sancho, – chunki tuni bilan yelkamda to'rt yuzdan ortiq mavr uloq chopib yurdi, buning oldida kechagi kaltak yeyish shirin bo'saday bir gap. Lekin qanday qilib siz, sinor, buni ajoyib voqea deb hisoblay olasiz? Axir, biz arang jon saqlab qoldik, qilcha foyda ko'rmadik-ku. Muhtaram janobim, har holda, go'zal qizning qo'lidan ushlashga muyassar bo'libdilar, kaminaning boshi esa kaltak ostida qoldi. Baxtsiz odamman men! Onam meni g'am-alam uchun tuqqan! Axir, men mutlaqo jahongashta ritсар bo'lmasam-u, negadir butun kaltak mening boshimda sinsa!

– Bu qanaqasi, nahotki, seni ham kaltaklagan bo'lsalar? – so'radi don Kixot.

– Bo'lmasam-chi, yolg'on bo'lsa, ota-onamga la'natlar yog'ilsin, – javob qildi Sancho.

– Xafa bo'lma, do'stim, – dedi don Kixot, – hozir bebaho malham tayyorlayman, birpasda tuzalib olamiz.

Shu vaqt, nihoyat, qora chiroqni yoqishga muvaffaq bo'lgan o'qchi o'ldi deb o'ylagan jasadini ko'rgani kirib qoldi. O'qchi to's-to'polonda kiyinib ololmagan edi, hozir esa boshidagi oq ro'moli va ustidagi oq ko'ylakda qora chiroq yorug'ida arvohek ko'rinardi.

– Sinor, bizni o'ldirmoq uchun qaytib kelgan va boya siz aytgan sehrlangan mavr shu emasmi?



– Yo‘q, u emas, – javob qildi don Kixot. – Chunki sehrlanganlarni ko‘rib bo‘lmaydi.

– Agar ularni ko‘rib bo‘lmasa, sezib bo‘lsa kerak, – dedi Sancho, – buni zirqirab og‘riyotgan biqinlarim aytib berishi mumkin.

– Mening biqinlarim ham, – dedi don Kixot, – lekin, har holda, biz ko‘rib turgan bu odam sehrlangan mavr bo‘lmasa kerak.

O‘qchi bularning bemalol gaplashib o‘tirganini ko‘rib juda hayron qoldi. U don Kixotning yoniga kelib, so‘radi:

– Xo‘sh, ishlar qalay, azizim?

– Sizning o‘rningizda bo‘lsam, sal xushmuomalaroq bo‘lardim. Yoki siz tomonlarda jahongashta ritsarlar bilan shunaqa gaplashish odat bo‘lib qolganmi, beadab?

Bunday javobni eshitgan o‘qchi jahli chiqib, yog‘ to‘la qora chiroq bilan don Kixotning miyasiga shunday tushirdiki, kallasi yorilishga sal qoldi. Xona qop-qorong‘i bo‘lib qoldi, o‘qchi yugurib chiqib ketdi.

– Shubhasiz, sinor, – dedi Sancho Pansa, – bu o‘sha sehrlangan mavr ekan. U, aftidan, bebaho malikasini kimgadir saqlayotganga, bizga esa faqat musht-u qora chirog‘ini asrab qo‘y-ganga o‘xshaydi.

– Nazarimda, rost gapirayotganga o‘xshaysan, Sancho, – dedi don Kixot, – bunday sehrgar bilan jang qilishni hatto xayolga keltirishning ham hojati yo‘q. Shuningdek, g‘azablanmoq yoki nolimoq ham befoyda. Axir, bular ko‘rinmas, g‘oyibona kuchlar, ulardan o‘ch ololmaymiz-ku. Bu haqda keyin gaplasharmiz. Hozir esa, Sancho, o‘rningdan tur-da, qal‘a komendantini<sup>1</sup> chaqirib kel. Undan bir iloj qilib ozgina yog‘,

---

<sup>1</sup> Komendant (*fransuzcha*: commandant < *lotincha*: commendare – topshirmoq, yuklamoq) – 1) qal‘a yoki mustahkamlangan hududda ushbu joyni qo‘riqlaydigan barcha qo‘shinning boshlig‘i; 2) garnizonda qorovullar xizmatining to‘g‘ri borishi, mahbuslarning saqlanishi, harbiy xizmatchilarning jamoat joylari va ko‘chalardagi intizomi ustidan tartib olib boruvchi harbiy mansabdor shaxs; 3) temir yo‘l stansiyalarida va suv yo‘llarida (port va pristanlarda) qo‘shinlar, harbiylar va harbiy yuklarning to‘g‘ri harakatlanishini kuzatib turuvchi harbiy xizmatchi. 4) ayrim muassasalarga qarashli uylarning, (masalan, universitet yotoqxonasining boshqaruvchisi.

vino, tuz va rozmarin<sup>1</sup> olib kel, shifobaxsh malham tayyorlamasam bo'lmaydi. To'g'risini aytganda, u menga juda zarur. Boyagi sharpa yetkazgan jarohatlarimdan tirqirab qon oqyapti.

Sancho og'riqdan inqillab o'rmidan turdi-da, qal'a egasi oldiga ketdi. Kalovlab borayotib o'qchiga urilib ketdi, shunda unga:

– Kim bo'lsangiz ham, sinor, iltifot qilib bizning hojatimizni chiqarsangiz: shu qal'aga joylashib olgan sehrgar mavr zarbidan og'ir jarohatlanib o'rmidan turolmay yotgan jahongashta ritsarlar orasida tengi yo'q bir kimsaga dori tayyorlash uchun biroz rozmarin, vino va tuz topib bersangiz, – dedi.

Bu so'zlarni eshitgan o'qchi uni tentak ekan, deb o'yladi. U kirish eshigini ochib, xo'jayinni chaqirib, unga sho'rlik Sanchoning iltimosini aytdi.

Xo'jayin Sanchoga so'ragan narsalarining hammasini berdi, u don Kixotga olib borib berdi.

Don Kixot dorivorlarni darhol olib, rosa qorishtirdi. Maritornes keltirib qo'ygan ko'zachaga solib qaynatdi, nihoyat, shifobaxsh malham tayyor bo'ldi. Shundan keyin u qorishmani quyish uchun biror shishacha keltirishlarini so'radi, biroq uyda shisha topilmaganligi uchun zaytun yog'idan bo'shagan tunuka idishga quydi. Shundan so'ng tunuka idishga qarab sakson marta «yaratgan tangrimiz» va boshqa allaqancha duolarni o'qib, har so'zida bir cho'qinardi. Sancho Pansa, xo'jayin va o'qchi don Kixotning butun xatti-harakatini churq etmay kuzatib turdilar. Duoxonlikdan so'ng ritsarimiz darhol shifobaxsh malhamning kuchini sinab ko'rmoqchi bo'ldi, ko'zachada qolgan qorishmadan anchasini yutib yubordi. Biroq dorini ichib bo'lar-bo'lmas yo'tal tutib, varaqlatib qusa boshladi. Yo'talaverib qora terga botdi. U o'zini issiqroq o'rab, tinch qo'yishlarini iltimos qildi. Rosa uch soat toshdek qotib uxlab turgach, don Kixot o'zini tetik va bardam his qildi, hatto kaltakdan so'nggi og'riqlar ham sezilmasdi. U o'zini tamomila sog'lom sezib, haqiqiy F'earabras malhamini yasaganiga ishonch hosil qilarkan, bundan shu dori-

<sup>1</sup> Rozmarin – bargi va gulidan xushbo'y moy olinadigan o'simlik.

vor sharofati bilan hech qanday to'qnashuv, kaltak va mushtlashishlar xavfli emas, dedi o'zicha.

Xo'jayinning sog'ayishi Sancho Pansaga chinakam mo'jiza bo'lib ko'rindi, u shu zahotiy oq don Kixotdan sehrli malhamdan berishini so'radi. Don Kixot bajonidil unga ko'zachani uzatdi. Ko'zachani qo'sh-qo'llab ushlab olgan Sancho, bu dori-ning sehrli kuchiga juda ishonib, xo'jayininikidan sal ozrog'ini qultillatib ichdi. Ammo Sanchoning oshqozoni xo'jayininikiga o'xshash unchalik sezgir emas edi. Bechora darrov qayt qilmadiyu, qorni mijg'ib og'riy boshladi, a'zoyi badanini sovuq ter bosdi; u endi kunim bitibdi, degan qarorga keldi.

Og'riqdan tirishib, malhamni ham, unga malham bergan yaramasni ham so'ka boshladi. Uning azob chekayotganini ko'rib turgan don Kixot shunday dedi:

– Nazarimda, Sancho hamma falokat sening haqiqiy ritsar emasligingda bo'lsa kerak, negaki bu malhamning nafi faqat ritsarlarga tegadi, xolos.

– Muhtaram janoblari bundan xabardor bo'lsalar, – xitob qildi Sancho, – nega, axir, ey zotim bilan qurib ketay, oldinroq aytmadilar buni.

Shu payt dori o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Sovuq ter quyilayotgan Sancho shu qadar g'ujanak bo'lib oldiki, uning o'zigina emas, balki bu yerda turganlarning hammasi omonatini egasiga topshiradigan vaqti yetdi, deb o'ylashdi. Sancho ikki soatcha azob chekdi, tinka-madori qurib, oyoqlarida arang turardi.

Bu orada don Kixot yangi sarguzasht izlab tezlikda yo'lga chiqishni ixtiyor qilib qoldi, aks holda bekor o'tayotgan har bir soat uning himoyasi va homiyiligiga muhtoj bo'lgan barcha bebaxtlar uchun bir musibatdek tuyuldi. U o'z qo'li bilan Rosinanni egarladi, o'z qurolbardorining eshagiga bor yuklarini ortdi, so'ngra Sanchoning kiyinishi va egarga minib olishiga yordamlashdi.

Karvonsaroydagi jamiki odam don Kixotning jo'nab ketishini tomosha qilgani yig'ilishdi. To'planganlar orasida xo'jayinning qizi ham bo'lib, kabeleromiz undan ko'zini uzmasdi. Dam-badam u chuqur xo'rsinib qo'yardi. To'planganlar, aqalli,

kecha kechqurun uning etidagi momataloq bo'lib ketgan va shilingan, shalabbo bo'lgan joylarni ko'rganlar u biqinlarining og'rig'idan uh tortyapti, deb o'ylashdi.

Xayrlashmoq uchun don Kixot otini burib, xo'jayin oldiga keldi-da, tantanavor ohangda shunday dedi:

– Ey, badavlat sinor, qal'angizda menga ulkan va behisob marhamatlar ko'rsatildi, men so'nggi kunlarimga qadar sizdan minnatdor bo'lishni o'z burchim deb bilaman. Oh, qani endi, sizni xafa qilgan biror besharm muttahamning ta'zirini berib, yaxshiligingizni qaytarolsam edi. Zotan, bilib qo'yingki, oji-larga yordamlashish, mazlumlarning tarafini olish, yomonlarning ta'zirini berish mening burchimdir. Yaxshilab o'ylab ko'ring va ochiqdan ochiq aytavering: mabodo mening himoyamga muhtoj emasmisiz? Ritsar nomi bilan qasamyod etamanki, sizning har qanday adolatli istagingiz darhol va bekam-u ko'st bajo keltiriladi. Xo'jayin ham xuddi shu ohangda dedi:

– Sinor kabalero, dilimni og'ritganlardan o'ch olishingizning hech hojati yo'q, chunki bunday voqea yuz bergudek bo'lsa, mening o'zim dilozorlarning adabini berib qo'yishga qodirman. Men faqat janoblarining mehmonxonada bir kecha turganlari, kechki ovqat va ikki o'rin, shuningdek ikki jonivor yegan somon-u yem uchun haq to'lab ketishlarini istardim, xolos.

– Demak, bu karvonsaroy ekan-da? – deb so'radi don Kixot.

– Shunday, buning ustiga dong'i ketgan qo'noqxonada, – deb javob qildi xo'jayin.

– Shu daqiqagacha men yanglishib yurgan ekanman, – dedi don Kixot, – chunki, to'g'risini aytganda, bu yerni men qal'a deb tasavvur qilibman. Modomiki, bu qal'a emas, balki karvonsaroy ekan, men sizdan haq to'lashdan ozod etishingizni so'rayman, xolos. Chunki men jahongashta ritsarlar odob qoidasini buzolmayman. Bunday qoidaga muvofiq – bu narsani yaxshi bilaman – ular hech vaqt mehmonxonada turganlari uchun haq to'lashmagan. Qadimiy odat bo'yicha ularni hamma yerda izzat-ikrom bilan kutib olishlari kerak; bu ularning kecha-yu kunduz sarguzasht izlab ochlik va tashnalik, issiq va sovuqqa chidab,

beqaror taqdirning barcha bevafoqlariga bardosh berishi evaziga ko'rsatilgan adolatli tortiq bo'ladi, xolos.

– Bunday masalalarga ko'p ham tushunavermayman, – dedi xo'jayin. – Qani, tegishlisini to'lab qo'ying, ritsarlarning har xil qoida-qonunlari bilan mening ishim yo'q.

– Siz beadab va qo'rs odam ekansiz, – xitob qildi don Kixot va Rosinantning biqiniga niqtab, darvozadan chiqarkan, qurolbardori orqasidan kelyaptimi-yo'qmi, bu bilan ishi ham bo'lmay, ot yo'rttirib ketaverdi. Mehmonning haq to'lamay chiqib ketganini ko'rgan xo'jayin Sancho Pansaga murojaat qilib, haqini to'lashni so'radi, lekin Sancho bundan mutlaqo bosh tortdi.

– Jahongashta ritsarning qurolbardori, – dedi Sancho, – xo'jayin amal qilgan qoidaga bo'ysunishga majbur.

Xo'jayinning g'azabi qaynab ketdi, u agar Sancho to'lamaydigan bo'lsa, uni o'zi bilganicha jazolashini aytib do'q urdi. Lekin Sancho o'ldirsalaring, o'ldiringlarki, men to'lamayman, dedi. U hech qachon jahongashta ritsarlarning ajoyib, qadimiy odatini buzmasligini, aks holda shunday odil qonunni buzganligi uchun boshqa qurolbardorlarning ta'na-malomatiga qolishi mumkinligini aytdi.

Sanchooning sho'riga bu kecha karvonsaroyda segoviyalik to'rt movut bosuvchi, kordovalik uch savdogar bilan Sevilya yarmarkasi dahasidan kelgan ikki sayyoh tunab qolishgan edi. Bular hammasi sho'x, zabardast, hazilkash yigitlar edi. Ular Sanchooning so'zlarini eshitib, o'z bilgilaricha uning ta'zirini berib qo'y-moqchi bo'ldilar. Ko'z yumib-ochguncha bechora qurolbardorni o'rab olib, egardan surib tushirdilar. Ulardan biri yugurib borib katta choyshab olib chiqdi: so'ngra yigitlar sho'rpehona Sancho shu choyshabga yotqizib olib, osmonga irg'ita boshladilar.

Jafokash Sancho shunday qichqirardiki, hatto buni kabalero janoblari ham eshitdi. Avvaliga don Kixot biror sarguzashtga duch keladiganga o'xshayman, deb o'yladi, lekin ko'p o'tmay o'z qurolbardorining ovozi tanidi. U jilovni burib, yana karvonsaroy tomon ot qo'ydi. Karvonsaroyga yaqinlashganida don Kixot qurolbardorini kalaka qilib o'ynayotganlarini ko'rdi.

Sanchoni har irg'itishganda pirpirak bo'lib shunday aylanar ediki, agar darg'azab bo'lmaganida don Kixot ham ichaklari uzilguncha kularmidi. U bechora Sanchoni qutqarishga otildi, lekin darvoza berk edi; shunda devordan oshib tushmoqchi bo'ldi, afsuski, otdan tushishga ham madori yetmadi. Shuning uchun devor orqasida turib shumlik qilayotgan yigitlarni la'natlash va bo'ralab so'kishdan o'zga iloji yo'q edi.

Hazilkash yigitlar esa bunga hech e'tibor bermay, o'z ishlarini qilaverishdi, charxpalak bo'lib havoda umbaloq oshayotgan Sanchoning dod-voyi tobora avjga chiqaverdi. Niho-yat, ular charchab, ermaklarini yerga tushirishdi. Keyin eshakni olib kelib, Sanchoni egarga o'tqazib qo'yishdi, yelkasiga cho-ponini tashlab, to'rt tomoning qibla, deb qo'yib yuborishdi. Rahmdil Maritornes Sanchoning qiynalib ketganini ko'rib, bir cho'mich suv bersam, yomon bo'lmas, deb o'yladi. Sancho cho'michni endi og'ziga olib borganida o'z xo'jayinining tovushini eshitib to'xtadi.

– Sancho, suv icha ko'rma, jigargo'sham! Agar o'lib qolmayin desang, uni ichma. Mana buni qara, mana seni darhol tuzatadigan mo'jizakor malham.

Lekin Sancho o'z xo'jayiniga qovog'ini solib qaradi va shunday deb qichqirdi:

– Muhtaram janobim mening ritsar emasligimni unutib qo'ydilar mi deyman-a? Bu dorini o'zlari uchun saqlab qo'ysinlar, jin ursin-e! Meni o'z holimga qo'ysangiz-chi!

Oxirgi so'zlarni aytarkan, cho'mich allaqachon og'ziga borib qolgan edi. Bir qultumni ichib bo'lmayoq buning oddiy suvgina ekanini bilib, aftini burishtirdi va Maritornesdan vino keltirishni so'radi. Maritornes uning iltimosini bajonidil bajarib, o'z yonidan vino sotib olib keldi. Sancho vinoni ichib bo'ldi-yu, tovoni bilan eshagini niqtadi, darvozani lang ochib, saroydan chiqib ketdi. Garchi biqinlari zirqirab turgan bo'lsa-da, u o'z aytganini qilganidan, qo'noq uchun bir pul bermay jo'naganidan mamnun edi.

To'g'ri, saroy egasi uning safar to'rvasini olib qolgan, lekin Sancho shoshilganidan buni sezmagani edi.

– yaqin orada samo senga kulib boqadi, o‘z marhamatini ayamaydi.

Shunday suhbat qurib, sekin-asta ilgarilab borisharkan, don Kixot birdan yo‘lda ko‘kka ko‘tarilayotgan quyuq changni ko‘rib qoldi. Bundan xursand bo‘lganidan Sanchoga qarab qichqirdi:

– O, Sancho, taqdir menga qanday ulug‘vor jasoratlar ko‘rsatishni ato etganini o‘z ko‘zing bilan ko‘radigan kun keldi. Mana, nihoyat, zabardast bilaklarimdagi kuchni ishga solaman; men ko‘rsatgan qahramonliklar «Shon-shuhrat» kitobiga yoziladi, undan kelgusi avlodlar o‘qib o‘rganadilar. Oldinda ko‘tarilayotgan chang-to‘zonni ko‘ryapsanmi, Sancho? U chang biz tomonga kelayotgan son-sanoqsiz lashkarlarni to‘sib turibdi.

– Modomiki, shunday ekan, ikki qo‘shin bostirib kelyapti, chunki orqa tomonda ham xuddi shunga o‘xshash chang ko‘tarilyapti, – dedi Sancho.

Don Kixot o‘girilib qaradi. Sanchoning rost gapirayotganiga ishonch hosil qilib, juda quvonib ketdi. Uning aynigan tasavvuridan hamma vaqt va hamma yerda, ritsarlik romanlarida yozilganidek, jang-u jadal, sehr-jodu, sarguzasht va qahramonliklar, ishqiy mojarolar, yakkama-yakka olishuvlar nari ketmasdi. Shuning uchun ham uning mana shu tobda ikki dushman lashkari bir-biriga qarshi kelayotganiga biron daqiqa ham shubhalanmayotganiga sira ajablanmasa bo‘ladi. Aslida esa, bu chang bir yaylovdan boshqa yaylovga haydab ketilayotgan ikki katta qo‘y suruvining tuyoqlari ostidan ko‘tarilayotgan chang edi. Lekin don Kixot buning ikki katta qo‘shin ekanligini shu qadar jon kuydirib ta‘kidlardiki, nihoyat Sancho ham bunga ishonib, undan so‘radi:

– Sinor, haqiqatan ham, ular bir-biriga dushman ikki katta qo‘shin bo‘lsa, bizning nima ishimiz bor ular bilan?

– Nima ishimiz bor! – xitob qildi don Kixot. – Bizning ishimiz jabrlanganlar va kuchsizlarga yordam berish. Biz yordamga muhtoj bo‘lgan tarafni qo‘llashimiz kerak. Shuni bilginki, Sancho, ro‘paramizdan kelayotgan qo‘shinga ulkan Trapobana orolining hukmdori buyuk imperator Alifanfaron boshchilik qil-

moqda, orqamizdan kelayotgan qo‘shinning lashkarboshisi esa uning dushmani garamantlar qiroli Pentapolindir.

– Bu ikki sinor nima uchun urushadilar? – deb so‘radi Sancho.

– Shuning uchunki, – javob qildi don Kixot, – Alifanfaron nasroniy Pentapolinning go‘zal qizini sevib qolgan. Alifanfaron majusiy, shuning uchun ham qizning otasi g‘ayridin Alifanfaron to payg‘ambar Muhammaddan kechib, bizning dinimizni qabul qilmagungacha unga qizini bermoqchi emas.

– Pentapolin haq bo‘lmasa, soqolim bir tuki qolmay to‘kilib ketsin! – xitob qildi Sancho. – Men unga bajonidil yordam ko‘rsataman.

– Bu bilan sen o‘z burchingni ado etasan, – dedi don Kixot, – chunki bunday janglarda qatnashish uchun ritsar bo‘lishning hech hojati yo‘q.

– Bunisini-ku bilaman-a, – dedi Sancho, – mening tashvishim bor: keyin eson-omon yana topib olish uchun eshagimni qayoqqa yashiramiz? Eshak minib jang qilish yarashmasa kerak, deb o‘ylayman.

– Sen mutlaqo haqsan, – dedi don Kixot. – Uni boshi oqqan tomonga qarab qo‘yib yubor, keyin topa olarmikanman deb, aslo g‘am yema. Zafar qozonganimizdan keyin minglab otlarni qo‘lga kiritamiz, bu yog‘ini so‘rasang, hatto Rosinant ham xavf ostida, uni yaxshiroq otga almashtirib olmoqchiman. Endi, hali jang boshlamasimizdan oldinroq, mening so‘zlarimni diqqat bilan eshit: men senga har ikki qo‘shinning asosiy ritsarlarini aytib beraman. Ularni yaxshiroq ko‘rib olishing uchun anavi tepalikka chiqaylik, yur, u yerdan har ikki qo‘shin yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ular tepalikka chiqdilar, lekin bu yerdan ham biror narsani aniqroq ko‘rish qiyin edi. Quyuq chang-to‘zon har ikki suruvni to‘sib turar edi, lekin don Kixot bundan tashvishga tushmadi. Ritsarimiz o‘z tasavvurida bir-birlari bilan dushman bo‘lgan ikki qo‘shinni ko‘rib turardi. U qo‘lini oldinga cho‘zib, ishonch bilan so‘zlay ketdi:

– Qara, Sancho, ana zarrin qurol-aslahalar taqib olgan



– yaqin orada samo senga kulib boqadi, o‘z marhamatini ayamaydi.

Shunday suhbat qurib, sekin-asta ilgari lab borisharkan, don Kixot birdan yo‘lda ko‘kka ko‘tarilayotgan quyruq changni ko‘rib qoldi. Bundan xursand bo‘lganidan Sanchoga qarab qichqirdi:

– O, Sancho, taqdir menga qanday ulug‘vor jasoratlar ko‘rsatishni ato etganini o‘z ko‘zing bilan ko‘radigan kun keldi. Mana, nihoyat, zabardast bilaklarimdagi kuchni ishga solaman; men ko‘rsatgan qahramonliklar «Shon-shuhrat» kitobiga yoziladi, undan kelgusi avlodlar o‘qib o‘rganadilar. Oldinda ko‘tarilayotgan chang-to‘zonni ko‘ryapsanmi, Sancho? U chang biz tomonga kelayotgan son-sanoqsiz lashkarlarni to‘sib turibdi.

– Modomiki, shunday ekan, ikki qo‘shin bostirib kelyapti, chunki orqa tomonda ham xuddi shunga o‘xshash chang ko‘tarilyapti, – dedi Sancho.

Don Kixot o‘girilib qaradi. Sanchoning rost gapirayotganiga ishonch hosil qilib, juda quvonib ketdi. Uning aynigan tasavvuridan hamma vaqt va hamma yerda, ritsarlik romanlarida yozilganidek, jang-u jadal, seyr-jodu, sarguzasht va qahramonliklar, ishqiy mojarolar, yakkama-yakka olishuvlar nari ketmasdi. Shuning uchun ham uning mana shu tobda ikki dushman lashkari bir-biriga qarshi kelayotganiga biron daqiqa ham shubhalanmayotganiga sira ajablanmasa bo‘ladi. Aslida esa, bu chang bir yaylovdan boshqa yaylovga haydab ketilayotgan ikki katta qo‘y suruvining tuyoqlari ostidan ko‘tarilayotgan chang edi. Lekin don Kixot buning ikki katta qo‘shin ekanligini shu qadar jon kuydirib ta‘kidlardiki, nihoyat Sancho ham bunga ishonib, undan so‘radi:

– Sinor, haqiqatan ham, ular bir-biriga dushman ikki katta qo‘shin bo‘lsa, bizning nima ishimiz bor ular bilan?

– Nima ishimiz bor! – xitob qildi don Kixot. – Bizning ishimiz jabrlanganlar va kuchsizlarga yordam berish. Biz yordamga muhtoj bo‘lgan tarafni qo‘llashimiz kerak. Shuni bilginki, Sancho, ro‘paramizdan kelayotgan qo‘shinga ulkan Trapobana orolining hukmdori buyuk imperator Alifanfaron boshchilik qil-

moqda, orqamizdan kelayotgan qo'shinning lashkarboshisi esa uning dushmani garamantlar qiroli Pentapolindir.

– Bu ikki sinor nima uchun urushadilar? – deb so'radi Sancho.

– Shuning uchunki, – javob qildi don Kixot, – Alifanfaron nasroniy Pentapolinning go'zal qizini sevib qolgan. Alifanfaron majusiy, shuning uchun ham qizning otasi g'ayridin Alifanfaron to payg'ambar Muhammaddan kechib, bizning dinimizni qabul qilmagungacha unga qizini bermoqchi emas.

– Pentapolin haq bo'lmasa, soqolim bir tuki qolmay to'kilib ketsin! – xitob qildi Sancho. – Men unga bajonidil yordam ko'rsataman.

– Bu bilan sen o'z burchingni ado etasan, – dedi don Kixot, – chunki bunday janglarda qatnashish uchun ritsar bo'lishning hech hojati yo'q.

– Bunisini-ku bilaman-a, – dedi Sancho, – mening tashvishim bor: keyin eson-omon yana topib olish uchun eshagimni qayoqqa yashiramiz? Eshak minib jang qilish yarashmasa kerak, deb o'ylayman.

– Sen mutlaqo haqsan, – dedi don Kixot. – Uni boshi oqqan tomonga qarab qo'yib yubor, keyin topa olarmikanman deb, aslo g'am yema. Zafar qozonganimizdan keyin minglab otlarni qo'lga kiritamiz, bu yog'ini so'rasang, hatto Rosinant ham xavf ostida, uni yaxshiroq otga almashtirib olmoqchiman. Endi, hali jang boshlamasimizdan oldinroq, mening so'zlarimni diqqat bilan eshit: men senga har ikki qo'shinning asosiy ritsarlarini aytib beraman. Ularni yaxshiroq ko'rib olishing uchun anavi tepalikka chiqaylik, yur, u yerdan har ikki qo'shin yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ular tepalikka chiqdilar, lekin bu yerdan ham biror narsani aniqroq ko'rish qiyin edi. Quyuq chang-to'zon har ikki suruvni to'sib turar edi, lekin don Kixot bundan tashvishga tushmadi. Ritsarimiz o'z tasavvurida bir-birlari bilan dushman bo'lgan ikki qo'shinni ko'rib turardi. U qo'lini oldinga cho'zib, ishonch bilan so'zlay ketdi:

– Qara, Sancho, ana zarrin qurol-aslahalar taqib olgan

ritsar: uning qalqonida qiz bolaning oyog'i ostida yotgan tojli arslonning rasmi bor. Bu – Puente de Platning hokimi jasoratli Laurkalko. Uning yonida oltin gullar bilan bezalgan yarog'-aslahali jangchi, Kirosiyaning ulug' gersogi<sup>1</sup>, dahshatli Miko-kolembo. Uning o'n tomonidagisi haqiqiy pahlavon, uchala Arabistonning hokimi, dovyurak Brandabarbaran de Boliche. Uning sovuti ilon po'stidan yasalgan, qo'lida qalqon o'rnida dushmanlardan o'ch olish niyatida jon berayotib Samson buzgan ibodatxonaning eshigi. Endi mana bu yoqqa qarasang, qarshi tomondagi qo'shinni hamisha g'olib va biron marta ham yengilmagan Yangi Biskayning hokimi Karkaxoniyalik Timonel boshqarib kelayotganini ko'rasan; uning moviy qurol-anjomi oltin va kumushlar bilan qoplangan, qo'lidagi qalqonda oltin mushukning rasmi bor, tagiga «miyov» deb yozib qo'yilgan. Aytishlariga qaraganda, bu uning sevgilisi – gersog Algarblikning go'zallikda tengi yo'q qizi Miulinaning qisqartirilgan nomi emish. Uning yonida bahaybat arg'umoq mingan, oppoq qurol-anjomli, betamg'a oq qalqonli yosh ritsar. U yaqindagina ritsarlik unvonini olgan fransuz yigit Per Papin, sinor Utriklikdir. Huv nariroqdagisi, havorang yarog'-aslahali, yo'rg'a chibor zebraning biqinlariga tig'day botadigan shporlarini tirab turgani – Eronning qudratli gersogi Espartafilardo del Boske. Uning qalqoniga bir dasta sarsabil<sup>2</sup> rasmi solinib, kastil tilida: «Taqdirimni ko'r» deb yozib qo'yilgan.

Don Kixot tobora zavq-shavqqa to'lib borardi, o'zi tasavvur etgan har ikki qo'shinning ko'plab ritsarlarini sanab o'tdi, har qaysisiga maxsus belgi, tug'ro<sup>3</sup> va shior qo'ydi.

– Ro'paramizdagi qo'shin, – davom etdi to'xtamay don Kixot, – turli-tuman qabilalardan iborat. Bular orasida mashhur

---

<sup>1</sup> Gersog (*nemisha*; Herzog) – qadimiy germanlar qabilasining harbiy dohiysi; o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada yirik yer-mulk egasi; o'rta asrning oxirlaridan dvoryanlarning oliy unvonlaridan biri. Bu unvon ayrim mamlakatlarda (masalan Buyuk Britaniyada) hozirgacha saqlangan.

<sup>2</sup> Sarsabil (*forscha*; jannatdagi buloq nomi; sof, jannatiy suv) – unib chiqmagan (yer ostidagi) yosh poyasi va novdalari sabzavot sifatida ovqatga ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik.

<sup>3</sup> Tug'ro – maxsus bezakli belgi, shartli so'z, rasm.

Ksanfning shirin suvlaridan ichgan xalqlar bor; ularning ketidan Massiliya atrofidan chiqqan tog'liklar, bulardan keyin baxtiyor Arabistonning sof oltin qumlarini elakdan o'tkazadigan qabilalar kelyapti. Ana, nurafshon Termodontning huzurbaxsh soya-salqin sohillarida yashovchi xushbaxt xalqlar. Ulardan keyin o'z so'ziga amal qilmaydigan numidiylar, so'ngra kamon otishda dovru-g'i ketgan forslar, yugurib-elib jang qiladigan midiyalik va parfi-yaliklar; ko'chma chodirli arablar; shafqatsizlikda dong taratgan oq tan skiflar; lablaridan suyak-sayoq o'tkazib olgan habashlar va nomlarini men ayto olmaydigan boshqa xalqlar kelishyapti. Ikkinchi qo'shinning oldingi saflarida sohillari zaytunzor Betisning zilol suvlarini ichib chanqog'ini bosadigan qabilalar kelishyapti, ular ketidan to'lqinida tilla oquvchi Taxo daryosining suvlarida cho'miladigan qabilalar; ular ketidan ajoyib Xepilning hosildor sohillarida yashovchilar kelishyapti. Ana Xeresning go'zal yaylovlarida yayrab yashovchi xalqlar, ana oltin boshqalardan toj kiygan badavlat lamanchliklar; ana o'z suruvlarini ilon izidek buralib ketgan Gvadiana<sup>1</sup> daryosi yoqalaridagi keng yaylovlarda o'tlatuvchi qadimiy gotlarning so'nggi avlodlari; huv ana, o'rmonzorlar bilan qoplangan Pireney va qorli Apennin tog'-u tepalarida sovuqda qaltirab kun o'tkazadiganlar. Xullasi kalom, Sancho, sen bu yerda olamdagi barcha qabilalar, xalqlarning hammasini ko'rib turibsanz.

Qanchadan qancha mamlakat-u ozmuncha xalqlarni birma-bir sanab o'tmadi don Kixot!

Bularning aksariyati uning miyasini chulg'ab olgan ritsarlik romanlarida bor edi, xolos. Sancho biron so'z aytishga botinmay, o'z xo'jayinining gaplarini diqqat bilan eshitdi. Faqat gohogoho don Kixot aytayotgan ritsarlar va pahlavonlarga ko'zim tushib qolarmikan deb, u yoq bu yoqqa alangab qo'yardi. Biroq quyuc chang-to'zondan boshqa hech narsani ko'rmasdi. Nihoyat,

<sup>1</sup> Gvadiana – Yuqori Gvadiana daryosi yo'l-yo'lakay bir necha bor yer ostida yo'qolib ketadi. Bu hol juda ko'p afsonalarni keltirib chiqargan. Servantes don Kixotning g'orga kirishi to'g'risidagi hikoyada qisman o'sha afsonalardan foydalangan.

<sup>2</sup> Don Kixot tilga olgan qahramonlarning nomlari, shuningdek, turli-tuman qabila va joylarning otlarini u qisman ritsarlik romanlaridan, qisman o'z zamonasiga mansub bo'lgan tarixiy va geografik asarlardan olgan.

sabr-toqati tugagan Sancho xitob qildi:

– Siz aytgan o'sha ritsar-u pahlavonlar qaysi go'rda o'zi? Men, aqalli, birortasini ham ko'rmayapman yoki ular ham o'tgan kechasi huzurimizga kelgan sharpalarga o'xshab sehrlanganmi?

– Nimalar deyapsan! – xitob qildi don Kixot. – Otlarning kishnashini, do'mbiralarning gumburlashini, karnaylar ovozi eshitmayapsanmi, axir?

– Qo'y-qo'zilarning ma'rashidan boshqa hech narsani eshitmayapman, – javob berdi Sancho.

Darhaqiqat, har ikki qo'y suruvi ham juda yaqin kelib qolgan edi.

– Vujudingni qamrab olgan vahima aniq ko'rishing va eshitishingga xalal beryapti, – dedi don Kixot. – Vahimaning ma'nosi ham shunda-da, axir, sezgilarimiz o'tmaslashadi, hamma narsa noto'g'ri, teskari bo'lib ko'rinadi. Qo'rqayotgan bo'lsang, bir chekkaga chiqib tur, bu yog'ini mening o'zimga qo'yib ber. Kingaki ko'mak bergudek bo'lsam, yolg'iz o'zim o'sha tomonga zafar tortiq qila olishimga ishonaver.

U shunday dedi-yu, Rosinantning biqiniga tig'dek shporlarini nuqib, nayzasini o'qtalgancha tepadan pastga qarab yashindek uchib ketdi.

– Janobim, sinor don Kixot, orqaga qayting, – qichqira boshladi Sancho. – Xudo haqqi, siz qo'zi-qo'ylarga hujum qilypasiz? Qayting orqaga, otamning nomi bilan la'natlayman sizni! Bu qanday nodonlik! Menga ishoning, bu yerda na pahlavonlar, na ritsarlar, na yarog'-aslaha-yu na qalqonlar va na moviy osmon bor, hech balo yo'q! U nimalar qilyapti o'zi, eh, gunohkor boshim!

Biroq don Kixotni hech narsa to'xtata olmadi. Shamoldek yelib ketayotib u baland ovoz bilan qichqirdi:

– Saxovatli Pentapolinning sodiq himoyachilari, bardam bo'ling! Qani, ortimdan olg'a! Men sizning ashaddiy dushmaningiz pastkash Alifanfarondan o'ch olaman!

Shunday hayqiriq bilan suruvlarning qoq o'rtasiga yorib kirdi-da, go'yo yovuz dushmanlarini yakson qilishga kirishgandek, jon-jahdi bilan jonivorlarga nayza sanchaverdi. Uni to'xtat-

moqchi bo'lib podachilar bekorga dod-voy solishardi. Don Kixot hech narsaga quloq solmay, o'ng-u so'liga nayza sanchaverdi. Unga gap ta'sir qilmasligini anglagan podachilar o'z sopqonlarini sozlab, don Kixot ustiga mushtdek-mushtdek toshlarni ota boshladilar. U esa o'takasi yorilayozgan suruvlar ichida jonbozlik qilar, ovozi boricha qichqirardi.

– Qaydasan, ey, takabbur Alifanfaron? Qani, maydonga chiq. Men sen bilan yakka-yakka jang qilishga tayyorman, Garamantlik Pentapolin ga yuzsizlarcha hujum qilganing uchun ta'ziringni berishga qodir ritsarman!

Biroq shu payt uning biqiniga kattakon bir tosh kelib tegdiki, qovurg'alari uvalanib ketishiga sal qoldi.

Qattiq og'riqdan don Kixot yo o'ldim, yoki yaralandim, deb o'yladi; malham esiga tushib tunuka idishni oldi-da, og'ziga olib bordi. U ham bir necha qultum ichmasdanoq ikkinchi bir tosh qo'lidagi tunuka idishni urib tushirdi-da, jag'ini yorib yubordi. Agar birinchi toshda bechora ritsarning boshi gangigan bo'lsa, ikkinchisi jag'iga tegib hushdan ketib yerga quladi. Yoniga yugurib kelgan podachilar uni o'ldi deb o'ylashdi. Ular shosha-pisha suruvlarini to'plab, yaralangan yettita qo'yni yelkalariga ortgancha jo'nab qolishdi.

O'z xo'jayinining tentakligini tepalikdan kuzatib turgan Sancho sochlarini yulib, o'zini bu telba idalgoga duch qilgan taqdirini la'natlardi.

Podachilar suruvlari bilan ancha uzoqlashganlaridan keyin Sancho tepalikdan tushib, yerda qimirlamay cho'zilib yotgan don Kixotning yoniga yugurib keldi.

– Xo'sh, men noto'g'ri aytgan ekanmanmi, sinor don Kixot? – dedi Sancho. – Axir, men sizga, bu qo'shin emas, qo'ylar suruvi deb qichqirgandim-ku.

– Sancho, do'stim, – dedi arang don Kixot, – so'zlarimga ishon, bularning hammasi meni hamisha ta'qib qilib yurgan sehrgar dushmanimning jirkanch hiyla-nayrangidir! Bu jangda men qozonadigan shuhratga hasad qilib, dushman lashkarlarini qo'y suruviga aylantirib qo'ydi. Gapimning rostligiga osongina ishonishing mumkin. Sancho, eshagingga min-u, ularning orqa-

sidan bor. Mendan nariroqqa borib ritsarlarning o'z qiyofalariga kirishini, suruvdagi qo'ylarning jasur jangchilarga aylanishini ko'rasan. Darvoqe, sabr qil. Avvalo, menga yordamlashib yubor. Og'ir shikastlanganga o'xshayman.

Sancho don Kixotning yaralarini bog'lash uchun safar to'rvasidagi surtma moy va dokani olib kelgani eshagi tomon yugurdi, lekin borib qarasa, to'rva yo'q. To'rvaning yo'qolganiga ishongan Sancho alamdanda aqlidan ozayozdi. U rosa so'kinib vaysadi, o'z xo'jayinini tashlab, uyga qaytishga ont ichdi, har qanaqa orol va gubernatorlikka tupurdim, deb baqirdi.

Bu orada don Kixot qo'llari bilan jag'ini asta ushlab o'rindan turdi. O'z xo'jayini oldidan bir qadam ham jilmay turgan vafodor Rosinantning yuganidan yetaklab, Sancho tomon yurdi. Sancho ko'kragi bilan eshagiga suyanganicha yuzini qo'llari bilan bekitib churq etmay turardi. Uning umidsizlanganini ko'rgan don Kixot shunday dedi:

– Shuni bilginki, Sancho, kimki o'zgalarga qaraganda ulug'roq martabaga erishmoqchi bo'lsa, og'ir qiyinchiliklarga bardosh bermog'i darkor. Bizning boshimizga yog'ilgan dahshatli falokatlar bo'roni tezda qora bulutlar tarqab osmonning ochilishidan va ishlarimizning o'ngidan kelishidan nishonadir. Shuning uchun g'ussa ham, quvonch ham uncha uzoqqa cho'zilmaydi, binobarin, g'am-alam uzoq cho'zilgan ekan, demak, sevinch yaqin qolibdi. Shuning uchun mening boshimga tushgan falokatdan sen xafa bo'laverma. Axir, senga shikast yetmadi, soppa-sog'san-ku.

– Qanaqasiga soppa-sog' bo'lay! – qichqirib yubordi Sancho. – Nahotki, kecha choyshabda irg'itilgan kishi otamning o'g'li bo'lmasa? Bor bisotim bilan birga yo'qolgan to'rva, nahotki, meniki emas, bironniki bo'lsa?

– To'rvang yo'qolibdimi? – deb so'radi don Kixot.

– Ha, xuddi shunday, yo'qolibdi, – javob qildi Sancho.

– Demak, bugun ovqat qilishdan benasib bo'libmiz-da, – dedi don Kixot.

– Lekin shu yaylovda, muhtaram janoblarining so'zlariga

binoan, jahongashta ritsarlarga ovqat o'rniga o'tadigan giyohlar o'sguvchi edi-ku, – dedi Sancho.

– Rostini aytsam, – dedi don Kixot, – har qanday giyohdan bir burda non-u ikki dona qoqlangan baliqni afzal ko'rardim. Bu gapdan nima foyda! Eshagingga min, azizim Sancho, orqamdan yur. Xudoyi taolo marhamati benihoya: havodagi chivinlarning, yerdagi qurt-qumursqalarning, suvdagi itbaliqlarning nasibasini o'zi yetkazadi. Uning quyoshi hammaga – yomonlarga ham, yaxshilarga ham barobar nur sochadi, uning obirahmati xudojo'ylarga ham, gunohkorlar boshiga ham barobar yog'iladi. U, albatta, biz kabi bandalariga ham mehr-shafqat ko'rsatadi.

– Muhtaram janoblari, sizga jahongashta ritsarlikdan ko'ra voizlik ko'proq yarasharkan, – dedi Sancho.

– Jahongashta ritsarlar hamma narsani bilishlari va uddasidan chiqa olishlari kerak, – deb javob qildi don Kixot. – Ilgarigi zamonlarda notiqlik va va'xonlikda Parij universiteti doktorlarining hech biridan qolishmaydigan ritsarlar bo'lgan. Shuni bilginki, do'stim, hech qachon nayza qalamni, shuningdek, qalam nayzani o'tmaslashtirmagan.

– Yaxshi, sinorim, siz aytgandek bo'la qolsin, – dedi Sancho. – Endi yuring, tunash uchun biror joy topaylik. Xudo xudoligini qilib, tunashga biror boshpana ato qilsa-yu, u yerda na sehrli choyshab, na arvo-h-u sharpa va na sehrlangan mavrlar bo'lsa. Ularning birortasiga yana ro'para bo'lgandan ko'ra jahan-namga ketganim afzalroq.

– Xudodan marhamat tila, jigargo'sham va meni xohlagan tomonga boshla, – dedi don Kixot. – Bu gal tunashga joy tanlash sening ixtiyoringda. Endi qo'ling bilan bir paypaslab ko'r-chi, nechta tishim singanikin. Mana bu yog'ini, o'ng tomonini qara, chunki bu jag'im qattiq og'riyapti.

Sancho uning og'ziga qo'lini tiqib, so'radi:

– Janoblarning bu yerda ilgari nechta tishlari bor edi?

– To'rt dona, – javob berdi don Kixot, – aql tishimdan boshqa hammasi butun, soppa-sog' edi.

– Muhtaram janoblari yanglishmayaptimikinlar? – deb



so'radi Sancho.

– Mabodo, beshta bo'lmasa, to'rt dona deyapman-ku, sen-ga, – dedi don Kixot. – Umr bo'yi birortasi sug'urilmagan, qurt yemagan, shamollashdan tushib ketmagan ham.

– Mana endi muhtaram janoblarining, – dedi Sancho, – bu yog'laridagi pastki jag'larida ikki yarimta tishlari qolibdi, yuqo-rida esa hech nima yo'q, kaftdek tep-tekis.

– Ana baxtsizlig-u! – xitob qildi don Kixot qurol-bardoridan bu qayg'uli xabarni eshitib. – Bundan ko'ra qo'limni – albatta, qilich tutadigan o'ng qo'limni emas –kesib tashlash-gani yaxshiroq edi. Zotan, shuni bilib qo'yginki, Sancho, oziq tishlarisiz og'iz toshsiz tegirmondek bir gap; inson uchun har bir tish olmosdan qimmatliroqdir. Nima ham qilardik, ritsarlikning og'ir yo'lga kirgan ekanmiz, hali boshimizga bundan besh battar falokatlar tushishi mumkin. Do'stim, qani eshakka min-u, yo'l boshla, boshing qayoqqa og'sa, men ham ketingdan boraman.

Sancho eshagiga minib, tunamoq uchun joy topa olishiga ishongan tomoniga katta yo'l bo'ylab jo'nadi. Don Kixot esa uning ketidan Rosinantni sekin haydab borardi: u otini tezroq yeldirolmas edi, biqinlari va jag'ining og'rig'idan egarda arang o'tirardi. O'z janobini biror narsa bilan ovutish ilinjida Sancho quyidagicha suhbat boshladi.

## *O'N TO'RTINCHI BOB*

### **SANCHO PANSА BILAN UNING XO'JAYINI O'RTASIDAGI OQILONA SUHBAT VA UNDA N KEYIN MURDA OLIB KETAYOTGANLAR BILAN TO'QNASHUV**

– Mening ko'nglimga shu fikr kelyaptiki, sinor, – dedi Sancho, – boshimizga yog'ilayotgan barcha falokatlar muhtaram janoblarining tantanavor qasamyodga amal qilmaganliklari tu-fayli yuz berdi. Axir, anavi Malandrinmi yo Lamandrinmi bo'l-masa, xoh oti qursin, o'sha sehrgarning dubulg'asini qo'lga kirit-

maguningizcha biror kapada yotmasligingiz, yechinmasligingiz, dasturxon yozib non yemasligingiz va yana allaqancha shartlarni bajarishingiz kerak edi-da.

– To‘g‘ri gapiryapsan, Sancho, – dedi don Kixot. – Rost gap, bu qasamlar tamomila xayolimdan ko‘tarilibdi. Seni choyshabda nega irg‘itganlarini endi tushunyapman. Sen bularni o‘z vaqtida menga eslatib qo‘ymagansan, lekin ko‘rasan, men o‘z gunohimni oqlayman. Ritsarning qahramonlik ko‘rsatish bilan oqlanmaydigan gunohi yo‘q.

– Iye, mening aybim nima, axir, men hech qanaqa qasam ichgan emasman-ku! – xitob qildi Sancho.

– Qasam ichganmisan, ichmaganmisan, buning farqi yo‘q, – dedi don Kixot, – ixtiyoriymi-beixtiyormi, baribir, men bilan hamkorlik qildingmi, shuning o‘zi kifoya. Qasamni buza-yotganimni ko‘rgansan-u, meni to‘xtatmagansan.

– Unday bo‘lsa, muhtaram janoblari, bu gaplarni o‘z ahdlarini unutgandek esdan chiqarib yubormasinlar. Sharpalar yana meni, ehtimol, muhtaram janoblarini ham kalaka qilishni istab qolsa bormi, holimizga voy!

Shu tarzda suhbatlashib yo‘lovchilarimiz katta yo‘ldan ohista ilgarilab boraverdilar. Bu orada quyosh botib, hamma yoqni qorong‘u bosdi, tunaydigan biron boshpananing esa qorasi ham ko‘rinmasdi. Azob chekib, ochqab, tunash g‘amida indamay yo‘lda davom etardilar. Birdan olisda, yo‘lda uchar yulduzlarga o‘xshash yorqin shu‘lali o‘tlar miltillab ko‘rindi. Buni ko‘rgan Sanchoning qo‘rquvdan joni chiqib ketishga sal qoldi, don Kixot ham o‘zini unutayozdi.

Biri eshak no‘xtasini, ikkinchisi ot tizginini tortdi va bu nima balo bo‘ldi, deb ikkovlari ham to‘xtashdi. Shu‘larning tobora yorqinlashayotganidan o‘tlarning o‘zlari tomon yaqinlashib kelayotgani yaqqol ko‘rinib turardi. Shu tobda Sancho kuz yaprog‘idek qaltirar, don Kixotning ham tuklari tip-tikka bo‘lib ketgandi. Butun jasoratini to‘plab, ritsarimiz shunday dedi:

– Shubhasiz, Sancho, men butun kuch va jasoratimni ko‘rsatishim zarur bo‘lgan katta va g‘oyat qaltis voqea yuz beradi.

– Obbo, sho‘rim quridi! – qichqirib yubordi Sancho. –

Agar bular yana arvohlar bo'lsa, aftidan, shunaqaga o'xshaydi, ularning kaltaklashiga bardosh bera oladigan shuncha qovurg'ani qayerdan olaman-a?

– Bu sharpalar kim bo'lmasin, – ishonch bilan dedi don Kixot, – sengagina emas, hatto ustingdagi kiyimingning biror ipiga qo'l tekkizishlariga ham yo'l qo'ymayman. O'tgan gal men devordan oshib o'ta olmaganim tufayli seni kalaka qilishdi. Lekin hozir biz ochiq yerdamiz, bu yerda bermalol qilich o'ynata olaman.

– Agar ular bu safar ham oldingidek afsun o'qib, joyingizdan qo'zg'atmay qo'yishsa, ochiq yerda bo'lishingizdan nima foyda? – dedi Sancho.

– Har holda, sendan iltimos, Sancho, ruhingni tushirma, – dedi don Kixot. – Mening jasoratim qandayligini hozir amalda ko'rasan.

– Xudoning marhamati bilan o'zimni dadilroq tutishga harakat qilaman, – dedi Sancho.

Ular yo'ldan biroz chetga chiqib, qorong'ilikda yaqinlashib kelayotgan shu'lalarni yana sinchiklab kuzata boshladilar; ko'p o'tmay serbar, uzun libos kiygan bir to'da qandaydir yo'lovchilarni ko'zlari ilg'ay boshladi; bu qo'rqinchli hol Sanchoga shu qadar yomon ta'sir etdiki, bezgak tutayotgandek tishlari takil-lardi. Bu sirli marosim bermalol ko'rinadigan darajada juda yaqin kelib qolganda, Sanchoning tamomila quti uchib, tishlari yanada qattiqroq takillay boshladi. Oldinda qo'llarida mash'ala tutgan, oq mantiya<sup>1</sup> kiygan yigirma chog'li otliq, ular ketidan murda tashiydigan vazmin aravalar kelardi; aravalar orqasidan esa etaklari xachirlarning tuyog'iga tushadigan uzun motam chopon-larini kiygan yana olti kishi kelardi (ularning ot emas, xachir minib kelayotganliklari xachirlarning sekin yurishidan ko'rinib turardi). Otliqlar nimalar haqidadir eshitilar-eshitilmas g'udurlab, g'amgin gaplashgancha sekin kelardilar. Huvullagan yaydoq dashtda, buning ustiga yarim kechada, bu g'alati manzara har qanaqa odamning ham o'takasini yorib yuborardi. Ro'paradan

---

<sup>1</sup> Mantiya – rido, ustki kiyim.

kelayotganlarning arvoh ekanliklariga hech shubha qilmagan Sanchoning ruhi butunlay tushib ketdi. Sancho qo‘rqan sari don Kixotning ko‘zlariga romanlarda tasvirlangan sarguzashtlardan biri yaqqol ko‘rinib, uning botirligi tobora avj olardi.

Murda tashuvchi arava qo‘shg‘ildirakli motam soya-boniday, unda o‘ldirilgan yoki og‘ir yaralangan ritsarni olib kelayotganday ko‘rindi va ugina, ya‘ni don Kixotgina bu ritsar uchun o‘ch olmog‘i darkordek tuyuldi. Uzoq o‘ylab o‘tirmay, nayzasini jangga shaylab, egarga mahkamroq o‘tirdi-da, qaddini rostlab, mantiyali otliqlar o‘tadigan yo‘lining o‘rtasiga viqor bilan chiqib turdi. Yo‘lovchilar yaqin kelganda, baland ovoz bilan qichqirdi:

– Ey, kim bo‘lsalaring ham, to‘xtanglar! Darhol javob beringlar, kim bo‘lasizlar, qayerdan qayoqqa ketyapsizlar, bu soyabon aravada kimni olib ketyapsizlar? Ko‘rinishingizdan yo jinoyatchilarsiz yoki yovuzlardan jaf chekkanlarsiz. Qilgan jinoyatingizga yarasha jazolashim yoki ko‘rgan jabringiz evaziga qasd olishim uchun gap nimadaligini bilmog‘im zarur.

– Biz shoshilyapmiz, karvonsaroygacha hali ancha bor, – dedi otliqlardan biri, – shuning uchun siz bilan gaplashib o‘tirishga vaqtimiz yo‘q.

Shunday deb u xachirini «chu» deya uning yonidan o‘tib ketmoqchi edi. Bu javobdan haqoratlangan don Kixot xachirning jilovidan ushlab, qichqirdi:

– To‘xtang, beodob nodonlar, savollarimga javob beringiz! Yo‘qsa men sizlarni jang maydoniga chaqiraman.

Hurkib ketgan xachir old oyoqlarini ko‘tarib, tik ko‘tarilgan edi, ustida o‘tirgan odam yerga ag‘darilib tushdi. Uning yonida kelayotgan xizmatkori don Kixotni rosa so‘kdi. Busiz ham qahr-g‘azabi qaynagan don Kixot qora kiyimdagi otliqlardan biriga tashlanib, ko‘z yumib-ochguncha yerga qulatdi uni. So‘ngra u yashin tezligida boshqa raqiblariga tashlandi. Rosinant, go‘yo qanot paydo qilganday, goh oldinga, goh orqaga yengil va g‘urur bilan yugurib yelardi. Mantiya kiygan yo‘lovchilar qo‘rqoq va buning ustiga qurolsiz odamlar edi. Ular don Kixotga qarshilik ko‘rsatishga harakat ham qilmay, chor atrofga

qochib qolishdi. Nazarlarida, ularga odam emas, iblis hamla qilgandek tuyulgan bo'lsa kerak.

Dushmani tumtaraqay qochirib, don Kixot yana xachir ag'dargan odamning yoniga keldi. U sho'rlik hamon yerda yotar, yonida esa yonib tugay deb qolgan mash'ala yotardi. Don Kixot unga nayzasini o'q'talib, o'lim dahshatini sochib, taslim bo'lishini taklif qildi.

– Taslimman, taslimman! – qichqirdi yerdagi odam. – Menga shafqat qiling, muhtaram zot, oyog'im sinib ketdi, o'rnimdan turolmayapman. O'tinib so'rayman, sinor, agar odil nasroniy bo'lsangiz, meni o'ldirmang. Axir, men din peshvolaridanman.

– Sizdek dindor shaxsni bunday ishlarga aralashishga qaysi iblis majbur etdi? – so'radi don Kixot.

– Aralashishga kim majbur etdi deysizmi? Bu ko'rgilik berahm taqdirdan bo'lsa kerak, – dedi yerda yotgan yo'lovchi.

– Ehtiyot bo'ling, bundan ham besh battar bo'lishlaringiz hech gap emas, – dedi don Kixot. – Yaxshisi, qaysarlik qilmay, o'zingiz kimsiz-u, bu qanaqa marosim ekanini aniqroq tushuntirib bering.

– Muhtaram janoblarining savollariga bajonidil javob beraman, – dedi u. – Shunday qilib, muhtaram janoblariga shuni ma'lum qilamanki, mening ismi-sharafim Alonzo Lopes bo'lib, asli alkobendaslikman. Men anavi tumtaraqay qochgan o'n bir din peshvolari bilan Baesa shahridan yo'lga chiqqan edim. Baesada qazo etgan segoviyalik bir dvoryanning jasadini o'z xilxonasiga qo'yish uchun olib ketayotgan edik.

– Uni kim o'ldirdi? – deb so'radi don Kixot.

– Chirkin isitma yordamida Xudo uni lahadga yo'lladi.

– Unday bo'lsa, – dedi don Kixot. – Xudo meni bu odam uchun o'ch olish mashaqqatidan xalos etibdi, chunki uning o'limiga hech kim aybdor emas ekan. Taqsiri a'lam, sizga shu narsani aytib qo'yimgo' im kerakki, kaminangiz lamanchlik ritsar don Kixot bo'ladilar. Mening burchim – adolat yo'lida yovuzlarning ta'zirini berish, alamzadalarni himoya qilish, baxtsizlarga taskin berish uchun olam kezishdir.

– Qanday adolat o‘rnatishingizni men bilolmay qoldim, – dedi ruhoni, – oyog‘imni shunday tuzatib qo‘ydingizki, endi umrimning oxirigacha sog‘ayib ketishi amri mahol. Buning ustiga menga shunday tasalli berdingizki, o‘la-o‘lgunimcha esdan chiqarmayman. Sizning bu sarguzashtingiz mening boshimga tushgan bir musibat bo‘ldi.

– Hamma narsa biz o‘ylagandek bo‘lavermaydi, – dedi don Kixot. – Hamma balo shundaki, sinor litsensiat, motam libosida, mash‘alalar bilan allaqanday tushunib bo‘lmaydigan duolarni o‘qib, yarim kechada yo‘l yurishni ixtiyor qilib qolgansizlar. Sizlarni u dunyodan chiqqan yovuz iblislar to‘dasi deb bilib, jahongashta ritsarlar burchiga ko‘ra hamla qilganimni tushunish mumkin emas, albatta.

– Peshonamda bor ekan-da, bu ko‘rgilik, – dedi litsensiat, – har holda, sinor jahongashta ritsar, modomiki, boshimga kulfat solgan ekansiz, hech bo‘lmasa, turib olishga yordam qiling, uzangiga o‘ralib qolgan oyog‘imni chiqara olmayapman.

– Nega shu vaqtgacha indamadingiz! – xitob qildi don Kixot. – Sancho! Sancho! – deb chaqirdi o‘z qurolbardorini.

Biroq Sancho uning chaqirig‘iga shoshilmas edi. Olishuv boshlagan dastlabki daqiqalarda u o‘z xo‘jayinining jasorati va chakqonligidan hayratda qoldi, ammo keyinchalik qo‘rquv va hayratni unutib, sekingina orqada kelayotgan xachirga ortilgan oziq-ovqatlarini bir yoqli qilishga kirishib ketdi. Oziq-ovqatlarni choponiga tugib, uni birgalashib sinor litsensiatni arang xachir ostidan sug‘urib oldilar-da, egarga o‘tqazib, qo‘liga mash‘al tutqazdilar. So‘ngra don Kixot bu bechora yo‘lovchiga o‘z hamrohlariga yetib olishini, jahongashta ritsar muqaddas burchini ado etayotib ularni noo‘rin xafa qilib qo‘ygani uchun uzrini borib aytishni buyurdi.

Sancho esa bunga qo‘shimcha shunday dedi:

– Mabodo, u sinorlar shunday epchillik bilan ta‘zirlarini bergan botirning kim ekanligini bilmoqchi bo‘lsalar, muhtaram zot bu G‘amgin Qiyofa laqabli lamanchlik mashhur ritsar don Kixot deb ayting.

Litsensiat ular bilan xayrlashib, o‘z yo‘liga jo‘nab ketgan-

dan keyin, don Kixot Sanchodan nega uni G'amgin Qiyofali ritsar deb ataganini so'radi.

– Bilasizmi, muhtaram xo'jam, – javob berdi Sancho, – mening ko'zimga mash'ala yorug'ida shunday baxtsiz, horg'in, shunday ozg'in va zahil rangda ko'rindingizki, buni ko'rib yuragim ezilib ketdi. Aftidan, bu jang-u sarguzashtlar tufayli ancha tinka-madoringiz quriganga o'xshaydi.

– Yo'q, Sancho, – dedi don Kixot, – gap aslo unda emas. To'g'rirog'i, mening jasoratlarim tarixini oltin sahifalariga bituvchi donishmand, qadimiy ritsarlar kabi o'zimga ham biror munosib laqab tanlashimni istagan: ulardan biri O'tli Qilich ritsar, biri ritsar Dev, boshqa biri O'lim ritsari deb atalgan va shu laqab bilan jahonga mashhur bo'lishgan. Menimcha, mana shu vajdan o'sha donishmand meni G'amgin Qiyofa ritsar deb atashni sening dilingga solgan. Shu damdan e'tiboran men shu laqabni qabul qilaman va bundan buyon ham uni saqlab qolish uchun imkon bo'lishi bilanoq qalqonimga eng g'amgin qiyofa tasvirini soldiraman.

– Buning uchun vaqt va pul sarflashning hech hojati yo'q, – dedi Sancho. – Yuzingizga tushib turgan siparni ko'tarsangiz bas, har qanday kishi qalqoningizdagi tasvirsiz ham sizni G'amgin Qiyofa ritsar deb ataydi, ha, so'zimga ishonavering. Ont ichaman, shunday, sinor, qalqonga tasvir o'ydirib o'tirishingizning aslo hojati yo'q.

Don Kixot kulimsiradi, Sancho bilan tortishib o'tirmadi. Birdan ritsarimiz miyasiga murda ortilgan aravani tekshirish, haqiqatan ham, u yerda odam jasadi bormi-yo'qligini bilish fikri kelib qoldi. Lekin Sancho bunga ko'nmadi.

– Sinor, – dedi u, – siz uchun bu qaltis voqeaning oxiri oldingilaridan ko'ra baxayr bo'ldi. Biroq sizday tumtaraqay qochgan odamlar yakka-yu yagona bir ritsardan qochganliklarini payqab qolishlari mumkin. Es-hushlarini yig'ib, qo'rzoqlik qilganlaridan o'sal bo'lib qaytib qolsalar bormi, bizni yaxshilab kaltaklashlari mumkin. Eshakni taxt qilib qo'rganman, tog' yaqin, qorinlar och, o'liklar lahadga-yu tiriklar dasturxonga deganlaridek, bu yerdan chaqqonroq jilib qolganimiz ma'qul emasmi-

kan?

So'ngra Sancho eshak no'xtasini tutib, ildam jo'nab qoldi. Don Kixot qurolbardorining haqligiga iqrор bo'lib, hech e'tirozsiz uning ketidan yo'lga tushdi. Qator-qator tepalarni oshib, atrofi shamoldan to'silgan tinchgina o'tloq maydonchaga kirib qolishdi va shu yerda tunashga qaror qilishdi. Sancho eshakdagi yuklarni tushirdi: ritsar bilan qurolbardor o't-o'lanlar ustida yonboshlashib bir yo'la nonushtalik, tushki va kechki ovqatni tushirdilar. Cherkovchi janoblar xachirga ortib kelayotgan sovuq taomlar (ular o'zlarini siylashni biladilar) bilan qorinlarini rosa to'ydirishdi. Biroq ularning boshiga yana yangi tashvish tushdi: tomoqlarini ho'llagani vino u yoqda tursin, bir qultum suvlari ham yo'q edi. Shunda Sancho o'tloqning barradek maysa bilan qoplanganini ko'rib shunday dedi... Ammo uning nima deganini kelgusi bobdan bilamiz.

## *O'N BESHINCHI BOB*

### **LAMANCHLIK RITSAR DON KIXOTNING KO'Z KO'RIB, QULOQ ESHITMAGAN QAHRAMONLIGI**

– Bu o'tlar shu qadar ko'm-ko'k bo'lib yashnab turibdiki, sinor, shu yaqin orada ariqcha bo'lsa kerak. Sal nariroqqa borib ko'raylik-chi. To'g'risini aytganda, ochlikdan ham batarroq qiy-nayotgan chanqoqni bostirishimizga ishonchim komil.

Bu maslahat don Kixotga ma'qul tushdi: u Rosinantni jilovidan ushlab, Sancho esa kechki ovqatdan qolgan ozuqalarni eshakka yuklab, sekin-asta jo'nadilar. Tun nihoyatda qorong'i bo'lib, ular o'tloqda paypaslana-paypaslana zo'rg'a borardilar. Ular hali ikki yuz qadamcha yurganlari ham yo'q ediki, birdan ulkan va baland qoyalardan shovullab tushayotgan suvning tovushi eshitilgandek bo'ldi. Shovullagan tovush ularni g'oyat quvontirib yubordi. Shovqin qayoqdan kelayotganini aniqlash uchun to'xtab quloq sola boshladilar. Shu damda birdan suv shovullashiga o'xshamagan allaqanday g'alati tovushni eshitib qo-



lishdi. Bu qandaydir bir ohangdagi zarb tovushi bo'lib, xuddi birov bolg'a bilan sandonni urayotganday edi. Bu tovush kuchli suv shovqini bilan aralashib ketar va har qanaqa odamning yuragiga vahima solardi. Tabiatan qo'rqq, yuraksiz bo'lgan Sancho bu dahshatdan shabbodada tebranayotgan daraxt barglari ohista va qo'rqinchli shivirlaydi: olisda sharshara guvullaydi, shu suron orasida bir ohangdagi o'sha vahimali zarb eshilib turardi – bularning hammasi yurakka vahima soladi.

Don Kixot bu mavhumlikda ortiq chidab turolmadi. Jasorat va shijoat bilan to'lib-toshib, sodiq Rosinantiga jadal mindiyu, qalqonini olib, nayzasini o'qtagancha xitob qildi:

– Do'stim Sancho, shuni bilib qo'yginki, samo meni shu temir asrda bunyod qilgan ekan, bundan murod, men oltin asrni qayta tiklashim kerak. Men peshonasiga xavf-xatarlar, ulug'vor ishlar, mislsiz qahramonliklar yozilgan zotlardan bo'laman. Men, takror aytamanki, Doira stol ritsarlari<sup>1</sup>, Fransiyaning o'n ikki peri, Shavkatli to'qqiz pahlavonning<sup>2</sup> jasoratini tiklashga, o'z shon-shuhratim bilan Platirlar, Tablantlar, Olivantlar, Tirantlar, Feb va Belyanislar va o'tmishdagi boshqa barcha mashhur jahongashta ritsarlar galasidan qahramonliklar ko'rsatamanki, men qilgan ishlar oldida bu pahlavonlarning eng shuhratli ishlari ham hech narsa bo'lmay qoladi. Quloq sol, mening vafodor sodiq qurolbardorim, qanday sokin, zim-ziyo kecha, yaproqlar eshiti-

---

<sup>1</sup> **Qirol Artur va Doira Stol davri ritsarlari** – XII – XIII asrlardagi ritsarlik romanlarida feodal ideologiyasi ruhida qayta ishlangan Angliyaning hali anglo-sakslar bosib olmagan yerlarini himoya qilgan, V – VI asrlardagi brittlarning dohiysi qirol Artur haqidagi kelt xalq afsonalari katta o'rin egallardi. Ritsarlik romanlarida qirol Artur butun Britaniya va Yevropa yarmining qudratli hukmdori sifatida tasvirlangan, uning saroyida ritsarlarning sarasi to'planib, olijanob jasoratlar va sevgi g'oyalari hukmron bo'lgan (Bu ritsarlar (Tristan, Lancelott va boshqalar)ning zo'r muvaffaqiyatlari «Artur turkumi»ga kirgan qator romanlarda yoritilgan.). Shaxsiy shon-shuhrat yoki sevgili ayol uchun qirol va uning ritsarlari aql bo'var qilmaydigan jasoratlarni ko'rsatadilarki, bular «Doira Stoli» romanlarining syujetini tashkil etadi, shuning uchun ham Doira Stoli deyiladiki, Qirol Artur go'yo saroy ablining ziyofatlarida hamma o'zini teng tutsin, deya doira stol yasashni buyurgan ekan.

<sup>2</sup> **Shavkatli to'qqiz pahlavon** – qadimgi yahudiylarning uch afsonaviy rahnamolari – Iso Navin, hazrati Dovud, Juda Makkavey; qadimgi majusiylar zamonining uch qahramoni – Iskandar Rumi, Troyalik Gektor, rimlik sarkarda Yuliy Sezar; uch nasroniy – Angliya qiroli Artur, Buyuk Karl va salb yurishlarining eng mashhur yo'l boshchilaridan biri – Bulonlik Gotfridlar o'rta asrda Shuhratli to'qqiz pahlavon deb hisoblangan.

lar-eshitilmas shivirlaydi, suv Oy tog'laridan tushayotgandek vahimali guvullaydi, betinim zarbalar esa quloqlarni teshgudek kishining g'ashiga tegyapti. Bularning hammasi hatto Marsning<sup>1</sup> yuragiga vahima solishi mumkin, bunday dahshatli hodisalarga o'rganmagan kishining esa holiga voy! Lekin men qo'rqishni bilmayman, tomirlarimda qonim jo'sh uryapti, yuragim ko'kragimni yorib chiqqudek gupullayapti – qancha xavfli bo'lmasin, shu zulmatdagi sarguzashtlarni boshdan kechirishga oshiqyapman. Xo'p, yaxshi qol! Rosinantning ayilini biroz tortib qo'y, xudo o'z panohida asrasin seni! Meni bu yerda ko'p emas, uch kun kutgin. Agar uch kundan keyin qaytib kelmasam, uyga, qishloqqa jo'na, so'ngra Tobosoga borib, olamda tengi yo'q malikam Dulsineyaga, siz qalbini asir etgan ritsar sodiq qulingiz bo'lish orzusida mislsiz qahramonlik ko'rsatib halok bo'ldi, degin.

O'z xo'jayini so'zlarini eshitgan Sanchoning ko'ngli buzilib, ko'ziga yosh olarkan, shunday dedi:

– Sinor, bunday dahshatli ko'rgilikka o'zingizni urish qayoqdan xayolingizga kelib qoldi, sira tushuna olmayapman buni. Axir, qop-qorong'i tun bo'lsa, bizni birov ko'rmasa, garchi uch kundan buyon hech narsa ichmagan bo'lsak ham, bemalol boshqa yoqqa burilib xavf-xatarlardan nari ketishimiz mumkin bo'lsa. Buni hech kim bilmaydi va bizni qo'rqqoq, deyolmaydi. Darvoqe, janoblari yaxshi bilgan qishlog'imiz ruhoniysining, kimki xatar izlasa, u, albatta, halok bo'ladi, degan nasihati yodimda. Choyshabda irg'itish mening qismatimga tushib, samo siz – muhtaram janoblarini bundan asrab qoldi. Yana Tangri sizni marhumni kuzatib borayotgan dushmanlar galasiga qarshi g'olibona jang qilganingizda beshikast saqlab qoldi. Shuncha qilganingiz yetib ortadi. Taqdiringizni mo'jiza bilangina omon qoladigan sarguzashtlar yo'liga tikmang. Meni o'ylang. Bilib qo'yingki, meni yolg'iz qoldirib ketishingiz bilanoq azbaroyi qo'ruvudan jonimni har qanday kimsaning qo'liga topshirib qo'yishim mumkin. Men muhtaram janobim xizmatini o'tash, bu yo'lda muddaoga yetish niyatida vatanimni, xotinimni, bolala-

<sup>1</sup> Mars – qadimgi rimliklarning afsonalarida tasvirlangan urush ma'budi.

rimni tashlab chiqdim. Kambag'alning ovi yursa ham, dovi yurmaydi, deb bejiz aytmagan ekanlar. Mening hamma umidlarim chippakka chiqmoqda. Muhtaram janoblari ko'p marta va'da qilgan o'sha savil qolgur orol endi menga nasib bo'lsa kerak, deb turganimda, siz meni shu xilvat, kimsasiz joyda qoldirib ketmoqchisiz. Xudo haqqi, o'tinaman, sinor, boshimga bunday musibatni solmang. Hech bo'lmasa, tong otguncha sabr qiling, agar podachilik qilib yurgan kezlarimda vaqtни bilish borasida o'rgangan ilm-tajribam pand berib qo'ymasa, tong otishiga atigi uch soat qoldi. Yetti og'ayni<sup>1</sup> qoq tepamizda turibdi, demak, vaqt – yarim kecha.

– Qani o'sha Yetti Og'ayni, Sancho? – so'radi don Kixot.  
– Axir, tun bulut bilan shu qadar qoplanganki, osmonda biror yulduzni ko'rib bo'lmaydi.

– Aytganingiz to'g'ri, – dedi Sancho, – qo'rqqanga qo'shaloq ko'rinadi, deganlaridek, yer ostidagi-yu osmoni falakdagi har narsa ko'rineradi. Darvoqe, busiz ham, mundoq aql ishlatib o'ylab qaralsa, tong otishiga oz qolgani aniq ko'rinib turibdi.

– Tong qachon yorishsa, yorishaversin, – javob qildi don Kixot, – lekin hech kim hech qachon meni, ko'z yoshlari, yolvorishlari oldida ritsarlik burchini o'tashdan voz kechdi, deya olmaydi. Binobarin, bas qil bu gaplarni, Sancho! Bu misli ko'ril-magan va dahshatli sarguzashtga duch kelishimni dilimga solgan Xudo meni o'z panohida saqlaydi va senga tasalli beradi. Bas, endi Rosinantning ayilini tort, meni shu yerda kut, tez orada yo tirik, yo o'lik holda qaytaman:

Na ko'z yoshi, na maslahat va na yolvorishlar xo'jayinining sobit irodasiga ta'sir qilmaganini ko'rgan Sancho hiyla ishlatishga kirishdi. U Rosinantning ayilini tortar ekan, uning orqa oyoqlarini bildirmasdan eshagining no'xtasi bilan bog'lab qo'ydi. Hech narsadan xabarsiz don Kixot irg'ib Rosinantga mindi-yu, shporlari bilan biqiniga niqtadi. Biroq no'xtaga o'ralashib qolgan ot joyidan jila olmadi. Hiylasining o'rinlaganiga

---

<sup>1</sup> Yetti og'ayni – bu yerda gap yetti og'ayni – Katta Ayiq yulduzlari to'dasi haqida ketayotir. Uning osmonda turgan holatiga qarab vaqtни taxminan belgilasa bo'ladi.

ishongan Sancho Pansa shunday dedi:

– Mana ko'rdingizmi, muhtaram zot, menga Allohning rahmi keldi, meni yolg'iz tashlab ketishingizni xush ko'rmayapti. Joyingizdan qo'zg'ala olmayapsiz. Rosinant qancha chiranmasin, tuyog'i yerdan uzilmayapti. Bu bechora jonivorni azoblash, ataylab taqdirga qarshi borish gunohdir!

Don Kixot jazavasi tutib, jon-jahdi bilan otini niqtar, lekin qancha chiranmasin otni o'rmidan qo'zg'atolmas edi. Nihoyat, holdan toygan, taqdirga tan berib, tong otishini yoki otning joyidan qo'zg'ala olishi mumkin bo'lgan daqiqani kutishga qaror qildi. Ishning bunday mushkullashishida qandaydir sirli kuchlarning ta'siri borligiga ishonib, u shunday dedi:

– Na iloj, Sancho! Modomiki, Rosinant joyidan jilolmayotgan ekan, ko'kda tong jilvasi ko'rinmaguncha sabr etishga to'g'ri keladi. Biroq tong otishi ham cho'zilib ketyapti, alamimdan dod solib yig'lab yuboray deyapman.

– Yig'ining hojati yo'q, – javob qildi Sancho. – Agar Rosinantdan tushib, jahongashta ritsarlarga o'xshab maysazorda biroz yonboshlab hordiq chiqarishni lozim ko'rmasangiz, sizdek muhtaram janobimni ovutish uchun ertalabgacha ajoyib voqealardan so'zlab beraman. Misl siz qahramonlik ko'rsatishdan oldin siz kuch-g'ayrat to'plab olishingiz kerak.

– Nima! Sen otdan tushib, biroz mizg'ib olganingiz ma'qul deyapsanmi? – xitob qildi don Kixot darg'azab bo'lib. – Nahotki, sen meni xavf-xatar tahdid qilib turgan bir paytda uxlaydigan ba'zi ritsarlardan deb o'ylasang. Uyquni o'zing ur – sen uxlashga yaratilgansan, yoki ko'ngling tusaganini qilaver: men esa o'z sha'nimga munosib ish tutaman.

– Jahlingiz chiqmasin, muhtaram sinorim, – dedi Sancho, – soddaligim qursin, shu so'zlarni aytib o'tiribman. Yoningizga yaqinroq turishga ruxsat eting.

Don Kixot iltifot ko'rsatdi. Shunda Sancho ikki qo'li bilan xo'jayini o'tirgan egarni mahkam ushlab, undan biror qadam ham uzoqlashishdan qo'rqib, chap soniga tiranib oldi. Qayoqlardandir eshitilayotgan o'sha bir me'yordagi zarb tovushidan uni qo'rqinch bosardi.

– Xo‘sh, Sancho, meni ovutish uchun so‘zlamochi bo‘lgan hikoyangni nega boshlamayapsan? – dedi don Kixot.

– Men sizga bir voqeani hikoya qilib berishga urinib ko‘raman, – dedi Sancho, – agar uni oxirigacha tugata olsam, olamda bundan a‘lo hikoya yo‘qligiga iqror bo‘lasiz. Diqqat bilan eshiting, muhtaram zot, mana hozir boshlayman. Shunday qilib, o‘tgan ishga salavot. Yaxshilik bo‘lguday bo‘lsa, hammaga bo‘lsin, yomonlik esa uning ko‘yiga tushganga tegsin. Muhtaram janob, «Balo izlaganga tegsin» degan so‘zlarga e‘tibor bering. Bu so‘zlar go‘yo uzukka ko‘z qo‘yganday, sizga juda yopishib tushadi-da: muhtaram hazratlari falokat iziga tushib darbadar yurmay, tinchgina o‘tirganlari ma‘qul edi. Modomiki, bizni xavf-xatarlarga to‘la bu yo‘ldan borishga hech kim zo‘rlamayotgan ekan, boshqa yo‘l bilan tinchgina qaytib ketganimiz yaxshi emasmikan?

– Hikoyangni davom ettir, Sancho, – dedi don Kixot. – Qaysi yo‘ldan borishni hal qilishni o‘zing menga qo‘yib ber. – Davom ettiraman, – dedi Sancha. – Shunday qilib, Estremadura degan bir joyda echki boqadigan bir podachi, boshqacha qilib aytganda, serkaboqar bo‘lgan ekan va bu echki boquvchi podachi yoki mening hikoyamda aytilgandek serkaboqarni Lope Ruis deb atasharkan. O‘sha Lope Ruisning Torralba ismli cho‘pon qizga ishqiq tushib qolibdi. Shu Torralba degan podachi qiz bir badavlat chorvadorning qizi bo‘lib, badavlat chorvador esa...

– Agar har so‘zni ikki martadan qaytaradigan bo‘lsang, Sancho, – deb uning so‘zini bo‘ldi don Kixot, – u holda hikoyangni ikki kunda ham tugatolmaysan; donolardek qisqaroq va ma‘noliroq qilib so‘zla, yo‘qsa ovozingni o‘chir!

– Bu ertaklar qishlog‘imizda qanday aytilsa, xuddi o‘shanday so‘zlayapman, – javob qildi Sancho. – Boshqacha qilib aytolmayman, bundan tashqari, bu qadimiy odatni buzishni istamayman ham. Binobarin, janoblarining mendan buni talab etishlari ham o‘rinli emas.

– Mayli, bilganingcha aytaver, – dedi don Kixot, – modomiki, hikoyangni tinglash nasib bo‘lgan ekan, sabr-toqat qilaman.

– Shunday qilib, sinorim, – davom etdi Sancho, – men sizga aytgan cho‘pon Torralba degan podachi qizni yaxshi ko‘rib qolgandi. Bu qiz, hozir ko‘z oldimda turgandek, barvasta, o‘jar bo‘lib, mo‘ylovi bo‘lganidan erkakka o‘xshar edi.

– Uni tanirdingmi? – so‘radi don Kixot.

– Men-ku uni bilmayman-a, – javob qildi Sancho, – lekin bu voqeani aytib bergan kishi, bularning hammasi ro‘yi-rost, bo‘lgan voqea, agar buni birorta kishiga so‘zlaydigan bo‘lsang, qasam ichamanki, o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman deyaver, degan. Shunday qilib, vaqt o‘taverdi-o‘taverdi, hamisha har yerda hozir shayton shumligini qilaverdi, nihoyat cho‘ponning podachi qizga bo‘lgan muhabbati qattiq g‘azab va nafratga aylandi. Cho‘pon uni shu qadar yomon ko‘rib qoldiki, uning qorasini ko‘rmaslik uchun hatto qishloqni tashlab, qizning nom-nishoni yetmaydigan uzoq o‘lkalarga ketishga jazm qildi. Yigit echkilarni to‘plab, Estremadura yaylovlari bilan Portugaliya qirolligi tomon ketdi. Bundan xabar topgan Torralba yigit ketidan yo‘lga tushdi. Qo‘lda hassa tutgan, yelkasiga xurjun ortib olgan qiz yayov, yalangoyoq uzoq yo‘l bosdi. Uning xurjunida bir parcha oyna, yarimta taroq, kichkina shishada allaqanday surtadigan narsa bor edi. Darvoqe, uning nimasi borligining ahamiyati yo‘q, baribir, hozir tekshirib ko‘rib bo‘lmaydi. Shuni aytishim kerakki, qiz cho‘pon yigitni quvib borarkan, yigit o‘z podasi bilan Gvadiana daryosiga yetib kelgan edi. Bu paytda daryo toshadigan palla bo‘lib, yigit kelgan joyda na qayiq va na sol, na yigitni, na podasini olib o‘tib qo‘yadigan bir kimsa bor edi. Yigit qattiq iztirobga tushdi, chunki u Torralbaning yetib kelishini, yalinib-yolvorib, ko‘z yoshi to‘kib uning ko‘nglini yumshatishga urinishini bilardi. U chor atrofga alanglay boshladi, nihoyat, kichkina qayiqchada o‘tirgan baliqchini ko‘rib qoldi. Qayiqcha shu qadar kichik ediki, unga bir odam-u bir echki arang sig‘ardi. Biroq boshqa iloj yo‘q. U baliqchini chaqirdi, o‘zini va uch yuz bosh echkisini narigi sohilga o‘tkazib qo‘yishni shartlashdi. Baliqchi qayiqchasiga bir echkini solib narigi qirg‘oqqa o‘tkazdi, qaytib kelib ikkinchi echkini o‘tkazdi, yana qaytib uchinchi echkini olib o‘tdi... Narigi qirg‘oqqa necha echkini olib o‘tganligini yaxshilab

sanab turing, mabodo hisobda birorta echkidan adashib qolsangiz bormi, men hikoyani davom ettira olmayman, voqea shu yerda to'xtaydi-qoladi, marhamatli janobim. Ha, shu narsa yodingizda bo'lsin, sinor. Endi bu yog'ini eshiting. Narigi qirg'oq botqoq va toyg'oq bo'lgani sababli har bir echkini eson-omon o'tkazish uchun ancha-muncha vaqt ketadi. Baliqchi, har qalay, bir echkini, keyin yana birini, so'ngra yana birini olib o'tdi.

– U hammasini olib o'tdi deb qo'ya qolsang-chi bir yo'la, – uning gapini bo'ldi don Kixot. – Bo'zchining mokisidek qirg'oqdan qirg'oqqa yuguraverasanmi, bunaqada yil o'n ikki oy ham yetmaydi-ku?!

– Baliqchi qanchasini olib o'tib qo'ydi? – deb so'radi Sancho.

– Kim biladi deysan! – javob qildi don Kixot.

– Axir, qancha olib o'tayotganini astoydil hisoblab boring deb iltimos qiluvdim-ku, baribir, hisobdan adashibsiz-da. Endi davomini ayta olmayman.

– Bu qanaqa bema'nilik! – e'tiroz bildirdi don Kixot. – Nahotki, sening afsonang uchun qancha echki olib o'tilganining aniq hisobi zarur bo'lsa, hisobdan yanglishib ketilsa, hikoyangni davom ettira olmasang?

– Yo'q, sinor, aslo davom ettira olmayman, – javob qildi Sancho, – chunki men o'zlaridan hisobini olib borib tursinlar deb iltimos etganim-da va o'zlari nechta echki olib o'tilganligini ayta olmaganlaridayoq sizga aytib bermoqchi bo'lgan voqeaning oxiri xayolimdan chiqdi-ketdi, Xudo haqqi, davomi juda qiziq edi.

– Demak, afsonang tamom bo'libdi-da? – deb so'radi don Kixot.

– Ha, xuddi marhum buvimdek tamom bo'ldi, – javob qildi Sancho.

– Rostini aytsam, – davom etdi don Kixot, – sen menga shu kunga qadar odamlar to'qilgan ertak, qissa yoki hikoyalarning eng g'aroyiblaridan birini so'zlab berding. Hech kim umrida bu tariqa boshlanib, shartta uzib qo'yiladigan afsonani eshitgan emas, eshita olmaydi ham. Darvoqe, sendek aqli raso-

dan bundan boshqa narsani kutib ham bo'lmaydi. Aftidan, anavi betinim zarblar es-hushingni aynitib qo'yganga o'xshaydi.

– Bo'lishi mumkin, – javob qildi Sancho. – Lekin qissam tugagani aniq, nega desangiz, kimki olib o'tilgan echkilar hisobidan adashdimi – ertakning ham keti uziladi.

– Uzilsa uzilavermaydimi, juda soz bo'libdi-da, – dedi don Kixot, – qani, endi bir ko'raylik-chi, Rosinant o'rnidan qo'zg'alarmikan.

U yana otning biqiniga niqtay boshladi, lekin ot joyidan qo'zg'almay tepinardi: oyoqlari chalkashib qolgan edi. Don Kixot noiloj sabr-toqat qilishga, qurolbardorinint yolg'on-yashiq gaplarini eshitib vaqt o'tkazishga majbur bo'ldi. Yaxshiki, tong otishga sal qolgan edi.

Tong endi yorisha boshlagan ediki, Sancho sekingina Rosinantning oyoqlarini bo'shatib yubordi. Tushovdan bo'shagan Rosinant go'yo xursand bo'lganday boshini silkiy boshladi. Rosinantning harakatini ko'rgan don Kixot, sodiq otim meni mislsiz qahramonlik ko'rsatishga chaqiryapti, bu xayrli ishning boshlanishidan nishona, deb o'yladi. Sirli shovqin hamon tinmas, don Kixot esa buning nimaligini shu damgacha anglab yetmas edi. Shu sababdan ritsarimiz vaqtni behuda o'tkazmay, ikkinchi bor Sancho bilan xayrlashdi, oldin uqtirganidek ko'pi bilan uch kun kutishni, mabodo, uch kundan so'ng qaytmasa, taqdiri ilohiy bu dahshatli olishuvda o'z omonatini olibdi, deb bilishini ta'kidladi. Shundan so'ng Sanchoga o'z nomidan sinora Dulsineyaga yetkazish zarur bo'lgan gaplarni qaytardi. Oxirida don Kixot o'z sodiq qurolbardoriga mehnatlari evaziga berilajak mukofotlar xususida tashvishlanmasligi kerakligini aytdi.

– Basharti men halok bo'lib ketganimda ham, – deb so'zini tugatdi ritsar, – sen, baribir, taqdirlanasan, chunki men uyda vasiyatnoma qoldirganman, shunga binoan, menga qilgan xizmatingga yarasha haq olasan; agar yaratgan Tangri meni xavf-xatardan sog'salomat saqlasa, Sancho, senga va'da qilingan orol qo'limda deyaver.

Oqko'ngil xo'jayinining alamli so'zlarini eshitgan Sancho yana kuyinib yig'ladi-da, har qanday dahshatli soatlarda



ham unga hamdam bo'lishga tayyor ekanligini, biroq don Kixot o'zini bunday xatarlarga urmagan yana ham ma'qulroq ekanligini aytdi.

Don Kixot o'z qurolbardorining sadoqatidan ko'ngli erib ketdi-yu, lekin uning iltijolariga quloq solmay, Rosinantning biqiniga niqtab, zarb tovushi, oqim suroni kelayotgan tomonga qarab ot soldi. Sancho esa yaxshi kunida ham, yomon kunida ham hamrohi va hamdami bo'lgan sodiq eshagining yuganidan ushlagancha xo'jayini izidan yo'lga tushdi. Ular kashtanzordan o'tib, cho'qqilaridan bahaybat sharshara shovullab tushayotgan baland qoyalar etagidagi o'tloqqa chiqib qolishdi. Bu qoyalar tagida qandaydir g'aribona kulbalar bor edi. Yo'lovchilarimizga ularni qo'rquvga solgan zarb-tovushlar xuddi shu kulbalardan chiqayotgani ayon bo'ldi. Sharshara shovqinidan Rosinant hurkidi, lekin don Kixot o'z tulporini tinchlantirib, kulbalar tomon dadil borishga jazm qildi. O'z ma'shuqasiga dildan murojaat etib, bu xatarli olishuvda qo'llab-quvvatlashini iltijo qildi. Sancho o'z xo'jayinidan bir odim ham ortda qolmay borardi. U Rosinant panasida turib, ko'ngliga vahima solayotgan narsani o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyoqida bo'y cho'zaverib, bo'yin tomiri uzilishiga sal qoldi. Ular asta-sekin do'ng qoyani aylanib o'tgan ham edilarki, ko'z o'nglarida ularni tun bo'yi qo'rquv va tashvishga solgan mash'um shovqin-suronning manbai namoyon bo'ldi-qo'ydi: ularning ro'parasida (yana achchiqlanib, xafa bo'lma, kitobxon!) movut bosadigan dastgohning oltita to'qmog'i bir me'yorda navbatma-navbat zarb bilan tushib gumburlardi.

Jumboqning bunday yechilishini ko'rgan don Kixot toshdek qotdi-qoldi. Unga razm solgan Sancho o'z xo'jayinining xijolatdan boshini quyi solib turganini ko'rdi. Don Kixot esa o'z navbatida qurolbardoriga ko'z qirini tashlarkan, Sanchoning yo-noqlari shishib, go'yo hozir kulgidan yorilib ketgudek bo'lib turganini sezdi. Hafsalasi pir bo'lgan don Kixot o'zini tutib turolmay, kulib yubordi. Darhol xo'jayinidan andoza olgan Sancho ham quloqni qomatga keltirgudek baland ovoz bilan qahqahlab yubordi. U to'rt bor o'zini arang to'xtatdi-yu, lekin yana kula-verdi. Nihoyat, don Kixotning jahli chiqqa boshladi, biroq shu

zahoti Sancho birdan xo'jayining g'ashiga tegib, tantanavor ohangda ochiq-oydin so'zlay ketdi:

– Do'stim Sancho, shuni bilib qo'yginki, samoning meni shu temir asrda bunyodga keltirishdan murodi, men haligi oltin bilan sayqallangan yoki oltin asmi qayta tiklashim kerak. Men peshonasiga xavf-xatarlar, ulug'vor ishlar va mislsiz qahramonliklar yozilgan zotlardan bo'laman...

Sancho dahshatli zarblarni birinchi bor eshitgan vaqtda don Kixot, nimalar degan bo'lsa hammasini so'zma-so'z qaytardi. Sanchoning mazax qilayotganini ko'rgan don Kixotning g'azabi qaynab, bechoraning yelkasiga nayza bilan ikki marta tushirdi: agar nayza Sanchoning yelkasiga emas, boshiga tushganda bormi, don Kixot unga xizmat haqi berish tashvishidan qutulardi. Xo'jayini bilan hazillashish xavfli ekanini ko'rgan Sancho yana nayza tushib qolishidan qo'rqib, darhol safsataboqlikni to'xtatdi-da, mo'mintoylik bilan shunday dedi:

– Tinchlaning, muhtaram janobim, Xudo haqqi, men hazillashdim, xolos.

– Lekin, men hazillashmoqchi emasman! – dedi don Kixot. – Janob hazilkash, nahotki, shu bosma to'qmoqlar o'miga boshqa biron xavfli voqeaga duch kelib qolsak, mening jasorat ko'rsatib ishni bir yoqli qilishimga ishonmasangiz? Nahotki, men, ya'ni ritsar, allaqanday taqir-tuqurni farq etishim, uning qaysisi bosma to'qmog'-u, qaysisi – boshqa narsa ekanligini bilishga majbur bo'lsam? Axir, rostini aytganda, siz jirkanch erkakvachcha mana shunaqa barcha tegirmon-u bosma to'qmoqlar orasida tug'ilib o'sgansiz; men esa umrimda ko'rmagan bo'lsam bularni. O'z xo'jayiningiz ustidan kulishdan ko'ra, yaxshisi, shu olti bosma to'qmoqni oltita bahaybat devga aylantiring, ular menga hamla qilishsin. Basharti, qilichimning bir zarbasidan tilka-pora bo'lishmasa, ana shunda og'zingiz qulog'ingizga yetganча kuling mendan.

– Bo'ldi endi, sinorim, – dedi Sancho, – darhaqiqat, hazilni haddan oshirib yuborganligimdan pushaymonman. Keling endi, yaxshisi, yarashib qo'ya qolaylik. Xudoyo Xudovando bo'lajak ko'rgiliklardan bugungidek eson-omon, beshikast chi-

qing. Har holda, iqrор bo'lganingiz ma'qul, marhamatli janobim: axir, shunchaki oddiy bir movut bosadigan dastgohning ovozidan o'takamiz naq yorilayozgani – darvoqe, janoblari qo'rquvni bilmaydilar – binobarin, mening qutim uchishi kulgili emasmi. Axir, bu haqda qishlog'imizda gapirib qolinsa bormi, eshitgan odamning kulgidan ichagi uziladi-ya.

– Biz boshimizdan kechirgan voqea kulgili emas, deb aytolmayman, – dedi Don Kixot, – lekin bu haqda birovlariga gapirishning keragi yo'q. Bunday voqealarni yaxshi tushunib olish uchun hamma odamlarda ham fahm-farosat yetishavermaydi.

– Har holda, – dedi Sancho, – o'zlari nayzani yaxshi ishga solarkanlar: kalamni mo'ljalga olib hamla qildingiz, xudoning marhamati bilan kaminaning epchillik qilib chap berganligi tufayligina yelkamga tushdi. Ha, mayli: suyganingizdan urasiz-da, urganingiz – un oshi, so'kkaningiz – so'k oshi, qabilida maqol bor, darvoqe. Mo'tabar sinorlar xizmatkorlarini so'kib ta'zirini berganlarida shu zahoti yangi ishton in'om etganlar; lekin jahongashta ritsarlar o'z xizmatkorlarini yaxshilab kaltaklagandan keyin ularga nima in'om etishlarini bilmayman, mabodo, kaltaklardan keyin ular xizmatkorlariga biror orol yoki qirollik hadya qilmasmikanlar?

– Ha, taqdir yor bo'lib, sening hamma so'zlaring chindan ro'yobga chiqib qolishi ham hech gap emas, – dedi don Kixot. – Urganim uchun kechir. Axir, sen kichkina bola emassan, jahl kelganda, aql qochadi, deganlaridek, sabr-toqati tugagandan keyin kishi nima qilayotganini o'zi ham bilmay qoladi. Bundan buyon bu senga saboq bo'ladi: menga ortiqcha gap-so'z aytishdan tilingni tiy, chunki men son-sanoqsiz ritsarlik kitoblarini o'qib chiqqanman, lekin ularning birortasida qurolbardorning o'z xo'jayini bilan senchalik ko'p gaplashganini uchratganim yo'q. To'g'risini aytganda, bunga ikkalamiz ham aybdormiz: sening aybing hurmat-e'tiborimni unchalik o'rniga qo'ymaganingda, mening aybim esa sendan buni talab etmaganimda. Masalan, Galliyalik Amadisning qurolbardori Gandalin Quruqlik orolining grafi bo'lsa-da, tarixda aytilganiga ishonilsa, o'z xo'jayini bilan turklarning odatiga ko'ra shapkasini qo'lga olib, ikki bukilib

ta'zim etgan holda gaplasharkan. Men Amadisdek qattiqqo'l emasman, ammo-lekin, Sancho, sen xo'jayin bilan xizmatkor, sinor bilan qarol, ritsar bilan qurolbardor o'rtasidagi farqni unutmashliging kerak. Xuddi mana shu vajdan bugundan boshlab o'zaro muomalamizdagi betakalluflik va maynabozchilikni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yamiz: agar sen meni biror sabab bilan ranjitsang, bundan faqat o'zinggina masaldagi sopol tuvakchadek jabrini ko'rasan. Va'da qilingan marhamat ko'rsatish va mukofotlash fursati esa o'z vaqti-soati bilan keladi, mabodo bo'lmay qolsa, baribir, maoshing yo'qolmaydi, bu haqda men senga bir necha bor aytganman.

– Bu gaplaringizning bari bama'ni, ajoyib, muhtaram janob, – dedi Sancho. – Men bir narsani bilishni istardim. Mukofot beriladigan kun umuman kelmay qolishi ham mumkin: u holda men faqat maoshgagina qanoat qilishim-kerak bo'lib qoladi. Qani, menga ayting-chi, ulug' zot, qadim vaqtlarda jahongashta ritsarlarning qurolbardorlari qancha maosh olganlar va qay tartibda yollanganlar – oyigami yoki kunigami?

– Menimcha, – javob qildi don Kixot, – u zamonlarda qurolbardorlar hech vaqt maosh olmaganlar, faqat hadya-in'omlar bilan kifoyalanganlar. Modomiki, men uyda qoldirgan vasiyatnomamda sening maoshing haqida eslatgan ekanman, bunga sabab: bizning bu mushkul zamonda ritsarning holi nima kechishini azbaroyi bilmaganimdan aytganman. Zotan, men qandaydir arzimagan bir narsani deb u dunyoda azob chekishni istamayman. Binobarin, Sancho, sen bu dunyoda jahongashtalikdan ham og'irroq biror ish yo'qligini bilib qo'yishing zarur.

– Haq rost! – javob qildi Sancho. – Sizdek ulug' zot, dovyurak jahongashta bir ritsar yuragiga bosma to'qmoqlarning gupullashi vahima solishining o'zi buning isboti. Biroq siz shunga ishoningki, bundan buyon janoblari bilan aslo hazillashmayman, sizni hamma vaqt o'z xo'jayinim, sinorim, deb izzat-ikrom bilan ulug'layman.

– Ana shunda baraka topasan, – javob berdi don Kixot, – chunki ota va onadan keyin o'z xo'jayinini ko'proq hurmat qilish darkor.

**BUYUK SARGUZASHT VA MAMBRINNING BEBAHO  
DUBULG'ASINI QO'LGA KIRITISH HAMDA RITSAR  
BILAN UNING QUROLBARDORI O'RTASIDAGI  
SUHBAT**

Shu vaqt sevalab yomg'ir yog'a boshladi. Sancho yomg'irdan qochib movut bosadigan xonaga kirishga bajonidil tayyor edi, lekin don Kixot qurolbardorining kinoyali gaplaridan keyin uni shu qadar yomon ko'rib qolgandiki, u yerga kirishni aslo istamadi. Shu boisdan ular o'ngga burilib, ko'p o'tmay bu yerga kechagina kelgan yo'llariga chiqib olishdi. Ular hali yarim chaqirimcha yurganlari ham yo'q ediki, don Kixot olisda kelayotgan chavandozni ko'rib qoldi. U boshiga xuddi oltindek yaraqlayotgan g'alati qalpoq kiyib olgan edi.

– Menimcha, Sancho, – dedi don Kixot, – har qanday maqol tagida haqiqat bor, chunki bu hikmatlarning hammasi ilmu fan onasi – turmush tajribasidan olingan. Quldan bo'lmasa yo'ldan, degan maqol bag'oyat haq gap ekan. Bunaqa deyishimning ma'nosi shuki, taqdir kecha biz izlagan sarguzasht eshigini bekitib, hatto movut bosadigan ishxonadan qo'rqishga majbur etgandi: bugun esa ko'ribsanki, taqdir saxovat ko'rsatib boshqa bir sarguzasht eshigini lang ochib turibdi. Biroq bu, aftidan, jiddiy ishga o'xshaydi! Qara, agar yanglishmasam, men qidirib topaman deb ont ichgan, Mambrinning dubulg'asini kiyib olgan chavandoz o'z oyog'i bilan biz tomon kelyapti.

– Xudo haqqi, ehtiyot bo'lsinlar, muhtaram janobim, – javob qildi Sancho, – movut bosadigan ishxonadagi ko'rgilikdan bo'lmasin tag'in, sinor.

– He, jin ursin seni, – dedi jahl bilan don Kixot, – dubulg'aga movut bosadigan ishxonaning nima daxli bor ekan?

– Nima ham derdim, – javob qildi Sancho, – ammo rost gap, muhtaram janob, mabodo, mening ilgarigidek o'zlari bilan bemalol gaplasha olishimga ijozat bersalar, kaminangiz sizdek

hurmati oliylarining adashayotganliklarini isbotlovchi dalillar keltira olgan bo'lardi.

– Ey, qo'rqoq va xoin, xo'sh, men nimada yanglishibman?! – xitob qildi don Kixot. – Qani, ayt-chi, boshiga oltin dubulg'a kiygan chavandozning olato'riq yo'rg'a otda kelayotganini ko'rmayapsanmi?

– Ko'ryapman, – javob qildi Sancho, – qandaydir odamning eshak minib kelayotganini ko'rib turibman. Eshagining tusi mening eshagimdaqa to'riq, boshiga kiygan narsasi esa, haqiqatan ham, yarqiroq.

– Ha, o'sha Mambrin dubulg'asining xuddi o'zginasi-da, – dedi don Kixot. – O'zingni chetga ol, meni u bilan yuzma-yuz qo'y: ana shunda mening qilich bilan bu notanish ritsardan ko'pdan orzu qilganim dubulg'ani qanday tortib olishimni tomosha qilasan.

– Chekkaga chiqib turishim qiyin emas, – javob qildi Sancho. – Biroq, muhtaram janob, ehtiyot bo'lishingizni o'tinib so'rayman. Bosma to'qmoq, ya'ni dastgohlarga duch kelgandek yana biror ko'ngilsiz voqeaga uchrab qolmang deyapman.

– U dastgohlarni esga solmang, deb men sizga yuz bor aytdim, birodar, – so'zini bo'ldi don Kixot, – yo'qsa, yetmish ikki tomiringizdagi joningizni sug'urib olmasam, odam emasman.

Sancho xo'jayinini og'zidan ko'pikdek sochilib chiqayotgan so'zlariga chindan ham amal qilib, savab qolmasin, degan xavfda tilini tiydi.

Ammo boshiga yarqiroq dubulg'a kiyib olgan sirli chavandozning kim ekanligini kitobxonga ma'lum qilish lozim. Bizning ritsar o'z qurolbardori bilan borayotgan katta yo'l yaqinida ikki qishloq bor edi. Bularning biri kichkinagina qishloqcha bo'lib, unda na dorixona, na sartaroshxona bor edi. Shu sababli kattaroq qishloqdagi sartarosh har ikki qishloq ahliga xizmat qilardi. Ayni shu vaqt kichik qishloqdagi bir kishi qon oldirishi, boshqasi soch-soqolini qirdirishi zarur bo'lib qolibdi. U yangi shlyapasini yomg'irdan saqlash uchun yarqiratib tozalangan jomni boshiga to'ntarib kiyib olibdi. U Sancho aytgandek, to'riq

eshak minib kelardi, don Kixotning ko'ziga esa darhol ritsar-u oltin dubulg'a, ola saman ot bo'lib ko'rindi. Zotan, ko'ziga nimaki ko'rinsa, u hammasini o'zi istagancha tasavvur etib, be-ma'ni, ahmoqona xayollarga berilib ketardi.

Sartarosh ritsarimizga yaqinlashgan ham ediki, Rosinanti-ni baholi qudrat choptirib nayza o'qtaganicha unga qarshi ot soldi. Sartarosh yoniga yetib kelgan don Kixot qichqirdi:

– O'zingni himoya qil, ey, notavon yoki menga chindan ham tegishli bo'lgan narsalarni jang-jadalsiz topshirib qutulib qol!

Xayoliga ham keltirmagan qandaydir bir sharpaning bexosdan qilgan hamlasidan naq o'takasi yorilgan sartarosh gurs etib eshakdan ag'anadi-yu, boshidagi jom tushib yumalab ketdi. Sartarosh yelkasi yerga tegar-tegmas, bamisoli kiyikdek sakrab turib, chunon qochdiki, hatto unga shamol ham yeta olmasdi. Yo'lda yotgan jomni ko'rgan don Kixot bechora sartaroshni ta'qib etishni xohlamadi.

– G'alabaning osonlik bilan qo'lga kirishini ko'rdingmi, Sancho, – dedi don Kixot, – mening majusiy raqibim tishlab olgan ovini ovchiga tashlab qochgan qunduzga o'xshab oqilona ish tutdi.

Don Kixot Sanchoga dubulg'ani olib kelishni buyurdi. Sancho uni qo'lga olar ekan:

– Xudo haqqi, bu jom chakki emas! Kamida sakkiz real turadi, – dedi.

So'ngra Sancho jomni xo'jayiniga uzatdi, u esa darhol boshiga kiyib, siparini izlab, uni aylantira boshladi. Siparini topa olmagach, nihoyat shunday dedi:

– Anchayin yasalgan bu dubulg'adan ko'rinish turibdiki, bu majusiyning kallasi juda katta ekan. Lekin dubulg'aning sipari va orqa pechi yo'qligi bag'oyat achinarlidir.

Don Kixotning sartarosh jomini dubulg'a deganini eshitgan Sancho qahqahlab kulib yuborishdan o'zini arang to'xtatib qoldi, chunki xo'jayinining jahli chiqquday bo'lsa, nimalar ro'y berishi mumkinligini o'z vaqtida eslab qoldi.

– Nega kulyapsan, Sancho? – so'radi don Kixot.

– Men bu dubulg‘aning egasi bo‘lmish o‘sha majusiyning kallasi qanday kattaligidan kulyapman, – dedi Sancho. – Axir, bu dubulg‘a xuddi sartarosh jomining o‘zginasi-ku.

– Mening fikrimga nima kelganini bilasanmi, Sancho? Aftidan, bu mashhur sehrli dubulg‘a uning butun qadr-u qimmatini bilmaydigan odamning qo‘liga tushib qolganga o‘xshaydi. U dubulg‘aning sof oltindan yasalganini ko‘rib, uning sipari va orqa pechini ajratib tashlab, qubbali asosidan sen aytayotgan sartarosh jomini yasab olgan. Ha, mayli. Men bu dubulg‘aning qanaqaligini yaxshi bilaman-ku, uni nimaga aylantirishganining men uchun ahamiyati yo‘q. Temirchiligi bor birinchi qishloqqa kirganimizdayoq dubulg‘ani boshqatdan yasab olamiz, ana shunda bu dubulg‘a oldida temirchilik ma‘budining urush ma‘budiga yasab bergan dubulg‘asi hech gap bo‘lmay qoladi. Hozircha, yo‘g‘idan ko‘ra bori deganlaridek, shu taxlitda kiyib yuraveraman. Axir, toshbo‘rondan saqlanish turgan gap-ku.

– Ha, albatta, mabodo ikki qo‘shin to‘qnashuvida dushmanlar palaxmonlardan tosh otib, sizdek muhtaram zotning tishlarini dabdala qilib va mening ichak-chavog‘imni ag‘dara-yozgan anavi la‘nati malham solingan tunuka idishchani sindirgandek voqealar yuz bermasa, bo‘lgani! – javob qildi Sancho.

– Hechqisi yo‘q, Sancho. Malhamni qaytadan tayyorlash mumkin, – javob qildi don Kixot. – Uning qanday tayyorlanishini yoddan bilishim senga ma‘lum-ku.

– Ha, mening ham esimda, – dedi sergap qurolbardor. – Ammo qachon bo‘lmasin, umrimda uni tayyorlaydigan yoki tatib ko‘radigan bo‘lsam, ilohim, joyimda til tortmay qolay. Darvoqe, bu dori-darmonning bundan keyin menga zarurati ham yo‘q, chunki birovni shikastlashdan yoki o‘zim jarohatlanishdan ehtiyot bo‘laman. Hech vaqt birov bilan mushtlashishni men o‘zim boshlamayman, kimki men bilan mushtlashadigan bo‘lsa, orqa-oldimga qaramay qochaman. To‘g‘ri, balki, baxtsizlik ro‘y berib, yana meni choyshabda irg‘itishar, na chora, bundan qochib qutulib bo‘lmaydi. Bunday paytda g‘ujanak bo‘lib olib, nafasni ichimga yutgancha, ko‘zni chirt yumib taqdir va choyshabga tan berib yotaverishdan boshqa iloj yo‘q.



– Sen yomon nasroniysan, Sancho, – javob qildi bu gapga don Kixot, – chunki sehrli qal’ada yoki sen aytgandek qovoqxonada tortgan azobingni unutilmaysan. Shuni bilib qo’yginki, oliyanob va saxovatli ko’ngil bunga o’xshash mayda-chuydalarga parvo qilmaydi. Nahotki, o’shandan keyin cho’loqlanib qolgan bo’lsang? Yoki qovurg’angni sindirishdimi, kallangni yorishdimi? Nega sen u hazilni esingdan chiqara olmaysan? Axir, u faqat hazilgina edi-ku. Agar men shunday deb o’ylama-ganimda edi, sen uchun intiqom olgani u yerga, albatta, qaytib borgan bo’lardim. Men ularning boshiga shunday dahshat-u musibatlar solardimki, bunaqasini yunonlar ham Yelena o’g’ir-langanida qila olmagan edilar<sup>1</sup>. Davroqe, shuni aytishim kerakki, – qo’shimcha qildi ritsarimiz ko’zlarini osmonga tikib, og’ir xo’rsinarkan, – basharti Yelena bizning davrimizda yoki tengi yo’q Tobosolik Dulsineya Troya zamonida yashagan bo’lsa edi, mashhur yunon ayoli go’zallikda osonlikcha mashhur bo’la olmas edi.

Don Kixotning bu so’zlariga javoban Sancho shunday dedi:

– Ha, mayli! Modomiki, biz rostakamiga qasd ololmas

---

<sup>1</sup> ...bunaqasini yunonlar ham Yelena o’g’irlanganida qila olmagan edilar... – qadimgi yunon rivoyatlariga ko’ra, Troya podshosi Priamning o’g’li Paris Sparta podshosi Menelayning xotini go’zal Yelenani o’g’irlab ketadi. Haqoratlangan Menelay yordam so’rab o’z qavm-qabilalariga murojaat qiladi. Yunonlar unga yon bosishadi va Troyaga yurish boshlashadi. Troyani qamal qilish bir necha yilga cho’ziladi va nihoyat shahar vayron qilinadi. Shu urush tarixi «Iliada» va «Odiseya» asarlarining mazmunini tashkil etadi. **Troya urushi** — yunon eposlari «Iliada» va «Odiseya»da bayon qilinishicha, Miken shohi — Agamemnon boshchiligida axeyyalik shohlar ittifoqining Troyaga qarshi olib borgan 10 yillik urushi. Axeylarning Troyani zabt etishi bilan tugagan. Troyada olib borilgan arxeologik qazish ishlarining ko’rsatishicha, miloddan avvalgi 1260-yilda shahar uzoq muddatli qamalni boshidan kechirgan va vayron qilingan. Shunday qilib, yunon afsonalaridagi ma’lumotlar tasdiqlangan. Epos ma’lumotlariga ko’ra, troyalik shahzoda Paris tomonidan Sparta shohi Menelayning qizi (ayrim manbalarda xotini) — go’zal Yelenani o’g’irlab ketilishi Troya urushiga sabab bo’lgan. Menelay va uning birodari Agamemnon yunon davlatlari shohlarini yordamga chaqirib katta flot bilan Troya sohillariga yo’l olgan. Troya shohi Priamga frigiyalik, likiyalik, frakiyalik ittifoqchilar yordam bergan. Yunonlar Troyani 10 yil qamal qilganlar va hiyla bilan uni egallaganlar. Asosan, buyuk jangchilarning yakkama yakkama olishuvidan iborat bo’lgan harbiy harakatlarda yunon axeylardan Axill, ikki Ayaks, Patrokl, Agamemnon, Odisey va boshqalar; troyaliklardan — Gektor, Glavk, Sarpedont va Eney shuhrat qozonishgan.

ekanmiz, bu hazil bo'la qolsin. Lekin men buning qanaqangi hazil bo'lganini yaxshi bilaman, yana imonim komilki, u mening yodimdan hech chiqmaydi, yelkalarim ham aslo unutilmaydi. Keling, bu gapni bas qilaylik. Yaxshisi, muhtaram janob, siz xuddi quyib qo'yganday mening eshagimning o'zginasi bo'lgan manavi ola saman otni nima qilish kerakligini aytsangiz. Axir, egasi uni o'z holiga tashlab ketdi. Soqolim bilan ont ichamanki, yomon eshak ko'rinmaydi! U kunimizga yarab qolishi mumkin, birga olib ketmaylikmi?

– Yengilganlarni talon-toroj qilish mening odob qoidamga kirmaydi, – javob qildi don Kixot. – Ritsarlik odati dushman otini tortib olib, o'zini piyoda haydashni man qiladi. Basharti jangda g'olib chiqqan kishi o'z otidan ajralib qolgan taqdirdagina u otni qonuniy har bir o'lja sifatida olishi mumkin, xolos. Shuning uchun Sancho, bu otni yoki eshakni (sen agar uning eshak bo'lishini juda istasang) o'z holiga qo'y, ishonamanki, biz ketgach, egasi yana qaytib kelib, uni olib ketadi.

– Xudo biladi, – dedi Sancho, – uni juda olib ketgim kelyapti yoki hech bo'lmaganda o'z zimnikiga alishtirib olsam, axir, undan meniki yomonroq-ku. Bir eshakni ikkinchisiga ayirboshlashni ham taqiqlaydigan ritsarlik qonun-qoidalari juda bema'ni ekan-da. Qani, aytsinlar-chi, hech bo'lmaganda egar-jabduqlarni almashtirib olsam bo'larmikan?

– Bu xususda men qat'iy biror narsa deyolmayman, – javob qildi don Kixot. – Bu shubhaliroq narsa – surishtirib aniqlab olish zarur. Darvoqe, kel, men senga ruxsat etdim, modomiki, eshaging uchun egar-jabduq shu qadar zarur ekan, alishtirib ola qol.

Xo'jayindan ruxsat olgandan so'ng, Sancho darhol egar-jabduqlarni almashtirib, eshagini shu qadar yasatdiki, ko'rkda unga teng keladigan eshak topilmas edi.

So'ngra sarguzasht izlovchilarimiz bir daraxtzorda to'xtashib, dafn marosimi bilan borayotgan aravalardan Sancho olib qolgan narsalar bilan nonushta qilishdi; yaqindagi anhordan qonib suv ichishdi. Ular biroz hordiq chiqargach, yana yo'lga tushdilar. Rosinantni o'z mayliga qo'yib berdilar, eshak ham bir qa-

dam orqada qolmay, uning ketidan ergashib borardi. Nihoyat, ular katta yo'lga chiqishdi, bu yo'lning qayoqqa olib borishini bilishmasa-da, tavakkaliga ketaverdilar. Shu vaqt Sancho xo'jayiniga murojaat qildi.

– Marhamatli janob, o'zlari bilan biroz gaplashishga ixtiyor bildirmasmikanlar? Meni sukut sirtmog'iga solib qo'yganingizdan beri yo'q deganda to'rt dona savol qornimda biqib ketdi, beshinchisi esa tilim uchida turibdi, buning ham behuda ketishini istamas edim.

– Mayli, gapira qol, – dedi don Kixot, – faqat qisqaroq qil, ko'p gap quloqqa yoqmas.

– Aytmoqchi bo'lgan narsam faqat shuki, sinor, – gap boshladi Sancho, – mana bir necha kundirki, bu sarguzashtlarimizdan naqadar arzimagan naf ko'rganimizni o'ylayverib boshim qotadi. Hazratlari yo'l chorrahalarida va cho'l-u biyobonlarda turli sarguzashtlar ixtiyor etadilar. Biroq bunday yerlarda sizning hamma zafarlaringiz va xatarli jasoratlaringizni, baribir, hech kim ko'rmaydi va qayd etmaydi. Mening fikrimcha, muhtaram janoblari ham o'zgacha mushohadaga bormaslar, agar ikkalamiz biror imperator yoki ulug' hukmdor xizmatiga o'tsak, ancha ma'qul ish qilgan bo'lardik. Shunda muhtaram janoblarining buyuk jasoratlari va yanada yuksakroq aql-zakovatlarini namoyish qilish imkoni tug'ilarmidi. Podsho esa har ikkimizni xizmatimizga yarasha taqdirlay bilardi. Bundan tashqari, uning saroyida insofli tarixchi topilurdikim, u muhtaram janoblarining ko'rsatgan jasoratlarini bir umr abadiylashtirish uchun xatga tushirardi. O'z ishlarim xususida men so'z ochmoqchi emasman, chunki mening kechmishlarim mezoni siznikidan boshqacharoq. Darvoqe, sizga aytib qo'yayki, agar qurolbardorlarning jasoratlarini qayd etish odati bo'lganida edi, kaminaning qahramonliklari ham chakana kitob bo'lmasdi.

– Fikrlaring yomon emas, Sancho, – javob qildi don Kixot. – Biroq bunday faxrli xizmatga kirishdan oldin ritsar imtihon tariqasida jahonni kezib, turli-tuman sarguzashtlarni boshdan kechirmog'i darkor. U, avvalo, jahonga dong taratishi kerak – nomi tillarda doston bo'lishiga erishmog'i lozim. Ana

shunda u biror atoqli hukmdor saroyiga yaqinlashgan zahotiyoc uni ko'rgan bolalar uning kelganligi haqida jar soladilar: uni ko'rgani olomon yig'iladi, tantanavor, hayajonli suron ko'tariladi: ana Quyosh ritsari yoki qudratli va dahshatli dev Brokabrunni mag'lub etgan Ajdar ritsar! Mana u – sehrlar zanjirini chilparchin qilib, to'qqiz yuz yil asoratda yotgan Eronning Buyuk mamlugini xalos etgan kishi! Ana o'shanda olomonning shovqin-suronini eshitgan qirol o'z shohona qasrining derazasidan qarab, bizning ritsarni ko'rgach, darhol uning yaroq-aslahalaridan yoki qalqonga bitilgan yozuvdan kimligini bilib oladi-da, shunday deydi: «Ey, mening ritsarlarim, shavkatli qahramonni, butun ritsarlikning gultoji va ko'rkini qarshi olishga peshvoz chiqing!». Uning amr-farmoniga ko'ra hammalari tashqariga chiqadilar, qirolning o'zi esa zinaning yarmigacha kelib mehmonni bag'riga bosadi va sinora qirolichaga tanishtirish uchun uni ichkariga boshlaydi, bizning ritsar qirolicha yonida turgan qirol qizini – dunyodagi shu kungacha ma'lum va mashhur barcha mamlakatlardagi malikalar ichida eng go'zal va eng iffatli, iboli malikani ko'radi. Qiz ritsarga, ritsar esa qizga ko'z tashlaydi va ular yuragida birdan kuchli ishq-muhabbat tug'yon uradi. Ular katta xavf-xatarni oldindan sezgandek bo'ladilar va bir-birlariga bo'lgan ehtiros va iztiroblarini qanday bayon etishni bilmaydilar. Keyin ritsarni saroydagi yasog'liq oromgohga olib kiradilar, bu yerda uning yarog'-aslahalarini yechishib, egniga qimmatbaho qirmizi mantiya tashlaydilar. Agar u o'zining ilgarigi kiyimida binoyidek bo'lsa, bunday to'la-to'kis libosda yanada ochilib ketadi. Oqshom tushgach, ritsar kechki ovqatni qirol, qirolicha va malika bilan birgalikda baham ko'radi. O'zgalar sezmaganda ritsar bilan malika bir-birlaridan ko'z uzolmay qoladilar va ko'z qarashlarida so'z bilan ifoda etish mumkin bo'lmagan ma'nolarni bildiradilar. Taomdan so'ng hamma o'rnidan turganda, to'satdan zalga badbashara pakar, uning orqasidan esa ikki dev kuzatuvida go'zal ayol kirib keladi. Ayol qadimgi donolar o'ylab chiqargan sinov-shartni o'rta tashlaydi; kimki shu shartni o'rirlatsa, u dunyoda eng oliy ritsar bo'ladi.

Qirol o'z ritsarlariga baxtlarini sinab ko'rishni buyuradi,

lekin ularning hammasi mag'lubiyatga uchraydi. Faqat malikaning buyuk baxti-quvonchiga bizning ritsargina bu sinovda muvaffaqiyat qozonadi va malika mana shunday qahramonga o'z muhabbatini bag'ishlaganidan behad xursand bo'ladi. Taqdir taqozosi bilan xuddi mana shu paytda qirol o'zi kabi qudratli boshqa bir shohga dabshatli urush e'lon qiladi. Shunga ko'ra bizning ritsar bir necha kundan so'ng o'z quroli kuchini ko'rsatish uchun unga murojaat etadi. Qirol bajonidil unga ruxsat etadi va ritsar bunday marhamat uchun tavoze bilan qirol qo'lini o'padi. Shu tundayoq ritsar o'z mahbusasi malika bilan uning yotoqxonasi derazalari qaragan bog' panjarasidan xayrlashadi. Bu panjara orqali ular ilgari ham ishonchli kanizak kuzatuvida bir necha bor suhbatlashgan edilar. Ritsar xo'rsinadi, malika esa hushdan ketadi, talvasaga tushgan kanizak girdikapalak bo'lib, uni hushiga keltirishga urinadi. U tong otib, biror kimsaning bu holni ko'rib qolishidan xavfsiraydi. Nihoyat, malika o'ziga keladi-da, panjaradan oppoq qo'llarini ritsarga cho'zadi, u esa qo'llarni o'parkan, ko'z yoshlarini to'kadi. Ular bir-birlariga qanday xabar yetkazib turishni shartlashib oladilar: malika ritsardan tezroq qaytishini o'tinib so'raydi, u esa tezda qaytishga qasamyod etib, yana malika qo'llarini o'pa boshlaydi va nihoyat u, go'yo hayot bilan vidolashayotgandek, malika bilan chuqur hayajonda xayrlashadi.

Keyin ritsar o'z xonasiga ketadi, o'zini to'shakka otadi, biroq g'am-alamdan bir daqiqa ham ko'zlarini yuma olmaydi. Tong yorishar-yorishmas o'midan turadi-yu, qirol va qirolicha bilan xayrlashib, yo'lga ravona bo'ladi. Uzoq vaqt jang qiladi u, jang-u jadalda zafar qozonadi, qirolning dushmanlarini yengadi, son-sanoqsiz shaharlarni tobe etadi va nihoyat, saroyga qaytadi. Ana shunda u shartlashilgan joyda o'z sevgilisi bilan uchrashadi va xizmatlari evaziga malikaning qo'lini so'ramoqchiligi haqida kelishib oladi. Qirol uning nasl-nasabini bilmaganligi sababli rozilik bermaydi, ammo shunga qaramay ritsar malikaga uylanadi. Oxir-oqibat qirol ritsarimizning qudratli bir qirolning o'g'li ekanligidan xabar topib, bu nikohni o'zi uchun bir baxt deb biladi. Keyin qirol vafot etadi, toj-taxt malikaga qoladi va qarab-

sizki, ritsar qirol bo'lib oladi. Ana shunda bunday yuksak martabaga yetishda ritsarga yordam bergan qurolbardoriga va boshqalarga himmat-u marhamat ko'rsatish fursati yetadi. Ritsar qurolbardorini malikaning kanizagiga, aniqrog'i, ularning uchrashuviga vositachi bo'lgan go'zalga uylantiradi. Bu go'zal esa qudratli bir gersogning qizi bo'lib chiqadi.

– Gapning lo'ndasini aytsam, menga xuddi shunisi kerak-da! – xitob qildi Sancho. – Siz nimaiki degan bo'lsangiz, xuddi shunday bo'lishiga aminman. Muhtaram janoblarining G'amgin Qiyofa ritsar deb nom olishlari ham bejiz emas-da.

– Bunga shubha qilmasang ham bo'ladi, Sancho, – dedi don Kixot. – Chunki jahongashta ritsarlar xuddi men senga aytgandek qirol yoki imperator taxtiga chiqqanlar va chiqadilar. Biz hozir qaysi nasroniy yoki majusiy qirolning urush qilayotganini va uning go'zal qizi bor-yo'qligini aniqlab olsakkina bas. Lekin bu haqda fikr-maslahat etishga hali fursat keladi, chunki men senga aytgandek saroyga borishdan oldin biz, sarguzashtlarni boshdan kechirib shuhrat qozonib olishimiz kerak. Ammo boshqa mushkul tomoni ham bor. Aytaylik, men o'z jasoratim bilan butun olamda o'lmas shuhrat qozondim, qirg'in urush olib borayotgan qirol ham topildi-yu, uning go'zal qizi ham bor. Xo'sh, men qaysi yo'l bilan o'zimni qirol zotiga mansub yoki hech bo'lmaganda imperatorga chatishgan joyim bordek qilib ko'rsatishim mumkin? Axir, qirol mening oliy nasl-nasabimga amin bo'lmasdan turib, qizini bermaydi-da. Qonli janglar, mardonavor olishuvlar evaziga oladigan bunday mukofotdan mahrum bo'lib qolmasam edi degan tashvishdaman. Rost, aslida men qadimiy dvoryanlar avlodidanman, yer va mulkim bor. Izzat-nafsimni ranjitsalar, besh yuz sueldo<sup>1</sup> talab etishim mumkin. Binobarin, mening qahramonliklarimni bitguvchi donishmand shajaramizni mukammal tadqiq etadi va mening qadimgi qirollar avlodidan ekanligimni aniqlaydi. Aks holda qirol xohishiga qaramay, ish tutishga to'g'ri keladi. Malika meni shunday qattiq se-

---

<sup>1</sup> **Sueldo** – bir so'mga yaqin bo'lgan tanga. Eski ispan qonuni oqsuyaklarga ularni haqorat qilgan kishilardan besh yuz sueldogacha jarima undirib olish huquqini bergan.

vib qoladiki, otasining noroziligiga qaramay meni o'zining umr yo'ldoshi va xo'jayini deb ataydi; shunda men uni yashirincha uzoqlarga olib ketaman, ana unda esa fursat yoki ajal tufayli otanoning qahr-g'azabi o'tadi-ketadi. Men qirol bo'lganimda seni graflik martabasiga ko'taraman.

– Unday bo'lsa, – dedi Sancho, – o'zimizni haq yo'lga boshlaguvchi Xudoyi taolaga topshirish va taqdirga tan berishdan boshqa ilojimiz yo'q.

– Modomiki, graf bo'lib qolarkansan, – davom etdi don Kixot, – demak, sen ritsarsan: odamlar nima deyishsa, deyishaversin, baribir, ular seni sinor, deb ulug'lashga majbur bo'ladilar.

– Xo'sh, nahotki siz meni o'zini vonga munosib tutolmaydi, deb o'ylaysiz? – so'radi Sancho.

– Von emas, unvon demoqchi bo'lsang kerak-a? – dedi don Kixot.

– Ha, shunday bo'la qolsin, – dedi Sancho Pansa. – Men o'zimni yo'qotib qo'ymasman, deyman. Bir vaqtlar men kattagina bir maydonda qorovullik qilgan edim, qorovullik ko'ylagi menga shu qadar yarashgan ediki, hamma bu vajohating bilan qozi bo'lib olishing hech gap emas, deyishardi. Mabodo oltin va marvaridlar bilan bezatilgan mantiyani yelkamga tashlab olsam, nimalar bo'ladi-ya! Imonim komilki, o'lkaning har tarafidan odamlar meni ko'rgani yugurib-elib kelishadi.

– To'g'ri, vajohating juda basavlat bo'ladi, – dedi don Kixot, – lekin soqolingni tez-tez olib turishing kerak, chunki u qalin, taroq o'tmaydi, patak bo'lib ketgan. Aqalli, kun ora ustara bilan qirtishlab turmasang, har kim bir chaqirim naridan ham aftingdan taniydi.

– Bu mushkul ish emas, – dedi Sancho, – chorasi maosh belgilab, sartarosh yollash-qo'yish. Zarurat tug'ilgudek bo'lsa, grandlar<sup>1</sup> orqasidan otboqarlar yurgandek, ketimdan ergashib yuradigan qilib qo'yaman.

– Grandlar orqasidan otboqarlarning yurishini qayoqdan bilasan?

---

<sup>1</sup> Grand – saroy a'yonlariga mansub ispan dvoryani.

– Ma'lumingiz bo'lsinkim, muhtaram janoblari, – dedi Sancho, – bir necha yil muqaddam men poytaxtda bir oycha bo'lgandim. U yerda men bir sinorni ko'chada tez-tez ko'rib turardim. Uni juda badavlat odam deyishsa-da, juda pakana edi. U doim sayr qilar, ketidan esa bir otliq xuddi soyadek ergashib yurgani-yurgan edi. Men nega bu odam pakana sinor bilan baravar yurmay, doim ortida boradi, deb so'radim. Menga, otliq uning otboqari, binobarin, grandlar odatiga ko'ra ularni hamma vaqt otboqari kuzatib yurishi kerak, deyishdi. Bu gap yodimga qattiq o'tirib qolgan ekan, o'shandan beri sira esimdan chiqmaydi.

– Ha, gaping rost, – dedi don Kixot, – sen sartaroshni birga olib yurishing mumkin. Shuni bilginki, udum-odatlar hammasi birdaniga va tamomila qaror topmagan, shunga ko'ra sen sartarosh kuzatuvida sayr etadigan birinchi graf bo'lsang ajabmas.

– Sartarosh masalasini menga qo'yib beravering, muhtaram zot, – dedi Sancho, – o'zlari qirol bo'lib, meni graflikka ko'tarish chorasini ko'rsalar, zo'r ish bo'lardi.

– Tashvish qilma, hammasi bo'ladi, – dedi don Kixot bama'ylaxtir, biroq ro'paraga nazar tashlar ekan, ritsarimiz shunday narsalarni ko'rdiki, bu navbatdagi bobda hikoya qilinaajak.

## O'N YETTINCHI BOB

### ZO'RLAB OLIB KETILAYOTGAN KO'PGINA BAXTSIZLARGA DON KIXOTNING OZODLIK BERGANI

Don Kixot ro'paradan piyoda kelayotgan o'n ikki kishini ko'rdi: ularning hammasi tasbehga tizilgan marjonday bitta uzun zanjirga bog'lab qo'yilgan, qo'llari kishanband edi. Ularni to'rt soqchi qo'riqlab borardi: soqchilardan ikkitasi otliq bo'lib, qadimiy piltalari bilan, ikkitasi piyoda bo'lib, nayza va qilich bilan qurollangan.



– Mana qirol surgun qilgan turnaqator zanjirband tutqunlar; ularni galeraga<sup>1</sup> olib ketishyapti, – dedi Sancho.

– Nimaga tutqunlar bo'lsin? – deb so'radi don Kixot. – Qirol ham zo'rvonlik qilarganmi?

– Men bunday deyayotganim yo'q, – dedi Sancho, – bu odamlar o'z jinoyatlari uchun qirolning galeralariga majburiy xizmatga hukm qilinganlar demochiman.

– Xullas, – deb e'tiroz bildirdi don Kixot, – bu odamlar galeraga o'z xohishlari bilan emas, zo'rvonlikdan majbur bo'lib kelishmayaptimikin?

– Xuddi shunday, – deb javob berdi Sancho.

– Unday bo'lsa, – deb so'zida davom etdi xo'jayin, – burchim meni zo'rvonlikka qarshi qo'zg'alish va bu bechoralarga yordamlashishga undaydi.

– Muhtaram janob, – deb e'tiroz bildirdi Sancho, – qirol bilan sud zo'rvonlik qilishmaydi, odamlarni ularning gunohlariga yarasha jazolashadi.

Shu orada bandilar yetib kelishdi va don Kixot bag'oyat muloyimlik bilan soqchilarga murojaat qilib, bu bechoralarning nega zanjirband etilganini tushuntirib berishlarini so'radi. Otliq soqchilardan biri bu surgun qilinganlar hazrati oliylariga tobe ekanini, ular galeraga olib ketilayotganini aytdi, uning ko'rgan-bilgani shugina edi, xolos.

– Baribir, men, – dedi don Kixot, – ularning har qaysisidan boshiga tushgan bu baxtsizlikning sabablarini alohida-alohida so'rab bilishni istardim.

U iltimosini shunchalar xushmuomalalik bilan aytdiki, bunga javoban ikkinchi otliq soqchi bunday dedi:

– Basharti bu yaramaslar ustidan chiqarilgan aniq hukmni yonimizda olib borayotgan bo'lsak ham, to'xtab, qog'ozlarni siz muhtaram janoblarga o'qib berishga vaqtimiz yo'q. Yaxshisi, ularning har qaysisining oldiga borib, o'zlaridan so'rab bilib ola

---

<sup>1</sup> Galerlar – Fransiyadagidek Ispaniyada ham katonga ishlariga hukm qilingan aybdorlar qirolik kemalarida – galerlarda eshkakchi bo'lib jazo muddatini o'tar edilar. Galerlardagi turmush sharoiti nihoyatda og'ir bo'lardi. Bandilikdagi asoratli ish, qattiq tan jazosi, yovg'on ovqat, biqiq, iflos xona – hammasi galerlarni chinakam do'zaxga aylantirgan edi.

qoling, sinor. Agar istashsa, bor gapni sizga aytib berishadi, buni jon-jon deb istashsa kerak, chunki bu zo'ra vonlarga razillik qilish yoki buni gapirib berishdan ulug'roq huzur yo'q.

Don Kixot ruxsat olgach, zanjirbandlarning oldiga bordida, yigirma to'rt yoshlar chamasidagi birinchi tutqun yigitdan nega bunday musibatga uchragani sabablarini so'radi. Yigit buning hammasiga sevgi aybdor, deb javob berdi.

– Bu qanaqasi, faqat sevgi tufaylimi?! – xitob qildi don Kixot. – Agar sevgi tufayligina galeraga yuborishsa, u taqdirda men allaqachon eshkak eshib yurishim kerak edi.

– Muhtaram janoblari boshqa sevgini ko'zda tutmoqdalar, – dedi tutqun. – Mening sevgim boshqacharoq, men ust-bosh solingan savatni qattiq sevib qolib, quchog'imga shu qadar mehr bilan bosib oldimki, odil sud zo'rlik bilan tortib olmaganida, hali ham qo'yib yubormagan bo'lardim. Ana shu sevgi tufayli mening yelkamga yuz darra urishdi-da, qo'shimchasiga uch yil galera xizmatiga hukm qilishdi.

Don Kixot ikkinchi tutqunga ham shu savolni berdi, biroq tutqun og'iz ochmay, ma'yus yurishda davom etaverdi. Uning nomidan yonidagi kishi so'zga aralashdi:

– Uni kanareykalik qilgani, boshqacha qilib aytganda, xonanda va sozanda bo'lgani uchun olib ketishyapti, sinor.

– Iye, bu qanaqasi? – yana so'radi don Kixot. – Nahotki xonanda va sozandalarni ham galeraga hukm qilishsa?

– Ha, sinor, – deb javob berdi tutqun, – trevoga<sup>1</sup> vaqtida ashula aytishdan yomoni yo'q.

– Bunaqasini xayolimga ham keltirmagan edim, – e'tiroz bildirdi don Kixot. – Axir, kimning qo'shiq hamdami, uning bo'lmaydi g'ami, deyishadi-ku.

– Bu yerda teskarisi, – dedi tutqun, – kim qo'shiq aytsa, bir bor, u umr bo'yi xor-zor.

– Hech tushunmayapman, – dedi don Kixot.

Shu payt otliq soqchilardan biri gapga aralashdi:

---

<sup>1</sup> **Trevoga** (*ruscha*: trevojit – «tashvishlantirmoq, xavotirga, vahimaga solmoq») – xavfli holat va undan ogohlantiruvchi signal

– Sinor kabalero trevoga vaqtida ashula aytish degani – bu vijdonsizlar tilida qiynoq vaqtida o‘z aybini bo‘yniga olish degani. Bu gunohkorni qiynoqqa solishgan edi, u o‘z jinoyatini bo‘yniga oldi: bu mol haydar edi, ya‘ni har yil uy hayvonlarini o‘g‘irlab haydab ketardi. Uni olti yil galeraga hukm qilishdi hamda qo‘shimcha ikki yuz darra urishdi. Ishonmasangiz, bu firibgarning yelkasini ochib qarang. Endi bo‘shanglik qilganidan afsuslanib, ich-etini yeb, uyalib yuribdi, boshqa muttahaamlar esa qiynoqqa oxirigacha chidab, aybini bo‘yniga olmaslikka bardoshi yetmadi deb, undan jirkanishib, jabrlab, yakkalab qo‘yishmoqda. Zeroki ular HA so‘zi ham, YO‘Q so‘zi ham bir og‘izdan chiqadi, degan naqlga amal qilishadi. Jinoyatchining eng katta yutug‘i shuki, uning tirik qolishi yoki o‘lib ketishi, guvohlarga yoki dalillarga emas, balki uning o‘z tiliga bog‘liq deyishadi. Menimcha, ularning bu mulohazasi to‘g‘ri.

– Men ham shunday fikrdaman, – deb javob berdi don Kixot.

Shundan keyin u uchinchi tutqunning oldiga borib, unga ham avvalgi ikki tutqunga bergan savolini berdi: u uyalib-netib o‘tirmay, shartta-shartta javob berdi:

– O‘n dukatim bo‘lmagani uchun besh yil muddatga galeralar huzuriga jo‘nab ketyapman:

– Sizni bu musibatdan kutqarish uchun jon deb yigirma dukat berishga ham tayyorman, – dedi qichqirib don Kixot.

– Vaqt o‘tdi, sinor, – dedi tutqun. – Hozir men dengizning qoq o‘rtasida suzib borayotgan kemadagi puli ko‘p, ammo sotib olgani non topmaganidan och qolgan badavlat savdogarga o‘xshayman. Siz ehson qilayotgan ana shu yigirma dukatim ilgari bo‘lganida-ku, ishboshining og‘zini moylab, oqlovchining miyasini yangilagan bo‘lardim, shu bilan qarabsizki, bu yo‘lda zanjirga tushgan toziday surgalmay, ozodlikda javlon urib yurardim.

So‘ngra don Kixot qolgan tutqunlar bilan ham savol-javob qilishdi. Har qaysilarining nima uchun galeraga hukm qilangani to‘g‘risidagi so‘zlarini batafsil eshitdi. Ritsarimiz eng so‘nggi marta murojaat qilgan tutqun o‘ttiz yoshlar chamasidagi qaddi-qomati kelishgan, xushbichim, bir ko‘zi sal g‘ilay odam

edi. U qolgan tutqunlarga qaraganda boshqacharoq zanjirband qilingan edi. Uning gavdasi boshidan oyog'igacha uzun zanjir bilan chirmab tashlangan. Uning ikkita halqasi bo'lib, bittasi boshqa hamma tutqunlar bog'langan zanjirga ulangan, «do'stimni ehtiyot qil» deb ataluvchi ikkinchi halqasidan kamarigacha ikkita sim cho'zilib ketgan, bu simlar qo'llaridagi kishanlarga payvandlangan edi; shu tufayli tutqun na qo'li, na boshini qimir-lata olardi. «Bu odam nega bunchalik qattiq kishanlab qo'yilgan», – deb so'radi don Kixot.

Otliq soqchi unga shunday javob berdi:

– Chunki uning bir o'zi boshqa hamma tutqunlar qilgan jamiki jinoyatdan ham ko'proq jinoyat qilgan; buning ustiga u shunday dovyurak ucharki, juda mahkam kishanlanishiga qaramay, yana qochib ketmasaydi, deb ehtiyot bo'lib boryapmiz. Sizga bu odamning mashhur Xines de Pasamonte yoki uning boshqacha oti Xinesilo de Parapilya ekanini aytsak, shu kifoya bo'lsa kerak.

– Sal og'zingizga qarab gapiring, sinor komissar<sup>1</sup>, – dedi tutqun, – odamga har xil laqablar beraverishni bas qiling. Mening nomim siz muhtaram zot aytganiday hech ham Xinesilo emas, balki Xines, o'zim Parapilyadan emas, Pasamontedanman. Yaxshisi, siz o'z avlodingizni o'ylasangiz bo'lardi. Juda ko'p ajoyibotlar ochardingiz...

– Sal sekinroq, sinor qaroqchi, – deb javob berdi komissar, – yo'qsa og'zingni yumib qo'yaman.

– Vaqti kelib mening Xinesilo de Parapilya emasligimni hamma bilib oladi.

– Muttaham, hali sening bunaqa laqabing yo'qmi? – deb so'radi nazoratchi.

– Borlikka bor-u, – deb javob berdi Xines, – lekin hech kimga o'zimni bunday deb atashga yo'l qo'ymayman.

---

<sup>1</sup> Komissar (*fransuzcha*: commissaire yoki *lotincha*: comissarius — vakil qilingan; vakolat berilgan) – 1) harbiy, ijtimoiy-siyosiy yoki ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan rahbar, boshliq (**bu yerda shu ma'noda**); 2) 1918-1942-yillarda Sho'ro hukumatining armiyada komandir bilan bir qatorda qo'shinlarning jangovarlik qobiliyati va siyosiy ahvoli uchun teng darajada javobgar bo'lgan siyosiy xodimi; 3) ayrim xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yoki politsiyachilik vazifalarini bajaruvchi mansabdor shaxs.

– Sinor, – deb murojaat qildi u don Kixotga, – siz bizga biror narsa bermoqchi bo‘lsangiz, tezroq bering-da, keyin yo‘lingizdan qolmang. Boshqalarning ishiga aralashib so‘roq qilayotganingiz jonimga tegdi. Mabodo mening kimligimga qiziqsangiz, bilib qo‘ying! Men Xines de Pasamonte bo‘laman, mana, mana shu barmoqlarim bilan tariximni o‘zim yozganman!

– U to‘g‘ri gapni aytyapti, – dedi komissar. – Chindan ham u o‘z hayotini yozgan, yozganda ham juda qoyil qilgan, lekin kitobi turmada qolgan, garoviga ikki yuz real olgan.

– Ikki yuz dukat to‘lasam ham, – dedi Xines, – baribir, uni qaytarib olaman.

– Olsang, nima bo‘pti, shunaqa ajoyib kitobmi? – so‘radi don Kixot.

– Ajoyib bo‘lganda qanday, – javob berdi Xines. – Tormeslik Lasarilodan<sup>1</sup> ham ana shu xilda yozilgan yoki bundan keyin yoziladigan hamma kitoblardan ham soz... Unda yozilganlar hammasi haqiqat, bu kitob shu qadar qiziq va g‘alati, har qanday uydirma ham uning oldida ip esholmaydi, buni faqat sizga aytyapman, muhtaram janoblari.

– Kitobning nomi nima? – so‘radi don Kixot.

– Xines de Pasamontening hayoti, – deb javob berdi u. – Yozib tugatilganmi? – so‘radi don Kixot yana.

– Mening umrim tugamay turib, qanday yozib tamom qilingan bo‘lsin, – deb javob berdi Xines. – Tug‘ilganimdan to mana hozir galeraga jo‘natilayotganimga qadar ko‘rgan-kechirganlarimning hammasi o‘sha kitobda bayon qilingan.

– Galeraga birinchi marta jo‘nayotgan bo‘lsangiz kerak-a? – so‘radi don Kixot.

– Xudo va qirolning dargohida xizmat qilib, to‘rt yilimni galerada o‘tkazib yubordimki, qoq non bilan darraning mazasi qandayligi menga ayon, – deb javob berdi Xines. – Biroq yana o‘sha yerga yuborilayotganimdan unchalik xafa emasman. U

---

<sup>1</sup> Tormeslik Lasarilo – noma‘lum muallifning 1554-yilda bosilib chiqqan povesti. Kichikintoy juldurvoqi Lasariloning sarguzashtlarini soddagina hikoya qilish bahonasida kitobda o‘sha davrdagi ispan hayoti o‘tkir satira ostiga olinadi. Ispaniyada bu povest keng tarqaladi va «Firibgarlik-sarguzasht romaniga» asos soladi.

yerda shoshmay-netmay kitobimni me'yoriga yetkazaman. Ispan galeralarida ishlaydigan odamlarning bo'sh vaqtlari shunday ko'pki, qanday o'tkazishni bilmaysan kishi.

– Sen ahmoq odam emas ekansan! – dedi don Kixot.

– Baxtiqaro ham emasman, – deb ilova qildi Xines. – Miyasi ishlaydigan odamlargina hamisha baxtiqaro bo'ladi.

– Muttahamlarga baxtiqaro bo'ladi, – komissar Xinesning gapini bo'ldi.

– Men sizdan boya og'zingizga qarab gapiring, deb iltimos qilgan edim, sinor komissar! – dedi Xines. – Sizga biz bechoralarni haqorat qilish emas, hammamizni qirol tayinlagan joyga olib borib qo'yish topshirilgan. Shuning uchun gapni bas qiling-da, yo'lga tushaylik, yo'qsa kim biladi, boshingizga qanday ishlar tushar, balki, galeraga o'zingiz ilinib qolarsiz!

Komissar Pasamonteni qo'polligi uchun urmoqchi bo'lib, qamchisini o'ynatgan edi, don Kixot ularning o'rtalariga turib oldi, komissardan tutqunni urmaslikni iltimos qildi.

– Mahkam bog'lab tashlangan odamning chakagi sal ochilsa, nima qilibdi? – dedi u. So'ngra u zanjirbandlarga o'girilib, shunday dedi:

– Sizlarning aytganlaringizdan men bir narsani yaqqol tushunib oldim, aziz birodarlar: sizlar qonunga muvofiq sud yo'li bilan jazolangan bo'lsalaringiz ham, kelgusida kechiradigan umringizga uncha moyil emassiz, sizlarni zo'rlab galeraga olib ketishyapti. Buning ustiga ustingizdan chiqarilgan hukmning uncha to'g'ri emasligi ehtimoldan xoli emas! Biringizni qiynoqdan qo'rqqaningiz, ikkinchingizni puli kamligi, uchinchigingizni himoyachingiz yo'qligi, to'rtinchingizni sudyaning nohaq hukmi bu baloga yo'liqtirgan. Kim biladi deysiz, balki, haq bo'lgandirsiz-u, ammo buni sudda isbotlay olmagandirsiz. Lekin adolat g'olib chiqishi kerak. Xudo meni nima maqsadda buyuk jasoratlar ko'rsatishga da'vat etib, jahongashta ritsarlar safiga qo'shilishimni va mazlumlarni hamda ezilganlarni o'z panohimga olib, ularni himoya qilishim uchun ont ichishimni buyurganini hozir ko'rasiz. Lekin men masalani tinch yo'l bilan hal qilish mumkin bo'lgan joyda kuch ishlatish kerakmasligini bilaman,

shuning uchun, avvalo, soqchilar va komissardan sizlarning kishanlaringizni yechib, o'zlariningizni tinchgina bo'shatib yuborishga rozi bo'lishlarini so'rayman. Alloh taolo bilan tabiat erkin qilib yaratgan kishilarni qulga aylantirishni men nihoyatda shafqatsizlik deb bilaman. Buning ustiga, sinor soqchilar, – deb qo'shib qo'ydi don Kixot, – bu bechoralar shaxsan sizning oldingizda hech qanday gunoh qilishgani yo'q. Har kim o'z gunohiga o'zi javob beradi: Xudo bor, u yomonlik qilganlarni odillik bilan jazolaydi, yaxshilikka marhamat ko'rsatadi. Bandalari esa boshqa odamlarning jallodlari bo'lib qolmasliklari kerak. Men sizlarga yaxshilik bilan tashakkuringa loyiq bo'lishingizni so'rab murojaat qilaman. Agar iltimosimni o'z xohishingiz bilan bajarmasangiz, nayzam va qilichimni ishga solib bo'lsa ham, uni bajarishga majbur etaman!

– Bu qanaqa ahmoqona hazil! – xitob qildi komissar. – Buni qarang-a, nimalar deb valdirayapti u! Axir, davlat jinoyatchilarini bo'shatib yuborishga bizning haqqimiz bormi, bizga bunday buyruq berishga sizning haqqingiz bormi? Qani, yaxshilikcha omon-esson yo'llariga jo'nab qolsinlar-chi, muhtaram janoblari, boshlaridagi jomni ham to'g'rilab olsinlar, undan keyin behuda narsaga ovora bo'lib yurmasinlar, sinor!

Don Kixot g'azablanganidan o'zini tutolmay, komissarga shunday shasht bilan tashlandiki, u hujumga tayyorlanmasdanoq nayza zarbidan egardan quladi. Bu kutilmagan hujumdan boshqa soqchilar ham avvaliga dovdirab qolishdi. Biroq ular shu zahotiyoq es-hushlarini yig'ib olishdi-da, qilich va nayzalarini shaylab, baravariga don Kixotga tashlanishdi. Tutqunlar qutulish imkoniyati tug'ilganini sezib, bor kuchlari bilan kishanlarni uzib tashlashga kirishmaganlarida, balki, ritsarimizning ahvoliga maymunlar yig'larmidi. Hamma gangib qoldi: soqchilar nima qilishni, tutqunlarga tashlanishni ham yoki hujum qilayotgan don Kixotdan o'zlarini muhofaza qilishni ham bilmay qolishdi. Shu orada Sancho Xines de Pasamontega kishanni uzib tashlashda yordam berdi. Xines kishandan qutulishi bilanoq yiqilib yotgan komissarning oldiga yugurib bordi-da, uning piltali miltig'ini olib, soqchilarga o'qtaldi. Lekin o'q otishga to'g'ri kelmadi:

chunki jang maydonida bitta ham dushman qolmagan edi. Pasa-montening qo'lidagi miltiqdan va boshqa tutqunlarning otayotgan toshlaridan qo'rqib, ularning hammasi tumtaraqay qochib qolgandi. Sancho qorovullarning to'zib ketganini ko'rib, o'ziga keldi-yu, juda qo'rqib ketdi. U, soqchilar bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay Santa Ermandadga yetkazishsa kerak, shundan keyin Santa Ermandad trevoga ko'tarib, darhol tutqunlar bilan ularning xaloskorlari iziga tushadi, degan xayolga keldi. U bu fikrini don Kixotga aytdi-da, uni bu yerdan darhol ketishga va yaqinda ko'rinib turgan tog' oralig'iga kirib yashirinishga qistay boshladi.

– Hovliqma, – dedi don Kixot, – hozir nima qilishimiz kerakligini yaxshi bilaman.

Shundan keyin ritsarimiz komissarni talab, har tomonga tarqab ketayotgan tutqunlarni chaqirdi: ular buyruq kutib don Kixotning atrofini o'rab olishdi, don Kixot gapni shunday boshladi:

– Oliyjanob kishilar o'zlariga yaxshilik qilgan kishilardan hamisha minnatdor bo'ladilar, chunki qadr bilmaslikdan zo'rroq gunoh yo'q. Sizlar esa, sinorlar, mening sizlarga valine'matlik qilganimni hozirgina o'z tajribangizda ko'rib ishondingiz. Xo'sh, shunday ekan, qilgan muruvvatim uchun sizdan bir narsani talab qilaman: hozirgina o'z'laringiz qutulgan kishanlaringizni yelkangizga olib, tezda Toboso shahriga jo'nashingizni istayman. U yerda sinora Tobosolik Dulsineya huzurida bo'lib, unga G'amgin Qiyofa ritsar salom aytdi deysiz, so'ngra sizlarni xalos etish uchun ko'rsatgan shonli jasoratlarimni unga ipidan-ignasigacha so'zlab berasiz. Istagimni bajarganingizdan keyin xohlagan tomoningizga ketaverishingiz mumkin.

Shunda Xines de Pasamonte barcha tutqunlar nomidan javob berdi:

– Sinor xaloskorimiz, siz muhtaram janoblarning buyrug'ingizni sira bajo keltira olmaymiz, nega desangiz, biz to'dalashib yo'lga chiqqa olmaymiz. Aksincha, bizni, albatta, izimizga tushadigan Santa Ermandad topib olmasligi uchun turli tomonlarga tarqalib ketishimiz kerak. Muhtarama sinora Dulsineya



huzuriga borish o'rniga, bizga har qancha bo'lsa ham duo o'qishni buyura qolsinlar, biz jon deb muhtaram janoblari haqqiga duo o'qiymiz. Bizni kishanlarini olib Tobosoga borishga rozi bo'lishadi deb o'ylash va hali ertalab soat o'n bo'lmay turib, hozir yarim kecha, deb bizni ishontirishga urinish qayrag'ochdan nok qidirish bilan barobardir.

– Qasamyod etamanki, – deb qichqirdi don Kixot darg'azab bo'lib, – don albah, don Xinesilo de Parapilya, yana qanday otingiz bor edi, siz o'sha yerga yolg'iz o'zingiz borasiz va bu kishanlarni orqalab ketasiz.

Pasamonte bu haqoratni eshitarkan, don Kixotni miyasini yegan deb o'ylab, o'rtoqlariga bir narsani ishora qildi. Ular o'sha zahoti to'rt tomonga tarqalishdi, shundan keyin don Kixotning ustiga do'lday tosh yog'dira boshlashdi, u qalqoni bilan ham o'zini himoya qilolmay qoldi. Sancho eshagining biqiniga yashirinib olib, toshdan o'zini ehtiyot qilib qoldi. Xo'jayini esa bir necha daqiqa o'zini zarbdan asradi, lekin oxir-oqibat ko'kragi bilan yelkasiga kelib tekkan bir necha toshdan guppa quladi. U qulashi bilanoq tutqunlardan biri uning ustiga o'zini otdi-da, boshidan jomni olib, u bilan yelkasiga uch-to'rt marta tushirdi, so'ngra tutqunlar bechora ritsarning yarog'-aslahalari ustidan kiyib yuradigan kamzulini yechib olishdi, paypoqlarini ham shilib ketishmoqchi edi, lekin bunga ritsarimizning poyabzali xalaqit berib qoldi. Sanchoning plashini yechintirib, uni faqat ko'y-lakda qoldirishdi, nihoyat qolgan harbiy o'ljalarni o'zaro bo'lashib olib, tog'larga kirib yashirinishdi.

Jang maydonida eshak bilan Rosinant, Sancho bilan don Kixot qoldi. Eshak xayol surganday boshini quyi solib olgan, o'qtin-o'qtin qulog'ini silkitib qo'yardi; chamasi, qulog'ining tagi hamon jaranglayotgani uchun toshbo'ron hali ham tugamagan deb o'ylayotgan bo'lsa kerak; Rosinant o'z xo'jayini bilan birga yerda yotardi, chunki nonko'r tutqunlardan unga ham xiy-lagina ziyon-zahmat yetgan edi. Plashidan ajralgan Sancho esa Santa Ermandadni o'ylab qo'rquvdan titrardi; don Kixot esa xalos etgan odamlarining o'ziga nisbatan bunday ahmoqona muomalada bo'lganidan g'oyat tushkun bo'lib qolgan edi.

**XINES DE PASAMONTENING SANCHO PANSANING  
ESHAGINI QANDAY QILIB O'G'IRLAB KETGANI**

Don Kixot adolatni tiklash yo'lida ko'rsatgan jasoratining qanday ayanchli tugaganini ko'rib, qurolbardoriga shunday dedi:

– Nomussiz va vijdotsiz kishilarga yaxshilik qilish – dengizdan suv ovlash bilan barobar degan gapni juda ko'p marta eshitganman, Sancho. Buning to'g'riligiga endi ishonдим. Odil sudning ishiga aralashmaslik kerak, degan maslahatingga qo'shilmaganimdan afsuslanaman. So'zlaringga ishonganimda bu ko'ngilsizlikka yo'liqmagan bo'lardim. O'tgan ishga salavot, endi bu azoblarga chidaymiz-u, kelgusida aqlli-roq ish tutishga harakat qilamiz.

– Marhamatli janoblari-ga aql kirguncha men turk bo'lib ketsam kerak, – deb javob berdi Sancho. – Siz agar mening maslahatimga darhol kirganingizda, bu ko'ngilsizliklarga yo'liqmagan bo'lardik, dedingiz. Yo'qsa endi mening maslahatimga kiring – bundan kattaroq balodan ham omon qolamiz. Sizing barcha ritsarlik shon-shavkatlaringiz Santa Ermandadga qarshi turishda bizga qo'l kelolmaydi, chunki u hamma jahongashta ritsarlarni bitta qilganda ham sariq chaqaga olmaydi. Uning merganlarining o'qi hozirdanoq qulog'imning tagida g'uvulla-yotganday bo'lib tuyulmoqda.

– Sen tug'ma qo'rqqosan, Sancho, – deb uning gapini bo'ldi don Kixot. – Lekin meni qaysarlikda ayblamasliging uchun endi sening maslahatingga kiraman-da, Santa Ermandadga uchrab qolmaslik uchun bu yerdan jo'nayman. Biroq sen meni go'yo qo'rqqanidan bu uchrashuvdan o'zini chetga oldi deb hozir ham, bundan keyin ham hech kimga aytnaslikka qasam ichasan. Faqat sening yolvorishingga quloq solganim uchun shunday qilayotganimni unutma. Mabodo sen menga vijdotsizlarcha tuhmat qilib, go'yo meni chindan ham qo'rqsa arziydigan xavfdan o'zini chetga oldi deb biror kishiga aytish fikrida bo'lsang, ana shu fikringning o'zi uchunoq shu yerda yolg'iz o'zim qolishga

va sen shu qadar vahm bilan gapirayotgan muqaddas qardoshlik-kina emas, balki yetti aka-uka Makkaveylar<sup>1</sup>, Kastor bilan Polluks<sup>2</sup> hamda dunyoda mavjud bo'lgan hamma aka-ukalar, qardoshlarni kutishga tayyorman.

– Sinor, – deb javob berdi Sancho, – ketish qochish emas, qutulishga kuchimiz yetmaydigan xavfni kutish esa o'taketgan telbalikdir. Oqillik esa ertangi kun uchun bugun o'zingni ehtiyot qilishing kerakligini va butun hayotingni bir yo'la xavfda qoldirmasligingni buyuradi. Ha, mayli, men johil va qishloqiman, lekin, baribir, men ahmoq emasman. Sog'lom fikr yurita olaman, shunday ekan, maslahatimga kirganingizdan afsuslanmang. Agar madingiz yetsa, Rosinantga mining, yo'qsa men yordamlashvoraman, shundan keyin ortimdan yuravering, chunki hozir bizga qo'limizdan ham oyog'imiz zarurroq, dilimga kelgan gap shu.

Don Kixot bir og'iz ham e'tiroz bildirmadi. Otiga mindida, yaqinida ko'rinib turgan Siyerra Morena tog' daralari tomon eshagini haydab ketgan Sanchoning ketidan jo'nadi. Sancho tog'dan oshib o'tib, Vis yoki Almodovar del Kempogacha borishni hamda u yerda Santa Ermandad izlab topolmaydigan qoyalarda bir necha kun yashirinishni mo'ljallagan edi. Oliyjanob qurolbardor o'zining to'riq eshagida yetarli oziq-ovqat olib ketayotgani uchun ham, uzoq tog'larga chiqib ketishga jur'at etgan edi. Oziq-ovqatlar esa qandaydir karomat bilan ochko'z tutqunlarning qo'liga tushmay qolgan edi.

Kechga yaqin ular Siyerra Morena tog'larining juda ichkarisiga chiqib olishdi, tunagani xilvat bir darada quloch yozgan katta eman daraxti tagiga joylashishdi. Sancho bu yerda ovqat tugaguncha istiqomat qilamiz, degan qarorga keldi. Biroq taqdirning mash'umligini qarang, don Kixotning mardligi va nodonligi tufayli kishandan qutulgan boyagi tutqunlarning eng dovyuragi mashhur firibgar va o'g'ri Xines de Pasamonet ham Santa

<sup>1</sup> Aka-uka Makkaveylar – yahudiy xalqining o'z mustaqilligi uchun Suriyaga qarshi kurashgan davrida Tavrot oyatlarida maqtalgan yo'lbo'shchilari.

<sup>2</sup> Kastor va Polluks – qadimgi yunon e'tiqodi bo'yicha aka-uka egizaklar, xudo Zevs va go'zal Ledaning bolalari. Qadimgilar ularni og'a-ini muhabbati va harbiy shon-shuhratda vafodor bo'lishning timsoli deb hisoblashgan.

Ermandadning qo'liga tushishdan qo'rqib, tog'larga qochgan va don Kixot bilan Sancho Pansa yashiringan mana shu daraga hali qorong'i tushmay yashirinib olgan edi. Yovuzlar minnatdor bo'lishni bilmaydilar. Boylik orttirish yo'lidagi bitmas-tuganmas ishtiyoq hamisha ularni yangi jinoyatlarga otlantiradi. Shuning uchun ham Xines sayohatchilarimizni ko'rib, yana ular hisobiga bir narsa orttirishni o'ylagan bo'lsa, bunga ajablanishning hojati yo'q. Bu nonko'r firibgar Sanchoning to'riq eshagini o'g'irlashga ahd qildi. U Rosinantni hech narsaga yaramaydigan qirchang'i deb o'yladi. Shuning uchun unga e'tibor ham bermadi. Mana, nihoyat, sayohatchilarimiz uyquga ketganlarida Xines ular to'xtagan joyga keldi-da, eshakni yetaklab qoldi; tong otarda u shu qadar uzoqlashib ketgan ediki, endi uni qidirib topishning iloji yo'q edi.

Ufqqa ko'tarilgan quyosh butun yer yuziga quvonch, faqat birgina Sancho Pansaga alam olib keldi. Endi u eshagidan mahrum bo'lgan edi. Sancho eshak yo'qolganini payqab jonjahdi bilan faryod qila boshladiki, bundan uyg'onib ketgan don Kixot shunday fig'onni eshitdi:

– O, o'z uyimda tug'ilgan, sevikli jigarbandim, bolalarimning quvonchi, qo'shnilarimning havasi, xotinimning huzuri, mehnatlarimda ko'makdoshim! Endi men sensiz qanday yashayman, axir, sen har kuni topib beradigan yigirma olti maravedis har kungi ovqatga ketadigan xarajatimning yarmiga yetardi.

Don Kixot gap nima haqida ketayotganini bilgach, senga o'zimning uchta xo'tigimni tuhfa qilaman deb Sanchoni ovuntirishga urinib ko'rdi. Bu qo'l keldi. Sancho tinchidi, ho'ngrab yig'lashini qo'ydi, ko'z yoshlarini artib, don Kixotga oliyjanobligi uchun minnatdorlik bildirdi.

Don Kixot tog' bag'riga kirishi bilanoq chehrasi yorishib ketdi: uning nazarida, bu joylar eng ajoyib sarguzashtlar uchun yaratilganday edi. U ana shu fikrlarga berilib, shunday xursand bo'lib ketgan ediki, hatto dunyodagi hamma narsani unutgandi. O'zini xavfdan holi sezgan Sancho esa bisotlaridagi rohiblar ovqatidan eng mazalilari bilan qornini to'yg'azishni o'ylardi. Ritsarimiz o'zlari tunagan daradan chiqib oldinga qarab ketdi.

Sancho esa uning ketidan piyoda jo'nadi. U endi yo'qolgan eshagining yukini yelkasida ko'tarib olib, birin-ketin qopdan bo'lak-bo'lak yegulik narsa chiqarib, og'zini to'ldirib kavshab borardi. Bu unga shunday ma'qul tushgan ediki, endi u boshqa hech qanday sarguzashtlarni o'ylamas edi.

Sancho to'satdan ko'zini ocharkan, xo'jayinining to'xtab, yerda yotgan bir narsani nayzasi bilan ilib olmoqchi bo'layotganini ko'rdi. U yaqinroq kelib don Kixot charm sumkani nayzasining uchiga ilintirganini payqadi. Sumka yarim bo'lsa ham, shunday og'ir ediki, Sancho yerdan ko'tarishda xo'jayiniga yordam beraman deb, inqillab yubordi. Don Kixot qurolbardoriga sumkada nima borligini bilishni buyurdi. Sumka zanjir bilan bog'lab qo'yilgan bo'lsa-da, Sancho uni oppa-oston ochdi. Sumkada to'rtta gollandcha yupqa ko'ylak, kelishtirib tikilgan anchamuncha boshqa ichki kiyimlar bor edi. Bir ro'molchaga esa talaygina oltin tanga tugib qo'yilgandi. Sancho bularni ko'rib xitob qildi:

– Bizni shunday ajoyib sarguzashtga yo'liqtirgan Xudoga shukr! Qani endi, shunday o'ljalar tez-tez uchrab tursa!

So'ngra u yana sumkani titkilab, hashamdor muqovali yon daftarchani topib oldi. Don Kixot Sanchoga yon daftarchani o'ziga berib, pullarni yoniga solib qo'yishini buyurdi. Bu bilan u qurolbardorini juda xursand qilib yubordi. Sancho Pansa zo'r minnatdorlik bilan xo'jayinining qo'lini o'pdi-da, sumkadagi ich kiyimlarni ovqat turgan qopiga solib oldi.

Shundan keyin sayohatchilarimiz yana yangi sarguzashtlar izlab yo'lga tushishdi.

**DON KIXOTNING MA'YUS GO'ZALGA TAQLIDAN  
TAVBA QILISHNI O'Z ZIMMASIGA OLGANI VA  
TOBOSOLIK DULSINEYA HUZURIGA CHOPAR  
YUBORISHGA AHD QILGANI**

Don Kixot eng xilvat tog' oraliqlaridan tobora ichkarilab borardi. Sadoqatli qurolbardori o'z xo'jayinining ketidan sudralib qadam tashlarkan, o'lgudek gap sotgisi kelar, xo'jayini birinchi bo'lib so'z tashlashini toqatsizlik bilan kutardi. Chunki xo'jayinining indamas va odobli bo'lish zarurligi to'g'risidagi qat'iy buyrug'ini buzishni istamasdi, nihoyat, toqati toq bo'lib gap boshladi:

– Sinor don Kixot, muhtaram janoblari, menga oq fotiha berib, ketishimga ijozat etsangiz. Uyga, bola-chaqalarim oldiga ketsam: ular bilan, aqalli, istaganimcha gaplashib, mulohaza yurita olishim mumkin, siz muhtaram janoblari esa menga kecha-yu kunduz ana shu dashtda daydinishni, buning ustiga lom-mim demaslikni buyurasiz, mening esa doim tilim qichib turadi. Bundan ko'ra meni tiriklayin yerga ko'mib qo'ya qolganingiz ma'qul. Qurolbardorga oson emas ekan: umr bo'yi sarguzasht izlab kuning o'tarkan, seni kaltaklasharkan, choyshabga solib osmonga uloqtirisharkan, toshbo'ron qilisharkan, mushtlasharkan, buning ustiga yana og'iz ham ochmagin, ko'nglingga tugilib qolgan gapingni aytmagin ekan, soqovga o'xshab qolarkansan.

– Niyatingga tushunyapman, Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – tilingni tiyib qo'yanligimni bekor qilishimga mushtoqsan. Mayli, shunday bo'lsin, men roziman, og'zingga kelganini gapiraver. Lekin shuni unutma: men senga faqat shu tog'larda yurgan paytimizdagina xohlagan vaqtingda istaganningni aytishingga ruxsat beraman. Aholi yashaydigan joylarga borganimizda, yana tilingni tiyib qo'yaman, ana o'shanda to men o'zim so'z tashlamagunimcha indamay yuraverasan.

– Shunisiga ham shukr, muhtaram janoblari. Paytdan foydalanib bir savol berishimga ruxsat etgaysiz; nega endi borgan

sari toqqa kirib boryapmiz, odam qadami yetmagan bu joylarda sang'ib yurmasdan ham Santa Ermandaddan bermalol yashirini-shimiz mumkin-ku!

– Shuni bilib qo'yki, Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – bu xilvat va bo'm-bo'sh yerlar menda jasorat ko'rsatish ishtiyoqini tug'dirmoqda, shunday jasorat ko'rsatamanki, bu jasorat mening nomimni abadiy shon-sharafga chulg'aydi hamda bir vaqtlar eng mashhur ritsarlar ko'rsatgan barcha buyuk jasoratlardan yuksakroq jasorat bo'ladi bu.

– Bu jasoratingiz juda xavflimi? – deb so'radi Sancho Pansa.

– Yo'q, – deb javob berdi G'amgin Qiyofa ritsar. – Tag'in kim biladi deysan, balki, qattiq azob chekishimga to'g'ri kelar. Hammasi sening g'ayratingga bog'liq.

– Mening g'ayratingga bog'liq? – hitob qildi Sancho.

– Ha, – so'zida davom etdi don Kixot. – Men seni bir topshiriq bilan yubormoqchiman, agar uni tez va muvaffaqiyatli bajarsang, unda boshimdagi musibatlarim uzoqqa cho'zilmaydi, dovrug'im esa butun olamga taraladi. Lekin bu qanday topshiriq ekan, deb seni qiynoqqa solib qo'yishim yaramaydi, shuning uchun to'g'ridan to'g'ri ishga o'tamiz. Senga, albatta, ma'lumki, Sancho, o'z san'ati bilan dong taratishni istovchi har qanday san'atkor o'zi ulug'vor hisoblagan ustodlarning ijodiga taqlid qiladi. Har qanday aql yurituvchi kishi ham turmushda ana shu qoidalarga rioya qilishi kerak. Kimki donishmandlik va sabr-toqatlilikda nom chiqarishni istasa, u UliSSga<sup>1</sup> taqlid qilishi lozim, Gomer<sup>2</sup> UliSSni donolik bilan qat'iylikni o'zida mujassamlantirgan kishi sifatida gavdalandirgan. Virgiliy o'zining Eneyida<sup>3</sup> bizga hurmatli o'g'il bilan donishmand dohiyning namunasini tasvirlab bergan. Har ikkala shoir ham, albatta, o'z

---

<sup>1</sup> UliSS – Odissey, afsonaviy Itaka orolining shohi, Troya urushining qatnashchisi. Gomer dostonlarida u o'zining aql-idroki, ziyrakligi va burroligi bilan «uddaburon» deb nom olgan.

<sup>2</sup> Gomer – qadimiy Gretsiyaning afsonaviy shoiri, «Iliada» va «Odissey» nomli qahramonlik dostonlarining muallifi (eramizdan oldingi IX – VIII asrlar).

<sup>3</sup> Eney – Virgiliyning «Eney» dostonida Eney Troyaga o't ketib, halokatga uchragan paytida o'zining keksa otasi Anxizni qutqarib qoladi. U xavf-xatarni pisand qilmay,

qahramonlari insoniyatga o'rnak bo'lsin uchun ularning aslida kechirayotgan turmushlarini emas, balki kelgusida qanday bo'lishlari kerakligini tasvirlaganlar. Qanday bo'lmasin, jahongash-ta ritsar ham taqlid qilishi uchun o'ziga biror qahramonni tanlashi kerakki, bu to'g'rida men bilan tortishib o'tirmaysan. Yagona va beqiyos Galliyalik Amadis mening uchun ana shunday qahra-mondir. Ammo mashhurlarning mashhuri bo'lgan bu ritsar naq sinora Oriana tomonidan rad etilgach, Penya-Pobre qoyasini oshyon etib, nomini Beltenebros, ya'ni Ma'yus Go'zal qilib o'zgartirib, gunohlariga iqror bo'lib tavba-tazarruga berilgan vaqtda o'z ritsarlik jasoratini, donishmandlik, mardlik va china-kam oshiqligini juda yaqqol ko'rsatgan. Uning izidan borishga yana shuning uchun ham qat'iy bel bog'ladimki, bu jasoratga taqlid qilishim, boshqa jasoratlari – dev va ajdaholarning kalla-sini uzib tashlashi, butun boshli qo'shinlarni quvib, flotni<sup>1</sup> to'z-g'itib yuborishi hamda sehrgarlarning sehrini puchga chiqarishi kabi jasoratlariga taqlid qilishdan ko'ra bu men uchun qulay-roqdir. Bu kimsasiz xilvat qoyalar o'ylagan ishlarimni amalga oshirish uchun bag'oyat qulay joy va shu bugunoq o'zimizning yangi jasoratlarimni amalga oshirishga kirishish niyatidaman.

– Bu bo'm-bo'sh joyda muhtaram janoblari nima qilmoq-chilar o'zi? – so'radi Sancho o'z xo'jayinining uzundan uzoq gapidan hech narsa tushunmay.

– Galliyalik Amadisning izidan bormoqchiman, o'z ma'-shuqamning bag'ritoshligidan umidsizlikka tushib, devonaga aylanib yurmoqchiman, deb aytdim-ku senga, – deb javob berdi don Kixot. – Ayni vaqtda men juda qahri qattiq deb nom olgan shavkatli don Rolandga<sup>2</sup> ham taqlid qilaman. Don Roland go'zal

---

Anxizni qo'lida ko'tarib kema yoniga eltadi. Unda tirik qolgan troyaliklar Troya sohillaridan suzib ketadilar.

<sup>1</sup> Flot (*gollandcha*) – muayyan bir vazifa bajaradigan yoki ma'lum bir sohaga, hududga mansub kemalar majmui; 2) harbiy-dengiz kemalarining katta qo'shilmasi (bu yerda shu ma'noda).

<sup>2</sup> Shavkatli Roland – Uyg'onish davridagi italiyalik shoir Ariostoning (1474 – 1533) mashhur dostonining qahramoni. Anjelika – Rolandning ko'nglini band etgan ra'shuqasi. U shu ayolni deb dostonida tasvirlangan jamiki sarguzasht va qahramonliklarni qilgan.



Anjelikaning o'ziga vafosizlik qilganini eshitgach, alamiga chidayolmay telba bo'lib qolgan: u daraxtlarni tomiri bilan qo'porib tashlagan, soylarning tiniq suvlarini loyqalatgan, cho'ponlarni o'ldirgan, ularning kulbalarini yondirib, xonavayron qilgan, abadiy nom qoldirishga munosib bo'lgan, bundan boshqa minglab noma'qulchiliklarni qilgan. Ammo men Roland, Orlando yoki Rotolandning (u ana shu uch nom bilan mashhur bo'lgan) hamma noma'qulchiliklariga taqlid qilmoqchi emasman. Balki, men Amadisning bir o'ziga taqlid qilish bilan qanoatlanarman. Amadis hech qotillik qilmagan, hech kimning uyini kuydirmagan, lekin shunga qaramay o'z qayg'usi va ko'z yoshlari bilan shuhrat qozongan. Bunday shuhratga undan oldin o'tgan ritsarlar ham, keyin o'tgan ritsarlar ham muyassar bo'lolmaganlar.

– O'ylashimcha, sinor, – dedi Sancho, – siz aytgan ritsarlar bu maynabozchiliklarni ma'lum sabablarga ko'ra qilishgan. Ammo, bilishimcha, siz muhtaram janoblarning aqldan ozishlariga hech qanday sabab yo'q. Nahotki, biror xonim sevgingizni rad etgan yoki sinora Tobosolik Dulsineya sizga vafosizlik qilgan bo'lsa?

– Bilasanmi, do'stim Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – biror vaj tufayli jinni bo'lish hech mashaqqatli ham, qahramonlik ham emas, lekin biron vajsiz jinni bo'lish tamoman boshqa gap. Mabodo hech narsadan hech narsa yo'q jinni bo'lib qolganimni ma'shuqam eshitguday bo'lsa, chindan umidsizlikka tushib, g'azabim qo'zishiga sabab bo'luvchi biror nojo'ya ish qilib qo'ysa, mening nimalar qilishga qodir ekanligimni tushunib oladi. Men xat yozib, seni malikam Dulsineyaning huzuriga yuboraman, undan biror javob olmaguncha telba bo'lib yuraveraman. Agar u o'z maktubida mening sodiqligimga yarasha baho bersa, telbaligim va tavba-tazarruni bas qilaman, mabodo aksincha bo'lsa, chindan ham aqldan ozib, hech narsani his qilmay qo'yaman. Xullas, malikam qanday javob bermasin, mening iztirob va musibatlarim tugaydi. Agar sen menga quvonchli xabar olib kelsang, aqlim joyiga qaytib, undan lazzatlanaman, mabodo qayg'uli xabar olib kelsang, uni tushunmayman, chunki aqldan ajralaman. Endi menga ayt-chi, Sancho, Mambrinning

dubulg'asini asrab qolgan eding-ku, to'g'rimi? Men xalos etgan nonko'r tutqurini mayda-mayda qilib tashlamoqchi bo'lganidan keyin yerdan ko'tarib olganingni ko'rgan edim. Mayda-mayda qilib tashlay olmaganining sababi ma'lum: sehrli dubulg'ani yo'qotib yuborish oson emas. Bunga Sancho shunday javob berdi:

– Xudo haqqi, sinor G'amgin Qiyofa ritsar, siz ba'zan shunday gaplarni aytasizki, eshitishga hech toqat qilolmayman. Ritsarlar to'g'risidagi, podsholiklar va davlatlarni bosib olish, menga orol hadya qilish hamda ehson ko'rsatib, shon-shuhratga burkamoqchiligingiz haqidagi gaplaringiz shunchaki quruq va 'z-xonlikmi, bilmayman, bu bor gapmi yoki yo'q gapmi, degan fikr keladi miyamga. Siz muhtaram janoblarining sartarosh jomini Mambrinning dubulg'asi deganingizni biror kishi eshitib qolsa, ehtimol, sizni chindan ham aqldan ozibdi, deb o'ylasa kerak. O'sha jom mening sumkamda; uning hamma yog'i pachoq-pachoq bo'lib ketgan, shunday bo'lsa-da, men uni olib yurgandim. Agar Xudoning rahmi kelib, xotinim bilan bolalarimning oldiga borish nasib bo'lsa, pachoqlarini tekislab, soch-soqol olishda foydalanaman.

– Endi, Sancho, menga ham Xudoning nomi bilan qasam ichishimga ruxsat et, – dedi don Kixot. – Qasam ichamanki, shu vaqtgacha dunyoda shunchalik befahm qurolbardor bo'lgan emas. Nahotki, menga xizmat qila boshlaganingdan buyon o'tgan vaqt ichida jahongashta ritsarlarning qo'li tekkan buyumlarning sirli narsaga aylanib qolishi va o'z qiyofalaridan boshqacha bo'lib ko'rinishlariga ishonch hosil qilmagan bo'lsang? Atrofimizni hamisha sehrgarlar o'rab olganligi uchun shunday bo'layotir, sehrgarlar bizni qo'llab-quvvatlash yoki, aksincha, halok etish ishtiyoqida barcha buyumlarni sehrlab boshqa narsaga aylantirib qo'ymoqdalar. Buni esdan chiqarmagil, ana shunda sen soch-soqol oladigan jom deb o'ylagan buyumni men nega Mambrinning dubulg'asi deyayotganimni tushunib homiylik qilayotgan sehrgar Mambrinning asl dubulg'asini boshqalarning ko'ziga jomga o'xshatib qo'yib, o'zining donoligini namoyish qiladi: aks holda boshqalar dubulg'ani mendan tortib olish uchun

izimga tushishgan bo'lardi, chunki bu dubulg'a topilmaydigan narsadir. Lekin odamlar buni senga o'xshatib shunchaki soch-soqol oladigan jom deb o'yilganlari uchun ham unga qo'l cho'zishmayotir: nonko'r tutqun avval uni sindirib tashlashga urinib ko'rdi, keyin esa yerga uloqtirarkan, uni olishni hatto xayoliga ham keltirmaganini eslasang bas, ishonching komil bo'lsinki, agar u haqiqatni bilganda edi, dubulg'ani tashlab ketmagan bo'lardi. Dubulg'a hozir menga kerak bo'lmagani uchun, senda turaversin, do'stim. Qattiq qayg'uga botganim belgisi sifatida hozir yarog'-aslahalarimni, boshdan oyoq hamma kiyimimni yechaman.

Ular ana shunday suhbat bilan yuksak tog' etagiga yetib borishdi, uning qoyalarini yuvib oqayotgan sokin soy yam-yashil o'tloq atrofini aylanib o'tardi, bu o'tloqqa qaragan kishi hayajonlanmay qololmas edi. O'tloqzorda quyuyq soya tashlab turgan daraxtlar qad ko'targan bo'lib, barra maysa hamda rango-rang gullar bilan qoplangan edi. G'amda otini to'xtatib, xitob qildi:

– Boshimga tushgan baxtsizlikdan qon yig'lamoqlik uchun ana shu manzilni tanlayman. Mana shu yerda daryo bo'lib oqqan ko'z yoshlarim soyga qo'shiladi, chekkan oh-u fig'onimdan tog' daraxtlarining barglari betinim shivirlab, pora-pora bo'lgan qalbm nolalaridan kuylaydilar. O, umrim quyoshi! O, Tobosolik Dulsineya, sen mening yo'lchi yulduzimsan, bor baxtim-san, iloyo, aziz-avliyolar qo'llab, butun orzularing amalga oshsin! Qara, hijron meni qay ko'yga soldi, sodiqligimga yarasha marhamat ko'rsat menga! Shu xilvatgohda o'sib, kamol topgan va endilikda yolg'izlikda mening hamdardlarim bo'lgan ey daraxtlar, novdalaringizni asta chayqab, mening bu yerga kelganim sizlarga malol kelmayotganidan ishora qiling. Sen esa, ey mening qurolbardorim, muvaffaqiyatlarim hamda musibatlarimda sodiq yo'ldoshim, hozir men nimalarni qilsam, hammasini xotirangda saqlab qol hamda bularning barini mening noumidlikka tushishim va g'am-anduhga botishimning yagona gunohkoriga yetkaz.

U ana shu so'zlarni aytib Rosinantdan sakrab tushdi-da, uning egarini yechdi, so'ngra sag'risiga shapatilab, shunday de-

di:

– O, sen men kabi o‘z jasoratlari bilan shuncha shuhrat qozongan, taqdiridan shunchalar azob-uqubat chekkan arg‘umog‘im, endi sen ozodsan, xohlagan tomoningga boraverishing mumkin, sen erkinlik olishga loyiqsan, senga erkinlikni o‘zi undan mahrum bo‘layotgan odam bermoqda.

Sancho esa buni ko‘rib qichqirib yubordi:

– Iloyo, to‘riq eshagimni o‘g‘irlab ketgan odamni jin ursin. Men ham o‘z og‘aynimning sag‘risiga shapatilab, rosa maqtagan bo‘lardim. Aytganday, u yonimda bo‘lganida edi, uni qo‘yib yuborishga sira ham rozi bo‘lmasdim, chunki men hech kimni sidqidildin yaxshi ko‘rib qolganim ham yo‘q, sevgiday tog‘- u toshga chirmashayotganim ham yo‘q. Lekin, rost gapni aytsam, sinor G‘amgin Qiyofa ritsar, agar muhtaram janoblari chindan ham meni biror topshiriq bilan jo‘natmoqchi, shundan keyin o‘zlari aqldan ozmoqchi bo‘lsalar, unda Rosinantni yana egarlashlari kerak edi. U yo‘qolgan eshagimning o‘mini bosadi; Rosinantni minib, oldinda turgan yo‘lni tezroq bosib o‘taman, piyoda jo‘naydigan bo‘lsam, Dulsineyangizning huzuriga qachon yetib boraman-u, qachon qaytaman, gapning rostini aytsam, juda sekin yuraman.

– Ha, mayli, – javob berdi don Kixot, – fikring yomon emas; mayli aytganing bo‘lsin; Rosinantni ola qol. Bu yerdan uch kundan keyin jo‘nab ketasan, chunki mening nimalar qilishimni va nimalarni gapirishimni ko‘rib, eshitishingni istayman, keyin esa buning barini malikaga yetkazasan.

– Xo‘sh, siz nimalar qilmoqchisiz? – qiziqsindi Sancho Pansa.

– Avvaliga kiyimlarimni yirta boshlayman, – javob berdi don Kixot. – Keyin yarog‘-aslahalarimni har yoqqa uloqtiraman, boshimni qoyalarga uraman... Umuman, shunday ishlar qilamanki, ko‘rib dong qolasan.

– Xudo haqqi, – dedi Sancho, – boshingizni qoyaga ehtiyotlik bilan uring: yo‘qsa boshingizni shunday urib olishingiz mumkinki, o‘zingiz ham adoyi tamom bo‘lasiz. Hamma g‘alati ishlaringiz ham. Siz muhtaram janoblariga shunday maslahat

beraman: garchi siz bu borada, albatta, peshonani biror nimaga urish kerak, busiz sira mumkin emas, deb hisoblasangiz, muhtaram janoblari, unda boshingizni suvga yoki paxtaga o'xshash birorta yumshoq buyumga ursangiz, o'rniga o'tmasmikan. Boshqasini menga qo'yib qo'yaverasiz. Men sinora Dulsineyaning oldiga borib, siz marhamatli zotning peshonangizni qoyaning olmosdan qattiq, qirrali joyiga urdilar, deb aytaman.

– Yaxshi maslahatlaring uchun sendan minnatdorman, do'stim Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – lekin men seni ogohlantirib qo'yishim kerakki, men hozir senga nimalar degan bo'lsam, hammasini bekam-u ko'st bajaraman. Ritsarlik qoidalari, aqalli, o'z hayotimizni saqlab qolishimiz uchun ham bizga yolg'on gapirishni man etadi. Shu sababdan ham boshni toshga urish zarbi kuchli va salmoqli bo'lishi, bunda zarra soxtalikka yo'l qo'yilmasligi kerak. Binobarin, jarohatlarimni davolash uchun menga biroz titilgan ip qoldirishing zarur: ming afsuski, ko'rgilik ekan, malhamni yo'qotib qo'ydik.

– Eng katta balo eshakni yo'qotganimizda bo'ldi, marhamatli janobim, – javob berdi Sancho, – eshagimiz bilan birga biz oziq-ovqat solingan qopdan tashqari hamma narsadan: ehtiyot qilib qo'yilgan ichki kiyimlardan ham, titilgan ipdan ham, bintlardan<sup>1</sup> ham mahrum bo'ldik. O'sha yaramas giyohdan yasalgan zaharli ichimlikni, yaxshisi, esingizga ham olmay qo'ya qoling, sinor! Men buni sizdan o'tinib so'rayman. O'sha ichimlikning nomini eshitsam, butun ichim alg'ov-dalg'ov bo'lib ketadi. Sizdan yana bitta iltimosim bor: o'zingiz belgilagan uch kunlik muddat tugadi, qilgan telbaliklaringizni meni ko'rdi deb tasavvur qiling, men esa sinorangizga shunaqangi bo'lmag'ur gaplarni boplab yetkazamanki, asti qo'yavering. Shunday qilib, xatingizni yozing-u, meni tezroq jo'nating, nega desangiz, siz muhtaram janoblarini mana shu a'rofdan tezroq qutqarib olib chiqib ketish uchun zudlik bilan qaytishni istayman.

– Sen bu yerni a'rof deb atadingmi, Sancho? – xitob qildi

---

<sup>1</sup> Bint (*nemischa*: Binge – bog'ich, bog') – yaralarni bog'lashga mo'ljallangan doka, bo'z, flanel, lenta va boshqalar).

don Kixot. – Do‘zax deb atasang, bundan ham to‘g‘riroq bo‘lardi.

– Hech-da, – deb javob berdi Sancho, – do‘zaxga tushgan kishi qaytib chiqolmaydi, men esa Rosinantni niqtayverib oyoqlarimdan ajralib qolmasam, sizni bu yerdan qutqarib olib ketish umididaman. Tobosoga yetib borib, sinorangiz Dulsineyaning huzurida hozir bo‘ldim deguncha sizdek muhtaram zot qilgan va qilayotgan nodonlik hamda telbaliklar (uning ham, buning ham ma‘nosi bir) to‘g‘risida shunday lof uramanki, u ilgari emanday qattiq bo‘lgan taqdirda ham darhol ipak qo‘lqopday yumshab qoladi. Shundan keyin uning asalday shirin javoblarini olib orqamga qarab uchaman-da, siz marhamatli janobimni bu a‘rofdan xalos qilaman. Bu a‘rof ko‘rinishidagina do‘zaxga o‘xshaydi, shuning uchun ham sizda bu yerdan chiqib ketish umidi bor. Men sizga avval aytganimday, do‘zaxdagi gunohkorlarda bunday umid yo‘q. Muhtaram janoblari gapimga qarshi chiqmasalar kerak, deb o‘ylayman.

– Juda to‘g‘ri, – deb javob berdi G‘amgin Qiyofa ritsar, – xo‘sh, maktubni nima deb yozamiz?

– Menga tuhfa etishni va‘da qilganingiz uchta xo‘tikni berishini ekonomkangizga yozishni yana unutib qoldirmang, muhtaram janob.

– Xotirjam bo‘l, unutmayman, – deb javob berdi don Kixot, – lekin maktubni nimaga yozsam ekan? Qog‘ozimiz yo‘qku. Balki, qadimiy odamlardek biz ham daraxt barglariga yoki mum taxtakachlarga yozishimiz kerakdir, unday desam, bu yerda ana shunday taxtakachlarni topish ham qog‘oz topishday qiyin bir gap. Darvoqe, miyamga yaxshi fikr kelib qoldi: tog‘dan topib olgan yon daftarchamiz bor, undan ikki-uch varaq toza sahifa topiladi, albatta. Sen esa dastlabki uchratgan qishloqda birorta maktab muallimini yoki dyachokni<sup>1</sup> topgin-da, xatni yaxshi qog‘ozga husni xat bilan ko‘chirib yozishni buyurgan: lekin ehtiyot bo‘l, uni odatda qog‘ozni tirnab, chaplashtirib yozadigan mirzalarga bera ko‘rma, chunki ularning aji-buji xatini shayton-

<sup>1</sup> Dyachok – xristianlarning pravoslav cherkovidagi eng quyi lavozimli ruhoni.

ning o'zi ham o'qiyolmaydi.

– Unda imzoni nima qilamiz? – deb so'radi Sancho.

– Amadis o'zining maktublariga hech mahal imzo chekmagan, – deb javob berdi don Kixot.

– Bu-ku shunda-ya, – dedi Sancho, – ammo tilxatingizning tagida, albatta, imzongiz bo'lishi kerak-da, mabodo uni qayta ko'chirilsa, ehtimol, imzo qalbaki deyishlari mumkin, qarabsizki, unda men eshaksiz qolaveraman.

– O'z tilxatimga o'zim imzo chekaman, jiyanim, imzomni ko'rgach, lom-lim demay, amrimni bajo keltiradi. Muhabbatnomaga kelganda, oxiriga «Qazosi yetguncha qulingiz bo'lgan G'amgin Qiyofa ritsar» deb yozdir. Imzom qo'lim bilan chekilmas ekan, buning ahamiyati yo'q. Chunki, xotiramga qaraganda, Dulsineya na yozishni, na o'qishni biladi, buning ustiga umri bino bo'lib mening va xatimni, na yozuvimni ko'rgan. Biz faqat bir-birimizga qarab qo'ya qolardik, shunda ham ahyon-ahyonda bir. Vijdonim haqqi qasamyod etamanki, ko'z nurimdan ham ortiq sevgan ma'shuqamni o'n ikki yil mobaynida to'rt marta ham ko'rmaganman. Uning padari Lorenzo Korchualo bilan validasi Aldonsa Nogaleslar uni shu qadar jiddiy tarzda tarbiyalashganki, mening termilib qolishlarimni u umuman payqamagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

– Iye-ye-ye! – deb yubordi Sancho. – Hali sinora Tobosolik Dulsineya Lorenzo Korchualoning qizi – Aldonsa Lorensonimidi?

– Ha, – deb javob berdi don Kixot, – u butun dunyoning malikasi bo'lishga loyiqdir.

– E, men uni juda yaxshi taniyman, – xitob qildi Sancho, – nimasini aytasiz. Qizmisan qiz-da o'ziyam. Xudo ursinki, baquvvatlilik va epcillikda qishloq yigitlarining hech biridan kamligi yo'q! U jahongashtalik qilib yurgan yoki shunaqa niyatda bo'lgan har qanday ritsarning adabini berib qo'yadi. Turgan joyimda til tortmay o'lay agar, shunday kuchliki, asti qo'yavering! Ovozi shunaqangi o'tkirki! Sizga men bir narsani aytib qo'yay, bir kuni u qo'ng'iroqxonamizga chiqib olib, otasining dalada ishlayotgan batraklarini chaqirib rosa baqirdi, ular yarim

milcha keladigan joydan qizning tovushini qo'ng'iroqxona takkinasida turganday aniq eshitdilar. Eng yaxshisi shundaki, u noz-u karashmani bilmaydi, nuqul kulgisi qistaydi, har narsaga zavqlanaveradi. Sinor G'amgin Qiyofa ritsar, endi men sizga aytmoqchimanki, o'sha qiz haqqi telbalik qilishingiz mumkin va kerakina bo'lib qolmay, muhtaram janoblari, balki, umidsizlanish va hatto o'zingizni osib qo'yishingizga ham asosli sabablar bor. Bundan xabar topgan har qanday odam sizni to'g'ri qilibdi, desa kerak. Men uni anchadan buyon ko'rganim yo'q, jamoliga nazar tashlash uchun tezroq yo'lga tushgim kelyapti. U ancha o'zgarib ketgan bo'lsa kerak; chunki qizi tushmagur qachon qarama, dalada, ochiq havoda, jazirama oftobda, bundan esa kishining tusi tez buziladi. Lekin, sinor don Kixot, men sizga bir haqiqatni ochaman. Shu kungacha marhamatli janoblari oshiq bo'lgan sinora Dulsineyani biror malika yoki sizdek mo'tabar zot yuborib kelgan ajoyib sovg'alarga loyiq biron e'tiborli xonim, deb o'ylab, bunga qat'iy va qattiq ishonib laqillab yurgan ekanman. Chunki siz uning huzuriga biskaylikni, katorgachi<sup>1</sup> tutqunlarni yubordingiz, ilgari ham ko'pgina odamlarni yo'llagandirsiz, ehtimolki, muhtaram janoblari, men qurolbardorlik xizmatlariga o'tgunimcha anchagina g'alabalarga erishgan bo'lsangiz kerak. Axir, o'zingiz yaxshilab o'ylab ko'ring, sinor Aldonsa Loren-soga, ya'ni aytmoqchimanki, Tobosolik Dulsineya huzuriga muhtaram janoblari o'zlari yenggan kimsalarni yuborib turibdilar va yuboraveradilar, ular Tobosolik Dulsineyaning huzuriga borib, uning oldida tiz cho'kadilar, xo'sh bundan qizga nima foyda? Axir, ular qizning huzuriga u zig'irpoyalarini tozalayotgan yoki uni saroyda tuyayotgan paytda borib qolsalar, xunuk bo'ladi-ku. Uni ana shunda, ish ustida ko'rib ular darg'azab bo'lishlari, sovg'angizdan esa, ehtimol, qiz kulishi hamda xafa bo'lishi mumkin-ku!

– Men senga necha martalab aytdimki, o'taketgan mahmadonasan deb, yana o'tmas zehning bilan aql o'rgatmoqchi

---

<sup>1</sup> **Katorga** (yunoncha: katargon – galera, eshkak-yelkanli harbiy kema) – ba'zi mamlakatlarda jinoyiy va siyosiy jinoyatlar uchun surgun qilish, juda og'ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasini va shunday jazoni o'tash joyi.



bo'lasan, – dedi don Kixot, – o'zingning o'ta ahmoq, mening benihoya dono ekanligimni ochiq-oydin bilib olishing uchun, shuni bilib qo'ygilki, romanlarda bayon qilinadigan hamda she'r-larda madh etiladigan hamma grafinyalar bilan qirolichalar hamma oliyjanob va go'zal xonimlar aslida yo'q. She'r bag'ishlash mumkin bo'lsin deb, oshiq bo'lishga, sevishga loyiq ekan desin deb ularni shunchaki o'ylab topadilar. Mening Aldonsa Lorensoni dunyoda eng go'zal va aqlli qiz, eng olinasab malika, deb o'ylashimga kim to'sqinlik qila oladi? Agar bilmasang, bilib qo'yishing kerak, Sancho, ayniqsa, ikki narsa ishq-muhabbat uyg'otadi; chinakam go'zallik bilan shon-shuhrat, Dulsineyada esa unisi ham, bunisi ham bor. Go'zallikda hech kim unga teng bo'lolmaydi, kamdan kam kishigina u singari shon-shuhrat orttirgan. Xullas, men haq gapni aytyapman, deb hisoblayman, chunki mening tasavvurimda u shunday go'zal, shunday oliyjanob tarzda gavdalanadiki, na Yelena, na Lukretsiya, na boshqa qadimiy mashhur xonimlar unga teng bo'loladilar. Odamlar nima deyishsa, deyaverishsin. Agar nodonlar menga tanbeh beradigan bo'lishsa, unda donishmandlar meni maqtovga burkashadi.

– Siz mutlaqo haqsiz, muhtaram janoblari, – deb javob berdi Sancho, – fikringizga qo'shilaman, siz donishmandsiz, men esa eshakman. Hay, hay! – «eshak» degan bu yaramas so'z nega og'zimdanda chiqib ketdi-ya, axir, osilgan odamning uyida arg'amchidan gap ochishmaydi-ku. Aftidan, yo'qotgan eshagimni sira-sira unutmam kerak. Xo'p endi, marhamatli janoblari, xatlarni yozib, meni tezroq jo'nating, chunki vaqt o'tib ketyapti.

Don Kixot yon daftarchani olib chetroqqa chiqdi-da, diqqat-e'tiborini to'plab, xat yoza boshladi. Xatni tamomlagach, Sanchoni chaqirdi-da, shunday dedi:

– Mening Dulsineyaga yuborayotgan maktubimga diqqat bilan quloq solib, uni yodlab qolishga harakat qil. Yo'lda yo'qolib qolishi hech gapmas. Taqdir menga akslik qilmoqda, har qanday holga tayyor bo'lish kerak.

Bunga Sancho shunday deb javob berdi:

– Ha, muhtaram janoblari, uni ikki yoki uch marta ko'chirib yozing-da, menga bering, keyin o'zim uni bus-butun yetkaza-

man. Lekin uni yodlab olishim mushkul, meni bunday mashaqqatdan xalos eting, xotiramning shunday abjag'i chiqib ketganki, ba'zan hatto o'z nomimni ham unutib qo'yaman. Lekin shunday bo'lsa ham, o'qib bering, juda soz yozilgan bo'lsa kerak.

– Qani nimalar yozganimga quloq sol, – dedi don Kixot.

Don Kixotning Tobosolik Dulsineyaga maktubi. Mo'tabar va hukmdor sinora!

O, bol-u shakar Tobosolik Dulsineya, ayriliq tig'idan yuraginging eng chuqur joylarigacha yaralangan ritsar, haqiqatan ham, o'zi sihat-salomatlikdan mahrum bo'lsa ham, senga sihat-salomatlik tilaydi. Agar chiroying meni nazarga ilma, agar qadr-qimmating menga qarshi shaylansa, agar nafrating menga halokatni ravo ko'rsa, men bu alamni yenga olmayman, chunki bu alam bedavo bo'libgina qolmay, beaded hamdir. Ey, bag'ritosh go'zalim, sevikli raqibam, sen meni giriftor etgan dilxastaliklarni oqko'ngil qurolbardorim Sancho senga to'la aytib beradi, agar mendan marhamatingni ayamasang, men senikiman, mabodo buni ravo ko'rmasang, ixtiyoring o'zingda, unda men hayotim bilan vidolashib, sening qahring hamda o'zimning otashin muhabbatimni qanoatlantirurman.

Qora yerga kirguncha sening quling bo'lgan G'amgin Qiyofa ritsaring.

– Bobomning umri bilan qasam ichamanki, – deb xitob qildi Sancho bu maktubni eshitarkan, – men bunaqangi dabdabali maktubni hech eshitmaganman. Muhtaram janoblarining bunaqangi ustalik bilan maktub to'qishlarini va bu maktubga «G'amgin Qiyofa ritsar» degan imzoning juda o'rinli tushganini ko'rib, qotib qolasan kishi. Chin so'zim, marhamatli janoblari, iblisning xuddi o'zginasisiz: bilmagan narsangiz yo'q.

– Jahongashta ritsar, – dedi don Kixot, – hamma narsani bilishi kerak.

– Endi muhtaram janoblari, – deb so'zida davom etdi Sancho, – qog'ozning orqasiga uchta xo'tik haqida yozib, aniqroq imzo chekingkim, toki siz yozganligingizdan har kim ham darhol xabar topsin.

– Jonim bilan, – deb javob berdi don Kixot hamda yozu-

vini tugatgach, quyidagilarni o'qidi:

Siz kim muhtaram sinora jiyanim, ushbu xatni olib borgan mening qurolbardorim Sancho Pansaga yo'lga chiqishim oldidan siz muhtaramalariga qarab turishni tayinlagan o'sha beshta xo'tikdan uchtasini in'om qiling. Sizga buyuramanki, men bu yerda undan olgan uchta eshak o'rniga, o'sha uchtasini bering. Bu ish bajo keltirilgach hamda undan tilxat olingach, u bilan oramiz ochiq deb hisoblanadi. Siyerra Morena changalzorlarida, mazkur yilning yigirma ikkinchi avgustida yozildi.

– Juda soz, – dedi Sancho, – qani, endi imzo cheking, marhamatli janoblari.

– Imzo chekishning hojati yo'q, – deb javob berdi don Kixot, – jimjima chizsak bas, shuning o'zi imzoga o'taveradi, unga uchta emas, uch yuzta eshak ham beraveradi. – Siz muhtaram janoblariga ishonaman, – deb javob berdi Sancho, – endi borib Rosinantni egarlay, ungacha menga oq fotiha berishga tayyorlanib turing. Men siz marhamatli janoblarining qilmoqchi bo'layotgan telba harakatlaringizga qarab o'tirmay, hoziroq yo'lga tushaman. Men o'shasiz ham sinoraga shunaqangi ajoyibot va g'aroyibotlardan gapirib beramanki, u hayratga tushadi.

– Yo'q, Sancho, aqalli, ba'zi bir telba harakatlarimni tomosha qilishing kerak. Ana o'shandagina ko'rganlaringni va hamma to'qiganlaringni unga vijdon azobisiz so'zlab bera olasan. Lekin shunga amin bo'lgilki, mening telba harakatlarim sening hamma loflaringdan oshib tushadi.

– Xudo haqqi, muhtaram janobim, o'shalarni tomosha qilishga majbur etmang. Unda sizga shunday rahmim kelib ketadiki, albatta, ho'ngrab yig'lab yuboraman, eshagimni o'ylab shunchalar yig'ladimki, boshlarim xum bo'lib ketdi, endi yana boshqatdan ko'z yoshi to'kishga kuchim ham, madorim ham qolmadi. Mabodo muhtaram janoblari menga biror telbalikni ko'rsatmoq ishtiyorida bo'lsalar, eslariga kelganini tezroq ko'rsatsinlar. Menga buning sira hojati yo'qligini o'zingiz bilasiz. Hammasini ko'rsataman desangiz, men avval ma'lum qilganimdek, oltin daqiqalarimiz bekor ketadi. Qanchalik tez jo'nasam, marhamatli janoblari kutayotgan o'zlariga munosib xabarni

shuncha tez olib qaytaman. Sinora Dulsineya shuni qat'iy bilib qo'ysinki, agar u sizning maktubingizga munosib javob qaytarmas ekan, unda Xudo haqqi qasam ichamanki, musht va shapaloqlar bilan bo'lsa ham uni ko'ndiraman. Afv etasiz, siz muhtaram zotdek mashhur jahongashta ritsar bitta shunaqangi... ayolni deb aqlidan ozadi-yu, bunga chidab bo'ladimi. Lekin u mening tilimni qichitmay qo'ya qolsin, yo'qsa, shunday gaplarni to'qib solamanki, na u, na men omon qolamiz. Bunaqa ishlarni boplab tashlayman. U meni yaxshi bilmaydi, bilganida-chi, mening tug'ilgan kunimda ovqat yemay, ro'za tutgan bo'lardi.

– Ochig'ini aytsam, Sancho, nazarimda, sen ham menga o'xshab devona bo'lib qolganga o'xshaysan, – dedi don Kixot.

– E, yo'q, – deb javob berdi Sancho, – men sira ham siz muhtaram janoblariga o'xshagan devona emasman, lekin qiziq-qonlikda sizdan oshib tushaman. Keling, bu gapni bas qilaylik. Yaxshisi ayting-chi, marhamatli janoblari, men qaytib kelguncha nimani tamaddi qiladilar? Cho'ponlardan ovqat so'rab yoki tortib olishni mo'ljallayotganlari yo'qmi?

– Bundan xotirjam bo'l, – deb javob berdi don Kixot, – oldimda eng laziz taomlar turgan taqdirda ham, men, baribir, ana shu o'tloqdagi giyoh-u ana shu daraxtlarning mevasidan boshqa hech narsa yemagan bo'lardim. Mening ko'rsatadigan jasoratim – hech nima yemaslik va o'zimni har qanaqangi muhtojlikka giriftor qilishdir.

Bunga Sancho shunday deb javob berdi:

– Nimadan xavotirlanayotganimni, muhtaram janoblari, bilasizmi? Bu yer shunday ichkarilikki, men qaytib keladigan yo'lni topolmay qolsam kerak.

– Sen bu yerning belgilarini yaxshi eslab ol, – dedi don Kixot. – Men esa uzoqqa ketib qolmaslikka harakat qilaman. Ha, aytganday, adashib qolmaslik hamda izni yo'qotib qo'ymaslik uchun tekislikka chiqquncha butalardan ko'proq kesib tashlab ketaver, qara, hamma yoqni buta bosib yotibdi. Qaytayotganingda esa labirintdagi<sup>1</sup> Tezeyning ipi bo'ylab borilgandek, ana

---

<sup>1</sup> Labirint (*yunoncha*) – xonalari ko'p, yo'laklari odamni adashtiruvchi bino. Yunon afsonalarida Krit oroli podshosi Minos me'mor va mohir mexanik Dedal labirint qurgan.

shu yo'l ko'rsatuvchi shox-shabballarni qoralab meni topib olasan.

– Xo'p, shunday qilaman, – deb javob berdi Sancho Pansa.

Sancho birinchi buta novdasini sindirib oldi, keyin don Kixot unga oq fotiha berdi va nihoyat, ular achchiq ko'z yoshi to'kib ajralishdi. Sancho Rosinantga mindi-da, otni ehtiyotlash, o'ziga qanday mehribonlik qilsa, unga ham xuddi shunday g'am-xo'rlik ko'rsatish to'g'risida don Kixotdan topshiriq olgach, tekislik tomon jo'nadi. Lekin Sancho yuz qadam ham yo'l yurmay qaytib keldi-da, shunday dedi:

– Gapingiz to'g'ri, marhamatli janoblari, men sizning telbalarcha harakatlaringizdan, hech bo'lmasa, bittasini ko'rishim kerak ekan, aks holda ko'rganman, deb qasam ichib gunoh qilgan bo'laman. Aytganday, sizning eng katta telbaligingizdan xabardorman: bu muhtaram janoblarining shu yerda yolg'iz qolayotganlaridir.

– Men senga hamisha shuni ta'kidlab kelayotgan edim-da, Sancho, – dedi don Kixot. – Bir daqiqa shoshmay turgin. «Otche nash» deb ibodat qilmasingdanoq, men senga ba'zi narsalarni ko'rsatib bo'laman.

Ritsarimiz ortiqcha va'zxonlik qilib o'tirmay, shoshapisha faqat ko'ylagi qolgunicha yechindi-da, ikki marta sakradi, so'ngra ikki marta boshi bilan umbaloq oshdi. Sanchoga shuning o'zi kifoya edi; u o'z xo'jayinining qolgan harakatlarini ko'rishni ep bilmadi-da, Rosinantning boshini burib, zudlik bilan yo'lga tushdi.

**DON KIXOTNING SIYERRA MORENADA  
KO'RSATGAN YANGI JASORATLARI HAMDA  
SANCHO PANSAGA NIMA BO'LGANI**

Don Kixot yolg'iz o'zi qolgach, umbaloq oshish va sakrashni bas qildi, eng baland cho'qqiga chiqib o'tirib oldi-da, ilgari bir necha bor xayol surgan narsalari to'g'risida yana chuqur o'ygacha cho'mdi. Kimga taqlid qilsa, yaxshi bo'larkin, shiddatkor Rolandgami yoki Ma'yus Amadisgami?

– Roland qo'rqmas ritsar edi, – deb o'yladi u o'z-o'zicha, – bu hammaga ayon. Lekin uning hamma fazilatlarini bir yoqqa qo'yib qo'yaylik-da, nima uchun va qanday qilib aqldan ozganini tahlil qilaylik. Ma'shuqasi Anjelika undan kelishgan yosh mavr Medosni ustun ko'rganini bilib qolgan daqiqada aqldan ozganligi haqiqatga yaqindir. Lekin mening boshimga bunday ish tushmagan bo'lsa, unga qanday qilib taqlid qilay? Mening Tobosolik Dulsineyam eng oliyanob va himmatli xonim, u menga hech mahal bevafoqlik qilmagan deb qasamyod eta olaman-ku, axir. Agar bu borada shubhalanib, shiddatkor Roland singari telbalik qiladigan bo'lsam, uni bag'oyat xafa qilib qo'yaman-ku. Ayni vaqtda shuni ham bilamanki, Galliyalik Amadis telbalikka ham tushmay, hech qanday zolimlik ham qilmay, o'zining oshiqligi bilan butun dunyoga doston bo'lgan. Uning tarixida hikoya qilinishicha, sinora Oriana unga, to mening o'zim ruxsat etmagunimcha ko'zimga ko'rinma, deb buyurgan. Shunda Amadis qandaydir bir qalandarning kuzatuvida Penya Pobrega chiqib ketgan, o'zini Xudoga topshirib, to tangri uning achchiq alamiga achinib shafqat qilmagunicha ko'z yoshi to'kavergan. Agar bu rost bo'lsa (rostligi turgan gap), unda nega endi qip-yalang'och yechinib, o'zimga hech zarari tegmagan daraxtlarni sindirishim kerak? Chanqaganimda tashnaligimni bostiradigan bu soy suvini nega loyqalatishim kerak? Shunday qilib, yashasin Amadisning xotirasi; lamanchlik don Kixot undan o'mak olsin. To'g'ri, mening Dulsineyam mendan yuz o'girgani ham, mendan nafratlangani

ham yo'q, bunga o'rtamizdagi ayriliqning o'zi yetarli emasmi? Shunday qilib, tezroq ishga kirishish kerak! Xotiram! Amadisning shonli ishlarini aqlimga sol! Ana shu mashhur ritsardan ibrat olib ishni nimadan boshlashim kerakligini o'rgat. U o'zini Xudoga topshirib, betinim sig'ingani yodimda. Demak, darhol sig'inishga kirishishim kerak. Ammo tasbehni qayerdan olsam ekan?

Biroq u bu masalani tez hal qildi: ko'ylagining etagidan tasmaday bir parchasini yirtib oldi-da, bittasini kattaroq qilib o'n bitta tuguncha tugdi, tasbeh ham tayyor bo'ldi. U Siyerra Morena tog'larida bo'lgan paytida ana shu tugunchalar yordamida millionlab duolarni o'qidi. U faqat bir narsadan xijolat chekardi: uni gunohlaridan xalos etib, ko'ngliga taskin berguvchi qalandarni topib bo'lmasdi bu yerdan. Ammo duo o'qib, tavba-tazarru qilishdan boshqa iloj yo'q edi. U qolgan vaqtini o'tloqda sayr etib, oh-u fig'onli she'rlar yoki Dulsineyani ulug'lab madhiyalar to'qish bilan o'tkazdi. U o'zining bu she'r va madhiyalarini daraxtlar tanasiga o'qib yoki qumlarga chizib yozardi. Yozgan hamma she'rlaridan faqat bittasi saqlanib qolgan:

*Atrofimda bo'y cho'zgan qator  
Yashil daraxt, maysa, o't-o'lan.  
Qiziqmaysiz nahotki bir bor  
Sho'rlik oshiq dardlari bilan.  
Mening g'amgin o'ylarim sizga  
Tashvish solmas zarracha, axir.*

*Tobosolik Dulsineyadan  
Ayri tushib sho'rlik don Kixot  
Ko'z yosh to'kar achchiq va taxir.  
Haydab keldi shafqatsiz qismat  
Ishq xazonin yaydoq makonga.  
Bu iztirob istaydi faqat,  
Bilmas ammo nechun, qay jonga.  
Erot ichra chekadi azob,  
Bardosh gilmay netadi, axir.*

*Tobosolik Dulsineyadan*  
*Ayri tushib sho'rlik don Kixot.*  
*Ko'z yosh to'kar achchiq va taxir.*  
*U ko'p vahshiy qoyalar aro*  
*Izlar ekan orom va yupanch,*  
*Taqdir lekin ayamay aslo*  
*Boshga soldi iztirob va ranj.*  
*Fig'oniga hatto Amur<sup>1</sup> ham*  
*Zarra parvo qilmaydi, axir.*  
*Tobosolik Dulsineyadan*  
*Ayri tushib sho'rlik don Kixot*  
*Ko'z yosh to'kar achchiq va taxir.*

U vaqtini ibodat qilish, tavba-tazarru, she'r to'qish, nola-yu fig'on chekib aziz-avliyolarga sig'inib, oh-u zoriga yetishlarini va xasta ko'ngliga taskin berishlarini iltijo qilish bilan o'tkaza boshladi. Shuningdek, u yesa bo'ladigan turli-tuman giyohlarni qidirib topdi, bundan boshqa tamaddi qiladigan narsaning o'zi yo'q edi. Mabodo Sancho uch kundan keyin emas, balki uch haftadan keyin qaytganida, u G'amgin Qiyofa ritsarni shunday ozib-to'zib ketgan, hatto tuqqan onasi ham taniyolmaydigan holda uchratarmidi.

Endi esa she'r yozish hamda nola-fig'on chekishga sho'ng'ib ketgan ritsarimizni shu yerda qo'ya turib, Sancho Pansa o'z xo'jayini bilan xayrlashib, uning topshirig'ini bajarish uchun yo'lga chiqqanidan keyin boshidan nimalarni kechirganini hikoya qilib beramiz. Sancho Siyerra Sorena tog' oralig'idan ko'chaga chiqib olgach, Tobosoga olib boradigan yo'lni qidira boshladi. Kutilmaganda yaqindagina o'zi choyshabda osmonga itqitilgan karvonsaroydan chiqib qoldi. Ovqatlanadigan payt edi. Sancho-ning biror issiq ovqat yeb olgisi keldi, shu niyatda u darvoza tomon yurmoqchi bo'ldi-yu, lekin bu karvonsaroyda o'zini rosa kalaka qilishganini eslab, ikkilanib turib qoldi. Havoda umbaloq

---

<sup>1</sup> Amur – qadimgi dunyo afsonlarida kamalak bilan qurollangan qanotli go'dak qiyofasidagi tasvirlangan sevgi ma'budi.



oshib ketgani birdan ko'z oldida yaqqol gavdalandi. U, nima qilsam ekan deb, taraddudlanib turganida, darvozadan ikki kishi chiqib qoldi, ikkovi ham Sanchoni darhol tanidi. Ulardan biri o'z hamrohiga murojaat qilib gap qotdi:

– Siz nima deysiz, sinor litsensiat, anavi Sancho emasmi? Axir, u sarguzasht qidiruvchimiz bilan birga jo'nab ketgan degan edi-ku, don Kexaning ekonomkasi.

– Xuddi o'shaning o'zi, – deb javob berdi litsensiat, – ostidagi ham idalgoning oti.

Ular Sanchoni darrov tanishdi; chunki ular don Kixotning kitoblari ustidan sud o'tkazgan o'sha ruhoniy bilan sartaroshning xuddi o'zi edi. Pansa bilan Rosinantni tanib, ular don Kixotdan xabar topish uchun shu zahotiyuq Sanchoning oldiga kelishdi. Ruhoniy Sancho Pansaga shunday dedi:

– Xo'jayiningiz qayerda, do'stim Sancho Pansa?

Sancho o'z xo'jayinining qayerda va qanday ahvolda qolganini ulardan yashirmoqchi bo'ldi, shuning uchun xo'jayinining juda muhim ish bilan band ekanini, lekin buning qanday ish ekanini, hatto ko'zini o'yib olishsa ham, aytolmasligini bildirdi.

– Basharti siz, Sancho Pansa, – dedi sartarosh, – uning qayerda ekanini bizga aytib bermasangiz, siz uni o'ldirib, bor-yo'g'ini shilib olgansiz, degan fikrga kelamiz, buning ustiga uning otini minib olibsiz. Bu qirchang'ining xo'jayinini bizga topib bering, yo'qsa, ishingiz chatoq bo'ladi.

– Menga bekorga po'pisa qilyapsizlar, – deb xotirjamlik bilan javob berdi Sancho Pansa. – Men birovni o'ldiradigan yoki shilib oladigan odamlardan emasman. Har kim peshanasiga yozib qo'yilgan paytda yoki tangrining o'zi buyurgan paytda o'laversin. Mening xo'jayinim tog'larda yuribdi, u yerda butun vujudi bilan tavba-tazarru qilyapti.

Shu ondayuq Sancho don Kixot bilan o'zining nimalarni boshdan kechirganlarini hamda xo'jayinini qayerda qoldirib kelganini bidirlab, labi labiga tegmay gapirib tashladi. Gapning oxirida Lorenzo Korchualoning qizi bo'lmish sinora Tobosolik Dulsineyaga maktub olib borayotganini aytib, uni o'z xo'jayini qulog'igacha sevib qolganini ilova qildi. Sanchoning hikoyasi-

dan ruhoniyl bilan sartarosh hayratda qoldilar. Ular don Kixotning devonaligi hamda uning ritsarlik fantaziyalaridan, darhaqiqat, xabardor bo'lsalar ham, lekin uning qilgan ishlarini eshitganlarida ajablanmay qololmadilar. Ular Sancho Pansadan don Kixotning Tobosolik Dulsineyaga yozib yuborgan maktubini ko'rsatishni iltimos qildilar. Sancho bu maktubning yon daftarga bitilganini, o'zi esa yo'lda dastlab uchratgan qishloqda uni alohida qog'ozga ko'chirish uchun berishi to'g'risida topshiriq olganini aytdi. Xo'jayini xatni Sanchoga berishni unutilib qo'ygan, Sancho esa buni don Kixotning yodiga solishni xayoliga ham keltirmagandi.

Shunda Sanchoning rangi murdaday oqarib ketib, hamma cho'ntaklarini birma-bir titkilay boshladi.

Daftarcha yo'qligiga ko'zi yetgach, mutlaqo o'zini yo'qotib qo'ydi. Umidsizlanganidan ikki qo'li bilan soqolini yula ketdi, keyin esa o'z-o'ziga ketma-ket qattiq tarsaki tortib yubordi.

Buni ko'rib taajjublangan ruhoniyl bilan sartarosh undan nega o'zini-o'zi qiynayotganini, nima gap bo'lganini surishtirishdi.

– Senga nima bo'ldi deysizlarmi? – deb javob berdi Sancho. – Shunday bo'ldiki, men bir daqiqada har qaysisi bir qal'a narxi bilan barobar turadigan uchta xo'tikni qo'ldan berdim.

– Nimalar deyapsiz? Bir vaqtda, buning ustiga bir yo'la uchta xo'tikni qanday qilib qo'ldan berib qo'ydingiz? – deb so'radi sartarosh.

– Men yon daftarchani yo'qotib qo'ydim, – dedi Sancho, – unda Dulsineyaga atalgan maktubdan tashqari xo'jayinim yozib bergan xat ham bor edi, ana shu xatni ko'rib, uning jiyani menga uchta xo'tikni berishi kerak edi.

Sancho ularga o'z eshagining yo'qolganini gapirib berdi. Ruhoniyl esa Sanchoning xo'jayini topilgach, uni o'z va'dasining ustidan chiqib, yana bir tilxat yozib berishga, lekin bu gal alohida qog'ozga yozib berishga ko'ndirishga va'da qilib, uni yupatdi. Yon daftarchadagi tilxatning, baribir, hech qanday qonuniyl kuchi yo'q dedi. Shundan keyin Sanchoning ko'ngli joyiga tushdi.

– Dulsineyaga yozilgan maktubning yo‘qolganidan uncha xafa emasman, – dedi u, – men bu maktubni deyarli eslab qolganman va har qanday mirzaga ham yoddan aytib bera olaman.

– Unday bo‘lsa, bizga aytib bering, Sancho, – iltimos qildi sartarosh, – yozib olamiz.

Sancho Pansa boshini qashidi, avval osmonga, keyin yerga qarab oldi, barmog‘ini tishlab turdi-da, nihoyat, og‘zini toqatsizlik bilan poylab turgan tinglovchilarni biroz qiynagach, qichqirdi:

– E, aqlginam qursin, sinor litsensiat! Bu bema‘ni maktubni hozirgina ipidan ignasigacha eslab turgan edim, xuddi ataylab qilgandek, birdaniga xayolimdan ko‘tarildi. Uning: «Mo‘tabar va har kim sinora» deb boshlanganini bilaman, xolos.

– Yanglishyapsiz, shekilli, Sancho, – deb e‘tiroz bildirdi sartarosh, – «har kim» deb yozgan bo‘lishi mumkin emas. Maktubda yo «haqim» yo «hokim» deb yozilgan bo‘lishi kerak.

– Ha, ha, xuddi shunday, – bunga qo‘shildi Sancho, – esimda bo‘lsa, keyin «qattiqqo‘l va nomashhur sizdek muhtarama go‘zalning qo‘llarini men juldur va uyqusiz o‘paman» deb, yana unga sihat-salomatlik tilagani va nimalardir juda yaxshi bayon qilingan edi, maktubning oxirida esa: «Sizning tobutdan G‘amgin Qiyofa ritsaringiz», degan so‘zlar bor edi.

Bundan ruhoniy bilan sartarosh naq ichaklari uzilguday qotib-qotib kulisharkan, uning xotirasini rosa maqtashdi va maktubni eslab kulish hamda yozib olishlari uchun yana ikki marta takrorlashni iltimos qildilar.

Sancho bir qop har xil loflarni to‘qib, maktubni yana bir necha marta takrorladi. Keyin u o‘z xo‘jayinining barcha qiliqlarini gapirib berdi, o‘zini esa bu yerda choyshabga solib, osmonga uloqtirganlari haqida indamay qo‘ya qoldi. Oxirida, mabodo sinora Tobosolik Dulsineya ko‘ngildagidek javob qaytarsa, xo‘jayini yangi sayohatga chiqajagi hamda, albatta, imperator yoki hech bo‘lmaganda qirollik taxtiga minmoqchiligi – ha, ular o‘zaro ana shunday kelishib olishgandi – agar don Kixotning jasorati va qudrati e‘tiborga olinsa, bunga erishish hech gap emas ekanligi haqida so‘zladi. Bu narsa sodir bo‘lishi bilanoq xo‘jayini

Sancho ni badavlat va bepoyon mulki bo'lgan biror amaldorning vorisi, imperator huzuridagi xonimlardan birortasiga uylantirib qo'yadi (ungacha Sancho tul bo'lib qoladi, albatta, bundan o'zga-cha bo'lishi ham mumkin emas). Bu esa chor atrofi suv bilan o'ralgan orol va orolchalardan ming marta afzal-da. Bularning hammasini Sancho shu qadar beparvolik hamda shu qadar ahmoqona chehra bilan gapirdiki, tinglovchilar yana taajjublanib, bu bechora ham don Kixotning alahlashidan zaharlanib, aqldan ozgan bo'lsa, xo'jayinining telbaligi battar oshibdi-da, deb o'ylanib qoldilar. Ruhoniy bilan satarosh Sancho ni yaxshi umidlaridan hafsalasini pir qilmaslik uchun uning qaynoq so'zlaridan zavqlanganlarini bildirdilar va don Kixotning sihat-salomatligini so'rab, Xudoga sig'inishni maslahat berdilar. Xo'jayinining yepiskoplikka<sup>1</sup> yoki biror katta lavozimga ko'tarilishdan ko'ra imperatorlik taxtiga minish orzusiga osonroq muyassar bo'lishi mumkin, deb qo'shib qo'yishdi. Bunga Sancho shunday javob berdi.

– Sinorlar, bir narsani bilib olmoqchiman, mabodo taqdir o'z ishini chappasiga aylantirib, xo'jayinim imperator emas, balki yepiskop bo'lishni xohlab qolsa, unda jahongashta yepiskoplar o'z qurolbardorlarini nima bilan taqdirlaydilar?

– Odatda, ular o'z qurolbardorlarini, – deb javob berdi ruhoniy, – cherkovning biror serdaromad lavozimi bilan taqdirlab, ruhoniy yoki xo'jalik boshlig'i qilib tayinlaydilar.

– Buning uchun, – deb e'tiroz bildirdi Sancho, – qurolbardor uylanmagan bo'lishi hamda hech bo'lmaganda, ibodat vaqtida xizmat qila bilishi shart-ku, unday bo'lsa, men bechoraning sho'rimga sho'rva to'kildi deyavering! Axir, mening xotanim bor-ku! Buning ustiga alifni tayoq deyman-u, qanday ibodatga yarayman. Xo'jayinimning miyasiga jahongashta ritsarlar kabi hamda ularning izidan borib imperator bo'lish o'rniga yepiskop bo'lish fikri kelib qolsa, unda mening holim nima kechadi?

---

<sup>1</sup> **Yepiskop** (*yunoncha*: episkopos – nozir, nazorat qiluvchi) – pravoslav, katolik, anglikan cherkovlarida oliy martabali ruhoniylardan biri, cherkovga qarashli ma'muriy-hududiy birlik (eparxiya) boshlig'i.

– Kuyinmang, do‘stim Sancho, – dedi sartarosh, – biz xo‘jayiningizdan yepiskop emas, imperator bo‘lishini iltimos qilamiz. Qalbiga ilmdan ko‘ra harbiy ermak yaqin bo‘lgani uchun unga yepiskoplik kulohidan<sup>1</sup> ko‘ra imperatorlik toji ko‘proq yarashadi.

– Men ham shunday deb o‘ylagan edim, – deb javob berdi Sancho, – lekin sizlarga aytib qo‘yay, xo‘jayinimning qo‘lidan hamma narsa ham keladi. Boshimga bir fikr kelib qoldi: Xudoga iltijo qilib, xo‘jayinimni to‘g‘ri yo‘lga solishini tilayman, bu yo‘lda u ham shon-shuhrat qozonsin, ham meni katta-katta sovg‘alar bilan mukofotlasin.

– Siz juda oqilona gapiryapsiz, – dedi ruhoniy, – yaxshi nasroniydek ish tutyapsiz. Endi esa biz xo‘jayiningizni siz aytgandek u berilib ketgan befoyda tavba-tazarrudan tezroq qutultirish chorasini ko‘rishimiz kerak. Buni qay yo‘sinda amalga oshirish kerakligini o‘ylab ko‘rish uchun, yuringlar, karvonsaroyga kiramiz. Buning ustiga ancha kech bo‘lib qoldi, ovqatlanish paytimizdan ham ancha o‘tib ketdi.

Sancho, sizlar kiraveringlar, men sizlarni darvoza oldida kutib turaman, dedi. O‘zining karvonsaroyga nimaga kirgisi kelmayotganini keyin tushuntirib berishini aytdi. Ulardan faqat yeyish uchun biror issiq ovqat, aytganday, Rosinantga suli olib chiqib berishlarini iltimos qildi. Ruhoniy bilan sartarosh qo‘noqxonaga kirishdi-da, bir necha daqiqadan keyin Sanchoga ovqat olib chiqib berishdi, keyin esa o‘zlari bechora idalgoni qanday qilib uyga qaytishga ko‘ndirish kerakligi haqida bosh qotira boshlashdi, chunki uning taqdirida o‘zlarining katta hissalar bor. Nihoyat, ruhoniyning miyasiga bir fikr keldi. Bu don Kixotning ko‘ngliga o‘tiradigan, o‘zlariga ham juda qo‘l keladigan fikr edi: u sartaroshga o‘zining jahongashta malika bo‘lib kiyinib olishini, sartarosh esa uning qurolbardori bo‘lajagini aytdi. Ular shu qiyofada don Kixotning oldiga – tog‘larga jo‘nashadi. Haqoratlangan va bor-yo‘g‘idan mahrum qilingan qiz himoya so‘rab don

---

<sup>1</sup> **Kuloh** (*forscha*: bosh kiyimi, kuloh) – tepa tomoni ingichkalashib chiqqan qalpoq, bosh kiyimi (asosan, qalandar, darveshlar kiyadigan uchli qalpoq).

Kixotga murojaat etadi. Qiz ritsarga yalinib-yolvorib, uni tahqirlagan yovuz sehrgardan o'ch olib berish uchun don Kixotni qayerga olib borsa, o'sha yerga borishini so'raydi. Bundan tashqari u to don Kixot o'zining ana shu iltimosini bajo keltirmagunicha yuzidan niqobini olmaslik hamda savollariga javob bermaslikka ijozat berishini iltimos qiladi. Don Kixotning bu tuzoqqa ilinishiga va shu yo'l bilan uni o'z vataniga qaytarib olib ketishga muvaffaq bo'lishlariga qat'iy ishonardi. Ruhoniy u yerga borgandan keyin esa uning g'aroyib telbaligining oldini oladigan birorta dori-darmon topish haqida o'ylashib ko'radilar.

## YIGIRMA BIRINCHI BOB

### DON KIXOTNING O'ZINI O'ZI MAJBUR ETGAN TAVBA-TAZARRUDAN QANDAY XALOS BO'LGANI

Ruhoniyning rejasi sartaroshga yoqib tushdi, ular shu zahotiy oq ishga kirishishdi. Karvonsaroy bekasidan bitta yubka bilan ro'mol so'rab olishdi, garovga esa ruhoniyning yangi libosini qoldirishdi. Sartarosh o'ziga qoramtir buqa dumidan uzun soqol yasab oldi. Bu dum qo'noqxona devorida ilig'liq turar, xo'jayin esa unga tarog'ini qadab qo'yishga odatlanib qolgandi, beka ularga bu kiyim-bosh nimaga kerakligini so'rab qoldi. Ruhoniy unga don Kixotning telbaligini, uyidan qochib ketganligini, sarguzasht qidirib uzoq vaqtlardan beri sanqib yurganini aytib berdi.

– Hozir bechora idalgo, – deb tamom qildi ruhoniy o'z hikoyasini, – sizning qo'noqxonangizga yaqin bo'lgan tog' oralig'ida darbadar bo'lib yuribdi. Biz uni o'sha yerdan aldab uyiga olib ketishga qaror berdik. Buning uchun esa ikkalamizdan birimiz ayol kishi bo'lib kiyinib olishimiz kerak.

Bu o'z uylarida malham tayyorlagan o'sha jinni ekanini xo'jayini bilan beka darhol payqab olishdi. Ular o'z qo'noqxonalarida sodir bo'lgan hamma voqeani, gap orasida ritsarning qurolbardorini choyshabga solib, osmonga uloqtirishganini ham

ruhoniya so'zlab berishdi. Ruhoniy bilan sartarosh Sanchoning zo'r berib yashirgan sirini ana shundan bilib olishdi. Ularning rejasini astoydil ma'qullagan beka ruhoniyni boplab yasantirdi: unga eni kaftdek keladigan qora duxobadan yo'l-yo'l gul solib tikilgan hamda oppoq ipak shokilali ko'k duxoba belbog' tang'ib qo'yilgan movut yubkani kiygizdi. Ruhoniy ro'mol o'rniga o'zining tungi qalpog'ini bostirib kiydi-da, peshonasini bir parcha qora shoyi bilan tang'ib, yana bir parcha qora shoyini yo-noqlari bilan soqolini berkitadigan ajoyib niqob qilib tutib oldi. So'ngra u kattakon bir shlyapani bostirib kiyib oldiki, bu shlyapa hatto soyabon o'rnini bosa olardi. Keyin plashga o'ralib, xachirga xotinchasiga mindi. Qora soqoli beliga tushgan sartarosh esa ikkinchi xachirga mindi. Ular hamma bilan, o'ylagan ishlari muvaffaqiyatli tugashi uchun tasbehning har donasini o'g'irganda bittadan duo o'qishga va'da bergan xushfe'l Maritornes bilan ham xayrlashdilar. Balki, xudo bu gunohkor ayolning nidosini eshitar hamda o'zlarining qiyin va chinakamiga nasroniylik ishlarida ularga madad qo'lini cho'zar. Biroq ular karvonsaroydan chiqar-chiqmas, ruhoniyning xayoliga bunday kiyim kiyib ahmoqona ish qilayotgani keldi, chunki ruhoniy odamga eng yaxshi ezgu niyat yo'lida ham xotin kishi bo'lib kiyinishi munosib emas. U buni sartaroshga aytdi va rollarini almashishni iltimos qildi, chunki sartaroshning tahqirlangan qiz, ruhoniyning esa qurolbardor bo'lgani durust: ana shunda, har holda, u o'z mansabini kamroq kamsitgan bo'ladi, ular bu haqda bahslashisharkan, oldilariga Sancho Pansa yetib keldi, ularning qanday kiyinib olganini ko'rib, xaxolab yubordi. Bu kulgi ruhoniya qattiq tegdi, sartaroshga rollarini almashtirish zarurligini yanada zo'r berib isbotlay boshladi. Nihoyat, sartarosh bunga rozi bo'ldi, lekin don Kixot yashiringan daraga yetib bormagunlaricha kiyimini o'zgartirmasligini aytdi. Shundan keyin ruhoniy sartaroshga don Kixotni ergashtirib ketish uchun o'zini qanday tutishi zarurligini mukammal tushuntira ketdi.

Bu gaplar axiyri Sanchoni zeriktirdi. U oldinroq borib don Kixotni topib turishni taklif qildi. Mug'ambir qurolbardor Dulsineyaga maktub eson-omon olib borib berilganini, u esa, iltifot

qilmay qo'yishimdan cho'chisa, ritsar shu ondayoq mening huzurimga kelsin deb, o'zi, ya'ni Sancho orqali buyurib yuborganini xo'jayiniga aytib, uni aldashni ko'zlagan edi.

– Don Kixotni yashiringan joyidan chiqishga ko'ndirish uchun, – deb ilova qildi Sancho, – balki, shuning o'zi yetarlidir. Unda, muhtaram janoblari, o'zlarini qiynab o'tirmaydilar.

Do'stlarimizga bu maslahat juda ma'qul tushdi; ular Sancho'ning taklifiga sira ikkilanib o'tirmay rozi bo'lishdi. O'zlari sal kechroq yo'lga tushishlarini va u butalar shox-shabbasini sohib kelgan darada to'xtashlarini Sancho bilan kelishib olishdi. Ular yetib borgunlaricha Sancho don Kixotni qidirib topishi va u bilan gaplashib olgach, ruhoniy va usta Nikolasning yo'lga chiqib turishi kerak. Sancho o'z hamrohlariga qaysi yo'ldan borish ma'qulligini batafsil tushuntirgach, otini yo'rg'alatib ketdi, do'stlarimiz esa qolgan vaqtda harakat rejasini yana bir marta aniq muhokama qilib olish uchun karvonsaroyga qaytishdi.

Shu orada ruhoniyning qayta kiyinish voqeasi qo'noqxonada turgan hamma odamning e'tiborini tortdi. Ular orasida tasodifan bir chiroyli juvon ham bor edi, u yo'l-yo'lakay qo'noqxonaga tushgan edi. Beka unga ruhoniyning rejasi haqida bilganlarini aytib berdi, bu sarguzashtga g'oyat qiziqib qolgan sinora ana shu reja bilan aniq tanishib olmoqchi bo'ldi.

Do'stlarimiz unga sho'rlik idalga tarixini bajonidil hikoya qilib berishdi. Ayni vaqtda ular ritsarimizni rostgo'y, oqko'ngil va jasur odam sifatida rosa maqtashdi. Doroteya ismli bu yoshgina yo'lovchi juvonga bu hikoya juda ta'sir qildi. Uning o'zi ham ritsarlik romanlarini sevar, Amadis bilan Rolandning jasoratlariga qoyil qolardi. Shuning uchun ham sho'rlik don Kixot voqeasi uning yuragiga shunday borib qadaldiki, natijada do'stlarimizga ularning oliyjanob ishlarida yordam berishga qat'iy ishtiyoq bildirdi.

– Ishonamanki, – deb ilova qildi u ruhoniyni kulib turib murojaat qilar ekan, – tahqirlangan ayol rolini men sizdan yaxshiroq o'ynasam kerak. Buning ustiga qiz bola jahongashta ritsardan madad so'raganida, qanday gapirishini men juda yaxshi bilaman.



Doroteya hozir shaylanib chiqishini aytdi-da, bekaning xonasiga kirib ketdi. Bir necha daqiqadan keyin u egniga qimmatbaho matodan tikilgan chiroyli ko'ylak, ajoyib ko'm-ko'k gazlamadan mantilya<sup>1</sup> kiyib, bo'yniga marjon, qo'llariga bilaguzuklar taqib, sayohatchilarimiz huzuriga chiqib keldi. Uning latofati va go'zalligidan xijolatga qolgan ruhoniy bilan sartarosh hayallab o'tirmay, shu tobdayoq Sancho Pansa bilan uchrashiladigan joyga jo'nashga qaror berishdi.

Ertasiga ular belgilangan joyga yetib kelishdi hamda Sanchoni kutish maqsadida qoyalar bilan daraxtlarning huzurbaxsh soyasida sokin soy oqib o'tadigan ko'katzorga qo'nishdi. Ancha vaqt kutishga to'g'ri keldi. Ruhoniy bilan sartarosh esa, Sancho nega bunchalik ushlanib qoldi-ya, deb tashvishlana boshlashdi. Nihoyat, ular qandaydir qattiq qichqiriqni eshitib, Sanchoning ovozini tanishdi. Ruhoniy Sanchoning istiqboliga yurdi; uning tashvishlanib don Kixot qayerda, deb bergan savoliga sodiq qurolbardor o'z xo'jayinini bitta ko'ylakda, somunday sarg'ayib, tinka-madori qurib, ochlikdan o'lay deb qolgan, o'z malikasi Dulsineyani sog'inib, oh tortib yotgan holda topganini aytdi.

– Meni ko'rib sinor ritsar juda xursand bo'lib ketdi, – deb so'zida davom etdi Sancho, – lekin Dulsineya unga u yerlarni tark etib, tezda Tobosoga yo'l olishga buyruq berdi, deganimda u go'zaliga munosib jasorat ko'rsatmagunicha uning ajoyib ko'zlariga ko'rinishga betlay olmasligini aytdi. Agar ahvol shu tariqa davom etaversa, – deb ilova qildi Sancho Pansa, – xo'jayinimning sira ham imperator bo'la olmasligi xavfi tug'iladi, mening esa yuksak unvon bilan boylikka bo'lgan umidlarim puchga chiqadi. Shuning uchun ham uni bu xilvat joydan olib chiqib ketish yo'lida biror vosita o'ylab topish shart.

Ruhoniy, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, don Kixotni bu yerdan olib ketamiz, deb Sanchoni yupatishga kirishdi.

Ruhoniy bilan Sancho Pansa shu ko'yi gaplasha-gaplasha

<sup>1</sup> Mantilya – 1) ispan ayollarining yelkaga tashlab yuriladigan to'r ro'moli; 2) ayollarning yelkaga ilib yuriladigan yengsiz nimcha (asarda shu ma'noda).

sartarosh bilan Doroteya qolgan joyga yetib kelishdi. Doroteyaning beqiyos chiroyidan hamda to'kis libosidan hayratlangan Sancho bu go'zal sinoraning kimligini, bu odam oyog'i yetmagan joylarda nima qilib yurganini ruhoniyaning surishtirishi boshladi.

– Bo'tam Sancho, – deb javob berdi ruhoniya, – bu ayol buyuk Mikomikon qirolligining valiahd malikasi, u o'zini haqoratlagan yovuz devdan himoya qilishni so'rab, sizning xojayiningizni izlab kelgan. Oqko'ngil ritsar don Kixotning dovrug'ini eshitib, uni izlab Gvineyadan kelgan.

– Mana bunisi qoyil! Juda soz, – xitob qildi Sancho Pansa, – agar xojayinim muhtaram janoblari aytayotgan o'sha yovuz devni o'ldirib, yomonlikni daf etib, xonimning alamini olsa, yana ham soz bo'ladi. Agar o'sha maxluq sharpa bo'lmasa, don Kixot uni birinchi olishuvdayoq o'ldirib qo'ysa kerak, chunki xojayinim sharpalar ustidan hokimlik qilishga ojiz. Lekin siz marhamatli janoblaridan bir iltimosim bor, sinor litsensiat, xojayinimning boshiga tag'in yepiskop bo'lish niyati kelmasaydi degan xavotirdaman, shuning uchun siz, muhtaram janoblari, unga shu malikaga tezroq uylan, deb maslahat bering. Ana o'shanda uni hech kim yepiskoplik mansabiga o'tkazolmaydi, u ham osonlik bilan qirollik taxtiga ega bo'ladi, mening orzularim ham ushaladi. Men hammasini yaxshilab o'ylab chiqdim va mabodo xojayinim yepiskop bo'lsa, bu mening katta kulfatim bo'ladi, degan qarorga keldim, chunki men cherkov xizmatiga yaramaydigan odamman, vaholanki, uylanganman, bola-chaqam bor. Xotinimni qo'yishim mumkin, albatta, lekin buning uchun ko'p vaqt ovora-yu sargardon bo'lish kerak. Shu sababli agar xojayinim tezroq ana shu sinoraga uylansa, bag'oyat ma'qul ish qilgan bo'lardi. U muhtaram xonimning ismi shariflaridan bexabarligi tufayli qanday ulug'lashni ham bilmayman.

– Uni, – deb javob berdi ruhoniya, – o'z qirolligi nomi bilan qirolicha Mikomikon deb atashadi.

– Tushunaman, – dedi Sancho, – nomlari o'z tug'ilgan joylari bilan atalgan odamlarni ko'p uchratganman, masalan, Pedro de Alkala, Xuan de Ubeda, Diego de Valyadolid, Gvineyada esa qirolichalarning o'z qirolliklari nomi bilan atalsalar kerak, u

yerda odat shunaqadir, balki.

– Ehtimol, shundaydir, – dedi ruhoniy, – xo‘jayiningizni uylantirishga kelganda esa, uni qirolichaga uylanishga ko‘ndirish uchun qo‘limdan nimaiki kelsa, hammasini qilaman.

Sancho ruhoniyni va‘dasidan to‘la qanoatlandi, ruhoniy esa Sanchoning soddadilligidan, buning ustiga xo‘jayining telbaligi unga shu qadar tez yuqqanidan ajablanmay qololmadi. Bu orada Doroteya ruhoniyni xachiriga minib oldi, sartarosh esa buqa dumidan qilingan soqolni bog‘lab oldi: keyin Sanchoga ritsarning oldida ruhoniy va usta Nikolas bilan uchrashganini tilga olishni qat‘iy man etib, undan don Kixotning oldiga boshlab borishni so‘rashdi.

Sancho indamaslikka tantanali va‘da berdi va Doroteya o‘z hamrohlari bilan yo‘lga tushdi. Ular chorak kam bir mil ham yurishmasdanoq, qoyalar orasidagi allaqachon kiyinib olgan, lekin qurolsiz ritsarimizni ko‘rib qolishdi. Doroteya Sancho Pansadan bu odam uning xo‘jayini ekanini bilishi bilanoq xachirini don Kixot tomonga dadil haydadi, soqolli sartarosh ham uning ketidan boraverdi. Ular don Kixotning oldiga yetib borishganida qurolbardor xachirdan tushib, Doroteyaga tushishga yordam berish maqsadida unga yaqin bordi. Biroq Doroteyaning o‘zi xachirdan epchillik bilan sakrab tushdi-da, don Kixotning oldiga borib tiz cho‘kdi, bundan juda hayratlangan ritsar uni yerdan ko‘tarmoqchi bo‘ldi, lekin u o‘rnidan turmay ritsarga shunday dedi:

– O, dovyurak va qudratli ritsar, saxovatingiz hamda mehribonligingiz bilan menday tahqirlangan, dilxasta bir malakka katta tayanch bo‘ladigan shafqat ko‘rsatib, meni baxtiyor qilmaguningizcha o‘rnimdan turmayman. Basharti jangovar shon-shavkatingiz so‘nmas shuhratingizdan qolishmasligi rost bo‘lsa, mashhur nomingiz dovrug‘iga maftun bo‘lib uzoq mamlakatlardan kelgan va boshiga tushgan musibatlardan xalos etishingizni sizdan o‘tinib so‘rayotgan bir baxtiqaro mazlumaga yordam qo‘lingizni cho‘zishga majbursiz.

– Ey, go‘zal xonim! – dedi don Kixot. – Sizni yerdan ko‘tarib olishimga rozi bo‘lmaguningizcha, men sizga javob ham

qaytarmayman, gapingizga quloq ham solmayman.

– Yo‘q, sinor, – deb javob berdi soxta malika, – menga homiy bo‘lishga va‘da bermaguningizcha men o‘rnimdan qo‘zg‘almayman.

– Go‘zal xonim, buning bir sharti bor, agar sizga beradigan yordamim va homiyligim mening qirolimga, mening vatanimga, mening qalbim bilan ozodligim kalitiga ega bo‘lgan malikaga biron ziyon-zahmat yetkazmasagina, shunday qilaman deb sizga ritsarchasiga va‘da bera olaman.

– Qasamyod etamanki, bundan ularga hech qanday ziyon yetmaydi, – deb javob berdi Doroteya.

Shu vaqt Sancho o‘z xo‘jayinining yoniga bordi-da, qulog‘iga shivirladi:

– Muhtaram janoblari unga o‘z homiyliklari va yordamlarini bermalol va‘da qilib yuboraverishlari mumkin, chunki bu sariq chaqaga ham arzimaydigan narsa: atigi bitta devni o‘ldirish kerak, xolos, xuddi shunday qilishingizni so‘rayotgan xonim esa, oliyanob malika Mikomikon, Habashistondagi buyuk Mikomikon qirolligining qirolichasi.

– Uning kimligi menga baribir: vijdonim hamda ritsarlik ordenim qonuni nimani buyursa, men har qanday odamga shafqat ko‘rsatishga tayyorman.

Keyin Doroteyaga murojaat qilib qo‘shib qo‘ydi:

– O‘rningizdan turing, ey go‘zal xonim, mendan nimani tilasangiz, hammasini bajo keltirishga so‘z beraman.

– Unday bo‘lsa, ey muruvvatli ritsar, – dedi o‘rnidan tura-yotib soxta malika, – zudlik bilan mening uzoq vatanimga jo‘nab ketishingizni so‘rayman, marhamatli janob. Bundan tashqari, Olloh taoloning amri hamda insoniyat qonun-qoidalariga xilof ravishda mening qirolligimni bosib olgan sotqindan o‘ch olmaguningizcha, hech qanday ish va sarguzashtlarga qo‘l urmasligingiz to‘g‘risida menga va‘da berishingiz kerak.

– Va‘da beraman, – dedi don Kixot tantanali ravishda. – Sinora, shu paytdan boshlab siz o‘zingizni ezayotgan alamlarni uloqtirib tashlashingiz hamda bo‘shashib ketgan umidlaringizga kuch va mador bag‘ishlashingiz mumkin, chunki Olloh taoloning

marhamati hamda mening qilichimning yordamida tez orada yana o'zingizni qadimiy va buyuk qirolligingiz taxtida ko'rasiz, uni sizdan tortib olishga jur'at etgan sotqinlar holiga maymunlar yig'laydi. Shunday qilib, tezroq ishga kirishish kerak, chunki sustkashlik xavflidir, deydilar.

Doroteya don Kixotning qo'lini o'pmoqchi edi, lekin u boadab oshiqlardan bo'lgani uchun buni rad etdi. Don Kixot nazokat va tavoze bilan egildi-da, Doroteyani o'rnidan turg'azib, o'zi uning qo'lidan o'pdi. Keyin Sanchoga Rosinantning ayilini tortib bog'lab, yarog'-aslahalarini keltirishni buyurdi. Sancho daraxtga ilib qo'yilgan yarog'-aslahalarni xuddi o'ljaday tortib oldi-da, birpasda xo'jayinini qurollantirdi. Shunda ritsarimiz tantana bilan gap tashladi.

— Shunday qilib, Xudo haqqi, bu baxtsiz malikani himoya qilishga kirishamiz.

Sartarosh esa kulgisini arang bosib, bir qo'li bilan soqolini siypagancha hamon tiz cho'kib turardi. Don Kixotning yo'lga tushishga shoshilayotganini ko'rganidan keyin u o'rnidan turdi-da, soxta qirolichasining xachirga minishiga don Kixot bilan birga ko'maklashdi. Shundan keyin ritsarimiz Rosinantga, sartarosh esa o'z xachiriga mindi. Yolg'iz Sanchogina piyoda yurdi.

Shu onda u beixtiyor o'z eshagini esladi. Ammo sodiq o'rtog'ini hademay unutdi. U yaqin orada xo'jayinim Mikomikon qiroli bo'ladi, meni biror viloyatning hokimi qilib tayinlasa kerak degan o'y bilan o'zini yupatardi. Uni mazkur podsholikning negrlar mamlakatida ekanligi va kelgusida qora tanlilargina unga vassal bo'lishi ranjitardi. Lekin u quyidagi fikrlar bilan o'ziga o'zi taskin berardi: «Vassallarim negrlar bo'lsa nima qilibdi, shunga ham tashvishmi? Hech bo'lmaganda men ularni kemalarda Ispaniyaga olib kelaman. Ispaniyada hammasini sotib yuboraman, menga naqd pul to'lashadi, ana shundan keyin biror unvon yoki lavozimga erishib, umr bo'yi badavlat yashayman. Bunday qulay ishni qo'ldan berib qo'ymaslikka fahm-farosatim ham, mahoratim ham bor: axir, bor-yo'g'i o'ttiz yoki qirq mingta keladigan negrni sotib yuborish nima ekan. Xudo haqqi, men ularning kattasini ham, kichigini ham bir zumda qo'ldan o'tka-

zaman. Ularning tusi qora kuyadan ham qora bo'lsa bo'lar, ularni birpasda kumush va oltinga aylantiraman. Men ular aytgan ahmoqlardan emasman!» Bu yoqimli o'ylardan mast bo'lgan Sancho piyoda yurishning barcha qiyinchiliklarini unutib yuborgan edi.

Bu manzarani butalar orasidan kuzatib turgan ruhoniylar don Kixot va soxta malika o'z qurolbardori hamda Sancho Pansalar bilan yo'lga tushganlarini ko'rib, ularga o'zining ham qo'shiladigan vaqti kelganini payqadi.

U butalar orasidan chiqdi-da, don Kixotga go'yo uning kimligini eslayotganday tikilib qoldi, so'ngra quchoqlarini keng ochib idalgomizga otildi.

– O, ritsarlar ko'zguisi, oliyjanob vatandoshim, mardonavor lamanchlik don Kixot, mazlumlarning tayanchi va pushtipanohi, jahongashta ritsarlarning guli va shuhrati, – deb xitob qildi u, – men sizni eng baxtli davrda uchratdim!

U shunday deb don Kixotning chap oyog'ini quchoqlab oldi. Don Kixot ham ruhoniylarning gaplari va harakatidan hayron bo'lib, unga jiddiy nigoh tashladi va, nihoyat, tanidi. Bu uchrashuvdan juda ajablangan don Kixot otdan tushishga harakat qilgan edi, lekin ruhoniylar uni ushlab qoldi. Shunda don Kixot gap tashladi:

– Sinor litsensiat, qo'yib yuboring, otdan tushay; sizdek mo'tabar zot piyoda ketayotgan bir paytda mening otda yurishim yaxshi emas.

– Men sira bunga rozi bo'lmayman, – deb javob berdi ruhoniylar, – muhtaram janoblari otdan tushmasinlar. Siz o'zingizning ajoyib qahramonona ishlaringizni mana shu shonli tulporda amalga oshirdingiz. Meni, noshud bir din arbobini esa marhamatli janoblarining hamrohlaridan birortasi o'z xachiriga mingash-tirib olsa, shunga ham xursand bo'laman. O'zimni xuddi tulpor Pegasda yoki mashhur habash Musorakning zebrasida ketayotgan ritsarday his qilaman.

– Men buni o'ylamayman, sinor litsensiat, – deb javob berdi don Kixot, – lekin sinora malika menga bo'lgan muhabbati tufayli o'z qurolbardoriga egarga siz mo'tabar zotni mindirib,

o'zi mingashib olishiga buyruq beradi deb ishonaman.

– Buyruq berishimning hojati yo'q deb o'ylayman, – dedi malika, – mening qurolbardorim shundoq, ham gapga tushundigan odobli odam, din arbobi piyoda qolib, o'zi otda yurishga aslo rozi bo'lmaydi.

– Juda to'g'ri, – deb javob berdi sartarosh.

U shunday deb xachirdan tusharkan, ruhoniyyga minishni taklif qildi, ruhoniy yalintirib o'tirmay, darrov xachirga mindi. Baxtga qarshi, xachir yollangan, buning ustiga hurkovuch bo'lib, sartarosh mingashmoqchi bo'lganida shataloq otaverdi. Xayriyatki, usta Nikolasning ko'kragi yoki kallasiga tepib yubormadi, tepib yuborganida bormi, balki, sartarosh bunaqangi rejani chip-pakka chiqararmidi. Shunda ham qo'rqib ketganidan shartta o'zini chetga olarkan, shoshilganidan qoqilib ketib yerga ag'darildi va shunda yasama soqoli tushib ketdi. Bechora o'zini yo'qotib qo'rganidan nima qilishini bilmay qoldi, qo'llari bilan yuzini berkitib olganча hamma tishimni sindirib yubordi deb dodlayverdi.

Shu orada yo'lda yotgan soqolni ko'rib don Kixot ifodalab bo'lmaydigan darajada hayratga keldi-da, qichqirib yubordi:

– Xudo haqqi, bu mo'jiza-ku! Xachir uning soqolini pichoq bilan kesganday uzib oldi-ya!

Yolg'onlari ochilib qolishi mumkinligini ko'rgan ruhoniy sakrab tushdi-da, sartarosh o'ziga soqol qilib olgan buqa dumini darhol ko'tarib oldi-yu, qo'llari bilan yuzini yashirib yotgan usta Nikolas tomon otildi. Sartaroshning boshini o'zining ko'kragiga qo'yib, allanimalar deb vaysaganча, yana soqolini yopishtirib qo'ydi. Hamrohlariga alohida afsun o'qiganini, shuning uchun hoziroq soqolning yana o'sib chiqajagini aytdi. Keyin chetga o'tib turdi, qurolbardor esa sog'-salomat, beshikast o'rnidan turdi, soqoli ham ko'ksiga tushib turardi. Bundan don Kixot bag'oyat hayratda qoldi va shu ondayoq ana shu afsunni o'ziga ma'lum qilishni ruhoniydan so'radi, chunki uning fikricha, boshqa baxtsizliklar yuz berganda ham mazkur afsun qo'l kelishi mumkin, negaki odamning soqoli yulib olinsa, uning chakkalari, albatta, yara bo'lib qolishi kerak. Vaholanki, malikaning qurolbardori

darhol tuzalib ketdi. Binobarin, bu afsun soch-soqolni o'stirib-gina qolmay, jarohatni ham tuzatar ekan.

– Juda to'g'ri, – deb javob berdi ruhoniy, – bu afsunni sizga aytish – men uchun katta quvonch. Jahongashta ritsarga buning juda katta foydasi tegishi mumkin.

Keyin oralig'i ikki milga yaqin bo'lgan karvonsaroyga yetib borgunlaricha xachirga oldin ruhoniy, keyin boshqalar, xullas, uchovlari navbatma-navbat minadigan bo'lishdi. Shunday qilib, ishlar yana o'z joyiga tushganidan keyin hammalari – don Kixot o'zining Rosinantida, malika bilan ruhoniy xachirlarda, sartarosh bilan Sancho Pansa esa piyoda yo'lga chiqishdi. Don Kixot biroz yo'l yurganidan keyin Doroteyaga shunday dedi:

– Sinora hazrati oliyalari, meni xohlagan tomoningizga boshlang.

Biroq malika hali javob bermasdanoq, litsensiat gap tashladi:

– Siz zoti oliyalari bizni qayerga boshlab borishni lozim ko'rasiz? Mikomikon qirolligiga bo'lsa kerak? To'g'rimi?

Doroteya nima javob berish kerakligini shu zahotiyog payqab oldi.

– Ha, sinor, – dedi malika, – men o'sha qirollikka borishim kerak.

– Modomiki, shunday ekan, – deb davom etdi ruhoniy, – mening qishlog'im orqali o'tishimiz kerak, u yerdan siz zoti oliyalari Kartaxenga jo'nab ketasiz. Kartaxenda orqadan shamol esib, qulay sharoit bo'ldi deguncha kemaga tushishingiz mumkin. Dengizda bo'ron ko'tarilmay tursa, atigi to'qqiz yilgina yo'l bosib, ulug' Meotiy ko'liga yetib borasiz, u yerdan hazrati oliylarining qirolliklariga yuz kunlik yo'l qoladi, chog'i.

– Muhtaram janoblari xato qilyaptilar, – deb javob berdi Doroteya, ob-havo hamma vaqt nobop bo'lsa ham vatanimdan Ispaniyaga yetib olishim uchun atigi ikki yillik yo'l. Shunga qaramay men omon-eson yetib keldim hamda ko'rmoqchi bo'lgan odamimni – sinor don Kixotni ko'rdim. Ispaniya sohiliga oyog'im tegar-tegmas uning dovrug'i qulog'imga chalinib qoldi va qalbimda ana shu shavkatli ritsarni topish, uning muruv-



vatidan bahramand bo'lish, o'zinning adolatli ishimni uning yengilmas qo'liga topshirish ishtiyoqi tug'ildi.

– Meni maqtashni bas qiling, – uning gapini bo'ldi don Kixot, – nega desangiz, men har qanday xushomadni yomon ko'raman, maqtovlaringizning mutlaqo samimiyligiga sira shubham bo'lmasa-da, sinoram, har qalay, kamtarin kaminangiz sha'niga haqoratday bo'lib tuyuladi. Sizga aytadigan gapim shuki, men qanchalik jasorat ko'rsatishga qodir bo'lmay, hammasini xizmatigingizga bag'ishlayman, siz uchun hatto jonimdan kechib, o'zimni qurbon qilishga ham tayyorman. Lekin buning o'z vaqti keladi, hozir esa, sinor litsensiat, yengil-elpi, buning ustiga xizmatkorsiz bir o'zingiz bu yerlarga qanday qilib qoldingiz, ana shuni gapirib bering, bular hammasi meni juda ajablantirmoqda.

– Buni sizga qisqacha so'zlab beraman, – deb gap boshladi ruhoniy. – Siz muhtaram janoblariga shu narsa ma'lum bo'lsinkim, sinor don Kixot, bundan ko'p yillar muqaddam Amerikaga ko'chib borib qolgan bir qarindoshim yuborgan pulni olish uchun umumiy do'stimiz sartarosh, usta Nikolas bilan Sevilyaga jo'nadik. Oladigan pulimiz oz emasdi! Roppa-rosa oltmish ming pezo<sup>1</sup> – bu chakana emas. Xo'sh, kecha biz ana shu yo'llardan o'tib borayotgan edik, bizga to'rt qaroqchi hamla qilib, hamma narsamizni bitta qo'ymay shilib olishdi. Shu atrofda yashaydigan odamlarning gapiga qaraganda mazkur hodisani eng g'alati tomoni shuki, surgun qilingan bu qaroqchilar shu yaqin orada ozod qilib yuborilgan ekan. Ovozlariga qaraganda, komissar bilan qo'riqchilarning qarshiligiga qaramay, ularni qandaydir bir dovyurak botir bo'shatib yuborgan emish. Bu odam yo jinni, yo toshbag'ir va vijdotsiz, qaroqchilarning o'ziday muttaha bir odam ekanligiga hech shubha yo'q. Axir, o'zingiz o'ylab ko'ring-a, muhtaram janoblari, bu bilan u bo'rini qo'yga, tulkini tovuqqa yoki pashshani asalga qo'yib yuborganday ish tutgan. Aftidan, qirolning dono buyrug'ini buzganidan keyin, u adolat sudini haqorat qilishga va o'zining qonuniy janobi qirolga qarshi

<sup>1</sup> Pezo – bahosi ikki so'mlik oltin pulga yaqin turgan ispan tangasi.

isyon ko'tarishga jazm qilgan: chamasi, u galeralarni matros-larsiz qoldirgisi hamda bir necha yilki dam olayotgan Santa Ermandadni ishga solgisi kelib qolgan. Xullas, u shunday ishlar-ni qilganki, bundan ruhi iztirobda, tanasi azobda qoladi.

Shuni aytish kerakki, Sancho o'z xo'jayinining surgun qilinganlar orasida boshidan kechirgan sarguzashtini ruhoni-y bilan sarta-roshga allaqachon aytib bergan edi. Shuning uchun ham ruhoni-y o'z hikoyasi don Kixotga qanday ta'sir qilishini ko'rish uchun qaroqchilar haqidagi bu voqeani to'qigan edi. Don Kixot esa ruhoni-yning har so'zini eshitganda rangi oqarib-bo'zarib turdi-yu, lekin bu dovrug'i ketgan talonchilarni o'zi bo'shatib yuborganini aytishga jazm qilolmadi.

– Bizni talaganlar ana o'shalar, – deb so'zini tamomladi ruhoni-y, – ularni munosib jazodan yashirganni shafqatli tangri-niing o'zi kechirsin.

## YIGIRMA IKKINCHI BOB

### SOHIBJAMOL DOROTEYANING DONOLIGI VA SANCHO PANSANING ESHAGI TOPILGANI

Ruhoni-y gapini tugatmasdanoq Sancho xitob qildi:

– Bu jasoratni mening xo'jayinim ko'rsatdi, sinor litsen-siat, chin so'zim. Bu ishga qo'l urishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish kerak, deb qancha aytdim! To'g'ri emasmi, sinor? Yovuz qilmishlari uchun eshkakchilikka badarg'a qilingan jinoyat-chilarni bo'shatib yuborish og'ir gunoh ekanligini sizga aytma-ganmidim?

– Tentak! – dedi shu payt don Kixot. – O'z yo'lida uchragan darbadar va ezilgan kishilar ayblimi yo yo'qmi, buni tekshirib o'tirish jahongashta ritsarlarga yarashmaydi. Biz baxt-sizlarning jinoyatiga emas, tortayotgan azob-uqubatlariga e'tibor beramiz. Men munchoq yoki tasbeh donalari ipga terilganday zanjirlarga bog'lab qo'yilgan uqubatdagi kishilar bilan to'qnash-dim va vijdonim buyurganicha yo'l tutdim. Bu yog'ini tangri-niing

hukmiga havola qildim. Xatti-harakatim kimga nomaqbul tuyulsa, demak, u ritsarlik nimaligini mutlaqo bilmaydi. Men buni istagan kishiga qilichimning qudrati bilan isbot qila olaman. Biroq bundan muhtaram sinor litsensiat mustasnolar, u kishining ruhoniylig martabalari oldida bo'yin egaman.

U shunday deb, oyog'ini uzangiga tiradi, sartarosh jomi o'rniga yana kiyit olgan dubulg'asini peshonasiga surdi, chunki bu Mambrinning mashhur dubulg'asi katorgachilar tomonidan yaroqsiz holga keltirilgan, hozir esa tuzatishga muhtoj bo'lib, egarga ilig'lik turardi.

Don Kixotning hayajonlanganini ko'rgan, uning yana birorta ko'ngilsiz hodisani boshlashdan xavfsiragan ziyrak va hozirjavob qiz Doroteya ranjigan ritsarni tinchlantirishga urindi:

– Sinor, menga bergan qasamingiz yodingizda bo'lsin. Siz mening uchun o'ch olmasdan turib hech qanday sarguzasht-larga bosh qo'shmaslikka va'da bergansiz. G'azabingizni bosing. Sizni ishontirib aytamanki, katorgachilar yengilmas qulingiz tufayli ozod bo'lganini sinor litsensiat bilganda edi, u siz muhtaram zotga biror yomon so'z aytishdan oldin tilini tishlab qolardi.

– Ont ichib aytamanki, bu haq gap, – ma'qulladi ruhoniy, – bundan ko'ra men mo'ylovimni bitta-bitta yulganim ma'qul edi.

– Men gapni bas qilaman, sinoram, – dedi don Kixot, – qalbimda qaynab turgan adolatli g'azabni ham bosaman. O'z va'damning ustidan chiqmagunimcha tinch, xotirjam yuraman. Yaxshi niyatlarim evaziga, sizdan o'tinib so'rayman, agar, malol kelmasa, mening haqqoniy hamda dahshatli qasamim kimning boshiga tushishini, sizni kim xafa qilganini aytib bersangiz.

– Hammasini bajonidil aytib boraman, – dedi Doroteya, – faqat boshimga tushgan kulfat va ofatlarni eshitish sizni zeriktirib qo'ymasa deb qo'rqaman.

– Zeriktirmaydi, sinoram, – javob qildi don Kixot.

Doroteya uning gapiga javoban:

– Unday bo'lsa, quloq solinglar, sinorlar, – dedi.

U shu so'zlarni aytishi bilanoq ruhoniy bilan sartarosh do-

no Doroteya qanday narsalarni to'qirkan deb unga yaqinroq kelishdi; Sancho ham darhol ularga ergashdi. U qizning boshiga qanday kulfatlar tushganini tezroq bilishga qiziqardi, chunki u ham don Kixot singari qizning aytganlari sof haqiqatligiga ishonardi. Doroteya esa egarga qulayroq o'tirib olib, shunday hikoya boshladi:

– Avvalo, hammangizga ma'lum bo'lgaykim, sinorlar, ismim...

Shu yerda u duduqlanib qoldi, chunki ruhoniy o'ziga nima ism qo'rganini esidan chiqarib yuborgandi. Ruhoniy gap nimaligini darhol fahmlab, uni xijolatdan chiqarishga shoshildi.

– Hazrati oliylari, o'z kulfatlaringizni eslab bunchalik xijolatpazlikka tushib qolishingiz ajablanarli ish emas, – dedi u. – Kulfat kimning boshiga tushsa, uning xotirasini o'tmashtiradi. Kishilar ko'pincha boshlariga baxtsizlik tushganda sizga o'xshab o'z ismlarini ham unutib qo'yadilar. Siz ismingiz malika Mikomikon hamda ulug' Mikomikon qirolligining qonuniy vorisasi ekanligingizni unutib qo'yganga o'xshaysiz. Biroq men esga solishim bilan siz hazrati oliylari bizga aytmoqchi bo'lgan gaplaringizni faromush xotiringizda yana tiklagaysiz deb ishonaman.

– Juda to'g'ri, – dedi qiz. – Ishonamanki, bu yog'ini eslatmasangiz ham, gapimdan adashmay haqiqiy sarguzashtimni hikoya qilib beraman. Qirolni, ya'ni otamni Donishmand Tinakrio deyishardi, chunki u afsungarlik bilimini suvdek bilardi. Afsun unga onam – qirolicha Xaramilya otamdan ilgari olamdan o'tishini, uning vafotidan so'ng o'zi ham ko'z yumishimni, mening esa yetim bo'lib qolishimni ma'lum qildi. Bu mudhish bashorat tashvishga solardi: u mamlakatimizning yonginasida, katta orolda Yovuzko'z Pandafilando ismli dev yashashini bilardi. U o'zini g'oyatda dahshatli qilib ko'rsatish niyatida atayin ko'zini olaytirib, o'qrayib boqardi, shuning uchun ham uni yovuzko'z deb atashardi. Odam o'zining sehrli bilimi bilan men yetim qolganim haqidagi xabar devga yetgan hamono katta qo'shin tortib qirolligimizga bostirib kirishi, uni egallashini bilib oldi. Bu ofat, vayrongarchilikdan devga turmushga chiqsamgina, qutulish mumkin ekan. Lekin otam mening bunga aslo rozi

bo'lmaligimga shubha qilmagan. Bu borada zarracha yanglishmagandi u; bu jirkanch maxluq bilan bo'ladigan nikoh fikrining o'ziyoq meni dahshatga solishi kunday ravshan edi. Keyinroq otam, mabodo Pandafilando hujum qilib qolguday bo'lsa, qarshilik ko'rsatmasligimni ogohlantirdi. Bu dev shunchalik kuchliki, unga hech qanaqa qo'shin bas kelolmaydi. «Saxovatli, sadoqatli fuqarolarimizni qirilishdan saqlab qolishning birdan bir yo'li, – degan edi otam, – qirollikni ixtiyoriy ravishda tashlab, madad izlab Ispaniyaga ketishdir». Men u yerda o'sha vaqtga borib dong'i dunyoga taraladigan jahongashta ritsarni topishim lozim ekan. Bu ritsarning ismi don Ason yoki don Xigot bo'lib, u mening himoyachim, xaloskorim bo'lishi kerak ekan.

– Ehtimol, u don Kixot degandir, – Sancho Pansa qizning so'zini bo'ldi, – yoki boshqacharoq qilib G'amgin Qiyofa ritsar degandir.

– Xuddi shunday, – dedi Doroteya. – Otam yana o'sha ritsarning novcha ozg'inligini, o'ng yelkasining pastrog'ida xoli borligini ham aytgan edi.

Buni eshitgan don Kixot qurolbardoriga:

– Bu yoqqa kel, birodar Sancho, yechinishga ko'maklash, donishmand qirol aytgan ritsar chindan ham o'zim ekanligimga ishonch hosil qilmoqchiman.

– Muhtaram janoblari yechinib nima qiladilar? – so'radi Doroteya.

– Otangiz aytgan o'sha xolim bor-yo'qligini ko'rmoqchiman, – javob qildi don Kixot.

– Buning uchun yechinishning hojati yo'q, – dedi Sancho, – muhtaram janoblarining yelkalarining qoq o'rtasida xuddi o'shanaqa xol borligini aniq bilaman: bu – mardlik nishonasi.

– Shuning o'zi kifoya, – dedi Doroteya, – xolingiz yelkangizdami yo bo'yningizdami – buning mutlaqo ahamiyati yo'q; muhimi – u bor, qayeringizda bo'lsa ham, baribir, tananing hamma yog'i bir xil. Saxovatli otam bashoratining to'g'riligiga shubham yo'q, sinor don Kixotga murojaat qilib xato qilmadim, otam ham xuddi shu kishini nazarda tutgan. Uning dong'i butun Ispaniyaga yoyilishi ham bejiz emas. Kemadan Osunaga tushma-

simdanoq uning jasorati haqidagi gaplarni eshitdim, yuragim o'sha zahotiyoq mening xaloskorim, himoyachim shu kishi ekanligini sezdi.

– Mening sinoram, Osuna dengiz gavani emas-ku, qanday qilib u yerga kemadan tushdingiz? – deb so'radi don Kixot.

Doroteya hali javob qaytarmasdanoq gapga ruhoniy aralashdi:

– Sinora malika siz muhtaram zotning nomlarini birinchi marotaba eshitgan joyi Osuna ekanligini aytmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak, o'zlari Malagada kemadan tushganlar.

– Xuddi shunday demoqchi edim, – ma'qulladi Doroteya.

– Unday bo'lsa, tushunarli, – dedi ruhoniy. – Xo'sh, gapingizda davom etavering, hazrati oliyalari.

– Boshqa nima ham derdim, – dedi Doroteya, – bundan tashqari, taqdir menga rahm qilib, sinor don Kixotni topib oldim. Itifot hamda marhamatliligi tufayli menga yordam berishga rozi bo'ldi. U yovuzko'z Pandafilando degan devga qarshi kurashishga va'da berdi va uning o'sha yovuz maxluqni yengib, qonunsiz o'g'irlangan osoyishtaligimni yana qaytarib berishiga shubham yo'q. Bu ishlar taqdiri azalda bitilganidek, otam Donishmand Tinakrio bashorat qilganday amalga oshishi kerak. Bundan tashqari, otamning yunon hamda xaldey tillarida yozilgan yorliqlarida shunday deyilgan: agar bashoratnomada nomi zikr qilingan ritsar devning kallasini uzib, menga uylanishni istasa, darhol, hech qanday gap-so'zsiz uning qonuniy xotini bo'lishim hamda o'z taqdirim bilan birgalikda qirollikni uning hukmronligiga topshirishim lozim.

– Mana bu gapga nima deysan, do'stim Sancho? – xitob qildi don Kixot. – Nimalar gapirilayotganini eshityapsanmi? Senga xuddi shu gaplarni aytmaganmidim? Mana, hukmronlik qiladigan qirolligimiz ham bor.

– Xudo haqqi, to'g'ri! – dedi Sancho. – O'sha sinor Panfilandoning bo'ynini uzib, malikaga uylanmaslik tentaklikning o'zginasi-ku!

Shu so'zlarni aytgach, sevinchi ichiga sig'may ikki marta ko'kka sakradi, keyin Doroteya mingan xachirning yuganidan

ushlab to'xtatdi-da, uning qo'lini o'pishga yalinib izn so'ray boshladi. Xo'jayinning tentakligi va xizmatkorining laqmaligini ko'rib, kim ham kulmaydi deysiz. Doroteya unga qo'lini cho'zdi, qirollikni boshqara boshlashi bilanoq, uni katta amaldor etib tayinlashga va'da berdi. Sancho chiroyli so'zlar bilan shu qadar minnatdorchilik bildira boshladiki, atrofdagilar yana kulib yuborishdi.

– Kechmishlarim ana shunaqa, sinorlar, – davom etdi Doroteya. – Endi ikki og'izgina gapim qoldi, xolos. Biz gavanga yaqinlashganimizda qattiq, bo'ron qo'zg'aldi. Kemamiz cho'kib ketdi, hamrohlarimning hammasi quturgan dengiz to'liklari qa'rida halok bo'lishdi. Men bilan anavi soqolli qurolbardorgina omon qoldik, taxtalarga tirmashib, sohilga qandaydir mo'jiza bilan zo'rg'a kelib oldik. Ko'rib turibsizki, mening hayotim ajoyibot hamda sir-asrordan iborat. Shu bilan hikoyamni tamomlayman. Ortiqcha biror narsa degan bo'lsam uzr. Kimning boshiga og'ir baxtsizlik tushsa, u o'sha odamning xotirasini zaiflashtirishini sinor litsensiat to'g'ri aytdilar, mening umrim esa boshdan oyoq mudhish ko'rgiliklardan iborat bo'ldi.

– O zoti ulug', jasur sinora, – dedi don Kixot tantanali qilib, – qarshimdagi sinovlar qanchalik ulug' hamda g'aroyib bo'lmasin, o'z va'damni oxirigacha bajarishga ont ichaman. Qahrli dushmani qarshi olish uchun dunyoning narigi chekkasigacha siz bilan boraman, xudoning panohida uning kallasi qilichim zarbi bilan yerga dumalaydi. Uni bir yoqlik qilib, sizni o'z davlatingiz taxtiga o'tqazgach, ixtiyorni o'zingizga qo'yib beraman, zeroki qalbm band, inon-ixtiyorim aqlim o'g'irlagan... Xo'p, yetar endi. Shuni aytishim mumkinki, uylanishni hatto xayolimga ham keltirolmayman.

Don Kixotning bu gaplari Sanchoga yoqmadi, u o'zini tuta olmay xitob qildi:

– Ont ichib aytamanki, sinor don Kixot, hozir aqlingiz joyida emas. Shunday asizoda malikaga uylanish haqida gap ketayotgan bir paytda ikkilanishga hojat bormikan? Xo'sh, taqdir har qadamda mana shunaqa odamlarga duch qilaveradi deb o'ylaysizmi? Qo'lingizga o'z oyog'i bilan kirib kelayotgan

qirollikdan yuz o'girmang, qirol bo'lib olganingizdan keyin meni markiz yoki noib qilib qo'yasiz. Uylaning, albatta, uylaning! Jin ursin sizni! Nahotki sinora Dulsineyani malikadan go'zal deb o'ylasangiz? Mutlaqo unday emas! Ont ichib aytamanki, u malikaning patagiga ham arzimaydi.

Bunday tahqirona so'zlarni eshitgan don Kixot bir zumda g'azabga keldi, nayzasini ko'tarib, he yo'q, be yo'q, Sanchoni ikki marta tushirdiki, u yerga quladi. Agarda Doroteya ritsarimizdan qurolbardoriga rahm qilishni iltimos etmaganida, uni o'ldirib qo'yarmidi.

– Nahotki, – deb xitob qildi ritsarimiz, – sizning bunday hayosizliklaringizni hadeb kechiraveradi deb o'ylasangiz, ey surbet? Hoy yaramas, razil odam, bunday o'yga bormang, ha, tengi yo'q Dulsineya haqida tilingiz shunday beposhna gaplarga borgan ekan, albatta, razil odamsiz! Hoy ahmoq, bekorxo'ja, qishloqi, uning xayolining o'zi menga qanchalik kuch, jasorat baxsh etishini bilasizmi? Ey tili ilonning tiliday qaldiragan muttaham, kim qirollikni egallab, devning kallasini uzdi hamda sizni makr qilib qo'ydi (zeroki o'ylangan narsani qilingan deb hisoblayman)? O'zining jasorati uchun meni tanlab olgan Dulsineyaning qahramonligi emasmi bu? U mening qonimda, men bilan zafar quchyapti, uning yodi bilan qalbim tepadi, nafas olaman, u – mening hayotim, borlig'im. Ey yaramas, ko'mamak odam, sizni u kishi juldurvoqi odamdan aslzoda sinorlikka ko'targan-a! O'z valine'matingiz yaxshiligi evaziga qo'lansa so'zlar bilan fisqi-fasod tarqatyapsiz-a!..

Sancho qattiq zarbadan gangib qolgan bo'lsa-da, har holda, don Kixotning so'zlarini eshitdi. U o'rmidan lip etib turib, Doroteyaning xachiri orqasiga o'tdi-da, o'sha yerdan turib xo'jayiniga e'tiroz bildirdi:

– Sinor, siz mana shu malikaga uylanishdan voz kechayotganingizni o'ylab ko'ring, unda siz qirol bo'lolmaysiz. Shunday ekan, sizdan qanday marhamat kutishim mumkin? Ana shunga o'kinyapman, xolos. Osmondan tushganday oldingizdan chiqib qolgan mana shu malikaga uylanishingiz lozim. Keyinroq sinora Dulsineyaning yoniga qaytishingiz mumkin-ku. Go'zallik



masalasiga kelsak, bu ishga men aralashmayman. Sofdillik bilan aytсам, menimcha, ikkovi ham chiroyli. Lekin sinora Dulsineyani anchadan beri ko'rganim yo'q.

– Nega ko'rmas ekansiz? – don Kixot uning gapini bo'ldi.

– Hoy shakkok xoin, hozirgina undan salom keltirding-ku!

– Men uni bir zungina ko'rdim, hozir qandayligini yaxshi payqay olmadim demoqchi edim. U, har qalay, husnda tengsiz deb aytishim mumkin.

– Bu safar uni kechirdim, – dedi don Kixot, – sen ham xafa qilganim uchun meni afv et. Ko'pincha kishilar jahl ustida keyin pushaymon bo'ladigan ishlarni qilib qo'yadilar.

– Buni bilaman, muhtaram janoblari, – dedi Sancho. – Mana men ham tilimning uchida turgan gapni aytib yuborishdan o'zimni tiya olmayman.

– Shunday bo'lsa ham, Sancho, – dedi don Kixot, – nima deyayotganingni o'ylab gapir, ortiqcha so'zni gapirmaslik uchun tilingni mahkam tishla.

– Xo'p, mayli, – dedi Sancho, – Xudo hammasiga shohid, mening gaplarimmi yo sizning xatti-harakatingizmi, muhtaram janoblari, qaysi biri yomonligini o'zi biladi.

– Yetar javrash, Sancho! – Doroteya uning gapini bo'ldi. – Borib xo'jayiningizning qo'lini o'ping, kechirim so'rang. Bundan keyin tobosolik go'zal sinora haqida yaxshi-yomon gaplarni gapirganda, ehtiyot bo'ling. Lekin, men uni mutlaqo bilmasamda, unga xizmat qilishga chin ko'nglimdan roziman. Qolgan ishda Xudoga suyanavering, hammasi o'z izidan ketaveradi: mol-mulkli bo'lasiz, keyin knyazlarday yashayverasiz.

Sancho don Kixotga yaqinlashib, qo'lini o'pishga izn so'radi: u esa kerilib uzatdi qo'lini. Sancho uni o'pdi, don Kixot esa unga oq fotiha berdi. So'ngra sadoqatli qurolbardoriga oldinroqqa o'tishni taklif qildi. Ritsarimiz undan eng muhim narsalarni so'rab olishi lozim edi. Sancho itoat qildi, ular orqadagilardan biroz ilgarilab ketishgach, don Kixot shunday dedi:

– Sening safaring haqida so'rashga sira qulay fursatni topolmadim shu chog'gacha. Hozir taqdir bizga ana shunday fursatni hadya qilganda, Dulsineya to'g'risidagi xushxabarni bilish

baxtidan meni mahrum qilma.

– Sizga nima maqbul bo'lsa, so'rayvering, – deb javob berdi Sancho. – Sinor bir narsani sizdan o'tinib so'rayman: bundan buyon bunchalik qiziqqon bo'lmang.

– Nega bunday deysan, Sancho? – so'radi don Kixot.

– Shuning uchunki, – dedi Sancho, – meni nima uchun urganingizni tushunolmay qoldim. Sinora Dulsineyani faqat siz muhtaram janoblari uchun aziz bo'lgani tufayligina chuqur hurmat qilaman (u qanaqasiga aziz bo'lardi!).

– Sancho, iltimos qilaman, javrashni bas qil, – dedi don Kixot, – gaplaring mening sezgimni tahqirlayapti. Bu haqda hozirgina senga aytgandim, yangi gunohga eski tavba o'tmaydi degan maqolni bilasan-ku.

Shu payt ularning ro'parasidan eshak mingan qandaydir bir kishi kela boshladi. Avvaliga uni lo'li deb o'ylashdi, lekin har bir eshakni ko'rganda ko'zi kosasidan chiqquday olayib ketadigan Sancho noma'lum kishiga tikilib turib, u ozod qilingan katorgachi Xines de Pasamonte, ostidagi eshak esa o'zining sevimli eshagi ekanini darhol payqab qoldi. Ajablangan va sevinib ketgan Sancho qichqirib yubordi:

– O'g'ri Xinesilo, ko'rnamak maxluq, bor bisotim, hayotimni qaytar, oromimni buzma, eshagimni ber, boyligimni qaytar, keyin, yo'qol, o'g'ri, muttaham, yaramas!

Biroq shuncha haqoratli so'zlarning hojati yo'q edi. Sancho haqoratga og'iz juftlashi bilanoq Xines eshakdan o'zini tashlab, zing'illaganicha qochib qoldi, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sancho eshagi yoniga chopib bordi-da, bo'ynidan quchoqlaganicha shunday dedi:

– Boyligim, jigargo'sham, qadrdon do'stim, ahvoling na kechdi?

Shunday derkan, u eshagini xuddi odamday erkalatib, o'pa boshladi. Eshak esa egasining erkalatib o'pishiga jimgina yo'l berib turardi. Shu payt boshqa yo'lovchilar ham yetib kelishdi va Sanchoni tabriklay boshlashdi, don Kixot esa eshagi topilganiga qaramay, yana uchta xo'tik hadya qilajagini aytdi. Sancho juda baxtiyor edi.

Shundan keyin u eshagiga mindi, hammalari yana yo'lda davom etdilar. Don Kixot o'z qurolbardori bilan hamon oldinda borardi. Doroteya bilan ruhoniy va usta Nikolas keyinda borishardi. Gaplarini Don Kixot eshitmasligini bilib ruhoniy Doroteyaga shunday dedi:

– Sinorita, hikoya to'qishdagi san'atingizga qoyilman: bu hikoya ritsarlik romanlaridagi voqealarning xuddi o'zginasi-kul!

– Men ritsarlik romanlarining ko'pini o'qiganman, – dedi Doroteya, – ularning mazmunini esda yaxshi saqlab qolganman, afsuski, geografiyani yaxshi bilmayman, shaharlarning nomini aralashtirib yuboraman. Osunada tushdim deb tavakkaliga aytib yubordim.

– Men ham xuddi shunday deb o'yladim, – dedi ruhoniy, – ishni silliqlash uchun darhol gapga aralashdim. Bu baxtiqaro idalgoning har qanday xayoliy, uydirma narsalarga laqqa ishonishining sababi – bu voqealar xuddi uning ahmoqona kitoblari-dagi kabi hikoya qilingandir. Bunga ajablanmay bo'ladingmi? Bu hali hammasi emas! Gap ritsarlik hamda ritsarlar haqida ketsa, bu saxovatli idalgoning og'zi entak-tentak gaplardan bo'shamay qoladi. Qolgan vaqtlarda shunday sog'lom, chuqur mulohaza yuritadiki, beixtiyor unga hurmating oshib ketadi. U sevgan mavzuga gapni burishning bilan yana g'irt tentak bo'ladi-qoladi.

Ular shu ko'yi gaplashib borisharkan, don Kixot Sancho Pansa bilan suhbatni davom ettirdi.

– Do'stim Pansa, janjalni bas qilaylik. Gina-kuduratni bir yoqqa yig'ishtirib qo'y, endi Dulsineyani qachon, qayerda va qanday ko'rganing haqida gapirib ber. U nima qilayotgan ekan? Unga nima deding? U nima deb javob berdi? U mening mak-tubimni o'qiyotganda yuzida qanday o'zgarishlar yuz berdi? Uni kim ko'chirib berdi? Xullas, bunday paytda aytishga, savol-javob berishga arziydigan hamma narsani so'zlab ber, toki eshitib huzur qilsin deb, hech narsani qo'shib chatma, eng muhimi, meni xursandlikdan mahrum qilmaslik uchun hech nimani yashirmay, oqizmay-tomizmay gapir.

– Sinor, – dedi Sancho, – gapning to'g'risini aytsam, xatingizni hech kim ko'chirgani yo'q, ko'chirib yozolmasdi ham,

axir, u o'zingizda qolgan edi-da, siz uni menga berishni unutibsiz.

– To'g'ri aytyapsan, – dedi don Kixot, – maktub yozilgan yon daftarchani sen ketgach, ikki kundan keyin yonimdan topib oldim. Bu meni ancha tashvishlantirib, xafa qildi. Maktubni olmaganingni payqab darhol qaytasan deb o'ylagandim.

– Shunday qilardim ham, – dedi Sancho, – lekin baxtni qarangki, xatni siz o'qigan paytda yodlab olgan edim. Men mirzaga aytib turdim, u so'zma-so'z yozib berdi, keyin u cherkov raddiyasi haqidagi ko'p xatlarni o'qigan bo'lsa ham, bunaqa chiroyli xatni umrida ko'rmagan hamda o'qimaganligini aytdi.

– Hozirgacha ham yoddan bilasanmi? – so'radi don Kixot.

– Yo'q, sinor, – dedi Sancho. – Men uni kerak bo'lguncha yodimda saqladim. Uni mirzoga yozdirганиmdan keyinoq yodimdan ko'tarildi. Darvoqe, boshlanishi yodimda «Oliy nafrat...», iye, kechirasiz – «olinasab sinora», oxirini ham bila-man: «Go'rga kirguncha do'stingiz», «G'amgin Qiyofa ritsaringiz», xatning o'rtalariga «jonim», «hayotim», «ko'z qorachig'im» kabi so'zlarning yuztachasini qistirib yubordim.

## YIGIRMA UCHINCHI BOB

### RITSARNING O'Z QUROLBARDORI BILAN SUHBATI VA ANDRES ISMLI BOLA BILAN UCHRASHGANI

– Men yana shuni bilmocchim, – dedi don Kixot Sancho Pansa bilan suhbatni davom ettirib, – ma'shuqam, go'zal-larning tengsiz malikasi, sinora Dulsineya sen borganingda nima qilayotgan ekan. Aytmoqchi, aqlim yetib turibdi: ehtimol, u o'ziga maftun bo'lgan ritsarga, ya'ni menga qilinadigan tuhfa-ga gavhar qadayotgan yo zar ip bilan gul tikayotgan bo'lsa kerak.

– Yo'q, – dedi Sancho, – u orqa hovlida bug'doy elayotgan edi.

– Ehtimol, – dedi don Kixot, – lekin uning qo'li tekkan

bug'doylar injularga aylana boshlagandir. Do'stim, u bug'doylarning qanaqaligini ko'rmadingmi: oqmidi yo qorami?

– Sariq, – dedi Sancho.

– Shunga amin bo'lginki, Sancho, u sepgan sariq mag'iz bug'doylar oppoq non bo'ladi. Lekin hikoyani davom ettir. Maktubimni berganingdan keyin sinora Dulsineya nima qildi? Maktubni rosa o'pgandir-a? Yoki menga bo'lgan kamoli hurmati tufayli boshiga qo'ydimi? Qani, tezroq gapir!..

– Sizning xatingizni unga berayotganimda, u bug'doy to'la g'alvirni astoydil silkitib elardi. Shu sababli menga: «Do'stim, maktubni anavi qopning ustiga qo'ya qoling. Hozir ishim boshimdan oshib yotibdi. Bug'doyni elab bo'lib o'qiyman», – dedi.

– O, donishmand sinora! – dedi don Kixot. – U huzur qilib o'qish uchun shoshilmagan. Xo'sh, Sancho, undan keyin-chi? U ishini tamom qilguncha sen bilan nimalar to'g'risida gap-lashdi? Mening to'g'rimda so'ragandir? Nima deb javob qilding? Qani, tezroq gapir, mendan birorta so'zni ham yashirmay hammasini gapir.

– U hech narsani so'ramadi, – e'tiroz bildirdi Sancho. – Men sizning uning ishqida adoyi tamom bo'lib, tog'larda qipyalang'och yurganingizni, qoq yerda uxlab, qattiq, chag'ir toshlar ustida umbaloq oshishingizni, daryo-daryo ko'z yosh to'kib, nola-yu fig'on chekib, taqdirga la'natlar o'qib yotganingizni aytib berdim.

– Taqdirga la'natlar o'qiyapti deb chakki aytibsan, – e'tiroz bildirdi don Kixot. – Aksincha, taqdir meni baland martabali Tobosolik Dulsineyani sevishdek baxtga muyassar etgani uchun umrimning oxirigacha shukr qilaman.

– Balandlikka baland, buni to'g'ri aytdingiz: u mendan uch vershok<sup>1</sup> novcha, – dedi Sancho.

– Nahotki, bo'ylaringni o'lchashgan bo'lsanglar? Bunga nechuk hadding sig'di?

– Bu juda oson bo'ldi, – javob qildi Sancho. – Bug'doy

<sup>1</sup> Vershok – 4,4 santimetrga teng keladigan uzunlik o'lchov birligi.

to'la qopni eshakka ortishib berayotganimda, u bilan yonma-yon turishga to'g'ri keldi: xuddi shu yerda uning mendan novcharoqligini payqab qoldim.

– Darhaqiqat, – dedi don Kixot, – qalbining yuksak fazilatlari novcha bo'yiga munosib bo'libdi. Xo'sh, u bug'doyni elab bo'lib, maktubni o'qigach, nima dedi?

– U xatni o'qigani ham yo'q, chunki o'qishni ham, yozishni ham bilmaydi, – dedi Sancho. – Xatni oldi-yu, birovning qo'liga tushib qolishidan hadiksirab, mayda-mayda qilib yirtib tashladi. Ishqida sarson-sargardon bo'lib yurganingizni aytib berishimning o'zidanoq kifoyalandi. Oxirida siz muhtaram janoblarining qo'lingizni o'pajagini, o'sha changalzorlardan tezroq chiqib, tentakligingizni tashlashingizni, Tobosoga tezroq yetib kelishingizni buyuradi; u siz marhamatli janoblarini juda-juda ko'rgisi kelibdi. Muhtaram janoblarining o'zlarini G'amgin Qiyofa ritsar deb atashlarini aytib berganimda, u rosa kuldi. Men undan biskaylik yigit salom aytdimi deb so'rasam, yigitning kelganini, u ko'ziga ajoyib ko'ringanini aytdi. Yana undan katorgachilar haqida so'radim, xudoga shukrki, ularni ko'rmabdi.

– Qani, menga ayt-chi, sen olib borgan xushxabar evaziga u senga nima hadya qildi? Chunki qadimdan xonimlar bilan jahongashta ritsarlar o'rtasida ma'shuqalardan oshiq-larga, oshiq-lardan ma'shuqalarga xabar keltiruvchi qurolbardorlarga, mahramlarga yoki mitti odamlarga qimmatbaho narsalar hadya qilish udumi bor.

– Bu yaxshi odat ekan, – deb maqtadi Sancho, – afsuski, uni hozir unutilib yuborishgan. Endilikda bir burda non bilan pishloq berish rasm bo'libdi. Men xayrlashayotganimda sinora Dulsineya o'shanaqa burdani devordan menga uzatdi. Shuni ham aytayki, pishloq qo'y sutidan qilingan ekan.

– Ma'shuqam ancha saxiy, – dedi don Kixot. – Ehtimol, o'sha paytda uning qo'lida qimmatbaho bezaklar bo'lmagandir. Shuning uchun u senga hech narsa bermagan. Lekin sen tashvishlanma, do'stim. Haqqingni olasan. Hammasini o'zim to'g'rilayman. Sancho, meni nima ajablantirayotganini bilasanmi? Nazarimda, sen u yoqqa uchib borib kelganga o'xshaysan; axir, sen

yo'lda uch kun bo'lding, xolos. Tobosogacha bo'lgan masofa esa o'ttiz mildan ortiqroq. O'ylaymanki, menga g'amxo'rlik, homiylik qilayotgan dono sehrgar (shunaqa odamim bor, bo'lishi kerak, yo'qsa, men haqiqiy jahongashta ritsar bo'lolmasdim) seni sezdirmay o'sha yoqqa olib borib tashlagan. Buning ajablanadigan yeri yo'q; ko'pincha dono sehrgar jahongashta ritsarni to'shagida uxlayotgan joyidan olib ketadi, uyg'ongach uxlayotgan joyidan minglarcha mil olisda ekanligini hech tasavvur qilolmaydi. Jahongashta ritsarlar har qadamda uchraydigan xavf-xatarlardan bir-birlarini sehrgarlarning yordamisiz xalos qilolmaydilar. Ba'zan ulardan biri Armaniston tog'larida birorta andriak, yovuz maxluq yoki boshqa bahaybat dushman bilan urushayotgan bo'ladi, jang nihoyatda qizigan, o'lim xavfi tug'ilgan bir paytda qayoqdandir bulut ustida yoki otash aravada, hozirgina Angliyada yurgan boshqa bir ritsar og'aynisi kelib qoladi, uni o'limdan qutqarib, kechki ovqatga qadar yana uyiga yetib boradi. Uning uyidan jang maydonigacha esa kamida ikki yo uch ming mil keladi. Bunday mo'jizalar jasur ritsarlarga g'amxo'rlik qiluvchi sehrgarlarning afsuni kuchi bilan bo'ladi. Shuning uchun ham, do'stim Sancho, Tobosoga bunchalik tez borib kelganingga ajablanmayman ham: ehtimol, donishmand homiylarimdan birortasi seni u yerga osmonda uchirib olib borgan-u, sen buni sezmagan-san. Endi boshqa narsadan gaplashaylik. Yaxshisi, nima qilishim kerakligini ayt. Sinoram tezda huzuriga yetib borishimni buyuribdi, shunday ekan, uning amrini bajo keltirishim kerak. Biroq men malikaning orqasidan itoatkorlik bilan borishga ont ichganman, ritsarlar udumi va'daning ustidan chiqish, undan keyingina o'zi, o'z muhabbati haqida o'ylashni taqozo etadi. Ma'shuqamni tezroq ko'rish istagi meni qiynayotir, lekin shuhrat chanqog'i hamda nomus burchi men ahd qilgan yangi jasoratni zafar bilan qoplashga da'vat qiladi. Avvalo, men malikaga bergan va'damning ustidan chiqishga ahd qildim. Tezroq Mikomikon qirolligiga yetib borib, dev bilan jang qilaman, uning kallasini olaman, malikani taxtga o'tqazib, bir daqiqa ham hayallamay ma'shuqam sari oshiqaman. Aminmanki, u mening xatti-harakatimni quvvatlaydi, o'zboshimchaligimni kechiradi,

chunki dev ustidan g'alaba qozonganini uning nomini butun olamga mashhur qiladi. Axir, qilichim bilan ko'rsatgan, ko'rsatayotgan, ko'rsatajak qahramonliklarim uning homiyligi va unga bo'lgan sadoqatim samarasidir.

– Eh, nimalar deyapsiz-a, muhtaram janoblari! – dedi Sancho. – Nahotki, siz mana shunday boy, mashhur malikadan voz kechsangiz, menga aytganlaridek, aylanasi yigirma ming mil keladigan boy, go'zal tabiatga ega bo'lgan qirollikni qo'ldan chiqarib yuborsangiz? Bu qirollik Portugaliya bilan Kastiliyani birga qo'shganda ham, undan kattaroq! Xudo haqqi, gap qaytarmang! Yengiltak so'zlaringizni tark eting-u, maslahatimga quloq soling: ruhoni uchragan birinchi joydayoq, darhol malikaga uylaning, yo'qsa litsensiatimizning o'zlari ham qoyilmaqom qilib nikoh o'qib yuboradilar. Jur'at qilganim uchun uzr, lekin men ham maslahat beradigan yoshga kirib qoldim. Darhol uylaning! Uzoqdagi dumbadan yaqindagi o'pka yaxshi, tanlabtanlab tozisiga uchrab, so'ngra pushaymon qilib yurmang.

– Menga qara, Sancho! – dedi don Kixot. – Agar unga uylanib, tezroq qirol bo'lsin va meni xayr-ehsonlarga ko'mib tashlasin deb maslahat berayotgan bo'lsang, bilib qo'yki, uylanmasdan turib ham orzularingni ro'yobga chiqarishim mumkin. Dev bilan jangga kirishdan oldin malikadan mabodo yengib chiqadigan bo'lsam, qirollikning yarmini berishga va'da olaman. Ana unda nikohdan o'tmasdan ham qirollikning yarmini olishim, uni istagan kishiga hadya etishim mumkin. Uni sendan boshqa kimga ham hadya qilardim?

– Albatta, menga, – dedi Sancho, – faqat menga beradigan viloyatingiz, muhtaram janoblari, dengizga tutashgan bo'lsin, chunki u yerlar menga qaramay qoladigan bo'lsa, vassal-negrarimni kemaga o'tqazib, Ispaniyaga olib boraman hamda qul qilib sotaman. Endi, marhamatli janoblari, sizga bir maslahat berishga ruxsat eting: sinora Dulsineya bilan ko'rishaman deb vaqtni bekor o'tkazib o'tirmang, yaxshisi zudlik bilan devni o'ldirgani jo'nay qolaylik. Buni qanchalik tez bartaraf qilsak, shuncha yaxshi, aminmanki, bundan bizga foyda bo'ladi, shuhratimiz ortadi.

– Takror aytaman, Sancho, – dedi don Kixot, – menga be-



malol ishonishing mumkin. Maslahatingga amal qilaman, avvalo, devni o'ldirib, keyin Dulsineya bilan uchrashaman. Ammo shuni bilib qo'y, ikkalamizning o'rtamizdagi gap shu yerda qolsin. Axir, Dulsineya bunchalik ehtiyotkor, kamtar ekan, hamma narsaning maxfiy qolishini istar ekan, men ham, boshqa odam ham bu haqda lom-mim demasligimiz kerak.

– Unday bo'lsa, – dedi Sancho, – nega sinora Dulsineyaning huzuriga o'zingizdan yengilgan odamlarning hammasini yuboraverasiz? Bu unga bo'lgan o'z muhabbatingizni butun olamga yoyish emasmi? Kimni yenggan bo'lsangiz, u ma'shuqangizning huzuriga borib, tiz cho'kib sizning yuborganingizni ma'lum qilaversa, sevgingiz maxfiy qolarmidi?

– O, naqadar sodda va ahmoqsan-a! – dedi don Kixot. – Sancho, mening muhabbatim ma'shuqamning shuhratini oshirishini, nahotki, fahmlamasang? Shuni yaxshi uqib ol: hech qanday iltifotdan umidvor bo'lmay, ma'shuqa xayolida yurgan jahongashta ritsar tufayli qiz shon-shuhratga qoplanadi.

– Ruhoniy o'z va'zida, – dedi Sancho, – bunday muhabbat bilan faqat Xudoni sevish mumkin degan: marhamatdan umidvor bo'lmay, jazodan qo'rqmay sevish zarur, biroq men biror narsa uchun xudoni sevishni, uning xizmatiga bel bog'lashni afzal bilardim.

– Jin ursin bu tentakni! – dedi don Kixot. – Ba'zan u bilimdonlardan ham yaxshiroq fikrlarni aytadi.

– Men esa, Xudo haqqi, o'qishni ham bilmayman, – deb javob qildi Sancho.

Shu payt usta Nikolas to'xtanglar, deb qichqirib qoldi, chunki ruhoniy bilan malika yo'l chekkasidan oqayotgan buloq bo'yida dam olishga ahd etishgandi. Bu Sanchoga yoqib tushdi. U don Kixotning sodiq qurolbardori o'zini laqillatayotganini fahmlab qolishidan hadiksirab, qil ustida turgan odamday xavotirda edi. Bu orada boshqa yo'lovchilar ham yetib kelishdi, hammalari o'tirishib, tamaddi qilishni boshlashdi.

Ular ovqatlanishib turganida yo'lda bir bola paydo bo'ldi. U yo'lovchilarni ko'rib, to'satdan to'xtadi, biroz tikilib turdi-da, o'zini don Kixotga tashlab, uning oyoqlarini quchdi, yolg'ondan

yig'lab xitob qildi:

– Oh, sinorim! Nahotki, muhtaram janoblari meni tani-mayotgan bo'lsalar? Axir, men yovuz xo'jayinim eman daraxtiga bog'lab qo'yganida, o'zingiz ozod qilib yuborgan bolaman-ku!

Don Kixot uni tanidi, qo'lidan ushlab atrofdagilarga murojaat qildi:

– Sinorlar, yovuz, yaramas odamlar tomonidan qilingan dilozorlik uchun o'ch olish, adolatni himoya qilish yo'lida jon-bozlik ko'rsatayotgan jahongashta ritsarlarning olamda yashashi naqadar zarurligiga endi ishonchingiz komil bo'lsa kerak. Bila-sizmi, sinorlar, yaqinda o'rmondan o'tib borayotib, chinqiriq, oh-voh ovozlari eshitdim. O'z burchimni his qilib, o'sha to-monga shoshildim. Ma'lum bo'lishicha, emanga bog'langan bola baqirayotgan ekan. Men shunisiga xursandmanki, o'sha bola hozir qarshingizda turibdi, gaplarimni tasdiqlay oladi. Xullas, u daraxtga bog'langan edi, uning yonidagi dehqon bolani kamar bilan tanasidan qon chiqquncha savalardi. Men dehqondan be-chorani nega bunchalik qattiq savalayotganini so'rasam, u bola o'z xizmatkori ekanini, yalqovligi va yaramasligi uchun ta'zirini berayotganini aytdi. Shunda bola ho'ngrab turib: «Sinor, men undan o'z haqimni berishni so'raganim uchun uryapti!» – dedi. Xo'jayin esa o'zini oqlab gapira ketdi. Men unga quloq solar-kanman, gaplari ikki pulga ham arzimastligini payqab qoldim. Shundan so'ng bolani yechishga amr qildim, dehqondan esa bolani uyga olib borib, oxirgi realigacha haqini berishi uchun va'da oldim. Shundaymi, o'g'lim Andres? Axir, uning xo'p dodini berganimni, amrimni darhol bajo keltirish uchun yalinib-yolvorganini sen bilasan-ku. Javob ber! Qo'rqma! Nima hodisa yuz bergan bo'lsa, manavi sinorlarga aytib ber, hammasini, toki jahongashta ritsarlarning qanchalik zarur, foydali ekanligini bilib qo'yishsin.

– Muhtaram janoblarining hamma gaplari – chin haqiqat, – dedi bola, – biroq ishning oxiri janoblari o'ylagandan bosh-qacharoq bo'ldi.

– Boshqacharoq deysanmi? – dedi don Kixot. – Nahotki xo'jayin haqingni bermagan bo'lsa?

– Haq berish u yoqda tursin, siz o‘rmondan chiqishingiz bilanoq u meni yana daraxtga bog‘ladi, shunday savaladiki, avra-astarimni ag‘darib tashladi. Urayotib meni shu qadar masxara qildiki, og‘riqning azobi bo‘lmaganda o‘zim ham kulib yuboradim. Keyin u meni chala o‘lik holda o‘rmonga tashlab ketdi, kasalxonaga arang yetib oldim, xo‘jayinim urib yara qilgan joylarni davolatib shu kungacha yotib qoldim, u yerda. Hammasiga muhtaram janoblari aybdorlar. Agar siz birovlarining ishiga aralashmay, o‘z yo‘lingizda ketaverganingizda, xo‘jayinim meni oz-moz savalab, keyin qarzini to‘lardi. Siz esa bekorga aralashib uning jahlini avjiga mindirdingiz. To‘g‘ri, u gapingizni qaytarolmadi. Lekin siz ketishingiz bilanoq u butun qahrini menga sochdi, shunday sochdiki, umrbod mayib bo‘lib qolsam kerak.

– Noto‘g‘ri ish qilganimni tan olaman, – dedi don Kixot. – U o‘z qarzini to‘lamaguncha ketmasligim kerak edi. Lekin agar u haqingni to‘lamasa, hatto kitning qorniga yashirilib olganda ham, uni izlab topishga va‘da qilganim esingda bo‘lsa kerak, Andres?

– To‘g‘ri, – dedi Andres, – biroq bundan menga nima foyda?

– Foydasi bor yo yo‘qligini hozir ko‘rasan! – deb xitob qildi don Kixot.

U shunday deb shosha-pisha o‘rnidan turdi-da, Sanchoga nariroqda o‘tlayotgan Rosinantni egarlashni buyurdi.

Shu payt Doroteya undan nima qilmoqchi ekanligini so‘rab qoldi.

Don Kixot dehqonni axtarib topajagani va oxirgi tiyinigacha qoldirmay Andresning haqini olib berajagini aytdi. Shunda malika o‘ziga qirollikni qaytarib bermaguncha uning boshqa sarguzashtlarga bosh qo‘shmayman degan va‘dasini eslatdi. Shu sababli u o‘z g‘azabini bosishi va dehqonni izlashdan voz kechishi kerak.

– Ha, bu to‘g‘ri, – dedi don Kixot. – Qaytib kelgunimcha Andres sabr qilishi kerak, lekin men yana bir karra va‘da berib, ont ichib aytamanki, dehqondan o‘ch olib, o‘z qarzini to‘lashga majbur qilmagunimcha orom nimaligini bilmayman.

– Ontingizga ishonmayman, – dedi Andres, – sizning o‘ch olib berishingizning hojati yo‘q. Buning hammasi safсата! Men hozir faqat Sevilyaga qanday yetib olish haqida o‘ylayapman. Agar qo‘lingizda bo‘lsa, yo‘lda yegani yegulik narsa bersangizu, tinchgina qolaversangiz. Ilohim, menga qancha yaxshilik qilgan bo‘lsangiz, jahongashtalikda ham shuncha ezgulik ko‘ring.

Sancho xaltasidan bir burda non bilan pishloq oldi, uni bolaga berayotib:

– O‘g‘lim Andres, manavini ol, senga xudo yor bo‘lsin, – dedi. Andres boshqa hech narsaga umid bog‘lamagani uchun non bilan pishloqni oldi-yu, boshini quyi solib, ketishga hozirlandi. U ketayotib don Kixotga shunday dedi:

– Ey jahongashta ritsar, Xudo haqqi, mabodo qachon bo‘lmasin yana uchrashib qolgudek bo‘lsak, garchi meni nimtanimta qilib yuborishayotgan bo‘lsalar ham, bunga aralashmang. Agar muhtaram janoblari meni himoya qiladigan bo‘lsalar, ahvolim battar tanglashadi. Olamdagi barcha jahongashta ritsarlar bilan birgalikda gumdon bo‘linglar! – Andres shunday dedi-yu, oyog‘ini qo‘ltiqlab qochib qoldi, chunki bu adabsizligi uchun quvib yetib jazolashlaridan qo‘rqdi.

Don Kixot Andresning hikoyasidan juda xijolatda qoldi, uning hamrohlari esa o‘zlarini kulgidan arang tutib turishardi.

## *YIGIRMA TO‘RTINCHI BOB*

### **DON KIXOTNING QIZIL VINO MESHLARI BILAN JANG QILGANI**

Yo‘lovchilarimiz damlarini olgach, xachirlarni egarlashdi va hech qanday sarguzashtsiz, Sancho Pansa eslaganda, ko‘ngilsizlik tug‘dirgan karvonsaroyga yetib borishdi. Lekin u ichkariga kirishga majbur bo‘ldi. Karvonsaroy egasi, uning xotini, qizi va Maritornes don Kixot bilan Sanchoni ko‘rishib, xursandlik bilan qiyqirib peshvoz chiqishdi. Ritsarimiz ular bilan kekkayibgina

omonlashdi va o'tgan safargidan ko'ra durustroq o'rin hozirlashni buyurdi. Karvonsaroy bekasi agar u oldingi safargidan ko'ra yaxshiroq haq to'lasa, knyazlar yotadigan o'rin hozirlab berajagini aytdi. Don Kixot bosh qimirlatib rozilik bildirdi. Unga oldin o'zi bir marta tunagan qaznoqqa yaxshigina o'rin solib berishdi.

Ruhoniy tushlik ovqat buyurdi, xo'jayin esa durustroq in'omdan umidvor bo'lib, bisotida bor eng yaxshi taomlardan berdi. Hamma stol atrofiga o'tirdi, faqat don Kixot hamon ux-lardi; uni uyg'otmaslikka ahd etishdi, chunki bechora ritsarimizga ovqatdan ko'ra uyqu a'loroq edi. Tushlik mahalida xo'jayin, uning xotini, qizi, Maritornes va karvonsaroyda yashayotgan odamlar huzurida don Kixotning telbaliklari va uni izlaganliklari haqida gap ketdi. Hamma bir-biriga don Kixotning g'alati telbaligi hamda sarguzashtlari haqida hikoya qildi. Ruhoniy hamma illat ritsar romanlarini o'qishda ekanligini, ana shu sababli don Kixotning aqli aynib qolganligini aytdi. Xo'jayin bunga e'tiroz bildirdi:

– Xudo haqqi, bu hodisa qanday ro'y berganiga hech aqlim yetmayapti, fikrimcha, dunyoda bundan ko'ra o'qimishliroq narsa bo'lmasa kerak. Menda ana shu romanlardan ikki-uchtasi bor, to'g'risini aytganda, ular menga katta huzur baxsh etadi. Faqat men emas, balki boshqalar ham bundan bahramand bo'lishgan. O'rim pallasida bayram kunlari bizda o'roqchilar to'planishadi; ularning orasida hamma vaqt biror savodxon topilib qoladi, albatta; u kitobni qo'liga oladi, biz esa o'ttiz kishicha bo'lib uning atrofiga o'tirib olamiz-da, butun vujudimiz bilan tinglaymiz. O'zim haqimda shunday deyishim mumkin: kitobda ritsarning o'ng va so'lga urgan shiddatli zarbalari haqida gap ketganida, butun kuch-quvvatimni sarf etib shu janglarda qatnashgim, bu haqda kecha-yu kunduz eshitgim keladi.

– Men ham juda huzur qilaman, – deb qo'shib qo'ydi beka. – Bunday kitobxonlik paytida uyga shunaqayam jimlik cho'kadiki, pashsha uchsa, eshitiladi. Bu romanlarga shunday berilib ketasizki, men bilan jiqillashishga ham qo'lingiz tegmay qoladi.

– Juda to‘g‘ri! – dedi Maritomes. – Men ana shunday voqealarni, ayniqsa, sohibjamol sinoritalar haqidagi hikoyalarni tinglashni juda yoqtiraman, ular birorta apelsin daraxti ostida o‘zlarining sadoqatli ritsarlari bilan biram qaymoqlashib o‘tishadiki, asti qo‘yavering.

– Siz nima deysiz, sinorita? – ruhoniylar xo‘jayinning qiziga murojaat qildi.

– Rostini aytсам, sinor o‘zim ham bilmayman, – dedi u. – Men ham romanlar o‘qilganda, garchi ozroq tushunsam-da, berilib quloq solaman. Menga otamning havasini keltiradigan janglar emas, balki ritsarlarning o‘z ma‘shuqalarini qo‘msab aytgan mungli gaplari ko‘proq yoqadi. To‘g‘ri, ba‘zida rahmim kelganidan yig‘layman ham.

– Agarda o‘sha ritsarlar sizning dardingizda yig‘lashsa, – dedi Doroteya, – siz ularni darhol yupatardingiz, to‘g‘ri emasmi, sinorita?

– Nima qilishimni ham aytolmayman, – dedi qiz. – Faqat bir narsani bilaman, ana shu ma‘shuqalarning ba‘zilari o‘z ritsarlariga shu qadar shafqatsizki, ritsarlar ularni sher, yo‘lbars deb, boshqa jirkanch narsalarning nomi bilan atashadi. Eh, xudoyim! Naqadar rahmsiz, vijdotsiz ayollar-a, pok odamlarga bir qiyo boqish ular uchun qiyin-a, ritsarlar esa ularning ishqida yo o‘ladi, yo jinni bo‘lib qolishadi! O‘zini bunchalik taroziga solishning nima hojati bor ekan, sira tushunolmayman.

– Jim bo‘l, hoy qiz, – onasi uning gapini bo‘ldi. – Qizlarning bunday ishlar haqida bilishi ham, fikr yuritishi ham mumkin emas.

– Sinor mendan so‘radilar-da, – dedi u, – javob bermasam bo‘lmaydi-ku, axir.

– Xo‘p, yetar, – dedi ruhoniylar, – sinor xo‘jayin, yaxshisi, menga kitoblaringizni keltiring. Ularni bir ko‘rib qo‘ymoqchiman.

– Jonim bilan, – dedi xo‘jayin. U o‘sha zahoti o‘rnidan qo‘zg‘alib, xonasiga ketdi, qulflog‘liq eskigina qutini keltirdi, ochib, uning ichidan dona-dona qilib yozilgan bir necha qo‘lyozma va katta-katta uchta kitob oldi. Birinchi kitob «Frakiyalik Don

Sironxilio», ikkinchisi «Girkanyalik Felismarte», uchinchi esa «Kordoviyalik ulug' kapitan Gonsalo Ermandes tarixi» bo'lib, unda Diego Garsiya de Paredes hayoti birga qo'shib yozilgan edi. Ruhoniy dastlabki ikki sarlavhani o'qib, sartaroshga yuzlandi va shunday dedi:

– Bizga do'stimizning ekonomikasi bilan jiyani kamlik qilib turibdi.

– Ularsiz ham ish bitiraveramiz, – dedi sartarosh, – bu kitoblarni molxonaga olib borish yoki yaxshigina lovullab yonayotgan pechkaga tashlash mening ham qo'limdan kelaveradi.

– Nima? – dedi xo'jayin. – Muhtaram janoblari kitoblarimni yondirmoqchilar?

– Manavi ikkitasini: Don Sironxilio va Felismarteni, xolos.

– Nahotki, bu kitoblar yeretik<sup>1</sup> yoki flegmatik bo'lsa? – deb so'radi xo'jayin.

– Do'stim, siz flegmatik emas, sxizmatik<sup>2</sup> demoqchi bo'lingiz, shekilli? – deb sartarosh uning xatosini to'g'rilab qo'ydi.

– Ha, ha, – dedi xo'jayin, – faqat birortasini, albatta, yoqmoqchi bo'lsangiz, yaxshisi «Ulug' kapitan Diego Garsiya»ni ola qolinglar. Qolgan kitoblar xususida shuni aytamanki, ulardan birini yondirgandan ko'ra o'zimni yondirishga izn beraman.

– Inim, – e'tiroz bildirdi ruhoniy, – bu kitoblarning har ikkovi ham yolg'on-yashiq, bo'lmag'ur, bema'ni narsalar bilan to'la, «Ulug' kapitanning tarixi» esa chin haqiqat; unda Kordoviyalik Gonsalo Ermandesning xizmatlari haqida hikoya qilinadi. U o'zining ulug' hamda hisobsiz jasoratlari bilan butun dunyoda ulug' kapitan nomini olgan. Estramadurdagi Truxilo shahridan chiqqan Diego Garsiya de Paredes esa ajoyib jangchi bo'lgan. U shu qadar qudratga ega bo'lganki, bir barmog'i bilan tegirmon parragini to'xtatib qo'ya olgan: kunlarning birida butun bir qo'shinni ko'prikdan o'tkazmay yakka o'zi jang qilgan. U ko'p

<sup>1</sup> Yeretik – umumiy tartib qoidalarga, odatdagi qarashlarga xilof fikr yuritishga qaratilgan nazariya yoki dunyoqarash

<sup>2</sup> Sxizmatik – cherkovning bo'laklarga bo'linishini yoqlaydigan nazariya yoki dunyoqarash.

qahramonliklar ko'rsatgan, agar uning hayotini birorta mohir tarixchi yozadigan bo'lsa, uning shuhrati Gektor, Axill hamda Rolandlarnikini bosib ketadi. Afsuski, u o'z hayoti haqida o'zi yozgan, o'z sarguzashtlarini yozishda juda kamtarlik qilgan.

– Bu gapingizni momamga ayting! – dedi xo'jayin. – Tegirmon parragini to'xtatgani hayratomuz ish emish! Xudo haqqi, agar siz Girkankiyalik Felismarteni o'qisangiz, yomon bo'lmasdi. U qilichi bilan bir zarba berishda, xuddi bolalar yasaydigan rohibchalardek, go'yo ular loviyadan yasalganday beshta devni qoq ikkiga bo'lib tashlagan. Keyingi safar esa u tish-tirnog'igacha qurollangan bir million olti yuz mingdan ortiqroq askari bo'lgan juda katta qo'shinga duch kelgan, ularni qo'y suruviday tumtaraqay qilib quvgan. Siz Frakiyalik don Sironxilio haqida nima deya olasiz? Kunlarning birida u daryoda suzib borayotganida, suv ichidan bahaybat olov ilon chiqib qolgan; bu maxluqni ko'rgan don Siroxilio ilonga tashlanib, unga minib olgan, tomog'idan shunday qattiq bo'g'a boshlaganki, o'sha zahotiyog bo'g' ilayozgan ilon o'zini g'ippa bo'g'ib turgan ritsarni daryo tubiga sudrab tushib ketgan. U yerda ritsar o'zini ulkan qasrda ko'rgan, ilon esa cholga aylanib, eshitishga arziydigan narsalarni hikoya qilgan. Siz gapirmay qo'ya qoling, sinor! Mana shu kitobni o'qing, qoyil qolganingizdan esingizni yo'qo-tib qo'yasiz. Sizning Ulug' kapitaningiz bilan Diego Garsi-yangizni esa sariq chaqaga ham olmayman.

Buni eshitgan Doroteya usta Nikolasga astagina shunday dedi:

– Xo'jayinimizning don Kixot bo'lib qolishiga ozgina yetishmaydi, xolos.

– Men ham shu fikrdaman, – dedi sartarosh. – Aftidan, u bu kitoblarda yozilgan narsalar chin haqiqat deb o'ylaydi, unga buning yolg'onligini yalangoyoq karmelitlar<sup>1</sup> ham uqdira olmasa kerak.

---

<sup>1</sup> Yalangoyoq karmelitlar – Karmelit ordenining rohiblari. U XII asrda Falastinda tashkil topib, butun Yevropa bo'ylab o'z mazhabini keng tashviq eta boshlagan. Kamtarlikda ibrat ko'rsatishni istagan bu badavlat ordenning rohiblari odatda yalangoyoq yurishgan.



– Menga qarang, inim, – ruhoniylar xo‘jayinga murojaat qilib gapida davom edi, – bu romanlarda nomi zikr qilingan Girkankiyalik Felismarte ham, don Frakiyalik Sironxilio ham, boshqa ritsarlar ham aslida bo‘lmagan, bularning hammasi bekorchi yozuvchilarning uydirmasi, ular o‘z kitoblarini behuda ermak uchun yozganlar.

– Yetar, meni chalg‘itishni bas qiling, muhtaram janoblari! O‘zim ham beshgacha sanashni, etigim qayerimni siqishini bilaman. Nahotki, mana shu ajoyib kitoblarda yozilganlarning yolg‘on yoki uydirma ekanligiga meni ishontirmoqchi bo‘lsangiz! Axir, bu kitoblar

Qirol Kengashi a‘zolari ruxsati bilan bosilgan-ku, ular bundaqa yolg‘on-yashiq sehrgarlik hamda janglar haqidagi uydirmalarni bosishga ruxsat beradigan janoblar emas-ku. Axir, bu qirolning sadoqatli fuqarolarini to‘g‘ri yo‘ldan ozdirish-ku!

– Do‘stim, sizga aytdim-ku, axir, – e‘tiroz bildirdi ruho-niy, – bu romanlarning hammasi bekorchilarga ermak uchun yozilgan deb. Hukumat shaxmat yoki to‘p o‘yini uchun ham ruxsat beradi-ku, axir. Nega endi hukumat ritsarlik romanlarini bosishga ruxsat etmas ekan? Bu afsona gaplarni to‘g‘riga yo‘yuvchi nodon odamlar borligi kimning ham xayoliga kelardi? Shunday qilib, sinor, mana, kitoblaringizni oling-u, ularda nima rost, nima yolg‘onligini o‘zingiz hal qiling, buning sizga foydasi zo‘r bo‘ladi. Ilohim, karvonsaroyingizda turuvchi don Kixotning dardiga muhtalo bo‘lmang.

– Yo‘q, yo‘q, – dedi xo‘jayin, – jahongashta ritsar bo‘l-mayman, hali esimni yeb qo‘yganim yo‘q. O‘sha shavkatli ritsar-lar yashagan davrga qaraganda hozir tartib-qoidalar tamoman o‘zgarib ketganini yaxshi bilaman.

O‘z odatiga zid ravishda chuqur sukut saqlab o‘tirgan Sancho xo‘jayin bilan ruhoniylarning suhbatiga e‘tibor bilan quloq soldi. Sancho Pansa ritsarlar haqidagi romanlar qip-qizil uydirma ekanligini va endilikda ritsarlar yo‘qligini eshitib, o‘z xo‘ja-yinining Mikomikon mamlakatiga qiladigan safari nima bilan tugashi ustida qattiq bosh qotirib qoldi. U o‘zini yo‘qotgan, xijolatda qolgan ahvolda idalgomiz uxlayotgan qaznoqqa ketdi. Le-

kin bir necha daqiqadan keyin hovliqqancha chopib keldi.

– Bu yoqqa, sinorlar, tezroq yordam beringlar! – deb baqirdi u. – Xo‘jayinim dahshatli jangga kirdi, bunaqangi dahshatli jangni umrim bino bo‘lib ko‘rmaganman, xudo nomi bilan ont ichib aytamanki, u Mikomikon malikasining dushmani bo‘lgan devga qilich bilan shunday hamla qildiki, kallasini sapchaday uzib tashladi.

– Nimalarni valdirayapsiz, inim? – deb xitob qildi ruho-niy. – Sancho, esingiz joyingizdami o‘zi? Jin ursin, dev bizdan ikki ming mil narida-yu, bu hodisa qanday yuz berishi mumkin?

Shu payt qaznoqdan don Kixotning shiddatli baqiriqlari eshitildi:

– Qo‘limga tushding-ku, endi omon qolmaysan, o‘g‘ri, qaroqchi, qo‘rqoq!

Bu hayqiriqlar kimdir devorga zarb bilan urayotganday dahshatli shovqin-suronga aralashib ketdi. Hamma qaznoqda nima bo‘layotganini bilish uchun qulog‘ini ding qildi.

Shu payt Sancho yana baqirib qoldi:

– Nega qaqqayib turibsizlar? Xo‘jayinimga yordamlash-gani bormaysizlarmi? Aytmoqchi, uning yakka o‘zi ham dush-manga bas kelaveradi. Dev allaqachon o‘lgan, u xudo oldida no-pok umr kechirgani uchun javob beryapti. Men shovullab oqqan qonni, vino to‘la meshday boshi yelkasidan dumalaganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

– Agar anavi don Kixotni yo don Alvastimi bosh tomo-nida turgan vino to‘la meshni yorib yubormagan bo‘lsa, meni har nima deyavering. Vino oqqan-u, bu ahmoq uni qon deb o‘ylagan.

U shu so‘zlarni aytdi-yu, jang bo‘layotgan joyga oshiqdi, xonadagilar ham uning orqasidan qaznoqqa borishdi, ularning ko‘z oldida g‘aroyib manzara namoyon bo‘ldi. Bizning idalgo qaznoqning o‘rtasida turar, egnida kalta ko‘ylak, jun bosgan uzun, oriqli oyoqlari rosa ifloslangan edi: boshida xo‘jayinning yog‘i chiqqan qizil qalpog‘i, chap qo‘liga Sancho yomon ko‘rgan choyshabni (negaligi uning o‘ziga yaxshi ayon) o‘rab olgan, o‘ng qo‘lida esa yalang‘ochlangan qilich, har tomonga hamla qila-yotir. Buning ustiga go‘yo dev bilan olishayotganday qattiq qich-

qirardi. Ajablanadigan joyi shuki, bu ishlarni u ko'zini yumib qilardi. Uning tasavvuri kelajakda bo'ladigan jang haqidagi fikr bilan band bo'lgani uchun tushiga Mikomikon qirolligiga yetib borgani va o'z dushmani bilan jang qilayotgani kirdi. U chala uyquda vinoli meshlarni devlar deb gumon qilib, ularni shunchalik chavaqlab tashladiki, xona vinoga to'lib-toshdi. Xo'jayin o'z boyligining nobud bo'lganini ko'rib g'azabi qaynab ketdi; mush-tumini tugib don Kixotga tashlandi, agarda sho'rlik ritsarni sartarosh bilan ruhoniy himoya qilishmaganda bormi, uni chala o'lik qilib do'pposlashardi. Biroq yegan mushtlari ham idalgoning uyqusini tarqata olmadi. Sartarosh quduqdan katta idishda sovuq suv keltirib, uning boshidan oyog'igacha quyishga majbur bo'ldi. Ana shundan keyingina u uyg'ondi. Bu orada Sancho devning kallasini axtarib hamma yoqni timirskilardi. Izlashi behuda ekanini anglab shunday dedi:

– Bu uyda biror sehrgarlikka duch kelishni oldindan bildandim. O'tgan safar xuddi shu yerning o'zida qanchadan qancha tepki, tarsakilarni yedim, uni o'ylasam, yuragim vahimaga tushadi. Meni kim savalagani bir shaytonga ayon. Endi bo'lsa haligi kalla ham yo'qoldi, axir, xo'jayinim bir zarba bilan uni uzib tashlaganini, qon favvoraday otilib chiqqanini o'z ko'zim bilan ko'rgandim-a.

– Qanaqa qon, qanaqa favvora? Ey, xudo urgur, barcha aziz-avliyolarning qahriga uchragur, – deb baqirdi xo'jayin, – hoy firibgar, bu qon favvoralari ilma-teshik qilib yuborilgan meshlardan chiqayotganini ko'rmayapsanmi? Ehtiyot bo'l, hoy tentak, tag'in vine daryosiga g'arq bo'lib o'lmagin. Ilohim, u dunyoda xo'jayiningni shaytonlar o'zi manavi meshlarni ilma-teshik qilganday ilma-teshik qilib tashlashsin!

– Hech narsaga tushunmayapman, – dedi Sancho, – agar o'sha yo'qolgan kallani topmasa, menga tegadigan graflik suvda erigan tuzdek yo'q bo'ldi deyavering.

Sanchoning o'jarlik bilan hadeb takrorlayotgan bu behuda gaplari shundoq ham don Kixotning yetkazgan zararidan g'azabi qaynab turgan xo'jayinning toqatini toq qildi. U oldingi safargidek hech narsa to'lamay ketolmaysizlar deb, xudoning nomini

shafe keltirib qasam icha boshladi.

Endi ularga ritsarlikning hech qanday imtiyozlari yordam bera olmaydi, u hatto ilma-teshik qilib tashlangan meshlarni yamash uchun ham haq to'lashga ularni majbur qiladi. Bu orada don Kixotni tinchlantirish uchun ruhoniy uning qo'lidan ushladi, ritsarimiz uni malika Mikomikon deb o'ylab, ruhoniyning qarshisida tiz cho'kdi va shu so'zlarni aytdi:

– Ey, hazrati oliyalari, aslzoda va shuhratli sinora, bundan buyon yaramas maxluqning qilmishlaridan qo'rqmasdan tinch yashayverishingiz mumkin. Bugundan boshlab o'zimni sizga bergan va'damdan xalos bo'ldim deb hisoblayman, xudoyi taoloning qudrati hamda ishqida yonayotganim o'sha ma'shuqamning marhamati tufayli o'z va'damning ustidan chiqdim.

– Ana, men sizlarga nimalar degandim? – qichqirdi Sancho. – Aslida men mast ham emasdim. Xo'jayinim devni o'ldirganiga qoyil qoling. Endi hamma ish mixday, graflik esa cho'ntagimda turibdi.

Har ikkala tentakning: xo'jayini bilan xizmatkorining bu valdirashlariga kulmay bo'ladimi? Hamma xaxolab kulib yubordi. Faqat xo'jayinning yuragiga kulgi sig'masdi; axir, u alvastini har jihatdan so'kardi. Nihoyat, sartarosh bilan ruhoniy don Kixotni o'rmiga yotqizishga muvaffaq bo'lishdi. Ritsar juda charchagan, shekilli, yotdi-yu, dong qotib uxlab qoldi. Shundan so'ng do'stlarimiz haligacha devning kallasini topa olmagan Sancho Pansani yupata boshladilar. Hammasidan ham vinosidan ajragan xo'jayinni tinchlantirish qiyin bo'ldi. Bu orada xo'jayinning xotini sannab<sup>1</sup> yig'lay boshladi:

– Ilohim, oting o'chgur bu jahongashta ritsar hovlimizga kasofat keltirdi. Uning kelishi bizga qimmatga tushdi! U o'tgan safar ham na ovqatga, na ko'rpa-yostiqa, na xashakka, na o'zi, qurolbardori, oti hamda eshagi yegan suliga – hech narsaga haq bermay ketib qolgan edi. O'shanda u sarguzasht izlab yurgan ritsarlar, ilohim, shunaqa sarguzasht talab ritsarlar gumdon bo'lsin, haq to'lashi shart emas deb aytgandi: daydi ritsarlarning

<sup>1</sup> Sannamoq – ins-jinlarni qaytarish, kishilarni davolash uchun duo o'qimoq

udumida shunday deyilganmish. Keyin esa boshqa bir sinor – uning oshnasi mening eng yaxshi ko‘ylagimni so‘rab olib, o‘zining safarlarida shunday dabdalasini chiqaribdiki, yuraging tuzday achishib ketadi. Endi bo‘lsa, o‘lganning ustiga chiqib tepganday anavi tentak ritsar hamma meshlarni ilma-teshik qilib, vinoni oqizib yubordi, ilohim, qoning ham xuddi shu vinoday oqqur. Ota-bobolarim haqi qasamyod qilib aytamanki, agar oxirgi tiyinigacha undan undirib olmasam, otimni boshqa qo‘yaman.

G‘azabi qaynab-toshgan beka yana ko‘p javradi; uning yoniga xizmatkor qiz Maritornes ham qo‘shildi. Nihoyat, ruhoniy vino, mesh, boshqa narsalarning haqini to‘laymiz deb va‘da qilib, ularni tinchitdi.

Bu orada devning kallasini topolmay bo‘g‘ilib turgan Sancho bekaning sannab yig‘lashiga va ruhoniyning gaplariga diqqat bilan quloq sola boshladi. Xuddi shu paytda u hech qanday yovuz ko‘zli devning yo‘q ekanligini, xo‘jayin esa meshlar bilan jang qilganini anglab qoldi. Bundan u nihoyatda ranjidi. Eng alam qiladigani shu ediki, bu yerdagilardan hech kim: xo‘jayin bilan xotini ham, ruhoniy ham Doroteyaga malikaga qilganday muomala qilishmasdi. Hamma unga oddiy munosabatda bo‘lishar, uni Doroteya, sinorina deyishar, hazil qilishar va kulishardi. Uning o‘zi ham o‘zini oddiy tutar, xo‘jayinning qizi bilan shivirlashib kular, mehmonlar bilan gaplashar, ularga iltifot ko‘rsatardi; xullas, u mashhur malikaga, qudratli qirollikning vorisiga mutlaqo o‘xshamasdi. Sancho o‘zini butunlay yo‘qotib qo‘ydi. Uning miyasida dahshatli shubha paydo bo‘ldi. «Bularning hammasi aldash bo‘lsa-chi? – deb o‘yladi u. – Ustimizdan kulish, ermak qilish uchun xo‘jayinim bilan mening boshimni aylantirishmayaptimikan? Shunisi ajablanarliki, ruhoniyydek bosiq, aqlli odam ham shu hazilga aralashibdi-ya».

**DON KIXOTNING HARBIY ISH VA ILM-FAN  
HAQIDAGI ANTIQA FIKRLARI**

Ichini shubhalar kemirgan Sancho sabri tugab, endigina uyqudan turgan don Kixotning hujrasiga dadil yurib bordi.

– Sinor G'amgin Qiyofa muhtaram janoblari, – dedi Sancho, – endi istaganingizcha uxlashingiz mumkin. Devni o'ldirib, malikaga uning qirolligini qaytarib berish haqida tashvish tortmasangiz ham bo'ladi. By ish oxiriga yetdi.

– Men ham shunday fikrdaman, – dedi don Kixot, – ammo-lekin dev bilan chakana jang qilmadim. Nihoyat, unga qaqshatqich zarba berishga muvaffaq bo'ldim, kallasini tanidan judo qildim, qon esa daryo bo'lib oqdi.

– Qizil vinodek bo'lib oqdi deyavering, – dedi Sancho, – muhtaram janoblariga ma'lum qilishga jur'at etamanki, bilmasangiz, bilib qo'ysangiz, siz o'ldirgan dev kattakon mesh, qon esa olti arrob<sup>1</sup> qizil vino, kesilgan bosh esa... Qurib ketsin shu bosh, sizning g'alabangiz dalili sifatida malika Mikomikonga ko'rsataman deb uni rosa axtardim-u, lekin hech qayerdan topa olmadim.

– Nimalarni valaqlayapsan, ahmoq! – don Kixot o'rnidan qo'zg'alib, g'azab bilan qichqirdi. – Sen butunlay aqldan ozgan-ga o'xshaysan.

– Yaxshisi, o'ringizdan turing, muhtaram janoblari, nimalar qilganingizni ko'rib, dev bilan olishganingiz uchun qancha pul to'lashingizni ham bilib qo'ying. Xo'jayin bilan xotini ilmatshik qilib tashlangan mesh, to'kilgan vino uchun kattagina pul to'lashga majbur qilishadi. Sinor, bu hali oz! Mikomikon Doroteya degan oddiy bir xonimga aylanib qoldi. Siz uxlab yotganingizda ana shunaqa g'aroyib hodisalar yuz berdi.

– Hech narsa meni ajablantira olmaydi, – javob berdi don Kixot, – o'tgan safar ham shu yerda to'xtaganimizda, bu uyda

<sup>1</sup> Arrob – o'rta hisobda o'n ikki litrga teng bo'lgan suyuqlik o'lchovi.

sehrli narsalar yuz berishini senga aytgandim, esingda bo'lsa kerak. Hozir ham o'shanaqa hodisa yuz bergan, bunga ajablanmaslik kerak.

– Agarda meni osmonga itqitishgan choyshab ham sehr-langan bo'lganida edi, bu gaplarga ishongan bo'lardim. Axir, u haqiqiy, oddiy bir choyshab edi-ku. Buning ustiga hozirgi xo'jayin, ilgari ham xuddi o'shaning o'zi edi, hazil-u askiya bilan choyshabning bir chetidan ushlab turib, meni itqitgani yaxshi esimda. Men gunohkor, omi odam bo'lsam ham, hamma narsa shu tariqa yuz bergan ekan, bu yerda hech qanday sehrgarlik yo'q, balki buni yaxshigina savalashning o'zginasi deb o'ylayman.

– Mayli, xudo xohlasa, hammasi o'z iziga tushib ketadi, – dedi don Kixot, – kiyimlarimni ber, sen aytgan hamma hodisalarni o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman.

Don Kixot o'z qurolbardori yordamida qaznoqda kiyinayotganda ruhoniy va sartarosh Doroteya bilan birgalikda bundan keyingi rejalar haqida fikr yuritishardi.

Nihoyat, ular Doroteya ilgarigidek malika Mikomikon rolini o'ynayversin, don Kixotni esa devga qarshi olib borilgan jang hali tamom bo'lmaganiga va malikani Mikomikon qirolligigacha kuzatib qo'yishiga ishontirishga jazm qilishdi.

Ular o'zaro fikrlashib olishmasdanoq don Kixot to'liq qurollangan holda hozir bo'ldi: uning boshida pachog'i chiqqan Mambrinning dubulg'asi – sartarosh jomi, sersuyak gavdasida zanglagan sovut, qo'lida qalqon. U tantanavor, vazmin yurib go'zal Doroteyaga yaqinlashdi va shunday dedi:

– Sohibjamol sinora, qurolbardorim siz hazrati oliyalari-ning halok bo'lib yo'qolganingizni, malika hamda mashhur senoradan oddiy qizga aylanib qolganingizni aytdi. Agar bu hodisa sizni himoya qila olmasligimdan xavfsirab, afsungar qirol, ya'ni otangiz izmi bilan yuz bergan bo'lsa, shuni bilingki, u juda adashadi, jahongashta ritsarlar tarixidan yaxshi xabardor emas ekan. Agarda u ham men singari ritsarlik romanlarini diqqat bilan o'rganganida unchalik mashhur bo'lmagan ritsarlarning hozirgidek emas, balki bundan ham zo'rroq jasoratlar ko'rsatganlari

haqidagi behisob misollarni topardi. Qahri qattiq, kuchli dev Pandafilandoni yengish mening uchun hech gap bo'lmadi. Men u bilan bir necha soat ilgari to'qnashdim hamda uni o'ldirdim. Kamtarligim bu jasoratni yoyishga yo'l qo'ymaydi. Vaqti kelib bu qahramonlikning tafsilotini bilib ham qolarsiz.

– Nimalarni valdirayapsiz, sinor, – shu payt xo'jayin gapga aralashdi. – U qanaqasiga dev bo'lsin. Siz bor-yo'g'i vino to'la meshlarimni ilma-teshik qildingiz, xolos.

Lekin ruhoniy ishora bilan don Kixotning gapini bo'lmaslikni iltimos qildi.

– Ey aslzoda, taxti-tojdan mahrum etilgan sinora, – deb don Kixot gapida davom etdi, – basharti hurmatli otangiz – qirol Mikomikon mening qudratimga ishonmay, sizni boshqa qiyofaga kiritgan bo'lsa, iltimos qilaman, shu qiyofaga kirganingizga ishonmang, chunki dunyoda mening qilichim yo'l ochadigan joyda xavf-xatar bo'lmaydi. Dushmaningizning boshini sapchaday uzib tashlagan ekanman, hademay sizning boshingizga qonuniy ravishda o'zingizga taalluqli bo'lgan tojni kiygizaman.

Don Kixot malikadan javob kutib jim qoldi, u o'zini jiddiylikka solib, hozirjavoblik bilan javob qaytardi:

– Shavkatli G'amgin Qiyofa ritsar! Mening o'zgarib qolganligimni aytgan odamning gapiga mutlaqo ishonmang, chunki kecha qanday bo'lsam, bugun ham shundayman. G'olib qulingizning qudratidan foydalanish fikridan hali voz kechganimcha yo'q. Sinora, otam haqidagi yaxshi fikringizda qolavering, u juda donishmand odam. Axir, u sizni uchratishimni, mening himoyachim, xaloskorim bo'lishingizni oldindan bashorat qilgan. Men aminmanki, u sizni jahongashta ritsarlar ichida eng mashhuri hamda eng botiri deb bilgan fikridan hech qachon qaytmaydi.

Ertaga yana yo'lga ravona bo'lamiz, bugun kech bo'lib qoldi, ko'p yo'l yurishga ulgurmaymiz.

Aqlli qiz Doroteya ana shunday dedi. Uni eshitgan don Kixot g'azablanib, Sanchoga murojaat qildi:

– Shuni bilib qo'yki, Sancho, butun Ispaniyani axtarganda ham, senchalik ahmoqni topib bo'lmaydi. Ayt-chi, o'g'rivach-



cha, yaramas odam, hozirgina malika Doroteya degan oddiy qizga aylanib qolganini, men uzib tashlagan kalla vino solingan mesh ekanligini menga aytmadingmi? Xullas, shunday bemaza gaplarni aytdingki, umrim bino bo'lib bunchalik xijolatda qolmagandim. Xudo nomi bilan ont ichib aytamanki... (Shu payt ko'zini osmonga tikdi, tishlarini g'ijirlatdi) hoziroq dabdalangni chiqarib tashlayman! Bu barcha aldoqchi qurolbardorlar uchun yaxshigina saboq bo'lsin.

– Mendan achchiqlanmang, sinorim, – dedi Sancho bo-siqlik bilan. – Hamma narsa ilgarigiday qolgani, malika Mikomikon hech qanday qiyofaga kirmaganiga sizdan ko'ra ko'proq xursandman. Demak, bu ishda o'z ulushim – gubernatorlik yoki birorta orolni olish umidi yo'qolmaydigan bo'ldi. Xo'sh, devning o'rniga vino solingan meshlarga hujum qilganingizga kelsak, Xudo haqqi, adashganim yo'q. Teshilgan meshlar hozirgacha to'shagingizning bosh tomonida, qizil vinolar esa yerda ko'l-ko'l bo'lib yotibdi. Menga ishonmasangiz, ozgina sabr qilib turing. Hali ko'rasiz, sinor xo'jayin keltirgan ziyoningiz uchun mo'maygina pul talab qiladi.

– Menga qara, Sancho, meni kechirgin-u, lekin sen qip-qizil ahmoqning o'zisan. Nahotki, bu meni ta'qib etib yurgan yovuz sehrning qilmishi ekanligini tushunmasang? Lekin bu haqda gapni bas qilaylik, baribir, seni o'nglab bo'lmaydi.

– Bas, – deb takrorladi ruhoniylar ham, – bu haqda boshqa gapirmaylik. Modomiki, sinora malika ertaga jo'naymiz dedimi, shunday qilaylik. Oqshomdan sahargacha shirin suhbat qurib o'tiraylik, ertaga oliyjanob ritsar don Kixotning orqasidan yo'lga tushamiz, chunki uning yo'lda ko'rsatadigan quloq eshitmagan jasoratlari hamda qahramonliklarini ko'rishni istaymiz.

– Sizlarga xizmat qilish, kuzatib borish – mening burchim, – dedi don Kixot. – Menga ko'rsatgan iltifotlaring, mening haqimdagi yaxshi fikrlaring uchun bag'oyat minnatdorman. Jonimni qurbon qilib bo'lsa ham, ishonchlaringni oqlashga intilaman.

Bu orada kech kirdi, mehmonxona egasi ruhoniylarning buyrug'i bilan yaxshigina kechki ovqat hozirlash harakatiga

tushdi. Hamma stol atrofiga o'tirdi, don Kixotni esa, qarshilik ko'rsatsa ham, eng hurmatli joyga o'tqazishdi. Don Kixot malika Mikomikonning o'z himoyachisi bilan yonma-yon o'tirishini istadi. Ovqat mahalida xushchaqchaqlik avjiga chiqdi. Ayniqsa, don Kixot taqsimchani bir tomonga surib, zo'r havas bilan gapga tushganida, o'tirganlar xursandchiligining cheki bo'lmadi.

– Sinorlar, agarda yaxshigina aql yuritilsa, odamdagi barcha kasb-hunardan ritsarlik ustun turishini tan olish kerak. Ritsarlar ko'rsatgan jasorat oldida boshqa odamlarning ishi arzi-  
mas bir narsaday bo'lib qoladi. Manavi mashhur malika Mikomikonga hamda uning xaloscoriga bo'lgan menga qarab turib jahongashta ritsarlik kasbi va mahoratining odamlar o'ylab chiqargan kasb, mahoratdan ustun ekanligiga kim ham shubha bildira oladi? Ritsarlarning hayoti katta xavf-xatar va sinovlar bilan bog'liq ekanligini rad etishga kim ham jur'at eta oladi? Harbiy bilimdan yuqori bilimlar ham bor degan kishilar juda yanglishadilar. Aslida ular nima deyotganlarini o'zlari ham bilishmaydi. Ular keltirgan dalilga ko'ra, ma'naviy mehnat jismoniy mehnatdan ustun emish. Yana ularning fikricha, harbiy ishda ma'naviy fazilatlar hech qanday rol o'ynamas emish, go'yoki bunda mardikorlar hunaridek jismoniy kuchdan bo'lak hech nima talab qilinmas emish. Bizning raqiblarimiz shunday deyishlari bilan o'z nodonliklarini namoyish qiladilar, xolos. Biz harbiylar shunday ishlarni qilamizki, u zo'r aql hamda uddaburolikni talab qiladi. Nahotki, butun bir qo'shin yoki shaharning mas'uliyati zimmasida bo'lgan jangchining aqli tanasidan kamroq ishlasa? Faqat jismoniy kuchning o'zigina dushmanning niyatini, uning rejalarini, harbiy hiyla hamda makrlarini anglash, oldindan bilishga, sizga tahdid qilayotgan xavfni yo'qotishga yordam bera olarmidi? Bularning hammasi aqlning ishi, tana ishi emasligi ravshan. Endi ko'raylik-chi, kimning aqli o'tkirroq. Buni fan bilan harbiy ta'lim o'z oldiga qo'ygan vazifalarni muhokama qilish orqali bilamiz, chunki eng oliyjanob maqsadga intilgan aqlgina yuqori turadi. Fanning maqsad va vazifasi baxt-saodatni (ezgulikni) adolatli ravishda taqsimlash, har kimga o'z ulushini berish, saxovatli qonunlarning bajarilishi uchun jon

kuydirish hamda g'amxo'rlik qilishdan iborat. Bu maqsad, shubhasiz, oliyjanob, yuksak, zo'r maqtovg'a sazovordir, lekin harbiy ta'lim intilayotgan maqsad, har holda, ko'proq, maqtovg'a loyiq, chunki uning maqsadi – tinchlik, kishilar faqat osoyishta hayotdagina rohat-farog'atda yashashi mumkin. Ana shu tinchlik – urushning chinakam maqsadi, agar urushning maqsadi shu bo'lsa, jangchining maqsadi ham shu. Demak, harbiy ta'limning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari fan intilayotgan maqsadlardan muhimroq, yuqoriroq turadi.

Don Kixot shu qadar berilib, aniq va oqilona gapirardiki, shu damda o'tirganlardan birortasi ham uni tentak deyolmas, balki uning gaplarini jon qulog'i bilan eshitardi. U so'zida davom etdi:

– Xo'p, endi talabalar taqdirini olib ko'raylik. Ularning katta baxtsizligi – kambag'alchilik: talaba ko'pincha och qoladi, sovuq yeb qaltiraydi, g'aribona kiyinadi. Har holda, u bir burda nonini topib yeydi, bu zodagonlarning dasturxonini qoldig'i bo'lsa ham, tilanib olsa ham mayli, har qalay, havo sovuq kunlarda talaba uchun yaxshi odamlarning uyida isinib olishiga pechka yoki manqal<sup>1</sup> topiladi. Albatta, talabaning ko'ylagi oz, issiq to'n esa anqoning<sup>2</sup> urug'i ekanligi hammaga ma'lum. Albatta, ular qoqilib, yiqilib, yana o'midan turib ketayotgan yo'l og'ir, notekis, egri-bugri, lekin tirishqoqlik, intilish tufayli talaba orzu qilgan olimlik darajasiga erishadi, odam bo'ladi. Ana o'shanda uning uchun ma'murchilik, to'kin-sochinlik boshlanadi: u mazali ovqatlar yeydi, qimmat matolardan kiyimlar kiyadi, hamma yerda hurmat-izzat kutadi uni. Endi talaba bilan jangchining taqdirini bir-biriga taqqoslab ko'ring. Bu baxtiqaro jangchidan ham qashshoqroq odam olamda yo'q: u ozgina maoshga qanoat qilib yashaydi, lekin bu maoshni ham doimo ushlab qolishadi yoki mutlaqo to'lashmaydi. To'g'ri, ba'zida u talonchilik hisobiga ham kun o'tkazadi, lekin shuni ham unutmanglarki, u shu ishga qo'l urishi bilan o'z hayotini tahluka ostida qoldiribgina qolmay,

<sup>1</sup> Manqal (arabcha; ko'chma o'choq; otashdon, o'tdon) – ko'mir bilan yoqiladigan ko'chma o'choq.

<sup>2</sup> Anqo – topilmaydigan qush.

gunohga ham botadi. Lekin bunday gunoh orttirib tuzukroq umr kechirish hamma vaqt ham nasib bo'lavermaydi unga. Shuning uchun ham bir burda qattiq non topsa ham, shukur qiladi, issiq ovqatni esa kamdan kam uchraydigan lazzatli taom deb biladi, ana shuning uchun ham dabdalasi chiqqan sovuti odatda uning uchun shohona kiyim hamda ko'ylak o'rinda xizmat qiladi. Jazirama yoz kunlarida u quyosh taftida pishadi, qishda esa izg'irin sovuqda shamdek qotadi, o'z qaynoq nafasi bilangina o'zini isitadi. Kechasi o'rinda yotib, kunduzi azoblardan qutuladi deb o'ylamang. Agarda bu o'rin uning ko'ziga tor bo'lib ko'rinsa, bunga o'zi aybli, chunki yalang'och yerdan o'ziga yarasha joy o'lchab olib, choyshabning g'ijimlanishidan aslo cho'chimay, istaganicha rohat qilib yotishi mumkin. Va nihoyat, jang kunlari ham yetib keladi. Bu kun mard jangchiga qanday yuksak marhamatlar hadya qilishi mumkin? Agar daydi o'q chakkasini yalab o'tsa, doka yo latta-puttaldan boshiga tabiblar qalpog'i kiygiziladi yoki u jarohat olib, qo'li yo oyog'idan ajraladi. Basharti falak unga marhamat qilsa, jangdan sog'-salomat chiqadigan bo'lsa, yana ilgariyidek kambag'al, faqirligicha qolaveradi. U yana o'zini ko'rsatish uchun yangi jang yoki g'alabalarni kuta boshlaydi, bunday jangda esa u mukofot olishdan ko'ra, hayotini osongina yo'qotadi. Sinorlar, bir jangchi o'zini ko'rsatguncha qancha-qancha odam o'lib ketgani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Men qanday javob berishlaringni oldindanoq bilaman, sizlar o'lgan, mayib bo'lganlar ming-minglab topiladi, mukofotlangan odamlar esa barmoq bilan sanarli deysiz. Olimlar orasida ishlar butunlay boshqacha, to'g'ri emasmi? Ular tirikchilik o'tkazish uchun doimo biror narsa topa oladilar, yomon yashamaydilar. Demak, jangchining mehnati og'ir, lekin oladigan mukofoti oz. Endi hanuzgacha hal etilmagan, harbiy ishning boshqa fanlardan ustun turishi masalasiga yana qaytaylik. Ilm tarafdorlari bizsiz harbiy ish qila olmaydi, chunki urush o'z qonunlariga ega, bu qonunlarni faqat fan ochib beradi, xolos, deyshadi. Harbiy ish tarafdorlari esa ularga e'tiroz bildirib, agar harbiy mahorat bo'lmaganda edi, bu qonunlarning o'zi bo'lmas edi, zotan, shugina shaharlarni himoya qiladi, yo'l xavfsizligini

ta'minlaydi, dengizni qaroqchilardan qo'riqlaydi, xullas, hamma yoqda tinchlik, osoyishtalikni o'rnatadi, deb aytadi. Axir, ilgari-dan isbot qilingan-ku, nima qimmat tursa, u qadrlanishi, bahosi ham ortiq bo'lishi lozim. Olimlar mashhurlik hamda to'qchilikka qattiq mehnat qilish, och qolish, qashshoqlik, bosh qotirish, osh-qozonni bo'sh saqlash va boshqa narsalar evaziga ega bo'ladi. Biroq yaxshi jangchi bo'lish uchun jangchi olimning boshiga tushgan barcha qiyinchiliklarga bardosh berishi, buning ustiga har daqiqada o'z hayotini tahluka ostida qoldirishi zarur. Agar olimning ko'ngliga ehtiyoj hamda qashshoqlik vahima solib tursa, bu qamal qilingan qal'ada qolgan jangchining qo'rquvi oldida nima degan gap? Aytaylik, u birorta istehkom yoki qal'a oldida soqchilik qilyapti, u ana shu minor ostidan dushmanning lahm qazib kelayotgani, uni portlatmoqchi ekanligini sezadi. Biroq bu dahshatli qo'rquvga qaramay, o'z postini<sup>1</sup> tashlab ketishga haqqi yo'q. Uning qo'lidan keladigan birdan bir ish lahm haqida o'z kapitaniga xabar berib qo'yish, xolos, shundan keyin u yana o'z joyiga kelib turadi, yana bir daqiqadan keyin esa qanotsiz osmon-u falakka ko'tarilishini kutib o'tiradi. Lekin urushda bundan ham xavfliroq hodisalar yuz beradi. Tasavvur qiling, ochiq dengizda ikkita ko'p eshkakli kema bir-biriga changak tashlaydi: askarlar eni ikki fut keladigan taxta yo'lda turishga majbur, ularga ajal urug'ini sepuvchi dushmanning zambaraklari to'g'rilangan; ularning og'zi bir nayza bo'yichalik narida: sal bejo harakat jang qiluvchilarni dengiz tubiga g'arq qilishi mumkin, biroq shunga qaramay, or-nomus ustunlik qilib, ular dushman zambaragi o'qlariga ko'ksini qalqon qilishadi, torgina taxta yo'ldan borib, dushman kemasiga tashlanishadi. Bu yerda ajablanishga arziydigan narsa shuki, biri dengiz tubiga g'arq bo'lsa, boshqasi darhol uning o'rmini egallaydi<sup>2</sup>. Urush dahshat-

---

<sup>1</sup> Post (*fransuzcha*: poste – muayyan joyga qo'yilgan) – 1) qo'riqlash va mudofaa qilish uchun soqchiga yoki soqchilar guruhiga topshirilgan joy (*asarda shu ma'noda*); 2) muayyan hududni qo'riqlash, kuzatish uchun qo'yilgan yoki yordam ko'rsatish uchun uyushgan kishilar guruhi; 3) mas'uliyatli lavozim, mansab, vazifa.

<sup>2</sup> Servantes don Kixot tilidan dengiz jangining dahshatlarini tasvirlar ekan, Lepantodagi (1571) o'zi qatnashgan mashhur jangni beixtiyor eslaydi. Shu jangda Servantes ko'rsatgan fidokorona mardlik va jasorat hujjatlardan ma'lum.

lari ichida bunaqa jasurlik, mardlikni mutlaqo topa olmaysiz! Ana shu o't ochuvchi qurollar yaratilmasdan oldin jang qilganlar ancha baxtiyor edi; imonim komilki, kimki shu qurolni o'ylab chiqargan bo'lsa, u hozir o'zining shaytonga xos kashfiyoti uchun do'zaxda javob beryapti, azob tortyapti, chunki ana shu qurolning sharofati bilan jasur kabalero biror razil qo'rqoqning qo'lida hayotidan ajraladi. Jangchining jasur qalbini mardlik, matonat alangalatadi, to'satdan uzoq yillar shirin hayot kechirishga loyiq bo'lgan odamning o'ylarini ham, hayotini ham allaqayoqlardan uchib kelgan daydi bir o'q so'ndiradi. Jasur jangchini o'ldirgan qotil esa o'z la'nati mashinasining o'tidan talvasaga tushadigan qo'rqoq bir kishi bo'lib chiqadi. Shuning uchun ham ba'zida biz yashayotgan mana shunday jirkanch zamonda jahongashta ritsarlikni tanlaganimdan pushaymon bo'lib ketaman; garchi meni hech qanday xavf-xatar cho'chitolmasa-da, har qalay, porox yoki kichkinagina qo'rg'oshin parchasi qilichim kuchi bilan olamda shuhrat qozonishdan mahrum qilib qo'ymasa, deb xijolat tortaman. Xudo yor bo'lib, o'z niyatlarimni amalga oshira olsam, shunday xavf-xatarlarni bartaraf qilamanki, bunaqasini o'tgan zamon jahongashta ritsarlari mutlaqo ko'rman, ana shunda men shon-shuhratga botaman.

Don Kixotning uzundan uzoq nutqi ana shunday bo'ldi. U gapga shu qadar berilib ketdiki, Sanchoning, avvalo, ozgina tamaddi qilib olib, keyin fikr yuritish lozimligini aytishga qaramay, ovqatdan bir luqma ham totmadi. Dasturxon atrofida o'tirgan boshqa kishilar esa, mana shunday aqlli, shirin so'z odamning gap ritsarlik tomon burilishi bilanoq tentakdan farqi bo'lmay qolishidan beixtiyor afsuslanishdi. Ruhoniy, garchi o'zi olimlar tabaqasiga mansub bo'lsa-da, don Kixotning fikrlariga to'liq qo'shilganini aytdi.

Don Kixotning nutqini faqat ruhoniygina emas, balki hamma quvvatladi: barchalari mamnun va xursand edilar. Bu orada vaqt yarim kechadan og'ib qolgan, shu boisdan tunning qolgan qismida dam olishga jazm etishdi. Faqat don Kixotgina dam olmasligini va tonggacha qal'ani qo'riqlamoqchiligini aytdi.

– Nima hodisa bo'lishini kim bilsin? – dedi ritsar. – To'

satdan birorta dev yoki yovuz sehrgar hujum qilib qolishi ham mumkin-da.

Atrofdagilar unga minnatdorlik bildirib, yotishga hozirlana boshlashdi. Xonimlar o'z xonalariga kirib ketishdi; erkaklar to'g'ri kelgan joyda yotib qoldi. Sancho esa boshqalardan ko'ra durustroq o'mashib, otxonadagi eshagi abzallariga yonboshladi. Don Kixot esa hali ham qal'a deb yurgani karvonsaroyini qo'riqlash uchun Rosinantiga minib yo'lga chiqdi.

## YIGIRMA OLTINCHI BOB

### KARVONSAROYDA YUZ BERGAN G'AROYIB HODISA

Butun mehmonxona chuqur uyquga cho'mdi, faqat xo'jayinning qizi bilan xizmatkor qiz Maritornesgina uyg'oq. Ular don Kixotning otlig, to'liq qurollangan holda karvonsaroy atrofiga aylanib yurganini ko'rishib, u bilan hazillashmoqchi bo'lishdi.

Hamma uylar ichida faqat bitta chordoqning derazasi yo'lga qaragan edi. Hazilkashlar shu deraza yoniga joylashib, don Kixotni ko'rib turishdi; u otda nayzasiga suyanganicha o'tirar, vaqti-vaqti bilan xuddi yuragi yorilib ketayotgandek chuqur, g'amgin xo'rsinib qo'yardi. U xo'rsinarkan, muloyim qilib shunday derdi:

– O, malikam Tobosolik Dulsineya – go'zallarning go'zali, aql xazinasi, saxovatlar egasi, olamdagi barcha eng yaxshi narsalarning timsoli! Shu tobda nima qilib o'tiribsan? Senga xizmat qilish niyatida xavf-xatar yo'lga kirgan, ishqingda yongan ritsarni eslamayapsanmikin? Ey, to'lin oy, undan menga xabar keltir! Ehtimol, sen hozir uning yuziga tikilib turgandirsan, uning hashamatli saroyi ko'shkida kezib yurganini yoki shiyponda panjaraga suyanib, senga tikilib, mening haqimda o'y surayotganini, mening majruh qalbimni ezilayotgan dardni o'zining shon-shuhrati, nomusiga xalal yetkazmay yumshatish haqida o'ylayotganini ko'rib turgandirsan. Ehtimol, u tortgan

azoblarim evaziga xursandlik, dardmandlikka – yupanch, o'lim o'rninga hayot, xizmat evaziga iltifot ko'rsatish to'g'risida bosh qotirayotgandir! Ey, tog'lar ortidan ma'shuqam bilan diydor ko'rishishga oshiqayotgan nurli quyosh, yolboraman senga, mendan unga salom ayt! Lekin unga tikilib turib, yuzidan bo'sa ola ko'rma, yo'qsa uni sendan rashk qilaman, rashkim shu qadar kuchliki, Fessal vodiysidami yoki Peney sohillaridami, anig'i esimda yo'q, chopqir nimfani<sup>1</sup> quvib, unga rashk qilgan sen go'zal Febning rashki menikining oldida hech narsa emas<sup>2</sup>.

Don Kixotning ta'sirchan gapi xuddi shu yerga yetganda, xo'jayinning qizi uni asta chaqirib qoldi:

– Muhtaram sinor! Marhamat qilib bu yoqqa kelsangiz!

Don Kixot uning ovozi kelgan tomonga boshini burdi va hamma yoq sutdek oydinga g'arq bo'lgan bir paytda kimdir uni deraza tomonga chaqirayotganini ko'rdi (deraza uning ko'ziga hashamatli qal'alardagi katta, oltin panjarali derazaga o'xshab ko'rindi, chunki uning mehmonxonani qal'a deb bilganidan xabarimiz bor); o'sha zahoti uning ojiz tasavvurida, o'tgan safar-gidek, qal'a bekasining go'zal qizi qalbidagi muhabbat jo'sh urib, o'z sha'niga dog' tushirishdan ham qo'rqmay, Tobosolik Dulsineyaning shafqatsizligidan azob chekkan ritsarning dardini yengillatmoqchi va uni yupatmoqchi degan xayol jonlandi. O'zini odobsiz deb o'ylamasliklari uchun Rosinantning boshini burib, derazaga yaqinlashdi-da, xo'rsinib gap boshladi:

– Ey, sohibjamol xonim! Sizning iltifotingiz, ulug' saxovatingizga munosib bo'lmagan bir kishiga bunchalik iltifot qilayotganingizdan afsuslanaman. Buning uchun mendek tolei past

<sup>1</sup> Nimfa – yunon afsonalarida tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohasi.

<sup>2</sup> ... chopqir nimfani quvib, unga rashk qilgan sen go'zal Febning rashki menikining oldida hech narsa emas... – Feb (Apollon) – qadimgi yunonlar afsonalarida tasvirlangan yorug'lik, she'riyat va musiqa ma'budi. Don Kixot Apollon va Dafna to'g'risidagi afsonani nazarda tutgan. Apollon Fessaliya vohasida tentirab yurib, daryolar ma'budi Peney bilan yer ma'budining qizi nimfa – yunonlar afsonalarida tabiatning turli-tuman kuchlarini ifoda etuvchi ikkinchi darajali ma'bud – Dafnani sevib qoladi. Biroq Dafna undan Levkip ismli o'smimi afzal ko'radi. G'azab va rashk o'tida yongan ma'budi nimfani doimo nazorat-ta'qib qiladi. Bir safar Feb Dafnani quvib yetib oladi va qizni endi tutmoqchi bo'lganida shu zahoti nirusaning onasi uning oyog'i ostidagi yerni yorib yuboradi. Dafna g'oyib bo'ladi, u yerdan dafna daraxtchasi o'sib chiqadi.



jahongashta ritsarni koyimasligingiz lozim, chunki uning muhabbati bir ko'rgandayoq, ishq ko'nglini zabt etgan ma'shuqasidan boshqaga xizmat qilolmaydi. Ey go'zal sinora, g'azablanmang, meni unuting, o'z oromgohingizga kirib keting, meni o'z marhamatingizdan bahramand qilishga urinmang, meni o'z holimga qo'ying. Lekin muhabbat bilan emas-u, boshqa yo'l bilan muruvatingiz uchun minnatdorchilik bildirolsam, mayli, istagingizni so'rang. Go'zal raqibam, hozir yonimda bo'lmagan qalbim hukmdori nomi bilan ont ichib aytamanki, nimani istasangiz, darhol bajo keltiraman. Ilonlardan o'rilgan meduzaning<sup>1</sup> sochini yoki shishaga qamalgan quyosh nurini talab qiling, hammasini muhayyo qilaman.

– Sinor ritsar, bekamga bularning hech qaysisi darkor emas, – deb uning gapini bo'ldi Maritornes.

– Bekangizga nima kerak ekan, ey nazokatli xonim? – deb so'radi don Kixot.

– Bekam qo'lingizni cho'zishingizni iltimos qilyaptilar, xolos, – deb javob qildi Maritornes. – U qo'lingiz tegishi bilanoq, o'zini mana shu derazada ko'rinish kabi o'z sha'niga dog' tushirishdek xavfli qadamga undagan ishtiyoq tug'yoni tinchiydi, degan umidda; mabodo sinoraning otasi uning bu qilmishini bilib qolsa, eng yengil jazo berganda, bekamning qulog'ini kesib tashlaydi.

– Koshki, shunday bo'la qolsa! – xitob qildi don Kixot. – Qani, shunday qilib ko'rsin-chi, oshiqi beqaror qiziga qo'l ko'tarishga jur'at etgan shafqatsiz otani qanday og'ir jazo kutsa, uni ham shunday jazo kutadi!

Maritornes don Kixotning o'z iltimosiga ko'ndayotganini ko'rib, zing'illaganicha pastga tushdi, otxonaga kirib, Sancho Pansa eshagining no'xtasini oldi va o'sha zahotiyoyq orqasiga qaytdi, xuddi shu tobda don Kixot Rosinantning egariga oyog'ini qo'yib, o'zi tasavvur qilgan hamda ortida muhabbat o'qidan ko'ksi yaralangan qiz turgan panjarali derazaga qo'lini cho'zib

---

<sup>1</sup> **Gorgona Meduza** – Qadimgi yunon afsonalarida tasvirlangan sochlari o'mida ilon bo'lgan ayol. Unga qaragan odam toshga aylanib qolgan. Uni yarim odam, yarim ma'bud Persey o'ldirgan.

shunday deyayotgan edi:

– Sinora, bu qo‘lni, to‘g‘rirog‘i, yovuzlar gardaniga qamchi bo‘lib tushguvchi qo‘lni qabul etgaysiz. Takror aytaman, hali hech kimsaning, hatto ishq ko‘nglimni band etgan vujudim xoqonining ham qo‘li tegmagan mana shu qo‘llarimdan ushlang. Men uni sizga bo‘sa olish uchun emas, balki undagi paylarning chayirligini, mushaklarning o‘ynab turishini, tomirlarining bo‘rtib chiqqanligini ko‘rib, qo‘l egasining kuch-qudratiga baho bering deb cho‘zayotirman.

Shunda Maritornes: – Uni hozir ko‘ramiz, – dedi.

U no‘xtadan sirtmoq yasab, don Kixotning qo‘liga soldi, bir uchini eshikning lo‘kidoniga mahkam bog‘ladi. Qayish sirilib qo‘li og‘riganini sezgan don Kixot shunday dedi:

– Nazarimda, marhamatli xonim qo‘limni nozik barmoqlari bilan emas, temir iskanja bilan qisayotganga o‘xshaydilar-a. Qo‘limga bunchalik azob bermang, sizga yetkazgan ozorimda uning hech qanday aybi yo‘q. Shuni bilib qo‘yingki, oshiq ko‘ngliga bunchalik beshafqat o‘ch olishni tugib qo‘ymaydi.

Biroq don Kixotning gapini hech kim eshitmadi. Ikkala qiz ham kula-kula qochib ketishdi, u esa qo‘li bog‘langanicha qolaverdi.

Bechora zo‘r tashvish va qo‘rquvda qoldi. Rosinant sal qimirlasa tamom, ritsarimiz bir qo‘li bilan osilib qoladi. Shu sababli u qimirlashga qo‘rqar, butun umidi yuvosh, itoatkor otida edi. Nihoyat, don Kixot bog‘lanib qolganini, xonimlarning esa qayoqqadir qochib ketganliklarini fahmladi va bu ishda yana sehrgarlar ishtirok etganlar deb o‘yladi, albatta. Shunda u o‘zining befarosatligi va soddaligiga la‘natlar o‘qiy boshladi: u yaqindagina anchagina ko‘ngilsizliklarni ko‘rgan qal‘aga yana kelmasligi kerak edi. Axir, jahongashta ritsarlarning qonunida, agar biror ritsarning sarguzashti baxtsizlik bilan tugasa, unda bu boshqa bir ritsarning qismati ekanini anglatadi, inchunin, unga yana qo‘l urmaslik lozim deyilgan-ku. Ana shularni o‘ylab, u qo‘lini bo‘shatish uchun hadeb siltayverdi. Lekin uning xatti-harakatlari natijasiz edi, qayish tobora uning qo‘lini qattiqroq qisar, og‘riq esa battar kuchayardi. Birorta odam yordamga kelib

bo'shatib yubormagunicha, uning egar ustida qimirlamay turishdan boshqa iloji qolmagan edi. U barcha sehr-afsunlarni parcha-parcha qiluvchi Amadisning qilichini qo'msadi, o'zini mana shu derazaga bog'lab qo'ygan taqdirni la'natladi, axir, hozir uning yordamiga qanchadan qancha aziyat chekkan, och-yalang'och odamlar muhtoj ritsarimiz o'z ma'shuqasi Tobosolik Dulsineyadan ham xayolan madad so'radi va nihoyat hozir butun yorug'jahonni unutilib, eshagining egarini boshiga qo'yib dong qotib uxlab yotgan sadoqatli qurolbardori Sancho Pansani chaqira boshladi. Sancho eshitmayotganiga ishongan don Kixot donishmandlardan Lirgandeo bilan Alkifoni yordamga chaqirdi, saxovatli Urgandudan himoya qilishini o'tina boshladi. Nihoyat, tong yorisha boshlaganda u shu qadar talvasaga va besaranjomlikka tushdiki, ho'kizday bo'kiraverdi. Ritsarimizga kunduz ham ozodlik baxsh etmaydiganday, mana shu yerda umrbod sehlanganicha qoladiganday bo'lib tuyuldi. Undagi bu ishonchning mustahkamlanib qolishiga Rosinantning o'zini g'alati tutishi ham sababchi bo'ldi: vafodor ot tun bo'yi qoqqan qoziqday qilt etmay turdi. Ritsarimiz bu yomon alomat, demak, otim bilan birgalikda samoviy mavjudotlarning yovuz ta'siri tugamaguncha yoki boshqa bir sehrgar bu sehrni yo'q qilmaguncha shu ko'yi yemay, ichmay, uxlamay turaverarkanman deb o'yladi.

Tong yorisha boshlashi bilanoq karvonsaroyga otlarining egariga mushket<sup>1</sup> osgan, bashang kiyingan to'rtta otliq yetib keldi. Mehmonxona darvozasi berk bo'lgani uchun kelgan odamlar uni taqillata boshladilar. Ularni ko'rgan, hech narsaga ahamiyat bermay, o'zini soqchi deb his etgan don Kixot g'azab bilan qichqirdi:

– Ritsarlarmisiz, qurolbardorlarmisiz, kim bo'lishingizdan qat'i nazar, bu qal'aning darvozasini taqillatishni bas qiling! Shunday kallai saharda qal'a egalarining uxlayotganiga, quyosh zarrin nurlarini olamga sochgandagina darvozalar ochilishiga nahotki aqlaring yetmasa? Kun yoyilguncha sabr qilinglar, ana

<sup>1</sup> Mushket (*fransuzcha*) – VI asrda ixtiro qilingan, taglikka o'ratib otiladigan yirik kalibrli pilta miltiq.

shundan keyin sizlarni bu yoqqa qo'ysa bo'ladimi-yo'qmi ekanligini bilamiz.

– Bu qanaqasiga qal'a bo'lsin? Nimalar deyapsiz, axir? Karvonsaroyda takallufga o'rin bormi?! Agar siz karvonsaroyning egasi bo'lsangiz, buyruq bering: darvozani ochishsin, biz sayyohlarmiz, otlarimizni ovqatlantirib olgach, yana yo'lga tushamiz, juda shoshilyapmiz.

– Janoblar, nahotki, men karvonsaroy egasiga o'xshasam? – deb so'radi don Kixot.

– Kimga o'xshashingizni bilmayman, – dedi otliq. – Faqat qo'noqxonani qal'a deb safsata sotib o'tirganingizni bilaman, xolos.

– Bo'lmasam-chi, bu qal'a-da, – dedi don Kixot, – shu atrofdagi eng yaxshi qal'a, bu yerda qo'lida saltanat hassasini tutgan, boshiga toj kiygan odamlar panoh topishgan.

– Nazarimda, bu yerda masxarabozlar truppassi<sup>1</sup> to'xta-ganga o'xshaydi: ma'lumki, ularda ko'pincha qattiq qog'ozdan yasalgan tojlar, saltanat hassalari bo'ladi; bunday qashshoq, ko'rimsiz qo'noqxonada o'shalardan boshqa qirol hamda shahzodalarga balo bormi?

– Agar jahongashta ritsarlar boshiga tushgan sarguzashtlardan bexabar bo'lsangiz, – deb e'tiroz bildirdi don Kixot, – dunyoni bilmas ekansizlar.

Biroq don Kixot bilan gap talashish tun bo'yi yo'l yurib kelgan otliqlarning yuraklariga sig'masdi. Ular darvozani shu qadar g'azab bilan taqillata boshladilarki, qo'noqxonadagilarning hammasi uyg'onib ketdi, qo'noqxonaga egasi esa kim taqillatayotganini bilgani chiqdi. Shu payt otliqlardan birining oti, quloqlari shalvirab, o'yg'a tolqanday boshini quyi solib qimirlamay osilib qolgan egasini ko'tarib turgan Rosinantga yaqinlasharkan, uni hidlay boshladi. Garchi Rosinant yog'ochday qotib tursa ham, uning tomirlarida qon ko'pirib oqardi: u ham erkalashga nisbatan hissiz qolmadi, o'z navbatida og'aynisini iskay boshladi. Biroq u sal qimirlashi bilanoq don Kixot-

---

<sup>1</sup> Truppa (*nemischa*: Truppe – qism, guruh) – teatr yoki sirk aktyorlari jamoasi.

ning oyoqlari siljib, egardan sirg'alib ketdi, agar no'xtaga osilib qolmaganida yerga gursillab yiqilardi. Shunda u shu qadar qattiq og'riqni sezdi, xuddi qo'lini yelkasidan sug'urib olayotganday bo'ldi. Oyoqlari yerga tegay-tegay deb turardi, lekin bundan uning ahvoli yengillashmadi: yana ozgina cho'zilsa, oyog'i yerga tegishini ko'rgan don Kixot jon-jahdi bilan yerga yotishga harakat qilib ko'rdi, biroq bundan og'riq zo'raydi, xolos. Nihoyat, azob chidab bo'lmaslik darajasiga yetdi, don Kixot shunday bo'kirib yubordiki, qo'noqxona egasi shoshilib darvozani ochdi, dahshat ichida qichqiriq kelgan tomonga yugurdi. Dod-voydan Maritornes ham uyg'onib ketdi; gap nimadaligini darhol fahmlab, hech kimga sezdirmay xonaga yugurib kirdi va don Kixot osilib turgan no'xtani yechib yubordi, ritsar yerga shaloplab tushdi. Shu payt uning oldiga xo'jayin bilan sayyohlardan bir nechtasi yetib kelishdi, uni qurshab olishib, nima hodisa bo'lganini, nega qichqirganini so'ray boshlashdi. Ritsarimiz esa hech kimga javob bermay, qo'lidagi sirtmoqni yechib tashlab, o'mnidan turdi-da, Rosinantga mindi, qalqonini qo'lga olib, nayzasini tik ushlagancha oldinga chopish uchun orqaga tisarildi, so'ngra baqirganicha ot qo'yib keldi:

– Kimki meni birorta gunoh uchun sehrlangan degudek bo'lsa, malika Mikomikon ijozati bilan uni yolg'onchi deb ayta-man, undan javob talab qilaman hamda yakkama-yakka jangga chaqiraman.

Don Kixotning gaplari yangi kelgan kishilarni hayratda qoldirdi, lekin xo'jayin don Kixotning kimligini tushuntirib, unga e'tibor bermaslikni, uning aqldan ozganligini aytdi.

Bu orada tong tamoman yorishib, quyosh nurlari, shuningdek, don Kixot ko'targan shovqin karvonsaroydagilarni uyg'otib yubordi. Qo'noqxona hovlisi asta-sekin odamga to'la boshladi. Yangi kelganlar o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lib, don Kixotga hech e'tibor bermadilar, shu sababli ritsarimiz alamiga chidolmay fig'oni falakka chiqdi. Agarda don Kixot ritsarlik ordenining nizomida jahongashta ritsarlar garchi ilgari biror jaso-rat ko'rsatish yo'lida ont ichgan bo'lsa-da, yangi sarguzashtga bosh qo'shishi mumkin degan bandini topa olganida bormi, ular-

ni hol-joniga qo'ymay chaqiriqni qabul qilishga majbur etgan bo'larmidi, balki. Biroq malika Mikomikonning podsholigini olib bermagunicha tasodifiy to'qnashuvlarda qatnashishini odob-sizlik hamda o'z hayotini tahlika ostida qoldirish deb tushundi, shuning uchun ham o'zining urishish niyatidan qaytdi. Xuddi shu payt darvoza yonidan qichqiriq eshitildi: xo'jayinning yangi kelganlar bilan band ekanini ko'rgan, qo'noqxonada tunagan ikki kishi ijara haqini bermay juftakni rostlab qochmoqchi bo'lishdi; lekin xo'jayin ularni darvoza oldida tutib oldi-da, haq to'lashlarini talab qildi; u og'zidan bodi kirib, shodi chiqib so'kinardi, qochmoqchi bo'lganlar quturgancha musht do'layib unga tashlanishdi. Bechora xo'jayin baqirib, odamlarni yordamga chaqira boshladi, lekin hamma o'z ishiga shunchalar berilib ketgan ediki, hech kim dod-voyga e'tibor bermadi: shu payt xo'jayinning qizi nariroqda turgan don Kixotga murojaat etib xitob qildi:

– Sinor ritsar, muhtaram janoblari, xudo sizga bitmas-tuganmas kuch ato qilgan ekan, bechora otamga yordam bering, anavi yaramaslar uni do'pposlashyapti.

Uning bu gapiga don Kixot xotirjamlik bilan javob berdi:

– Ey go'zal qiz, hozir sizning iltimosingizni bajo keltira olmayman, chunki o'z zimmamga olgan jasoratni oxiriga yetkazmagunimcha yangi sarguzashtlarga aralashmaslikka va'da berganman. Yo'qsa shunday qilaylik: borib otangizga ayting, ular bilan qattiqroq mushtlashaversin, aslo bo'sh kelmasin, bu orada men unga yordam berish uchun malika Mikomikondan ijozat olaman; agar u ruxsat bersa, ko'nglingiz to'q bo'laversin, uni, albatta, qutqarib olaman.

– Voy, sho'rim qursin! – dedi shu yerda turgan Maritornes. – Muhtaram janoblari ruxsat olib kelgunlaricha xo'jayinim narigi dunyoda bo'ladi.

– Sinora, faqat ruxsat olsam bo'lgani, – deb javob qildi don Kixot, – xo'jayiningiz u dunyoda bo'ladimi, yo'qmi – menga bari bir: u dunyoda butun do'zax menga qarshi tursa ham, uni qutqarib kelaman. Uning uchun shunday o'ch olamanki, sizlar bag'oyat mamnun bo'lasizlar.

U shu so'zlarni aytarkan, jahongashta ritsarlarga xos qiyo-

faga kirib, Doroteyaning qarshisida tiz cho'kdi va hazrati oliyalaridan shiddatli jang qilayotgan qal'a egasiga yordam berishi uchun izn so'radi. Malika jon-jon deb ruxsat berdi, don Kixot qo'liga qalqon bilan qilichini olib, o'sha zahoti xo'jayinini hanuzgacha do'pposlayotgan ikkala odam oldiga – qo'noqxona darvozasi tomon chopib ketdi, lekin ularga yaqinlashgach, Maritornes bilan bekaning xo'jayinga tezroq yordam berishini so'rab qichqirishayotganga ham qaramay, to'satdan taqqa to'xtab qoldi.

– Men shuning uchun shoshilmayapmanki, – dedi don Kixot, – qora xalqqa qarshi qilich ko'tarish menga yarashmaydi. Qurolbardorim Sanchoni bu yoqqa chaqiringlar, chunki bunday hollarda o'ch oluvchilik, himoya qilish uning zimmasida bo'ladi.

Bu orada tepki va mushtlar xo'jayinga shu qadar ko'p yog'ildiki, Maritornes, beka va uning qizi xo'jayinlari, eri, otasining ahvoli og'irlashganini ko'rib, don Kixotning shoshilmayotganidan jahllari chiqdi.

Xuddi shu payt qo'noqxonaga don Kixot Mambrin dubulg'asini, Sancho Pansa eshagidan egar-jabdug'ini tortib olgan o'sha sartarosh kelib qolsa bo'ladimi! Sartarosh eshagi bilan otxonaga kirdi, u yerda egar atrofida ivirsib yurgan Sancho Pansani ko'rib qoldi. O'z narsalarini ko'rib, o'sha zahotiyoq qurolbardorga tashlandi.

– A-a, o'g'ri janoblari, qo'lga tushding-ku! O'g'irlab ketgan jomni, egar-jabduqni bu yoqqa cho'zing endi! – deb baqira boshladi u.

To'satdan qilingan hujum tufayli Sancho qaddini rostladiyu, o'ylab turmay sartaroshning basharasiga boplab musht tushirdi, uning og'zi-burni qonga belandi. Biroq sartarosh egarni mahkam ushlab olib shunday qichqirdiki, qo'noqxonadagilarning hammasi bu shovqinni eshitib shu yoqqa yugurishdi. Sartarosh dod solardi:

– Adolat, haqiqat qilinsin! Qirol nomi bilan! Mana bu o'g'ri, yo'lto'sar mening egarimni o'g'irlab olgandi, endi o'zimni o'ldirmoqchi.

– Yolg'on, – javob qildi Sancho, – men yo'lto'sar emasman! Bu egarni xo'jayinim don Kixot odil jangda qo'lga kiritgan.

– Odil jangda? – baqirdi g‘azablangan sartarosh Sanchoga musht do‘layib. – Voy muttaha-m-e!

Sancho sartaroshga qarshi zarba berdi, har ikkisi rosa mushtlashdi. Yetib kelgan odamlar oradan nima gap o‘tganligini, kim haq-u, kim nohaq ekanligini bilmaganliklari uchun janjalga aralashmay, baqrayib turishardi.

Bu orada don Kixot qo‘noqlarni o‘z qarzlarni to‘lab, qo‘noqxona egasini tinch qo‘yishlariga iqror qilgan edi.

Shundan so‘ng o‘z qurolbardorining shovqin-suronini allaqachonlar eshitgan ritsarimiz nima gapligini bilish uchun otxona tomon yugurdi. Sanchoning sartarosh bilan chaqqon jang qilayotganini ko‘rgan don Kixot o‘z qurolbardorining jasoratidan mamnun bo‘ldi va imkon bo‘lishi bilanoq uni ritsarlikka o‘tkazishga qaror qildi, zotan, dovyurak Sancho ritsarlar ordeniga sharaf bilan xizmat qilishi mumkin edi.

## YIGIRMA YETTINCHI BOB

### KARVONSAROYDA YUZ BERGAN G‘ALATI HODISALARNING DAVOMI

Sartarosh bilan Sancho Pansa o‘rtasidagi janjal tobora kuchayib borardi.

– Qaranglar, sinorlar, – deb qichqirardi sartarosh hovliga to‘planib, mushtlashishni kuzatib turganlarga qarab, – mana bu muttaha-m mening egarimni o‘g‘irlagan. Bir kuni kelib xudoning menga o‘lim yuborishi qanday haq bo‘lsa, egarning menikiligi ham shunday haq. Og‘ilni qarang, eshagim o‘sha yerda, u yolg‘on gapirma-sa kerak. Ishonmasanglar, o‘zlaring eshagimni egarlab ko‘ringlar, basharti egar unga to‘g‘ri kelmasa, mayli, meni muttaha-m deya qolinglar. Bundan tashqari, bu qaroqchi soqol olishga ishlatadigan yap-yangi, bir eskudoga<sup>1</sup> sotib olgan

<sup>1</sup> Skudo, eskudo (*ispancha va portugalcha*; aynan gerb) – Portugaliyada XV asrdan (vazni 4,6 g), Ispaniyada XVI asrdan (vazni 3,42 g) va Lotin Amerikasining bir qancha mamlakatlarida muomalada bo‘lgan oltin tanga.



jomimni ham ilib ketibdi.

Don Kixot buni eshitgach, o'zini to'xtatib qololmadi: urishayotganlarning o'rtasiga tushib, ularni ajratib, qaysi tomon haqligi aniqlanguncha egar hammaning ko'ziga ko'rinib tursin deb, uni yerga qo'yib qo'ydi-da, shunday dedi:

– Sinorlar, Mambrinning dubulg'asi bo'lib kelgan, bo'lib kelayotgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladigan narsani sartaroshlik jomi deb atayotgan mana bu oliyjanob qurolbardor yo'l qo'ygan chalkashlik nimadan iboratligi hozir sizga ayon bo'ladi. Men bu dubulg'ani undan halol jangda tortib olganman, shundan buyon uning qonuniy xo'jayinidirman! Bu odam qaysi egar haqida gapirayapti, sira tushunolmayapman. To'g'ri, qurolbardoringa bu sho'ring qurg'ur qo'rqqning otidagi egar-jabdug'ini olishiga izn berganim sal-pal yodimda. Modomiki, endilikda otning egar-jabdug'i o'zgarib, eshakning egariga aylanib qolgan ekan, men buni mo'jizadan bo'lak narsa deb tushunolmayman: ritsarlik sarguzashtlarida bunday o'zgarib qolishlar tez-tez yuz berib turadi. Hozir bunga o'zingiz amin bo'lasiz. Qani, bo'tam Sancho, yugurib borib, mana bu oliyjanob odamga sartaroshlik jomi bo'lib ko'ringan dubulg'ani olib kelchi.

– Jin ursin, sinor, – deb javob berdi Sancho, – haqligimizni isbotlashga boshqa dalilimiz yo'q ekan, manavi egar-jabduq, otniki bo'lsa, sartaroshlik jomi ham Mambrinning dubulg'asi bo'lib chiqadi-da.

– Amrimni bajar, – qat'iylik bilan uning so'zini bo'ldi don Kixot. – Bu qal'adagi narsalarning hammasi ham sehrlab qo'yilmagan-ku, axir!

Sancho jomni keltirgach, don Kixot uni to'planganlarga ko'rsatib, shunday dedi:

– Sinorlar va kabalerolar! Mana bu tilla dubulg'aga qarab, uning sartaroshlik jomiga o'xshash-o'xshamasligini o'zla-ringiz bir o'ylab ko'ringlar... Mana bu qurolbardor bizni bir chaqaga arzimagan sartaroshlik jomini o'g'irlashda ayblab naqa-dar uyatsizlik qilmoqda. O'zim tobe bo'lgan ritsarlik ordeni haqqi, qasamyod qilib aytamanki, bu men undan tortib olgan o'sha

dubulg'a, men uning hech narsasini yo'qotganim ham, unga hech narsa qo'shganim ham yo'q.

– Ha, bu to'g'ri gap, – dedi shunda Sancho, – chunki mening xo'jayinim dubulg'ani qo'lga kiritgandan buyon uni atigi bir marta kiyib, ya'ni kishanlangan baxtsiz kimsalarni ozod etishda jang qilgan. Agar o'shanda xo'jayinimning boshida mana shu sataroshlik dubulg'asi bo'lmaganda ahvoli chatoq edi, chunki bu jangda boshimizga do'lday tosh yog'ilgan edi.

– Qani, buni sataroshlik jomi emas, dubulg'a deb turib olgan bu janoblar to'g'risida siz, azizlar, nima deysizlar? – deb qichqirdi satarosh.

– Buning aksini aytishga kim jur'at eta oladi! – deb xitob qildi don Kixot. – Agar bu ritsar bo'lsa, nohaq gap aytayotganini, mabodo qurolbardor, unga ming karra yolg'on gapirayotganini isbotlab beraman.

Mazkur munozara paytida shu yerda hozir bo'lgan usta Nikolas hammaning kayfini chog' qilish niyatida don Kixotni qo'llab-quvvatlashga jazm etdi, shuning uchun ham sataroshga murojaat qilib, shunday dedi:

– Sinor satarosh, shuni bilib qo'yingki, men, avvalo, sizning kasbdoshingizman, mana, yigirma yildan ko'proq vaqtdan buyon shu kasbni qilaman, shunday ekan, birorta ham sataroshlik asbobi yo'qki, men uni bilmagan bo'lay. Bundan tashqari, yoshligimda askarlik xizmatini o'taganman. Binobarin, tasdiqlaymanki, oq rang qora rangga, haqiqat yolg'onga qanday o'xshash bo'lsa, mana bu muhtaram sinor qo'lidagi buyum ham sataroshlik jomiga shunday o'xshaydi. Ko'p narsalar yetishmasa ham, aytamanki, bu haqiqiy dubulg'a.

– Albatta, yetishmaydi-da, – dedi don Kixot. – Avvalo, sipari yo'q.

– Mutlaqo to'g'ri, – gapga aralashdi satarosh do'stining niyatini tushungan ruhoniy.

Bu hazil hammaga yoqib tushdi, to'planganlar orasida bir necha kabalero bor edi, ular ham don Kixotning qo'lidagi narsa sataroshlik jomi emas, balki dubulg'a deb bir ovozdand tasdiqlashdi.

– Ey xudo, o‘zing kechir, – deb xitob qildi gangib qolgan sartarosh. – Shuncha muhtaram odamlar buni qanday qilib jom emas, dubulg‘a deyishyapti? Bunday holda butun bir dorilfunun hayratda qolishi mumkin. Mayli, nima qilay, mana bu sinor aytganday, jomim dubulg‘a bo‘lib chiqqanidan keyin eshagimning egari ham otning jabdug‘i bo‘ladi-da.

– Barcha ritsarlik ishlarida biz sinor don Kixotni eng yaxshi hakam deb bilamiz, – dedi ruhoniy, – shunday ekan, buning eshakning egari yoki otniki ekanini u hal qilib berishi kerak.

– Xudo haqqi qasamyod etamanki, sinorlar, – dedi don Kixot, – bu qal‘ada ko‘pgina g‘aroyib hodisalarga duch keldim, shuning uchun ham rostini aytsam, bu yerda sodir bo‘lgan har qanday voqea to‘g‘risida hukm yuritishga menda jur‘at yo‘q. Menimcha, bu yerdagi hamma voqealar qandaydir sehrgarlik natijasida sodir bo‘layotir. Mana bugun kechasi ham men naq ikki soat qo‘limda osilib turdim, nega mening boshimga bunday kulfat tushganini o‘zim ham bilolmay qoldim. Shunday ekan, hakamligni o‘z zimmamga olish men tomonimdan yengiltaklik bo‘lur edi, ana shuni e‘tiborga olib, bu vazifani sizlarning ixtiyoringizga topshiraman, sinorlar. Ehtimol, mendek ritsarlik safiga o‘tmaganingiz sababli sehr kuchi sizlarga ta‘sir etmas, binobarin, bu qal‘ada sodir bo‘layotgan hodisalarni, menga tuyulganidek emas, asl hoida ko‘rishga qodirsizlar.

– Sinor don Kixot, – dedi ruhoniy, – juda to‘g‘ri aytyaptilar: bu jumboqni yechish bizning ishimiz. Biroq bizning hukmimiz qonuniy bo‘lishi uchun, mana bu sinorlar fikrlarini yashirin bildiradilar, ko‘pchilik nima deganini esa keyin ma‘lum qilaman.

Don Kixotning g‘alatiligini bilganlar rosa huzur qilishdi, lekin uni endi ko‘rib turganlarga bu manzara g‘oyat ahmoqona bo‘lib tuyuldi. Qo‘noqxonaga endigina kirib kelgan uch sayyoh (ko‘rinishlaridan ular ko‘proq o‘qchi askarlarga o‘xshashardi) xuddi shu fikrda edi. Sartaroshlik jomi ko‘z oldida Mambrinning dubulg‘asiga aylanib qolganidan sartarosh hammadan ko‘p haya-jonda edi. O‘z eshagining egari ham hashamdor ot egariga aylanib qolishiga unda shubha yo‘q edi. Shunga qaramay, ruhoniyning odamlardan ularning yashirin fikrini qanday jiddiylik

bilan olayotganini ko'rib hamma xaxolab yubordi. Hozir bo'lganlarning har qaysisi shunchalik to'polon chiqishiga sabab bo'lgan bu qimmatbaho narsaning egar yoki otning jabdug'i ekanligini ruhoniyning qulog'iga aytishi kerak edi. Ruhoniy don Kixotni taniganlarning hammasidan ularning fikrini bilib olgach, jabrlangan sartaroshga nihoyat shunday dedi:

– Sizga gapim bitta, hurmatli zot. Odamlarning fikrini olish jonimga tegdi, kimdan so'ramay, hamma birdek: jabduqni, yana zotdor otning jabdug'ini eshakning egari deyish bema'nilikdir, deb javob berdi. Shunday qilib, sinor sartarosh, o'zingizga yoki eshagingizga qanchalik alam qilishidan qat'i nazar, umum fikriga itoat etishga majbursiz; bu eshakning egari emas, otning jabdug'i vassalom, gap tamom.

– Agar hammangiz, sinorlar, yanglishmayotgan bo'lsangiz, men jannat betini ko'rmay; agar bu egar emas jabduq bo'lsa, xudo meni bandam demay qo'ya qolsin. Axir, men mast emasman-ku, basharti bugun ertalab shunday gunoh qilgan qilgan bo'lsam-da, biroq nonushtaga ichmagandirman!

Sartaroshning soddaligidan hamma qanchalik kulgan bo'lsa, don Kixotning:

– Shunday qilib, endi har kim o'ziga tegishli narsani olishi kerak, – deb qilgan telbaligidan ham shuncha kuldi.

O'qchilardan biri shunday dedi:

– Men bularning hammasini shunchaki hazil ekaniga aminman, ko'rinishidan ancha aqlli bo'lgan kishilarning qarshimizda turgan narsalarni dubulg'a hamda otning jabdug'i deb jiddiy aytishlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Mabodo ular bizning his-tuyg'ularimizga qarshi o'laroq, bularni dubulg'a bilan otning jabdug'i desalar, unda buning tagida bir sir bor. Bularning sartaroshlik jomi bilan eshakning egari emasligiga tirnoqcha ishon-sam, turgan yerimda til tortmay o'lay!

Boshqa o'qchi shunday xitob qildi:

– Bu egar bo'lmasa, otam bolasi emasman! Kimki bunday emas desa, o'sha g'irt mast.

– Ey, pastkash muttaham, yolg'on gapiryapsiz, yolg'onchiligingiz uchun qattiq jazolanasiz! – deb xitob qildi don Kixot.

U shunday deb, nayzasini ko'tarib, o'qchining boshiga shunaqangi zarb bilan tushirdiki, u o'zini chetga olib qolmaganida turgan joyida til tortmay o'lgan bo'lardi. Nayza yerga qattiq urilganidan bo'lakbo'lak bo'lib ketdi. Shu orada o'z o'rtoqlariga nisbatan qilingan bu muomalani ko'rib turgan boshqa o'qchilar Santa Ermandadga bo'ysunishni don Kixotdan talab qila boshladilar.

Qo'noqxona xo'jayini yugurib kirib temir kaltagi bilan qilichini olib chiqdi-da, o'qchilarning yonidan joy oldi, u ham Santa Ermandad jamiyatining a'zosi edi. Sartarosh ko'tarilgan to's-to'polondan foydalanib egariga yopishdi, ikkinchi tomondan Sancho unga o'zini otdi, don Kixot esa o'z qilichini yalang'ochlab, o'qchilarga tashlandi. Ruhoniy qichqirar, beka dodlar, uning qizi-chi yillar, Maritornes yig'lar, Doroteya o'zini yo'qotib qo'ygan edi. Sartarosh Sanchoni, Sancho sartaroshni do'ppos-lardi; kabalerolardan biri uning qo'lini ushlashga jur'at etgan o'qchining jag'iga shunday tushirdiki, o'qchining og'zi qop-qora qon bo'ldi. Boshqa bir kabalero ikkinchi o'qchini yerga qulatib, g'azabi qaynab, uni jon-jahdi bilan tepardi, xo'jayin Santa Ermandadni yordamga chaqirib ovozing boricha baqirardi; xullas, butun qo'noqxona yig'i, qichqiriq, dod-faryodga ko'mildi; hamma yoqda parishonlik, to's-to'polon, sarosima hukmron edi. Qilichlarning jaranglashi, tayoqlarning taqillashi eshitilardi, qon daryoday oqardi. To's-to'polon avjiga chiqqan bir paytda don Kixot o'zini to'satdan Agramante qarorgohidagi<sup>1</sup> ritsarlar janjali ustidan chiqib qolgan his qildi, shu boisdan butun karvonsaroyini boshiga ko'tarib ovozi boricha qichqirdi:

– To'xtanglar! Qilichlaringizni qiniga solingar! Tinchlaninglar! Jonlaringizdan umidlaringiz bo'lsa, menga quloq solinglar!

Uning to'satdan yangragan ovozi eshitib, hamma jim bo'ldi, don Kixot so'zida davom etdi:

---

<sup>1</sup> Agramante qarorgohi – Agramante – Ariostoning «Shavkatli Roland» dostonidagi qahramonlardan biri. Agramante Parij ostonasida qarorgoh qurib turgan paytda uning qo'shinida o'zaro qattiq nizo va janjallar chiqadi. Oqibatda ish shu darajaga yetib boradiki, kim kim bilan va nima uchun urushayotganini ham farq qilmay qoladi.

– Bu qal'a sehrlangan, unda behisob iblislar joylashib olgan, demabmidim sizlarga, sinorlar? Endi bunga o'z'laringiz ishongan bo'lsalaringiz kerak. Qaranglar! Agramante qarorgohida bo'lib o'tgan mashhur janjal jonlandi bu yerda. Bunda birimiz qilich deb, ikkinchimiz ot, uchinchimiz burgut, to'rtinchimiz dubulg'ani deb jang qilyapmiz. Jang qilyapmiz-u, lekin nega o'zimizning va boshqalarning qonini to'kayotganimizni hech qaysimiz ham bilmaymiz. Qon to'kish bas qilinsin! O'zaro tinchlik sulhini tuzamiz. Qodir Xudo haqqi qasamyod etamanki, arzimagan bahona bilan bir-birovimizni o'ldirish bizdek oliyjanob unvonga ega bo'lgan zotlar uchun bag'oyat uyat.

Biroq o'qchilar tinchlanishni istamasdi. Kabalerolar ularning rosa ta'zirini bergandi, endi esa o'ch olish o'tida yonardilar. Lekin mushtlashish paytida soqoli yulib olingan sartarosh don Kixotning chaqirig'idan xursand bo'lib ketdi. Sancho oliyjanob xizmatkor sifatida o'z xo'jayinining birinchi so'zidayoq itoat qildi. Faqat xo'jayingina ikkinchi marta butun qo'noqxonani ostin-ustin qilayotgan ana shu jinnini jazolash kerakligini talab qilib qichqirardi.

Nihoyat, shovqin asta-sekin pasaya boshladi. Shu orada o'qchilardan biri don Kixotni hibsga olish to'g'risidagi buyruq yonida ekanini esladi: Santo Ermandad katorgachilarni qonunga xilof razishda ozod qilib yuborgani uchun uni hibsga olish haqida qaror qabul qilgan edi. O'qchi buyruqni eslarkan, don Kixotning belgilarini tekshirib ko'rmoqchi bo'ldi. U qo'ynidan buyruqni olib, unda ko'rsatib o'tilgan belgilarni hijjalab o'qirkan, don Kixotga qarab-qarab qo'yardi. Nihoyat, don Kixotning qamoqqa olish haqida buyruq berilgan xuddi o'sha odam ekaniga ishonch hosil qilgach, u qog'ozni o'rab chap qo'liga oldi-da, o'ng qo'li bilan don Kixotning yoqasidan ushlagancha, bor ovozi bilan qichqira boshladi:

– Santa Ermandadga itoat qil! Basharti kimki mening Santa Ermandad nomidan ish tutayotganimga ishonmasa, mana bu buyruqni o'qisin: unda mana bu yo'lto'sar qaroqchini ushlashim zarurligi yozilgan!

Ruhoniy buyruqni o'qib chiqdi-da, o'qchining haq gapira-

yotganiga qanoat hosil qildi, chunki buyruqda don Kixotning barcha belgilari to'la-to'kis, aniq ko'rsatilgan edi; u faqat uh tortib, g'amgin bosh chayqab qo'ydi. Qandaydir bir muttaham o'zini haqorat qilayotganini ko'rgan don Kixot esa g'azabga keldi-da, ikkala qo'li bilan o'qchining tomog'idan g'ippa bo'g'ib oldi. Agar o'rtoqlari yonini olmaganida-chi, sho'rlik o'qchi, balki, don Kixot barmoqlarini yozishidan oldin bo'g'ilib qolgan bo'lardi. Zimmasida o'z birodarlik jamiyati a'zosining yonini olish majburiyati bo'lgan xo'jayin shu ondayoq jabrdiydaga yordamga tashlandi. Erining tag'in mushtlashishga tushib ketganini ko'rgan beka yana qichqira boshladi, qizi bilan Maritornes ham barcha aziz-avliyolardan ko'mak so'rab, unga jo'r bo'lishdi. Bu hangomalarni ko'rgan Sancho esa shunday dedi:

– E xudo, bu qal'adagi turli sehrgarliklar va mo'jizalar to'g'risida xo'jayinim aytgan gaplar chindan ham haq bo'lib chiqdi-ku: bu yerda bir soat ham vaqtni osoyishta o'tkazib bo'lmaydi!

Nihoyat, to'planganlar don Kixot bilan o'qchini ajratib qo'yishga muvaffaq bo'ldilar. Biroq o'qchilar jinoyatchini o'z ixtiyorlariga topshirishlarini talab qilishda javob etdilar, tog'so'qmoqlarida hamda qatnov yo'llarida odamlarni tunayotgan qaroqchining oyoq-qo'lini bog'lashda o'zlariga yordam berishlarini Santa Ermandad nomidan talab qila boshladilar. Ularning bu gapini eshitgan don Kixot esa nafrat aralash kulib qo'ydi-da, nihoyat, osoyishta ovoz bilan gapga tutindi:

– Ey yaramas va pastkash odamchalar, qani, menga yaqinroq kelinglar-chi! Bechora bandalarning zanjirini uzib tashlab, tutqunlarni ozod qilayotgan, baxtsizlarga madad berayotgan, yiqilganlarni oyoqqa turg'azib qo'yayotgan, mazlumlarning yonini olayotgan bir odamni yo'lto'sar qaroqchi deyishga jur'at etyapsizlarmi hali? O, iflos maxluqlar, samo sizlarni jahongashta ritsarlikning ulug'vorligidan to'g'ri bebahra etgan, bunga sizlar chindan ham munosib emassizlar! Sizlar naqadar zo'r gunoh va g'aflatga botgansizlar-a! Jahongashta ritsarning o'zi u yoqda tursin, uning soyasiga ko'rpacha solishlaring kerak. Santa Ermandad nomi bilan katta yo'llarda bosqinchilik qilayotgan

o'qchi-qaroqchilar, qani, yaqinroq kelinglar, xo'sh, aytinglar-chi, meni ushlab haqidagi buyruqqa imzo chekkan o'sha non-donning nomi nima? Jahongashta ritsarlarning oddiy sudga beril-masligi, ularning qonuni – qilich, ularning hukmi jasorat, farmo-yishlari esa ularning shaxsiy irodasi ekanligi hali o'sha jirkanch qoqboshga ma'lum emasmi? Buyuk jahongashta ritsarlik ishiga butun hayotini bag'ishlash to'g'risida tantanali qasam ichib, ritsarlikka o'tgan baxtiyor kimsaga, ritsarlik nomi beradiganday katta imtiyozlarni birorta dvoryanlik yorlig'i berolmasligidan na-hotki bexabar bo'lsa u? Ritsarlardan qaysi biri soliq, o'lpon to'laydi, qirolchiga tufli puli beradi<sup>1</sup>, yer-mulkiga jarima, daryo-da suzgani yoki yo'lda yurganiga haq to'laydi? Qaysi qal'a egasi ko'rsatgan mehmondo'stligi uchun undan haq oladi, qaysi qirol uni o'z dasturxoniga o'tqazishdan bosh tortadi? Qaysi oliyanob qiz uni sevmaydi? Va, nihoyat, to'rt yuz o'qchi bilan uchrash-ganda ularni tayoq bilan to'rt yuz marta tushirishga jur'ati yetmaydigan jahongashta ritsar topiladimi?

Don Kixot gapirayotganida ruhoniy bu ishni yopishga o'qchilarni undamoqchi bo'ldi.

– Don Kixotning aqli joyida emasligini nahotki ko'rma-yotgan bo'lsangiz, – dedi u. – Bechorani ushlab olib ketgan taqdiringizda ham, baribir, jinniligi uchun qo'yib yuborasizlar.

Qo'lida buyrug'i bo'lgan o'qchi don Kixotning jinni yoki jinni emasligini surishtirish uning ishi emasligini aytdi. Men boshliqlarimning buyrug'ini bajarishim kerak, boshqa bilan ishim yo'q, dedi u.

– Shunda ham, – deb javob berdi ruhoniy, – sizlar uni qamoqqa ololmaysizlar; menimcha, uning o'zi ham bunga yo'l qo'ymasa kerak.

Munozara davom etarkan, bu orada don Kixot o'zini shu qadar bema'ni tutdiki, bechora idalgoning jinniligiga o'qchilar ishonmagan taqdirlarida ularning o'zlari don Kixotday esi past

---

<sup>1</sup> Qirolchiga tuflisi puli – qirolning uylanishi munosabati bilan aholidan olinadigan maxsus soliq. Soliqning bunday g'alati nom bilan aytilishiga sabab o'sha paytlarda Ispaniyada po'kak tumshuqli tufllarni faqat turmushga chiqqan xo'inlarga kiyishgan. Xalq esa qirolchiga qimmatbaho tufli olib borish vaqti kelibdi deb gap yuritgan.



bo'lib chiqardilar. Shuning uchun ham uni o'z holiga qo'yib, hatto sartaresh bilan Sancho Pansani yarashtirib qo'yishga tutindilar.

Odil sud nozirlari ishni ko'rib, chiqargan hukmlari tortishayotgan tomonlarni to'la yarashtirib qo'ymagan bo'lsa-da, har holda, ularni qanoatlantirdi: raqiblar egarlarini almashdilar, lekin har kim o'z ayili bilan yuganini olib qoldi. Mambrinning dubulg'asiga kelganda esa, shuni aytish kerakki, ruhoniy sartareshga jomi uchun don Kixotdan yashirincha sakkiz real berdi, sartaresh esa meni aldashdi deb hozir ham, bundan keyin ham umr bo'yi shikoyat qilmaslik majburiyatini olib, ruhoniya tilxat yozib berdi.

Ruhoniyning sartareshni taqdirlaganini xo'jayin payqamay qolmadi. Fursatni qo'ldan boy bermaslik uchun, don Kixotdan tunagani, nobud qilgan meshlari bilan vinosi uchun haq to'lashni talab qilib turib oldi. U oladigan haqining so'nggi chaqasigacha to'lanmagunicha Rosinantni ham, Sanchoning eshagini ham otxonadan chiqarmasligiga qasam icha boshladi. Ruhoniy xo'jayinning ko'rgan hamma zarari uchun unga durustgina haq to'lab, buni ham tinchitdi. Shunday qilib, tinchlik tiklandi, bu yerda hozir bo'lganlarning bari buning uchun muruvvatli hamda shakarguftor ruhoniydan minnatdor bo'lish kerak, degan yagona xulosaga keldilar.

Bu ko'ngilsiz ishlarning hammasi bartaraf qilingach, don Kixot yana yo'lga tushish hamda zimmasidagi buyuk jasoratni amalga oshirish vaqti yetdi degan qarorga keldi. Ana shuning uchun Doroteyaning oldida tiz cho'kib, shunday dedi:

– Go'zal va olinasab sinora! Tirishqoqlik – muvaffaqiyatning onasi, deyilgan bir hikmatli maqol bor. Dushman ustidan qozoniladigan g'alaba butunicha hujumkorlik va tezkorlikka bog'liq bo'lgan harbiy ish yuzasidan bu maqol, ayniqsa, haqqoniy aytilgan. Kim dushmanining niyatini oldindan bilib, chora ko'ra olsa, u jangda g'olib chiqadi. Ey, go'zal sinora, bu gapni shuning uchun aytyapmanki, fikrimcha, bundan buyon bu qal'ada qolishimiz foydasiz va hatto xavflidir. Chunki Pandafiledo yovuzko'z o'zining maxfiy ayg'oqchilari orqali mening u bilan

jang qilmoqchi bo'layotganimni bilib olishi mumkin; ana unda bu yovuz dev har qancha harakatim va tolmas bilagimning zabardastligiga qaramay, egallashga qudratim yetmaydigan qo'rg'on-ga yashirinib oladi. Shuning uchun ham uning makrli niyatlariga qarshi chora ko'rib ulguraylik va tezda yo'lga tushaylik.

Don Kixot go'zal malikaning javobini e'tibor bilan kutganicha jim turardi. Doroteya esa unga taqlidan shunday dedi:

– Sinor ritsar! Boshimga tushgan katta musibatni bartaraf etishda menga madad berishga tayyorligingizdan minnatdorman. Umumiy istagimizning amalga oshishida anbiyo-yu avliyolar yor bo'lsin. Ana o'shanda siz olam oliyjanob xotinlardan xoli emasligini ko'rasiz. Endi men hayallamay yo'lga tushishga tayyorman. Mening inon-ixtiyorim sizda. Modomiki taqdirimni sizga topshirgan ekanman, o'tkir aqllari nimaniki amr etsa, men bunga e'tiroz bildirolmayman.

– Hoziroq yo'lga tushamiz! – xitob qildi don Kixot. – Sabrsizlik meni yo'lga shoshirmoqda, chunki sustkashlik – bu halokat keltiradi, deb bekorga aytilmagan. Sancho! Rosinantni egarla, o'z eshaging bilan qirolichaning tulporini yuganla, qal'a egalari bilan xayrlashib, maqsad sari intilamiz!

Sancho bosh chayqab qo'yib, gapga tutindi:

– Sodiq xizmatchingiz va qurolbardoringiz sifatida aytishga majbur bo'lgan gapimni aytsam, ranjimagaysiz, muhtaram janoblari.

– Tezroq gapir, nima demoqchisan? – deb javob berdi ritsar bu jumboqli so'zlardan xavotirlanib.

– Muhtaram janoblari, o'zini Mikomikon davlatining qirolichasi qilib ko'rsatayotgan bu sinoraning mening marhum onam qanday qirolicha bo'lsa shunday qirolicha ekanini tagtomiri bilan yaxshi bilib oldim. Buni qarang-a, marhamatli janoblari, shu yerlik kabalerolardan biri uning ko'nglini topmoqchi bo'lib urinsa, sinoraning o'zi ham unga iltifot ko'rsatayapti. Biz tunlari uxlamay, kunlarni bugungiday to'polonli o'tkazib yo'l bosib, manzil oshib yurganimizda, ana shu yigitcha unga uylanib, devdan tortib olganlarimizni o'ziniki qilib olib, yana bizning ustimizdan kulib yurmasaydi, deb qo'rqaman! Shunday

bo'lgandan keyin, Rosinantni yuganlab, eshakni egarlashga shoshilib nima qilaman, yaxshisi, joyimizdan jilmaganimiz ma'qul, tashvishini boshqalar tortaversin, biz esa shundoq ham och qolmasmiz.

Qurolbardorning sharmandali gapini eshitib don Kixot qattiq g'azablandi, qoshlari chimirilib, ko'zlarida o't chaqnaq ketdi, jahl bilan xitob qildi:

– Ey, yaramas, pastkash odam! Ey nodon og'zi buzuq! Qorangni o'chir bu yerdan! Qirollar zotiga mansub odamning muborak ismini bulg'amoqchi bo'lgan yovuz, turgan-bitgani yol-g'on, bemaza, jirkanch ig'vogar, tuhmatchi! Qani, yo'qol ko'zimdan, g'azabimga duchor bo'la ko'rma!

Sancho Pansa don Kixotning qahr-g'azabidan shu qadar qo'rqib ketgan ediki, yer yorilsa, kirib ketishga tayyor edi. U o'zini oqlashga jur'at ham qilmay, xo'jayinining ko'zidan yashirinlashga shoshildi.

Biroq Doroteya don Kixotning fe'lini yaxshi bilgani uchun ritsarimizni tezda tinchita oldi.

– Sinor G'amgin Qiyofa ritsar! Bema'ni gaplari uchun qurolbardoringizdan achchiqlanib o'tirmang! Sanchoning sog'lom aqli va pok vijdoni uning tuhmat qilganiga shubhalanishga yo'l qo'ymaydi. U hozir gapirayotgan gap jodugarlarning sehri ta'sirida ko'ziga, haqiqatan ham, shunday ko'ringan bo'lsa kerak. Lekin buning shayton vasvasasidan boshqa narsa emasligi o'z-o'zidan tushunarli. Bu qal'ada hamma narsa sehrgarlarning nayranglari tufayli sodir bo'ladi, deb siz o'zingiz aytdingiz-ku, axir, sinor ritsar.

– Qodir Xudo haqqi, qasam ichamanki, – deb xitob qildi don Kixot, – hazrati oliyalari juda haq gapni aytdilar! Ha, albatta, bu gunohkor Sancho yovuz sehrgar tomonidan aldanib, jin urmay turib ko'rib bo'lmaydigan shunaqa narsalar ko'ringan ko'ziga, bu sho'ring qurg'urning aldash nimaligini bilmaydigan halol va begunoh odamligini men bilaman-ku, axir.

Shundan keyin don Kixot o'z qurolbardorining gunohini kechirajagini aytdi. Ruhoniy Sanchoni chaqirdi. Sancho bo'ynini eggancha o'z xo'jayiniga yaqinlashdi-da, uning oldida tiz cho'-

kib, qo'lini o'pishga izn so'radi. Don Kixot Sanchoning iltimosini qondirgach, nasihatomuz shunday dedi:

– Xo'sh, bo'tam Sancho, ishonamanki, men senga bu qal'ada hamma narsa sehrlab qo'yilgan deb ta'kidlaganimda, haq gapni aytganligimga endi tushungandirsan!

– Men ham shunday fikrdaman, – deb javob berdi Sancho, – choyshabda bardor-bardor qilib osmonga uloqtirishdan boshqa hamma narsa sehrlangan bu yerda. Siz qanday izohlasangiz ham, bu ko'ngilsiz voqea mutlaqo tabiiy yo'sinda ro'y bergandi.

Don Kixot qurolbardorini, baribir, o'z fikridan qaytarolmasligini ko'rgach, uning bu so'zlariga hech qanday e'tiroz bildirmadi.

## YIGIRMA SAKKIZINCHI BOB

### LAMANCHLIK DON KIXOTNING G'ALATI USUL BILAN SEHRLANGANI

Don Kixot o'z hamrohlari bilan qo'noqxonaga kelganining ikkinchi kuni edi. Ruhoniy bilan sartarosh yo'lga chiqish to'g'risida bosh qotira boshladi. Do'stlarimiz Doroteyani endi yana bezovta qilib o'tirmaslik niyatida o'z kuchlari bilan kifoyalanmoqchi bo'ldilar. Ikkita ho'kiz qo'shilgan aravani yollashdi, keyin ichiga bir odam bemalol sig'a oladigan hajmda taxtadan qafas yasashni buyurishdi. Ruhoniyning iltimosi bilan kabalero, o'qchilar va nihoyat, xo'jayinning o'zi don Kixotni ana shu qafasga solishda ruhoniy bilan sartaroshga ko'maklashishga kirishishdi. Ular ritsar tanib qolmasligi uchun niqob qilib olib, don Kixotning xonasiga kirishdi. O'tgan kechadagi to's-to'polondan charchagan don Kixot qattiq uxlab yotardi. Xonaga kirganlar ehtiyotkorlik bilan uning oldiga borib, birdan ushlab olishdi-da, oyoq-qo'lini bog'lashdi. Bu shu qadar tez bajarildiki, ritsarimiz shirin uyqudan uyg'onganda, qimirlashga ham holi yo'q edi. Uning parokanda xayolida bu niqob kiygan odamlar shu ondayoq sharpa bo'lib tuyuldi, o'zini esa ularga maftun bo'lib gangib

qolgan kishiday sezdi, chunki na qimirlay olar, na o'zini himoya qila olar edi. Xullas, hamma ish ruhoniyning rejasiday bo'lib chiqdi. To'g'ri, bu kiyimini o'zgartirib olgan odamlarni Sancho darhol tanidi. Biroq bu voqea nima bilan tamom bo'lishini kutib, og'iz ochishga jur'at etolmadi. Bu g'alati sarguzashtning oqibati qanday tugashini ko'rish niyatida don Kixot ham indamasdi. Ko'p kutishga to'g'ri kelmadi. Sirli notanishlar qafasni keltirishdi-da, uning ichiga sho'rlik ritsami solishgach, taxtalarni shunday qattiq mixlab qo'yishdiki, uni buzish uchun har qancha urinilganda ham foydasiz bo'lardi.

Shundan keyin qafasni hovliga yelkalarida ko'tarib olib chiqishdi. Shu paytda usta Nikolas dahshatli ovoz bilan qichqirib yubordi:

– O, G'amgin Qiyofa ritsar, asirga tushdim deb o'pkalanma. Mardligingga ishonib intilayotgan zafaring tezroq tugallanishi uchun shunday qilish kerak. Zafaring esa Tobosoning qorday oppoq kaptari bilan qahrli Lamanch sheri qovushib, ularning mag'rur bo'yinlari nikohning lazzatli yuklari ostida egilgandagina tugallanadi. Ana shu ajoyib qo'shilish natijasida ilohiy jasur sherbachchalar dunyoga keladi. Sherbachchalarning tirmoqlari shavkatli otalarining tirmoqlariday o'tkir bo'ladi. Bu narsa quyosh yana bir karra jamol ko'rsatishidan avvalroq sodir bo'ladi.

Bir vaqtlar belida qilichi, iyagida soqoli, burnida is bilish qobiliyati bo'lgan qurolbardorlarning eng oliyjanobi, eng itoatlisi bo'lgan Sancho, sen esa, jahongashta ritsarlarning eng sarasini ko'z oldingda shunday ahvolda olib ketishayotganini ko'rib qo'rqib, xafa bo'lib o'tirma! Chunki – agar parvardigori olam lozim ko'rsa – saxovatli xo'jayiningning senga bergan va'dasi tezda amalga oshadi, sen esa shu qadar yuksak va obro'li martabaga erishib, o'zingga o'zing hayratda qolasan. Bundan tashqari, dono Mentironiana<sup>1</sup> tegishli maoshingning hammasini tugal olishingni senga aytib qo'yishni menga topshirdi. Shuning uchun sehrlangan shavkatli ritsaringning izidan yuraver, chunki manzil-

<sup>1</sup> Mentironiana (ispancha:) – «yolg'onchi».

ga yetguncha birga bo'lishingiz kerak. Dono Mentironiananing istagi shunday bo'lgani uchun boshqa hech narsa deyo olmayman. Xo'p xayr, tashvishlanma, xudo yor bo'lsin, men esa malikamning huzuriga jo'nayman.

Sartarosh o'zining avliyonomo gaplarini baland tovush bilan tugatarkan, oxirida shu qadar mayin pichirlashga o'tdiki, hatto ana shu hazildan xabardor bo'lganlarning o'zlari ham go'yo avliyoning asta-sekin allaqayoqqa olislab ketayotganiga ishonishga tayyor edilar.

Don Kixot bu gaplarni eshitib yupandi, chunki bashorat bilan aytilgan so'zlarning mazmuni unga mutlaqo ravshan edi. Bu bashoratga muvofiq u ma'shuqasi Tobosolik Dulsineyaga muqaddas va qonuniy nikoh ishlari bilan qo'shilajagini, ular sherbachcha o'g'illar ko'rajaklarini, ana shu sherbachchalar esa Lamanchni abadulabad ulug'lashlarini fahmlagandi. Shuning uchun chuqur nafas olib dedi:

– Ey mening madadkorim, kim bo'lishingdan qat'i nazar, senga bir zorim bor, meni olib ketishayotgan zindonda ozib-to'zib ketishimga yo'l qo'ymasligini donishmand sehrgar-homiyamdan iltimos qil! Eng avvalo, men hozir eshitgan beqiyos va quvonchli va'dalar amalga oshsin! Ana o'shanda men asirlikda chekkan hamma qiyinchiliklarimni rohat, o'zim bog'langan zanjirni ermak deb bilaman; men yotgan taxtalar esa menga zindoning poli emas, balki yumshoq to'shak bo'lib tuyuladi. Qurolbardorim Sancho Pansani yupatganing uchun ham senga tashakkur aytaman. Ishonamanki, u o'zining oliyjanoblighi va rostgo'yiligi bilan quvonchli damlarda ham, qayg'uli paytlarda ham meni tashlab ketmaydi, mabodo achchiq qismat tufayli men unga orol sovg'a qilish yoki uni gubernatorlikka o'tkazish yuzasidan bergan va'daning ustidan chiqmagan taqdirimda ham, baribir, maoshi turaveradi. O'z vasiyatimda, men, afsuski, uning ulug' xizmatlariga qarab emas, o'zinning kam mablag'imga qarab unga mukofot belgilaganman.

Sancho Pansa don Kixot oldida zo'r ehtirom bilan ta'zim qildi-da, uning ikkala qo'lini o'pdi. Darvoqe, u xohlagan taqdirida ham, baribir, bir qo'lini o'pa olmas edi, chunki ikkala qo'li

ritsarlarning mardligi va jasoratiga hasad bilan qarab, ularni har qanday yo'llar bilan yo'qotmoqqa harakat qiladilar. Lekin ezgulik shu qadar qudratli narsaki, u eng o'tkir sehrgar Zoroastr<sup>1</sup> ega bo'lgan sehrgarlik aqli bilan qasdma-qasdlikka sinovlarda g'olib chiqadi hamda quyoshning shu'lasi osmonda qanday porlasa, uning shu'lasi yerda ham shunday porlayveradi. Agar men sizlarni biror narsa bilan ranjitgan yoki xafa qilgan bo'lsam kechiringlar, go'zal xonimlar! Agar shunday bo'lgan bo'lsa, unda mening ixtiyorim bilan bo'lmaganiga ishonavering, chunki men hech qachon hech kimni qasddan va atayin xafa qilmaganman. Yana ozodlikka chiqqanimdan keyin, eng avvalo, bu qal'ada menga ko'rsatgan juda ko'p marhamatlaringizni unutmaganimni sizlarga isbotlash uchun shoshilaman hamda minnatdorchilik bildirib, o'zimning sadoqatli xizmatim ila sizlarni taqdirlayman.

Don Kixot qal'a egalari bilan xayrlashayotganda ruhoniylar va sartaresh o'z xachirlariga minishdi. Yo'lga tushishi tartibi shunday bo'ldi: oldinda arava; uni egasi dehqon haydab ketdi, aravaning ikki tomonida esa, avval aytganimizdek, mushket ko'tarib olgan o'qchilar jo'nashdi, ularning ketidan Rosinantni yetaklab eshakda Sancho Pansa, eng orqada esa o'z xachirlarida ruhoniylar bilan sartaresh borishardi. Ular yana don Kixot tanib qolmasin deb, cho'chiganlaridan niqoblarini yechishmagan edi. Qo'llari bog'langan ritsar qafasda panjaraga suyanib, oyoqlarini uzatgancha chidam bilan indamay borar ekan, jonli odamdan ko'ra ko'proq tosh haykalni eslatardi. Ular asta-sekin, jimgina ikki toshga yaqin yo'l bosib, nihoyat, ko'm-ko'k maysalar bilan qoplangan vodiylga yetib borishdi. Shu yerga kelganlarida aravakash to'xtab, ho'kizlarni o'tlatib olish kerakligini aytdi. Biroq sartaresh sal nariroqqa borishni taklif qildi, uning so'ziga qaraganda bundan sero'troq boshqa bir vodiylga yaqin qolgan edi, hamma sartareshning taklifiga rozi bo'lib, yo'llarida davom

<sup>1</sup> Sehrgar Zoroastr – Zoroastr – qadimgi forsalar dinining asoschisi, Zoroastr ta'limotiga ko'ra ikki ma'bud – yaxshilik (Ormuzd) va yomonlik (Axriman) ma'budlari dunyoni qo'lga kiritish uchun kurash olib boradilar. Dunyo bayoti shu kurash asosida tashkil topgan. O'rta asrlarda va undan keyin ham Zoroastrni qora va oq sehr kuchlari hamda boshqa har qanday jodugarlik ilm-u amallarining asoschisi deb hisoblashgan. Bu aslida «Avesto» haqida edi.

etishdi.

Shu payt ruhoniy qayrilib qarab, uzoqda bir necha bashang kiyingan otiqlar kelayotganini ko'rdi. Ular baquvvat yo'rg'a xachirlarga minib olishgani uchun yo'lovchilarimizga tez yaqinlab kelishardi. Keyin ma'lum bo'lishicha, bular sestadan<sup>1</sup> oldin karvonsaroyga yetib olish uchun shoshilayotgan toledolik kanonik<sup>2</sup> bilan uning xizmatkorlari ekan. Bu g'alati safga yetib olib, aravani, o'qchi'larni, Sancho, Rosinant, ruhoniy, sartaroshni, nihoyat, qo'llari bog'lanib qafasga tashlangan don Kixotni ko'rgan toledolik kanonik (hassa bilan mushket ko'tarib olgan o'qchilarni ko'rib, bu asir Santa Ermandad jazolamoqchi bo'lgan xavfli qaroqchi yoki boshqa birorta jinoyatchi ekanini o'zi payqagan bo'lsa-da) nega bu odamni g'alati usul bilan olib ketishayotganini so'radi.

Kanonikning savoliga o'qchilardan biri shunday javob berdi: – Sinor, bu ritsarni nega qafasga tashlashganidan bizning xabarimiz yo'q, yaxshisi, buni sizga uning o'zi tushuntirib bera qolsin.

Ularning gapini eshitgan don Kixot shunday dedi:

– Sinorlar, sizlar jahongashta ritsarlar ishidan yaxshi xabardormisizlar? Agar xabardor bo'lsanglar, unda o'z musibatli sarguzashtlarimdan so'zlab beraman, xabardor bo'lmasanglar, unda sizlar bilan gapirishib o'tirishning foydasi yo'q.

Shu payt ruhoniy bilan sartarosh ularning lamanchlik don Kixot bilan suhbatga tushib ketishganini ko'rib, o'zlarining hiyla-nayranglari ochilib qolishidan qo'rqib yaqinroq kelishdi.

Don Kixotning savoliga kanonik shunday javob berdi:

– Rostini aytsam, bo'tam, diniy aqidalardan ko'ra ritsarlik romanlarini ko'proq o'qiganman, shunday bo'lgach, agar hamma ish shunga bog'liq bo'lsa, aslo xavfsirab o'tirmay, istagan narsangizni menga gapirib beraverishingiz mumkin.

– Unday bo'lsa, – dedi don Kixot, – hasadgo'y va xiyanatkor afsungarlar tomonidan sehrlangan mendek bir kimsani

<sup>1</sup> Sesta – Yevropaning janubiy mamlakatlarida choshgohdan keyingi dam olish payti.

<sup>2</sup> Kanonik – 1) katoliklar soborining ruhoniysi; 2) katoliklar ibodatxonasida cherkov ustaviga bo'ysungan, lekin rohiblikka qasamyod qilmagan ruhoniy.



ana shu qafasda olib ketayotganlarini bilib qo'ying, sinor ritsar. Negaki yovuzlarning himmatlilarga nisbatan qiladigan ta'qibi, oliyjanob kishilarning ularga nisbatan bo'lgan sevgisidan kuchli turadi. Men hasadga nisbatan qasdma-qasdlik bilan o'z nomini mangulik qasriga yozish qismatiga ega bo'lgan jahongashta ritsarlar safidanman, toki bundan kelgusi avlodlar ibrat olsinlar hamda barcha jahongashta ritsarlar buyuk shuhrat va hurmatga erishish uchun qaysi yo'ldan borishlarini bilib qo'ysinlar.

Shu payt ruhoniy gapga aralashdi:

– Sinor don Kixot bor haqiqatni gapiryapti. U o'z gunohlari va jinoyatlari uchun emas, balki ezgulikni juda yomon ko'radigan, shon-shavkatni ko'rolmaydigan afsungarlarning yovuz makrlari tufayli mana shu qafasga sehrlab qamab qo'yilgan. Qarshingizda G'amgin Qiyofa ritsar turibdi, sinor. Uning haqida eshitgandirsiz, albatta. Uning olqishga loyiq xizmatlari va jaso-ratlari, hasadni yemirishga, adovatni xiralashtirishga qanchalik urinmasin, baribir, bronza hamda mangu esdalik marmar toshiga bitilajak.

Kanonik asir bilan uning hamrohi qay tariqa gaplashayotganini eshitgach, hayratidan cho'qinib olishiga sal qoldi. Ha, uning mulozimlari ham nima gapligiga tushunolmay, hammalari angrayib qolishdi. Lekin gap nima haqda borayotganini eshitgan Sancho Pansa, sirni fosh qilmoqchi bo'lib dadillik bilan so'zga aralashdi.

– Sinorlar, meni istaganlaringcha so'ksanglar ham, maqtasalaring ham, – dedi u, – lekin endi indamay turolmayman. Onam qanchalik sehrlangan bo'lsa, xo'jayinim don Kixot ham shunchalik sehrlangan. Uning aqli joyida; u ham boshqalar singari, xuddi uni qafasga solishni hech kim xayoliga ham keltirmagan kechagi kundagiday yeb-ichib, istaganini bajo keltirib yuribdi. Shunday bo'lgandan keyin uning sehrlab qo'yilganiga meni ishontira olarmidingizlar? Menga sehrlanganlar yemaydi, ichmaydi, gapirmaydi ham deyishardi hamisha, mening xo'jayinim esa, agar uni to'xtatmasangiz, o'ttizdan ortiq strepchiydan<sup>1</sup> ham

<sup>1</sup> Strepchiy – Moskva Rusida ro'zg'or ishlarini olib boruvchi saroy xodimi.

ko'p gapirgan bo'lardi.

U shunday deb ruhoniya murojaat qildi:

– Eh, sinor ruhoni, sinor ruhoni, nahotki meni o'zingizni tanimayapti deb o'ylasangiz? Nahotki, sizningcha, bu yangi sehrgarliklarning hammasi nimaga borib taqalishini bilib, sezib olmagan bo'lsam? Qanchalik mug'ambirlik qilmang, baribir, hamma nayranglaringizning uchini topib oldim. Ha, qayerda hasad hukmron bo'lsa, o'sha yerda himmatga o'rin yo'q, saxiylik bilan xasislik o'rtasida murosas bo'lmaydi. Jin ursin barini! Agar sizdek taqsirim uchrab qolmaganlarida, xo'jayinim malika Mikomikonga allaqachon uylangan bo'lardi, men ham hozir kamida graf bo'lib olardim. Odamlar: taqdir g'ildiragi tegirmon toshidan tez aylanadi, deb to'g'ri aytisharkan, men buni endi tushunib turibman: kecha arshi a'loda yurgan odam bugun jahannamda yotibdi, deyishadi. Men o'zimdand ko'ra rafiqam bilan bolalarim uchun ko'proq xafaman. Ular o'z otalari uya birorta orolning gubernatori yoki vitse-qirol<sup>1</sup> bo'lib qaytishiga haqli ravishda ishonishlari mumkin edi, buning o'rniga endi uydand qanday chiqib ketgan bo'lsa, shunday quruq qaytadi. Sinor ruhoni, men bu gaplarni vijdongingizni uyg'otish hamda xo'jayinim sha'niga qilayotgan ahmoqona muomalangizdand pushaymon bo'lishingiz uchun aytayapman. Ehtiyot bo'ling! Sinor don Kixotni qafasga solib, uni ezgu ishlar qilishdand hamda muhtojlarga ko'maklashishdand mahrum etganingiz uchun yana u dunyoda parvardigor sizni jazoga tortib yurmasin.

– Rosa odamga ishongan ekanmiz-ku, – dedi bunga javoband sartarosh. – Demak, siz ham o'z xo'jayiningiz biland bir go'r ekansiz-da, Sancho? Xudo haqqi, sizni ham qafasga solsakmikan degand gap kelyapti xayolimga. Aftidand, don Kixotning ritsarlik alablashlari sizga ham yuqqand, siz ham unga o'xshab sehrlangandek ko'rinasiz. Uning va'dalariga behuda ishonib, o'zingizga noyob tuyulgan orolni deb, boshingizni qotirib yuribsiz.

– Xo'sh, orol nimaga yomon bo'lar ekan? – e'tiroz bil-

<sup>1</sup> Vitse-qirol – vaqtinchand qirol vazifasini bajaruvchi.

dirdi Sancho. – Dunyoda har qanday oroldan ham yomonroq narsalar bor. Har qaysimizning o‘zimizga yarasha tashvishimiz bor. Axir, men odamman-ku, shunday bo‘lganidan keyin, faqat orolning gubernatorigina emas, hatto papaning o‘zi bo‘lishim, xo‘jayinim esa bittagina emas, balki hammaga tortiq qilinganda ham, ortib qoladigan darajada ko‘p orolni bosib olishi mumkin. Sinor sartarosh, siz yaxshisi, avval o‘ylab, keyin so‘ylang, bu sizga soqol olish emas, bu yerda murakkab narsa haqida gap boryapti. Ochig‘ini aytсам, biz hammamiz bir-birovimizni taniy-miz, shunday bo‘lganidan keyin mening ko‘zimni bo‘yashning hojati yo‘q. Go‘yo sehrgarlar mening xo‘jayinimni sehrlab qo‘yishgan emish – bu haqda yaxshisi gapirmay qo‘ya qolaylik. Kim haq, kim nohaq, buning hammasi parvardigorning o‘ziga ayon.

Sartarosh Sanchoning soddalik qilib tag‘in sirlarini ochib qo‘yishidan xavfsirab, unga hech narsa demadi. Ruhoniy esa kanonikka qafas haqidagi sir va boshqa g‘alati narsalar to‘g‘ri-sida hikoya qilib berajagini aytib, uni o‘zi bilan sal oldinroqqa o‘tishga taklif qildi. Kanonik rozi bo‘ldi, ular aravadan sal oldinroqqa o‘tib ketishgandan keyin ruhoniy unga don Kixotning jinni bo‘lib qolganini, uni qishlog‘iga olib borib, dori-darmon bilan tuzatish niyatida tog‘dagi daradan qanday qiyinchilik bilan olib chiqishni hamda qafasga solishga muvaffaq bo‘lishganini so‘zlab berdi. Kanonik ruhoniyning so‘zlarini zo‘r e‘tibor bilan tingladi, ruhoniy so‘zini tugatgandan keyin esa, shunday dedi:

– Gapning chini, ritsarlik romanlari singari bo‘lmag‘ur uydirmalarga qanday qilib qiziqib qolish mumkinligini men aslo tushunolmayman. Axir, orzu haqiqatga yaqin, amalga oshishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina yaxshi orzu hisoblanadi. Uydirma sarguzashtlarni shunday yozish kerakki, ular mumkin bo‘lmaydigan narsalarni sal evi bilan hamda har qanday loflarni silliq-lashtirib berib, bizni hayajonlantirsin va quvonch baxsh etsin. Ritsarlik romanlarining mualliflari esa, xuddi ataylab qilganday, buning aksicha ish tutishadi: bir-birlarini bo‘lmag‘ur gaplar va dahshatli uydirmalar bilan to‘ldirib yuboradilar, haqiqatni buzib ko‘rsatadilar, unga yaqin har qanday narsani yo‘qqa chiqaradilar. Ular asardagi qismlarning hajm jihatidan barobar bo‘lishi, hiko-

yalarning bir-biri bilan izchil bog'langan va bir butun bo'lishi haqida sira qayg'urmaydilar, natijada ajoyib san'at asarlarini emas, balki qandaydir mudhish va qo'rqinchli xom xayollarni to'qib chiqaradilar. Buning ustiga ular g'oyatda g'aliz uslubda, barcha fanlar borasida nihoyatda johillik bilan, shuningdek, did jihatdan qo'pol tarzda yozadilar. Shuning uchun men ritsarlik romanlari jamoatchilikka zararli ta'sir ko'rsatadi, binobarin, ana shu asarlarning mualliflari nasroniy davlatidan quvg'in qilishga loyiq kimsalardir, deb hisoblayman.

Ruhoniy kanonikning fikriga to'la qo'shildi. So'ngra u kanonikka don Kixotning kitoblari qanday yondirib yuborilganini aytib, ularni qanday qilib sinchiklab ko'zdan kechirib chiqqanini, qaysilarini olib qolganini so'zlab berdi.

Kanonik bundan rosa maza qilib kuldi. Lekin ritsarlik romanlari ichida ham qadrlashga arziydigan ba'zi narsalar borligini uqdirib o'tdi. Bu o'sha asarlarning mazmunidir, mazmun esa yozuvchi tasavvuri uchun keng yo'l ochib beradi. Yozuvchi janglarni, kema halokatlarini, bo'ronlarni, sayohatlarni tasvirlay oladi; turli voqealarni, xilma-xil tabaqa va kasbdagi kishilarning uchrashuvlarini tasvirlab bera oladi; astronom, geograf, fizik, musiqachi olimlarning rolida chiqa oladi. Agar bularning hammasi yaxshi o'ylab to'qilsa va yoqimli uslubda hikoya qilib berilsa, unda yozuvchi chindan ham haqiqiy san'at asari yarata oladi. Ruhoniy o'zining hurmatli hamkasabasining bu fikrlariga qo'shildi hamda ular o'rtasida adabiyot haqida maroqli suhbat boshlanib ketdi. Xuddi shu vaqt ularni quvib yetgan sartarosh bunday dedi:

– Sinor litsensiat, men boya sizga aytgan vodiy – mana shu. Bu yer ovqatlanib, dam olish uchun qulay, ho'kizlarga ham ko'k o't serob.

– Juda soz, – deb javob berdi ruhoniy. – Demak, shu yerda hordiq chiqara qolamiz.

## YIGIRMA TO'QQIZINCHI BOB

### SANCHO PANSA BILAN UNING XO'JAYINI O'RTASIDAGI OQILONA SUHBAT, SHUNINGDEK, DON KIXOTNING KANONIK BILAN G'OYAT OQILONA BAHSI

Ruhoniy va sartaoshning kanonik bilan gapga kirishib ketganliklaridan hamda ular don Kixotni nazoratsiz qoldirganliklaridan foydalanib, Sancho o'z xo'jayini o'tirgan qafas yoniga keldi-da, shunday dedi:

– Sinor, o'z vijdonimni qiynamaslik uchun sizni qanday sehrlab qo'yishgani haqida bor haqiqatni ma'lum qilishim kerak. Bizni kuzatib borayotgan ikki niqobli kishi hamqishlog'imiz ruhoniy bilan sartaosh usta Nikolasdan boshqa hech kim emas. Menimcha, hasadlari kelib-ketganligi tufayli ular sizni ushlab qafasga solganlar. O'z jasoratlaringiz bilan siz ulardan ustun chiqqaningizni endi ko'rib turishibdi. Mabodo shunday bo'lsa, unda siz umuman sehrlanmagansiz, balki shunchaki pand yeb, ahmoq qilingansiz degan ma'no chiqadi. Buni isbotlash uchun sizga bir savol berishga ruxsat eting. Agar savolimga kutganimday javob qaytarsangiz, unda sira sehrlanmagan, balki aqldan ozganligingizga tajribada ishonch hosil qilasis.

– Istagan narsangni so'rayver, bo'tam Sancho, – deb javob berdi don Kixot. – Savollaringga ochiqchasiga va aniq javob qaytarishga harakat qilaman. Illo, mabodo biz bilan ketayotgan mana bu maxluqlarni ham qishloqdagi eski tanishlarimiz – ruhoniy bilan sartaosh deb o'ylasang, unda katta xato qilasan. Chunki ular meni jodulagan sehrgar bo'lgani sababli senga eski do'stlarimiz bo'lib ko'rinish uchun ularning qiyofasiga kirishgan. Ular seni chalg'itish va mening kimning qo'lida ekanimni anglab olishimga xalal berish niyatida do'stlarimizning qiyofasiga kirib olishgan. Ha, aytganday, ruhoniy, usta Nikolas haqida nimalar deb vaysasang, menga bari bir. Meni asir olib, qafasga solish aslo oddiy odamlarning emas, balki sehrgarlarning qo'lidangina kelishi mumkinligiga qattiq ishonaman. Shunday ekan,

men jahongashta ritsarlar to'g'risidagi romanlarda o'qiganlarimning baridan ustun turgan vositalar yordamidagina sehrlanganman degan xulosa va natija chiqarishim mumkin. Shuning uchun sen xotirjam bo'lishing va bu to'g'rida o'ylashni bas qilishing mumkin: men qanchalik turkka o'xshasam, ular ham ruhoniylar bilan sataroshga shunchalik o'xshashadi. Endi xohlagan narsangni so'rayver, ertaga ertalabgacha so'rasang ham, javob beraveraman.

– Yo Bibi Maryam<sup>1</sup>, o'zing madad ber! – deb qichqirib yubordi Sancho. – Dunyoda siz muhtaram janoblarining boshidan ham mustahkamroq va miyasiz bosh bormikin! Boshingizga tushgan kulfatda sehrgarlik emas, makkorlik ko'proq aybdor deb rost gapni aytсам-u, farqiga bormasangiz, axir, bu qanaqasi. Xo'p, yaxshi!

Hech qanaqa sehrlanmaganligingizni hozir men sizga ochiq-oydin isbotlab beraman. Menga ochig'ini ayting – bu baxtsizlikdan qutulish va tezroq sinora Dulsineyaning quchog'iga kirishingizda sizga xudo yor bo'lsin!...

– Meni avrashni bas qil, – uning so'zini bo'ldi don Kixot. – Qani bo'l, bama'ni savollaringni ber. Senga aytdim-ku, hammasiga ochiqchasiga javob beraman deb.

– Menga shu kerak, – ma'qulladi Sancho, – siz muhtaram janoblaridek o'zini harbiy ishga bag'ishlagan va jahongashta ritsar unvoniga ega bo'lganlar borki, hammasiga yarashadigan hamda zarur bo'lgan darajada hech narsani qo'shmay va olib tashlamay menga bor haqiqatni aytib berishingizni istayman, faqat...

– Hech narsani yolg'on gapirmayman deyapman-ku senga! – deb xitob qildi don Kixot. – Qani, savolingni bersang-chi! O'zingning bordi-keldi gaplaring bilan jonimga tegding-ku, Sancho!

– Men esa o'z xo'jayinimning halol va rostgo'yiligiga

---

<sup>1</sup> Bibi Maryam — Qur'onda tilga olingan taqvoli, siddiqa ayol. Iso (Iyso) payg'ambarning onasi. Musulmonlar uchun u eng mo'mina ona, jannatdagi ayollarning rahnamosi. Turkistonda Maryamga hurmat yuzasidan «Bibi» atamasi qo'shib aytiladi. Qur'oni Karimning «Maryam» deb atalgan 19-surasida u haqida rivoyatlar keltiriladi.

ishonaman; shunday ekan, modomiki, asosiy masalaga o'tdikmi, sizga shunday savolim bor: muhtaram janoblari, qafasga tashlanganingizdan beri o'z tabiiy zaruriyatingizni qondirish ishtiyoqi yoki ehtiyoji tug'ilmadimi?

– Tushunmayapman, Sancho, qanday zaruriyat haqida gapiryapsan? Agar meni ochiq-oydin javob bersin desang, aniq-roq ayt.

– So'zlarimning ma'nosini muhtaram janoblari nahotki tushunmayotgan bo'lsalar? Axir, buni maktabda ona suti og'zidan ketmagan bolalarga ham o'qitishadi-ku. Ya'ni, bir so'z bilan aytganda, qochib qutulib bo'lmaydigan ishni bajaringiz kelmadimi?

– Endi tushundim, Sancho. Albatta, shunday qilgim keldi, yana bir necha marta, mana hozir ham xuddi shunday xohishim bor. Birodar, menga yordam bergil! Nima qilishni ham bilolmay qoldim, tag'in biror falokat yuz bermasaydi deb qo'rquyapman.

– A-ha! – tantanali xitob qildi Sancho. – Qo'lga tushdingizmi! Men xuddi shuni bilib olmoqchi edim-da!

Qani endi, ayting-chi, sinor, odamlarning: «Hayronman unga nima bo'lgan o'zi, – yemaydi, ichmaydi, uxlolmaydi, savollarga ham o'rinsiz javob beradi, tag'in u sehrlangan bo'lmasin», degan gaplarini nahotki eshitmagansiz? Bundan esa kim yebichmasa, uxlamasa, tabiiy zaruriyati bo'lmasa, u sehrlangan bo'ladi degan ma'no chiqadi. Muhtaram janoblari singari, taklif qilishganda ichsa, berishganda yesa, nima haqda so'rasangiz, hammasiga javob qaytarsa, unda mutlaqo buning aksi bo'lib chiqadi-ku!

– Sen oqilona fikr yurityapsan, Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – lekin savdoyilikning xillari turlicha bo'lishini unutganga o'xshaysan, chamasi. Endilikda sehrlanganlar ilgari hech kim qilmagan; lekin hozir men qilayotgan hamma ishlarni qilayotgan bo'lishlari mumkin. Har holda, meni sehrlashganiga ishonchim qat'iy, meni xotirjam qilayotgan narsa – shu. Men sehrlanmaganman, balki shunchaki dunyoda oshib-toshib yotgan baxtsiz va muhtojlarga qo'limdan keladigan yordamimni berolmay, xuddi bekorchi va irodasi sust odamday qafasda o'tiribman,

deb o'ylaganimda qanchalik iztirob chekkan bo'lardim.

– Menimcha, – deb javob berdi Sancho, – har qalay, muhtaram janoblari to'la xotirjam bo'lishlari uchun mana shu qafasdan qutulib chiqib, ajoyib Rosinaningizga minishga urinib ko'rsalar bo'larmidi. Qarang, Rosinaningiz ham go'yo sehrlab qo'yilganday, qanday g'amgin va o'ychan. Bu ishda sizga har tomonlama ko'maklashishga va'da beraman. Qafasdan qutulganingizdan keyin esa yana sarguzashtlar izlagan yo'lga tushishga urinib ko'ramiz. Mabodo baxtga qarshi harakatimiz puchga chiqib, bizlarni halok qilmoqchi bo'lgan yomon niyatli kishilardan qochib qutulolmasak, va'dam shuki, sodiq va oliyjanob qurolbardorga xos ravishda men ham siz marhamatli janoblari bilan birga qafasga kiraman.

– Xo'p, mayli, birodar Sancho, – dedi don Kixot, – ana shu rejani amalga oshirib, meni ozodlikka chiqarish uchun qulay vaziyat topsang, hamma gapingga bo'ysunaman. Ammo buning amalga oshishiga umidim yo'q. Boshimga tushgan baxtsizlikni sen juda oddiy qilib tushuntirib beryapsan.

Ammo shu paytda oldinda kutib turgan ruhoniy, kanonik va satarosh yoniga arava yetib keldi. Hamma ulovidan tushdi: aravakash ho'kizlarni aravadan chiqarib o'tlagani ko'm-ko'k yaylovga qo'yib yubordi. Sancho ruhoniyaning o'z xo'jayinining bir daqiqaga qafasdan chiqishiga ruxsat berishini so'radi, aks holda shavkatli ritsarning sha'niga to'g'ri kelmaydigan voqea sodir bo'lishi mumkinligini tushuntirdi. Ruhoniy gap nima haqida borayotganini payqadi, don Kixotning ozodlikka chiqqach, yana o'z bilganini qilib, yangi sarguzashtlarni izlab qochib ketishidan qo'rqmaganida Sanchoning iltimosini hoziroq bajonidil bajargan bo'lishini aytdi. – Uning qochib ketmasligiga kafilman, – dedi Sancho.

– Ruxsatimizsiz bizdan uzoqlashmaslik va qochib ketmaslikka ritsarlik so'zini bersa, – deb ilova qildi kanonik, – unda men ham kafilman.

– So'z beraman, – deb javob qildi bu gapni eshitib turgan don Kixot. – Sehrlanganlarning erklari, o'zlari istaganlaridek, o'z ixtiyorlarida bo'lmagani uchun ham jon-jon deb so'z bera-



man, chunki sehrgar undaylarni uch yuz yil bir joyda qotib turishga majbur qila oladi, mabodo qochib ketsalar, sehrgar ularni hamisha tutib kela oladi. Shuning uchun ham meni bermalol qafasdan chiqaraverishlaring mumkin.

Shunda kanonik don Kixotning qo'lini yechib, qafasning eshigini ochib yubordi. Xursand bo'lib ketgan don Kixot epchilik bilan tashqariga chiqdi; eng avval kerishib, oyoq-qo'llarini qimirlatdi, keyin esa Rosinantning oldiga borib sag'risiga shapatilab qo'ydi-da, shunday dedi:

– Ey dunyodagi barcha arg'umoqlarning noyobi va faxri, aminmanki, xudo va Bibi Maryam bizlarga madad berib, yaqinda muddaomiz mustajob bo'ladi! Sen yana o'z xo'jayiningni olib yurasan, men esa yana tangrining amri bilan adolatga xizmat qilaveraman.

Shundan keyin don Kixot nonushta qilish ishtiyoqida maysazorda o'tirgan guruhga qo'shildi. Kanonik don Kixotni ovqatlanishga taklif qildi, bunga idalgo bajonidil rozi bo'ldi, u o'zini sehrlangan deb hisoblagan bo'lsa ham, ancha ochqab qolgan edi. Ritsarimizning g'alati savdoyiligiga qiziqib qolgan kanonik uni o'z yoniga o'tqazdi-da, rahmdillik bilan so'radi:

– Sinor idalgo, nahotki, bema'ni va bemaza ritsarlik romanlarini o'qishdan ta'sirlanib, aqlingizga putur yetganidan o'zingizni chindan ham sehrlanganman deb o'ylasangiz? Nahotki, chin narsadan yolg'on qanchalik yiroq bo'lsa, haqiqatdan, shunchalik yiroq bo'lgan bu uydirmalarga ishonasiz? Dunyoda bunaqangi son-sanoqsiz Amadislar, bunaqangi trapezund imperatorlari, Girkankiyalik Felismartlar, uchar otlar, jahongashta xonimlar, ajdaholar, andrianlar, devlar, sehrgarlar, janglar, shaydoyi malikalar, graf bo'lib olgan qurolbardorlar, kulgili pakkana odamlar, sevgi maktublari, turli sehr-u jodular va mo'jizalar – xullas, ritsarlik romanlarida to'lib-toshib yotgan ana shu safsatlarga inson aqli ishonishi mumkin? Shaxsan o'zim ularni o'qiganimda, ular menga birmuncha zavq bag'ishlaydi. Lekin ana shu bemaza gaplarni o'ylay boshlaganimda, menda to'satdan g'azab tuyg'ulari paydo bo'ladi. Bu romanlarning hammasi juda katta ziyon keltiradiki, ularni bitta qo'ymay kuydirib yuborsa

arziydi. Ular hammasi bema'nigarchilik va yolg'ondan iborat bo'lib, inson tabiati qonunlariga ziddir. Asosiysi esa ular eng mulohazali va oliyjanob idalgolarning ongini zaharlaydi. Siz muhtaram janoblarining ahvoli buni ko'rsatib turibdi. Axir, o'sha asarlar sizni shunday ahvolga olib keldiki, natijada, biror sher yoki yo'lbarsni pulga ko'rsatib qishloqma-qishloq olib yurgandek, sizni ham qafasga solib, ho'kiz aravaga solib yurishga to'g'ri keldi. Eh, sinor don Kixot, o'zingizga rahmingiz kelsin, es-hushingizni yig'ib olib, xudo ato etgan aqlingizni baxt-saodatingiz yo'lida ishga soling. Ajoyib qobiliyatingizni boshqa kitoblarni o'qishga bag'ishlang, ana shunda joningiz ham omon-qoladi, shuhratingiz ham oshadi! Mabodo tug'ma layoqatingiz tufayli qahramonlarga bag'ishlangan kitoblarga qiziqsangiz, unda muqaddas kitoblardan bo'lgan Sudeyni o'qing, mazkur kitobda chinakamiga buyuk voqealar va jasoratlar haqqoniy tasvirlanganini ko'rasiz. Muhtaram janoblarining raso aqlari shunday kitoblarni o'qishga loyiq, sinor don Kixot!

Don Kixot kanonikning so'zlarini zo'r e'tibor bilan tingladi, gapini tamomlaganidan keyin esa, unga uzoq vaqt qarab turib, nihoyat shunday dedi:

– Agar xato qilmasam, marhamatli janoblari dunyoda jahongashta ritsarlar bo'lmagan, ritsarlik romanlarining hammasi uydirma, davlatga zararli va foydasiz, ularni o'qib bekor qilgansiz, ularga ishonib bundan ham yomon ish qilgansiz, ularning qahramonlariga ergashib esa o'taketgan darajada bema'ni ish qilgansiz, deb ishontirishga urinyaptilar, shekilli? Lekin ana shu romanlarda qahramonliklari ifodasi to'lib-toshib yotgan Galliyalik Amadis bilan Gretsiyalik Amadis va boshqa ritsarlar yashab o'tganini nahotki inkor etsangiz!

– Marhamatli janoblari mening fikrimni juda to'g'ri talqin qilyaptilar, – deb tasdiqladi kanonik.

Don Kixot esa so'zida davom etdi:

– Muhtaram janoblarining bunga qo'shimcha qilib aytishlaricha, ana shunday kitoblarni o'qish menga katta ziyon keltiribdi, chunki meni aqldan ozdirib, mana bu qafasga tushib qolishimga sabab bo'libdi; basharti men tuzalsam-u, ritsarlik romanlari

o'rniga ko'proq haqqoniy, ko'proq maroqli va ibratli kitoblarni o'qiy boshlasam, yaxshi ish qilgan bo'larmidim?

– Mutlaqo to'g'ri, – deb ta'kidladi kanonik.

– Modomiki, butun dunyoda, – dedi don Kixot, – haqiqat deb topilgan narsani qoralashga jazm etgan ekansiz, demak, sehlrangan va aqldan ozgan siz o'zingizsiz. Muhtaram janoblari-ga o'xshab ritsarlik romanlarining haqqoniyligini inkor etgan kishi, marhamatli janoblari o'zlariga yoqmagan kitoblarni qan-day holga solmoqchi bo'lsalar, o'shanday jazoga loyiqdir. Siz sarguzashtlar izlagan Amadis ham, boshqa ritsarlar ham dunyoda yashamagan deb meni ishontirmoqchi bo'lyapsiz, vaholanki, ular to'g'risida romanlarda ochiq-oydin bayon qilib berilgan! Bunday deyish, quyosh nur sochmaydi, muz sovuq emas, yer qattiq emas deb isbotlashga urinish bilan barobardir. Dunyoda qaysi odam shahzoda Floripes va Burgundiyalik Gyua voqeasining yolg'on-ligiga bizni ishontira oladi! Yoki Buyuk Karl<sup>1</sup> davrida Mantibl ko'prigida<sup>2</sup> Fearabras ko'rsatgan jasoratni olaylik! Buning hammasi, hozir kunduz ekaniday rost bo'lmasa, meni jin ursin! Agar bu yolg'on bo'lsa, demak, unda na Gektor, na Axill, na Troya urushi, na Fransiyaning o'n ikki peri, na qarq'aga aylanib, hanuz ko'kda parvoz qilib yurgan qirol Angliyalik Artur bo'lgan, zotan, shu kunga qadar uning qaytishini kutishyapti-ku o'z qirol-ligida! Bir vaqtlar Per o'zini osmonda uchirib yurgan yog'och arg'umoqni boshqargan murvat to shu kungacha qirollik qurol-xonasida saqlanib kelgan ekan, Per bilan go'zal Magellona tarixini kim inkor eta oladi. Babekaning egari ham o'sha yerda; Ronsevalda esa Rolandning kattaligi xodaday keladigan burg'usi<sup>2</sup> saqlanib qolgan. Demak, mana shulardan ko'rinib

---

<sup>1</sup> Buyuk Karl (742 - 814) – franklar qiroli (768 yildan), imperator (800-yildan), karolinglar sulolasi uning nomi bilan atalgan.

<sup>2</sup> Rolandning burg'usi – Buyuk Karlning afsonaviy safdoshi paladin Rolandning sehlri burg'usi – «Olifant» bo'lgan. Bu burg'uning tovushi yuz millab masofaga yetib borgan. Ronseval darasida fransuz arergardi dushmandan yengila boshlaganda, Rolanddan safdoshlari o'z Olifantini chalib, asosiy kuch bilan qo'shin oldida ketayotgan Buyuk Karlni yordamga chaqirishni iltimos qilishadi. Biroq Roland ancha vaqtgacha burg'usini chalmaydi. Nihoyat, uning bo'linmasidagilardan deyarli hech kim qolmaydi. Uning ajoyib qilichi Dyurandal ham sindi. Ana shundagina u burg'uni chaladi. Biroq u kechikkan, fursat o'tgan edi, Roland o'zi ham tengsiz jangda halok bo'ladi.

turibdiki, o'n ikki per ham, Per ham, Sid<sup>1</sup> ham, ularga o'xshagan boshqa ritsarlar ham

Sarguzashtlar izlashar ekan:

Halqa bo'lib shunchalar mashhur yashagan, – deyish kerak.

Ikki jasur ispan – Pedro Barba bilan Guterra Kixadalarining<sup>2</sup> (ota tomonidan men o'shalarning avlodiga borib taqalaman) Burgundiyadagi sarguzashtlari ham to'qimami, ular graf de Sen Polning<sup>3</sup> o'g'lini jangga chaqirib, ustlaridan g'alaba qozonishmaganmidi, axir? «Poso»da bayon qilingan Suero de Kinones turniri<sup>4</sup> ham, Luis de Falsesning kastiliyalik ritsar don Gonsalo de Gusman bilan bo'lgan yakkama-yakka olishuvini ham va, umuman, bizning hamda chet el nasroniy ritsarlarining behisob jasorat va qahramonliklarining barchasini ham uydirma dersiz. Vaholanki, bularning haqiqatligi yuzasidan bahslashib o'tirgan odamning o'zi aqldan ozganligi har kimga ham ayondir.

Don Kixotning o'zi sevgan jahongashta ritsarlar tarixiga doir ma'lumotlarni chuqur bilishi kanonikni qoyil qoldirdi.

– Sinor don Kixot, – dedi u, – siz keltirgan misollarning ba'zilari to'g'riligini men inkor eta olmayman. Masalan, Fransiyaning o'n ikki peri chindan ham bo'lgan degan fikringizga qo'shilishga tayyorman. Lekin arxiyepiskop Turpinning ular to'g'risida yozgan hamma narsani chindan bajarganlariga ishon-

---

<sup>1</sup> Sid Kampeador («sid» – arabcha «said» so'zidan olingan: janob, hukmdor demakdir, kampeador ispanchada qahramon, jangchi) – Ispaniyada XI asming ikkinchi yarmida yashagan yarim afsonaviy qahramon. Uning haqiqiy ismi Ryui Dias Bivardir. Sid ajoyib sarkarda bo'lgan va Kastiliya, Leon ham Aragoniya qirollari qo'shinlarida uzoq xizmat qilgan, ularning o'zaro harbiy to'qnashuvlarida qatnashgan. Sid mavrlar bilan jang qilib, ulardan Valensiyani tortib olishda, ayniqsa, shuhrat qozongan. Uning nomi bilan ko'p afsonalar yaratilgan bo'lib, ular bizgacha hisobsiz romanslar va dostonlar shaklida yetib keladi.

<sup>2</sup> Pedro Barba va Guterre Kixada – bular kastil ritsarlari bo'lib, 1435-yilda o'z ma'shuqalarini sharaflash maqsadida Fransiya u yerdagi ritsarlar bilan kurashish uchun yo'lga chiqishgan.

<sup>3</sup> Suero Kinonesning turniri – 1434-yilda bo'lib o'tgan turnir. Kinones o'zining o'ntacha o'rtoqlari bilan o'ttiz kun mobaynida Ispaniya, Italiya, Germaniya va Fransiya bilan kelgan oltin ritsarga qarshi g'olibona olishgan.

<sup>4</sup> Navarra ritsari Luise de Falses bilan kastil ritsari Gonsalo de Gusmanning yakkama-yakka olishuvi 1428-yilda Valyadolidada bo'lib o'tgan.

mayman. Bizga ular faqat ritsarlar bo'lgani va fransuz qirollari tanlab olib, perlar<sup>1</sup> deb nom berishganigina ma'lum, chunki bu ritsarlar nasl-nasab jihatdan, jasorat va shon-shavkatda teng bo'lganlar. Muhtaram janob aytgan qirol qurolxonasida Babekaning egari yonida saqlanayotgan graf Parning murvatiga kelganda, men o'zimni gunohkor deb tan olaman: men yo nodonman, yoki ko'zim xira, egarga yaxshilab razm solibman-u, ammo muhtaram janoblari aytganidek unchalik kichik bo'lmasa ham, murvatni ko'rmabman.

– E yo'q, murvat o'sha yerda bo'lsa kerak, albatta! – deb xitob qildi don Kixot. – Men, ovozalarga qaraganda, ana o'sha murvat uchun maxsus charm g'ilof yasashganini ham qo'shimcha qilishim mumkin.

– Hammasi bo'lishi mumkin, – deb javob berdi kanonik, – lekin, diniy martabam haqqi, qasam ichamanki, u yerda murvat ko'rganim esimda yo'q. Boringki, murvat o'sha yerda deb faraz ham qila qolaylik, shunda ham bu narsa menda romanlarning mualliflari yozgan o'sha Amadislar va boshqa son-sanoqsiz ritsarlar tarixiga ishonch tug'dirolmaydi. Siz ham muhtaram janoblari, hurmatli va bama'ni odam sifatida bema'ni ritsarlik romanlarida to'lib-toshib yotgan hamma ahmoqona uydirmalarni haqiqat deb bilmasligingiz kerak.

– Yaxshi! – deb xitob qildi don Kixot. – Demak, qirolning ruxsati va ma'murlarning ma'qullashi bilan nashr etilgan, kattayu kichik, boy-u kambag'al, oliyjanob-u oddiy kishilar zavq-shavq bilan mutolaa qilib, tasannolar o'qishayotgan bu kitoblarni siz yolg'on-yashiq kitoblar deyapsiz! Axir, bu kitoblar mazmunida hech qanaqa to'qima yo'q – chinakam haqiqat yotibdi-ku! Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas! Axir, ularda har qaysi qahramon hayotidan hamma aniq ma'lumotlar keltiriladi-ku: ota-onasining nomi, tug'ilgan joyi tilga olinadi; uning ko'rsatgan qahramonliklari batafsil hikoya qilinib, u bo'lgan mamlatlar bayon etiladi-ku. Bas, muhtaram janoblari, ularni tahqir-

---

<sup>1</sup> Per (*lotincha*: pares – teng) – Angliyada va 1848-yilgacha Fransiyada davlatni boshqarishda qatnashadigan oliy dvoryanlik tabaqasining vakili.

lamang! Yaxshisi, mening maslahatimga quloq soling: bu kitoblarni qaytadan o'qib chiqing, sizga ular qanday zavq berishini keyin o'zingiz ham ko'rasiz. Ritsarlik romanlarini o'qishdan ham ortiq rohat bormi! Sizning aql porlab turgan ko'z oldingizdan turli odamlar, qahramonlar, bahaybat maxluqlar, ajoyib qal'alar, mudroq o'rmonlar o'ta boshlaydi, kutilmaganda esa biqirlab qaynab yotgan qatron to'la katta ko'l namoyon bo'ladi. Ko'lda son-sanoqsiz ilonlar, kaltakesaklar va boshqa vahshiy hamda dahshatli gazandalar bijirlab yotgan bo'ladi, to'satdan ko'lining qoq o'rtasidan kishining ko'nglini ezadigan mungli nido eshitiladi: «Ey ritsar, sen kim bo'lishingdai qat'i nazar, agar bu qo'rqinchli ko'lining qop-qora suvlari ostida yashirinib yotgan xazinani qo'lga kiritmoqchi bo'lsang, qudratli yuragingni ishga solib, qop-qora bo'lib qaynab yotgan suvga sakra. Ana o'shanda sen mana shu tim qora to'lqinlar tagida qolib ketgan yetti parining yetti qal'asidagi ajoyib mo'jizalarni ko'rasan». Ana shu yo'l ko'rsatuvchi mungli ovozni eshitish bilanoq ritsar hech narsaning farqiga bormaydi, xavf-xatarni o'ylamaydi, og'ir, ulkan yarog'aslahalarni yechishni ham xayoliga keltirmaydi. O'zini xudoga va ma'shuqasiga topshirib, qaynab turgan ko'lining qoq o'rtasiga sakraydi, lekin to'lqinlar unga yo'l ochadi, nihoyat, qarshisida Yelisey dalalari ham tenglasholmaydigan o'tloq paydo bo'ladi.

• Unga bu yerning osmoni yana-da tiniqroq, quyosh yana-da yorqinroqdek tuyuladi, soya-salqin daraxtzor uni maftun etadi, daraxtlarning yangi barglari shunday yaltiraydiki, uning ko'm-ko'k rangi ko'zlariga nur bag'ishlaydi, parillab shoxdan shoxga uchib-qo'nib yurgan turli-tuman qushchalarning sayrashlari quvonchini oshiradi. Tip-tiniq ariqcha qumlar va oppoq, toshlarni oralab oqadi. Mana u xilma-xil yashma bilan jilo berilgan marmardan yasalgan favvorani ko'radi. Mana yaltirab turgan turli-tuman kristallar bilan aralashtirilgan oltindan, kunguralari olmosdan bo'lgan mustahkam qal'a yoki hashamatli saroy namoyon bo'ladi; uning hamma yog'i qimmatbaho toshlar bilan qoplangan bo'ladi, me'morchilik uslubi esa uni yanada maftun etadi, jimjimador minoralari, osma ko'shklari, qator-qator ustunlari va narvonlari undan ham jozibali. Qal'aning darvozasi to'satdan

ochilib ketadi-yu, ichkaridan qo'g'irchoqday yasangan go'zal qizlar turnaqator bo'lib chiqib kelishadi. Qizlardan biri ritsarning qo'lidan ushlaydi-da, indamay, uni hashamatli qal'aga boshlaydi. Ritsar qal'aga kirgach yuvinadi, uning badanlariga muattar narsa surishadi, eng xushbichim qilib tikilgan xushbo'y kiyimlar kiygizishadi, ustiga esa serbar uzun ust kiyim tashlashadi, bu eng kamida bir shahar bahosidan qimmat turadi. Keyin uni boshqa zalga boshlab kirishadi, u yerda to'kin dasturxon yozilgan, uning qo'llariga top-toza anbar yoki muattar gullarning shirasi qo'shilgan suv quyib yuborishadi, so'ngra fil suyagidan yasalgan taxtga o'tqazishadi; qizlar unga lom-mim demay xizmat qilishadi, ko'plab shirin-sharbat noz-ne'mat olib kelib uni mehmon qilishadi. U ovqatlanayotganida qandaydir sirli musiqa yangrab turadi. U ovqatlanib bo'lib, dasturxon yig'ishtirib olingach, to'satdan qarshisida o'z go'zalligi bilan boshqa hamma qizlardan ustun turadigan yana bir qiz paydo bo'ladi; u ritsarning yoniga o'tiradi-da, unga bu yerning qanday saroy ekanligini aytib, o'zining kimligini tanishtiradi. Uni yovuz sehrgar sehrlab qo'yanligini, ko'pdan buyon o'z xalos korini orziqib kutayotganini so'zlab beradi... Bu yog'ini davom ettirib o'tirmayman. Jahongashta ritsarlar haqidagi har qanday roman har qanday kitobxonni hayratda qoldirishi va hayajonlantirishi kerakligi busiz ham tushunarli. Shunday qilib, gapimga quloq soling, muhtaram janoblari, bu kitoblarni o'qib chiqing: agar xafaqon bo'lsangiz, davolaydi, ko'nglingiz xira bo'lsa, ochib yuboradi. Menga kelganda, gapimga ishonavering, jahongashta ritsar bo'lganimdan buyon men mard, ehtimromli, saxiy, odobli, himmatli, xushmuomala, qo'rqmas, dilkash bo'lib qoldim. Men falokatlarga ham, bandilikka ham, sehrlanishga ham sabr-toqat bilan chidayveraman! Hozir meni jinniga chiqarib qafasga solib qo'yishdi, lekin agar Olloh taolo menga muruvvat qilsa, baquvvat qo'llarimni ishga solib, biror mamlakatning qiroli bo'lib olishimga aminman. O'shanda mening qalbidan qanchadan qancha shafqat va saxiylik yashirinib yotganini ko'rasiz. O, men do'stlaringa, ayniqsa, bechora qurolbardorim Sancho Pansaga yaxshilik qila olaman, men qurolbardorimni dunyoda eng yaxshi odam hisoblayman. Men uni graf

qilib qo'yishga allaqachon va'da berganman, shuning uchun, graflikni boshqara olmasligidan qo'rqsam ham, buni amalga oshirishni juda-juda istardim.

Sancho don Kixotning keyingi gaplarini eshitib, shunday dedi:

– Sizni ishontirib aytamanki, sinor don Kixot muhtaram janoblari, menga bir necha marta va'da qilganingiz graflikni boshqarishga fahm-farosatim yetadi. Bunga tezroq erishsam, bas!

– Inim Sancho, shuni unutmangki, – dedi kanonik, – har qaysi sinor o'z mulkiga o'zi qozi bo'lishi kerak, buning uchun esa bilimli va mulohazali bo'lish, eng asosiysi – adolat yuzasidan ish yurita bilish lozim, busiz esa boshqarishingiz pala-partish bo'lib ketadi.

– Bu falsafalaringizga aqlim yetmaydi, – deb javob berdi Sancho, – lekin men faqat bir narsani bilaman, graflikka muyassar bo'lsam, uni boshqara olaman. Axir, har qanday odamda bor qalb menda ham bor, gavdam esa ko'plarnikidan kattaroq. Ha, men o'z mulkimni har qanday qirolidan yaxshi boshqara olaman, boshqarayotganimda esa xayolimga nima kelsa, shuni qilaman, xayolimga kelganini qilar ekanman, o'z huzur-halovatimni o'y-lab yashayman, o'z huzur-halovatimni o'y-lab yasharkanman, hammadan xursand bo'laman, kimki hammadan xursand bo'lsa, hech narsaga muhtoj bo'lmaydi, hech narsaga muhtoj bo'lmandan keyin esa gap tamom, vassalom.

Shu yerda don Kixot gapga aralashdi:

– Sancho graflikni boshqara oladimi, yo'qmi, buni kelajak ko'rsatadi. Men esa buyuk Galliyalik Amadisga ergashayotirman. U o'z qurolbardorini Quruqlik oroliga graf qilib ko'targan. Shuning uchun men jahongashta ritsarlarga xizmat qilgan eng yaxshi qurolbardorlardan biri Sancho Pansani hech qanday vijdon azobisiz graflik martabasiga ko'tara olaman.

Kanonik bo'lmag'ur xayollarga berilib ketgan ritsarning telbaligigami yoki o'z xo'jayini aytgan so'zlarga ishongan xizmatkorning soddaligigami – qaysi biriga ko'proq ajablanishini bilmay qoldi.



Ular shu ko'yi gaplashisharkan, kanonikning xizmatkorlari gilam to'shab, oziq-ovqatni yoyib qo'yishdi, shundan keyin hammalari ovqatlangani o'tirishdi.

## O'TTIZINCHI BOB

### CHO'PON BILAN UCHRASHUV, CHERKOV MAROSIMI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN SARGUZASHT HAMDA DON KIXOTNING UYIGA QAYTISHI

Ulfatlar o'tloqqa o'tirishib tinchgina ovqatlanishayotganda, qayerdandir butalar orasidan qo'ng'iroqchalarning jiringlashi quloqqa chalindi. Xuddi shu daqiqada butalar orasidan olabula echki sakrab-sakrab chiqib qoldi; ketidan qichqirib quvib kelayotgan cho'pon uni yana podaga qaytarishga behuda urinardi. Qo'rqib ketgan qochoq go'yo himoya talab bo'lganday, dovdiragancha to'ppa-to'g'ri odamlar tomon yugurdi, ularga yaqinlashgach esa xuddi qoqqan qoziqdek qaqqayib turib qoldi. Uni quvib yetgan cho'pon shoxidan ushlab olib shunday dedi:

– Ey, chipor shumtakam! Hali sho'xlik ham qilmoqchi bo'ldingmi? Qaysi bo'ri tishlab oldi seni, qizalog'im? Qayt darrov, qayt, jonginam. Otar senga yoqmasa-da, lekin, har holda, u yerda dugonalaring orasida xatarsiz bo'lasan. Qo'y-e, injiq-liging qurib ketsin.

Cho'ponning o'z echkisi bilan go'yo aqlli jonivorday gaplashgani hammalarining ko'nglini ochib yubordi va kanonik unga shunday dedi:

– O'tinib so'rayman, inim, shoshmang, echkingizni podaga haydamay turing, mana bu go'shtni oling-da, bir stakan maydan iching, jahlingizdan tushasiz, echkingiz ham nafasini rostlab oladi.

Kanonik shunday dedi-da, unga bir burda yaxna quyon go'shti uzatdi. Cho'pon samimiy minnatdorchilik bilan qabul qilib, kanonikning yoniga o'tirdi, vinoni ichib go'sht bilan tamad-

di qilgach, nihoyat, shunday dedi:

– Muhtaram janoblari, mening mana bu echki bilan qanday gaplashganimga qarab, meni ahmoq ekan deb o‘ylashlarini istamasdim. Gapimning tagida gap bor. Men aslida dehqon bo‘lsam ham, odamlar bilan qanday, hayvonlar bilan qanday muomala qilishni juda yaxshi bilaman.

– Bunga bajonidil ishonaman, – deb javob berdi kanonik, – chunki tog‘larda olimlar, cho‘ponlar kulbasida esa faylasuflar yetishishini o‘z tajribamdan bilaman.

– Har holda, – dedi cho‘pon, – u yerlarda ko‘pincha boshidan ko‘p narsalarni kechirgan va turmushni biladigan odamlar yashaydi. Men ilgari cho‘pon emas edim.

– Qani, boshdan kechirganlaringizni bizga hikoya qilib bering, – murojaat qildi unga ruhoniy, – bajonidil tinglaymiz.

Uning iltimosiga shu yerdagilarning hammasi qo‘shildi.

– Mening boshdan kechirganlarim juda oddiy kechinmalar, muhtaram sinorlar, – dedi cho‘pon. – Men qo‘shni qishloqdagi badavlat bir dehqonning o‘g‘liman. To‘q va farovon turmush kechirdim. O‘sha qishloqda bir suluv qiz ishlardi, u juda obro‘li va badavlat xonadonning qizi edi. U shu qadar suqsur ediki, dovrug‘i butun muzofotga yoyilgan edi. Uning qo‘lini so‘raganlar juda ko‘p bo‘ldi, lekin sovchi yuborganlar orasida uning otasiga men, shuningdek, o‘z qishlog‘imizda tug‘ilib o‘sgan yana bir davlatmand va ko‘hlik yigit juda yoqib qolgan edik. U ikkalamizdan qaysi birimizni yaxshi ko‘rishini bilmay, yaxshisi, qizning o‘zi tanlashini afzal hisoblab, undan qaysi birimiz yoqishimizni so‘radi, u nima deganidan bexabarman-u, lekin otasi qizim hali juda yosh, uni erga berishni kechiktirishga to‘g‘ri keladi, deb javob qildi. Shu orada qishloqda yangi oshiq paydo bo‘ldi. U bir dehqonning o‘g‘li edi, u urushda qatnashib yurtiga qaytib kelgan, ola-bula kiyimiga xilma-xil shaqir-shuqurlarni va zanjirlarni taqib olgan edi. U maqtanchoq, ham bezbet edi. O‘zining ajoyib qahramonliklari: o‘zi borgan turli mamlakatlar, katta shaharlardagi quvnoq va farovon hayot haqida ustalik bilan so‘zlab berardi. Bunga shuni ham ilova qilish kerakki, u durust-

gina musiqachi bo'lib, gitarani<sup>1</sup> juda boplab chalardi, buning ustiga shoirlilik ham qilardi, qishlog'imizda yuz bergan har bir hodisa to'g'risida uzunligi bir yarim mil keladigan romanslar yozardi. Suluv qizning ismi Leandra edi, u ana shu oliftaga yoqib qolib, olifta uning ko'nglini ovlashga o'tdi. Biz, boshqa oshiq-lari, qiz g'ururi yo'l bermay, uning so'zini rad etadi deb o'ylagan edik. Lekin kunlardan bir kun qiz hamma qimmatbaho buyum-larini, anchagina pulni olib, u bilan noma'lum tomonga qochib ketganida bizning umidsizlikdan hayron bo'lib qolganimizni ta-savvur qilib ko'ring-a, muhtaram sinorlar. Qizini jonidan yaxshi ko'rgan ota boshiga tushgan g'amdan naq esini yo'qotib qo'-yayozdi, uni qidirib hamma yerga bordi, butun politsiyani oyoq-qqa turg'azishdi, barcha o'rmon va o'tloqlarni ag'dar-to'ntar qilib yuborishdi. Qochoq qizni nihoyat tog'dagi bir g'ordan topishdi. Uni bor bud-shudidan mahrum qilib, o'z holiga tashlab ketgan o'sha yigit. Olifta yigit o'g'ri ekan-da, u qizning hamma ko'y-laklarini, qimmatbaho buyumlarini va pullarini tortib olib ketib qolibdi. Aftidan, uning hisobiga boyishni istagan ekan. Bu voqea butun muzofot bo'ylab katta shov-shuv ko'tarilishiga sabab bo'l-di. Suluv qiz o'z dugonalarining ko'ziga ko'rinolmay noqulay ahvolda qolgan edi, otasi uni vaqtincha qo'shni monastirga<sup>2</sup> olib borib qo'ydi. O'shandan keyin yashash shunday jonimga tegib ketdiki, echkilarni haydab toqqa jo'nadim; ana shu qoyalar orasi-da, daraxtlar soyasida, soy bo'ylarida yolg'izlikda yashab, chil-parchin bo'lib ketgan muhabbatimga achinib, yengiltak va o'jar qizni qarg'ab yuribman.

Cho'ponning hikoyasi tinglovchilarga juda qattiq ta'sir qilganidan hammalari bir-birlariga gap bermay chug'urlashib, unga hamdardlik izhor qilishdi.

Don Kixot hayajonlanib ketganidan xitob qilib yubordi:  
– Sizni ishontirib aytamanki, echkiboqar og'ayni, agar

---

<sup>1</sup> *Gitara* (*ispancha*: guitarra – chertma musiqasi asbobi) – olti yoki yetti torli, chertib chalinadigan musiqasi asbobi.

<sup>2</sup> *Monastir* (*yunoncha*: monasterion – chekka, olamlardan uzoqdagi joy) – 1) tarki dunyo qilgan xristianlar – monaxlarning muayyan qoida va me'yorlar, belgisi nizomga amal qilib yashovchi diniy jamoasi; 2) shunday jamoaga qarashli cherkov, turar-joy, yer-mulk va boshqalar (bu yerda shu ma'noda).

men hozir sarguzashtlar izlashga jo'nay olganimda edi, eng avvalo, sizning Leandrangiz tavba-tazarru qilayotgan monastirga borardim-da, xotinlar monastiri boshlig'i va boshqa menga to'siqlik qilmoqchi bo'lganlarning qarshiligiga qaramay, qizni xalos etardim.

Lekin, e voh, men sehlanganman, shuning uchun bu daqiqada biror chora ko'rishga qodir emasman. Biroq aminmanki, oliyanob sehrgar yovuz jodugardan kuchli chiqadi va tezda o'z holimga qaytaman. Shuning uchun ham sizga ko'maklashish va homiylik ko'rsatishga qat'iy va'da beraman, chunki ojizlar va mazlumlarni himoya qiluvchilar zimmasiga shunday vazifa yuklatilgan.

Cho'pon don Kixotga qaradi-da, uning ustidagi alomat kiyimlari va g'alati so'zlaridan ajablanib, yonida o'tirgan sarta-roshdan so'radi:

– Sinor, bu odam kim? Gaplari juda g'alati, kiyimlari ham qiziq.

– U, – deb javob berdi sartarosh, – tahqirlanganlarning qasoskori, adolat himoyachisi, xonimlar homiysi, devlarga dahshat soluvchi va janglarda g'olib chiquvchi mashhur lamanchlik don Kixotdan bo'lak kim bo'lardi.

– Gapingizning hammasi, – dedi cho'pon, – jahongashta ritsarlar haqidagi uydirmalarga o'xshaydi. Bunday ishlarni faqat ana o'sha jahongashta ritsarlargina qilganlar, siz muhtaram janoblari esa bularni sinor don Kixot nomi bilan bog'layapsiz. Menimcha, yo muhtaram janoblari hazillashyaptilar, yo bu oliyanob sinorning boshi qovoqroq.

– Siz surbet, muttahamsiz! – deb xitob qildi don Kixot ko'zlari chaqnab. – Qovoqbosh ovsar sizning o'zingizsiz. Birovni haqorat qilish mana bunday bo'ladi!

U shunday deb, oldida turgan dumaloq non bilan cho'ponning basharasiga shunday tushirdiki, uning burni pachoq bo'lib ketdi. Cho'ponga bu hazil uncha yoqmadi, shekilli, u gilamni gilam, dasturxonni dasturxon demay, ovqatlanayotganlar orasidan bosib o'tib, don Kixotga tashlandi-da, ikki qo'li bilan uning tomog'idan bo'g'ib oldi. Agar Sancho Pansa yordamga kelma-

gandami, sho'ring qurg'ur ritsarning holi xarob bo'lardi. Sodiq qurolbardor cho'ponning yelkasidan ushlab oldi-da, ikkovlari ham taglarida qolgan dasturxonga ag'darilib tushib, likopcha, kosalarni sindirib, ovqatlarni sochib, vinoni to'kib yuborishdi. Nafasini rostlab olgan don Kixot yana echkiboqarga tashlandi, qop-qora qonga bo'yalgan cho'pon esa ovqatlanishda foydalaniladigan birorta pichoqni olish niyatida gilamda sudralardi, lekin baxtga qarshi yaqin orada birorta ham pichoq yo'q edi. Shunda sartarosh don Kixotni tagiga bosib olib ezishda cho'ponga yashirincha yordam berdi, bechora don Kixot kaltakning tagida qolib ketdi. Kanonik bilan ruhoniy don Kixotning tipirchilayotganini, cho'ponning alamiga chidayolmay jikillayotganini ko'rib rosa kulishardi; o'qchilar zavqlanib sakrashar va xuddi bir-birini g'ajiyotgan ikki itni olqishlayotgandek gij-gijlatishardi, bir Sancho Pansagina nima qilishini bilmas, o'z xo'jayiniga yordamga tashlanay deb shuncha urinsa ham, kanonikning xizmatkori qo'lidan qutulib chiqib ketolmasdi.

Xuddi shu daqiqada surnayning juda mungli ovozi eshitilib hamma birdan seskanib ketdi, don Kixot o'z raqibiga shunday deb baqirdi:

– Menga qara, ey iblis, – zotan, meni yengishga kuching va jasorating yetgan ekan, iblissan-da, – sendan iltimos, hech bo'lmasa, bir soatga yarashib turaylik. Qulog'imga surnayning mungli ovozi chalindi, nazarimda, u meni yangi sarguzashtlarga chorlayotganga o'xshaydi.

Musht urib, musht yeyish joniga tekkan cho'pon obro'si borida mushtlashishni to'xtatishga muyassar bo'lishidan shodlanib, shu zahotiy oq don Kixotni qo'yib yubordi. Ritsar irg'ib o'rnidan turdi, surnay ovozi eshitalayotgan tomonga boshini o'g'irgan edi, xuddi xayoliy sharpalardek oq libosga o'ralgan ko'pgina odamning tepalikdan tushib kelayotganliklarini ko'rdi.

Hamma gap bu yil yomg'ir yerni to'ydirmayotganida edi, shuning uchun xudo rahm-shafqat qo'lini cho'zib, yerga yomg'ir yog'dirib, qurg'oqchilikni to'xtatarmikin degan umidda dehqonlar butun muzofot bo'ylab diniy marosimlar, ibodatlar, o'z-o'zini urib tavba qilish kabi yurishlarni o'tkazayotgan edilar. Qo'shni

qishloq aholisi ham vodiy yon bag'rida qaqqayib turgan muqaddas butxonaga ana shunday yurish qilgandilar. Lekin don Kixot o'z-o'zini urayotganlarning g'alati kiyinganini ko'rgan zahotiyoq, taqdir o'ziga yana bir xavfli sarguzashtni yo'llaganini ko'z oldiga keltirdi. Saf oldida bir necha kishi qora choyshabga o'ralgan avliyo haykalini ko'tarib olgan edi. Shu manzaraning o'ziyoq don Kixotning vijdotsiz va qabih qaroqchilar biror mashhur sinorani o'g'irlab ketayotibdi deb o'ylashiga yetarli bo'ldi. Boshiga shu fikr kelishi bilanoq, u Rosinant tomon yugurdi, egar qoshidan yuganini olib, uni bir zumda yuganladi-da, Sanchodan qilich berishini talab qildi, keyin lip etib otiga mindiyu, qalqonni qo'liga olib, hamrohlariga baqirib shunday dedi:

– Nima uchun olamda jahongashta ritsarlar bo'lishini ana endi ko'rasiz. Men hozir anavi qaroqchilar o'g'irlagan oliyjanob sinorani ozod qilganimda, shavkatli ordenimiz hurmatga sazovormi, yo'qmi, bilib olasizlar!

Shu so'zlarni aytib u Rosinantni oyoqlari bilan niqtagan edi, Rosinant o'zlarini urib tavba qilayotganlarga qarab shataloq otib ketdi. Ruhoniy, kanonik va sartarosh don Kixotni ushlab qolishmoqchi edi, lekin buning iloji bo'lmadi, uni Sanchoning dod-voy solib qichqirishlari ham to'xtata olmadi:

– Qayoqqa ketyapsiz, sinor don Kixot? Qaysi shaytonning vasvasasiga uchib muqaddas cherkovimizga qarshi bor-yapsiz, axir! Bunday tuzukroq qarang, axir, bu diniy marosimku! Nima qilayotganingizni bir o'ylab ko'ring, sinor! Boshqalarning ishiga tumshug'ingizni tiqyapsiz deb, bu gal dangal aytsa bo'ladi.

Biroq Sancho bekorga zo'r berib baqirayotgan edi. Uning xo'jayini oq libos kiyganlarga hujum qilib, motam choyshabiga o'ralgan xonimni xalos etishga shunday shoshilardiki, uning bir og'iz so'zini ham eshitmadi. Eshitganda ham, baribir, qaytmas, shuning uchun qirolning o'zi shunday buyruq berganda ham quloq solmasdi.

Marosim ustiga ot choptirib bordi, rosa holdan toygan Rosinantini to'xtatdi-da, xirillagan ovoz bilan hovliqib xitob qildi u:

– Hoy! Kimsizlar o‘zlarinigiz? Halol odamlar yuzlarini berkitishmaydi. To‘xtanglar! Gapimga quloq solinglar!

Birinchi bo‘lib haykalni ko‘tarib borayotganlar to‘xtashdi, diniy oyatlarni kuylab borayotgan to‘rt kishidan biri esa don Kixotni g‘alati va kulgili qiyofada ko‘rib, unga shunday javob berdi:

– Sinor, biror narsa demoqchi bo‘lsangiz, tezroq gapiring. Birodarlarimiz qamchi bilan a‘zoyi badanlarini azoblayaptilar, to‘xtab gapingizni eshitishga fursatimiz yo‘q.

– Bo‘ldi, ortiqcha so‘zning keragi yo‘q, – deb javob berdi don Kixot, – darhol mana bu xonimni qo‘yib yuboringlar, ko‘z yoshlari va g‘amgin chehrasidan uni qattiq haqoratlab, zo‘ravonlik bilan olib ketayotganliklaring ko‘rinib turibdi. Qarshingizdagi ritsar ana shunaqangi ozorlar uchun qasos olgani dunyoga kelgan, sizlar xonimning tilagini bajo keltirib, uni haqli ravishda ozod etmas ekansizlar, ritsar sizlarni bir qadam ham olg‘a siljittirmaydi.

Don Kixotning bu so‘zlarini eshitishib hammalari uni jinni deb o‘ylashdi-da, zavqlanishganidan xaxolab yuborishdi. Biroq bu kulgi don Kixotning g‘azabdan yonib ketishiga sabab bo‘lgan uchqun edi. U indamay qilichini o‘ynatganicha taxtiravonga tashlandi. Haykalni ko‘tarishib borayotgan dehqonlardan biri taxtiravondan uzun yog‘ochni olib, don Kixotga yuzlandi. Ritsarning qilichi ana shu tayoqqa tegib uni ikkiga bo‘lib yubordi, lekin dehqon qo‘lida qolgan bo‘lagi bilan don Kixotning yelkasiga shunday tushirdiki, ritsar hushdan ketib, otdan quladi. Shu daqiqada Sancho, xo‘jayinimga hech kim tegmasin, xo‘jayinim umrida hech kimga yomonlik qilmagan, atigi bir sehrlangan ritsar deb qichqira boshladi. Bu orada dehqon don Kixotni o‘ldirib qo‘ydim deb o‘ylab, qo‘rqib ketganidan kiyikdan ham tez yugurib dala tomonga tiraqaylab qocha boshladi.

Voqea sodir bo‘lgan joyga don Kixotning boshqa hamrohlari yetib kelishdi. Marosim qatnashchilari mushket ko‘tarib olgan o‘qchilarni ko‘rib ahvolimiz chatoq, deb o‘ylashdi-da, Madonna haykali atrofini zich o‘rab, hujumchilarga zarba bergani hozirlanishdi. Ammo ish kutilgandan yaxshi tomonga burildi.

Marosimda qatnashayotgan boshqa ruhoniylar bizning ruhoniylarni tanib qoldi. Shuning uchun ham har ikkala dushman tomon bir-biriga tug'dirgan xavf tarqadi-qo'ydi. Marosimni kuzatib borayotgan ruhoniylar don Kixotning kimligini tushuntirib berishdi, ruhoniylar qimirlamay hamon yerda yotgan gavdasi tepasida aytib yig'lay boshladi.

– O, ritsarlarning guli, taqdiring yo'g'on tayoqning bir zarbasidan o'lish ekan-da! O, o'z naslining chiroyi, o, butun Lamanch, butun dunyoning shuhrati, g'ururi! Sensiz endi butun olam yaramas odamlar bilan to'lib ketadi, ular endi jazodan qo'rqmay jinoyat qilaveradilar. O, hamma Iskandarlardan yuz chandon saxiy odam, chunki atigi sakkiz oylik xizmati evaziga qurolbardoringga atrofni dengiz o'rab olgan orollarning orolini sovg'a qilding-a. O, sen takabburlar oldida kamtar, kamtarlar oldida mag'rur, xavfdan qo'rqmas, musibatli kunlardan bardoshli, allakimning xushtori, yaxshilarga taqlidchi, yovuzlarning ofati, har qanday pastkashlikning dushmani – xullas, chinakam jahongashta ritsar!

Sanchoning nola qilib ho'ngrab yig'lashidan don Kixot o'ziga keldi-da, qaddini sal ko'tarib shunday dedi:

– Ey, shirin-shakar Dulsineya, kim sizdan yiroqda yashasa, u bundan ham yomonroq falokatlarga yo'liqadi. Sehrlangan aravaga chiqishimga yordam ber, do'stim Sancho. Yelkam dabdala bo'lib ketganidan Rosinantga minolmayman.

– Bajonidil, sinorim, – deb javob berdi Sancho. – Bilasizmi, yuring, sizga yaxshilik qilayotgan mana bu sinorlar bilan birga qishlog'imizga ketaylik. Borganimizdan keyin o'sha yerda yangi sarguzashtni o'ylab topamiz, bu shunday safar bo'lsinki, undan ham foyda topaylik, ham shuhrat.

– Sen bama'ni gapni aytding, – dedi don Kixot. – Aqllilik ustimizdagi yulduzlar turkumining yomon ta'siri tugaguncha kutishni taqozo etadi.

Kanonik, ruhoniylar bilan sinor Nikolas don Kixotning qaroridan xursand bo'lib ketishib, ritsarni aravaga o'tqazishda Sancho Pansaga ko'maklashishdi. Don Kixot shu qadar holdan ketib qolgan ediki, endi unga qafasning keragi ham yo'q edi.



Shuning uchun qafasni yo'lga tashlashib, aravaning tagiga bir quchoq beda solishdi, so'ngra vazmin aravakash ho'kizlariga qamchi bosdi-da, karvon asta-sekin yo'lga tushdi. Yo'lda birinchi bo'lib cho'pon qoldi. U yo'lovchilar bilan do'stona xayrlashdi-da, o'z echkisini yetaklab podaga qaytdi. Cho'pondan keyin o'qchilar ham ruhoniyan o'zlariga tegishli mukofotni olib, shu atrofda eng yaqin qovoqxonaga jo'nashdi.

Nihoyat, kanonik ham don Kixot voqeasi nima bilan tugashini keyin o'ziga xabar qilishini ruhoniyan so'rab, unga va hamrohlariga oq yo'l tiladi-da, uyiga jo'nadi. Shunday qilib, hamma har tomonga tarqalib ketdi, endi ruhoni, satarosh, don Kixot bilan Sancho Pansaning o'zlari yo'lda davom etishdi. Ular olti kun deganda don Kixotning qishlog'iga kuppa-kunduz kuni kirib borishdi. Baxtga qarshi yakshanba kuni bo'lgani uchun don Kixot tushgan arava o'tadigan maydon odamlar bilan liq to'la edi. Hamma kim kelayotganini ko'rish niyatida arava tomon yugurdi va o'z hamqishlog'ini tanib, hayratda qoldilar. Qandaydir bir bola xo'jayinlari oriqlab, sarg'ayib ketgan holda qaytib kelganini, ho'kiz qo'shilgan aravadagi bir quchoq beda ustida yotganini aytgani uning ekonomkasi bilan jiyanining oldiga yugurib ketdi. Bu oqko'ngil ayollarning uvvos tortib, la'nati ritsarlik romanlarini qarg'ab, ko'kraklariga mushtlab yig'lay boshlashganini ko'rgan kishilarning ularga rahmi kelardi.

Don Kixotning qaytganini eshitib Sancho Pansaning xotini ham yugurib keldi. U eridan, eng avvalo, eshakning sog'-salamatligini so'radi. Eshagi o'zini xo'jayinidan ham yaxshi sezayotganini aytdi Sancho.

– Voy xudoyim-ey, o'zingga shukr, – deb xitob qildi Sancho xotini, – ko'rsatgan marhamatingga shukr! Qani, do'stim, endi menga ayting-chi, xizmatigizdan biror foyda bo'ldimi? Menga qanday sovg'alar olib keldingiz? Do'ndiq-laringizga boshmoq olib keldingizmi?

– Sovg'a ham, boshmoq ham olib kelganim yo'q, – dedi Sancho, – lekin bundan ham muhimroq va jiddiyroq narsa bor.

– Meni juda xursand qilib yubordingiz, – dedi xotini, – qani o'sha narsani ko'rsating-chi, tezroq bo'ling, jonginam.

Ko'nglim tezroq joyiga tushsin, siz ketgandan buyon kuyaverib o'lib bo'layozdim!

– Uyda ko'rsataman, xotinjon, lekin hozir aytadigan gapim shuki, agar xudo nasib qilib yana sarguzasht izlab yo'lga tushsak, tez orada mening graf yoki biror orol gubernatori bo'lishimni ko'rasan, orol bo'lganda ham uncha-munchasi emas, dunyodagi eng ajoyibi bo'ladi.

– Iloho omin, erjon, orol deysizmi, koshkiydi, juda qo'l keladi! Lekin orolingiz nimasi, hech narsani tushunmayapman, menga tushuntirib bering.

– Eshakka asal berishmaydi, – deb javob berdi Sancho, – vaqti kelganda buni o'zing tushunib olasan, xotinjon. Tobelaring senga janobi oliyalari deb murojaat qilishganda, og'zing ochilib qolishini tasavvur qilib turibman.

– Nimalar deyapsiz o'zi, Sancho? Qanaqa janobi oliyalari, anavi orol, tobelar degani nima? – deb so'radi eridan Teresa Pansa.

– Teresa, sen hamma narsani birdan bilib olishga shoshilma. Men aytgan haqiqatni eshitishingning o'zi ham yetarli. Darvoqe, shuni aytishim mumkinki, sarguzasht izlovchi jahongashta ritsarning barchaning hurmatiga sazovor qurolbardori bo'lishdan ko'ngilliroq ish yo'q. To'g'ri, bu sarguzashtlarning ko'pchiligi ko'ngildagidek bo'lib chiqavermaydi, bunga iqror bo'lish kerak. Men buni o'z tajribamdan bilaman, chunki, meni choyshabda irg'itdilar ham, rosa kaltakladilar ham. Ammo-lekin, har qalay, baxt orqasidan tog'larga tirmashish, o'rmonlarda adashish, qoyalarga chiqish, qal'alarga kirish, qo'noqxonalarda zo'rlik bilan qora chaqa ham to'lamay tunash, qurib ketsin hammasi, juda antiqa ishlar-da!

Sancho Pansa va uning xotini Teresa Pansa shu zaylda suhbatlashdilar. Bu orada idalgoning jiyani va ekonomka u bechorani epchillik bilan yechintirishib, eski karavotga yotqizishdi. Idalgoning ko'zlari alang-jalang bo'lib ularga tikilar, qayerdaligini bilolmas edi. Ruhoniy idalgoning jiyaniga tog'asiga yaxshilab qarashni tayinlab, uydan yana qochib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni ko'rish zarurligini iltimos qildi. Uni uyga

qaytarib kelguncha qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirganlarini gapirib berdi. Buni eshitgan har ikki ayolning fig'oni falakka chiqdi, bunday bema'ni ritsarlik kitoblarini va ularni yozgan kishilarni jahannam qa'riga tortsin deb, xudoga iltijo qila boshladilar. Ular salgina tinchlanganlaridan so'ng bechora idalgoga mehr-shafqat ko'rsata boshladilar. Yelkasi shikastlangan, hamma yog'i g'urra bo'lgan, ozib-to'zib, sarg'ayib ketgan idalگو bo'lsa karavotda qimirlamay jimgina yotardi<sup>1</sup>.

## O'TTIZ BIRINCHI BOB

### DON KIXOT BETOBLIGIDA RUHONIY, SARTAROSH VA UNING ORASIDA BO'LIB O'TGAN HANGOMALAR

Ruhoniy bilan sartarosh yaqininginda boshdan kechirgan voqealarni tag'in esiga solib qo'ymaylik, degan andishaga borib, betob ritsarimizni qariyb bir oygacha kelib ko'rishmadi. Lekin ular don Kixotning jiyani va ekonomkaga tez-tez yo'liqib, bemorga tuzukroq g'amxo'rlik qilishni uqtirar, ayniqsa, unga to'yimli, yuragi va miyasiga ozuqa beradigan foydali ovqatlardan tayyorlab berishlarini tayinlardilar. Ayollar kecha-yu kunduz o'z xo'jayinlarini betinim parvarish qilayotganliklarini, u kishining ham oz-ozdan tuzalib borayotganini va ba'zi-ba'zida o'zini eshushi joyida bo'lgan odamdek tutayotganini aytib berishdi. Buni eshitib, don Kixotning muxlislari yer-ko'kka sig'may suyunishdi. Xayriyat, ularning don Kixotni deb chekkan mashaqqatlari zoye ketmabdi. Axir, uni Siyerra Morena tog'laridan izlab topishdi, qovoqxona xo'jayini-yu sipohlar bilan oralaridagi mojaroni bartaraf qilishdi, nihoyat, don Kixotni aravada uyga olib

<sup>1</sup> Servantes romanining birinchi jildi o'ttizinchi bobda tasvirlangan don Kixotning uyga qaytishi bilan tugaydi. Bu birinchi jild 1605-yilda bosilib chiqadi va kitobxonlarga juda manzur bo'ladi. U Ispaniyada bir necha marta qayta bosiladi va fransuz hamda ingliz tillariga tarjima qilinadi. Xullas, G'amgin Qiyofa ritsar obrazi butun Yevropaga dong taratadi. Servantes don Kixotning ikkinchi qismini yozishga kirishar ekan, bundan ustalik bilan foydalanish zarurligini fikr qildi.

kelishdi. Lekin, shunday bo'lsa-da, ular don Kixotning chindan ham sog'ayib qolganini o'z ko'zlari bilan ko'rishni juda-juda istashardi. Shu sababdan ular don Kixotni, albatta, ko'rishga qaror qildilar, ammo bechora idalgo bilan suhbatlashganda jahongashta ritsarlar haqidagi har qanday ishoralardan yiroqda turishni, binobarin, uning hali bitmagan yarasiga yana tuz sepmaslikni kelishib oldilar.

Shu shartlar bilan ular don Kixot huzuriga kirishdi. Idalgoning egnida paxtali yashil kamzul, boshida qizil qalpoq, bolishga viqor bilan suyanib o'tirardi. Shunchalik oriq, shunchalik sarg'ayib ketgan ediki, bir qarashda qurib, qovjirab qolgan mumiyoga o'xshab ketardi. Don Kixot do'stlarini iltifot bilan qarshi oldi, sog'lig'i haqidagi savollarga ham samimiy, oqilona, hatto yurakka tegadigan so'zlar bilan javob berdi. Oddiygina, bamaylixotirlik bilan boshlangan suhbat, nihoyat, davlat ishlari va hukumat farmoyishlariga borib taqaldi. Bu farmoyishlardan ba'zilarini suhbatdoshlar tanqid qilishdi, ba'zilarini esa, aksincha, ulug'ladilar. Suhbatdoshlarning har biri o'zini yangi qonunshunos, shu kunning Likurgi<sup>1</sup> yoki Soloni<sup>2</sup> deb bilardi. Azbaroyi to'liqinlanib ketganliklaridan, og'iz ko'pirtirib davlatni chunonam ag'dar-to'ntar qilib yuborishardiki, go'yo davlat ulkan bir temirchi qo'rasiga tushib, erib, qayta quyilib, butunligicha yangi shaklga kirganga o'xshardi. O'rtaga tashlangan hamma masalalar yuzasidan don Kixot oqilona fikrlar aytardi, ruhoniy bilan sartarosh buni ko'rib, es-hushi joyiga kelib qolganiga tamomila ishonch hosil qildi.

Bu suhbatda don Kixotning jiyani bilan ekonomka ham ishtirok etishib, xo'jayinlarining shunday bama'ni fikr yuritayotgani uchun xudoga ming qatla shukrona keltirib o'tirishdi. Ruhoniy, don Kixotning batamom sog'ayib ketganligiga qat'iy ishonish niyatida avvalgi jahongashta ritsarlik xususida gap

---

<sup>1</sup> Likurg – qadimgi Spartaning (eramizgacha bo'lgan IX asr) mashhur qonunshunosi. Rivoyatlarga qaraganda mustahkam Sparta davlati tuzumining qaror topishiga asos solgan va uning qonunlarini yaratgan ham Likurg bo'lgan.

<sup>2</sup> Solon – mashhur Afina faylasufi, eramizgacha bo'lgan VII–VI asrlarning qonunshunosi va shoiri.

ochmaslik haqidagi qaroridan voz kechdi. U suhbatni asta-sekin poytaxtdagi eng so'nggi yangiliklarga burib, gap orasida, aniq ma'lumotlarga qaraganda, turk sultoni kuchli flot bilan yo'lga chiqqanmish, deb qistirib o'tdi. Sultonning maqsadi nima-yu bu dahshatli urush qayerda boshlanadi, buni hali-hozircha hech kim bilolmayapti. Ammo-lekin butun nasroniy olami tag'in tashvishda. Hazrati oliylari hozircha, Neapol, Sitsiliya qirg'oqlarini, Malta orollarini mustahkamlashni buyurdi, dedi.

Bunga don Kixot:

– Hazrati oliylari o'z saltanatlarini oldindan mustahkamlab, juda aqlli ish tutibdilar. Demak, dushman davlatimizni g'af-latda qoldira olmaydi. Basharti qirol mendan maslahat so'rashni lozim topganida edi, men hazratlariga o'ta serhikmat mushohadalarimni tavsiya etgan bo'lur edim, – dedi.

Ruhoniy bu so'zlarni eshitgani hamono, o'zicha: «O, parvardigor seni o'z panohida asrasin, bechora don Kixot! Aftidan, sen yana tubsiz telbalik chohiga yuz tutyapsan», – deb qo'ydi.

Sartarosh esa, ruhoniyning fikrini darhol payqab, don Kixotdan qirolga qanday choralar ko'rishni maslahat etajagini so'radi va:

– Sizning bu takliflaringiz ham hukmdorlarga beriladigan son-sanoqsiz, lekin bema'ni maslahatlardan bo'lmasin tag'in deb qo'rqaman, – deb qo'shib qo'ydi u.

– Men beradigan maslahatlar, – javob berdi don Kixot, – sira bema'ni emas, aksincha, juda bama'ni, sartarosh afandim.

– Men biror yomon fikr aytmoqchimasdim, – shoshapisha e'tiroz bildirdi sartarosh, – faqat demoqchimanki, son-sanoqsiz maslahatgo'ylar rejalarning aksariyatini yo yuzaga chiqarib bo'lmaydi, yoki ular quruq safsata, yoinki qirol va qirollikka katta zarar yetkazadi.

– Men tuzgan reja bema'ni, quruq safsata ham emas, amalga oshmaydiganlar xiliga ham kirmaydi, aksincha, juda pishiq o'ylangan, amalga oshirish ham oppa-oson, – dedi yana don Kixot qat'iy.

– Maslahatlaringizni bilishga juda mushtoqmiz, marhamatli sinor don Kixot, – dedi ruhoniy.

– O‘z rejalarimni bu yerda va hozir oshkor qilishni istamasdim, chunki bu sir ertagayoq qirol maslahatchilarining qulog‘iga borib yetadi-yu, tashakkurni ham, mukofotni ham mening o‘rnimga boshqa birov ilib ketadi.

– Shaxsan men, – dedi buni eshitib sartaresh, – Xudoni o‘rtaga qo‘yib, oldingizda qasam ichamanki, so‘zlaringizni yer yuzidagi bironta odam bolasiga yetkazmayman.

– Men bunga ishonaman, sartaresh afandim, – xitob qildi don Kixot, – siz va‘dangizda qattiq turasiz.

– Shunga qaramay, u unchalik halol odam bo‘lmaganida ham tilini tishlab, soqovday jim yurishiga men kafilman, – gapga aralashdi ruhoniy, – aks holda men uni sudga berib, sud chiqimlarini to‘lashga majbur qilaman!

– Itlifotli afandimiz, siz ruhoniy janoblari uchun kim kafolat beradi? – so‘radi don Kixot.

– Mening nom u martabam so‘zlaringizni maxfiy tutishni taqozo etadi, – dedi ruhoniy.

– Unda juda soz! – xitob qildi don Kixot. – Eshiting, men o‘z rejalarimni sizlarga bayon etay. Hazrati oliylariga mening maslahatim shuki, u o‘z jarchilari orqali e‘lon qildirib va ma‘lum bir kunni belgilab, Ispaniyada daydib yurgan barcha jahongashta ritsarlarni poytaxtga to‘plasin. Ular besh-o‘n kishi bo‘lsa ham mayli. Buning ahamiyati yo‘q. Negaki ular orasida shunday bir qahramon topilib qolishi mumkinki, butun turk lashkarlarini yakson qilib tashlash bir o‘zining qo‘lidan kelar. G‘animga diqqat bilan quloq solib, fikrlarimni kuzatib boringlar, sinorlar. Nahotki sizlar bitta jahongashta ritsar ikki yuz ming kishini xuddi pista po‘chog‘iday qirib tashlay olishi haqida hech qachon eshitmagan bo‘lsangizlar?

Qani, menga aytingizlar-chi, ritsarlar to‘g‘risidagi har bir romanda ana shunday yoki shunga o‘xshash Galliyalik Amadisning behisob avlod-ajdodlaridan birortasi tirik bo‘lib turklar bilan kuch sinashganida, ont ichamanki, o‘zimni sulton o‘rnida ko‘rishni unchalik orzu qilmasdim. Ammo, baribir, parvardigor o‘z xalqidan rahm-shafqatini darig‘ tutmaydi va el himoyasiga qadimiy jahongashta ritsarlarchalik qudratlisi bo‘lmasa-da, har

holda, dovyuraklikda ulardan qolishmaydiganini yo'llaydi. Tangrining o'zi meni anglaydi – ortiq gapim yo'q.

– Oh, pushtipanohim yana jahongashtalik savdosiga muhtalo bo'libdi. Yolg'on bo'lsa, til tortmay o'lay, – deb qichqirib yubordi jiyani.

Bunga javoban don Kixot shunday dedi:

– Men jahongashta ritsar bo'lib tug'ilganman, shunday bo'lib dunyodan o'taman.

Gapga sartarosh aralashdi:

– Muhtaram sinorlar, sizlardan o'tinib so'rayman, menga so'z beringlar. Sevilyada bo'lib o'tgan arzimas bir voqeani aytib beray. Hozir juda-juda o'rniga tushardi-da.

Don Kixot ijozat berdi. Ruhoniy va boshqalar jim bo'lishib, diqqat bilan quloq soldilar, sartarosh hikoyasini boshladi:

– Sevilya qishlog'idagi jinnixonada bitta tentak yotgan ekan. Aqldan ozganligi uchun qarindosh-urug'lari uni shu yerga keltirib tashlashibdi. Bir necha yil azob tortib yotgach, haligi jinni o'zining soppa-sog' ekani va aqli-hushi joyiga kelganligiga ishonib, arxiyepiskopga murojaat qilib xat yozibdi va o'z xatida marhamatli tangri es-hushini qaytarganini, endi uni bu zindondan ozod etishini iltijo qilib yalinib-yolvoribdi. Yana xatida u, meni bu yerga qarindoshlarim qasddan, meni mol-mulkka sherik qilmaslik ilinjida keltirib tashlashgan, deb qo'shimcha qilibdi. Bu jinning tупpa-tuzuk, bir sog'-salomat odamchalik fikrlab yozgan maktublarini olaverib, uning sog'ayib ketganiga qanoat hosil qilgan arxiyepiskop jinnixonaga boshqaruvchisining huzuriga o'z vakili – kapellanni<sup>1</sup> jo'natibdi. Kapellan boshqaruvchidan butun voqeani surishtirib bilishi, haligi jinni bilan uchrashmog'i, agar u jinni bo'lmay, chindan ham es-hushi joyida bo'lsa, uni o'zi bilan birga olib qaytishi lozim ekan. Qisqasi, kapellan jinnixonaga kelibdi. Boshqaruvchini chaqirib, niyatini aytibdi. Gospital<sup>2</sup> boshlig'i: «Yo'q, hali es-hushi joyiga kelgan emas. Rostdan ham u kishi ba'zan o'zini salomat odamday tutadi,

<sup>1</sup> Kapellan – 1) kema ruhoniysi; 2) katoliklarda xonaki cherkov popi, ruhoniysi.

<sup>2</sup> Gospital (lotincha: hospitalis – mehmondo'st) – odatda harbiylar yotib davolanadigan kasalxonaga.

ancha-muncha bama'ni gaplar ham aytadi. Lekin ko'pincha gaplarining nihoyasi huda-behuda, bema'ni vaysash bilan tugaydi. Darvoqe, bunga qanoat hosil qilish uchun o'zi bilan gaplashib ko'rsangiz ham bo'ladi», – debdi. Kapellan amalda sinab ko'rmoqchi bo'lib, jinni bilan xonani ichkaridan qulflab olib, bir soatdan ortiqroq suhbatlashibdi. Shu vaqt davomida jinni biror og'iz nojo'ya gap aytmabdi, aksincha, juda bama'ni, oqilona so'zlashibdi.

Buni ko'rib, kapellan uni tamoman aqli joyida ekan, deb tan olishga majbur bo'libdi. Gap orasida telba o'zining bu kasalxonada turishidan manfaatdor bo'lgan qarindoshlari tomondan boshqaruvchining sotib olinganini ham aytibdi. Qisqasi, u boshqaruvchini poraxo'r, qarindoshlarini esa ziqna, toshbag'ir odamlar, o'zini esa ularning g'arazli hiylai nayranglarining begunoh qurboni qilib ko'rsatibdi. Kapellan bemorning so'zlariga ishonibdi va uning tamoman sog'ayib ketganini o'z ko'zi bilan ko'rsin deb, telbani o'zi bilan birga arxiyepiskop huzuriga olib ketishga ahd qilibdi. Shuning uchun ham u boshqaruvchidan bemorga eski kiyim-boshini berishini so'rabdi. Boshqaruvchi vakilning oldidan yana bir bor o'tib, undan o'z qarori haqida yaxshilab o'ylab ko'rishni iltimos qilibdi. Lekin kapellan boshqaruvchining maslahat va ogohlantirishlariga quloq solmay, bechorani olib ketaman deb turib olibdi. Endi boshqaruvchining ham javob berishdan boshqa chorasi qolmagan edi, chunki arxiyepiskopning amri – gospital boshqaruvchisi uchun farmon-da. Telbaga o'z kiyimlarini kiydirishibdi. Shunda u ozod bo'layotganiga ko'zi yetib, kapellandan marhamat qilib, jinni o'rtoqlari bilan xayrlashuviga ruxsat berishini so'rabdi. Vakil rozilik beribdi-yu, biroq o'zi ham bu yerda qanday kishilar istiqomat qilayotganini birrov ko'rib qo'yish niyatida, telbaga ergashibdi. Bu yerda hozir bo'lganlardan ba'zilar ham ular bilan birgalashib borishibdi. Ozod bo'layotgan jinni ashaddiy telba, lekin hozir jazavasi bosilib, xotirjam davri boshlangan jinni o'tirgan panjrali xonaga yaqinlashib:

– Og'a, men uyimga qaytyapman, menga bironta topshirig'ingiz yo'qmi? Aslida, men bunga loyiq bo'lmasam ham,



parvardigori olamning cheksiz inoyati va muruvvati tufayli aqlim joyiga keldi. Bir muddat ham umidingizdan uzmay yaratganga iltijo qilavering. Vaqti-soati kelib, agarda butun ixlozingiz xudoga qaratilgan bo'lsa, siz ham men kabi dardingizga shifo topgaysiz, – debdi.

Jabrdiydaning bu nutqini haligi ashaddiy jinnining ro'parasidagi xonada o'tirgan telba eshitib qolibdi. U yotgan yeridan irg'ib turib, baqiribdi:

– Sog'ayib, aqli joyiga tushib, uyiga ketayotgan kim o'zi?

– Bu men, og'a, qaytayotgan. Endi bu yerda o'tirishimning hojati qolmadi. Xudoning marhamatiga shukrona keltirib jo'nayapmiz! – deb javob beribdi boyagi jinnimiz.

– Mundoq yaxshilab o'ylab boqing, nimalar deyayotganingiz haqida. Tag'in shayton yo'ldan urgan bo'lmasin, – javob beribdi telba, – hovliqishning keragi yo'q. Joyingizda jimgina o'tiravering. Ketgan bilan, baribir, qaytib kelasiz!

– Imonim komilki, soppa-sog'man, – e'tiroz bildiribdi jo'novchi, – bu yerga esa endi qadam bosmayman. Shuncha azob-uqubat tortganim yetar.

– Siz soppa-sog'misiz? Siz-a? – debdi telba. – Hay, mayli, ko'rarmiz hali, xudo yor bo'lsin. Lekin o'zim, yerdagi noibi bo'lgan Yupiter<sup>1</sup> haqqi, qasam ichamanki, sizni gospitaldan bo'shatib yuborib qilgan birgina gunohi uchun Sevilyani shunday jazolayki, u dunyoi bu dunyo sira yoddan chiqmaydigan bo'lsin, iloho omin. Sen g'arib kimsa bilasanki, bu mening qo'limdan keladi, chunki men – Chaqmoqchaqar Yupiterdirmanki, jahonni qiyratib, unga halokat va dahshat keltiradigan o'tli yashinlarning bari mening ixtiyorimda! Men bu nodon Sevilya qishlog'ining shunday adabini berayki... Shu kun, shu soatdan boshlab uch yilgacha va shahar-u na qishloqqa, na butun viloyatga bir tomchi yomg'ir yuborayin! Xo'sh! Sen ozodsan,

---

<sup>1</sup> Yupiter (Zeus) – qadimgi yunon va rimliklarning afsonalarida tasvirlangan osmon ma'budi, ma'budlar va odamlarning hokimi. Yupiter otasi Saturn va ukalari bahaybat pahlavonlar bilan shiddatli jangdan so'ng osmon-u zamin ustidan hukmronlik qilishni qo'lga olgan. Ular ustidan hukmronlikni qo'lga kiritgach, u osmon bilan yerni o'ziga qoldirib, dengizni Neptunga (Poseydonga), do'zaxni – Plutonga bergan.

sen soppa-sog'san, sening aqli-hushing joyida-yu, men esa jin-  
niman, kasalman, tutqunman! Ha, yerga bir tomchi yomg'ir  
yuborguncha, osilib o'laman, osili-ib!!

Atrofdagilar telbaning qichqiriq va so'zlarini e'tibor bilan  
tinglab turishibdi. Faqat ozod bo'layotgan telbagina kapellanning  
tirsagidan tortib debdi:

– Achchig'ingiz kelmasin, marhamatli sinor, bu jinnini  
qo'yavering, so'zlariga e'tibor qilmang, men suv ma'budi va  
otasi Neptun bo'laman, modomiki, Yupiter dalalaringizni su-  
g'ormas ekan, unda o'zim istagan vaqtda, istaganimcha yomg'ir  
yog'dirib beraveraman.

Kapellan bunga javoban shunday debdi:

– Har qanday bo'lgandayam, sinor Neptun, sinor Yu-  
piterni ranjitish kerak emas. Marhamat qilib, hozircha shu yerda  
yashay turing, qachonki, bo'sh vaqtimiz va qulay fursat kelib  
qolsa, yana janoblarini so'roqlab kelarmiz.

Bu manzarani kuzatib turgan boshqaruvchi va boshqalar  
xaxolab kulib yuborishibdi, bundan kapellanning g'azabi qo'zib  
ketishiga sal qolibdi. So'ngra bechora telbaga qaytadan kasal-  
xona kiyimini kiydirishibdi, u yana gospitalda qolibdi. Bu voqea  
shu bilan tugabdi.

– Shu tobda juda-juda o'rninga tushadi, deb aytgan vo-  
qeangiz shumi, janob sartarosh? – deb so'radi don Kixot. – Eh,  
janob sartarosh, janob sartarosh, darhaqiqat, g'alvirdan qarab  
turib ham hech narsani ko'rolmagan kishini haqiqiy so'qir deyish  
kerak! Men, janob sartarosh, Neptun ham, suv xudosi ham  
emasman. O'zimni donishmand ham deyolmayman. Men faqat  
insonlarga ular yer yuzida jahongashta ritsarlikning baxtiyor za-  
monlari barqaror etilishini tilamasdan naqadar yengiltaklik qila-  
yotganlarini tushuntirib qo'ymoqchiman, xolos. Ehtimolki, biz-  
ning majruh asrimiz ilgarigi dorilamonlik gashtidan mahrum va  
unga noloyiqdir. Bunday gasht o'tmishda, jahongashta ritsarlar  
davlatni mudofaa qilganlarida, xotin-qizlarni himoya etganlari-  
da, yetim-yesir, g'arib-u g'urabolarga ko'maklashganlarida,  
mag'rurlarni jazolab, mo'minlarni siylaganlarida haq va barqaror  
edi. Hozirgi ritsarlar muqaddas sovutlarni ipag-u barqutga

almashtirganlar. Ular hozir taqir, zax yerda tunamaydilar, ochiq havoda qolib jazirama issig'-u achchiq izg'irin azobini tortmaydilar. Hozirgilarning birontasi tuni bilan mijja qoqmay nayzaga suyanib, oyog'ini uzangidan olmay, soqchilik qilib ko'rsin-chi! Qilolmaydi! Eh-ha, eski vaqtlarda qanaqaydi! Aytaylik, ritsar o'rmon chekkasiga chiqib qoldi. U tog'dan oshib o'tib, kimsasiz dengiz bo'yiga tushardi. U yerda eshkaksiz, yelkansiz, hech qanday anjomlari va machtasi<sup>1</sup> bo'lmagan biror qayiq ko'rinsa bas, tappa sakrab chiqardi-yu, boshi oqqan tomonga qarab suzib ketaverardi. Dahshatli to'lqinlar qayiqni charxpalak qilib ko'kka itqitadi, yana halokat girdobida yo'q qilib yubormoqchidek pastga tashlaydi, lekin ritsar dadil turib, asov to'lqinlar va quturgan bo'ron bilan olishadi, nihoyat, qarabsizki, vatanidan mingminglab mil yiroqlarga borib keladi. Bu bir umr ko'rmagan olis o'lkalarda ming bir xil qiyinchilikka giriftor bo'ladi, zo'r-zo'r yovlar bilan olishadi, ko'rmagan azob-uqubatlarni ko'radi, ammo, baribir, oxirida g'alaba qiladi va kelgusi avlodlar tilida doston bo'ladigan jasoratlar ko'rsatadi. Bunday ritsarlarning butun hayoti xavf-xatar, mashaqqat-u jang-u jadallarda o'tgan.

Biz-chi? Biz nima ko'ryapmiz hozir? Shijoat ustidan tanballik, mehnat ustidan tarallabedodlik, oliyjanoblik ustidan nuqs, jasurlik ustidan surbetlik tantana qilgan zamon hozir! Jahongashta ritsarlik asrida gullab, kamolga yetgan harbiy shonshavkat o'rmini esa makkorona ixtirolar egalladi! Mabodo so'zlarimga qo'shilmaydigan bo'lsangiz, qani menga ayting-chi, mashhur Galliyalik Amadisdan kim botirroq? Angliyalik Palmerindan kim oqilroq? Kim tirant Oqbadandan iltifotliroq va epliroq? Gretsiyalik Lisuardan kim xushmuomalaroq? Don Belyanisdan ko'proq zarba yegan va zarba bergan biron kimsa bormi? Galliyalik Periondan dovyurakroq kishi bormi olamda? Girkankiyalik Felismartechalik xavf-xatardan ko'p qutulib ketgan odam kim? Esplandian kabi samimiy, dilkash ritsarni bilasizmi? Fraki-

<sup>1</sup> **Machta** (*gollandcha*) – kemanding qoq o'rtasiga o'matiladigan, yelkan osish, kuzatish, signal berish uchun xizmat qiladigan vertikal metall yoki yog'och ustun, dor (*asarda shu ma'noda kelgan*); 2) elektr simlarini osish, signalizatsiya, antennalar o'matish maqsad uchun qurilgan baland minorasimon qurilma.

yalik don Sironxili odan shijoatli roq kim bor? Jasoratda Rodamonte bilan kimni yonma-yon qo'yasiz? Donolikda qirol Sobrianoga kim teng kela oladi? Reynaldodan dadil roq ritsar bormi? Rolanddek yengilmas kishini eshitganmisiz? Bu qahramonlarning hammasi, – yana allaqanchasini misol keltirishim mumkin, – janob ruhoni y, jahongashta ritsarlar edi. Men mana shunaqa yoki shularga o'xshagan ritsarlarni taklif etishni qirolga maslahat berardim, chunki ular hazrati oliylariga sadoqat bilan xizmat qilar, turk sultoni esa, alamid an sochini yulgan bo'lar edi. Illo, nazarimda, men uyda qoladiganga o'xshayman, sababki, janob kapellan meni olib ketmaydigan ko'rinadi. Sartarosh afandim zikr etganidek, magarkim Yupiter bizni yomg'irdan mahrum qilar ekan, uni istagan paytimda o'zim yog'diraman... Buni «ko'chirmakash jom» sinor gapini tushunganimni bilib qo'ysin deb, aytyapman.

Gapga yana ruhoni y aralashdi:

– Sinor don Kixot, so'zlaringizni tinglab o'tirib, menda bir gumon paydo bo'ldi. Boyadan beri vijdonimni kemirib, azob beryapti. Iltifot ko'rsatib shuni aytishga ijozat bersangiz.

– Sizga nainki buni, yana ko'p narsalarni ham aytishga ijozat berish mumkin. Qani, bizga o'z gumonlaringizni bayon qiling, chunki birontamizning vijdonimiz nimadandir og'rigani insofdan emas.

– Unday bo'lsa, ijozatingiz bilan shubhalarimni o'rta ga tashlayman, – so'z boshladi ruhoni y, – sinor don Kixot, mening bir narsaga sira-sira ishongim kelmaydi. Nahotki, siz hozirgina nom-banom sanab o'tgan jahongashta ritsarlarning yashagani rost bo'lsa? Nahotki, ular, haqiqatan ham, oddiy odamlarday et bilan suyakdan tuzilgan bo'lsa? Aksincha, nazdimda, bu gaplarning bari uydirma va yolg'on, ezgu bir orzudir kim, jabrdiyda xalq, ko'pincha xayol surib, to'g'rirog'i uyqusirab so'zlab kelgan ular haqida.

– Ko'p odamlar giriftor bo'lgan yanglishuvga siz ham uchrabsiz, – deb javob berdi ruhoni yning bu so'zlariga don Kixot, – lekin, har qalay, siz bilan bahslashishga ham hojat yo'q. Men oldindanoq aytib qo'yishim mumkinki, Galliyalik Amadisni

o'z ko'zim bilan ko'rganman: u novcha, rangpar, qop-qora chiroyli soqolli, kamgap, odamlarga goh muloyim, gohida xo'm-rayib qaraydigan, qahri juda sekin keladigan, lekin tez jahldan tushadigan odam edi. Mana shu Amadisni qanday ta'riflagan bo'lsam, yuqorida sanab o'tganim boshqa ritsarlarni ham xuddi shunday tasvirlab berishim mumkin. Agar ular haqida yozilgan romanlarni diqqat bilan o'qib chiqsangiz va ular ko'rsatgan jasoratlarni eslasangiz, ularning tashqi qiyofasini ko'z oldingizga keltirishingiz oson, chunki kishining tashqi qiyofasi ichki dunyosiga mos bo'ladi.

– Sinor don Kixot, xo'sh, sizning fikringizcha, Morgante polvonning bo'yi qanaqa bo'lgan, aytib berolmaysizmi? – so'rab qoldi sartarosh.

– Muqaddas kitoblarda polvonlar, darhaqiqat, yashab o'tganlar, deb yozishsa-da, lekin bu masala haligacha chigal. Diniy rivoyatlarda filistimliyalik Goliat<sup>1</sup> degan odam to'g'risida gap ketadi.

Uning bo'yi yetti yarim tirsak bo'lgan. Demak, afsonaviy pahlavon deyish mumkin edi. Bundan tashqari, Sitsiliya orolida boldir va yelka suyaklari topilgan. Bu suyaklar bo'y-basti minoradek keladigan kimsaga mansubligi aniq. Shunda ham, baribir, men unchalik novcha emas, deb o'ylasam-da, Morgantening bo'yi-bastini aniq aytolmayman. Ammo uning hayoti tafsilotlari berilgan rivoyatlarda, Morgante bir necha bor uyda tunagan, deyiladi, modomiki, u bemalol kira oladigan uylar bor ekan, demak, uni aytarli darajada bahaybat gavgdali deyish noo'rin.

– Siz haqsiz, – dedi ruhoniy. Don Kixotning bema'ni mulohazalari uning uchun bir ermak edi. Shuning uchun u ritsarimizdan, Montalbanlik Reynaldo, Roland va boshqa Fransiya perlari, sobiq, jahongashta ritsarlarning tashqi qiyofasi qanaqaligini so'radi.

– Mening shu narsaga imonim komilki, – javob berdi don Kixot, – Reynaldo keng yuzli, qirmizi yonoqli, sal o'ynoqiroq baqako'zli bir odam bo'lgan; nihoyatda ginaxon va qiziqqon bu

<sup>1</sup> Goliat – yunon-rim afsonalarida tasvirlangan bahaybat jangchi.

odam qaroqchilar va buzuq, yaramas odamlar bilan oshnachilik qilgan. Xo'sh, Roland, Rotoland yoki Orlandga kelganimizda esa – chunki u romanlarda mana shu uch nom bilan ataladi – mening taxminimcha, u o'rtabo'y, yag'rindor, sal maymoq oyoq, bug'doyrang, malla soqolli, badani sertuk, qarashlari dahshatli, o'n gapirganda, bir gapirmaydigan, lekin juda odobli va nihoyatda xushmuomala odam bo'lgan.

Shu onda don Kixotning ehtirosli nutqi jiyani bilan ekonomkaning shovqin-suroni tufayli uzilib qoldi. Qichqiriqni eshitgan mehmonlar o'rinlaridan irg'ib turib, hovliga otilishdi.

## O'TTIZ IKKINCHI BOB

### SANCHO PANSA BILAN DON KIXOTNING JIYANI VA EKONOMKA O'RTASIDAGI MOJARO

Bu orada hovlida alomat bir janjal boshlanib ketgan edi, Sancho o'z xo'jayinining oldiga kirmoqchi bo'lar, o'zini don Kixotning huzuriga kiritishlarini talab qilardi. Biroq don Kixotning jiyani bilan ekonomka uni ostonaga ham yaqinlatmay, hadeb:

– Bu daydivachchaga bizning uyda pishirib qo'yibdimi! Qani, marhamat qilib, bu yerdan tuyog'ingizni shiqillatib qolingchi. Siz nimayam qilardingiz xo'jayinimizning oldida, uning miyasini aynitish-u, yana qayoqlargadir yetaklab, sarson-sargar-don qilishdan boshqa narsa qo'lingizdan kelarmidi? – deya baqirishardi.

– Yolg'on, alvasti ekonomka! – deb baqirdi bunga javoban Sancho, – men emas, bu sening xo'jayining miyamni aynitib, yo'ldan ozdirgan. O'sha – sening xayolparast xo'jayining meni uyimdan judo qildi. Senga falon orolni sovg'a qilaman, deb allaqaysi go'rlarga boshlab bordi. O'sha oroliga yetishishni hanuz kutib yotibman.

– Xudoyo xudovando o'sha la'nati orol boshingni yesin, juvonmarg Sancho, – deb chiyillardi don Kixotning jiyani, –

boshingga urasanmi o'sha orolni? Yo uni pishirib yemoqchiydingmi, ochofat!

– E-e-e, orolni hecham yeyishmaydi, uni boshqaradilar, – e'tiroz bildirardi Sancho. – Qani endi, peshonamga bitganida-ku, men uni to'rtta shahar kengashi yo o'shancha poytaxt alkaldidan ko'ra ming marta afzalroq boshqarardim.

– Baribir, sizni sinorimizning oldiga hecham qo'ymaymiz! Bu yerdan yaxshilikcha jo'nab qoling, siz qahr-u g'azabning koni, badxulqlarning uchiga chiqqanisiz! Borib yeringizni haydang, ro'zg'oringizni tebrating. Orol-porollarni kallangizdan chiqarib tashlang!

Bu dahanaki jang ruhoniyl bilan sartaroshga yog'day yoqib tushgan, shuning uchun ular xaxolab kulishardi.

Biroq don Kixot, Sancho bo'lar-bo'lmas gaplarni vaysab, sha'niga dog' tushirib qo'y masa edi, degan tashvishda xotinlarga, mehmonni ichkari o'tkazib yuboringlar, deb qichqirdi. Sancho xotinlar o'rtasidan g'oz yurish qilib uyga kirdi. Ruhoniyl bilan sartarosh esa don Kixot bilan xayrlashib, bechora idalgoning jahongashta ritsarlik kasalidan o'la-o'lguncha qutulolmasligiga qanoat hosil qilishib, uylariga jo'nashdi.

– Mana, ko'rasiz, oshnam, – dedi ruhoniyl sartaroshga, – birodarimiz tez kunda yana olam bo'ylab safarga otlanadilar.

– Mening ham bunga imonim komil, – javob berdi sartarosh, – chunki men ritsarning ahmoqligidan ko'ra, qurolbardorining laqmaligidan ko'proq ajablanyapman: yo'q oroldan shunchalik umid qilyaptiki, uning qovoq kallasidan bu fikrni qanday chiqarib tashlash mumkinligiga hayronman.

– Tangri shifosini bersin ikkovining, – dedi ruhoniyl. – Qani ko'ramiz, ritsar va qurolbardorining bu telbaligi qanday oqibatlarga olib borarkin. Nazarimda, ular bir-birovlari uchun yaratilgandek, xo'jayinning tentakligi-yu xizmatkorining esa kaltafahmligi shundoq mos tushganki, asti qo'yavering.

– Siz haqsiz, – dedi sartarosh, – ular hozir nimalar to'g'risida suhbat qurishayotganikin, bilsak, zap ish bo'lardi-da.

– Imonim komilki, – javob qildi ruhoniyl, – jiyani bilan ekonomka keyin bizga hammasini oqizmay-tomizmay aytib beri-

shadi. Baribir, suhbatlariga quloq solishadi, ularning tabiati shunaqa o'zi.

Don Kixot esa Sancho bilan yolg'iz qolib, eshikni qulfladi-da, shunday dedi:

– Sancho, seni go'yo men uyingdan judo qilgan emishman, bu menga og'ir botadi. Axir, bilasan-ku, sen kabi men ham uyimni tashlab ketganman. Birga otlandik, birga dunyo kezdik, boshimizga tushgan og'ir-engilliklarni ham baham ko'rdik va, nihoyat, basharti seni bir marta choyshabda osmonga uloqtirgan bo'lsalar, meni yuz marta kaltaklashdi, mabodo mening ustunlik joyim bo'lsa, u ham – mana shu.

– Aslida ham o'shanaqa bo'lishi kerak edi-da, – javob berdi Sancho, – chunki marhamatli janobimizning o'zlari aytganlariday, balo-qazolarning aksariyati qurolbardordan ko'ra ritsarning boshiga ko'proq yog'iladi.

– Yanglishyapsan, Sancho, – dedi don Kixot, – lotinlarning bosh og'risa, butun a'zoyi badaning zirqiraydi, degan maqolini eslagin-a. Demak, men sening xo'jayining va homiying ekanman, men – bosh, xizmatkorim bo'lmish sen esa mening a'zoyimsan. Shundoq ekan, mening kulfatim, bu – sening ham kulfating, men sening dardingga sherik, sen esa menga hamdard bo'lmog'ing lozim, Sancho.

– Hamisha-ku, xuddi shundoq bo'lishi kerag-a, – dedi Sancho, – ammo-lekin sizning a'zoyi badaningizdan biri bo'lmish meni choyshabga solib osmonga irg'itishganda, bosh janoblari hamdard bo'lish o'rniga devor ortida hech qayerlari og'rimay qo'l qovushtirib turdilar. Modomiki, a'zolar bosh og'rig'ini birga tortishga majbur ersalar, unda bosh ham a'zolarining og'rig'iga sherik bo'lsin-da.

– Nahotki seni osmonga irg'itishganda menga oson bo'ldi, deb o'ylasang? – xitob qildi don Kixot. – Yo'q, bu ta'nang noo'rin. Basharti sen o'sha daqiqada jisman azob chekkan bo'lsang, men ruhan undan ko'ra ortiqroq ezildim. Kel, bu narsalarni qo'ya turaylik, keyinroq bafurja hal qilarmiz. Yaxshisi, do'stim Sancho, mening haqimda qishloqda qanday so'zlar bor, shundan so'zla. Xalq idalga va kabalerolar haqida qanday fikrda? O'lib,



yo‘q bo‘lib ketgan jahongashta ritsarlik davrini qayta tiklash borasidagi mening rejalarim haqida nimalar deyishyapti? Qisqasi, Sancho, qulog‘ingga qanday gap yetgan bo‘lsa, hammasini to‘kib sol. Faqat, yaxshilikni oshirmay, yomonlikni yashirmay, bari-barini so‘zlab berishing shart! Negaki sadoqatli xizmatkorlar o‘z sinorlariga bor haqiqatni shunday gapirib berishlari lozimki, unda janobimga yoqmay qolmay tag‘in, degan andisha ham yoki ortiqcha hurmat-tavoze yuzasidan andavalash ham bo‘lmasin. Sancho, sen shuni bir bilib qo‘yki, agarda bizning haqgo‘y fikrlarimiz muvofiqliksiz, bor holicha hukmdorlarning qulog‘iga yetib borsami, u vaqtda butunlay boshqacha zamon bo‘lib ketardi. Unda o‘tgan asrlarni temir asr, bizning zamoni esa oltin asr deyilsa, bo‘laverardi. Bu so‘zlarni senga daromad tarzda, seni ogohlantirib, menga haqiqiy ahvolni bo‘yamay-netmay aytib berarsan, degan maqsadda gapirdim, Sancho.

– Iltimosingizni bajonidil ado etaman, sinor, – dedi Sancho, – lekin, marhamatli janoblari mening so‘zlarimdan achchiqlanmasliklari kerak. Axir, o‘zingiz bor haqiqatni oshirmay va yashirmay, qanday bo‘lsa, shundayligicha aytib ber, deyapsiz, to‘g‘rimi?

– Achchig‘im chiqmaydi, deb va‘da beraman, Sancho, bermalol va to‘ppa-to‘g‘ri gapiraverishing mumkin, – dedi don Kixot.

– Bo‘lmasa, tinglang, – dedi Sancho, – xalq siz marhamatli janoblarini butunlay aqldan ozgan, meni esa, kam deganda savdoyi bo‘lib qolgan, deyapti. Idalgolar esa, siz muhtaram janobni atigi bir-ikkitagina tokzor-u ikki-uch akr<sup>1</sup> haydaladigan yergagina ega bo‘la turib, o‘zini dvoryan va ritsar qilib ko‘rsatmoqchi, bu tamomila qonunsiz, degan fikrdalar. Kabalerolar esa qandaydir bir idalgoning, yana hamisha kovushini kuyaga bo‘yab, qora paypoqni ko‘k ipak bilan yamab yuruvchi bir idalgoning o‘zlari bilan tenglashmoqchi ekanligidan norozi bo‘lyaptilar. Xullasi kalom, qurolbardorlikkagina yaroqli emishsiz.

– Bu gaplarning menga daxli yo‘q, men hech qachon ya-

<sup>1</sup> Akr – 4047 kvadrat metrga teng bo‘lgan yer o‘lchovi.

moq kiyim kiymayman, hamma vaqt yaxshi kiyinib yuraman.

– Xo'sh, sizning shon-shavkatingiz, odobingiz, jasoringiz, tadbirkorligingizga kelganda esa, turli xil fikrlar yuribdi. Birovlar: «tentag-u, ammo e'tiboringni o'ziga tortadi», – desa, boshqa birovlar: «Botir-u, lekin omadi yurishmagan», – deyish-yapti. Yana bir xil kishilar: «Tadbirli-yu, biroq aqldan ozib qolgan-da», – degan fikrdalar. Buni eshitgan odamlar biri olib, biri qo'yib, gap qilyaptilarki, natijada siz inoyatli janobim bilan ikkimizning sog' joyimiz qolmaydiganga o'xshaydi.

– Shu narsa yodingda bo'lsinki, Sancho, – dedi bunga javoban don Kixot, – hamisha biror kimsa saxovat cho'qqisiga chiqib qolsa bormi, uni doim ta'qib etishga kirishadilar. Ha, ha, o'tmishdagi mashhur va manzur odamlarning birortasi ham tuhmat va g'iybatdan qutulolgan emas. Masalan, Yuliy Sezarni<sup>1</sup> olaylik. Botirlarning botiri, bag'oyat donishmand va jasur lashkarboshi bo'lgan shunday odamni ham amalparastlig-u nopoklikda ayblashgan. O'z xizmati mahoratlari bilan Buyuk degan nom olgan Iskandar haqida aroqxo'r deb gap tarqatishgan. Don Galaorni o'taketgan janjalkash, uning akasi, mashhur Galliyalik Amadisni, hatto yig'loqi deb g'iybat qilganlar. Ana shuning uchun ham, Sancho, bunday yolg'on-yashiq gaplar bir paqirga qimmat ekanligini hamma biladi. Lekin, ehtimol, bor gapni hali aytib bo'lmagandirsan, Sancho?

– Hamma balo ham ana shunda-da, qurib ketsin, padari buzrukvorim! – deb javob qildi Sancho.

– Demak, hamma gap bugina emas, shundaymi? – so'radi don Kixot.

– Yo'q, gapning nordonni hali chiqqani yo'q, – dedi Sancho. – Shu tobgacha aytinganlarimning bari holva edi. Mabodo, marhamatli janob, o'zingiz haqingizdagi g'iybatlarni to'la-to'kis

---

<sup>1</sup> Gay Yuliy Sezar (miloddan avvalgi 102 yoki 100-44) – Rim diktatori (49, 48-46, 45; 44 yildan umrbod), sarkarda, yozuvchi. Siyosiy faoliyatini demokratik guruh tarafdori sifatida boshlab, harbiy tribun, edil, pretor lavozimlarida bo'lgan. O'z qo'lida respublikaning eng muhim lavozimlarini (diktator, konsul va boshqa) jamlab, amalda rasmiy monarx bo'lgan. Respublikachilar fitnasi natijasida o'ldirilgan. «Galliya urushi haqida xotiralar» va «Grajdanlar urushi haqida xotiralar» asarlari muallifi; kalendarni isloh qilgan (Yuliy kalendari).

eshitaman desangiz, men hozir huzuringizga shunday bir kishini boshlab kelamanki, u sizga oqizmay-tomizmay hamma narsani aytib beradi. Kecha kechqurun Bartolome Karraskoninng o'g'li Salamankadan qaytib keldi. U bakalavr<sup>1</sup> unvonini olibdi. Men uni tabriklagani borsam, u «Uddaburro idalgo lamanchlik don Kixot» degan kitob chiqdi, deb qoldi. Kitobda siz bilan mening butun sarguzashtlarim tasvirlangan emish. Hatto ikkalamizning qanday voqealarga qachon guvoh bo'lganimiz, o'zaro suhbatlarimiz so'zma-so'z bayon qilinganmish. Bu gaplarni eshitib, bularni qayoqdan bila qolibdi deb, muallifga hayron qoldim. Ayni paytda qo'rqib ketganimdan bir necha marta cho'qinib ham oldim. O'sha bakalavrni bir ko'rib qo'ymaydilarmi, muhtaram janoblari, istasangiz, ko'z yumib-ochguncha boshlab kelardim-da.

– Agar chaqirib kelsang, meni nihoyat quvontirgan bo'larding, do'stginam, – dedi don Kixot. – So'zlaringga juda qiziqib qoldim. Endi butun gapni aniq-ravshan bilmagunimcha, to-mog'imdan ovqat o'tmaydi.

– Yo'qsa aytib kela qolay uni, – dedi Sancho.

### *O'TTIZ UCHINCHI BOB*

## **DON KIXOT, SANCHO PANSVA VA BAKALAVR SAMSON KARRASKO O'RTASIDA BO'LIB O'TGAN SUHBAT**

Don Kixot ajoyib kitob to'g'risida batafsil gapirib beradigan bakalavr Karraskoni kutib, chuqur xayol surib o'tirdi. U o'zi ko'rsatgan jasurliklar matbuotda ham chiqqanligidan nihoyatda taajjublanar, bu kitobni biror donishmand-sehrgar yozgan bo'lsa ajab emas, deb o'ylardi. Keyin Dulsineya ham bu kitobga kiritilgan bo'lsa kerak, albatta, degan fikr xayoliga kelib, u haqda ortiqcha biror gap aytib yuborilmadimikan, deb tashvishlana

---

<sup>1</sup> Bakalavr – universitetni tamomlaganda beriladigan birinchi ilmiy unvon.

boshladi.

U ana shunday xayollarga cho'mib o'tirganida Samson Karraskoni ergashtirib Sancho ham yetib keldi. Don Kixot Samsonni kamoli hurmat va iltifot bilan kutib oldi.

Bakalavr, ismi Samson bo'lsa-da, past bo'yli, kulcha yuzli, puchuq va og'zi katta bir kimsa bo'lib, ko'rinishidan hazilmutoyibaga, har xil sho'xliklarga o'chga o'xshardi.

Don Kixotni ko'rishi bilanoq u darrov tiz cho'kib, shunday dedi:

– O, sinor lamanchlik don Kixot, qo'lingizni o'pish uchun ruxsat berib, meni ulug' muruvvatingizdan bahramand qilg'aysizki, zotan, Salamanka universitetining bakalavri sha'niga qasam ichib aytaman, siz marhamatli janob, yer yuzini qachonlardir kezib chiqqan yoki endi kezib chiqadigan hamma jahongashta ritsarlarning eng mashhurisiz. Xudoyo xudovando sizning ulug' qahramonliklaringizni yozib chiqqan Said Amet Benenchelini<sup>1</sup> o'z panohida asrasin. Bu kitobni arab tilidan o'zimizning ispanchaga ag'darib, jahon ahliga ermak topib bergan oliyhimmat odam bolasiga ham egamning mehr-shafqati yog'ilsin.

Don Kixot unga o'rnidan turishni buyurdi va:

– Nahotki mening tarixim yozilgani rost, tag'in uning muallifi donishmand arab bo'lsa? – deb so'radi.

– Ha, xuddi shundoq, oliyhimmat sinor, – dedi Samson, – hozirgacha bu kitob o'n ikki mingga yaqin nusxada bosib chiqarildi. O'zingiz bir ko'ring-a: kitob Portugaliyada, Barselonada, Valensiyada nashr etilgan. Aytishlariga qaraganda, hozir Antverpenda ham nashr etilayotganmish. O'ylaymanki, hashpash deguncha dunyodagi xalqlarning hammasi o'z tillariga tarjima qilib olishsa kerak.

– Saxovatli va oliyjanob kishi o'zi hayotligidayoq jahon bo'ylab yaxshi dong taratganidan shod bo'lmog'i kerak, – dedi bunga javoban don Kixot, – qaytarib aytaman: yaxshi nom chiqarish. Chunki yomon nom chiqarish – bu o'limdan ham battar.

<sup>1</sup> Servantes «Don Kixot»dagi muallif chekinishlarida kitobxon bilan hazillashmoqchi bo'lib, o'z kitobini mavr Benencheli yozgan asar deydi.

– Hech qachon jahongashta ritsarlarning birortasi sizchalik yaxshi nom chiqarib, bunchalik dong taratgan emas, – takalluf bilan dedi bakalavr. – Xavf-xatarlarni yengishda siz kabi jasorat ko'rsata oladigan, mushkulotlarga, baxtsizlik va jarohatlarga sizdek bardosh bera oladigan matonatli, sinora donya Tobosolik Dulsineyaga sodiqlikda marhamatli janobingizga teng keladigan biror kimsa yo'q.

– Men, – darhol gapga aralashdi Sancho Pansa, – sinora Dulsineyani «donya» deb atashganini hech qachon eshitmaganman. U kishini to'g'ridan to'g'ri «sinora Tobosolik Dulsineya» deb atashadi.

– E'tirozingiz o'rinsiz, – dedi Karrasko.

– Albatta, o'rinsiz, – deb quvvatladi uni don Kixot, – lekin marhamatli sinor bakalavr, ayting-chi menga, tariximni o'qiganlar men ko'rsatgan qahramonliklarning qay birini ko'proq maqtashyapti?

– Bu borada har xil fikrlar bor, chunki kishilarning didi ham turli-tuman bo'ladi: aytaylik, ba'zilar shamol tegirmonlari bilan sodir bo'lgan sarguzashtlaringizni maqtashsa, boshqalarga movut dastgohlari bilan ro'y bergan voqealar ko'proq yoqyapti; ko'pchilikka esa, aslida qo'y suruvlari bo'lgan ikki lashkar o'rtasidagi jang, ayniqsa, ma'qul tushyapti; yana boshqa birovlar ko'mish marosimi bilan savdolarni ko'kka ko'tarib maqtashyapti. Shuningdek, bandilarni ozod qilishdagi dovyurakligingiz-u mashhur biskaylik bilan yuzma-yuz olishuvingiz ham hammani tang qoldiryapti.

– Marhamat qilib ayting-chi, sinor bakalavr, – yana gapga aralashdi Sancho, – yangueslik xachir haydovchilar bilan bo'lgan g'aroyib sarguzashtlarimiz, baraka topkur Rosinantning qarigandada sho'xlik qilmoqchi bo'lganlariyam kitobga kiribdimi?

– Bu kitobda hamma voqea bor! – xitob qildi Samson. – Dono muallif sarguzashtlaringizning birontasini ham tushirib qoldirmabdi. U kishi, hatto bag'rikeng Sanchoning qanday qilib choyshabda uchganini ham yozibdi.

– Men hecham choyshabda uchmaganman, – shu zahoti e'tiroz bildirdi Sancho, – men, avvalambor, havoda, shunda ham

o'zim xohlaganimdan uzoqroq uchganman.

– Menimcha esa, – dedi don Kixot, – har bir kishining hayotida muvaffaqiyatsizlik va xunuk ko'rgiliklari bo'ladi, ayniqsa, jahongashta ritsarning turmushida. Shunday ekan, donishmand yozuvchi faqat muvaffaqiyatlar to'g'risidagina emas, katta-kichik kamchilik va xatolarni ham, albatta, aytib o'tishi kerak.

– Biroq, – so'zini davom ettirdi bakalavr, – ba'zi o'qimishli kitobxonlar jang paytida sinor don Kixot janoblari armonsiz tatib ko'rgan son-sanoqsiz tayoq zarblarini muallif tasvirlamasligini ma'qul ko'rishadi.

– Axir, tarix degani haqqoniy bo'lishi kerak-da! – deb qo'ydi Sancho.

– To'g'ri-yu, lekin, baribir, bunday mayda-chuydalar haqida to'xtab yurilmasa ham bo'lardi! – gap tashladi don Kixot. – Qahramonning obro'siga putur yetkazadigan ba'zi bir tafsilotlar aytilmasa ham, kitobning rostgo'yligi sira buzilmasdi. Axir, rostini aytganda, Eney Virgiliy aytganchalik taqvodor, Uliss esa Gomer tasvirlaganidek unchalik ham uddaburon emas-ku!

– To'ppa-to'g'ri, – javob berdi Samson, – ammo-lekin doston boshqa-yu, tarix boshqa-da. Shoir hodisalarni o'zining fikricha, qanday bo'lishi lozim bo'lsa, shunday yozadi. Tarixchi esa, voqealarni ro'yi-rost, qay holda o'tgan bo'lsa, shundayligicha, qo'shib-chatmay, tushirib qoldirmay yozishi kerak.

– Xo'sh, modomiki, bu bilimdon arab bir gapni oqizmay-tomizmay yozishi zarur bo'lsa, u holda bizning xo'jayin tatib ko'rgan kaltaklar kabi men yegan tayoqlarni ham eslagan bo'lmog'i kerak. Zotan, tayoq bilan u ulug' zotning yelkalarigagina tushirishgan bo'lsa, kaminaga kelganda marhamatlarini ayamay a'zoyi badanimni zirqiratib savalashdi. Darvoqe, bunga ajablanmasa ham bo'ladi, xo'jayinim aytganlaridek, shoxga urganda tuyoq zirqiraydi.

– Shakkoksan-da, Sancho, – dedi don Kixot, – o'zingga kerak bo'lsa, xotirang yaraqlab turadi.

– Qani, endi, menga qolsa-yu, to'qmoqlarni unutib yuborsam, – javob qildi Sancho, – biroq badandagi momataloq g'a-

shimga tegyapti, hanuzgacha biqinlarim og'riyapti.

– Biroz tinch tur, Sancho, – dedi don Kixot, – sinor bakalavrning so'zini bo'lma. Bu kishi kitobda men haqimda yana nimalar yozganini aytib bersinlar.

– Men haqimda ham, – dedi Sancho, – axir, men bu tarixning asosiy shaxslaridan biriman-ku.

– Bu tarixda agar siz ikkinchi shaxs hisoblanmasangiz, Sancho, – dedi bakalavr, – Xudoning qahriga uchraganim bo'lsin. Hatto shunday odamlar ham uchraydiki, ular bosh qahramondan ko'ra siz haqingizda ko'proq o'qishni istaydilar. Darvoqe, ba'zilar esa, sizni o'zingizning o'ta soddaligingizdan sinor don Kixot va'da qilgan orol gubernatorligiga laqqa ishongan-qo'ygan, deydi,

– Yana biroz sabr qilish kerak, baxt quyoshining porlashiga hozircha fursat bor, – dedi don Kixot. – Yillar o'tishi bilan Sanchoning tajribasi ortadi va ana o'shanda orolni boshqarishga hozirgidan ko'ra ancha uquvliror bo'lib qoladi.

– Tangri haqqi, qasamyod etamanki, sinor, – e'tiroz bildirdi Sancho, – agar orolni boshqarishga hozir qodir bo'lmasam, demak, Mafusail yoshiga<sup>1</sup> kirganimda ham uni idora eta olmas ekanman. Gap mening uquvimda emas, balki va'da etilayotgan orolning mavhumligidadir.

– Yaratganga ishon, shukr qil, Sancho, – dedi don Kixot, – hamma narsa sen o'ylagandan ham ziyoda bo'lishi mumkin, zotan, Xudoyi karimning amrisiz daraxtdan biror yaproq ham uzilib tushmaydi.

– Haq rost, – ilova qildi Samson, – Xudo marhamat qilguday bo'lsa, Sancho bir orolni emas, balki minglab orolni boshqarishi mumkin.

– Men ko'p toifa gubernatorlarni ko'rganman, – dedi Sancho, – hammasini yig'ishtirib kelganda, mening bir tukimga ham arzimaydi, lekin ularni sinor deb ulug'lashadi, ular kumush idishlarda ovqatlanishadi.

---

<sup>1</sup> Mafusail – Tavrotdagi patriarx (pravoslav cherkovida eng oliy huquqqa ega bo'lgan ruhoniy va uning unvoni; yaroslav cherkovi boshlig'i), uning uzoq, yashashi maqol bo'lib qolgan.

– Ular orol gubernatorlari emas, – e'tiroz bildirdi Samson, – ular kichikroq mulkni boshqaradigan kishilar; orol gubernatorlari esa hech bo'lmaganda grammatikani bilishlari kerak.

– Bu sohada men hech narsa bilmayman, – dedi Sancho. – Keling, mening gubernatorligimni xudoning ixtiyoriga qo'yib qo'yaylik. U meni qayerga ravo ko'rsa, o'sha yerga yuborar. Boshqa masalaga ko'chsak, sinor bakalavr Samson Karrasko. Mening qilmish-kechmishlarim kitobxonga yoqib tushganidan mamnunman. Umuman, agar odamlar bizning qissamizni o'qib, maqtashayotgan bo'lsalar, juda soz.

– Shunday, Sancho, xo'jayiningizning qissasi kitobxonlarga juda yoqib tushadi. Biroq ulardan ba'zilari dono Said Benenchelidan xursand emaslar, sababi: siz Siyerra Morenada topib olgan jomadondagi pulni nima qilganligingiz haqida hech narsa demagan. Vaholanki, ko'pchilik o'sha pullarni nima qilganligingizni bilishni istaydi.

Bunga Sancho shunday javob qildi:

– Sinor Samson, men hozir hisob-kitob qilishga qodir emasman, nega desangiz, birdan qornimning juda mazasi qochib qoldi, agar bir qultum baquvvatroq vino bilan o'zimni siylab olmasam bo'lmaydi. Ruxsatingiz bilan uyga g'izillab borib keleman, u yerda xotinim bilan vino quyilgan suvdon menga mahtal bo'lib turibdi. Biroz tamaddi qilib qaytib kelaman-da, so'ngra pullarni nima qilganimni so'zlab beraman.

Sancho javobni ham kutib o'tirmay, shu zahotiyuq uyiga jo'nab qoldi.

Don Kixot bakalavrni qolishga va ozginagina bo'lsa ham, ovqatni baham ko'rishni iltimos qildi. Bakalavr taklifni qabul qildi. Odatdagi taomga bir juft kabutar ham qo'shildi; o'tirishda ritsarlik haqida gap ketdi va ayyor Karrasko ustalik bilan don Kixotning pinjiga kirib, g'alati ishlarga qoyil qolgandek bo'lardi; ziyofatdan so'ng mezbon va mehmon hordiq chiqarish uchun yonboshladi. Ko'p o'tmay Sancho qaytib keldi va bo'lingan suhbat yana ulanib ketdi.

Sancho birinchi bo'lib so'z boshladi:

– Siyerra Morena darasidan topgan pullarimizni nima qil-



ganligimni sinor Samson bilmogchi edilar. Xo'p, ayta qolay, men pullarni o'zimga, xotinimga va bolalarimga xarj qildim. Shu sababdan o'z xo'jaligimni tashlab, janobi don Kixot bilan birga behuda daydib yurganim uchun xotinim meni koyimaydi. Mabodo uyga hamyonim quruq qaytib ko'ray-chi, unda yorug' dunyodan quvlab solardi. Men haqimda yana boshqa biror narsa bilmogchimisiz – marhamat. Mana men, qarshingizda turibman, hatto qirol oldida ham javob berishga tayyorman. Darvoqe, sirasini aytganda, mening pul topganim yoki topmaganim, sarflaganim yoki sarflamaganimning kimga qanchalik daxli bor, axir? Bu safaru sarguzashtlarimiz davomida boshimga yog'ilgan kaltaklarning har biriga to'rt maravedisdan to'laganda ham men yana kamida yuz chervoncha<sup>1</sup> olishim kerak. Mayli, avvalo, har kim qo'lini ko'ksiga qo'ysin-u, so'ngra oqni qora-yu qorani oq deb aytib ko'rsin. Hammamiz ham xudo qanday yaratgan bo'lsa, o'shandaymiz, ba'zan esa undan ham battarroqmiz.

– Marhamat qilib ayting-chi, – don Kixot o'zining mahmadona qurolbardorining so'zini bo'lib, – muallif kitobning ikkinchi qismini chiqarishni va'da qilgan emasmi, mabodo?

– Ha, va'da qilgan, – javob berdi Samson. – Lekin kitob uchun qayerdan ma'lumot olishni bilmayapti. Yo'qsa ikkinchi va, hatto, uchinchi qismini ham bajonidil chiqarar edi u. Axir, kitob unga katta daromad keltiradi.

Shu payt Sancho yana gapga aralashdi va shunday dedi:

– Mayli, u sinor mavr yoki boshqacha atashadim, uni, har qalay, yaxshiroq harakat qilsin. Biz esa mening xo'jayinim bilan uning uchun shunday sarguzashtlarni tayyorlab qo'yamizki, u ikkinchi qisminigina emas, balki yuz qismining barisini yozishi mumkin. O'sha oliyanob odam bizni bu yerda somonga ag'anab mudrab yotishgandir deb o'ylasa kerak. U odam bizni tuyoqlarimizni zing'illatishayotganlarida ko'rganda edi, qaysi oyog'imiz oqsashini bilib olardi. Hozircha shuni aytmogchiman; sinor ritsar maslahatimga quloq solganida, biz allaqachonlar bahavo dalalarda sayr qilib, kamsitilganlarni, adolatni himoya qilib yur-

<sup>1</sup> Chervon – 10 so'mlik qog'oz yoki tanga pul.

gan bo'lardik.

Xuddi shu payt Rosinantning kishnagan ovozi suhbat-doshlarimiz qulog'iga chalinib qoldi. Don Kixot o'ning bu kishnashini yaxshilikdan nishona deb bildi va uch-to'rt kunlik osoyishta hayotdan so'ng yana yo'lga tushishga qaror qildi. U o'z qarorini bakalavrga aytib, undan qaysi tomonga yurish ma'qul bo'larkin deb maslahat so'radi. Sinor Karrasko ritsarimizni bunday jasorat uchun maqtadi. Lekin u, imkoni boricha, o'zini ehtiyot qilishi zarurligini ta'kidladi, chunki idalgoning hayoti o'zi uchun emas, balki uning yordami va himoyasiga muhtoj bo'lgan baxtsizlar uchun zarurligini aytdi. So'ngra u don Kixotga Aragon qirolligiga, muqaddas Georgiy kunida tantanali musobaqa bo'ladigan Saragossa shahriga borishni maslahat berdi<sup>1</sup>. U yerda don Kixot Aragon ritsarlari bilan mardonavor olishishi va yengishi mumkin. Bu esa jahondagi jamiki ritsarlardan ustun chiqish va shon-shuhrat taratish demakdir.

– Siz, sinor Samson, bilmasangiz kerak, – gapga aralashdi shu zahoti Sancho, – mening xo'jayinim mazaxo'rak bola bir to'p qovunni ko'rib qolib qanday tashlansa, yuzlarcha qurollangan dushman ustiga shunchalik shosha-pisha tashlanadi. Biroq qurib ketsin, nafsilamrini aytganda, siz haqsiz, sinor bakalavr, hamma narsaning o'z vaqti-soati bor! Ba'zan hujum etmoq, ba'zan chekinmoq kerak. Buning ustiga men, agar yanglishmayotgan bo'lsam, xuddi xo'jayinimning o'zginasidan: botirlik ikki narsaning, ya'ni qo'rqqoqlik va tentaklikning qoq o'rtasida turadi, degan gapni eshitganman. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, bekordan bekorga, sababsiz qochish, dushman kuch jihatidan ustun turgan bir paytda hamla qilish kerak emas. Har ehtimolga ko'ra oldindan aytib qo'yyapman: agar xo'jayinim meni o'zlari bilan olib ketishni ixtiyor qilsalar, men faqat bir shart bilangina rozi bo'lishim mumkin: ya'ni jangni shaxsan o'zlari qiladilar, men esa u kishining kiyim-kechagi toza va qorinlari to'q bo'lishini o'z

---

<sup>1</sup> Karrasko don Kixotga Saragossaga turnirga borishni maslahat beradi. XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida, ya'ni Servantes zamonasida Ispaniyada ritsarlik turnirlari hali o'tib turar edi, 1599-yilda Valensiyada, 1602-yilda Toro, Samor va Valyadolidada ajoyib turnir bo'lib o'tadi.

zimmasiga olaman. U kishi meni hech bo'lmaganda, eng razil qaroqchilarga qarshi tig' ko'tarar deb ham o'ylamasin! Men, sinor Samson, o'z jasoratim bilan emas, balki jahongashta ritsarlarga xizmat qilgan barcha qurolbardorlar ichida o'zimning o'ta g'amxo'r va sodiq qurolbardorligim bilan shuhrat qozonmoqchiman. Agar xo'jayinim don Kixot uzoq vaqt qilgan sadoqatli xizmatlarim evaziga – menga orol in'om etsa, undan g'oyat minnatdor bo'laman. Mabodo in'om etmasa, nima ham qilardim, men – insonman, inson esa bu yorug' dunyoda xudodan boshqa hech kimdan umid qilmaydi. Darvoqe, kim bilsin, balki, bir burda non gubernatorga qaraganda oddiy kishiga mazaliroq tuyulishi muqarrardir. Kim bilsin, balki, xuddi o'sha gubernatorlikda shayton og'zidagi tishlarim bittasi ham qolmay sinsin deb, meni chalib yubormoqchidir? Men Sancho bo'lib tug'ilganman, Sancholigimcha olamdan o'tishni istayman. Lekin mabodo ortiqcha xavf-xatar, tashvish orttirmay, osmondan tap etib orol tushib qolguday bo'lsa, men undan voz kechadigan tentaklardan emasman. Axir, sigir bersalar, tizginga chop, oyog'ing tagidan yombi chiqib qolsa, to'ppa-to'g'ri uyingga yumalat, deb bekorga aytmaydilar-ku.

– Siz, birodar Sancho, o'z fikringizni professordek bayon qildingiz, – dedi Karrasko. – Xudoyi taolaga astoydil iltijo qiling-u, sinor don Kixotga ishonib: u kishi sizga orolgina emas, balki butun boshli qirollikni tortiq qiladi.

– Ha, mayli, – dedi Sancho, – sinor Karraskoga jur'at etib aytamanki, qirollikni hadya etish uni tubsiz jarga tashlash degan gap emas. Men o'z ahvolimni bilaman: salomatligim qirolliklar va orollarni boshqarishga bardosh beradi.

– Ehtiyot bo'ling, Sancho, – dedi Samson, – martaba fe'l-atvorni o'zgartib yuboradi. Gubernator bo'lib olgandan keyin tuqqan onangizdan ham yuz o'girishingiz mumkin.

– Men unaqalardan emasman, – dedi Sancho. – Onam haqiqiy nasroniy, men ham haqiqiy nasroniyman, shunday ekan undan xijolat chekadigan joyim yo'q. Men bilan yaqinroq tanishganingizdan so'ng nonko'rlardan emasligimni bilib olasiz.

– Xudo xohlasa, gubernator bo'lganingda ko'ramiz, gu-

bernatorlik esa uzoq emas, – dedi don Kixot.

So'ngra don Kixot bir haftadan keyin yo'lga chiqishini aytdi. U bu ishni, ayniqsa, ruhoniy bilan usta Nikolasdan, shuningdek, jiyani va ekonomkadan sir tutib turishni bakalavrdan iltimos qildi, toki ular oliyjanob hamda mardona rejasiga xalal berishmasin. Karrasko bunga va'da berdi va don Kixot bilan xayrlashib chiqib ketdi.

## O'TTIZ TO'RTINCHI BOB

### SANCHO PANSA VA UNING XOTINI TERESA PANSA O'RTASIDA BO'LIB O'TGAN OQILONA VA G'ALATI SUHBATLAR

Sancho uyga shod-xurram qaytdi, buni olisdanoq sezgan xotini darhol so'radi: – Nima bo'ldi sizga, do'stim Sancho, namuncha vaqtingiz chog'?

– Xotinjon, xudo xudoligini qilsa-yu, senga tuyulgandek vaqti chog'likdan meni xalos etsa, qaniydi endi.

– Tushunolmayapman, erjon, – dedi xotini, – hech narsani tushunolmayapman – Xudo xudoligini qilsa-yu, sizni shodlikdan xalos etsa, nima deganingiz? Garchi men savodsiz bir ayol bo'lsam ham, har holda, xursand, mamnun bo'lish har kimga ma'qul tushishini bilaman.

– Modomiki tushunmas ekansiz, Teresa xonim, ijozat etgaysiz, men sizga tushuntirib beraman, – dedi Sancho. – Quvonchimning boisi shundaki, men yana sarguzasht izlashni ixtiyor qilgan xo'jayinim don Kixot xizmatiga qaytib borishga qaror qildim. Mening qurolbardorlik lavozimim u bilan birga yurishni taqozo etadi, bundan tashqari, yana bir necha yuz chervon qo'lga tushirishni qattiq mo'ljal qilganman. Ayni vaqtda seni va bolalarni tashlab ketish menga ancha og'ir bo'lyapti. Agar xudo shafqat qilib, biror kimsa oyoq bosmagan yo'llarda daydimay, oyoqlarim tiyilib, o'z uyimda bir burda nonni bermalol topa olganimda edi, quvonchim barqarorroq bo'lardi. Hozir esa o'rtamizga tusha-

digan judolik quvonchni zahar qilyapti. Mana shuning uchun men xudo xudoligini qilsa-yu, meni quvonchdan xalos etsa, ko'ngildagidek bo'lardi, degan edim.

– Bilasizmi, Sancho, – dedi Teresa, – jahongashta ritsarlikka kirganingizdan beri shunday gapiradigan bo'ldingizki, so'zlaringizni hech kim tushuna olmaydi.

– Tangri tushunadimi, bas, xotinjon, – dedi Sancho, – darvoqe, dunyodagi hamma narsa unga ayon. Onasi, ma'lumingiz bo'lsinkim, bir kecha kun eshagimni yaxshigina parvarish qilishlariga to'g'ri keladi, toki, u jangga shay bir holga kelsin. Sulini ikki baravar ko'proq bering, egar-jabduqlarini ko'zdan kechiring – axir, biz to'y-tomoshaga ketayotganimiz yo'q-da. Butun jahonni aylanishga, devlar va dahshatli maxluqlar bilan olishishga, vishillagan, o'kirgan, ma'ragan, dodlagan ovozlarni zshitishga to'g'ri keladi. Agar xachir haydovchilar, podachilar va surgundan qutqarilganlarga duch kelganimizda-yu, bular hammasi aytishga arziydigan xavf-xatar bo'la olmasdi.

– Ko'rib turibman, erjon, – dedi Teresa, – jahongashta ritsarlarning qurolbardorlari yeydigan non ham halol ekan. Men bunday falokatlardan sizni tezroq xalos etishni iltijo qilaman tangridan.

– Rostini aytsam, xotinjon, – dedi Sancho, – agar yaqin orada orol gubernatori bo'lishga ishonmaganimda edi, yana sa-farga chiqishdan ko'ra shu yerda o'lganim afzalroq edi.

– Nimalar deyapsiz, aziz erjonim, – xitob qildi Teresa, – gapingizni yel uchirsin-e! Iloyo, sog'-salomat bo'ling, o'sha gubernatorligini ko'tarsin. Gubernator bo'lib tug'ilganmidingiz, shu kungacha gubernator bo'lmay yashab keldingiz, vaqti-soatingiz bitganda, gubernator bo'lmay ham, u dunyoga ketasiz. Axir, yorug' dunyodagilarning hammasi gubernator emas-kul! Shunday bo'lsa ham, har kimning kuni o'tyapti, hamma ham birdek odam. Menga qarang, Sancho, agarda siz tasodifan gubernator bo'lib qolsangiz, meni va bolalaringizni unutmang, yana shu narsa esingizda bo'lsin, Sanchiko o'n beshga kirdi; o'g'limizning maktabga boradigan vaqti keldi. Ruhoniy ota uni ruhoniy qilishga va'da bergan. Qizingiz Mirisanchani yaqin orada

uzatishimiz kerak, buni ham unutmang.

– Agar xudo gubernatorlikka o‘xshash bir lavozimga yetkazsa, xotinjon, ana o‘shanda men markizchani, albatta, shunangangi amaldor to‘raga beramanki, qizimizni faqat sinora deb chaqirishadigan bo‘lishadi, – dedi Sancho.

– A, yo‘g‘-a, Sancho, – javob qildi Teresa, – uni oddiy kishiga bering. Yo‘qsa qizimiz yog‘och kavush o‘rniga baland poshna tufli kiyishi, movut yubka o‘rniga fijma va ipak ko‘ylaklar kiyishi zarur bo‘lib qoladi. Agar u Marikadan donya-yu sinoraga aylanib qolsa bormi, tamomila o‘zini yo‘qotib qo‘yadi, har qadamda pand yeydi. Ana o‘shanda uning qo‘pol qishloqi qiz ekanini har qanday odam ham bilib oladi va yuziga soladi.

– Ovozingni o‘chir, tentak, – gapini bo‘ldi Sancho, – mayli, ikki-uch yil ipak va baxmallar kiyib yursin, keyinchalik bunday mumtozlik, hashamat binoyidek yarashadi-qoladi, yarashmasa ham, hechqisi yo‘q! Avvalo, beka bo‘lib olgin, u yog‘i o‘z-o‘zidan bo‘laveradi.

– Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan-da, Sancho, – dedi Teresa, – osilsang, baland dorga osil, deb oyog‘ingiz yerdan uzilib qolmasin tag‘in, ko‘rpangga qarab oyoq uzat, degan maqolni esdan chiqarmang. Topgan gapingizni qarang-u, Marisanchani allaqanday grafgami yoki ritsargami berish kerak emish, keyin eri uni qishloqi, qo‘pol, to‘nka deb kamsitsin-a. Yo‘q, erjon, Xudo haqqi, men bu maqsadda qiz o‘stirganim yo‘q! Siz ko‘proq pul ishlashni bilavering. Sancho, qizni uzatishni esa menga qo‘yib qo‘ying, aralashmang. Qishlog‘imizda mehnatkash, barvasta yigitcha bor, uni hamma biladi, yigitcha qizimizga tez-tez ko‘z tashlab turadi. Qizimizning tengi ana shu yigit, qizimizning baxti ochiladi, ko‘z oldimizda bo‘lishadi, hammamiz: ota-onalar, bolalar, kuyov-u nabiralar bilan bir joyda bo‘lamiz; ana shunda dunyoning lazzati-yu xudoning marhamatidan bahramand bo‘lamiz. Uni poytaxtdagi yoki hashamatli saroydagilarga erga berishning aslo hojati yo‘q, u yerdagilar qizimizning so‘zlarini tushunishmaydi, u ham hech narsani farq qila olmaydi, axir.

– Ovozingni o‘chir, shayton! – o‘shqirdi Sancho. – Qizi-

mizning mo'tabar zotga berishimga qarshilik ko'rsatish fikri boshingga qayoqdan o'rmashib oldi o'zi? Ha, nabiralarimizni senor deb atashsa, senga malol keladimi? Bilasanmi Teresa, eskilarning shunday gapi bor: «Qo'lingga kelib qo'ngan baxt qushidan foydalana olmasang, vaqtni boy bersang, keyingi attanging asqatmaydi». Baxt – omadning o'zi eshigimizni taqillatib kelgan ekan, ochishimiz kerak. Baxt otiga mingan ekanmiz, qo'yaver, bizni ilgari olib ketaversin. Agar men serdaromad gubernatorlikni qo'lga kiritsam va, nihoyat, botqoqlikdan xoli bo'lsak, nahotki, bu senga yoqmasa-ya? – so'zini davom ettirdi Sancho. – Axir, Marisanchani amaldor sinorga bersak, hamma seni donya Teresa Pansa deb ulug'lashadi-ku, axir, cherkovda o'tiradigan joyning gilam-u paryostig'i bo'ladi, qishlog'imizdaga dvoryan ayollarning hasaddan ichlari yonib o'ladi-ku. Agar ma'qul bo'lmasa, o'tirgan joyingda o'tiraver. Lekin shuni bilginki, xotin, har qancha qarshilik qilmagin, baribir, qizim Marisancha grafinya bo'ladi.

– Nima deyayotganingizni o'ylab aytyapsizmi, erjon, – dedi Teresa. – Ishqilib, bu graflik qizimizning boshiga halokat keltirmasa, go'rga edi! Xohlagingizni qiling, gersogga berasizmi, shahzodaga berasizmi – kimga bersangiz beravering, lekin shuni bilib qo'yingki, men u dunyo-yu bu dunyo bunga rozi bo'lmayman. Men oddiy odamlardanman, kibr-u havoga toqatim yo'q. Cho'qintirish vaqtida menga o'sha don-ponlarsiz oddiygina, pokizagina Teresa deb nom qo'yishgan. Otamni Kaskaxo derdilar, qizligimda Teresa Kaskaxo edim, hozir esa Teresa Pansaman. Shuning o'zi menga kifoya, donya falonchi deyishlarini hech istamayman. Meni malomat, ig'vo qilishlariga toqatim yo'q, axir, men grafinya yoki gubernator xotin bo'lib qolsam bormi, shu zahotiyuq: manavi cho'chqaning kibr-u havosini qarang, kechagina erta tongdan zig'ir poya archib, cherkovga mantilya o'rniga etagini boshiga yopib borardi-yu, endi esa fijma<sup>1</sup>-yu guldor ko'ylak kiyib olib, burnini osmonga ko'tarib

<sup>1</sup> Fijma – XVIII-XX-asrlarda: ayollar yubkasi etagini qappaytirish uchun ichidan qo'yiladigan gardish va shu usulda tayyorlangan yubka.

yurishini ko‘ring, deb gap-so‘z qilishadi. Shukrki, Xudoyi karim hali aqlimdan ozdirgani yo‘q – men hech vaqt bunday qilmayman. Siz esa do‘stim, gubernatormi yo grafmi – kim bo‘lsangiz bo‘laving, ko‘nglingiz ko‘targancha kekkayaving. Ammo, onam haqqi, qasam ichamanki, na men va na qizim qishloqdan hech qayoqqa bir qadam ham jilmaymiz. Halol, nomusli ayol uyida gumdon bo‘lib o‘tiradi, uning uchun har qanaqa ish bir ovunchoq bo‘ladi. O‘sha don Kixotingiz bilan yangi sarguzashtlarga jo‘nayvering, bizni o‘z holimizga qo‘ying, inqillab-sinqillab o‘tiraveramiz. Halol yashaymiz, xudoning o‘zi bizni qo‘laydi. Ha, darvoqe, ayting-chi, xo‘jayingizni don deb kim martabasini oshirib yubordi o‘zi? Axir, na otasi, na bobosi don emasdi-ku!

– Nazarimda, ichingga iblis kirib olganga o‘xshaydi, – dedi Sancho. – Rahm qil, ey xudo, nimalar deb vaysayapsan, xotin, gapingning boshi qayoqda-yu oyog‘i qayoqda, aqlim yetmay qoldi! Nima sababdan allaqanday Kaskaxo, liboslar-u, maqol-u, kibr-u havo haqida javrab qolding. Beriroq kel-chi, tentak, nodon xotin. Agar men qizimning minoradan kalla tashlashini yoki darbadar bo‘lishini ixtiyor qilayotgan bo‘lsam, boshqa gap edi. Aksincha, men qizimni donya va mo‘tabar sinorlar darajasiga ko‘tarishni, taxtiravonda baxmal yostiqlarga o‘tkazishni chog‘lasam-u, sening dod-voyingga balo bormi?

– Buning boisini bilasizmi, erjon? – dedi Teresa. – Gap shundaki, kiyim-bosh seni ham yasantiradi, ham yechintiradi, degan maqol bor. Kambag‘alga odamlar shunchaki bir nazar tashlab qo‘yadilar, boylardan esa ko‘z uzmaydilar. Agar bu boy kechagina kambag‘al bo‘lgan bo‘lsa, ana unda ig‘vo-malomatning keti uzilmaydi, nega desangiz, ko‘chamizda ig‘vogarlar son-sanoqsiz.

– To‘xta, Teresa, gaplarimga quloq, sol, – dedi Sancho. – Sen bunaqa so‘zlarni umringda eshitmagan bo‘lsang kerak. Darvoqe, bu mening so‘zlarim emas, o‘tgan ro‘za kunlari qishlog‘imizda bo‘lgan voiz otaning so‘zlaridan. Ana o‘sha duoxon otaning ko‘zimiz tushgan hamma narsa o‘tmishni eslashdan ko‘ra kuchliroq ta‘sir ko‘rsatadi, degan gaplari hali yodimdan



chiqmaydi. Shuning uchun ham bashang kiyingan, atrofida xizmatkorlari girdikapalak bo'lgan e'tiborli kishiga ko'zimiz tushsa, har holda, hurmat qilamiz, garchi u odamni yaqindagina qashshoq, nochor ahvolda ko'rgan bo'lsak ham. Bu bizni ajablantirmaydi, negaki – bular hammasi o'tmish. Asosiysi esa ko'z oldimizda turgani. Agar kishining tolei qulf urib, uni nochorlikdan xalos etib, farovonlik, dorilamonlik cho'qqisiga ko'targudek bo'lsa-yu, u odam xushfe'l, saxiy bo'lsa, unda, Teresa, u odamning kim bo'lganligini hech kim xayoliga ham keltirmaydi, bunga ishonaverishing mumkin, albatta, hasadgo'ylardan boshqa, hamma uni hurmat qiladi, darvoqe, ulardan qochib qayerga ham borarding.

– Gapingizga tushunolmayapman, erjon, – javob qildi Teresa, – bilganingizni qiling, va'z-nasihatlaringiz bilan boshimni qotiravermang hadeb. Agar o'z va'dangizda qattiq turadigan bo'lsangiz...

– Va'dangizda emas, xotinjon, ahdingizda deyish kerak, – so'zini bo'ldi Sancho.

– Men bilan tortishavermang, baraka topkur, – dedi Teresa, – Xudoga qanday xush kelsa, shunday gapiryapman, unaqa noziknihol ma'nolarga aqlim yetavermaydi mening. Yana takror aytamanki, agar gubernatorlikni olish niyatida qattiq turgan bo'lsangiz, Sancho, o'g'ilchangizni o'zingiz bilan olib keting: toki vaqtni boy bermay, uni gubernatorlik ishlariga o'rgating. Axir, odatda bola ota kasbini o'rganishi kerak-da.

– Gubernator bo'lganimdan keyin, – javob qildi Sancho, – o'g'limni olib ketgani pochta otlarini jo'nataman, senga esa pul yuboraman. O'sha vaqtda puldan kamchiligim bo'lmaydi, mabodo gubernatorda pul bo'lmay qolsa, unga joni-dili bilan qarz beradigan odam hamma vaqt topiladi. O'shanda sen o'g'limizni shunday kiyintirginki, uning ilgari qanday kun kechirgani bilinmasin.

– Pul yuborsangiz bas, – dedi Teresa, – boplab kiyintirishni menga qo'yib beravering.

– Nihoyat, sen qizimiz grafinya bo'lishi kerak, degan fikrimga qo'shilding-da, – dedi Sancho.

– Uni grafinya holida ko‘rgan kunim, – javob qildi Teresa, – men uni qora yerga ko‘mgan kunim bo‘ladi. Lekin, bilganingizni qilavering; biz, xotinlar, erlarimizning, garchi ular befarosat bo‘lsalar ham, ra‘yiga qarashimiz kerak.

Shunday dedi-yu, xuddi Marisanchaga motam tutayotgandek yig‘lay boshladi. Sancho xotinini ovutishga kirishdi. Marisanchani, baribir, grafga bersa ham, lekin hali-hozircha bu ishni to‘xtatib turishini aytdi. Er-xotinning suhbatlari shu ko‘yi tugadi va Sancho safar xususida kelishib olgani don Kixot huzuriga qaytdi.

## *O‘TTIZ BESHINCHI BOB*

### **DON KIXOT, UNING JIYANI VA EKONOMKA O‘RTASIDA BO‘LIB O‘TGAN VOQEA, YA‘NI BUTUN QISSANING ENG MUHIM BOBLARIDAN BIRI**

Sancho Pansa o‘z rafiqasi Teresa Pansa bilan suhbatlashgan vaqtda don Kixotning jiyani va ekonomka ham bekor o‘tirishmagandi. Har ikki ayol tog‘a va xo‘jayin bo‘lmish idalgoning yurish-turishidan uning yana mash‘um sarguzashtlar ketidan yo‘lga hozirlanayotganini yaqqol ko‘rib turishar edi. Shuning uchun ular qanday bo‘lmasin uni bu zararli fikrdan chalg‘itishga urinardilar. Biroq, ularning hamma nasihat-yolvorishlari behuda ketdi; don Kixot biror so‘zni eshitishni istamas, o‘z fikrida qat‘iy turardi. Nihoyat, ekonomka jamiki dalil-bahonalarini o‘rtaga tashlab xitob qildi:

– Haq so‘zni aytaman sizga, sinorim, agar muhtaram janoblari uyda tinchgina o‘tirmay, tavbasiga tayanmagan kimsadek yana tog‘- u toshlarda, vodiy-vohalarda la‘nati sarguzashtlar ketidan tushadigan bo‘lsalar, ovozim boricha dod solaman, yig‘layman, xudoga va qirolga arz qilaman. Ular sizni bu yo‘ldan qaytarishsin, uyda o‘tirishga majbur etishsin.

Bunga don Kixot shunday javob qildi:

– Ekonomka, sening arzingga xudoning beradigan javobi-

ni, shuningdek, qirol hazrati oliylarining nima deyishini bilolmayman. Shunisi menga ayonki, men qirol o'rnida bo'lsam, har yoqdan yog'iladigan beta'sir talab-iltimoslarga javob berib o'ltirmas edim. Qirolning tashvishi ko'p bo'ladi, lekin uning eng og'ir vazifasi hammaning gap-so'zini eshitish-u, unga javob qilishdir. Shunga ko'ra men o'z tashvishim bilan bezor qilmas edim.

Bunga javoban ekonomka dedi:

– Ayting-chi sinor, qirol hazratlarining poytaxtida ritsarlar bormi?

– Bor, – javob qildi don Kixot, – va ko'p, ular shoh saroyining dabdabasi, shon-shuhrati uchun va qirol hukmining ulug'vorligini qo'llash maqsadida tutib turiladi.

– Nega, bo'lmasa, janoblari o'z qirol, sinorga xizmat qilishni, poytaxtda tinchgina yashashni istamaydilar?

– Mo'tabar xonim, bilib qo'yingki, – javob qildi don Kixot, – hamma ritsarlar ham saroyga kiravermaydilar va hamma saroy ritsarlari ham jahongashta ritsar bo'lolmaydilar yoki bo'lishlari shart emas. Albatta, jahongashta ritsardan saroy ritsarining hayoti tinch va rohatda o'tadi. Saroy ritsari saroyda tinchgina o'tiradi, shirin taom yeydi, miriqib uxlaydi, agar sayrni ixtiyor qilib qolsa, geografik xaritani yozib olib, butun jahon bo'ylab qullari bilan sayohat qiladi. Qaltis, xatarli yo'lga yo'liqmaydi va bunday sarguzasht arzonga tushadi. Biz, jahongashta ritsarlar bo'lsak, jazirama issiqqa, qahraton sovuqqa, sel-u bo'ronga qaramay, erta-yu kech demay, yayovmi, otliqmi o'z oyoqlarimiz bilan yer yuzini o'lchab chiqamiz. Biz dushmanni surat-rasm-lardangina farq qilmay, balki yuzma-yuz to'qnashamiz. Har bir qulay fursatda dushmanga uning nayzasi biznikidan uzunmas-mikin, sehrlil tumori yo'qmikin, qilichida sir yo'qmikin, deb o'ylab o'tirmasdan, unga hujum qilamiz. Biz kim quyoshga qarab turib olishishi kerakligini muhokama qilib o'tirmaymiz, saroy ritsarlari olishuvi uchun belgilangan odat va marosimlarga rioya qilib, bunaqangi mayda-chuydalarga vaqt sarflab o'tirmaymiz. Jahongashta ritsar bo'yi bulutlardan baland, oyoqlari bahaybat minoralardek, qo'llari ulkan kemalarning machta ustunlariga

o'xshash, shisha eritilayotgan qo'rdek yaraqlagan ko'zlari tegirmon toshlaridek keladigan o'nlab devga duch kelganda ham sarosimaga tushmaydi. Mana shunday maxluqlarga duch kelganda jahongashta ritsar mardonavor tashlanadi va uning egni tanga baliq po'stidan bo'lishiga qaramay (aytishlaricha, baliq tangalari olmosdan qattiq bo'larmish) va shamshir o'rniga Damashq po'latidan yasalgan keskir qilichini pisanq qilmay mag'lub etadi. Shuning uchun ham oliy farmon hukmdorlar jahongashta ritsarlarni boshqalardan afzalroq bilsalar, adolatdan bo'lardi. Ko'pdan ko'p qirolliklarning jahongashta ritsarlar tufayligina saqlanib kelganliklarini tarixdan bilamiz. Bularning hammasini senga aytishdan maqsad saroy ritsariga qaraganda, jahongashta ritsarning nomi naqadar mo'tabarligini bilib qo'ygin demoqchiman, xonim.

– Oh, sinorim, – xitob qildi jiyani, – axir, o'ylab ko'rsangiz-chi, jahongashta ritsarlar haqidagi qissalarning hammasi to'qilgan afsona, xolos-ku! Aslida, bu kitoblarning hammasini yoqib yuborish, hech bo'lmaganda ularning qanaqaligini bildirish uchun tavqi la'nat tamg'asini qo'yib qo'yish kerak edi.

– Singlimning qizi, tug'ishganim, ya'ni jiyanim bo'lganing uchun xudoga shukrlar qilgin, aks holda, beodob so'zlaring uchun ta'ziringni berib, bugun jahonga oshkor qilardim. Bu qanaqasi? Ko'kyo'taldan qutulmagan bu qizcha jahongashta ritsarlar tarixini qoralashga qanday jur'at eta oladi! Bu so'zlarni sinor Amadis eshitganda nima derdi! Darvoqe, seni kechirishi ham mumkin edi. Zotan, u o'z davrining ko'ngilchan, xushfe'l ritsari bo'lgan. Ammo so'zlaringni boshqa birortasi eshitib qolsa bormi, holingga voy, chunki hamma ritsarlar ham baodob va sipo odam bo'lavermaydi. Ular orasida johil va qo'rsarlari ham bor. Axir, o'zini ritsar deb yuritgan har qanday kishi ham bu nomga munosib bo'lavermaydi. Ba'zilar asl oltindan bo'lsa, ba'zilar qalbaki oltindan qilingan, ko'rinishda hammasi ritsar, aslida esa bunaqa emas. Past tabaqadan chiqqan va ritsar bo'lishga jonjahdi bilan uringan kishilar, ayni vaqtda, shavkatli ritsar bo'lganlari holda oddiy odamlardek ko'rinishga harakat qilganlar ham bor. Birinchi toifa izzat-nafs va saxovat tufayli dong chiqaradilar; ikkinchi toifa esa zaiflik va qusuri tufayli nufuzi ketadi.

– O‘z panohingda asra, xudoyim! – deb xitob qildi jiyani.  
– Siz, sinor tog‘a, shunchalik ko‘p bilasizki, mabodo zarur bo‘lib qolsa, domlalik yoki olimlik qila olishingiz mumkin-u, lekin boshingiz aylanib dovdirab qolgansiz, zaiflashib va keksayib qolganingizga qaramay jasoringiz, kuchingiz haqida gapirganingiz-gapirgan. Qaddingizni yillar bukib qo‘yibdi-yu, siz esa olamdagi hamma egri-bugri narsalarni to‘g‘rilamoqchisiz, lekin eng muhimi, siz ritsarman deb da‘vo qilasiz. Bu mutlaqo noto‘g‘ri. To‘g‘ri, idalga ba‘zan ritsar bo‘lishi mumkin, lekin kambag‘al odam hech vaqt ritsar bo‘lolmaydi!

– Sening gaplaringda ozgina jon bor, jiyani, – dedi don Kixot. – Biroq mening gaplarimga quloq sol. Albatta, sen haqsan – men kambag‘al idalgoman. Lekin bu men ritsar bo‘la olmayman, degan gap emas. To‘g‘ri, hammani iqror qildirish kambag‘al uchun juda og‘ir. Zodagonlarga mansub bo‘lmagan kishi tug‘ilish rasmiga ko‘ra, bu olamdagi a‘yonlar safidan joy ololmaydi. Badavlat bo‘lmagandan so‘ng u hotamlilik, saxovat shuhratidan mahrum bo‘lgan bo‘ladi. Kambag‘al ritsarning shuhrat qozonishi va hammaga tanilishi uchun faqat birgina yo‘l bor – bu yaxshilik qilishdir. U xushmuomala, baodob, iltifotli, xushfe‘l, mo‘min-qobil kishi bo‘lmog‘i kerak. Ayniqsa, marhamatli bo‘lmog‘i lozim, zotan, agar ochiqko‘ngil bilan kambag‘alga ikki maravedis bersa, katta boylikni hadya-in‘om qilib hamma yoqqa jar solgan kishidan saxovati kam bo‘lmaydi. Mana shunday yaxshiliklar orttirgan kishi shuhrat qozonsa kerak va har qanaqa odam ham uning oliyjanobligiga iqror bo‘ladi. Ana o‘shandagina u kishi davlat va hurmat haqida o‘ylashi mumkin, xolos. Bunga muyassar bo‘lish uchun esa ikki yo‘ldan bormoq zarur: biri – ilm-fan yo‘li, ikkinchisi – harbiy san‘at yo‘li. Men ilm-fandan ko‘ra harbiy san‘atdan ko‘proq xabardorman va, shubhasiz, Mars sayyorasi belgisi ostida tug‘ilganman. Shunga ko‘ra ham men jang-u jadal yo‘lini tanlaganman va butun olam bunga monelik qilsa ham, shu yo‘ldan boraman. Binobarin, siz behudaga o‘zingizni qiynamang, meni osmon, taqdir da‘vat etayotgan, aqlidrok taqozo etayotgan, butun vujudim bilan berilgan bu yo‘ldan qaytarishga urinmang. Jahongashta ritsarning qanday og‘ir qiyin-

chiliklarga, muhtojlik va xavf-xatarlarga duch kelishini bilaman, lekin men bu yo'lda toleim yor bo'lib, behad baxt-saodatga erishishimni ham bilaman. Yaxshilik yo'li tor bo'ladi-yu, yomonlikniki keng. Biroq keng va yalang yo'l o'limga, yaxshilikning tor va mashaqqatli yo'li esa hayotga, ya'ni mangu hayotga olib keladi. Kastiliyalik Buyuk shoirimizning quyidagi so'zlarini esga oling:

*Abadiylik yuksak arshining,  
Yo'li doim xatarli, baland –  
Unga chiqar faqat botirlar.*

– Oh, sho'rim qursin men baxtsizning! – xitob qildi jiyani.  
– Oxirida tog'am yana she'rxonlik qilib yubordi. Uning hamma narsaga aqli yetadi, biladi. Shunga kafilmanki, agar tog'am g'isht teruvchi bo'lishni istaganida edi, boshqalarga qush uyasini yashash qancha oson bo'lsa, tog'am uchun uy qurish ham shuncha oson bo'lardi!..

Shu paytda eshikni kimdir qoqdi. Jiyani so'radi:

– Kim u?

– Menman, Sancho, – degan javob eshitildi.

Ekonomka bu nomni eshitgan zahotiyuq o'zini panaga olishga shoshildi. Uning Sancho Pansani ko'rishga hech toqati yo'q edi. Jiyani eshikni ochdi, don Kixot chiqib qulochlarini yozib qurolbardorini qarshi oldi. Shundan so'ng ular xonada holi qolishdi-da, qizg'in suhbatga kirishib ketishdi.

**DON KIXOT BILAN UNING QUROLBARDORI  
O'RTASIDA NIMA HODISA BO'LGANI VA  
HAYRATDA QOLDIRUVCHI BOSHQA VOQEALAR**

Ekonomka don Kixot bilan Sancho Pansaning xonani ichidan bekitib olishganini ko'rgan zahotiyuq ritsar bilan qurolbardorning nima haqda maslahatlashmoqchi ekanliklariga darhol aqli yetdi. U tashvish va xafalikdan o'zini qayerga qo'yishini bilmay yopinchiq olib, bakalavr Samson Karrasko huzuriga yugurdi; unga xo'jayinining yangi do'sti – shirinso'z odam bu bema'ni niyatdan uni qaytara oladiganday bo'lib tuyuldi.

Karrasko hovlisida sayr qilib yurardi; ekonomka uning yoniga chopib bordi-da, ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh olib, entikkanicha uning oyog'i tagiga o'zini tashladi. Bakalavr esa uni juda tashvishli holda ko'rib, so'radi:

– Sizga nima bo'ldi, sinora ekonomka? Boshingizga qanday kulfat tushdi? Sizni so'nggi nafasini olyapti, deb o'ylash mumkin-a.

– Menga hech narsa bo'lgani yo'q, marhamatli sinor Samson, faqat xo'jayinim tashlab ketadiganga o'xshaydi, ha, albatta, tashlab ketsa kerak.

– U kimni tashlab ketadi, axir? – so'radi Samson. – O'z tanasini tark etmoqchi emasmi? Nima, qattiqroq shikastlandimi u?

– E, yo'q, tanasini emas, – javob berdi u, – bizni tashlab ketadi. Azizim sinor bakalavr, uning bizni tashlab ketish niyatida ekanligini, tag'in yangi sarguzashtlar axtarishga jo'nashini aytmoqchiman. Xudo biladi, nega u buni sarguzasht derkin. Birinchi safar rosa tayoq yeb, eshakka yotqizib olib kelishdi uni, ikkinchi gal aravada keltirishdi, somonday sarg'aygan, ozib-to'zib ketgan, ko'zlari kirtayib qolgandi, ahvoli shu qadar ayanchli ediki, hatto tuqqan onasi ham tanimasdi! Uning sal o'ziga kelib olishi uchun olti yuzta tuxum sarfladim, axir, xudo shohid, so'zlarimning chinligiga tovuqlarim hamda qo'shnilarimiz guvoh.

– O, bunga so‘zsiz ishonaman, – dedi bakalavr. – Tovuqlaringiz shu qadar ajoyib, semiz hamda odobliki, yolg‘on gapirishdan ko‘ra yorilib o‘lishni afzal ko‘rishadi. Bas, sinora ekonomka, demak, gap sizni sinor don Kixotning yangi qilmishlari tashvishlantirayotgani ustida ketayotirmi?

– Ha, sinor, – javob qildi u.

– Unday bo‘lsa, tashvishlanmang, – dedi bakalavr, – uyga ketavering, menga biror issiqroq ovqat hozirlab qo‘ying, yo‘l-yo‘lakay esa avliyo Apolloniyaga iltijo qilib boring. Men hozir huzuringizga boraman, ana shunda karomatlarni ko‘rasiz.

– Voy, gunohkor boshim! – javob berdi ekonomka. – Marhamatli janob avliyo Apolloniyaga iltijo qilishni buyuryaptilarmi? Axir, avliyo Apolloniya tish og‘rig‘iga shifo beradi-ku. Xo‘jayinimning tishlari soppa-sog‘, uning boshi kasal.

– Nima deytganimni o‘zim bilaman, sinora ekonomka. Men bilan bahslashmang. Men salamankalik bakalavr ekanligim sizga ma‘lum-ku, shuning uchun men bilan bahslashish yaramaydi, – dedi Karrasko.

Ekonomka uyiga jo‘nadi, bakalavr esa, sho‘rlik idalgoning yangi niyatlari haqida maslahatlashgani tezlikda ruhoniy huzuriga jo‘nadi.

Bu orada don Kixot bilan Sancho Pansa bo‘ljak safarning ikir-chikirlarigacha qizg‘in muhokama qilib olishdi.

– Sinor, nihoyat, siz marhamatli janob qayoqqa jo‘nasangiz, men ham sizga hamroh bo‘lishga majbur ekanimni xotinimga bayon etishga muvaffaq bo‘ldim, – dedi Sancho o‘z xo‘jayiniga.

– Sancho, sen bayon qildim demasdan, tushuntirdim, deb aytishing kerak edi, – dedi don Kixot.

– Esimda, – javob berdi Sancho, – men siz marhamatli janobga mening xatoimni to‘g‘rilamang, deb ikki marta iltimos qilgan edim. Agar mening nima demoqchi ekanimni tushunmasangiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri: «Sancho, shayton, alvasti, men seni tushunolmayapman», – deng. Agar durustroq so‘zlarni tanlay olmasam, ana undan keyin meni to‘g‘rilang. Axir, men royish odamman-ku.



– Sancho, gapingga tushunmayapman, – dedi o‘sha zahoti don Kixot, – «men royish odamman» deganing nima o‘zi?

– Royish odam deb, – javob berdi Sancho, – men qandoq bo‘lsam, shu turishimni aytadi.

– Endi undan battar tushunmayapman, – norozilik bildirdi don Kixot.

– Modomiki, siz mening gapimga tushunmayotgan bo‘lsangiz, – dedi Sancho, – qanday qilib ochiqroq tushuntirishimni ham bilmayman. Bilmayman, vassalom. Meni parvardigorning o‘zi kechirsin!

– Bo‘ldi-bo‘ldi, fahmladim, – dedi don Kixot, – sen royish, yuvosh, qobil, mening har qanday tuzatishlarimga ko‘nuvchi, nima desam, hammasini bajo keltiruvchi odamman, demochisan.

– Bas boylashaman, – dedi Sancho, – siz hamma narsani darhol fahmlagansiz-u, lekin mendan yana bironta bema‘ni gap eshitaman deb, meni adashtirmoqchi bo‘lgansiz, xolos.

– Ehtimol, – dedi don Kixot. – Shunday qilib, Teresa nima deyapti?

– Teresa, – deb javob berdi Sancho, – sen marhamatli janob bilan yaqinroq bog‘lan, chunki qalam bilan yozilganni bolta bilan chopib bo‘lmas, uzoqdagi dumbadan yaqindagi o‘pka yaxshi, qartani bo‘lgandan keyin uni chiylab bo‘lmas, osmondagi turnadan qo‘lingdagi chittak afzal, deydi. Xotinlarning maslahati sariq chaqaga arzimasligini bilaman-u, biroq kimki ularga quloq solmasa, o‘sha tentak.

– Fikringga qo‘shilaman, – dedi don Kixot. – Gapir, do‘stim Sancho, davom et, bugungi har bir so‘zing gavharga teng.

– Gap shundaki, – davom etdi Sancho, – o‘lim hamma-mizning boshimizda bor. Siz, marhamatli janob buni mendan ko‘ra yaxshiroq bilasiz; bugun bormiz, ertaga yo‘qmiz; qo‘zining umri qo‘ynikidan uzunroq emas; bu dunyoda hech kim biror daqiqa xudoning irodasidan ortiq yashay olmaydi; o‘limning qulog‘i kar, u hayot eshigimizni taqillatganda doimo shoshiladi;

uni sig'inish ham, kuch ham, saltanat hassasi ham, mitra<sup>1</sup> ham – hech narsa to'xtatib qololmaydi, – hamma shunday deydi, cherkovda ham shu haqida va'z-nasihah qiladilar.

– Buning hammasi to'g'ri, – dedi don Kixot! – Biroq gapni qayoqqa burayotganingga aqlim yetmayapti.

– Gapni shu tomonga buryapmanki, – dedi Sancho, – toki siz marhamatli janobim maoshini menga naqd pul bilan to'lab qo'ysangiz, chunki mukofot uchun xizmat qilishni istamayman, mukofot yo kech, yo vaqtidan o'tib, yo butunlay bo'lmasdan qolishi mumkin. Chinakamiga biron narsaga ega bo'lsangiz, xudo ham lutfini ayamaydi. Gapning qisqasi, ozmi-ko'pmi maoshim qanchaligini bilmoqchiman: axir, tovuq ham donalab yeb qorin to'ldiradi, toma-toma ko'l bo'lur deydilar, modomiki biror narsa ishlab topgan ekansan, demak, hech narsa yo'qotmabsan. Albatta, muhtaram janoblari va'da qilgan orolni in'om etgudek bo'lsalar, bunga ko'pda ishonmasam-da, men ko'rnamak hamda xasis bo'lib qolmayman. Basharti maoshimni shu oroldan keladigan daromadlardan ushlab qolsangiz, bir og'iz ham indamayman.

– Men allaqachon maqsadingni tushundim, – javob berdi don Kixot, – fikringning mag'zi-mag'zigacha ham fahmladim, behisob maqollar bilan qayoqqa o'q otayotganingni ham bilaman. Quloq sol, Sancho, agar jahongashta ritsarlar haqidagi romanlarda jahongashta ritsar o'z qurolbardoriga maosh to'lagan, degan gapni biror yerda uchratgan bo'lsam, men bajonidil senga maosh tayinlagan bo'lardim. Biroq men hamma romanlarni bitta qoldirmay o'qiganman-u, lekin bu haqda biror yerda yozilganini eslolmayman. Ularning o'z xizmatlari evaziga mukofot olishgani menga ma'lum. Ular buni xayollariga ham keltirmagan bir paytda to'satdan xo'jayinlariga baxt kulib boqqan-u, xo'jayin ham ularga yo birorta orolni, yo shunga o'xshagan biror narsani, yoki, juda bo'lmasa, sinor unvoni kabi martabasini in'om etgan. Agar shu umid hamda sabr-toqat bilan kutish sizni

---

<sup>1</sup> **Mitra** – Pravoslav yepiskopi va boshqa martabali ruhoniylarining ibodat vaqtida kiyadigan bosh kiyimi.

qanoatlantirsa, Sancho, hamda mening xizmatimga qaytishni xohlasangiz, marhamat! Biroq siz meni jahongashta ritsarlarning qadimiy odatlarini buzadi, deb o'ylagan bo'lsangiz, yanglishasiz. Shuning uchun, do'stim Sancho, uyga qayting-u, mening ahdimni Teresangizga yetkazing. Agar uning roziligi bilan faqat mukofot umidida menga xizmat qilmoqchi bo'lsangiz, bosh ustiga! Chunki siz mening taqdirimga sherik bo'lishni istamasangiz, xudo yoringiz bo'lsin, toat-ibodat qilib yotavering. «Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi», «yaxshi niyat – yorti mol», «bunaqa munozaraga chaqa ketsa arziydi» kabi maqollarni eslashingizni maslahat beraman, Sancho. Ko'rib turibsizki, birodar Sancho, maqolga ko'mib tashlashda sizdan qolishmayman. Bu gaplarni shuning uchun aytyapmanki, sizga o'xshagan beso'naqay hamda sergap bo'lmasa-da, sizdan sadoqatliroq, serg'ayratroq qurolbardor topilib qolar.

Bechora Sancho bunday qat'iy va uzil-kesil rad javobidan hayratda qoldi. Ko'z oldi qorong'ilashdi, dadillik qanotlari darhol sindi, chunki u don Kixot boshidan zar sochganlarida ham safarga mensiz bormaydi, deb ishonardi. U xo'jayiniga nima deyishini bilmay, xijolat bo'lib, gangiganicha xonaning qoq o'rtasida turib qoldi: xuddi shu payt uyga Samson Karrasko, ekonomka hamda jiyani kirib kelishdi: xotinlar bakalavrning don Kixotni bema'ni niyatidan qanday qilib qaytarishini eshitishni istardilar. Karrasko ritsarga tantana bilan yaqinlashib, oldingi galdagidek uni quchoqladi-da, baland ovoz bilan xitob qildi:

– O, jahongashta ritsarlar ko'rki! O, harbiy mahoratning charog'on quyoshi! O, ispan xalqining shon-shuhrati! Parvardigori olamdan iltijo qilamanki, kimki sizning uchinchi safaringizga to'sqinlik hamda monelik qilmoqchi bo'lsa, o'z niyatlari kalavasiga o'ralashib qolsinlar va ularning makri nayranglari yer bilan yakson bo'lsin.

So'ng ekonomkaga murojaat qilib, davom etdi:

– Sinora ekonomka avliyo Apolloniyaga iltijo qilmasa ham bo'ladi, chunki sinor don Kixotning o'z ulug'vor hamda misli ko'rilmagan niyatlarini amalga oshirishni davom ettirishiga xudoyi taolodan amr bo'lganligi menga ayon. Bu ritsarni yangi

qahramonliklardan voz kechishga ishontirsam, o'z boshimga mislsiz gunoh orttirgan bo'laman, chunki bugungi kunda yolg'iz jahongashta ritsarlar burchini bajarishga da'vat etilgan, zotan, u sustkashlik qilarkan, yetim-yesirlar himoyachisiz azob-uqubat chekaveradi, yomonlik jazosiz, beva-bechoralar homiysiz qolaveradi; shunday ekan, qani olg'a, oliyjanob, jasur sinor don Kixot! Bir soat ham fursatni o'tkazmang, marhamatli janoblari shu bugunoq safarga otlansinlar. Basharti safarga hozirlik ko'rmagan bo'lsangiz, qo'limdan kelganicha xizmatigizga tayyorman; agar sizda ehtiyoj sezilsa-yu, sizga qurolbardor bo'la olsam, o'zimni benihoya baxtiyor hisoblardim. Shunda don Kixot Sancho ga murojaat qilib dedi:

– Endi nima deysan, Sancho, axir, men senga qurolbardorlar doimo topiladi, deb aytmagandimmi? Ko'ryapsizmi, menga kim o'z xizmatini taklif qilayotir: Salamanka universitetining ko'rki va shuhrati, yosh, navqiron, xushchaqchaq, epchil, kamgap, issiq hamda sovuqqa, ochlik hamda tashnalikka bardosh bera oladigan, xullas, jahongashta ritsarbop qurolbardor, olamda tengi yo'q bakalavr Samson Karraskoning o'zi-ya. Biroq o'z huzur-halovatimni ko'zlab, bu bilim peshvosi hamda olimlik timsolini yo'ldan urishimga tangri ham rozi bo'lmaydi. Mazkur Samson o'z vatanida qolib, uning shuhratini, shuning qatorida o'zining qarib qolgan, soch-soqoli oqargan ota-onasining shuhratini yoyaversin, basharti Sancho meni kuzatib borishni lozim ko'rmas ekan, istagan qurolbardorni o'z xizmatimga olishga roziman.

– Yo'q, yo'q, marhamatli janob! – deb qichqirdi hayajonlangan Sancho ko'zlaridan shashqator yosh oqib. – Lozim ko'raman. Tuzini ichib, ko'rnamaklik qilgan odam, deb aytmasinlar meni. Mening ajdod-avlodim hech qachon o'z sha'niga ko'rnamaklik dog'ini tushirmagan. Butun olam, ayniqsa, bizning qishlog'imiz avlodlarim – Pansalar kimligini yaxshi biladi. Bundan tashqari, sizning xayrli ishlaringiz hamda bebaho so'zlaringizdan angladimki, siz, marhamatli janobimning meni, albatta, mukofotlashingizga ishondim. Modomiki, men qancha maosh berishingizni so'ragan ekanman, buni xotinimning ista-

giga muvofiq qilgandim. Uning miyasiga bir o'y kelganidan keyin, albatta, o'z aytganini qildirish uchun bidillayverib, miyamni qoqib qo'linga beradi. Xullas, erkak-erkakligicha, xotin-xotinligicha qolishi kerak, demak, men erkak ekanman, uyimda ham erkakligimcha qolaveraman. Xotinimning esa har qancha jahli chiqsa, chiqaversin! Shunday qilib, marhamatli janobim, vasiyatni yozavering-u, faqat qayd qilishni unutmang – tezroq safarga jo'naylik! Vijdon amrini bajarib, siz marhamatli janobni safarga shoshiltirayotgan sinor Samsonning ko'ngi zahmat chekmasin. Siz, muhtaram janobimga halollik hamda sadoqat bilan xizmat qilishga so'z beraman. Mana ko'rasiz, shunday qurolbardoringiz bo'lamanki, bunaqasini hech qaysi jahongashta ritsar umrida ko'rmagan bo'lsin.

Sancho so'zlariga quloq solarkan, bu qurolbardor ritsarga juda munosib ekan, degan qarorga kelib, dunyo bunaqa tentaklarni hali ko'rmagan, deb ko'nglidan o'tkazdi bakalavr. Nihoyat, don Kixot bilan Sancho quchoqlashib yarashishdi. Endilikda qahramonlarimiz uchun karomat qiluvchi ulug' bir zot darajasiga ko'tarilgan bakalavrning maslahatiga ko'ra safar uch kundan keyinga tayinlandi. Ba'zi bir tayyorgarliklarni ko'rish, avvalo, siparli dubulg'a topish zarur edi, chunki don Kixot buningsiz iloj yo'qligini aytdi. Samson o'z tanishlaridan ajoyib dubulg'a topib berishni bo'yniga oldi.

Bu orada do'stlarimizning suhbatini eshitib turgan ekonomka bilan jiyani avvaliga hayron bo'lishdi, keyin esa umidsizlikka tushib, g'azablari qo'zib ketdi. Ularning bakalavr Karraskoni qarg'agan qarg'ishlarini sanab ado qilib bo'lmaydi; ular, yollanib olingan yig'lovchilarday, o'z xo'jayinlarining ketishini eshitib, go'yo unga aza tutayotgandek, sochlarini yulib, yuzlarini tirnab uv tortardilar. Biroq Samson Karrasko, ekonomka va jiyanining nazarida, xoinlarcha ish tutganday ko'rinsa-da, ruhoniy va sartaroshning maslahati bilan harakat qilgan edi. Ularning rejasi qandayligini kitobxon keyinroq biladi.

Shunday qilib, don Kixot bilan Sancho uch kundan keyin barcha tayyorgarlik ishlarini bitkazishdi. Nihoyat, uchinchi kuni kechga yaqin ularni yarim mil joygacha kuzatib qo'ymoqchi

bo'lgan bakalavrdan tashqari hammadan yashirin holda Toboso shahri tomon yo'lga tushdilar. Sanchoning safar xaltasi oziq-ovqatga, don Kixot bergan karmoni esa pulga to'la edi. Xayrlashish paytida Samson ritsarimizni quchoqladi va ro'y beradigan barcha muvaffaqiyatlari hamda muvaffaqiyatsizliklari haqida xabar qilib turishni iltimos qildi. Don Kixot uning iltimosini bajo keltirishga va'da berdi, shundan so'ng Samson qishloqqa, ikki yo'lovchi esa azim shahar Toboso tomonga qarab yo'lga tushdi.

## O'TTIZ YETTINCHI BOB

### SANCHONING HIYLA-NAYRANG YO'LI BILAN SINORA DULSINEYANI AVRAGANI

Bakalavrning qorasi ko'zdan yo'qolib, don Kixot bilan Sancho Pansa yolg'iz qolishi bilanoq Rosinant kishnab, eshak esa hangray boshladi. Ritsar bilan qurolbardor buni yaxshilik nishonasi deb bildilar. Biroq rostini aytganda, qirchang'i otning kishnashidan eshakning hangrashi qattiqroq edi, shu sababli Sancho xo'jayinidan ko'ra o'ziga baxt ko'proq kulib boqadi, deb hisobladi. Shunday bo'lsa-da, o'z taxminini eshittirib aytishga yuragi dov bermadi. Ancha vaqt ikkovi ham – ritsar bilan qurolbardor – indamay borishdi, nihoyat don Kixot jimlikni buzib, dedi:

– Do'stim Sancho, ertaga Tobosoga yetib boramiz degan umiddaman. Yangi sarguzashtlar axtarishdan oldin u yerga borishga ahd qilganimdan xabaring bor-ku, axir. Men u yerda beqiyos Dulsineyadan oq yo'l olaman. Shu oq fotiha bilan har qanday xavfli mojaroda ham, albatta, g'alaba qozonaman, chunki olamda ma'shuqaning marhamatichalik hech narsa jahongashta ritsarga jasorat baxsh eta olmaydi.

– Men ham shunday fikrdaman, – dedi Sancho, – biroq men marhamatli janoblarning malikam bilan fotiha oladigan qulay joyda uchrashishlariga shubha qilaman; u molxona devori orqali fotiha beradimi sizga: muhtaram janoblarning Siyerra

Morena tog'ida aqldan begona bo'lganligingiz haqidagi maktubni keltirganimda, uni xuddi ana o'sha yerda ko'rishga muvaffaq bo'lganman.

– Nahotki, shunday beqiyos, maqtovgga til lol qoladigan go'zallarning go'zali turgan joy senga molxonaga o'xshab ko'ringan bo'lsa! – deb xitob qildi g'azablangan don Kixot. – Sen adashibsan, Sancho, sen ko'rgan narsalar uning malikalarga xos hashamatli saroyining naqshin arki-yu peshayvonlari.

– Ehtimol, shundaydir, marhamatli janobim, – javob berdi Sancho Pansa. – Bular, balki, ark bordir, biroq xotirimdan ko'tarilib ketmagan bo'lsa, ko'zimga molxonaga o'xshab ko'ringan edi.

– Nima bo'lsa ham, o'sha yoqqa boramiz, Sancho! – dedi don Kixot. – Derazadami, devor yonidami, teshik-tirqish orqalimi yo bog' panjarasi orasidanmi – uni qayerdan ko'rsam ham baribir: uning husn quyoshining zarracha nuri ko'zlarimga yetib borsa, kifoya, o'sha zahoti aqlim ravshanlashadi, ruhim tetiklashadi. O'shanda hech kim men bilan aqlda ham, botirlikda ham tenglasholmaydi.

– Rostini aytganda, sinor, – e'tiroz bildirdi Sancho, – o'sha quyoshni – sinora Tobosolik Dulsineyani ko'rganimda u unchalik yorqin emas edi, hech qanday nur ham taratmayotgan edi, u marhamatli xonim bug'doy elayotgani uchun yuzini chang bulutdek qoplab olgan edi.

– Demak, sen Sancho, sinora Dulsineya bug'doy elayapti, degan fikringda turmoqchi hamda shuni tasdiqlamoqchi bo'lyapsan, – dedi don Kixot. – Bunday ishlarni qilish aslzoda hamda oliyjanob xonimlarga yarashmaydi, chunki ular boshqa mashg'ulotlar uchun yaratilganlar. To'rtta malika o'zlarining billurday qasrlarida qanday mashg'ulot bilan shug'ullanganlari haqida hikoya qiluvchi shoirimizning she'rlarini esla. Ular zar, ipak hamda dur bilan qimmatbaho matolarga gul tikkanlar! Ehtimol, mening sinoram ham sen ko'rganingda, agar yovuz sehrigar mening jasurliklarimni ko'ra olmay, oliyjanob, ko'rganda ko'z quvonadigan chehrasini qabih hamda jirkantiruvchi narsaga aylantirib yubormagan bo'lsa, shunday ish bilan mashg'ul bo'lishi

kerak, albatta. Muallif tariximni bitarkan, shuhratimga hasad bilan boqib, bir voqeani ikkinchisi bilan almashtirmasa, ko'rsatgan qahramonliklarimni hikoya qila turib haqiqatga ko'pgina bema'ni hamda uyatga qoldiradigan uydirmalarni aralashtirib yubormasa, deb qo'rqaman.

O, behisob kulfatlarning koni, yaxshilikni kemiruvchi qurt bo'lgan hasad!

– Rostini aytganda, men ham shundan cho'chiyman, – deb javob berdi Sancho. – Fikrimcha, bakalavr Karrasko aytgan o'sha kitobda mening or-nomusim ham go'yo yo'ldan chetga buraman deb tixirlik qiladigan qaysar to'ng'izni koyiganday rosa yerga urilgan-ov. Holbuki, men birorta sehrGAR haqida yomon gapirganim yo'q, hasad bilan boqadigan darajada boyligim ham yo'q. Aybimni yashirishning nima keragi bor, men ichidan pishgan va xiyol mug'ambirroq odamman, biroq bularning hammasi tabiiy soddaligim pardasi ostida yashiringan. Mayli, kim nima desa, deyaversin. Odamlar men haqimda har qancha gapirsalar ham, parvoyimga keltirmayman.

– Ammo-lekin, Sancho, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – shuhratga bo'lgan ishtiyoqimiz hech qachon so'nmaydi. Sen qanday o'ylaysan, tish-tirnog'igacha qurollangan Goratsiy<sup>1</sup> ko'prikdan Tibr daryosiga o'zini tashlashga nima majbur qilgan? Nega Mutsiy o'z qo'lini kuydirgan<sup>2</sup>? Sezarni Rubikondan

<sup>1</sup> Goratsiy (miloddan avvalgi 65 – miloddan avvalgi 8) – Rim shoiri. Ozod qilingan qul oilasida tug'ilgan. Respublikachilarga xayrixoh bo'lgan. Fuqarolar urushi (miloddan avvalgi 42 yil)da respublikachilar mag'lubiyatga uchrAGACH, imperiya bilan kelishuvchilik yo'liga o'tgan. «Naqarotlar», «SatiralAr», «Qasidalar», «Nomalar» to'plamlari bilan o'sha davr she'riyatini yangi janr va yangi she'riy o'Ichovlar bilan boyitgan. Uch maktubdan iborat «Nomalar» kitobi «She'riyat ilmi» nomi bilan ham mashhur. Bu asar Bualoning «She'riy san'ati»ga asos bo'lgan. Goratsiy o'zini Tibrga tashladi. Publiy Goratsiy Kokles – afsonaviy rim qahramoni. Eramizdan avvalgi 507-yilda etrusklar Rimga hujum qilishganda, u Tibr daryosi ko'prigidan dushmani shaharga o'tkazmasdan, bir o'zi uzoq muddat uni himoya qilib, shaharni saqlab qoladi. Nihoyat, rimliklar Goratsiyning orza tomonidagi ko'prik peshtoqini buzishga muyassar bo'lishadi. Shundan so'nggina Goratsiy o'z postini qoldirishga qaror qiladi, o'zini daryoga otadi, dushmanning do'ldek yog'ilib turgan tosh va kamon o'q-nayzalaridan yaralanib, arang qirg'oqqacha yetib oladi, Goratsiyning nomini shon-shuhratga burkagan bu qahramonligi uchun oliyhimmat rimliklar tirik chog'ida unga haykal o'rnatishadi.

<sup>2</sup> ... Mutsiy o'z qo'lini kuydiradi... – rivoyatlarga ko'ra, etrusklar qiroli Porsena Rimni qurshab olganda, Rim senati Kay Mutsiy degan jangchini qirolni o'ldirish topshirig'i



o'tishga<sup>1</sup> nima undagan? Shon-shuhrat ishtiyoqida qilingan bu harakatlarning hammasini bandalar oliy mukofot hamda abadiylik deb bilganlar. Biroq shon-shuhratga intilarkanmiz, biz ornomus hamda yaxshilik chegarasidan chiqib ketmasligimiz kerak. Polvonlarni yengish bilan biz g'ururni yo'qotishimiz, oliyjanoblik bilan hasadni, bosiqlik bilan g'azabni, ovqatdan o'zimizni tortish bilan ochko'zlikka moyillikni, tinimsiz darbdarlik bilan yalqovlikni yengishimiz lozim. Doimo haqiqiy shuhratga hamroh bo'ladigan maqtovgga sazovor bo'lishga ana shunday erishiladi, Sancho.

– Asli shundayku-ya, marhamatli janobim, – e'tiroz bildirdi Sancho, – lekin men siz marhamatli janobdan o'zim shubha qilgan bir narsani so'ramoqchiman.

– Bosh ustiga, – dedi don Kixot. – Gapir, qo'limdan kelgancha javob beraman.

– Ayting-chi, sinor janoblari, – deb gap boshladi Sancho, – nima muhimroq – pahlavonni o'ldirishmi, yo o'lganni tiriltirishmi?

– Albatta, o'lganni tiriltirish, – deb javob berdi don Kixot.

---

bilan dushman qarorgohiga yubordi. Mutsiy yanglishib qirol o'miga allaqaysi mirzasini o'ldirib qo'yadi. Uni ushlab olib, qirol qoshiga keltirishadi, azoblash va osib o'ldirish bilan qo'rqitishadi. Hech narsadan qo'rqmasligini isbot qilish uchun Mutsiy o'ng qo'lini qurbongoh oloviga tutadi va tikka boqib qo'yishini kuzatadi. Bu ko'z ko'rib, quloq eshitmagan mardlikdan hayratda qolgan Porsena Mutsiy qo'yib yuboradi. Uning uch yuz nafar rimlik yigitlari qirolni o'ldirish uchun qasam ichishgan, degan so'zidan qo'rqan Porsena Rim bilan sulh tuzish va qurshovni bekor qilishga zudlik bilan kirishadi. Senat Mutsiyga katta yer maydoni hadya qiladi. Shu qahramonlikdan keyin uni Ssevola («chapaqay») deb atay boshlaganlar.

<sup>1</sup>... **Sezar Rubikondan o'tdi** ... Rubikon – Italiyaning shimolidagi Adriatik dengizga quyiladigan kichik daryo. Qadim zamonlarda u Italiya bilan Italiya Galliyasi o'rtasida chegara bo'lib xizmat qilgan. Biror sarkarda Rim senatining ruxsatisiz bu daryodan kechib o'tolmagan. Birgina Yuriy Sezar bu taqiqni buzishga jur'at etgan. Sezarning haddan ziyod shuhratidan tashvishlangan senat uni Galliya legionlariga qo'mondonlik qilishdan chetlatmoqchi bo'ladi, shunda u kichkina bir bo'linma bilan Italiyaga shoshiladi. Sezar Rubikonga yaqinlashgach, bir damgina to'xtab o'ylab qoladi. Rubikon daryosidan o'tish Pompey qo'mondonligi ostidagi katta qo'shinga tayangan senatga qarshi urush e'lon qilishni bildirardi. Galliyaga qaytish esa senat ixtiyoriga bo'ysunish degan gap edi. Sezar tezda bir qarorga keladi: u Rubikon daryosini kechib o'tib, Rimga tomon yo'l oladi. Bu aqlga sig'maydigan dadil ta'habbus muvaffaqiyatli tugaydi. Barcha qo'shinlar uning tomoniga o'tadi va u Rimga tantanavor kirib boradi. Italiyaning hokimi mutlaq bo'lib qoladi.

– Mana shu yerda sizni qo‘lga tushirdim! – Xitob qildi Sancho. – Demak, o‘lganlarni tiriltirish, ko‘r ko‘zlarni davolash, cho‘loqlarni tuzatish, bemorlarni sog‘aytirish – bularning hammasini qilish jahongashta ritsarlarning ulug‘vor qahramonlik shuhratiga soya solib qo‘yadi-ku!

– Fikringga batamom qo‘shilaman, – dedi don Kixot, – biroq bundan qanday xulosa chiqarmoqchisan?

– Xulosa shuki, – dedi Sancho, – siz bilan men avliyo bo‘lishimiz kerak ekan. Shundagina intilayotganimiz haqiqiy shon-shuhratga ega bo‘lamiz. Bilasizmi, sinor, kecha yo ilgari kuni ikkita qashshoq rohibni avliyolikka o‘tkazishdi. Endi ularning belidagi zanjir belbog‘ga qo‘l tekkizib qo‘yishning o‘zi katta baxt. Endi bu zanjirlar Rolandning qilichidan ham mo‘tabarroq. Shuning uchun, sinor janoblari, jahongashta ritsar bo‘lishdan ko‘ra, biror diniy ordenning itoatkor rohibi bo‘lish afzalroq.

– Bu to‘g‘ri, – javob keldi don Kixot, – lekin hamma ham rohib bo‘la olmaydi-da. Bundan tashqari, ritsarlik ham diniy orden hisoblanadi, ritsarlar orasida ham avliyolar bor.

– Nahotki? – dedi Sancho. – Biroq men arshi a‘loda jahongashta ritsarlarga qaraganda rohiblar ko‘proq deb eshitganman.

– Chunki ritsarlardan rohiblar ko‘p.

Shunga o‘xshash ibratli suhbatlar bilan qahramonlarimiz butun kechani va ertangi kunni ham o‘tkazdilar. Kun botish oldidan azim shahar Toboso ko‘zga tashlandi. Shaharga ko‘zi tushishi bilanoq don Kixot juda suyunib ketdi, Sancho esa, aksincha, nima qilishini bilmaganidan ma‘yus bo‘lib qoldi. Shunday qilib, ikkovi ham: biri o‘z ma‘shuqasini ko‘rishga zor bo‘lganidan, ikkinchisi esa, o‘z yolg‘onining oshkora bo‘lishidan hayajonlanar edi. Biroq Sanchoning baxtiga, don Kixot qorong‘i tushguncha shaharga kirmaslikka qaror qildi; ular Toboso yaqinidagi emanzordan chiqib osoyishta sukunat cho‘mgan qishloqqa kirib kelishdi, qishloq aholisi kun bo‘yi qilgan mehnatlaridan keyin qattiq uyquga ketgan edi.

Faqat itlargina jon-jahdlari bilan hurib don Kixotning qu-

log'ini qomatga keltirar va Sanchoning yuragini yorgudek bo'lishardi. Goh-goh eshak hangrar, cho'chqalar xo'rillar, mushuklar miyovlar edi va bu turli-tuman ovozlari tun sukunatini yorib, yanada vahimaliroq eshitilar edi. Oshiq ritsarimiz buni yomonlik nishonasi, deb bildi, shunday bo'lsa ham Sanchoga:

– Qani, birodar Sancho, meni Dulsineya qasri tomon boshla. Kim biladi, ehtimol, u allaqachon uyg'ongandir, – dedi.

– Jin ursin meni, qaysi qasrga boshlab boraman sizni? – javob qildi Sancho. – Janobi oliyalarini qasrda emas, kichkina-gina bir kulbada ko'rganman.

– Demak, – dedi don Kixot, – sen kelgan paytda, aslzoda sinorlar hamda malikalar muhitida bo'lganidek, u ham o'z saroy xonimlari bilan birgalikda qasrning kichik xonalarining birida dam olayotgan ekan.

– Sinor, – dedi Sancho, – sinora Dulsineyaning kichkina-gina kulbasi hashamatli qasr bo'lishini juda-juda istasangiz, men siz bilan bahslashib o'tirmayman. Mayli, marhamatli janoblari-ning ko'ngillari nimani xohlasa, shunday bo'lsin. Nahotki, shunday bemahalda qasr darvozasi ochiq bo'lsa. Agar biz darvozani taqillatsak, butun mahallani cho'chitib, oyoqqa turg'izamiz.

– Avvalo, sen meni qasr yoniga olib bor, – dedi don Kixot, – nima qilishimiz lozimligini shunda aytaman senga, Sancho. Qara, Sancho, hov anavi yerda katta imorat ko'rinyapti: bu imorat Dulsineyaning qasri ekanligiga shubham yo'q.

– Qani, olg'a yuravering unda, marhamatli janob, – g'uldiradi Sancho. – Kim bilsin, ehtimol, o'shadir. Men esa, bu qasrni ko'zim bilan ko'rib, qo'lim bilan ushlaganimda ham, baribir, hozir kunduzi ekanligiga qanchalik ishonam, buning o'sha qasr ekaniga ham shunchalik ishonaman.

Don Kixot Sanchoni boshlab ketdi. Biroq qop-qorayib turgan imoratga yaqinlasharkanlar, ular baland minorani ko'rdilar-da, darrov qarshilaridagi qasr emas, balki cherkov binosi ekanini payqadilar. Shunda don Kixot:

– Biz cherkovga kelib qolibmiz, Sancho, – dedi.

– Ko'rib turibman, – javob berdi u, – ilohim, o'z qabrimizga ro'para kelib qolmaylik, chunki shunday bemahalda

cherkov qabristonida sang'ib yurish yaxshi qiliq emas. Lekin, esimda bor, marhamatli janoblariga aytgan bo'lsam kerak, sinoramizning uyi boshi berk tor ko'chada joylashgan.

– Xudo urgur, kallavaram! – deb qichqirdi don Kixot. – Qasr hamda saroylarning boshi berk tor ko'chalarda qurilganini qayerda ko'rgansan?

– Sinor, – javob berdi Sancho, – har qaysi yurtning o'z taomili bor, ehtimol, bu yerda, Tobosoda saroy hamda hashamatli binolarni tor ko'chalarga qurish rasmdir. Shuning uchun, muhtaram janobim, shu yaqin o'rtadagi tor ko'cha hamda boshi berk ko'chalarni axtarib chiqishga izn bersalar. Ehtimol, biror jin ko'chada o'sha la'nati it g'ajigur qasrga duch kelib qolarman.

– Bunday odobsizlarcha so'zlashga qanday jur'at etding! – g'azab bilan qichqirdi don Kixot. – Ma'shuqamga tegishli hamma narsa haqida hurmat-ehtirom bilan gapirishga majbursan.

– Harakat qilaman, marhamatli janob, – dedi Sancho, – biroq, bir martaning o'zidayoq bekamizning uyi qayerda ekanligini eslashimni, buning ustiga yarim kechada uni axtarib topishimni talab qilib tursangiz, albatta, sabr kosam to'lib ketadi-da. Axir, o'zingiz uni yuz ming marta ko'rgan bo'lsangiz ham, topolmayapsiz-ku!

– Sancho, qonimni qaynatib yuboryapsan, – dedi don Kixot. – Qani bu yoqqa kel-chi, muttaham, men senga olamda yakka-yu yagona Dulsineyani hech qachon ko'rmaganimni, uning qasri ostonasiga ham qadam bosmaganimni ming martalab aytmaganmidim? Uning aqli-zakovati hamda husni-malohati haqidagi olamga taralgan maqtov va ovozalarni eshitib, unga g'oyibona oshiq bo'lganman.

– Unday bo'lsa, – javob berdi Sancho, – siz marhamatli janobim oldida bo'ynimga olib aytaman: siz, sinorim, uni hech qachon ko'rmagan bo'lsangiz, men ham hech qachon ko'rmaganman.

– Bunday bo'lishi mumkin emas! – qichqirdi don Kixot. – Axir, sen, unga berib yuborgan maktubimga javob keltirgan eding-ku. Yana uning bug'doy elayotganini, xayrlashish paytida senga nimalar berganini bekam-ko'st aytib berganding-ku!

– Buning unchalik ahamiyati yo‘q, sinor, – javob qildi Sancho, – iqror bo‘lishim kerakki, men ham uni ovozalarga qarab ko‘rganman, javobini ham ovozalarga qarab keltirganman.

– Sancho, Sancho, – dedi don Kixot, – hazil qilishning o‘z vaqti bor, aks holda, u bema’ni, noo‘rin chiqib qoladi. Mayli, ko‘nglimni asir qilgan ma’shuqam bilan hech qachon suhbatlashmagan, ko‘rilmagan bo‘lay. Biroq nega endi sen ham u bilan ko‘rilmaganman va suhbatlashmaganman deb o‘tiribsanz? Axir, buning qip-qizil yolg‘onligini bilasan-ku!

Ular suhbatlashib turgan paytda qandaydir bir kishi omoch qo‘shilgan ikkita xachirni yetaklab kelaverdi.

Omochni ko‘rib do‘stlarimiz, bu kishi dehqon, ishga shoshilganidan tong saharda turibdi, degan xulosaga kelishdi. Dehqon yo‘l-yo‘lakay bir romansni kuylab kelardi:

*Fransuzlar, yurishmadi ishingiz,  
Ronsevalning zo‘r janrlarida.*

– Sancho, shu yerda til tortmay qolayki, – dedi don Kixot qo‘shiqni eshitib, – shu tunning o‘zida qandaydir xayrli hodisa ro‘y beradi. Anavi dehqonning nimani kuylayotganini eshit-yapsanmi?

– Eshitishga-ku eshityapman-a, – javob berdi Sancho, – lekin bizning ishlarimiz bilan Ronseval jangi o‘rtasida qanday o‘xshashlik borligiga aqlim yetmayapti.

Shu payt dehqon ular bilan tenglashdi va don Kixot undan so‘radi:

– Xudo omadingizni bersin, yaxshi odam, Tobosoning olamda tengi yo‘q malikasi donya Dulsineyaning qasri qayerdaligini aytib berolmaysizmi?

– Sinor, – deb javob berdi yigit, – men bu yerlik emasman: shu qishloqlik bir katta yer egasining qaroli bo‘lib ishlayotganimga bir necha kun bo‘ldi, xolos. Qarshi tomondagi uyda yerlik ruhoniylar bilan uning yordamchisi yashaydi; ulardan biri, ehtimol, ikkovi ham siz marhamatli janobga o‘sha sinora malika haqida ma’lumot berishi mumkin, chunki ularning daftarida

Toboso aholisining hammasi yozilgan. Biroq mening bilishimcha, bu yerda bitta ham malika yo'q. Darvoqe, bu yerda ko'pgina e'tiborli xonimlar yashaydi, ularning har biri ham o'z uyida o'zini malikalarday sezishi mumkin-ku.

– Ehtimol, sendan so'rayotganim malika shu e'tiborli xonimlardan biri bo'lsa kerak, do'stim, – dedi don Kixot.

– Bo'lishi mumkin, – javob berdi yigit, – xo'p, yaxshi qolinglar, tong otib qolayotir.

U shunday deb keyingi so'rab-surishtirishlarni kutmay, xachirlarini haydab ketaverdi.

Sancho esa, xo'jayinini boshi qotgan hamda norozi holda ko'rib dedi:

– Haqiqatan ham, sinor, tong otayotir. Tongni o'rta ko'chada kutib olish bizga yarashmaydi. Shahardan chiqib ketganimiz ma'qul emasmi? Siz marhamatli janobim, yaqinroqdagi chakalakzorlardan birortasiga yashirinib turasiz, men esa bu yerga kunduzi qaytib kelib, bekamizning uyi, saroyi yoki qasrini topmaguncha hamma jin ko'chalarni axtaraveraman. Agar topolmasam, demak, peshonam sho'r ekan deyman, topsam, u marhamatli malikaga sizning Tobosoda ekanligingizni, u kishini ko'rishga ruxsat so'rayotganingizni aytaman.

– Sancho, – xitob qildi don Kixot, – ikki og'iz so'z bilan ko'p dono gaplarni ayta olding, maslahatingni bajonidil qabul qilaman. Shunday qilib, jigargo'sham, o'rmonga ketdik. Men o'sha yerda qolaman, sen esa shaharga qaytasan, ma'shuqamni topib, u bilan gaplashasan. Uning aqli-zakovati hamda iltifotidan ajoyib marhamatlar kutaman.

Don Kixot bilan Sancho Tobosodan chiqib, qishloqdan ikki mil narida bir xilvatgina chakalakzorni topishdi. Don Kixot shu yerda to'xtab, Sanchoga qishloqqa qaytishini, toki ko'nglini asir qilgan ritsari u bilan ko'rishishga zor ekanligini hamda kelajakdagi ulug'vor, mashaqqatli jasoratlar ko'rsatishiga oq fotiha berishini iltimos qilayotganini, sinora Dulsineyani topib aytmaguncha ko'ziga ko'rinmaslikni buyurdi. Sancho bu topshiriqni bajo keltirishga hamda oldingi galdagidek xushxabar keltirishga va'da berdi.

– Qani, endi yo‘lga tush, jigargo‘sham, – dedi don Kixot, – magar u xonimning husni ko‘zlarini qamashtirsa, sira xijolat chekma. O, dunyodagi barcha qurolbardorlarning eng baxtlisi! Tengi yo‘q malak Dulsineya bilan bo‘ladigan uchrashuvning ikir-chikirlarigacha yodingda tut. Mening topshirig‘imni aytayotganingda uning chehrasida o‘zgarish bo‘ladimi, nomimni eshitib, hayajonga tushib uyalib ketarmikin, shularga e‘tibor ber. Agar o‘z o‘liy martabasiga yarasha hashamatli ko‘shkda paryostiqlarga botib o‘tirgan bo‘lsa, bezovtalikdan qo‘zg‘alib qo‘yarmikin, bunga ham diqqat qil, basharti tikka turgan bo‘lsa, qara, og‘irligini oyoqdan oyoqqa soladimi, o‘z javobini ikki-uch marta takrorlaydimi, sochlari silliq taralgan bo‘lsa ham, ajoyib qo‘llari bilan sochini silaydimi, shularni ham bilgin; gapning qisqasi, jigargo‘sham, uning har bir xatti-harakatini esingda saqlab qol, agar sen hammasini qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha aytib bersang, shu belgilarga qarab, uning ko‘ngil xilvatgohida nimalar yashiringanini hamda mening muhabbatimga qanday qarashini bilib olaman. Qani, yo‘lga tusha qol, do‘stim.

Iqbolning menikidan ham baland bo‘lsin.

– Boraman-u, tezda qaytaman, – dedi Sancho, – siz esa, marhamatli janobim, ko‘nglingizni xotirjam qilishga harakat qiling. Ehtimol, yuragingiz siqila-siqila yong‘oqday bo‘lib qolgandir. Jasurlik yovuz taqdirni yengadi, kimda dumba yog‘i bo‘lmasa, uni osgani ilmog‘i ham yo‘q, yana, «qurolsiz ovga chiqsang, oyog‘ing ostida quyon o‘rmalar» degan maqollarni yodingizda tuting. Men buni shuning uchun aytyapmanki, sinoramizning saroyi hamda qasrlarini kechasi axtarish qiyin bo‘lgan edi, Biroq kunduzi uni topishga ishonaman. Modomiki, topar ekanman, u bilan boplab gaplashish qo‘limdan kelib qolar.

Shunday deb, Sancho eshagini burib, shitob bilan haydab ketdi. Don Kixot esa, Rosinantdan tushmay nayzasiga suyan-ganicha g‘amgin o‘ylarga berilib ketdi. Sancho chakalakzordan chiqib, atrofga ko‘z yugurtirdi-da, don Kixotning ko‘rinmayotganiga ishonch hosil qilgach, eshagidan tappa sakrab tushdi. So‘ngra sersoya daraxtning tagiga o‘tirib olib, o‘z-o‘zicha mulohaza yurita boshladi:

– Qani, endi ayt-chi, oshnam Sancho, muhtaram janoblari qayoqda ketayotibdilar? Mabodo yo‘qolgan eshagingni axtargani emasmi? – Yo‘q, albatta. – Yo‘qsa nimani axtaryapsan? – Xo‘jayinimning aytishiga qaraganda, quyosh va ko‘kdagi barcha yulduzlarni birga qo‘shib olganda ham teng keladigan, go‘zallikda beqiyos malikani izlashga ketayotirman. – Uni qayerdan topmoqchisan, Sancho? – Qayerdan? Azim shahar Tobosodan. – Xo‘p, mayli, uni izlashni senga kim topshirdi? – Adolat o‘rnatuvchi, chanqoqlarga non, ochlarga suv beruvchi mashhur ritsar lamanchlik don Kixot. – Bularning hammasi yaxshi. Sancho, o‘sha malikaning uyi qayerdaligini bilasanmi o‘zi? – Xo‘jayinim u qirol saroyida, hashamatli qasrda yashaydi, deb aytayotir. Bu qasr esa Tobosoda. – Xo‘p, mabodo Toboso aholisi sening noma‘lum qasr hamda noma‘lum malikani izlab yurganingni bilib qolib, qovurg‘alaringni pachaqlab, badaningda birorta ham sog‘joyingni qoldirmasa-chi? Sening ta‘ziringni berib, teringni yong‘oq po‘stiday shilib olishsa, ular haqli deb o‘ylamaysanmi? – Shubhasiz, ular haq bo‘ladi. Lekin ular mening bor-yo‘g‘i birgina vakil ekanligimni hisobga olishlari kerak:

Chopar bo‘lib keldingiz faqat, Yo‘q, siz aybdor emassiz, do‘stim.

Biroq bunga ortiqcha umid bog‘lama, Sancho, chunki lamanchliklar shu qadar jizzaki, shu qadar halol bo‘ladilarki, o‘z ustlaridan birovning kulishiga sira chidayolmaydilar. Xudo shohid, agar ular seni fosh qilib tashlashsa, holingga voy. – Menga tegma, jim! Momaqaldiraq, guldurayver, lekin nariroqda guldira! Birovning huzur-halovatini deb bunday mushkul ahvolda qolishga qaysi falokat yo‘ldan urdi meni? Shayton, xuddi shaytonning o‘zi meni shu balolarga giriftor qildi!

Sancho quyidagi oqilona qarorga kelguncha uzoq vaqt o‘z-o‘zi bilan suhbatlashib o‘tirdi:

– Xo‘p, mayli, – dedi u o‘z-o‘ziga, – umrimiz oxirida biz bo‘yinturug‘ini ko‘tarib yuradigan ajaldan boshqa, dunyoda hamma narsaning iloji bor. Butun qilmishidan xo‘jayinimning qo‘l-oyog‘i kishanlab qo‘yiladigan jinni ekanligi ko‘rinib turibdi. Ammo men ham undan qolishmayman. Men undan ham besh



battar jinniman, nega deganda unga o'z ixtiyorim bilan xizmat qilayotirman. Axir, maqollarda qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi; yomonga yaqin yursang, balosi yuqadi, deyilgan. Gap zoting kimligida emas, balki kim bilan osh-qatiq bo'lganingda ekan. Xullasi kalom, u – jinni. Shuning uchun ko'ziga yo'q nar-salar bor bo'lib ko'rinaveradi: oqni qora, qorani oq deydi, shamol tegirmonlarini – devlar, poplarning<sup>1</sup> xachirlarini – tuya, qo'ylar suruvini – dushman qo'shinlari deb o'ylaganini eslashning o'zi kifoya bunga. Shunday ekan, birinchi uchragan dehqon ayolni sinora Dulsineya deb uni ishontirish uncha qiyin bo'lmaydi. Agar ishonmasa, men qasam ichaman: agar uning o'zi ham qasam icha boshlasa, men yana qasam ichaman; u e'tiroz bildira boshlasa, men o'z aytganimda qattiq turib olaman. Ehtimol, mening qay-sarligimdan achchiqlanib, meni yana shunga o'xshash topshiriqlar bilan hech qayoqqa jo'natmas. Aniqrog'i, biror yovuz sehrgar uning go'zal ma'shuqasini dehqon ayolga aylantirib qo'ygan, deb o'ylaydi.

Bu o'ylardan Sanchoning ko'ngli taskin topib, ishim bitdi, deb hisobladi. Don Kixot Tobosoda bo'lganligiga shubha qilmasin uchun kechgacha daraxt tagida o'tirdi. U endi eshagiga minaman, deb turganda, Toboso tomondan uchta dehqon ayolning eshak minib kelayotganini ko'rib qoldi. Sancho o'sha zahoti hadeb oh-voh qilib, muhabbat azobidan to'lib-toshib turgan xo'jayin oldiga shoshildi. Qurolbardorga olisdanoq ko'zi tushgan don Kixot:

– Qalay, do'stim Sancho, bugungi kunni oq tosh bilan nishonlaymi yo qora tosh bilanmi? – dedi.

– Yaxshisi, – javob berdi Sancho, – marhamatli janobim, Salamankadagi talabalar shuhrat qozongan professorlarini qizil harflar bilan nishonlaganidek, siz ham qizil tosh bilan nishonlay qoling.

– Demak, – dedi don Kixot, – xushxabar keltiribsan-da!

– Eng a'lo xushxabar! – javob berdi Sancho. – Muhtaram janoblari faqat Rosinantni niqtab, ikki kanizak kuzatuvida siz

<sup>1</sup> Pop (yunoncha) – pravoslav cherkovida ruboniyning rasmiy nomlaridan biri.

marhamatli janobim bilan uchrashgani kelayotgan sinora Tobosolik Dulsineyaga peshvoz chiqsangiz bas.

– Xudoning marhamati beadam! – xitob qildi don Kixot. – Nimalar deyapsan o‘zi, do‘stim Sancho? Menga qara, meni aldam, yolg‘ondakam xursandlik bilan chinakam qayg‘umni yengillashtirishga urinma.

– Siz marhamatli janobni aldashimdan nima foyda? – e‘tiroz bildirdi Sancho. – Yolg‘on yo chin gapirayotganimni shu yerning o‘zidayoq tekshirib ko‘rishingiz mumkin. Otingizni niqtang-u, orqamdan yuring. Siz malikai hazrati oliyalarini o‘z ulug‘ligiga munosib hashamatda ko‘rasiz. U ham, uning kanizaklari ham zarrin, dur-u javohir, olmos, yoqutlar, zar kiyimlarga burkanib, ko‘zni qamashtirib kelishyapti, yelkalariga yoyilib tushgan sochlari quyoshdek nur sochib turibdi.

Ular olamda o‘zlariga teng kela olmaydigan oq tulporlarda kelishyapti.

– Ular yo‘rg‘a minib kelishyapti, demoqchimisiz. Sancho?

– Tulpormi – yo‘rg‘ami, farqi uncha katta emas, – e‘tiroz bildirdi Sancho, – ular nimada kelishayotgan bo‘lsa ham, dunyoda haligacha bunaqa go‘zal xonimlar bo‘lmagan. Ayniqsa, malika Dulsineya nihoyatda chiroyli, unga bir qarash bilan aqldan ozish mumkin.

– Ketdik, do‘stim Sancho, – dedi don Kixot. – Mana shunday kutilmagan xushxabarlaring uchun dastlabki sarguzashtimdayoq qo‘lga tushirgan eng yaxshi o‘ljani senga hadya qilaman. Agar bu ham ozlik qiladigan bo‘lsa, uchta biyamdan tug‘iladigan toychoqlarimni ham in‘om etaman, ularning tez kunda qulunlashidan xabaring bor-ku, axir.

– Menga toychoqlar ko‘proq yoqadi, – dedi Sancho, – chunki dastlabki sarguzashtingizdayoq qo‘lga tushiradigan o‘ljangizning yaxshi bo‘lishiga uncha ishonmayman.

Ular o‘rmondan chiqib, uchta dehqon ayolni ko‘rdilar. Don Kixot Toboso yo‘lini sinchiklab qaradi, dehqon ayollardan boshqa hech kimni ko‘rmay, Dulsineya o‘z hamrohlari bilan shahardan yo‘lga chiqqaniga qurolbardorining ishonchi komil

ekanligini Sancho Pansadan hayajonli ohangda so'radi.

– Yo'lga chiqqan! – qichqirdi u. – Nima deb aljirayapsiz, sinor? Nima, marhamatli janoblarining ko'zlari orqalaridami deyman? Axir, ularning tushki quyoshday yarqirab biz tomon kelayotganlarini nahotki ko'rmayapsiz?

– Men faqat uchta eshakka minib kelayotgan uchta dehqon ayolni ko'ryapman, xolos, – javob berdi don Kixot.

– E xudo, bizni shayton vasvasasidan o'zing asragin! – dedi Sancho. – Nahotki, osmondan yangigina yoqqan qordek oppoq uch yo'rg'a siz marhamatli janobga eshak bo'lib ko'rinyotgan bo'lsa? E xudoyim, o'zing kechirgin, bu gap rost bo'ladigan bo'lsa, soqolimni bittalab yulishga tayyorman.

– Senga aytdim-ku, do'stim Sancho, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – qarshimizdan kelayotgan erkak yoki urg'ochi eshaklar. Bu, men – don Kixot, sen – Sancho Pansa ekanligiday ravshan.

– Jim bo'ling, sinor, – dedi Sancho, – bunday gaplarni gapirmang, yaxshisi, ko'zingizni kattaroq oching-u, o'yfikingizni band etgan ma'shuqangizni kutib olishga shoshiling, u juda yaqinlashib qoldi, axir.

Shu so'zlar bilan Sancho dehqon ayollarga yaqinlashdi, shoshilib ulardan birining eshagi yuganidan ushladi. Tiz cho'kib turib, dedi:

– O, go'zallik qirolichasi, malikasi, gersoginyasi<sup>1</sup>, hazrati oliyalari! Sizga asir bo'lgan ritsarga o'z marhamatingizni ko'rsatgaysiz. Go'zalligingizdan ko'zi qamashgan bu sho'rlik lol qolib, xuddi marmar haykaldek qimirlamay turibdi. Men uning qurolbardori Sancho Pansaman, uning o'zi esa G'amgin Qiyofa laqabli ritsar, ya'ni lamanchlik ritsar don Kixotdir.

Don Kixot ham Sanchoning yoniga tiz cho'kdi. U Sancho sinora va qirolicha deb atagan ayolga xira tortgan ko'zlarini katta ochib qaradi. Evoh! Uning qarshisida xunukkina, kulcha yuzli, qanshari past, oddiygina kiyingan oddiy bir dehqon ayol turardi. Sho'rlik ritsarning hafsalasi pir bo'ldi, biroq bir og'iz ham gapirishga jur'at qilolmadi. Ayol esa, og'zi ochilib, angraygan-

<sup>1</sup> Gersoginya – gersogning xotini yoki qizi.

cha bu g'alati odamlar o'zidan nimani talab qilayotganini tushunmay, tiz cho'kib turgan ritsar va qurolbardorga tikilib turardi. U faqat birgina narsani, bu tentaklarning yo'llarini to'sib turganlarinigina fahmlagan edi, xolos.

Shuning uchun ham u jahl bilan qat'iy qichqirdi:

– Yo'lni to'smang, la'natilar, bizni qo'yib yuboring-lar. Biz shoshilyapmiz.

Sancho bunga javoban:

– O, Tobosoning malikasi hamda oliy hukmdori! Nahotki, jahongashta ritsarlar orasida eng mashhurining siz marhamatli xonim qarshisida itoatkorlik bilan tiz cho'kib turganini ko'rib, shafqat to'la qalbingiz yumshamasa? – dedi.

Bu so'zlarni eshitib, boshqa bir dehqon ayol dedi:

– Bu janobchalarning qishloqi qizlarni masxara qilishini qarang-a. Ehtiyot bo'ling, sinorlar! Yo'qsa bizning hazilimizning oqibati yomon bo'ladi! O'z yo'llaringga ketaveringlar-u, bizni tinch qo'yinglar.

– Tur o'rningdan, Sancho, – dedi don Kixot shunda. – Taqdir hali mening baxtsizliklarimga to'yaganini, faqir ko'nglim uchun barcha xursand chilik yo'llari kesilganini ko'rib turibman. O, qalblar orzusi, saxovatli malika, – deb davom etdi u birinchi dehqon ayolga murojaat qilib, – sen ishqingda kuyib-yongan g'amgin ko'ngilning yakka-yu yagona quvonchisan, shuni bilginki, meni ta'qib qilib yuruvchi yovuz sehrgarning irodasi bilan ko'zlarim qop-qora parda bilan qoplandi, uni vahimali tuman qurshab oldi, husnda tengi yo'q jamolingni ko'rish o'rniga bir kambag'al dehqon ayolning yuzini ko'rib turibman. Shunday bo'lsa ham, yolvoraman, menga muloyim hamda oshiqona bir qiyo boq. Qara, qarshingda bo'yimni egib, tiz cho'kib turibman. Nahotki, mening cheksiz hamda itoatkorona sadoqatim bilan muhabbatimga ishonmaysan?

– Bu gaplarni katta buvangizga ayting! – qichqirdi dehqon ayol. – Bunaqa xushomadingizga ko'zim uchib turgani yo'q! Yaxshilikcha aytyapman: jo'nang, yo'lni to'smanglar.

Sancho chetga chiqib, dehqon ayolga yo'l berdi va o'z niyati muvaffaqiyat bilan tugallanganidan xursand bo'ldi. Sehr-

langan Dulsineya o'z «tulpor»ini kuchining boricha kaltak bilan urib, dala bo'ylab haydab ketdi. Biroq eshak og'riqning zo'ridan shataloq ota boshladi va egasini yerga qulatdi. Buni ko'rib, don Kixot uni turg'izib qo'ygani otildi. Sancho esa eshakni tutib, egarini rostlay boshladi. Ayil tortilib bo'lingach, idalgomiz o'z malikasini qo'lida ko'tarib, eshakka o'tqizmoqchi bo'lgan edi, biroq sinora uni bu ishdan xorij qildi; o'rnidan turgach, yugurib kelib, eshakning sag'risiga qo'lini qo'yib, lochindek epchillik bilan eshakka irg'ib minib oldi. Shunda Sancho:

– Avliyo Roke nomi bilan qasam ichamanki, bekamiz shunqordan ham chaqqon ekan. U eng chaqqon korduanlikni yoki meksikalikni ham chavandozlikka o'rgata oladi? Bir sakrashda egarning orqa qoshidan uchib o'tib minib oldi, endi esa o'z yo'rg'asini xuddi zebrani haydaganday haydab ketyapti, kanizaklari ham undan ortda qolmayotirlar. Ularning shamoldan ham tez yelib borayotganliklarini qarang-a.

Sancho to'g'ri gapirgan edi, chunki Dulsineyaning egarga sakrab minganini ko'rgan ikki dehqon ayol ham jon-jahdlari bilan uning ketidan eshaklarini yo'rg'alatib ketdilar.

Don Kixot ularni ko'zlari bilan kuzatib qoldi, ularning qorasi o'chgach, Sanchoga murojaat qilib dedi:

– Buni qara-ya, Sancho, sehrgarlarning makri hamda dushmanligining oqibati qayergacha borib yetarkan: ular meni ma'shuqamning ruxsorini butun go'zalligi latofati bilan ko'rish quvonchidan mahrum qilishdi. Darhaqiqat, men olamdagi barcha baxtsizliklarga namuna bo'lish uchun xizmat qilishgan, yovuz taqdirning o'tkir o'qlariga nishon bo'lish uchun yaratilgan ekanman. Sancho, bu xoinlar mening Dulsineyamni sehrlash bilan qanoatlanishmabdi, – yo'q, unga yana qo'pol dehqon ayol qiyo-fasini berish ham zarur ekan. U hatto oliy martabali sinoralarga xos bo'lgan muattar hid taratishdan ham mahrum bo'libdi. Chunki, to'g'risini aytganda, men yo'rg'asiga mindirib qo'yay deb yaqinlashganimda, undan nihoyatda badbo'y sarimsoq hidi dimog'imga urib, bo'g'ilib o'lishimga oz qoldi.

– Naqadar ablah odamlar! – xitob qildi Sancho. – Eh, shumniyat, makkor sehrgarlar, tomog'ingizdan g'ippa bo'g'ib,

hammangizni baliqlarday ipga tersa. Oh, yaramaslar! Xo'jayinimdan naqadar zaharxanda kuldilaring! Sinoramning gavharday tiniq ko'zlarini moviy, sof oltinday sochlarini sariq novvosning dumi qilib ko'rsatdilaring janobimning ko'ziga! Uning go'zal ruxsorini ham o'zgartirdingiz, biroq bu ham sizga ozlik qilibdi. Undan taralib turadigan muattar bo'ylarni badbo'y sarimsoq piyoz hidiga aylantiribsiz. Shunday bo'lsa-da, ont ichaman-ki, qarshimizda olamdagi eng suluv qiz turgan edi.

– Senga ishonaman, do'stim, – dedi don Kixot, – chunki tabiat Dulsineyaga beqiyos husn baxsh etgan. Ammo, Sancho, menga shuni ayt-chi, uning yo'rg'asida oddiy egarmidi yo suyanchiqli egarmidi?

– Yo'g'-e, – dedi Sancho, – bu kalta uzangili, narxi yarim podsholikka teng zarhal yopqichli safar egari edi.

– Men shularni ham ko'rmabman! – dedi alam bilan don Kixot. – Ming bora takror-takror aytamanki, Sancho, men bandalarning eng baxtsiziman.

Aldoqchi Sancho esa o'z xo'jayinining bu bema'ni so'zlarini eshitib, uni ustalik bilan laqillatgani uchun kulgidan o'zini arang tiyib turardi. Nihoyat, ular biroz tinchlanishgach, o'z yo'rg'alariga minib, Saragossa tomon yo'lga tushdilar. Don Kixot bu ajoyib shaharda har yili o'tkaziladigan tantanali bayramlarda qatnashish niyatida edi. Biroq ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan ko'pgina sarguzashtlar yo'lovchilarimizning u yerga yetib borishlariga monelik qilganini kitobxon pastroqda o'qib biladi.

**DON KIXOTNING JASUR RITSAR BILAN G'ALATI  
UCHRASHUVI VA IKKI QUROLBARDORNING  
SHIRIN SUHBATI**

Chuqur o'yga botgan don Kixot go'zal sinora Dulsineyani xunuk bir dehqon ayolga aylantirib qo'ygan sehrgarlarning yovuz hazili haqida xayol surib borardi. U qanday qilib o'z ma'shuqasini asl qiyofasiga keltirish haqida astoydil bosh qotirardi. U o'z o'ylariga shu qadar berilib ketdiki, Rosinantning jilovini qo'yib yuborganini ham sezmedi, ot o'zining erkinligini sezib, har qadamda to'xtab, ko'm-ko'k o'tdan chimdirdi. Sancho xo'jayinining bunday noumidlikka tushganini ko'rarkan, unga biroz dalda bermoqchi bo'lib, shunday dedi:

– Sinor, g'am-qayg'u jonivorlar uchun emas, insonlar uchun yaratilgan, biroq kishilar g'amga haddan tashqari berilib ketsalar, ular ham hayvonga aylanadilar. O'zingizni qo'lga oling, marhamatli janob, ruhingiz tushmasin, es-hushingizni yig'ing, jahongashta ritsarlarga munosib ravishda bardam bo'ling. Bu nima degan gap! Nega shunchalik g'am chekish? Menga desa, olamdagi barcha Dulsineyalarni jin ursin: dunyodagi hamma sehr-jodudan bitta jahongashta ritsarning salomatligi qimmatroq.

– Jim bo'l, Sancho, – uning gapini qahr bilan bo'ldi don Kixot, – senga aytyapman, jim bo'l, sehrlangan go'zal sinoramiz haqida bunday gapirma: uning boshiga tushgan musibatlariga faqat men aybdor. Men o'z qahramonliklarim bilan yovuz dushmanim qudratli sehrgarning qalbida hasad uyg'otganim uchun uning boshiga shunday baxtsizliklar tushdi.

– Men ham shuni aytyapman-da, – javob berdi Sancho, – kimki uning ilgari qandayligi hamda keyin qanday qiyofaga kirib qolganini bilsa, yuragi ag'dar-to'ntar bo'lib ketadi.

– Senga-ku unchalik emas-a, Sancho. Sen uni butun husnu malohati bilan ko'rding-ku, yovuz afsunlar senga ta'sir qilmadi, ko'zlaring tumanlashmadi, uning chiroyi sendan yashirinmadi. Sehrgarning butun kuchi faqat menga qaratilgan edi. Quloq sol,

Sancho. Uning ko'zlari gavharday tiniq, deganing esim-da. Bunday ko'zlar ayollarda emas, balki baliqlarda bo'ladi. Menimcha, Dulsineyaning ko'zlari ikki ko'm-ko'k zumradga, qoshlari esa soya tashlab turgan ikkita peshtoqqa o'xshaca kerak. Gavhar esa, albatta, tishlari. Shunday, Sancho. Sen, ehtimol, adashib uning ko'zlarini tishi deb o'ylagan bo'lsang kerak.

– Shunday bo'lishi ham mumkin, – javob berdi Sancho. – Uning xunukligi sizni qanday hayratda qoldirgan bo'lsa, go'zalligi meni ham shunday hayratda qoldirdi-da. Buni qo'ya turaylik. Bilasizmi, marhamatli janobim, hammadan ham nima ko'proq tashvishga solyapti? Siz bironta devni yo ritsarni yengib, unga sinora Dulsineya huzuriga bor, deb buyurdingiz, deylik. Bu sho'rlik dev yoki yengilgan baxtsiz ritsar qanday qilib uni qidirib topadi? Go'yo mana hozir uning Toboso ko'chalarida tentaklarday sandiroqlab, sinora Dulsineyani axtarib yurganini yaqqol ko'rib turgandayman. U bilan ko'chaning qoq o'rtasida betmabet ro'para kelib qolganida ham, baribir, uni tanimaydi.

– Sancho, ehtimol, sehr-jodu men yenggan dev hamda ritsarlarga ta'sir etmas, – javob berdi don Kixot. – Mana senga ta'sir etmadi-ku, sinora Dulsineyani butun go'zalligi bilan ko'ra olding-ku, axir. Buni amalda sinab ko'rish qiyin emas: dastlab yenggan ritsarlarimni Tobosoga yuboraman hamda qaytib, u yerda nimalar ko'rganini aytib berishini buyuraman. O'shanda butun haqiqatni bilamiz-qo'yamiz.

– Siz buni yaxshi o'ylab topdingiz, sinor, – dedi Sancho. – Bunday hiyla bilan zarur bo'lgan hamma narsani bilib olamiz. Agar sinora Dulsineyaning asl qiyofasi faqat siz marhamatli janobgagina ko'rinmasa, unda kulfat uning boshiga emas, faqat sizning boshingizga tushgan bo'ladi. Ishqilib, u sog'-salomat bo'lsa bas, biz esa yana birorta sarguzasht axtarib, bir yo'lini toparmiz. Qolgan hamma narsani vaqtga havola qilamiz, u – bizning dardimizdan ham og'irroq dardlarni davolovchi tabib.

Shu ko'yi suhbatlashgancha ritsar bilan qurolbardor yo'l-da davom etdilar. Nihoyat, vaqt yarim kechadan oqqanda Sancho ozgina mizg'ib olmoqchiligini aytdi. Yo'lovlaridan tushdilar, Sancho eshagining egarini olib, o'tloqqa qo'yib yubordi. Rosi-



nantning egarini olmadi. Don Kixot unga safar paytida va ochiq havoda tunaganlarida Rosinantning egarini olib qo'yishni qat'iyman qilgan edi. Hammaga ma'lumki, yuganni yechib, egarning qoshiga ilib qo'yish jahongashta ritsarlarga odat bo'lib qolgan, biroq egarni olishdan esa xudo saqlasin! Sancho xuddi shunday qilib, Rosinantni eshak bilan birga o'tlagani qo'yib yubordi. Har ikkala hayvon o'rtasida o'zlariga xos qalin va yagona do'stlik paydo bo'lgan edi. Ot bilan eshak birga bo'lishlari bilanoq bir-birini yalay boshlar, so'ngra charchagan va mamnun bo'lgan Rosinant boshini eshakning bo'yiga qo'yib, o'ychan holda yerga tikilib, toki qorinlari ochmagunicha shu alpozda bir necha soatlab turishaverardi. Ular odamlar orasida ham kamdan kam uchraydigan darajada qalin do'st edilar. Kitobxon muallif odamlarni hayvonlar bilan taqqoslayotgani uchun xafa bo'lmasin, chunki buning xafa bo'ladigan joyi yo'q. Odamlar hayvonlardan ko'pgina foydali saboqlarni olganlar: masalan, itlar odamlarni minnatdorchilik bildirishga, chumolilar ehtiyotkorlikka, fillar odoblilikka, otlar sadoqatlilikka o'rgatganlar va hokazo.

O'z qahramonlarimizga qaytaylik, Sancho kechki ovqatni yeb, ulkan po'kak daraxt tagiga cho'zildi va shu zahotiy oq xurрак ota boshladi, don Kixot esa azim tup eman daraxti tagiga cho'zildi, ko'zi uyquga borib-bormay, orqa tomonda qandaydir shovqinni eshitdi. U o'rnidan irg'ib turib, shovqin qayoqdan kelayotganini bilish maqsadida tikilib qarab, diqqat bilan quloq sola boshladi. Shu vaqt u ikki otliqni ko'rdi. Ulardan biri otdan sakrab tushdi-da, sherigiga dedi:

– Otdan tush, do'stim, otlarning suvlig'ini chiqar: menimcha, bu yerdan ularga shirali o't topiladi, menga esa – muhabbatning shirin xayollarini surish uchun sukunat hamda tanholik darkor.

Shunday qilib, noma'lum kishi o'zini shartta ko'kat ustiga tashladiki, qurol-aslahalari jaranglab ketdi. Don Kixot bu noma'lum kishining jahongashta ritsar ekanligini darhol payqadi. U tosh qotib uxlab yotgan Sanchoga yaqinlashib, qo'lidan tortdi, uni zo'rg'a tebratdi, keyin shivirlab dedi:

– Birodar Sancho, mana sarguzasht ham boshlandi!

– Ilohim, yaxshi sarguzasht bo‘lsin! – dedi Sancho. – Qani o‘sha sarguzasht?

– Boshingni burib qara, – dedi don Kixot, – hov anavi yerda ko‘kat ustida bir jahongashta ritsar yotibdi. Bilishimcha, u uncha xursand emas. U nimadandir xafa bo‘lib, otidan qanday sakrab tushganini hamda yerga yotib olganini ko‘rdim.

– Nega endi marhamatli janoblariga hozir biror sarguzasht sodir bo‘ladigandek tuyuladi? – so‘radi Sancho.

– Sarguzasht sodir bo‘lyapti demoqchi emasman, – dedi don Kixot. – Yo‘q, bu faqat uning boshlanishi, chunki barcha sarguzashtlar shunday boshlanadi. Quloq sol, u udni yo violani<sup>1</sup> sozlayapti, xuddi ashula aytishga hozirlanayotganday tomog‘ini qirib, tupurayotganga o‘xshaydi.

– Gapingiz haq rost, – javob berdi Sancho, – bu oshiq ritsarning o‘zginasi.

– Jahongashta ritsarning oshiq bo‘lmay iloji yo‘q, – dedi don Kixot. – Qani, bir quloq solaylik-chi, uning ashulasidan ko‘nglida nima borligini bilib olamiz.

Sancho o‘z xo‘jayiniga hali javob bermasdanoq no-ma‘lum kishi ashula boshlab yubordi. U o‘rtamiyona kuylardi. Shunday bo‘lsa-da, do‘stlar ashulani e‘tibor berib eshitdilar.

## SONET<sup>2</sup>

*Xonim, sizdan o‘tinchim faqat:  
Xohishingiz aylangiz bayon.  
Bajargumdir uni shu zamon  
O‘tkazmayin zarracha fursat.*

*Yo dildagi alamni shu vaqt  
Ichga yutib, berayinmi jon.  
Qolmasinmi azob ham pinhon  
Amur uni yetkazar albat.*

<sup>1</sup> Viola – katta skripkaga o‘xshagan qadimgi musiqa asbobi.

<sup>2</sup> Sonet – ikkita 4 satrli va ikkita 3 satrli she‘rlardan iborat 14 misrali she‘r.

*Dilda harir kabi hislarim,  
Olmos sabrim hammasi sizga.  
Topshirayin qo'llaringizga*

*G'ussa to'la yurak daftarin.  
Istagingiz yozingiz unga  
To o'lguncha asrayin barin.*

Noma'lum ritsar ashulasini tugatib, oh urdi. Uning ohi qalbining eng ichkarisidan uzilib chiqqanday bo'ldi. Birpasdan so'ng u dardli va g'amgin ovoz bilan gap boshladi:

– O, dunyodagi barcha xotinlarning eng go'zali hamda eng shafqatsizi! Nahotki, sen – Vandallik Kasildeya, o'zingga asir bo'lgan ritsarning abadiy darbadarlikda hamda og'ir, mushkul zahmatlar ostida halok bo'lishiga yo'l qo'ysang? Nahotki, mening buyrug'im bilan hamma ritsarlar: Navarra, Leon, Tarte-siya, Kastiliya va nihoyat lamanch ritsarlari seni olamdagi eng go'zal xonim deb taniganlari senga yetarli emas?

– Bu yolg'on! – deb qichqirdi don Kixot. – Men lamanchlik ritsarman, buni hech qachon tan olgan emasman, tan olmayman ham. Chunki bu mening ma'shuqam sha'niga dog' tushiradi. Ana, ko'ryapsanmi, Sancho, bu ritsar alahlayapti. Mayli, davomini ham eshitaylik, ehtimol, u yanada ravshanroq gapirar.

– Albatta, gapiradi, – dedi Sancho, – aftidan, bir oygacha tinmay qo'shiq aytadigan ko'rinadi.

Biroq ish Sancho o'ylagandan boshqacharoq bo'lib chiqdi. Noma'lum ritsar yaqinroqda kimdir gapirayotganini eshitib, nola-yu iltijolarini to'xtatib, o'rnidan turdi-da, xushmuomalalik bilan dedi:

– Kim bor u yerda? Kimsiz? Xushchaqchaq odamlardanmisiz yo g'am chekuvchilardan?

– G'am chekuvchilardanmiz, – javob berdi don Kixot.

– Unday bo'lsa, menga yaqinroq kelinglar, – dedi noma'lum ritsar, – shuni bilingki, siz qayg'u bilan g'amning timsoli bo'lgan bir kimsaga yaqinlashmoqdasiz.

Bunday do'stona va nazokatli javobni eshitgan don Kixot

yaqinroq keldi, Sancho uning orqasidan yurdi. Nola chekayotgan ritsar don Kixotning qo‘lidan ushlab, dedi:

– Mana bu yoqqa o‘tiring, sinor ritsar, chunki men sizning jahongashta ritsarlar ordeniga mansub ekaningizni fahmlab turibman. Sizni shu yerda tanholik hamda beg‘ubor osmon hamroh bo‘lib turgan joyda uchratganimdan ko‘rinib turibdi bu. Faqat jahongashta ritsargina tunagani mana shunday kimsasiz joyni tanlaydi.

Don Kixot bunga javoban dedi:

– Gapingiz to‘g‘ri, haqiqatan, men shu ordenning ritsariman; ko‘nglimga, xuddi o‘z boshpanasidek, g‘am-qayg‘u hamda kulfat uya qurib olgan, biroq shunga qaramay, qalbmida boshqalarning g‘amiga hamdard bo‘lish uchquni ham so‘nmagan. Sizning azob-uqubatlaringiz hozirgina aytgan ashulangizda nola-yu iltijo qilayotganingiz shafqatsiz malakning muhabbati tufayli tug‘ilgan deb bildim.

Ertalab bir-birlari bilan mushtlashishlarini xayollariga ham keltirmay, yonma-yon o‘tirib, shu alpozda do‘stona suhbatlashardilar.

– Endi menga ayting-chi, sinor ritsar, – dedi noma‘lum ritsar don Kixotga, – siz oshiq emasizmi?

– O, albatta! Baxtga qarshi oshiqman, – javob berdi don Kixot. – Darvoqe, o‘zimizga munosib xonimni sevib, muhabbat azoblarini kulfat deb bilmay, balki lazzat deb hurmatlamog‘imiz lozim.

– Agar o‘sha xonimlarimizning benihoya nafratlari, – dedi noma‘lum ritsar, – aql ham fikrlarimizni xiralashtirmaganda edi, siz tamomila haq edingiz.

– Mening ma‘shuqam hech qachon menga nafrat bilan qaramagan, – e‘tiroz bildirdi don Kixot.

– Albatta, nafrat bilan qaramagan, – tasdiqladi yaqin-ginada turgan Sancho, – chunki bekam qo‘yday yuvosh, momiqday mayin.

– Bu sizning qurolbardoringizmi? – so‘radi noma‘lum ritsar.

– Ha, – javob berdi don Kixot.

– Men o‘z xo‘jayini gapirayotgan vaqtda, – dedi noma‘lum ritsar, – uning gapiga suqilishga jur‘at eta oladigan qurolbardorni hech qachon ko‘rmaganman. Mana, mening qurolbardorim: bo‘yi otasinikidan past bo‘lmasa-da, biroq dadil aytishim mumkinki, u umrida men bor joyda hech qachon gapga aralashmagan.

– Men gapiraveraman, – deb e‘tiroz bildirdi Sancho, – bundaqalar oldida gapirishdan qo‘rqmayman... Xo‘p, mayli, gapimni oxiriga yetkazmay qo‘ya qolay. Jim turishim ham mumkin.

Shunda noma‘lum ritsarning qurolbardori Sanchoning qo‘lidan ushlab, dedi:

– Chekkaroqqa chiqaylik, do‘stim, ko‘nglimizdagilarni xoliroq joyda gaplashaylik, qo‘yaver, sinorlar, xo‘jayinlarimiz bir-birlariga o‘z muhabbatlari haqida so‘zlayverishsin. Ehtimol, ular sahargacha gaplashsa ham, gaplari tamom bo‘lmas.

– Bosh ustiga, – javob berdi Sancho, – siz marhamatli janobimga o‘z zimning kimligimni gapirib beraman, o‘shanda meni ba‘zi mahmadona qurolbardorlar bilan tenglashtirish mumkin emasligini bilib olasiz.

Ular chekkaroqqa chiqib, sershox eman tagiga o‘tirdilar, ularning o‘rtasida qizg‘in suhbat boshlandi.

– Jahongashta ritsarlarning qurolbardorlari bo‘lgan bizlar yengil hayot kechirayotganimiz yo‘q, – dedi noma‘lum ritsarning qurolbardori. – Mana, ter to‘kib halol non yeymiz, bu esa tangri-ning ota-bobolarimiz boshiga solgan tavqi la‘natlaridan biri.

– Xo‘rlik-zorlik tortib yeyayotgan bir burda nonni deb aytishingiz ham mumkin edi, – javob berdi Sancho, – chunki jahongashta ritsarlarning issiq ham sovuqdan azob tortayotgan qurolbardorlaridan baxtsizroq yana kim bor? Biroq shu non doimo bo‘lsa, go‘rga edi-ya, ko‘pincha kun bo‘yi qorningni yel bilan qappaytirib yuraverasan, kishi.

– Biroq bizda in‘om olish umidi bor-ku! – e‘tiroz bildirdi noma‘lum ritsarning qurolbardori. – Buning hammasiga chidash hamda sabr-toqat qilish mumkin, zotan, agar qurolbardor xizmat qilayotgan jahongashta ritsarning ozgina omadi yurishib qolsa,

uning xizmatkori birorta ajoyib orol yoki ko'ngildagidek graflikni in'om qilib olishiga dadil ishonaverishi mumkin.

– O'z xo'jayinimga, men bir orolga hukmronlik qilsam ham bo'laveradi, deb aytganman, – dedi Sancho, – xo'jayinim esa shunday saxovatli hamda saxiyki, orol berishni menga bir necha bor va'da qilgan.

– Agar xizmatlarim evaziga, – dedi ritsar Lesa (yangi ritsarni shunday deb ataymiz)ning qurolbardori, – menga kano-nik rutbasini berishsa ham, roziman. Xo'jayinim menga eng yaxshi cherkov qavmini va'da qilgan.

– Demak, – dedi Sancho, – muhtaram janobimning xo'jayinlari halol qurolbardoriga ana shunday in'omlarni va'da qilgan bo'lsa, u kishi diniy orden ritsarlaridan ekanlar-da. Mening xo'jayinim – dunyoviy odam. To'g'ri, aqlli kishilar uni arxiyepiskop bo'lishga ko'ndirishga urinib ko'rdilar. Yaxshiki, u ko'nmadi, men esa diniy unvon yoqib qolmasa edi deb dahshatdan qaltirab turdim, chunki diniy lavozimlarni bajo keltirishga o'zimni layo-qatsiz deb bilaman.

– Haqiqatan, siz adashyapsiz, marhamatli janob, – e'tiroz bildirdi ikkinchi qurolbardor. – Diniy lavozim ba'zi orollardan serdaromadroq bo'lishi mumkin, negaki hamma orollar ham bir-day emas: ular orasida qashshoq hamda kishini diqqat qilib yuboradiganlari ham bor. Buning ustiga, eng hosildor hamda boy orollar ham ularni boshqarayotgan baxtsiz kishining boshiga og'ir kulfat yuki hamda tashvish soladi. Men o'ylaymanki, qurolbardorlikdan darmoni qurigan siz bilan menga o'xshagan odamlar bu niyatlardan voz kechishimiz foydaliroq. Yaxshisi, xo'jayinlarimizdan hech qanday orol, graflik hamda diniy lavozimlarni kutmay, kelgan joyimizga qaytib, durustroq ish, masalan, ovchilik yoki baliq tutish bilan mashg'ul bo'lganimiz ma'qulroq; har qanday qurolbardorda ham bir-ikki tozi it bilan qarmoq topiladi; o'z qishlog'ida u shug'ullanadgan biror ish topilib qoladi, albatta.

– Bularning hammasi bor menda, – javob berdi Sancho, – faqat otim yo'q; biroq xo'jayinimning otidan ko'ra yaxshiroq eshagim bor. Tangri yaqinlashib kelayotgan hayitdan benasib

qilsa qilsinki, ustiga to'rt paqir arpa berganda ham, eshagimni uning otiga alishmayman. Agar eshagimning fazilatlarini sanay boshlasam, siz marhamatli janob meni hazillashyapti deb o'ylaysiz. Tozilar ham bermalol topiladi, axir qishlog'imizda ularning tagi mo'l, birovning hisobiga ov qilishning esa gashti o'zgacha bo'ladi.

– Ont ichib aytamanki, sinor qurolbardor, – deb javob qildi Sanchoga uning suhbatdoshi, – men bu bema'ni ritsarlik xizmatlarini tashlab, o'z qishlog'imga qaytishga ahd qildim, – uchta bolam bor, hammasi ham sharq gavharlariga o'xshaydi.

– Menda esa ikkita, – dedi Sancho, – shunday ajoyib bolalarki, ularni, ayniqsa qizimni saroyga – papaning huzuriga olib borishga ham tortinmaydi kishi. Onasining qarshiligiga qaramay, xudo xohlasa, uni grafnya qilmoqchiman.

– Grafnya, bo'lajak sinoraning yoshi nechada? – so'radi Lesaning qurolbardori.

– O'n beshga borib qoldi, ammo bo'y-basti nayza tengi, musaffo bahor tongidek so'lim, kuch-quvvatda barkamol. Men parvardigori olamdan tezroq bola-chaqam bilan diydor ko'rishish, kechirilmas gunohdan qutqarishni yoki xavfli qurolbardorlik xizmati (bu ham o'shaning o'zi)dan xalos etishni iltijo qilaman. Men bu hunarni bir marta qilib ko'rgandim, ikkinchi marta qilishga istagim yo'q edi. Meni o'tgan safar kimsasiz Siyerra Morena darasidan topib olganim oltin tangalar to'la ham yon yo'ldan ozdirdi. O'shandan beri shayton meni oltin tangalar bilan havasimni qo'zg'aydi. Oltinlar ko'z oldimdan sira nari ketmaydi, har damda bir xalta oltin topib olib, bag'ringa bosayotganga hamda uyga olib borib, yer sotib shahzodalarday kun kechirayotganga o'xshayman. Shu haqda o'ylarkanman, aqldan ozgan xo'jayinimning qo'lida xizmat qilayotib boshimga tushgan azob-uqubatlarga qiynalmay bardosh beraman. Chunki, vijdonan aytganda, xo'jayinim ritsardan ko'ra tentakka ko'proq o'xshab ketadi.

– Shuning uchun ham, – dedi ikkinchi qurolbardor. – «Mening nafsim balodur, yonar o'tga solodur», deganlar. Gap tentaklar haqida boradigan bo'lsa, men sizga aytsam, olamda

mening xo'jayinimdan ahmoqroq odamni topib bo'lmaydi. U muruvvatidan eshak harom o'ladigan qabilidagi odamlardan. O'zingiz o'ylab ko'ring, bir ritsarning aqlini kirgizguncha o'zi aqldan ozdi hamda oqibati, avvalo, o'zi uchun yomon bo'ladigan narsani axtarib ketdi.

– Ehtimol, u birortasini sevib qolgandir? – so'radi Sancho.

– Ha, – javob berdi noma'lum ritsarning xizmatkori, – u Vandallik Kasildeya degan xonimni sevadi, bunaqa fe'li tez sinorani olamni izlasangiz, topolmaysiz. Har qalay, bu bilan uni qo'rqitilmaysiz. Uning miyasi har xil niyat hamda makrga to'lib yotibdi. Siz tezda bunga ishonch hosil qilasiz.

– Har to'kisning bir aybi bor, – dedi Sancho. – Boshqalarnikida «tosh qizig'i» goh-goh bo'lsa, menikida har kuni. Donolikdan tentaklik ko'proq bo'larkan. Bebaxt do'stlar uchrashsa, mushkul osonlashar qabilidagi maqol haq bo'lsa, demak, siz marhamatli janob bilan suhbat qurganimdan mamnunman, zotan, siz xizmatini qilayotgan ritsar ham mening xo'jayinimday tentak ekanligi meni ovutadi.

– U tentak bo'lsa ham, juda dovyurak, – e'tiroz bildirdi sherigi, – tentaklik hamda botirlikdan ko'ra unda ayyorlik ko'proq.

– Lekin mening xo'jayinim unaqa emas, – javob berdi – Sancho, – unda hiyla-makrdan nishona ham yo'q. U ko'nglida kiri yo'q odam, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydi, hammaga yaxshilik qiladi. Unda zarracha ham ayyorlik yo'q; har qanday yosh bola ham qoq peshin paytida hozir kechasi deb uni ishontira oladi. Mana shu soddadilligi uchun uni chin ko'nglimdan yaxshi ko'raman, har qanday telbaliklariga qaramay, uni tashlab ketolmayman.

– Shunday bo'lsa ham, birodarim sinor, – e'tiroz bildirdi ritsar Lesaning xizmatkori, – bir ko'r ikkinchisini yetaklasa, ikkovining ham chuqurga yiqilish xavfi tug'iladi. Sarguzasht axtaruvchilar ba'zan ko'ngilsiz, hatto xavfli sarguzashtlarga ham duch kelib qoladi. Shuning uchun ham ritsarlarimizni tashlab, uyga qaytganimiz ma'qul emasmikin?

Suhbat davomida Sancho dam o'tmay tupurib o'tirdi. She-



rigi buni sezib, dedi:

– Gapni nihoyatda ko‘p gapirganimizdan tilimiz tanglayimizga yopishib qolganga o‘xshaydi deyman. Andak sabr qiling, birodar: egarimning qoshiga bunday paytlarda asqatadigan dori ilib qo‘yibman.

U o‘rnidan turdi va hayal o‘tmay kattagina bir meshda vino bilan uzunligi bir gaz keladigan pirog<sup>1</sup> olib qaytdi. Pirogining ham ichiga shunday kattakon quyon o‘rab pishirilibdiki, Sancho uni ushlab ko‘rib, bu quyon emas, echki deb o‘yladi. Bunday to‘kin ziyofatni ko‘rib, u so‘radi:

– Sinor, shunaqa taomlarni doim olib yurasizmi?

– Siz nima deb o‘ylovdingiz? – javob berdi u. – Men allaqanday past qurolbardorlarga o‘xshaymanmi? Mening otimga yuklangan oziq-ovqatlarni bironta general ham safarda olib yurolmaydi.

Sancho mezbbonni qistatmay, mushtday-mushtday bo‘laklarni og‘ziga solib, shosha-pisha yutinarkan, dedi:

– Bu ertaklardagidek antiqa ziyofatingizdan ko‘rinib turibdiki, siz, marhamatli janob, halol, sadoqatli qurolbardor ekan-siz. Men baxtsizning ko‘rgan kunim qursin: xaltamda bori-yo‘g‘i bir urganda har qanday devning ham kallasini yorib yuboradigan bir bo‘lak qattiq pishloq, ozgina yong‘oq hamda bir boylam shirin po‘stloq bor, xolos. Chunki mening xo‘jayinim jahongashta ritsarlar quruq meva hamda dalada o‘sadigan giyohdan boshqa narsa yemasliklari kerak, degan qoidaga amal qiladi.

– Nomusimni o‘rtaga qo‘yib ont ichaman, birodar, – e‘tiroz bildirdi boshqa qurolbardor, – mening oshqozonim yong‘oq, yovvoyi nok va o‘rmondagi o‘simlik tomirlariga muvofiqlashmagan. Xo‘jayinlarimizning ko‘ngliga nima ma‘qul kelib, qanday qoidalarga amal qilishsa, qilishaversin, xaltamda doimo yaxna go‘sh, egarimda vino to‘la mesh ilig‘liq bo‘ladi. Men uni shu qadar yaxshi ko‘ramanki, ba‘zan bag‘ringa ham bosib olaman.

<sup>1</sup> Pirog (ruscha: pirog – «bazzm, ziyofat») – qiyma, meva, qiyom va shu kabilar solib, duxovkada pishiriladigan shirinlik.

Shunday soʻzlar bilan u meshni Sanchoning qoʻliga berdi, u esa meshning ogʻzini ogʻziga qoʻyganicha, yulduzlarga boqib, chorak soatcha yotdi. Ichib boʻlgach, boshini yon tomonga qiyshaytirib, ogʻir xoʻrsingan holda dedi:

– Juda ajoyib vino ekan-da, birodar. Aziz avliyolar hurmati, menga ayting-chi, sinor, vinongiz Syudad Real vinosidan emasmi?

– Siz vinoning piri ekansiz! – xitob qildi unisi. – Bu, haqiqatan, oʻsha yerning vinosi, oʻziyam juda koʻp yillik.

– Xoʻsh, vino masalasida, – dedi Sancho, – hech qachon adashmayman. Shuni bir tasavvur qilib koʻring-a, sinor qurolbardor, men vino borasida shunday qobiliyatga egamanki, faqat hidlasam, kifoya – oʻsha zahotiyoyq qaysi viloyatning vinosi, sifati qanaqa, mazasi qanday, necha yillik ekanligini aytib bera-man. Har holda, ajablanadigan joyi yoʻq, mening avlodimdan vinoni biluvchi ikki kishi boʻlgan. Lamanchda koʻp yillar mo-baynida bunaqa odamlar boʻlmagan. Quloq soling, bir kuni ular bilan shunday hodisa sodir boʻlibdi: kunlardan bir kuni ularga bochkadan tatib koʻrgani vino quyib berishibdi hamda uning fazilati, nuqsonini aytib berishlarini iltimos qilibdilar. Birinchisi vinoni tilining uchi bilan tatibdi, ikkinchisi faqat hidlab koʻribdi, xolos. Birinchisi vinodan temirning mazasi kelyapti desa, ikkin-chisi charmning hidi anqib turibdi debdi. Xoʻjayin esa bochka top-toza, birinchi marta vino solingan boʻlsa, undan qanaqasiga temir yoki charm hidi kelishi mumkin, debdi. Biroq har ikkala mashhur vino tanuvchi oʻz soʻzida qattiq turishibdi. Oradan biroz vaqt oʻtgach, vino sotilib, bochkani boʻshatishganda uning ichidan charm ipli kalit chiqibdi. Endi tushunyapsizmi, marha-matli janob, bunday toifadagi odam vino haqida biron narsa biladi.

– Nima ham derdim, – javob berdi ikkinchi qurolbardor, – shuning uchun ham biz hech qanday sarguzashtga aralash-masligimiz kerak deb hisoblayman. Uzoqdagi dumbadan yaqin-dagi oʻpka yaxshi emasmi? Yaxshisi, oʻz kulbamizga qaytave-raylik, xudo beraman desa, oʻsha yerda ham marhamatini aymayadi bizdan.

– Men o‘z xo‘jayinimni Saragossagacha kuzatib borishim kerak, – dedi Sancho, – yana o‘sha yerda nima qilishimizni o‘ylab ko‘ramiz.

Nihoyat qadrdon qurolbardorlarimiz shunchalik ko‘p gapirib, ko‘p ichishibdiki, oqibatda uyqu ularning tilini bog‘lab qo‘ydi. Tishlagan piroglari og‘zilarida qoldi, deyarli bo‘shagan meshni quchoqlaganlaricha uxlab qolishdi. Endi bularni qo‘yib, noma‘lum ritsar bilan G‘amgin Qiyofa ritsar nimalar haqida suhbatlashganini kitobxonga ma‘lum qilib o‘taylik.

### *O‘TTIZ TO‘QQIZINCHI BOB*

## **NOMA‘LUM RITSAR VA UNING QUROLBARDORINING ASLIDA KIMLAR EKANLIGI ANIQLANGANI**

Noma‘lum ritsar don Kixot bilan uzoq suhbatlashgandan so‘ng nihoyat shu narsaga iqror bo‘ldi:

– Sinor ritsar, sizga ma‘lum bo‘lsinki, falakning gardishi bilanmi yo, aniqrog‘i, o‘zinning did-farosatim bilanmi husn bobida tengi yo‘q Vandallik Kasildeyani yaxshi ko‘rib qoldim. Shuning uchun ham tengi yo‘q deb aytayotirmanki, bo‘ychanlikda ham, zotining ulug‘ligida ham, husnda ham hech kim u bilan tenglasholmaydi. Mening toshbag‘ir, mag‘rur Kasildeyam Gerkulesning o‘gay onasiday<sup>1</sup> menga ko‘pgina qahramonliklar ko‘rsatishni amr qildi. Bir sinovdan g‘alaba bilan o‘tgan paytimda, bundan keyingi sinov oxirgisi, unda ham g‘alabaga erishsam, o‘shanda sadoqatim uchun meni taqdirlashini aytdi. Biroq qahramonliklarim bir-biriga ulanib ketyapti, ularning hisobidan ham adashdim, sinovlarim qachon tamom bo‘lishini ham bilmay qol-

---

<sup>1</sup> Gerkulesning o‘gay onasi. – Gerkules (Gerakl) – Zevs va Alkmenaning o‘g‘li, qadimgi yunon rivoyatlarining eng mashhur qahramonlaridan biri. Gerkules jismonan kuchliligi va mardligi bilan ajralib turardi. Servantes uning o‘gay onasi haqida so‘zlar ekan, aftidan, Liviya malikasi Omfalani nazarda tutadi. Malika uni sevib qolgan Gerkulesni qator xatarli va uni kamsitadigan ishlarni bajarishga majbur qiladi.

dim. Bir kuni u menga Sevilya pahlavoni Xiraldani<sup>1</sup> yakkama-yakka jangga chaqirishni amr qildi. Boshqa safar esa, ritsarlardan ko'ra yuk tashuvchilarga munosibroq ish – Gisandoningazamat tosh buqalarini<sup>2</sup> ko'tarib, tarozida tortishni buyurdi. Undan keyin esa Kabra tog'idagi tubsiz jarlikka<sup>3</sup> o'zimni tashlashni, keyin u zimiston jarlikda nimalar ko'rganimni so'zlab berishni amr qildi. Men barcha qahramonliklarni o'rinlatdim: Xiraldani ham yengdim, Gisando buqalarini ham ko'tardim. Kabra jarligiga ham o'zimni tashladim. Ko'rdingizmi? Bularning hammasi u kishiga ozlik qilyapti. Yaqinda u menga Ispaniyaning hamma viloyatlarini kezib chiqish hamda yo'limda uchragan barcha jahongashta ritsarlarni o'zining husn bobida olamdagi ayollar orasida yakka-yu yagona ekanini, mening esa jasur hamda dunyoda eng kelishgan oshiq ritsar ekanimni tan olishga majbur qilishimni topshirdi. Uning istagini bajo keltirib, butun Ispaniyani kezib chiqdim, menga qarshilik ko'rsatishga jur'at qilgan ko'pgina ritsarlarni yengdim. Hammasidan ham shuhrat qozongan ritsar lamanchlik don Kixotni yakkama-yakka jangda yengib, uning Dulsineyasidan mening Kasildeyam go'zal ekanligiga uni iqror bo'lishga majbur qilolganim bilan faxrlanaman. Menimcha, birgina shu g'alabaning o'zi dunyodagi barcha ritsarlar ustidan qozonilgan g'alabaga teng keladi, chunki men sizga hikoya qilayotganim don Kixot ularning hammasini yenggan, shunday ekan, men uni yengibmanmi, demak, unga tegishli shon-shuhrat, ulug'vorlik ham meniki bo'ladi.

*G'animlarning shavkati bo'lsa qancha yuqori,  
G'olibning ham shunchalik baland bo'lar viqori.*

---

<sup>1</sup> Bahaybat Xiralda – zafar nishonasi sifatida Sevilya ibodatxonasi bosh minorasiga o'rnatilgan katta bayroq.

<sup>2</sup> Gisandoning tosh buqalari – Madrid yaqinidagi Gisando qishlog'ida toshdan beo'xshov yo'niilgan beshta katta haykal. Ularni kim, qachon yasagani noma'lum. Servantes zamonasida bu haykallar Ispaniyaning diqqatga sazovor yodgorliklaridan hisoblanardi.

<sup>3</sup> Kabra tog'idagi tubsiz jarlik – Kordova yaqinida bo'lib, uning chuqurligi yuz ellik metrga yaqin keladi. Kabra jarligi ilgari vaqtlarda tevarak-atrofida yashovchi aholiga xurofiy dahshat solgan.

Don Kixot noma'lum ritsar yolg'on gapirayotgani uchun qichqirib, uning gapini ming martacha bo'lishga hozirlanib, ajablanib quloq soldi. Biroq u sabr qildi; yolg'on gapirayotganiga suhbatdoshining o'zi iqror bo'lishini xohladi. Shuning uchun u xotirjamlik bilan javob qaytardi:

– Ehtimol, marhamatli zot sinor ritsar, Ispaniyaning, hatto butun jahonning jahongashta ritsarlarini yenggandirsiz. Bu xususda siz bilan tortishib o'tirmayman. Lekin lamanchlik don Kixotni yengganligingizga shubhalanaman. Darhaqiqat, unga o'xshash odamning topilishi amri mahol bo'lsa-da, ehtimol, siz o'shanga o'xshash biror boshqa odamni yenggan bo'lsangiz kerak.

– Qanaqasiga boshqa odamni! – qichqirdi ritsar Lesa. – Samo haqqi ont ichamanki, yakkama-yakka jangda xuddi don Kixotning o'zi bilan olishdim, uni yengdim hamda mendan shafqat so'rashga majbur qildim. Xohlaysizmi, men uning qaddiqomati va tusi qanaqaligini tasvirlab beraman. U – novcha, oriq hamda beso'naqay, qotma yuzli, qirg'iyburun: sochlari moshguruh, mo'ylovi qora, pastga osilgan odam. U ritsar G'amgin Qiyofa nomi bilan jang qiladi, uning qurolbardori Sancho Pansa ismli dehqon; biqinini qisib yuradi. Ostida Rosinant nonli ot, niloyat, uning ma'shuqasi bir vaqtlar Aldonsa Lorenzo deb atalgan Tobosolik Dulsineyadir. Basharti siz hozirgacha gaplaringa ishonmayotgan bo'lsangiz, mana qilichim: u ishonmaslik timsoli bo'lsangiz ham, ishonishga majbur qila oladi.

– O'zingizni bosing, sinor ritsar va so'zlarimga quloq soling, – dedi don Kixot. – Dastavval, siz gapirayotgan don Kixot mening eng yaqin do'stim ekanligini bilib qo'ying. Biz shu qadar qadrdonmizki, u bilan men bir odamdaymiz. Siz o'sha ritsarni shunchalik aniq ta'rifladingizki, zotan, o'shaning xuddi o'zini yengganingizga ishonishim kerak. Biroq ko'zlarim bilan qo'llarim buning tamoman aksini aytib turibdi. Bironta dushman sehrgar bu shuhrat qozongan ritsarning qiyofasiga kirib, uning ustidan g'alaba qozonishingizga hamda olamshumul shuhratidan mahrum qilishga imkon bergan deb taxmin qilish qoladi, xolos. Bir necha kun burun ular bekorga go'zal Tobosolik Dulsine-

yaning qiyofasini o'zgartirib, qo'pol hamda beso'naqay dehqon ayolga aylantirmagan. Ulardan birontasi don Kixot qiyofasiga kirib, uning ustidan g'alaba qozonishingizga imkoniyat tug'dirgani ehtimoldan xoli emas. Mabodo so'zlarimga ishonmasangiz, mana, qarshingizda don Kixotning o'zi turibdi. U buni qo'lda qurol bilan, qanday xohlasangiz, o'shanaqasiga: piyoda yo otda jang qilib ko'rsatib qo'yadi.

Shunday deya u sakrab o'nidan turdi va qilichiga qo'l uzatdi. Suhbatdoshi ham o'midan turib, xotirjamlik bilan javob berdi:

– Yaxshi qarzdor, sinor don Kixot, garov qo'yishdan hech qachon qo'rqmaydi. U kim bo'lishidan qat'i nazar, sizning qiyofadoshingizni yenggan odam o'zingizni ham yengishdan umidvordir. Biroq hozir tun, o'g'ri ham qaroqchilarga o'xshab qorong'ida jang qilish ritsarlar sha'niga munosib emas. Shu sababli tong otishini kutaylik; toki ko'rsatadigan jasoratimizga quyosh guvoh bo'lsin. Biroq mening yakkama-yakka olishuv oldidan zaruriy shartim bor, mag'lub g'olibning irodasiga, agar unda ritsarning sha'nini yerga uradigan hech gap bo'lmasa, bo'y-sunishi kerak.

– Shartingizni qabul qilaman, – dedi don Kixot.

Shundan so'ng ikkovi vinoli mesh oldida dong qotib uxlab yotgan qurolbardorlari oldiga jo'nadilar. Ritsarlar ularni uyg'otib, otlarni hozirlashni buyurdilar, chunki sahar paytida ular o'rtasida ko'z ko'rib quloq eshitmagan, qonli, dahshatli jang bo'ladi. Bu xabarni eshitib Sancho tashvishga tushdi, noma'lum ritsarning qurolbardori o'z xo'jayinining qahramonliklari haqida shuncha gapirdiki, u don Kixotning hayoti uchun chinakamiga xavfsiradi. Shunday bo'lsa-da, ikkala qurolbardor bir og'iz ham gapirmay, bir-biri bilan do'stlashib, birga o'tlayotgan otlar tomon ketdilar.

Yo'lda ritsar Lesaning qurolbardori Sanchoga dedi:

– Sizga shuni ma'lum qilamanki, birodar, bizda, Andaluziyada ritsarlar jang qilayotganda ularning qurolbardorlari qo'l qovushtirib, tek turadigan odat yo'q. Shuni bilib qo'yingki, xo'jayinlarimiz yakkama-yakka jang qilayotganda biz

ham olishishimiz kerak.

– Bu odat, sinor qurolbardor, – javob berdi Sancho, – faqat urishqoqlargagina yoqadi, jahongashta ritsarlarning qurolbardorlariga esa aslo aloqasi yo‘q. Xo‘jayinim jahongashta ritsarlik qonun-qoidalarini yoddan bilishiga qaramay, bunga o‘xshash odatlar haqida, loaqal, bir marta ham gapirmagan. Xo‘p, buning hammasi to‘g‘ri ham bo‘lsin; o‘z xo‘jayinlari yakkamayka jang qilayotgan paytda qurolbardor ham urishadi degan qoida, haqiqatan, bor deylik, baribir, buni bajarmaslikni afzal ko‘raman. Men, yaxshisi, tinchliksevar qurolbardorlarga solinadigan jarimani ustamasi bilan to‘lashga roziman. Ishonamanki, bu ikki funt shamning bahosidan ham oshmaydi, men bu ikki funtni bajonidil beraman: u jarohat bog‘lanadigan titilgan ip bilan bintga qaraganda arzonroqqa tushadi. Men hozirdanoq o‘zimni peshonam yorilganday his qilayotirman. Bundan tashqari, mening qilichim yo‘q, umrim bino bo‘lib taqmaganman ham.

– Buning ham chorasini topamiz, – dedi ikkinchi qurolbardor, – o‘zim bilan ikkita bir xil qop olganman; siz bittasini, men bittasini olaman, bir xil qurol bilan urishaveramiz.

– Mayli, bunisiga roziman. Bunaqa jangda yarador ham bo‘lmaydi. Biz bir-birimizning changimizni qoqamiz, xolos, – javob berdi Sancho.

– Yo‘q, juda ham bunchalik emas, – e‘tiroz bildirdi unisi. – Shamol qoplarimizni uchirib ketmasligi uchun ichiga olti donadan silliqqina tosh solamiz. Ana shundagina bir-birimizning hayotimizga hech qanday tahdid solmaydigan hamda bu ko‘ngilli uchrashuv uzoq esda qoladigan qilib tushiramiz,

– Buni qarang-a, otamning kuli ko‘kka sovurilaversin-e, – xitob qildi Sancho, – boshimiz omon qolishi, suyagimiz tolqon bo‘lmasligi uchun qopni qanaqa momig‘-u paxta bilan to‘ldirarkanlar-a. Yo‘q, yo‘q! Qopingizni ipak pilla bilan to‘ldirganingizda ham, baribir, urishmayman. Rosa ahmoqni topibsiz-u! Xudo xo‘jayinlarimizga kuch-quvvat bersin, o‘zlari urishaverishsin, biz esa huzur qilib yeb-ichib o‘tiraveramiz. Vaqt o‘zi umrimizni qisqartirish uchun jon kuydiradi, ajalimizdan besh kun burun o‘lishga shoshilishimizning nima hojati bor?

– Har holda, – yana e'tiroz bildirdi ikkinchi qurolbardor, – hech bo'lmasa, yarim soatgina urishishimiz kerak.

– Aslo! – javob berdi Sancho. – Nega siz bilan urishaman? Hozirgina birov bilan osh-qatiq bo'lib, darrov janjal chiqaradigan ko'mamak nodonlardan emasman. Buning ustiga, siz meni biron vajdan xafa ham qilganingiz yo'q.

– E, ish bunga qarab qolmaydi, – dedi u. – Xo'jayinlarimiz jangga kirishganda, men siz marhamatli janobga yaqinlashib, uch yo to'rt tarsaki tushiraman. Ana shunda sug'urdek<sup>1</sup> dong qotib uxlayotgan bo'lsangiz ham, ehtimol, g'azabingiz qo'zg'ab ketar.

– Bunday iltifotga, – javob berdi Sancho, – men ham hozirjavoblik bilan javob qaytaraman: siz marhamatli janob g'azabimni qo'zg'ashga ulgurmaslaridanoq qo'limga tayoq olib, shunday tushiramanki, g'azabingiz bosilib, u dunyoga borganda qo'zg'almasa deyman. Men qitiq patimga tegdirib o'tiradigan odamlardan emasman. Hamma o'ng qulog'i bilan ham, chap qulog'i bilan ham eshitib qo'ysin, eng muhimi, hech kim o'z yaqinini g'azablantirmasin. Birovning ko'nglida nima borligini hech kim bilmaydi-ku, axir. Ba'zan qo'yning junini qirqtirmoqchi bo'lsang, o'zingning soch-soqolingni qirtishlab qo'yi-shadi. Hatto bechora mushukning ham g'ashiga tegib, burchakka qisib borsangiz, sherday olishadi. Axir, men odamman-ku, agar mening g'ashimga tegilsa, qo'limdan nimalar kelishi bir xudoning o'ziga ayon. Shuning uchun siz marhamatli janobga, sinor qurolbardor, oldindan aytib qo'yyapman; bizning olishuvimizdan yetadigan zarar hamda qusurlar uchun javob berasiz.

– Xo'p, mayli, – dedi u, – kechasi yotib o'yla, ertasi turib so'yla, deydilar.

Bu orada daraxtlarda minglarcha rang-barang qushchalar sayray boshladi. Ular o'z qo'shiqlari bilan chehrasidan zarrin soch tolalariday nur taralib, sharq tomonda oqarib kelayotgan go'zal tongni tabriklayotganga o'xshardi. Tongni qarshilab tollar

---

<sup>1</sup> Sug'ur – tiyinlar oilasiga mansub, bo'yni kalta, ko'zi katta, mo'ynali kemiruvchi sutemizuvchi hayvon.



chak-chak shirin mannasini<sup>1</sup> to'kar, chashmalar kular, ariqchalar chuldurar, o'rmonlar shod-xurram chayqalar, dalalar yana ham ko'm-ko'k bo'lib yashnardi.

Biroq bu ko'z quvontiradigan tong Sancho Pansaga xursandlik baxsh etmadi. Dastlab, tong yorishishi bilan noma'lum ritsar qurolbardorining haddan tashqari katta burniga ko'zi tushdi. Bu bahaybat burun nafarmon rangda bo'lib, o'rtasi bukir, hamma yog'i so'galga to'la edi; burunning uchi og'zidan ikki enlik pastga tushib turar, bundan qurolbardorning qiyofasi shunchalik jirkanch ko'rinardiki, Sancho xuddi tutqanog'i tutib qolgan boladay qaltirab ketdi. U o'sha zahoti bu maxluq bilan mushtlashish u yoqda tursin, hatto uning achchig'ini keltirib qo'yishdan ko'ra ikki yuz shapaloq yeyishga ham rozi bo'lmoqchi bo'ldi.

Don Kixot ham o'z navbatida raqibiga qaradi, biroq u allaqachon siparini tushirib olgani uchun ritsarimiz uning yuzini ko'ra olmadi. Faqat noma'lum kishining kaltabaqay, o'rta bo'y odam ekani ko'rinib turardi. Sovuti ustida yopinchiq bo'lib, go'yo asl zar iplaridan to'qilganday edi, yarim oy shaklidagi hisobsiz kichkina oynachalar bilan bezatilganligi uchun yopinchiq'i haddan tashqari nafis hamda salobatli ko'rinardi. Uning dubulg'asidan yashil, sariq, oq rangdagi ukparlar hilpirab turardi; uning kattakon nayzasi daraxtga suyab qo'yilgan edi.

Don Kixot bularning hammasiga diqqat bilan razm solarikan, raqibim juda kuchli bo'lsa kerak, degan qarorga keldi. Biroq bu narsa uni zarracha bo'lsin dahshatga solmadi; aksincha, u ritsar Lesaga mensimay hamda dadil murojaat qildi:

– Basharti jangovarlik g'ayrati, jo'sh urib turgan siz marhamatli janobga malol kelmasa, sinor ritsar, siparingizni ko'tarishingizni hamda yuzingizda ham butun qiyofangizdagi singari jasorat belgilari namoyon ekanini ko'rishga ijozat berishingizni iltimos qilaman.

– Jangimiz qanday tugamasin, sinor ritsar, – xoh siz ye-

---

<sup>1</sup> **Manna** – ko'pgina O'rta yer dengizi daraxdari, ayniqsa, terak va tollarning po'stloqlaridan chiqadigan chuchuk va hidli sharbat. Manna quriy boshlagach, daraxt po'stlog'ida dog' va oppoq quyilma qoldiradi.

nging, xoh yengiling, baribir, meni ko'rishga yetarli vaqtingiz bo'ladi, – javob berdi ritsar Lesa. – Biroq hozir istagingizni qondira olmayman: menimcha, siparimni ko'tarib vaqtni behuda sarflaydigan bo'lsam, go'zal Vandallik Kasildeyani oshkora xafa qilgan bo'laman. Mening ishim uning boshqa hamma xonimlardan afzal ekanligiga sizni darhol iqrор qilishdir.

– Har holda, – e'tiroz bildirdi bizning ritsar, – gapingiz bo'yicha siz yenggan o'sha ritsar, haqiqatan ham, men – lamanchlik don Kixot ekanligimni ta'kidlashga majbursiz.

– Bu gapingizga shunday javob beraman, – dedi ritsar Lesa, – siz men yenggan ritsarga bir olmaning ikkinchi pallasidek o'xshaysiz. Biroq aytganingizday, sizni, ritsar lamanchlik don Kixotni yovuz sehrgar ta'qib qilib yurgan ekan, o'sha odam bilan sizning bir kimsa ekanliklaringizni isbotlab o'tirmayman.

– Sizning adashayotganingizga shuning o'zi yetarli, – dedi don Kixot, – biroq otlarimizni keltirishlari bilanoq bu narsa yanada oydinlashadi; tangrining, ma'shuqam hamda qilichimning yordamida yuzingizni ko'rish uchun menga siparingizni ko'tarishga zarur bo'lgan vaqtdan ham ozroq vaqt kerak bo'ladi. Ana o'shandagina siz yenggan ritsar men emasligimga ishonasiz.

Shu bilan gap tamom bo'ldi. Ular otlariga minishdi, don Kixot o'z raqibiga hamla qilayotganda ko'ngildagidek ot qo'yish uchun Rosinantni orqaga burdi; ritsar Lesa ham shunday qildi. Don Kixot yigirma qadamcha yurishga ham ulgurmay, ritsar Lesa unga qichqirdi:

– Shartimiz esingizda bo'lsin, sinor ritsar, mag'lub bo'lgan o'zini g'olibining ixtiyoriga topshiradi.

– Esimda, – javob berdi don Kixot, – biroq g'olib mag'lubga ritsarlik qoidalariga zid keladigan narsalarni buyurmaydi.

– Albatta, – dedi ritsar Lesa.

Shu payt don Kixotning ko'zi qo'qqisidan qurolbardorning g'alati burniga tushib qoldi, uning kattaligi hamda rangini ko'rib Sanchodan ham battar hayratga tushdi. U buni ertaklarda tasvirlangan qandaydir maxluq yo hali hech qayerda uchramagan yangi odam jinsidan bo'lsa kerak degan qarorga keldi. Sancho esa, don Kixotning bir chekkaga ketayotganini ko'rib, o'zi bilan

janjal chiqarmasligi uchun burni katta odam bilan yolg'iz qolishni istamadi. Shuning uchun u xo'jayini orqasidan dikonglab yugurdi. Don Kixot Rosinantni orqaga qaytarib, o'z raqibiga tashlanishga fursat yetgan bir paytda Sancho qichqirib qoldi:

– Yalinaman, marhamatli janobim, raqibingizga qarshi tashlanishdan oldin mening manavi emanga chiqib olishingga yordamlashib yuborsangiz. Bu yerdan anavi ritsar bilan yakka-yakka olishuvingizni yaxshiroq kuzataman.

– To'g'risini aytganda, Sancho, – javob berdi don Kixot, – balandga – so'riga chiqib olib, buqalar jangini xavf-xatarsiz bemalol tomosha qilmoqchisan-da.

– Rostini aytsam, – dedi Sancho, – anavi qurolbardorning bahaybat burni ko'nglimga shunchalik vahima solyaptiki, u bilan yolg'iz qolishdan qo'rqayotibman.

– Ha, uning burni shunaqa ekan, – dedi don Kixot, – agar don Kixot bo'lmaganimda, men ham qo'rqan bo'lardim. Mayli, bu yoqqa kel, daraxtga chiqib olishingga yordamlashib yuboraman.

Don Kixot o'z qurolbardorini emanga o'tqazib bo'lgunicha ritsar Lesa kerakli masofaga borib oldi. U don Kixot jangga tayyor deb o'ylab, otini orqaga burib, raqibi ustiga ot soldi. Biroq don Kixotning Sanchoni daraxtga o'tqazayotganini ko'rib, yuganni tortib, yarim yo'lda to'xtadi. Ammo don Kixotga raqibi bostirib kelayotganday bo'lib tuyuldi. Shuning uchun u shiporlarini Rosinantning oriqliq biqiniga shunchalik jon-jahdi bilan qadadiki, ot umrida birinchi marta yelib ketdi. Otini uchirib kelayotgan don Kixotni ko'rgan ritsar Lesa Rosinantdan ham ham oppoq otini bor kuchi bilan niqtay boshladi.

Biroq ot o'jarlik qilib, joyidan jilishni istamadi; u o'jarlik qilayotgan ot bilan ovora bo'lib turganda don Kixot unga shunday shitob bilan tashlandiki, bechora ritsar hatto nayzasini jangga hoziray olishga ham ulgurmadi. U ko'krigidan qudratli zarba yeb, ot sag'risi osha yerga shu qadar gursillab tushdiki, o'lgan odamday qo'lini ham, oyog'ini ham qimirlatolmay qoldi.

Sancho don Kixotning raqibi qulaganini ko'rgan zahoti emandan tusha solib, hovliqqancha xo'jayini tomon yugurdi.

Don Kixot Rosinantdan sakrab yerga tushdi, ritsar Lesa yoniga chopib kelib, uning o'lgan-o'lmaganini bilish maqsadida dubulg'asini yecha boshladi, birdan... U kimni ko'rganligini kitobxonda ajablanish, hayrat va vahima tug'dirmasdan qanday gapirish kerak? U bakalavr Samson Karraskonikiga o'xshash yuz, qiyofa, siymoni ko'rdi! Hayratdan o'zini yo'qotib qo'yayozgan don Kixot qichqirdi:

– Yugur bu yoqqa, Sancho, manavi odamga qara! Sen o'z ko'zlaringga ishonmaysan. Tezroq, jigargo'sham, qaragin, sehrjodu odamni nimalar qilarkan, jodugar hamda sehrgarlarning qudrati naqadar zo'r-a.

Sancho chopib, yengilgan ritsarning yuziga qaradi va aziz avliyolarni birma-bir yodga olib cho'qina boshladi. So'ng had-dan tashqari qo'rqqan va hayron qolgan Sancho don Kixotga shunday dedi:

– Mening fikrim shunday, sinorim, o'zini bakalavr Samson Karrasko qilib ko'rsatgan bu jodugarning og'ziga qilich solmog'ingiz lozim edi. Kim bilsin! Ehtimol, dushman sehrgarlaringizdan birini o'ldirarsiz.

– Gaping to'g'ri, Sancho, – javob berdi don Kixot, – chunki dushmaning qancha oz bo'lsa, shuncha soz bo'ladi.

U Sanchoning maslahatini bajo keltirish uchun qilichini yalang'ochlagan ham ediki, shu payt ritsar Lesaning qurolbardori yugurib kelib qoldi. U butunlay o'zgarib ketibdi: uning nafarmon rang bahaybat burni qayoqqadir g'oyib bo'libdi. Qurolbardor baqirdi:

– To'xtang, marhamatli janob sinor don Kixot. Nima qilyapsiz o'zi? Axir, oyog'ingiz ostida do'stingiz bakalavr Samson Karrasko yotibdi-ku, men esa uning qurolbardoriman.

– Burning qani? – hayratdan o'zini yo'qotgan Sancho uning so'zini bo'lib qichqirdi.

– Yonimda, cho'ntagimda, – javob berdi u va cho'ntagidan bo'yalgan, maskaradda kiyadigan burunni oldi.

Sancho bu qurolbardorga yaxshiroq tikilib, hayratlanib so'radi:

– Yo avliyo Mariya, o'zing kechir meni! Axir, bu mening

qo'shnim ham og'aynim Tome Sesyal-ku.

– Yo'qsa kimman? – javob berdi o'zining bahaybat burnidan xalos bo'lgan qurolbardor. – Ha, men Tome Sesyalman, do'stim Sancho Pansa. Bu yoqqa qanday qilib kelganimni keyin aytib beraman. Biroq Xudo haqqi, xo'jayiningizdan iltimos qiling, u ritsar Lesani o'ldirib qo'ymasin. Barcha avliyolar haqqi, ont ichamanki, bu hamqishlog'imiz beadab hamda telba bakalavr Samson Karraskoning o'zginasi.

Bu orada ritsar Lesa o'ziga keldi. Shunda don Kixot uning tomog'iga yalang'ochlangan qilich damini qadab dedi:

– Agar husnda tengi yo'q Tobosolik Dulsineya o'z chiroyi bilan sizning Vandallik Kasildeyangizdan ortiq ekanligiga iqror bo'lmasangiz, joningizdan ajralasiz, ritsar. Shuningdek, siz Toboso shahriga jo'nashingiz hamda ma'shuqamga bo'lgan voqeani so'zlab berishingiz kerak. So'ngra mening oldimga qaytib kelasiz – shuhratimning ovozi meni topib olishingizga yordam beradi – ko'nglim mulki xoqoni bilan bo'lgan uchrashuv haqida meni xabardor qilasiz. Ko'rib turibsizki, mening talablarim jahongashta ritsarlar qoidasiga ham, bizning shartimizga ham zid emas.

– Sinora Dulsineyaning iflos, yirtiq kavushi Kasildeyaning taralmagan, ammo ozoda sochlaridan durustroq ekaniga iqorman, – dedi yengilgan ritsar, – shuningdek, ma'shuqangiz huzuriga borib kelishga hamda mendan talab qilayotganingizday to'liq hisob berishga va'da qilaman.

– Bundan tashqari, – davom etdi don Kixot, – bir zamonlar siz yenggan ritsar, hatto menga o'xshagan bo'lsa-da, hech vaqt lamanchlik don Kixot bo'lmagani hamda bo'la olmasligiga ham iqror bo'lishingizni talab qilaman. O'z navbatida ham siz bakalavr Samson Karraskoga o'xshasangiz-da, har holda, u emas-u, boshqa odam ekanligingizga iqror bo'laman. Dushmanlarim meni shafqat qilsin deb, sizni uning qiyofasiga kiritganlar.

– Bularning hammasiga iqorman, yo'l qo'yaman hamda qabul qilaman, – javob berdi yerda yotgan ritsar. – Endi kuchim yetadigan bo'lsa, o'nimdan turishga ruxsat bering. Rosa shalog'im chiqdi, o'zimni juda behol his qilayotirman.

Don Kixot Tome Sesyal bilan birgalikda uning o'rnidan turishiga ko'maklashishdi. Bu orada Sancho o'z oshnasidan ko'zini uzmas hamda har xil savollar bilan uni ko'mib tashlamoqda edi. Qurolbardorning javoblari Sanchoning qarshisida, haqiqatan ham, haqiqiy Tome Sesyal turganini to'liq isbot qilardi. Biroq don Kixotning ritsar Lesani bakalavr Samson Karraskoga aylantirib yuborgan yovuz sehrgarlarning qilmishlari haqidagi gaplari Sanchoni shu qadar shubhaga solib qo'ygan ediki, hatto o'z ko'zlariga ham ishonmasdi. O'z shubhasini batamom hal qilishga ulgurmay qoldi. Ritsar Lesa o'rnidan zo'rg'a turib, otiga minishga shoshildi va qurolbardorini ergashtirgancha o'sha zahotiyoq yakkama-yakka jang bo'lgan maydonni tashlab ketdi.

Ritsarimiz yakkama-yakka olishuvning natijasidan juda mamnun edi. U ritsar Lesani ajoyib jangchi deb bilgani uchun uni yengganidan juda mag'rurlandi. Bundan tashqari, raqibining ritsarlarga xos so'ziga ishonib, o'z ma'shuqasi va uning taqdiri haqida ishonchli axborotlar olishga umid bog'ladi. Don Kixot shunday jasur ritsar va'dasiga vafo qilib, Dulsineya bilan bo'lgan uchrashuvi haqida so'zlab berish uchun qaytib kelishiga sira shubha qilmadi.

Biroq don Kixot bir narsani o'ylasa, ritsar Lesa tamoman boshqa narsani o'ylardi. Bu ritsar allaqachon o'z va'dalarini unutib, tezroq jarohatlarini bog'lashni o'ylardi.

Yuqorida zikr etilgan hodisalarni anglash uchun kitobxon bakalavr Samson Karrasko o'z vaqtida ekonomka va jiyanning umidlarini yo'qqa chiqarib, don Kixotga jahongashta ritsarlik hayotini davom ettirishni maslahat berganini xotirlasin. Gap shundaki, safarga da'vat etishdan oldin u don Kixotni mash'um sarguzashtlar izlab daydiyvermasdan uyda tinchgina o'tirishga majbur qilish haqida pop va sartarosh bilan uzoq maslahatlashishdi. Bu yig'ilishda, don Kixotni hech qanday pand-nasihatiyatidan qaytarib bo'lmadi, mayli, boshi oqqan tomonga ketaversin, degan qarorga kelishgandi hammalari. Samson Karrasko jahongashta ritsar kiyimini kiyib, uning ketidan jo'naydi. Go'yo don Kixot bilan qo'qqisdan uchrashib qolganday, uni yakkama-yakka jangga chaqiradi – bunga, albatta, bahona topiladi – va,

shak-shubhasiz yengadi. Jang oldidan ritsar-bakalavr o'z raqibi bilan yengilgach o'z ixtiyorini yenggan kishiga butunlay topshiradi deb shartlashadi, so'ngra don Kixotni yengib, uni qishloqqa qaytarishni va ikki yilgacha undan hech qayoqda chiqmaslikni buyuradi. Hech kim yengilgan don Kixotning ritsarlik qoidasini buzmasligiga va bu buyruqni muqaddas bilib bajarishiga shubha qilmasdi. Majburan qishloqda yashagan bu davr orasida esa, u ehtimol, o'zining tentakliklarini tashlar yo do'stlari uning tentaklik dardiga biror davo topishar.

Bakalavr ritsarlik rolini o'z zimmasiga oldi, Sancho Pananing xushchaqchaq, tentaktabiat qo'shnisi va oshnasi Tome Sesyal esa qurolbardor sifatida xizmat qilishni taklif qildi. Samson ritsarlik yaroq-aslahalarini taqib, sovutlarini kiydi, Tome Sesyal esa Sancho tanib qolmasin deb soxta burun yasab oldi. So'ngra don Kixot ketgan yo'ldan borib, o'rmonzorda ularga yetib oldilar. Bu bema'ni ermakning oqibati qanday bo'lganini ziyrak kitobxon allaqachon biladi. Bakalavr bakalavr emas-u, balki uning qiyofasiga kirgan ritsar ekanligiga don Kixotning imoni komil bo'lmaganda, bechora Karrasko litsensiat unvonini olish imkoniyatidan abadiy mahrum bo'lgan bo'lardi, chunki u qush axtargan joydan hatto uning uyasini ham topa olmadi.

Sayohatning bunday achinarli tutallanganligini ko'rgan Tome Sesyal bakalavrga shunday dedi:

– To'g'risi, sinor Samson Karrasko, biz qilmishimizga yarasha jazolandik; qaysi ishni oson boshlasang, uning chigalidan qutulish qiyin, deb bekorga aytmaganlar. Don Kixot – tentak, bizni bo'lsa aqlimiz raso, buning ustiga u sog'-salomat qolib, ustimizdan kulayotir, siz marhamatli janob esa hamma yog'ingiz momataloq bo'lib uyga qaytayotirsiz. Ayting-chi, kim tentakroq: o'z aybisiz aqlidan ozgan kishimi yo o'z ixtiyori bilan jinnilik qilayotgan kishimi?

Bunga Samson shunday javob berdi:

– Bu tentaklar o'rtasidagi farq shundan iboratki, ixtiyorsiz ravishda aqlidan ozgan tentak o'shandayligicha qolaveradi, o'z ixtiyori bilan bo'lgan tentak esa, xohlagan paytida aqlini yig'ib olaveradi.

– Shunday ekan, – javob berdi Tome Sesyal, – siz, marhamatli janobning qurolbardori bo‘lish bilan ixtiyoriy tentak bo‘ldim, endi ko‘ngilli ravishda bu xizmatni tashlab, uyga qaytmoqchiman.

– Bilganingizni qiling, – dedi Samson. – Don Kixotni boplab do‘pposlamagunimcha hech qachon uyga qaytmayman. Endi men aqlini kiritish maqsadida emas, balki o‘zinning tahqirlanganim uchun o‘ch olish maqsadida ta‘qib qilaman uni. Qovurg‘alarim shu qadar og‘riyaptiki, unga hamdard bo‘lish xayolimdan ham ko‘tarilib ketdi.

Bir necha mil yurishgach, nihoyat ular bir qishloqqa yetib bordilar, baxtlariga u yerda baxtiqaro Samsonni davolaydigan suyak soluvchi tabibni topdilar. Tome Sesyal uni tashlab uyiga qaytdi, bakalavr esa yolg‘iz qolib, kelajakda qanday qilib o‘ch olish haqida bosh qotira boshladi.

## *QIRQINCHI BOB*

### **DON KIXOTNING SHERLAR BILAN BO‘LGAN SARGUZASHTDA KO‘RSATGAN MISLSIZ QAHRAMONLIKLARI**

Biz hikoya qilgandek, don Kixot mamnun va mag‘rur holda yo‘lida davom etdi, chunki u qo‘lga kiritgan g‘alabam bilan jahongashta ritsarlar orasida eng shon-shavkatlisi bo‘lib qoldim, deb ishonardi. Endi uni dushman sehrgarlarning qilmishlari qo‘rqitolmas edi: u oldingi safarlarida boshiga yog‘ilgan hisobsiz kaltaklar, tishining yarmini o‘pirib ketgan tosh, surgun qilinganlarning ko‘namakligi, uni so‘yil bilan kaltaklagan yangueslik xachir haydovchilarning surbetligi – bularning barini unutdi. U o‘z-o‘ziga endilikda zimmasida bitta ish: sinora Dulsineyani har qanday qilib bo‘lsa ham, sehrgarlarning sehridan qutqazish qolganini ta‘kidlardi, ana o‘shanda o‘tgan asrlardagi mashhur ritsarlarning birontasidan ham qolishmaydi. Shunday o‘ylarga berilib borarkan, Sancho tasodifan gapirib qoldi:



– Sinor, oshnam Tome Sesyalning kattakon burni sira ko‘z oldimdan ketmayotgani juda qiziq-a?

– Nahotki sen, Sancho, chindan ham ritsar Lesa – bakalavr Karrasko, uning qurolbardori – og‘ayning Tome Sesyal deb o‘ylaysan?

– Nima deyishga ham hayronman, – javob berdi Sancho, – undan boshqa hech kim uyim, xotinim, bolalarimni shunchalik aniq ta‘riflab berolmasdi. U burnini olganda Tome Sesyalning naq o‘zginasi bo‘ldi-qoldi. Axir, men u bilan qishloqda doim uchrashib turaman, u bilan yonma-yon yashaymiz-da.

– Sancho, kel, sal oqilona fikr yuritaylik, – dedi don Kixot. – Bu yoqqa yaqinroq kel-chi. Ayt-chi, nega bakalavr Samson Karrasko jahongashta ritsar singari kiyinib, o‘ziga qurol topib, meni jangga chaqirdiykin? Nahotki, biron vaqt men unga dushmanlik qilgan bo‘lsam? Nahotki, men uning dushmaniman? Mening shuhratimga hasad qilyapti desak, u hech qachon jangchi bo‘lmagan-ku!

– Hammasi shundayku-ya, marhamatli janob, lekin siz ritsar Lesaning xuddi quyib qo‘yganday bakalavr Karraskoga o‘xshashini, uning qurolbardorining esa oshnam Tome Sesyal-dan bir tuki ham farq qilmasligini qanday tushunasiz? Mabodo siz marhamatli janob o‘ylagandek bularning hammasi sehrgarlik bo‘lsa, nega endi ular, albatta, o‘sha ikkala azamatga o‘xshashadi?

– Ishonaver, birodar, bularning hammasi yovuz sehrgarlarning vasvasasi hamda hiyla-makrlari, – javob berdi don Kixot, – bu bizni bir-birimizga bog‘lovchi do‘stlik iplari mening ko‘nglimni yumshatsin, qilichimning dami bilan do‘stimning shafqatsizligi o‘rtasida raxna solsin deb mag‘lub ritsarni do‘stim bakalavrning qiyofasiga kiritishgan. Shunday qilib, ular meni ozodlikdan mahrum qilmoqchi bo‘lgan makkor dushmanning hayotini hiyla va nayrang bilan saqlab qoldilar. Sancho, sehrgarlar uchun go‘zal chehrani xunukka, xunuk yuzini esa chiroylikka aylantirish hech narsa emasligini tasdiqlay olasan-ku. Husnda tengsiz Dulsineyaning chiroyi hamda latofatini o‘z ko‘zing bilan ko‘rganingga, menga esa u sarimsoq piyoz hidi anqib turgan,

ko'zlari xira, qo'pol hamda ta'viya dehqon ayol bo'lib ko'ringa-niga hali ikki kun ham bo'lgani yo'q-ku, axir. Modomiki, jinoyatkor sehrigar Dulsineyani ana shunday jirkanch, badbasha-raga aylantirgan ekan, qo'limdan g'alaba shuhratini tortib olish uchun ritsar Lesani Samson Karraskoga, uning qurolbardorini esa og'ayningga aylantirishi hech gap emas-ku.

– Bor haqiqat bir xudoning o'ziga ayon, – Sancho mujmal javob berdi. Dulsineyaning boshqa qiyofaga kirgani o'zining hiyla-nayrangi samarasi ekanini u juda yaxshi bilardi; shuning uchun ham don Kixotning ahmoqona dalillari uni bunga ishontira olmasdi. Biroq Sancho ortiqcha gapirib qo'yib, o'z yolg'onining oshkora bo'lishidan qo'rqib, indamaslikni afzal bildi. U yaqin-larida yurgan podachilarni ko'rib, ulardan suzma yo pishloq sotib olish maqsadida yo'ldan burilib, ular tomon yurdi. Bu orada chu-qur o'yga botgan don Kixot yo'lida davom etdi, ittifoqo, boshini ko'tarib, qirol bayroqlari bilan bezatilgan aravaning o'zi tomon kelayotganini ko'rib qoldi. Taqdir yangi sarguzasht yubordi deb o'ylab, qurolbardorini baqirib chaqirdi. Sancho xo'jayinining betoqat xitobini eshitib, o'zini yo'qotdi. Sotib olingan suzmani shosha-pisha don Kixot yaqindagina yechib, unga berib qo'ygan dubulg'aga solib, xo'jayini tomon shoshildi.

– Tezroq, do'stim, – dedi don Kixot, – dubulg'ani ber. Men jangga hozirlanishim kerak, chunki uzoqda ko'rinayotgan arava, albatta, menga yangi sarguzasht va'da qildi.

Sancho ichidagi suzmani to'kishga ham ulgurmay, sho-shilib dubulg'ani uzatdi. Don Kixot u yoq bu yog'iga qaramay dubulg'ani shartta boshiga kiydi. Suzma ezilib, zardobi yuziga oqib tushdi. Esxonasi chiqib ketgan ritsar xitob qildi:

– Bu nima o'zi, Sancho? Mening bosh suyagim yumshab, miyam erib ketganga o'xshaydimi? Ehtimol, bu terdir. Biroq hozir dahshatli bir mojarbo bo'lishiga shubha qilmasam-da, modomiki, terlagan ekanman, bu, albatta, qo'rquvdan emas. Yuzim-ni artishga biron narsa ber, yo'qsa bu ter ko'z ochgani qo'ymaydi.

Sancho indamay unga ro'molcha uzatdi va xo'jayini nima bo'lganini bilmay qolgani uchun xudoga shukr qildi. Don Kixot

yuzini artdi va nima gapligini bilish uchun dubulg'asini yechdi. Dubulg'a ichidagi oq bo'tqaga ko'zi tushib, hidlab ko'rib, dedi:

– Sinoram Dulsineyaning hayoti bilan ont ichamanki, sen xoin, daydi, surbet qurolbardor dubulg'a ichiga suzma solib qo'yibsan.

Sancho unga pinagini buzmay javob berdi:

– Marhamatli janob, agar shu suzma bo'ladigan bo'lsa, bering, men uni yeb qo'ya qolay. Shayton yesin buni, ehtimol, uning o'zi qilgandir bu ishni. Siz marhamatli janobning dubulg'asini iflos qilgani qanday haddim sig'ardi! Bilasizmi, sinor, marhamatli janoblariga xizmat qilayotganim uchun meni ham qandaydir sehrgarlar ta'qib qilayotgan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Shubhasiz, ular sizning jig'ingizga tegish, meni do'pposlatish uchun dubulg'aga shu iflos narsani solib qo'yishgan. Biroq ishonamanki, bu safar ular ikki qo'lini burniga tiqib qolishaveradi, chunki xo'jayinimning oqilona fikr yuritishiga ishonaman. Agar qatiq yo suzma bo'lganida uni dubulg'angizga solgandan ko'ra, qornimga gumdon qilib qo'ya qolardim.

– Ehtimol, to'g'ri aytayotgandirsan, – deb unga qo'shildi don Kixot. So'ngra yana bir marta boshini, yuzini, soqolini artdi, suzmani to'kib tashlab, dubulg'ani yana kiydi, uzangiga oyog'ini yaxshiroq tirab, xitob qildi:

– Mana endi shaytonning o'zi bilan jang qilishga ham tayyorman! Shunday deb, u arava tomon ot qo'ydi. Aravaning old tomonida bir quolsiz kishi o'tirardi. U bilan xachir haydovchidan boshqa hech kim ko'rinmas edi. Don Kixot oldinga o'tib, so'radi:

– Yo'l bo'lsin, birodarlar? Bu qanaqa arava, unda nima olib ketyapsizlar va bu qanday bayroqlar?

Xachir haydovchi javob berdi:

– Arava meniki, Oran gubernatori oliy hazratlariga sovg'a uchun poytaxtga yuborayotgan vahshiy sherlarni katakka solib olib ketayotirmiz, manavi bayroqlar qirol janoblariniki, ular qirol mulkini olib ketayotganimizni anglatadi.

– Sherlar kattami? – so'radi don Kixot.

– Juda bahaybat, – javob berdi arava oldida o'tirgan kishi.

– Men hayvonot bog‘ida qorovulman, sherlarga qarab turaman, biroq bunaqa sherlarni hech ko‘rmaganman. Bu yerda ham erka-gi, ham urg‘ochisi; bugun ularga ovqat bermaganimiz uchun hozir ikkalasi ham juda och. Shu sababli bizga yo‘l bering, marhamatli janob, ularni ovqatlantirish mumkin bo‘lgan biror joyga tezroq yetib olishga shoshilyapmiz.

Buni eshitib, don Kixot miyig‘ida kulib qo‘ydi-da, dedi:

– Demak, shunday qilib, sehrgarlar endi menga qarshi sherlarni ham yuboribdi-da! Xudo nomi bilan qasamyod qila-manki, sherlar bilan meni qo‘rqitolmasliklarini hozir ko‘rib qo‘-yadilar! Qani, ey yaxshi odam, aravadan tushing-chi! Kataklarni ochib, sherlarni ozod qiling, lamanchlik don Kixotning kimligini ularga ko‘rsatib qo‘yaman. Manavi sherlarni menga gijgijlagan sehrgarlar alamlaridan yorilib o‘lsinlar.

O‘takasi yorilayotgan Sancho don Kixotning oldiga cho-pib borib, sherlar bilan hazillashmasligini so‘rab, yalina boshladi:

– Xudo haqqi, sinor, qirol sherlarini o‘z holiga qo‘ying, axir, ular hammamizning dabdalamizni chiqarib tashlaydi-ku.

Ammo don Kixot Sanchoning gaplariga zarracha ham e‘tibor bermay, nazoratchiga qichqirdi:

– Hoy, janob bekorxo‘ja, jin ursin sizni, tezroq kataklarni ochib yubormasangiz, manavi nayza bilan sizni aravaga sanchib qo‘yaman.

Aravakash bunday qahrli baqiriqdan qo‘rqib ketib, dedi:

– Sinor janoblari, siz marhamatli zotning amrini bajo keltiraman, lekin shafqat qilib dastlab xachirlarni bo‘shatib, ular bilan birgalikda xavfsiz joyga bekinib olishga ruxsat bering. Agar bu yirtqichlar erkinlikka chiqib, xachirlarimni tilka-pora qilib tashlagudek bo‘lsa, men gado bo‘lib qolaman; axir, mening butun boyligim – xachirlarim bilan aravam, xolos.

– E, noumid banda! – xitob qildi don Kixot. – Tezroq yerga tushib, xachirlaringni bo‘shatgin-u, bilganingni qil. Biroq sen tezda behuda uringaningni hamda bunchalik ehtiyotkorlik qilib ovora bo‘lganingni ko‘rasan.

Aravakash shoshilib pastga tushdi-da, xachirlarini bo‘-

shatdi, nazoratchi esa baland ovoz bilan qichqirdi:

– Shu yerdagi hamma odamlarni guvohlikka chaqirib aytamanki, kataklarni ixtiyorimdan tashqari majburiyat orqasida ochib, sherlarni qo‘yib yuborayotirman. Bundan tashqari sinorga eshittirib aytamanki, sherlar keltirgan ziyonni, buning ustiga mening maoshimni ham u o‘z cho‘ntagidan to‘laydi. Biroq eshiklarni ochib yuborishimdan oldin hamma yaxshiroq yashirib olsin. Men o‘zim yirtqichlardan qo‘rqmayman, ularning menga hech qanday yomonlik qilmasliklariga ishonaman, biroq boshqalarni g‘ajib tashlashlari mumkin.

Bu so‘zlarni eshitib, Sancho ko‘zlariga yosh olib, shamol tegirmonlari bilan bo‘lgan, movut bosiladigan joydagi, umuman, hayotlarida qilgan hamma qilmish va sarguzashtlari buning oldida bolalar o‘yiniday narsa ekanini aytib, bu ahmoqona niyatdan qaytishni o‘z xo‘jayinidan iltimos qila boshladi.

– Sinor shuni bilingki, – dedi Sancho, – bu yerda hech qanaqa sehr yo‘q. Bular odatdagi, jonli arslonlar. Temir qafasga nazar tashlagan edim, ulardan birining panjasini ko‘rib qoldim, bunaqa tirnoqli arslon tog‘ barobar bo‘lsa kerak deyman.

– Qo‘rquvdan u senga yarim dunyodek bo‘lib ko‘ringan bo‘lishi mumkin, – javob qildi don Kixot. – Nari bor, Sancho, menga xalaqit berma. Mabodo, men halok bo‘lsam, bizning ilgari va‘damizni esdan chiqarmagin: bundan Dulsineyani xabardor qilgin.

So‘ngra bizning ritsar nazoratchini yana shoshiltira boshladi va do‘q-po‘pisalarini takrorlay ketdi.

Sancho o‘z eshagini, xachir haydovchi o‘z xachirlarini arslonlar yuklangan aravadan, imkoni boricha, nari haydashdi. Bechora qurolbardor o‘z xo‘jayinining bu gal aslo omon qolmasligini anglab, obdan yig‘lar, yig‘lash-siqdashlar, duolar orasida kuchi boricha eshagini «xix-xix»lab borardi.

Nazoratchi bu odamlarning ancha uzoqlashib, bexatar bo‘lishganini ko‘rgach, don Kixotdan arslonlar bilan olishish niyatidan qaytishni iltimos qilib yolvora boshladi. Biroq ritsar keskin javob qilib, yolvorish va avrashlardan foyda yo‘q dedi va qafas eshiklarini ochishni buyurdi. Nazoratchi birinchi qafasni

ochish bilan ovora bo'layotganida don Kixot qanday jang qilishni – piyodami yoki otdami – fikr qildi. Nihoyat, arslonlar qiyofasi Rosinantni qo'rqitishi mumkin dedi-da, piyoda jang qilishga qaror qildi. Shuning uchun otdan irg'ib tushdi-da, nayzani bir chetga uloqtirdi, qalqonni qo'lga olib, qilichini yalang'ochladi. So'ngra o'zini, avvalo, xudoga, keyin esa sinora Dulsineyaga bag'ishlab, ajib jasorat va qat'iyat bilan arava tomon asta qadam tashlay boshladi.

Don Kixotning jangga shaylanganini ko'rgan nazoratchi arslonlarni, baribir, qo'yib yuborish kerakligini bilib, birinchi qafas eshiklarini lang ochib yubordi. Katakda g'oyat bahaybat va dahshatli arslon o'tirardi.

Biroq bu yirtqich qafasdan irg'ib chiqib don Kixotga tashlanish o'rniga teskari boqdi, oyoqlarini kerib butun gavdasi bilan cho'zildi. So'ngra og'zini katta ochib esnadi, tilini chiqarib yuz-ko'zini yalay ketdi. Betini yalab bo'lgandan so'ng boshini qafasdan chiqarib qop-qora, ko'mirdek yaltiroq ko'zlari bilan chor-atrofga qaradi. Uning mag'rur, haybatli gavdasi va vahshiyona qarashi har qanday dovyurak odamni dahshatga solsa-da, don Kixot pinagini buzmay, unga tik qarab turar va birgina narsani istardi: arslon aravadan tezroq tushsa-yu, u bilan yakka-ma-yakka olisha qolsa, chunki bizning ritsarning arslonni tilka-pora qilib tashlashga imoni komil edi.

Ammo muruvvatli arslon chovkar emas edi. U don Kixotning bema'ni gerdayishiga parvo ham qilmay chor-atrofga qaradi, o'girilib bizning ritsarga orqasini ko'rsatdi, so'ngra beparvo va bemalol cho'zildi. Buni ko'rgan don Kixot nazoratchiga arslonni kaltaklab g'azabini keltirib, qafasdan haydab chiqarishni buyurdi.

– Yo'q, buni mutlaqo qilolmayman, – dedi nazoratchi. – Agar men uning jig'iga tegsam bormi, dastavval mening o'zimni burdalab tashlaydi. Shularning o'zi ham keragidan ziyoda, muhtaram zot. Siz o'z jasoringizni isbot etdingiz. Tavakkaliga ish tutish yaramaydi. Dovyurak jangchining ishi dushmanni jangga chaqirish va uni maydonda kutish. Menimcha, jangchidan talab etilayotgan narsa shu bo'lsa kerak. Mabodo, dushman jang may-

doniga kelmasa, demak, uning qo'rqqani va yengilgani shu bo'ladi. Maydonda kutgan mard esa g'alaba tojini kiyadi.

– Ehtimol, haq gapni aytayotirsiz, do'stim, – don Kixot. – Unday bo'lsa, eshiklarni bekiting va menga guvohnoma bering. Eshiklarni qanday bekitganingizni, qafas oldida mening dadil turganimni, arslonning esa chiqmaganini, men uni uzoq kutganimni, lekin u menga orqasini o'girib, katakda bemalol yonboshlab olganini – hammasini batafsil yozing. Men o'z burchimni ado etdim: har qanday sehr-jodular barham topdi. Tangrining o'zi aql, adolat va haqiqiy ritsarlikni ato qilsin. Xullas, qafasni bekiting, men esa qochoqlarga imo-ishora qilay, qaytishsin. Mening qahramonligimni ular sizning o'z og'zingizdan eshitishsin.

Nazoratchi temir qafasni bekitdi, don Kixot esa suzma tomchisidan so'ng yuzini artgan ro'molni nayza uchiga ildi-da, qochoqlarni chaqirish uchun uni havoda aylantira boshladi. Don Kixotning ishorasini ko'rgan Sancho xitob qildi:

– Xo'jayinim vahshiy hayvonlarni o'ldirmagan bo'lsa, jonimni oling. Axir, u bizga qaytinglar degan ishorani qilyaptiku.

Aravakash qayrilib qaradi va, haqiqatan ham, don Kixotning orqaga qaytinglar deb chaqirayotganini ko'rdi. Ular ancha yengil tortib orqaga qaytdilar. Aravaga yaqin kelishganda don Kixot xachir haydovchiga dedi:

– Birodar, siz xachirlaringizni qaytadan aravaga qo'shib, yo'lingizda davom etishingiz mumkin. Sen esa, Sancho, bu kishiga va nazoratchiga ketgan vaqtlari evaziga bir tilla eskudodan sovg'a bergin.

– Jonim bilan, – dedi Sancho, – ha, arslonlar nima bo'ldi? Yaralandimi yoki o'ldirildimi?

Shunda nazoratchi don Kixotning mardligi va jasoratini ta'riflab va jangning natijasi xususida shoshilmay batafsil so'zlay ketdi. Bu kishiga arslonning ko'zi tushar-tushmas quti o'chdi, qafas ochiq bo'lsa ham, u tashqariga chiqishga jur'at etmadi. Ritsar arslonning jig'iga tegishni buyurdi, lekin nazoratchi arslonni gij-gijlab qafasdan zo'rlab chiqarish xudoga ham xush tushmasligini aytdi. Ana shundan so'nggina ritsar noiloj qafas

eshiklarini bekitishga ruxsat etdi.

– Xo‘sh, sen nima deysan, Sancho? – so‘radi don Kixot.  
– Haqiqiy jasoratga yana qanday sehr bardosh bera olishi mumkin? Sehrgarlar meni omaddan mahrum qilishlari mumkin, biroq ular mendagi mardlik va jasoratni yo‘qota olmaydilar.

Sancho ikki eskudoni berdi, xachirchi xachirlarini qo‘shdi, nazoratchi katta hadya uchun minnatdorchilik bildirib, don Kixotning qo‘llarini o‘pdi va poytaxtga borishlari bilanoq uning qahramonligini qirolning o‘ziga so‘zlab berishga va‘da qildi.

– Mabodo, janobi oliylari bunday qahramonlik ko‘rsatgan odam kim o‘zi, deb so‘rab qolguday bo‘lsalar, – dedi don Kixot, – unda u kishiga: arslonlar ritsari deb ayting, zotan, shu kundan boshlab men o‘z nomimni G‘amgin Qiyofa ritsar emas, balki Arslonlar ritsari deb atamoqchiman.

## *QIRQ BIRINCHI BOB*

### **LAMANCH VILOYATINING QOQ KINDIGIDAGI MONTESINOS G‘ORIDA<sup>1</sup> SODIR BO‘LGAN ANTIQA SARGUZASHTLAR**

Don Kixot va uning qurolbardori sherlar bilan bo‘lgan shavkatli sarguzashtdan so‘ng Saragossaga qarab yo‘l oldilar. Ammo ritsarimiz yo‘l-yo‘lakay lamanch viloyatining qoq kindigidagi mashhur Montesinos g‘origa, albatta, kirib o‘tishni xohlardi. Shunisi achinarliki, uning o‘zi ham, qurolbardori ham g‘orga boradigan yo‘lni bilmasdi. Lekin, ularning baxtiga tez orada yo‘lda ruhoniynamo ikki talaba va ular bilan birga ikki dehqon uchrab qoldi. To‘rtovlari ham eshak minib olishgandi. Talabalar ham, dehqonlar ham don Kixotga taajjublanib qarar (u bilan birinchi marta uchrashgan har bir kishi shu holatga tushardi), oddiy odamlarga o‘xshamaydigan bu g‘ayritabiyy kishining kim

---

<sup>1</sup> Montesinos g‘ori – Lamanch yaqinidagi g‘or. Servantes g‘orga kiraverishni ancha aniq tasvirlagan.



ekanligini tezroq bilib olishni istardilar. Don Kixot ular bilan salomlashdi va yo'llari bir ekanini bilib, hamroh bo'lishni taklif etdi. Yo'lovchilarning savol yog'dirishining oldini olib, o'zining nomi lamanchlik don Kixot, laqabi esa Arslonlar ritsari ekanini; unvoni va mashg'ulotiga ko'ra yetti iqlimda sarguzashtlar izlovchi jahongashta ritsar ekanligini qisqa qilib tushuntirib berdi. Dehqonlar uchun bu gaplar borib turgan bema'nilikdek tuyulgan bo'lsa, talabalar o'sha ondayoq don Kixotning aqldan ozganini sezib oldilar. Shunga qaramay, ular don Kixotga ajablanish va hurmat bilan qaradilar.

Don Kixot ularga mashhur Montesinos g'origa borib, uning maqtalgan mo'jizalari chindan ham mavjudligini o'z ko'zlari bilan ko'rish istagi borligini izhor qildi va g'orga qanday qilib borishni so'radi. Talabalardan biri uni g'orga boshlab boradigan bo'ldi va o'zining ritsar romanlarini sevishini, lamanchlik don Kixotdek mashhur ritsarga hamroh bo'lishni o'zi uchun shon-sharaf deb bilishini aytdi.

Yo'lda don Kixot bu talabadan o'z hayotini qaysi fanlarni o'rganishga bag'ishlaganini qiziqib so'radi. U, o'zining ijtimoiyotchi ekanini, shuningdek, jamiyatning huzur-halovati va foydasini ko'zlab nashr ettirish maqsadida kitob yozayotganini aytdi. Uning kitoblaridan biri «Liboslar haqida» deb atalarkan. Unda yetti yuz uch xil libosning nusxasi, rangi va bichimi tasvirlanarkan. Saroy a'yonlari ana shunga asoslanib, har qanday bayramga ham bosh qotirib o'tirmay ust-bosh tanlay olarkan.

– Mening, – qo'shib qo'ydi talaba, – Virgiliy Polidorga qo'shimcha<sup>1</sup> nomli boshqa kitobim ham bor. Unda turli kashfiyotlar haqida hikoya qilinadi. Bu kitobga men juda ko'p mehnat va ilm sarf etganman: men unda Polidor batafsil to'xtalib

---

<sup>1</sup> Polidor Virgilliy – XV asrdagi italyan olimi. Uning «Ixtirochilar to'g'risida» nomli asari o'z davrida mashhur bo'lgan. Servantes Polidor kitobiga qo'shimcha kitob yozayotgan bilimdon talaba shaxsi orqali sxolastika ta'siridan hanuzgacha qutulolmagan o'sha davrda universitetda o'qitiladigan fanlar ustidan zaharxandalik bilan kuladi. Servantes bu fanlarga umrbod salbiy munosabatda bo'ladi. U hech qachon befahm «bachkanalar» ustidan kulish fursatini bekor ketkazmasdi. Ular esa, o'z navbatida, Servantesga g'azabdan nafatlanib javob qaytarishar, universitet diplomiga ega bo'lmagan kishi qanday qilib adabiyotga kirishga jur'at etdi deyishib, takabburlik bilan taajjublanishar edi.

o'tmagan barcha masalalarni ochiq-oydin tushuntirganman va nihoyatda lo'nda qilib bayon etganman. Masalan, u odamlardan birinchi marta kim tumov bo'lgani, kim birinchi bo'lib jarohatga surtadigan shifobaxsh malhamni kashf etganligi haqida ma'lumot berishni unutkan. Men yigirma beshdan ortiq mualliflarning asarlariga suyanib, bu masalani mukammal tushuntirganman. Muhtaram janoblari mening qanchalik zahmat chekkanim va bu kitoblarimning odamlar uchun qanchalik foydali ekanini bilib olishlari mumkin.

Talabaning hikoyasini diqqat bilan tinglab borayotgan Sancho uning so'zini bo'ldi:

– Qani ayting-chi, sinor, iloyo, kitobingizni bostirishda xudo omadingizni bersin, birinchi bo'lib kim o'z boshini qashiganini aytib berolmaysizmi? (Darvoqe, albatta, aytib bera olasiz, chunki siz hamma narsani bilasiz). Shaxsan men o'ylaymanki, bu ishni birinchi bo'lib Odam Ato qilgan.

– Ehtimol, o'shadir, – javob berdi talaba, – chunki Odam Atoning boshi va sochi bo'lgani shubhasiz. Modomiki, u olamga birinchi kelgan odam ekan, demak, u birinchi bo'lib boshini qashigan-da, albatta.

– Men ham shunday deb o'ylagandim, – javob berdi Sancho, – endi ayting-chi, kim birinchi akrobat<sup>1</sup> bo'lgan?

– Rostini aytsam, birodar, – javob berdi talaba, – bu masalani o'rganib chiqmay turib, sizga tezda javob bera olmayman. Men o'z kitoblarimga qaytgach, mana shu masalalar ustida ham bosh qotiraman va yaqin kunlardagi uchrashuvimizda sizning istagingizni qondiraman, chunki bu uchrashuvimiz oxirgi uchrashuv bo'lib qolmasligiga aminman.

– Menga qarang, sinor, – e'tiroz bildirdi Sancho, – siz tashvishlanmay qo'ya qoling, o'z savolimga allaqachon o'zim javob topdim. Bilasizmi, birinchi marta sakragan va umbaloq oshgan Lyutsifer. Uni osmon-u falakdan tashlab yuborganlarida to jahannamga yetib olguncha sakrab va umbaloq oshib borgan.

---

<sup>1</sup> Akrobat (*yunoncha: acrobatis* – yuqori ko'tariluvchi) – akrobatika bilan shug'ullanuvchi gimnastikachi; sirkda murakkab gimnastika mashqlarini g'oyat epchillik va mohirlik bilan ijro etuvchi artist; muallaqchi.

– Sen haqсан, do‘stim, – tasdiqladi talaba.

– Albatta, Sancho, bu savol va javobni o‘zing o‘ylab chiqarmagansan. Sen uni biron joyda eshitgansan.

– Xudo haqqi, sinor, agar men so‘roqlash va javob berishga tushib ketsam, ertagacha ham tugatolmayman. Sizni ishontirib aytamanki, men bema‘nigarchiliklar haqida so‘rash va har xil yolg‘on-yashiqalar bilan javob berish uchun yordam so‘rab qo‘shnilarga chiqib yurmayman.

– Sancho, sen o‘zing biladigandan ko‘ra ko‘proq narsani gapirib berding, – javob berdi don Kixot, – chunki shunday kishilar ham borki, ular turli masalalarni hal etish ustida bosh qotiradilar, yechilganidan so‘ng esa sariq chaqaga arzimaydigan bo‘lib chiqadi bu masalalar.

Don Kixot, Sancho va talaba butun kunni mana shunaqangi ko‘ngilli suhbatlar bilan o‘tkazishdi, kechqurun esa kichikroq-qina bir qishloqqa tushdilar. Ertalab talaba don Kixotga Montesinos g‘origacha salkam ikki mil qolganligini, agar uning qarori qat‘iy bo‘lsa, chuqur g‘orning ostiga tushishi uchun arqon olish zarurligini aytdi. Don Kixot u yerda nima borligini bilish uchun tubsiz jahannamga ham tushishga tayyor ekanligini aytdi. Ular yuz sarjindan uzunroq arqon sotib olib, g‘or tomon yo‘l oldilar. G‘orga kiradigan yo‘l keng va katta edi, lekin qalin butalar bilan qoplanganidan g‘orning og‘zi mutlaqo ko‘rinmay ketgan edi. G‘orni ko‘rgach, hamrohlar ulovlaridan tushdilar. Sancho va talaba ritsarimizni arqon bilan mahkam qilib bog‘lay boshladi. Don Kixotni chirmab bog‘lasharkan, Sancho uni bu niyatdan qaytarishga urinib ko‘rdi.

– Nima qilayotganingizni o‘ylab ko‘ring, marhamatli janobim, o‘zingizni tiriklayin go‘rga tiqmang va muzdek bo‘lsin deb quduqqa tushiriladigan shishaga o‘xshamang. Bu g‘orni tekshirish sizning ishingiz emas, nima qilasiz tashvish orttirib o‘zingizga, sinorim, bu har qanaqangi zindondan ham dahshatliroq, axir.

– Bas qil, do‘stim Sancho, – javob berdi don Kixot. – Bema‘ni gaplarni gapirib aljiyapsan: bu mashhur g‘orni tekshirish faqat menga nasib qilgan.

Shunda yo‘l boshlovchi:

– Muhtaram janob, sinor Don Kixot, sizdan o‘tinib so‘rayman, u yerda nimaiki uchrasa, hammasini yaxshilab ko‘rib oling. Ehtimol, mening o‘zgarishlar to‘g‘risidagi bo‘lajak kitobimga yaraydigan biror narsa topilib qolar, – dedi.

– Xotirjam bo‘ling, sinor, – gapga qo‘shildi Sancho. – Childirma yaxshi childirmachining qo‘lida, uning gumburlashini ko‘rasiz.

Barcha tayyorgarliklar tugagach, don Kixot shunday dedi:

– He attang, qo‘g‘iroqchalar ololmay, yaxshi ish qilmabsiz: men ularni arqonga bog‘lab qo‘yardim-da, vaqti-vaqti bilan jiringlatardim, sizlar mening tirikligimni va hamon pastga qarab tushib borayotganimni bilib turardinglar. Lekin endi vaqt o‘tdi. Men o‘zimni xudoga topshirdim, uning o‘zi madad bersin.

Shundan so‘ng don Kixot tiz cho‘kib, xudoga iltijo qildi, undan bu xavfli, g‘ayritabiiy sarguzashtni muvaffaqiyatli yakunlashda madadkor bo‘lishni so‘radi.

Keyin u baland ovoz bilan:

– O, qalbmning xoqoni, go‘zallikda beqiyos Tobosolik Dulsineya! Baxtiyor qulingning iltimos va iltjolari yetib borsa, olamda tanho husni-malohating haqqi yolvoraman: meni eshit. Sendan bir narsa iltimos qilaman: og‘ir daqiqalarda meni iltifot va himoyangdan mahrum etma, men unga tashnaman. Hozir men o‘zimni ko‘z oldimdagi tubsiz jahannamga tashlayman. Men buni shuning uchun ham qilayotirmanki, agar sen menga madadkor bo‘lsang, dunyoda men qo‘l urmagan, amalga oshirmagan jasorat va qahramonlik yo‘qligini hammaga ma‘lum qilib qo‘ymoqchiman.

Don Kixot ana shu so‘zlarni aytib, g‘or og‘ziga yaqinlashdi. Shunda u g‘orning og‘ziga o‘z bilak kuchi va qilichi bilan yo‘l ochib bora olishi mumkinligini ko‘rdi. U qilichini yalang‘ochlab chirmashib ketgan butalarni chopa boshladi. G‘orga uya qurgan qarg‘a-quzg‘unlar shovqindan bezovtalanib, birdaniga «gurr» etib ko‘tarildi. Ular qo‘qqisdan, shiddat bilan baravariga ko‘tarilganidan ritsarimizni guppa yerga qulatib yubordilar. Lekin don Kixotni bunaqangi arzimas narsalar dovdirata

olmasdi. Qushlar uchib chiqib ketgach, u bir uchini Sancho bilan talaba ushlab turgan arqonni tortib, dahshatli g'orning ostiga tushishga hozirlandi. Sancho xayrlasharkan, unga oq yo'l tilab, qayta-qayta cho'qintirdi va shunday dedi:

– Xudovandi karimning o'zi madad bersin, aziz-avliyolar qo'llasin, ey barcha jahongashta ritsarlarning guli, ko'rki, qaymog'i! Oq yo'l, yer yuzining po'lat qalbli, mis bilak a'lo bahodiri! Senga xudoning o'zi hamroh bo'lsin, takror aytamanki, u seni o'z xohishing bilan tushayotgan dahshatli jahannamdan yana yorug' dunyoga olib chiqsin.

Talaba ham u bilan shu tariqa xayr-xo'shlashdi. Shundan so'ng don Kixot yer ostiga tusharkan, arqonni asta-sekin bo'shatayotgan hamrohlariga vaqti-vaqti bilan murojaat qilib turdi. Don Kixotning ovozi asta-sekin pasaya bordi va nihoyat g'or qa'rida o'chib ketdi. Arqon oxirigacha bo'shatib bo'lingach, Sancho bilan talaba biroz kutib turish, keyin don Kixotni yana tepaga tortib olishga qaror qildilar. Yarim soatdan so'ng ular arqonni torta boshladilar. Arqon qushday yengil tortilar ediki, go'yo unga hech qanday yuk bog'lanmagandek edi. Ular don Kixot g'orda qolib ketdi, deb o'ylashdi va Sancho shosha-pisha arqonni tortar ekan, yig'lab yubordi. Ammo arqonni yarmidan ko'pini tortib bo'lgach, ular unda qandaydir bir yuk osilib turganini sezib, juda xursand bo'lib ketdilar. Nihoyat, chuqurlik ichidan don Kixot ko'rindi:

– Xush kelibsiz, marhamatli sinorim! Biz u yerda mangu qolib ketdingiz deb, qo'rqib yuribmiz! – dedi baland ovoz bilan Sancho.

Lekin don Kixot javob bermadi. Zudlik bilan ritsarni g'or yoqasiga tortib olisharkan, uning ko'zlari yumuq, uxlab yotganini ko'rdilar. Shundan so'ng talaba bilan Sancho uni qimirlatib, silkiy boshladilar. Nihoyat, don Kixot o'ziga kelib, uzoq va qattiq uyqudan turgandek kerishdi, chor atrofga vahima bilan alanglab, shunday dedi:

– Do'stlarim, meni inson bolasiga nasib etmagan ajoyib bir manzarani tomosha qilishdan mahrum etganlaring uchun sizlarni xudoning o'zi kechirsin! Darhaqiqat, men hayotning barcha

lazzatlari xuddi soya va uyqudek o'tib ketayotganini tushunib yetdim. O, baxtsiz Montesinos! O, qattiq jarohatlangan Durandarte! O, badbaxt Belerma! O, ko'z yoshi daryo bo'lgan Gvadian va Ruideraning baxtiqaro qizlari!

Sancho bilan talaba don Kixotning so'zlarini diqqat bilan tingladilar, aftidan, u mashaqqat bilan arang gapirardi. Ular don Kixotdan bu do'zaxda nimalarni ko'rganini batafsil gapirib berishni iltimos qilishdi.

– Sizlar bu g'orni do'zax deyapsizlarmi?! – xitob qildi don Kixot. – Uni bunday demanglar, bunga u munosib emas, hozir o'zlaringiz ham ishonch hosil qilasizlar.

U juda ochqab qolganligi uchun yeydigan biron narsa berishlarini so'radi. Maysa ustiga, talabaniq plashini yoyib, to'rvadan ovqat olib, birdaniga ham tushlik, ham kechki ovqat qilishdi. Hamma narsa yig'ishtirib bo'lingach, don Kixot hikoya qila boshladi:

– Mana endi, do'stlarim, diqqat bilan quloq soling-lar. O'n ikki yoki o'n to'rt sarjin chuqurlikda, g'orning o'ng tomonida butun boshli arava xachiri bilan joylashadigan o'ngir bor ekan. Uni sizlar meni arqonda pastga tushirayotganlaringizda payqadim. Pastga tushishdan charchaganim sababli u yerga kirib biroz dam olishga qaror qildim. Men sizlarga arqonni boshqa bo'shatmanglar deb baqirdim, lekin sizlar, chamamda, eshitmadingizlar. Men pastga tushayotgan arqonni yig'ishtirib, o'radimda, ustiga o'tirib chuqur o'ygaga botdim. Men dam olguncha sizlar hamma arqonni tushirib bo'lgan edingizlar, shuning uchun endi qanday qilib pastga tushaman deb bosh qotira boshladim. Men ana shu narsa haqida o'ylab turiganimda, qo'qqisdan qattiq uyqu bosdi, uxlab yotganimda nima voqealar sodir bo'lganini bilmayman, lekin uyqudan ko'zimni ochsam, aql bovar qilmaydigan bir ajoyib chamanzor ichida turibman. Hayratda qolganimdan tushimmi bu, o'ngimmi deb, ko'zlarimni uqalay boshladim. Shu zahoti ko'z oldimda hashamatli qirol saroyi paydo bo'ldi: saroy-

---

<sup>1</sup> Montesinos, Durandarte – afsonaviy ispan ritsarlari. Ular go'yo Buyuk Karlning Ispaniyaga yurishida qatnashganlar. Servantes yurak kesib olish epizodini qadimiy romanslardan olgan.

ning devor va minoralari oq va shaffof billurdan qilinganga o'xshardi; kutilmaganda ulkan darvozalar lang ochilib ketdi, ichkarida uzun safsar rang plash kiygan nuroniy qariya ko'rindi. Plashning ustida kollej muallimlari kiyadigan ko'k atlasdan kaltagina yopqich. Boshida qora qalpoqcha: qorday oppoq soqoli ko'kragini qoplab turibdi; qo'lida o'rmon yong'og'idan kattaroq donali tasbeh. Uning qaddi-qomati, qadam bosishlari, ulug'vor qiyofasi meni hayratda qoldirib, qalbimda unga nisbatan izzat-hurmat hissini uyg'otdi. U yonimga kelib, meni bag'riga bosib: «Bahodir ritsar lamanchlik don Kixot, bu sehrlangan dasht-u biyobonda uzoq yillardan beri seni kutib yotibmiz, sen Montesinos nomli bu chuqur g'or sirlarini dunyoga ma'lum qilishing kerak. Bu qahramonlik senga nasib qilgan, chunki faqat sengina o'zingning yengilmas jasorating va ajoyib qahramonliging bilangina bu ishga bel bog'lay olasan. Qani, ortimdan yur, shuhratli sinor, men senga sehrlangan bu saroydagi mo'jizalarni ko'rsataman. Men bosh soqchiman – ismim Montesinos, g'orga ham mening nomim berilgan», – dedi. Shunda men, bizning qo'shig'imizdagidek Ronsevalda o'ldirilgan sizning o'z do'stingiz Durandartening yuragini xanjar bilan kesib olib, sinora Belermaga sovg'a qilib keltirib berganingiz to'g'rimi? – deb so'radim. U menga, hammasi to'g'ri ekanligini, faqat oddiy xanjar bilan emas, balki boplab charxlangan uch qirrali xanjar bilan shunday qilganini aytdi.

– Ehtimol, – gapga aralashdi Sancho, – bu sevilyalik Ramon de Oses yasagan xanjarlardandir.

– Bilmayman, – javob berdi don Kixot, – lekin, har holda, bunday bo'lmasa kerak, chunki pichoqchi Ramon de Oses yaqindagina o'tgan, Ronseval jangi esa bir necha asrlar muqaddam bo'lib o'tgan. Umuman, bu unchalik muhim emas.

– To'g'ri aytasiz, – dedi talaba, – davom ettiring, muhtaram sinor don Kixot, men hikoyangizni zo'r mamnuniyat bilan tinglayotirman.

– Men ham xuddi ana shunday mamnuniyat bilan hikoya qilayotirman, – ta'kidladi don Kixot. – Shunday qilib, hurmatli Montesinos meni billur saroyga olib kirdi. Bu yerda ganch bilan

pardoz berilgan, past va muzdakkina zalda marmar sag'ana turardi. Shu sag'ananing qopqog'ida ritsar yotardi, lekin u odatdagi sag'analarga qo'yiladigan yodgorlik toshlaridagidek mis va yashmalardan emas, balki barcha kishilar kabi suyak va go'shtdan iborat edi. Uning o'ng qo'li yuragi ustida turibdi. Mening marhum ritsarga naqadar hayajon va qiziqish bilan qarayotganimni ko'rgan Montesinos, savol berishimni kutib turmay, o'zi gapira ketdi: «Bu yerda o'z zamonasidagi oshiq hamda shavkatli ritsarlarning guli va shon-sharafi, mening do'stim Durandarte yotibdi. Uni iblis farzandi, fransuz sehrgar Merlin<sup>1</sup> sehrlab qo'ygan. Bu yovuz sehrgarning nima maqsadda Durandarteni, meni va boshqa ko'p ritsarlar va xonimlarni sehrlab qo'yganini hozircha hech kim bilmaydi. Ammo meni tamoman boshqa narsa qiziqtiradi: aniq bilamanki, Durandarte mening qo'limda jon bergan: uning o'limidan keyin o'z qo'lim bilan uning yuragini kesib olganman, uning og'irligi, to'g'risini aytsam, ikki funtcha kelardi, chunki tibbiyotchilarning fikricha, yuragi katta kishilar kichik yurakli odamlarga qaraganda ancha-muncha jasoratli bo'lishadi. Haqiqatan ham, bu ritsar o'lgan bo'lsa-yu, yana qanaqasiga u xuddi hayot odamday goh nola qilib, goh xo'rsinadi?». Montesinos mana shu so'zlarni aytib bo'lar-bo'lmas, baxtsiz Durandarte qattiq nola qilib, gapira boshladi:

*Montesinos, inijon,  
Dildan senga iltimos:  
Kunim bitib, nogahon,  
Ajalim yetsa, paqqos.  
Darrov yorib ko'ksimni,  
Yuragim oling albat.  
Hamda eltingiz uni,  
Belerma tomon faqat.*

<sup>1</sup> Merlin – qadimgi ingliz afsonalarida tavirlangan qahramon, karomat qila oladigan donishmand sehrgar. Merlin afsungar, donishmand va avliyo sifatida Doira Stolining deyarli barcha romanlarida ishtirok etadi.



ko'rinmas ekan, boisi badbaxtlarcha halok bo'lgan ritsarini dam-badam xotiriga tushirib turadigan qo'lidagi yurakdir. Axir, shunday bo'lmaganida, bizning o'lkamizda, umuman, butun dunyoda shon-shuhratga sazovor bo'lgan Tobosolik Dulsineya ham go'zallik va nazokatda unga bas kela olmasdi.

«O'tinib so'rayman, sinor Montesinos, – dedim men, – taqqoslashdan hamisha qochish kerak, chunki bu hamisha ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Tobosolik Dulsineya ham xuddi sinora Belerma singari go'zallikda beqiyosdir, shuning uchun bu haqdagi gapni bas qilaylik». U menga bunday javob berdi: «Meni kechirasiz, sinor don Kixot. Men sinora Dulsineyani sinora Belermaga o'xshatib, noto'g'ri gapirib qo'yganimni tan olaman. To'g'risini aytganda, muhtaram janoblari o'sha xonimning izmidan ekanliklarini fahmladim, shuning uchun tilimni tishlab, uni samodan boshqa narsaga qiyos qilmasligim lozim edi». Ulug' Montesinosning bu uzrini eshitib, mening sinoramni qandaydir bir xonim bilan taqqoslaganida paydo bo'lgan jahlim biroz pasaydi.

– Ajabo, marhamatli janob, – gapga aralashdi Sancho, – axir, qanday qilib siz o'sha cholning suyaklarini majaqlab tashlamadingiz, soqollarini bittalab yulmadingiz?

– Yo'q, do'stim Sancho, – javob berdi don Kixot, – biz barcha oqsoqollarni, ayniqsa, sehrlangan ritsarlarni hurmat qilishimiz kerak.

Shu payt talaba gapga aralashdi:

– Sira tushunolmayapman, sinor don Kixot, siz qanday qilib yer ostida bu qadar ko'p narsani ko'rib, ular haqida so'rab-gaplasha oldingiz. Axir, siz u yerda uzoq bo'lmadingiz-ku!

– Men g'orga tushgandan beri qancha vaqt o'tdi? – so'radi don Kixot.

– Bir soatdan sal oshdi, – javob berdi Sancho.

– Bunday bo'lishi mumkin emas, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – men u yerda uch kecha-kunduz bo'ldim.

– Mening xo'jayinim to'g'ri gapiryaptilar, – tasdiqladi Sancho. – Axir, u kishi sehrlangan g'orga tushganlar-da, shuning uchun bizning bir soatimiz yer ostida uch kecha-kunduzga to'g'ri

keladi.

– Bo‘lmasam-chi, xuddi shunday, – javob berdi don Kixot.

– U yerda biron narsa yedingizmi, sinor? – so‘radi talaba.

– Tuz totmadim, – javob berdi don Kixot, – hatto ochiq-qanim yodimdan ko‘tarilib ketibdi.

– Sehrlanganlar ovqatlanisharkanmi? – yana so‘radi talaba.

– Yo‘g‘-e, – javob berdi don Kixot. – Ammo ba‘zi odamlarning taxmin qilishicha, ularning tirnog‘i, soch-soqollari doim o‘saverarmish.

– Uxlashlari mumkin ekanmi, sinor? – so‘radi Sancho.

– Albatta, yo‘q, – javob berdi don Kixot, – har holda, men ular bilan birga bo‘lgan uch kecha-kunduz davomida hech kim mijja qoqmadi.

– Bu yerda bir maqolni eslash joiz bo‘lib qoldi, – dedi Sancho. – «Yaxshiga yaqin yursang, yetarsan murodga, yomon-ga yaqin yursang, qolarsan uyatga». Muhtaram janoblari ovqat yemaydigan va uxlamaydigan sehrlanganlar bilan do‘stlashib-dilar, modomiki, hamma vaqt ular bilan birga bo‘lgan bo‘lsangiz, siz ham ovqat yemagansiz, uxlamagansiz. Buning hech qanaqa ajablanadigan joyi yo‘q. Dadilligim uchun kechirasiz-u, janob sinorim, men sizning hikoyalarigizga zarracha ishongan bo‘lsam, xudo ursin (shayton ursin deyishga sal qoldi).

– Nega ishonmaysiz?! – xitob qildi talaba. – Nahotki, don Kixot yolg‘on gapirsa? Basharti biron qiziqarli uydirma bilan bizni ovuntirmoqchi bo‘lgan bo‘lsa, u vaqtda bu hikoyani to‘qishga fursati ham yetmasdi.

– O‘ylaymanki, xo‘jayinim yolg‘on gapirmaydi, – javob berdi Sancho.

– Unda nima deb o‘ylayapsan bo‘lmasa? – so‘radi don Kixot.

– Men o‘ylaymanki, – javob berdi Sancho, – o‘sha Merlinmi yo boshqa biror jodugarmi hikoya qilayotgan voqeangizni sizning miyangizga quyib qo‘ygan.

– Sening taxminlaring haqiqatga o‘xshab ko‘rinsa-da,

birodar Sancho, baribir, sen yanglishayotirsan, – qat’iy javob berdi don Kixot, – shu narsa yodingda bo’lsin, men nimani aytgan bo’lsam, hammasini o’z ko’zim bilan ko’rib, qo’llarim bilan ushlaganman. Montesinos turli-tuman mo’jizalar bilan bir qatorda ajoyib o’tloqlarda xuddi ohulardek sakrashib o’ynab yurgan uch dehqonchani ko’rsatdi. Bunga nima deysan? Men o’sha zahotiy oq hech tengi yo’q Tobosolik Dulsineya va hamrohlarini tanidim. Men Montesinosdan, bularning kimligini bilasizmi, deb so’radim. Hurmatli oqsoqol bilmasligini aytdi. «Ehtimol, – qo’shib qo’ydi u, – bular yaqin orada Merlin sehrilagan atoqli sinoralardir. Bu yaylovlarda sehrning yovuz sehr-u jodusi qurboni bo’lgan yangi sinora va xonimlar tez-tez paydo bo’lib turadilar».

Sancho Pansa xo’jayinning bu so’zlarini eshitganida kulgidan yorilib ketamanmi deb qo’rqdi: chunki u Dulsineyaning boshqa qiyofaga kirishi sirini hammadan ko’ra yaxshiroq bilardi, axir, bu ishning yagona sehrigari va guvohi bo’lgandi-da u! Endi u xo’jayinning aqlidan ozganligiga chindan ishondi.

– O’sha siz yer osti saltanatiga tushgan kunga la’natlar bo’lsin, marhamatli xo’jayin janoblari, – dedi Sancho, – sinor Montesinos bemavrid uchrab, boshingizni tamoman aylantirib qo’yibdi. Marhamatli janoblari, mana shu yerda o’tirib, har bir qulay fursatda hikmatli pand-nasihatlar qilib, aqlga sig’maydigan bema’ni gaplarni yig’ishtirganingiz ma’qul edi!

– Seni bu beodobliging uchun adabingni berib qo’yish kerak edi-yu, – dedi don Kixot, – lekin men seni va so’zlaringizning qiymatini yaxshi bilaman.

– Men siznikini, sinor, – e’tiroz bildirdi Sancho. – Xohlasangiz, o’lgunimcha kaltaklang, marhamatli janobim. Baribir, men to siz aqlingizni yig’ib, tuzalmaguningizcha so’zimdanda qaytmayman. Muhtaram janoblari, janjallashib qolmasimizdan burun menga shuni ayting-chi, siz sinora Dulsineyani qanday tanidingiz? Siz u bilan gaplashganingizda nima deb javob berdi?

– Men uni shuning uchun ham taniy oldimki, – javob berdi don Kixot, – o’sha kuni uni Toboso yaqinidagi o’tloqda ko’rganimdagi kiyimlarida ekan. Men gapirsam, u indamay

shartta orqasiga burildi-yu, kamon o'qiday uchib ketdi. Men uning orqasidan quvmoqchi bo'ldim, lekin Montesinos bu harakatim zoye ketishini aytdi. Buning ustiga g'ordan chiqadigan vaqtim ham yaqinlashmoqda edi. Montesinos menga belgilangan vaqt-soat yetib, Belerma, Durandarte va boshqalarni sehr-jodudan xalos etish uchun qanday qahramonliklar ko'rsatishim kerakligi haqidagi sirni ochajagini aytdi. Men yer osti podsholigida ko'p qayg'uli narsalarni ko'rdim, ayniqsa, Dulsineyaning hamrohlaridan birining oldiga kelib, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib past tovush bilan: «Mening malikam Tobosolik Dulsineya siz marhamatli janoblarning qo'llarini o'pishni va sihat-salomatligingizni so'rashni buyurdilar. Malikam sizdan bunday og'ir muhtojlik damlarida siz muhtaram janoblarining iltifot ko'rsatishingizni va mana bu yo'l-yo'l yubka badaliga olti real qarz berib turishingizni o'tinib so'radi. U bu qarzni sizga tez kunda qaytarib berishga va'da berayotir», deyishi yurak-bag'rimni ezib yubordi. Bu iltimos meni haddan tashqari hayratda qoldirdi. Men sinor Montesinosga murojaat qilib, so'radim: «Sinor Montesinos, sehrlangan aslzoda xonimlar ham muhtojlik tortishi mumkinmi?!» «Menga ishonib, muhtaram sinor lamanchlik don Kixot janoblari, – javob berdi u, – muhtojlik hamma yerda uchraydi, hatto sehrlanganlarga ham shafqat qilmaydi. Modomiki, sinora Tobosolik Dulsineya ishonchli garov bilan olti real qarz so'ragan ekan, uning iltimosini bajarishingiz lozim: aftidan, ahvoli juda tangga o'xshaydi». «Menga garov kerak emas, – javob berdim, – olti realni ham bera olmayman, chunki yonimda atigi to'rt real bor». Men bu pullarni qizga berib, shunday dedim: «Azizim, malikangizga aytingki, uning baxtsizligi qalbimni azoblayotir. Men uning oyoqlari ostiga sochish uchun behisob boylikka ega bo'lish ishtiyoqidaman. Yana shuni ham yetkazingki, men undan yiroqda yashay olmayman, usiz o'zimni xursand his etolmayman. Men go'zal sinoradan o'tinib so'rayman, iltifot ko'rsatib, dog'ida kuygan ritsari bilan suhbatlashsin. Toki sinora Dulsineyani sehr-jodudan xalos etmaguncha dasturxonadan tuz totmaslikka, uy ichida yotmaslikka qasamyod qilaman. Ont ichib aytamanki, uni ozod etish uchun butun dunyoni

kezib chiqishga tayyorman». «Bugina emas, marhamatli janoblari, malikangiz uchun hali juda ko'p narsalarni qilishingiz zarur», – dedi qiz, so'ngra u to'rt realni oldi-da, menga ta'zim qilish o'rniga, bexosdan osmonga shunday sakradiki, yerdan bir sarjin balandga ko'tarildi.

– Yo xudo! – xitob qildi baland ovoz bilan Sancho. – Nahotki, bu jodugarlar yorug' dunyoda shunchalik kuchga ega bo'lsa, sog'lom aqlli xo'jayinimni tentakka aylantirib qo'ysa-ya. O sinor, sinor, Xudo haqqi aqlingizni yig'ib oling, o'z qadr-qimmatingizni o'ylang, sizni aqldan ozdirgan bu bema'niliklarga ishonmang!

– Sen, Sancho, bu gaplarni menga yaxshilik qilish uchun atyapsan, – dedi don Kixot, – ammo sen sehrgarlikning nimaligini bilmaysan, shuning uchun o'zing tushunib yetmagan narsalarning mavjudligiga ishonmaysan.

Sancho Pansaning beadablighi va xo'jayinning sabr-toqatliligi talabani hayratda qoldirgandi. Lekin u don Kixotning bu muloyimligiga sabab, agarda u sehrlangan bo'lsa-da, sinora Tobosolik Dulsineya bilan uchrashuvi shodiyonasi bo'lsa kerak, deb o'yladi. Uning o'zi esa, bizning tentak ritsarimiz hikoya qilgan narsalarning hammasiga chindan ishonadi.

– Men o'ylaymanki, sinor don Kixot, – murojaat qildi ritsarga, – sayohatim juda muvaffaqiyatli, ko'ngildagidek bo'ldi. Birinchidan, sizdek muhtaram janob bilan tanishdim. Ikkinchidan, Montesinos g'orining sirini, Gvadiananing va Ruidera bo'g'ozining tarixini bildim, bularning hammasi mening ispan Ovidiyamga kerak bo'ladi. Uchinchidan, o'yin qartalari Buyuk Karl zamonida ham mavjud ekanini aniqladim, chunki buni Durandarte eslatib o'tibdi. Bu kashfiyotni men o'zimning yangi kitobim «Polidorga qo'shimcha»ga kiritaman.

– Marhamatli janoblari to'g'ri aytadilar, – dedi don Kixot. – Men sizga yana juda ko'p qiziq va foydali ma'lumotlarni aytib berardim. Lekin bu haqda keyinroq gaplashamiz, hozir esa qayerda tunash haqida bosh qotirish kerak.

– Bu yerdan sal nariroqda bir darvesh yashaydi, – javob berdi talaba. – Aytishlariga qaraganda, u oliyjanob va rahmdil

odam emish. Uning bizga tunagani joy berishiga shubham yo‘q, bir stakan yaxshigina vino ham topilishi mumkin.

Vino haqidagi gapni eshitishi bilanoq Sancho hamrohlarini tezroq yo‘lga tushishga shoshiltira boshladi. Don Kixot o‘z Rosinantiga, Sancho talaba bilan esa eshakka minib, shoshilib yo‘lga tushdilar.

## *QIRQ IKKINCHI BOB*

### **QO‘G‘IRCHOQ TEATRI BILAN BO‘LGAN ALOMAT HANGOMALAR TAVSIFI, SHUNINGDEK, «KAROMAT» QILUVCHI MAYMUNNING DIQQATGA SAZOVOR KAROMATLARI**

Yo‘lovchilarimiz qatnov yo‘lga chiqishganda, qarshidan ustiga nayza va alebada yuklangan xachirni jadal haydab kelayotgan bir kishini ko‘rdilar. Yo‘lovchi bularga yaqinlashgach, ta‘zim qilib, indamay o‘tib ketdi.

Lekin don Kixot unga qarab:

– Hoy, yaxshi odam, to‘xtang. Menimcha, siz xachiringiz istaganidan ko‘ra ildamroq ketyapsiz, – dedi.

– Juda shoshilib turibman, sinor, – javob berdi u. – Ko‘rib turibsizki, qurol olib ketayotibman. Bular ertagayoq kerak bo‘ladi, shuning uchun yo‘lda to‘xtay olmayman, xayr! Ammo siz bularni nima maqsadda olib ketayotganim bilan qiziqsangiz, esingizdan chiqarmang, men bugun bu yerdan unchalik olisda bo‘lmagan mehmonxonada tunayman. Agar siz ham o‘sha tomonga borsangiz, uchrashib qolarmiz, o‘shanda sizga mo‘jizaviy ajoyibotlarni so‘zlab beraman, hozircha yana bir marta xayr!

U o‘z xachirini shunday jadal haydab ketdiki, hatto don Kixot uning qanday ajoyibotlar haqida so‘zlab bermoqchi bo‘lganini so‘rashga ham ulgurolmadi. Ritsarimiz hamisha qandaydir bir yangilikni bilish ishtiyoqi bilan yashagani uchun talaba taklif etgan darveshnikiga bormay, kechani mehmonxonada o‘t-

kazishga qaror qildi.

Ular shunday qilishdi: orqaga qaytib, mehmonxonaga qarab ketdilar.

Yo'lda ular bir yosh yigitga yetib oldilar. U qaddi-qomati kelishgan, xushchaqchaq va ko'rinishdan o'n sakkiz yoshlar chamasidagi chaqqongina yigit edi. Uning yelkasida shamshir bo'lib, unga kichik bir tugunchani osib olgan, egnida baxmal kamzul bo'lib, ko'ylagi tashlangan edi. Aftidan, boshqa kiyimini o'sha tugunchaga tugib olgandi. Oyoqlarida shaharcha modadagi ipak paypoq, to'rtburchakli kavush. Yigit o'zini ovuntirish maqsadida allaqaysi bir ashulani xirgoyi qilib borar edi. Yo'lovchilarimiz uning yoniga yetib borganlarida u mana bu bandni aytib tugallayotgandi:

«Jangga haydar meni muhtojlik – beor, Agar pul topsaydim, bormasdim zinhor».

– Kechirasiz, yosh sinor, qayoqda ketyaptilar? Sayohatga juda yuqingizni yengil qilib chiqibsiz? – dedi don Kixot.

– Sayohatga chiqishning boisi kambag'allik va havoning issiqligidan. Jangga ketyapman.

– Issiqligidan bo'lishi mumkin, buni tushunaman, – dedi don Kixot, – lekin kambag'allikdan deganingizga hayronman?!

– Sinor, – javob berdi yigit, – kamzulimning jufti – baxmal cholvorim mana bu tugunchada. Agar men ularni yo'lda kiysam, shaharda kiyimsiz qolaman, yangisini olishga esa pulim yo'q, shuning uchun ham mana shunday ahvolda ketyapman. Bu yerdan o'n ikki mil narida joylashgan piyodalar polki<sup>1</sup> qarorgohiga boraman. U yerda askarlikka yozilaman, so'ngra boshliqlar bizni kemaga o'tkazadigan portgacha yetkazib qo'yishar. Aytishlaricha, Kartaxenga olib borisharkan. Men qandaydir bir qashshoq saroy amaldoriga xizmat qilishdan ko'ra, urushda qiroлга xizmat qilishni afzal deb bilaman.

– Ehtimol, muhtaram janoblari, oxirgi ish joylarini tark etish oldidan birorta mukofot olgan bo'lsalar kerak? – so'radi

---

<sup>1</sup> Polk (*ruscha*; bir gala, to'p (qiz); olomon; qo shin) – odatda diviziya yoki brigada tarkibiga kiradigan va bir necha batalon va rotadan tashkil topgan harbiy qism.

talaba.

– Agar men ispan grandiga yoki biror aslzoda amaldorga xizmat qilganimda edi, – javob berdi yigit, – ehtimol, bunday mukofotni olardim, martabasi baland kishilarnikida xizmat qilish katta afzalliklarga ega: birdaniga poruchik<sup>1</sup>, kapitan bo‘lish yoki yaxshigina mukofot olish mumkin. Mendek baxtiqaro, o‘zlari biror yaxshiroq ishga joylashish ilinjida yurgan, oladigan maoshlarining yarmi ohorli yoqalariga sarf bo‘ladigan kishilar dargohida xizmat qilishga to‘g‘ri keldi. Mendek bir daydi mahramning omadi kelib, kichkinagina baxtga erishsa, bir mo‘jiza bo‘lardi.

– Ayting-chi, do‘stim, – so‘radi don Kixot, – nahotki siz butun xizmatigingiz davomida xo‘jayinlaringizdan bironta ham livreya<sup>2</sup> orttirmagan bo‘lsangiz?

– Ikki livreyam bor edi, – javob berdi mahram, – lekin, rohibning shogirdi monastirdan ketmoqchi bo‘lsa, undan jubbasini yechib olib, eski liboslarini qaytarib beradilar. Mening xo‘jayinlarim ham xuddi shunday qildilar: ketishim oldidan livreyalarimni olib qo‘ydilar.

– Bu haqiqiy xasislik. Lekin, modomiki, siz poytaxtni tark etib, o‘zingizni harbiy ixtisosga bag‘ishlashga qaror qilgan ekan-siz, endi o‘zingizni baxtli deb bilsangiz kerak. Bizning qonuniy pushti panohimiz – qiroлга xizmat qilishdan, ayniqsa, askar bo‘lib xizmat qilishdan ko‘ra dunyoda sharaflı va foydali ish yo‘q. Agar biz harbiy xizmatda unchalik ko‘p boylık orttirolmasak ham, har holda, ilm bilan shug‘ullangandan ko‘ra katta sharafta muayassar bo‘lamiz. To‘g‘ri, olimlarga nisbatan allaqanday sezilmas ustunlikka ega. Hozir men sizga aytib bermoqchi bo‘lgan narsani yaxshi eslab qoling, chunki mening so‘zlarim sizga foyda keltiradi va tasalli beradi. Hamisha men baxtsizlikka uchrayman, degan fikrni o‘zingizdan yiroq tuting. Baxtiqarolikning eng yomoni – o‘lim, ammo sizning o‘limingiz qahramonona bo‘lsa, siz uni eng ulug‘ baxt deb hisoblashingiz lozim. Basharti siz jang

<sup>1</sup> Poruchik (*polyakcha*) – harbiy unvon. Hozirgi vaqtda katta leytenant unvoniga to‘g‘ri keladi.

<sup>2</sup> Livreya – aravakash, darvozabon va shu kabilarning zarrin uqali formasi, kiyimi.



maydonida omon qolsangiz ham, keksayib, mayib bo'lib qolsangiz ham, hech narsa, hatto kambag'allik ham jasur soldatning shon-sharafini zarracha kamaytira olmaydi. Darvoqe, hukumat hozirdanoq mayib bo'lgan jangchilarga keksalikda osoyishta yashashlari uchun sharoit yaratish choralari ko'rmoqda. Zeroki ularga xuddi negrlarga qilinganidek munosabatda bo'lish yaramaydi. Xo'jayinlar negrlarni qartayib, ishga yaramay qolganda, ozod etadilar, boshqacha qilib aytganda, uylaridan haydab chiqarib, ochlik qa'riga uloqtiradilar. Sizga aytmoqchi bo'lgan gaplarim mana shu. Endi otimga mingashib oling, men sizni karvonsaroyga olib boraman, u yerda birga ovqatlanamiz, ertaga esa yana olg'a qarab ketasiz. Xudo sizga oq yo'l ato qilsin, chunki sizning oqilona qaroringiz Xalqning marhamatiga sazovordir.

Mahram don Kixotning otiga mingashishga ko'nmadi, lekin karvonsaroyda kechki ovqatni tanovul qilishga rozi bo'ldi. Bu paytda Sancho o'z-o'zicha g'o'ldirardi:

– E xudo, mening xo'jayinimga shafqat qil. Axir, hozir shunchalik oqilona va ajoyib fikrlarni aytgan shu odam qanday qilib Montesinos g'orida allaqanday bema'nichiliklarni ko'rganligini tasdiqlashga jur'at etadi! Xayr, oxiri baxayr bo'lsin.

Ular karvonsaroyga yetib qolganda, qosh qorayib qolgan edi. Don Kixot o'zining doimiy odatiga ko'ra karvonsaroyini qandaydir qasr deb hisoblamay, oddiy mehmonxona deb bilgani-dan Sancho juda xursand bo'lib ketdi. Ular ichkariga kirishlari bilanoq ritsar xo'jayinidan qurol olib ketayotgan dehqonni so'radi. Xo'jayin uning otxonada xachirining egarini olayotganini aytdi.

Don Kixot mo'jizaviy ajoyibotlar haqidagi hikoyani tezroq eshitishga oshiqqanidan otxonaga bormoqchi bo'ldi. Ammo bu yerda yana bir kelgindining paydo bo'lishi uni yo'ldan to'xtatdi. Uzun bo'yli, ozg'ingina bu odam tuya junidan to'qilgan matodan kostyum kiyib olgan edi. Uning chap ko'zi va yonog'ining yarmiga ko'k shoyini malham bilan yopishtirib qo'yilgan bo'lib, ko'rgan kishi yuzining butun chap tomoni qandaydir kasalga muhtalo bo'lgan ekan, deb o'ylar edi. U o'zini dadil va surbetlarcha tutar, shang'illab va dag'dag'a qilib gapirardi.

– Sinor xo‘jayin, menga biron joy-poy topilmaydimi? – deb shang‘illadi ostonada turib, – bir to‘da ulfatlarim ham bor.

– Jin ursin! – xitob qildi xo‘jayin. – Axir, bu sinor maese<sup>1</sup> Pedro-ku! Xush kelibsiz, sinor maese! Maymunchangiz va teatringiz qani? Nega men ularni ko‘rmayapman.

– Ular hozir kelib qolishadi, – javob berdi ko‘ziga ko‘k shoyi yopishtirilgan kishi, – siznikida tunab qolish mumkinmi-yo‘qligini bilgani oldinroq yetib kelgandim.

– Men sinor maese Pedroga tunashga joy berish uchun hatto gersog Albaga<sup>2</sup> ham rad javobini berardim, – dedi xo‘jayin. – Maymun va teatringizni bu yoqqa olib keling. Bugun menikida yo‘lovchilar juda ko‘p, ular qo‘g‘irchoqlaringiz va maymuningizning nayrangbozliklarini tomosha qilish uchun pulni ayashmaydi.

– Rosa vaqtida kelibman-da, – javob berdi ko‘ziga shoyi yopishtirilgan kishi. – Men tomosha haqini kamaytirishga ham roziman. Xarajatlarimni to‘lashsa ham kifoya. Hozir borib maymun va teatr yuklangan aravachani olib kelaman.

U ana shu so‘zlarni aytib, mehmonxonadan chiqib ketdi. Shu zahotiyuq don Kixot maese Pedroning kimligi va uning qanday teatr haqida gapirganini so‘radi.

Xo‘jayin javob berdi:

– Bu kishi – qo‘g‘irchoq teatrnig egasi. U Aragon lamanchi bo‘ylab kezib yuradi va bahodir Gayferosning Melisendrani qanday qilib xalos etganligi haqida tomosha ko‘rsatadi<sup>3</sup>. Biz

---

<sup>1</sup> **Maese** – maestro, ustoz.

<sup>2</sup> **Gersog Alba** (1508 – 1582) – sarkarda va ispan qiroli Filipp II ning ishonchli kishisi. Alba Niderlandiya viloyatlaridagi qo‘zg‘olonlarni bostirishda va Portugaliyani bosib olishda o‘zining vahshiyona shafqatsizligi bilan dong chiqaradi. Uning nomini eshitgan xalq dahshatga tushardi.

<sup>3</sup> ...**bahodir Gayferosning Melisendrani qanday qilib xalos etganligi haqida tomosha ko‘rsatadi** ... – Ispaniyadagi qo‘g‘irchoq teatri hanuzgacha ravnaq topib kelmoqda. XIX asrning 70-yillarida ham Sevilya, Valensiya va boshqa shaharlarning sahnalarida «Gayferos va Melisendraning qiziqarli tarixi» ko‘rsatilar edi. Tomoshabinlar uni zavq bilan tomosha qilishardi. Bu voqea ko‘p romanlarda kuylangan. Romanslarda Gayferosni Buyuk Karlning nabirasi, mashhur Rolandning temirchisi, Melisendrani esa, imperatorning qizi deb atashadi. Unashtirib qo‘yilgandan keyin ko‘p o‘tmay Melisendrani mavrlar Ispaniyaga olib qochishadi. Gayferos bir qator sarguzashtlardan so‘nggina nihoyat uni asirlikdan ozod qilishga muvaffaq bo‘ladi.

ko'pdan beri bunchalik qiziqarli va mahorat bilan o'ynalgan tomoshani ko'rmagan edik. U o'zi bilan bir bilimdon maymunni olib yuradi. Bu maymunning mislsiz mahoratiga maymunlargina emas, hatto odamlar ham qoyil qoladi. Undan biron narsa haqida so'rab ko'ring-a! U sizni diqqat bilan tinglaydi, so'ngra bir sakrab xo'jayinning yelkasiga chiqib oladi-da, sizning savollaringizga beriladigan javoblarni uning qulog'iga shipshitadi, maese Pedro esa bu javobni aytib beradi. Maymun kelajakdan ko'ra, o'tmishdan ancha xabardor, u har vaqt ham mo'ljalga uravermasa-da, har holda, kamdan kam adashadi. Biz uning miyasiga iblis uya qurib olgan, deb o'ylaymiz. Agar maymun javob bersa, to'g'rirog'i, u qulog'iga shipshitgandan so'ng egasi javob bersa, siz maese Pedroga ikki real berasiz. Bu katta pul, albatta, Pedro juda badavlat degan mish-mishlar ham bor; har holda, u shod-xurram umr kechiradi, biryo'la besh kishi uchun gapiradi, besh kishi ichadiganini ichadi, bularning hammasi maymuni va teatrning sharofati.

Shu payt Pedro aravacha bilan qaytib kelib qoldi: aravachada qo'g'irchoq teatri solingan yashik yotar va keti xuddi namatga o'xshagan kattagina dumsiz maymun o'tirar edi. Buni ko'rgan don Kixot o'sha zahotiyoc:

– Qani ayting-chi, muhtaram bashoratgo'y sinor, bizni kelajakda nimalar kutmoqda? Mana sizga ikki real, – dedi.

Sanchoga ularni maese Pedroga berishni buyurdi, lekin maymunchaning o'rniga egasi javob berdi:

– Sinor, bu hayvon kelajak haqidagi savollarga javob bermaydi. U o'tmish va hozirgi kun haqida ba'zi bir narsalarni biladi.

– Jin ursin! – xitob qildi Sancho. – Men o'tmishim haqida folbinlik qiladiganlarga sariq chaqa ham bermayman. Axir, bu haqda mening o'zimdan boshqa kim yaxshiroq bilishi mumkin? O'zim biladigan narsa uchun pul to'lash ashaddiy tentaklik-ku. Lekin, agar sizning maymuningiz hozirgi damda sodir bo'layotgan voqealarning hammasini bilsa, mana ikki real, qani, maymun janobi oliylari aytib bersinlar-chi, mening xotinim Teresa Pansa shu tobda nima ish qilyapti?

Maese Pedro pulni olmadi va shunday dedi:

– Men xizmat qilmasdan oldin mukofot olmayman.

So'ngra u o'ng qo'li bilan chap yelkasini ikki marta urdi: maymun bir sakrab xo'jayinining yelkasiga chiqdi-da, tumshug'ini uning qulog'iga tekkizib turib, teztez tishlarini g'ijirlata boshladi; bu ish qisqagina bir duoni o'qish uchun qancha vaqt ketsa, shuncha fursat davom etdi. So'ngra maymun sakrab yerga tushdi, maese Pedro esa don Kixot oldida tiz cho'kib, uning oyoqlarini quchoqlagancha dedi:

– O, jahongashta ritsarlikni qayta tiklagan, shon-shuhratli ritsar, oyoqlaringizga bosh urishga ruxsat eting. O, shuhrati barcha maqtovlardan ustun turgan lamanchlik don Kixot, o, zaiflarning yupatuvchisi, yiqilganlarning tayanchi, barcha baxtsizlarning quvonchi va suyanchig'i!

Don Kixot dong qotib, dovdirab qoldi, talaba taajjubda, mahram hayratda qoldi, xo'jayin o'zini yo'qotib qo'ydi, o'sha daqiqada xonaga qaytib kelgan, qurol olib ketayotgan dehqon ajablanganidan og'zi ochilib qoldi, xullas, haligi so'zni eshitgan kishilarning hammasi hayajonga tushgan, maese Pedro esa so'zida davom etardi:

– Sen, Sancho Pansa, dunyodagi eng yaxshi ritsarning eng yaxshi qurolbardorisan, bu bilan faxrlan! Sening ajoyib xotining Teresa sog' va salomat. Shu tobda u zig'ir poyasini tolalab eshyapti. Yanada aniq bo'lsin uchun shuni ham qo'shib qo'yayki, uning chap tomonida og'zi uchgan ko'za, ish unumli bo'lsin va quvonchli o'tsin uchun unga anchagina vino quyib qo'yilgan.

– Bunga ishonish mumkin, – javob berdi ko'ngli buzilgan Sancho, – xotinim juda yaxshi, mehnatsevar, vinoga kelganda esa, bu xususda u mendan qolishmaydi.

– Endi men ishonch bilan aytishim mumkinki, – uning so'zini bo'ldi don Kixot, – kimki ko'p sayohat qilsa, u shunchalik ko'p narsani ko'radi va biladi. Menga agar dunyoda karomat qiluvchi maymun bor desalar, aslo ishonmasdim. Bu ajoyib hayvoncha mening lamanchlik don Kixot ekanimni aytib berdi. To'g'ri, u meni ortiqcha maqtab yubordi. Lekin men, qanday bo'lishimdan qat'i nazar, hammaga yaxshilik qiladigan, pashsha-

ga ham ozor bermaydigan muloyim va rahmdil qalb bergan xudodan minnatdorman.

– Mening pulim bo‘lganda edi, – dedi mahram, – sinor maymundan kelajakdagi sayohatlarimda meni nimalar kutayotganini so‘rardim.

– Men maymunning kelajakni oldindan aytib bera olmasligini aytgandim, yo‘qsa sinor don Kixotning hurmati uchun sizdan pul ham so‘rab o‘tirmasdim. Mana endi men o‘z teatrimni o‘rnashtirib, bu mashhur ritsar sharafiga barchangiz uchun bepul tomosha ko‘rsataman, – dedi maese Pedro.

Buni eshitgan uy egasi juda xursand bo‘lib ketdi va maese Pedroga teatrini o‘rnatish uchun qulay joy ko‘rsatdi.

Maese Pedro teatrni o‘rnashtirayotganda don Kixot maymunni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi, so‘ngra Sanchoni bir chekkaga tortib, gapini hech kim eshitmasligiga amin bo‘lgach, so‘zlay ketdi:

– Menga qara, Sancho, men bu ajoyib maymunni diqqat bilan ko‘zdan kechirdim, fikrimcha, bu maese Pedro iblis bilan yashirincha shartnoma tuzgan, albatta. Iblis maymunga o‘tmish va hozirni bilib olishda yordamlashadi, egasi esa buning orqasidan pul ishlaydi. Ammo u boyib olgandan so‘ng esa imonini shaytonga baxshida etishga to‘g‘ri keladi, chunki insoniyat dushmani shuning evazigagina odamlarni qo‘llab-quvvatlaydi. To‘g‘ri, maymun o‘tmish va hozirgi paytnigina karomat qila oladi, xolos. Lekin iblis ham bundan ortiq narsani bilmaydi. U kelajak haqida taxmin qila olishi mumkin, bu ham kamdan kam bo‘ladi, chunki vaqt-soat birgina Xudoning o‘ziga ayon, xolos. Maymunning iblis yordamida gapirishi turgan gap, men bir narsaga hayronmanki, qanday qilib hozirgacha muqaddas inkvizitsiyaga<sup>1</sup> xabar qilinmagan, so‘roq qilinib, qanday kuch uning bashorat qilishga ta’sir etishi aniqlanmadi ekan?!

---

<sup>1</sup> **Inkvizitsiya** (*lotincha*: inquisitio – qidiruv; tergov) – erkin fikrlovchi, dahriy, mavjud cherkov tartib-qoidalariga qarshi chiqqan kishilarni, shuningdek, yahudiylarni ta’qib va sud qilish uchun XIII asr boshlarida katolik cherkovi tomonidan tuzilgan, bevosita Rim papasiga bo‘ysungan sud-politsiya tashkiloti. **Inkvizitor** (*lotincha*; – izlovchi, qidiruvchi; ayyoqchi) – inkvizitsiya sudining a’zosi.

– Har holda, – e’tiroz bildirdi Sancho, – marhamatli janob, maese Pedroga maymunidan Montesinos g’orida boshdan kechirgan sarguzashtlaringizning bari rostligini so‘rab, aniqlab berishini amr qilsangiz, soz bo‘lardi. Chunki men hamon, ko‘nglingizga olmang-u, bularning hammasi yolg‘on va uydirma, hech bo‘lmaganda tushingizda ko‘rgansiz, deb yuribman.

– Mayli, – rozi bo‘ldi don Kixot. – Menimcha, bu gunoh hisoblansa-da, sening maslahatingga ko‘naman.

Bu orada maese Pedro paydo bo‘lib, tayyorgarliklar tugaganini aytib, don Kixotni tomoshaga taklif etdi. Biroq don Kixot undan Montesinos g’orida o‘z boshidan kechirgan sarguzashtlarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini so‘rab berishni iltimos qildi. Maese Pedro shu zahotiyoyq maymunni keltirib, don Kixot va Sanchoning oldiga qo‘ydi-da:

– Menga qarang, sinor maymunjon, bu ritsar Montesinos deb atalgan yurtda sodir bo‘lgan voqealarning chin yoki xayoliy narsaligini bilmoqchi, – dedi.

Shundan so‘ng u odatdagi ishorasini qildi, maymun esa sakrab uning chap yelkasiga chiqib oldi-da, qulog‘iga allanarsani shipshiganday bo‘ldi. Shundan so‘ng maese Pedro shunday dedi:

– Maymunning aytishicha, muhtaram janoblari g’orda ko‘rgan va boshlaridan kechirganlarining ba’zi birlari to‘g‘ri, ba’zilari noto‘g‘ri ekan. Uning bilgani – mana shu. Agar marhamatli janoblari batafsil javob olishni xohlasalar, kelgusi jumagacha kutsinlar. O‘shanda u barcha savollarga javob beradi, hozir uning karomat qilish qobiliyati tugab qoldi, uning aytishicha, bu kuch unga jumadan oldin qaytib kelmas ekan.

– Men nima degandim! – xitob qildi Sancho. – Men marhamatli janoblarning Montesinos g’oridagi sarguzashtlari haqidagi hikoyalarining yarmiga ham ishonmay to‘g‘ri qilgan ekanmanmi?

– Men haqiqatni gapirganmanmi, yolg‘onmi, buni kelajak ko‘rsatadi, Sancho, – javob berdi don Kixot, – chunki sirlar qanchalik yer qa’rida yotmasin, baribir, vaqt o‘tishi bilan ular yorug‘ dunyoga chiqadi, qani, endi bu haqda gapni to‘xtataylik, borib maese Pedroning o‘yinini tomosha qilaylik. Ehtimol, unda

bironta yangilik bordir.

— Bironta yangilik emish! — baqirdi maese Pedro. — Mening teatrimda oltmish ming yangilik bor. Sizni ishontirib aytamanki, muhtaram janoblari, mening teatrim dunyodagi eng mashhur, eng noyob tomoshalardan biri! Endi ishga kirishaylik, vaqt ham kech bo‘lib qoldi, hali biz ko‘p narsani ko‘rsatishimiz va hikoya qilib berishimiz lozim.

Don Kixot va Sancho uning gapiga ko‘nib, teatr o‘rnatilgan xonaga qarab ketdilar. Chor-atrofdagi yonib turgan shamlar teatrnı hashamatli qilib yuborgandi. Maese Pedro qo‘g‘irchoqlarni boshqaradigan bo‘lgani uchun parda orqasiga o‘tib ketdi, sahna oldiga kaltakcha ushlagan shogird bolani qo‘yib qo‘ydi. Bu bola sahnada paydo bo‘layotgan shakllarni tayoqcha bilan ko‘rsatib, tomoshabinlarga tushuntirib turishi kerak edi.

To‘planganlarning yarmi o‘tirishdi, qolganlari tik turardilar. Don Kixot, Sancho, mahram va talaba eng yaxshi joyga o‘tirib olib, tomosha boshlanishini sabrsizlik bilan kutardilar.

Qo‘qqisdan sahna orqasida do‘mbira, karnaylarning ovozlari, to‘plarning gumburlashlari eshitila boshladi. Lekin bu shovqin-suron tezda tinib, bola baland ovoz bilan so‘zlay ketdi:

— Siz muhtaram janoblarga hozir biz ko‘rsatadigan tarixiy haqiqat fransuz solnomalaridan va ispan romanslaridan so‘zmaso‘z olingan. Buni kattalargina emas, hatto kichkintoy bolalar ham biladi. Unda sinor don Gayferosning Sansuene shahrida (o‘sha vaqtlarda Saragossa shahri ana shunday atalgan) mavrlar qo‘lida asirlikda azob chekib yotgan xotini Melisendrani qanday qilib ozod qilganligi hikoya qilinadi. Sinorlar, mana qaranglar, don Gayferosning o‘zi qo‘shiqalarda kuylaganidek soqqa o‘ynayotir:

Soqqa o‘ynar don Gayferos, Melisendra esda yo‘q.

Mana, sahnaga boshida toj va qo‘lida saltanat hassasi bilan Melisendraning otasi imperator Buyuk Karl chiqib kelmoqda. Kuyovi bekorchi o‘yin bilan mashg‘ulligini, hech narsaning g‘amini yemay, parvoyi falak o‘tirganini ko‘rgan imperatorning jahli chiqdi va uni koyidi. Diqqat qilinglar-a, qanchalik shiddat bilan Gayferosga hujum qilmoqda. Qaranglar, uni hassasi bilan

kaltaklamoqda. Ba'zi mualliflarning aytishicha, Karl kuyovining rosa po'stagini qoqqanmish. Karl Gayferosdan qanday qilib bo'lmasin o'z xotinini ozod etishni talab qilmoqda. Aks holda, kekxa imperator uning sharmandasini chiqarib, obro'sini bir pul qilishini aytib do'q uryapti:

Mening gapim shu, endi o'ylab ko'r!

So'ngra, ko'rib turibsizlar, imperator hayajonlangan don Gayferosni qoldirib chiqib ketyapti. Ana, don Gayferos g'azabdan o'zini tutolmay qoldi. U taxta va soqqalarni uloqtirib tashlab, hozir qurol berishni so'radi. U o'z amakivachchasi don Rolanddan qilichini vaqtincha berib turishini iltimos qildi. Don Roland qilichni berishga ko'nmadi, lekin birodariga yordam berajagini aytdi. Ammo jahli chiqqan don Gayferos uning yordamini rad etdi, agar xotini yer qa'riga qamab qo'yilgan bo'lsa ham, uni qutqarib olishga qodir ekanligini uqtirdi. Shundan so'ng Gayferos miltiqni olib, darhol yo'lga tushmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Endi, sinorlar, uzoqdan ko'rinayotgan Saragossa saroyining minoralariga diqqat qilinglar. Minora ayvonchasida mavritancha ko'ylak kiyib olgan xotin turibdi. Bu go'zallikda tengi yo'q Melisendradir. Parij va o'z erini sog'inib, Fransiyaga olib boradigan yo'lga nigoron bo'lib turibdi. Qasrning katta ayvonida salobatli bir mavr o'tiribdi. Bu go'zal Melisendrani asir qilgan mavrlar qirol Marsiliydir.

– Mana endi, – davom ettirdi bola hikoyasini, – gaskoncha plash kiyib olgan, uchqur ot mingan chavandoz paydo bo'ldi. Bu – don Gayferos. U minora oldiga borib to'xtadi. Go'zal Melisendra o'z erini tanidi va unga romansning sizlarga tanish bandlari bilan murojaat etyapti:

Fransiyaga tushsa yo'ling, Gayferosdan xabar ol!

Men romansni boshdan oxirigacha takrorlab o'tirmayman. Odatda, ezmalik zeriktirib qo'yadi. Qarang, don Gayferos plashini qanday ustalik bilan havolatdi. Melisendra quvonchli ishora bilan uni taniganligini bildirdi. U o'ylab o'tirmay, aziz yostiqdoshining otiga mingashish uchun pastga tushyapti. E, voh, bu ne ko'rgilik! Ko'ylagining etagi minora shiyponchasining temir panjarasiga ilinib, osilib qoldi. Lekin haq taoloning



o'zi kishini o'lim yoqasidan ham qutqarib qola oladi: don Gayferos qimmatbaho ko'ylagi yirtilib ketadi ham demay, uni dast ko'tarib yerga tushirdi-da, orqasiga mindirib, yelkasidan mahkam ushlab olishni buyurdi. U sinora Melisendra yiqilib tushmasin deb qo'rquyapti, chunki sinora bunday ot chopishlarga ko'nikmagan-da. Qaranglar, ot qanday quvonch bilan kishnayapti, u sag'risidagi suluv bekasi bilan qanday g'ururlanyapti? Ular otni burib, shahardan chiqib, quvonch va shodlikka to'lib Fransiya tomon yelib borishyapti. Oq yo'l sizlarga, baxtli kelin-kuyovlar! O'z vataningizga eson-omon yetib olinglar! Sizlarga xudo hamisha baxtli va totuvlik bilan yashashni ato qilsin!

Mafusail yoshini bersin!

Shu payt maese Pedro baland ovoz bilan shunday dedi:

– Jo'nroq qilib gapir, xayolingni bo'lma: baland-parvozlik yomon odat.

Bola unga javob bermay so'zida davom etdi.

– Ammo shunday bekorchi yalqovlar ham topiladiki, ular doim hammaga ko'z-quloq bo'lishadi. Ular Melisendraning qanday tushgani va otga minganini ko'rib, buni qirol Marsiliyga yetkazdilar. Marsiliy o'sha zahotiyuq bong urishni amr qildi. Qarang, bu qanday tezlik bilan amalga oshmoqda: mana hamma machitlarda qo'ng'iroqchalar chalinyapti, butun shaharni qo'ng'iroq jarangi tutib ketdi.

– Hoy bola! – deb baqirdi don Kixot. – Bu qip-qizil yolg'on-ku! Machitlarda qo'ng'iroq chalin yaptimish! Axir, mavrlar qo'ng'iroq o'miga nog'ora va bizning klarnetimizga<sup>1</sup> o'xshaydigan surnay chaladilar-ku!

Bu so'zlarni eshitgan maese Pedro qo'ng'iroq chalishni bas qilib, bunday dedi:

– Sinor don Kixot, bunaqangi mayda-chuyda narsalarga e'tibor bermang va to'g'ri-noto'g'riligini surishtirmay qo'ya qoling. Baribir, siz uni o'zingiz istagan taxlitda ko'ra olmaysiz. Bizda deyarli har kuni yolg'on-yashiq va uydirmalar bilan to'la komediyalarni namoyish qilishadi. Shunday bo'lsa-da, bu tomo-

<sup>1</sup> Klarnet – surnayga o'xshash musiqa asbobi.

shalar katta muvaffaqiyat qozonib, kishilarda zo'r qiziqish uyg'otayotir. So'zingni davom ettiraver, bola! Qo'yaver, bular nima desa, deyaverishsin! Mayli, tomoshamda quyosh nurlaridek behisob uydirmalar bo'lsa bo'laversin. Bu hech gap emas. Men kassamni to'ldirsam, bas!

— Kim biladi, menimcha, sizning gapingiz to'g'riga o'xshaydi, — javob berdi don Kixot.

— Qaranglar, qanday ajoyib chavandozlar er-xotinlarni quvishmoqda. Karnaylar jaranglamoqda, surnaylar chiyillamoqda, do'mbira va nog'oralar gumburlamoqda. Ular yetib kelib, qochoqlarni ushlab, o'z otlarining dumiga bog'lab olib ketishmasa deb qo'rqapman. Unda qanday dahshatli ko'rgilik bo'ladiya!

Don Kixot qarshisida shuncha mavrni ko'rib va shovqin-suronni eshitib, qochoqlarga yordam berishga qaror qildi. U o'rnidan turib baqirdi:

— Men shu yerda ekanman, mashhur ritsar don Gayferosni bunchalik xafa qilishlariga yo'l qo'ymayman! To'xta, pastkash qalang'i-qasang'ilar! Uni ta'qib qila ko'rma, yo'qsa kunlaringni ko'rsatib qo'yaman!

U gapdan amaliy ishga o'tib, qilichini yalang'ochlagancha bir sakrab sahna oldiga borib qoldi va g'azabdan qutulib, shiddat bilan qo'g'irchoq mavrlarni qira boshladi. U qo'g'irchoqlarni zarb bilan yiqitar, kallasini chopar, tilka-pora qilardi. U qulochkashlab bir tushirgandi, oz bo'lmasa, maese Pedroning boshini sapchadek uzib yuborayozdi. Xayriyatki, u g'ujanak bo'lib, cho'nqayib o'tirib olgan edi. Maese Pedro baqira boshladi:

— Marhamatli janobim sinor don Kixot, bas qiling, to'xtang! Esingizni yig'ing! Axir, siz jonli mavrlarni emas, mening bor-yo'q boyligim bo'lgan qo'g'irchoqlarni qirayotirsiz. Ey xudo, sho'rim qursin!

Siz meni gado qildingiz!

Ammo don Kixot hech narsani eshitmas va tushunmasdi ham. U ikki qo'llab qulochkashlab chopaverdi. Bir daqiqada butun teatr yer bilan yakson bo'ldi. Barcha iplar kesildi, qo'g'irchoqlar parcha-parcha qilindi, qirol Marsiliy og'ir yaralandi,

imperator Buyuk Karlning boshi toji bilan qoq o'rtasidan ikkiga ajrab ketdi. Hamma tomoshabinlar dovdirab qoldilar, maymun tomga qochib chiqib ketdi, talaba qo'rqib ketdi, mahramning esxonasi chiqib, hatto Sancho Pansaning ham o'takasi yorilayozdi. (Bo'ron to'xtagandan so'ng, u o'z xo'jayinining hech qachon bunchalik vahshiyona g'azablanganini ko'rmaganini aytdi.) Don Kixot teatrni tor-mor etgach, tinchlandi va shunday dedi:

– Qani, endi shu tobda jahongashta ritsarning insoniyat uchun katta foyda keltirishiga ishonmaydigan, ishonishni istamaydigan kishilarning hammasi shu yerda bo'lsa! Bir o'ylab ko'ringlar-a, agar men ittifoqo shu yerda bo'lmaganimda, mashhur don Gayferos va go'zal Melisendralarning ahvoli ne kechar-di? Albatta, bu qora niyatli itvachchalar ularni ushlab azoblardi va xor qilardi. Bas, shunday ekan, yashasin jahongashta ritsarlik!

– Mayli, yashasa, yashayversin, – maese Pedroning mungi ovozi eshitildi, – ammo mening qazoi muallaqim yetdi. Men shunday baxtsizmanki, qirol don Rodrigo bilan birgalikda:

*Kechagina hukmdor edim,*

*Bugun-chi, yo 'q hatto boshpana, –*

deya olaman, xolos. Bir daqiqagina muqaddam men o'zimni qirollarning qirol deb hisoblardim, otxonalarimda yuzlab otlar turardi, sandiqlar kiyim-kechaklarga to'lib-toshib yotardi, endi esa men xonavayron qilindim, kamsitildim, kambag'al va qashshoq bo'lib qoldim. Hammadan maymunning qochib ketgani yomon bo'ldi: endi men uni tutib olgunimcha, ona sutim og'zimdanda keladi. Bularning hammasi mening vazifam – yetim-yesirlarni himoya qilish, adolat o'rnatish va boshqa oliyjanob ishlarni amalga oshirishdan iborat deb uqtirib yurgan sinor ritsarning tentakona g'azablanishining natijasidir. Uning saxovati bir mengagina nasib qilmadi, xolos. Lekin shunga ham arshi a'loda o'tirgan xudoi taologaga shukur qilishim kerak. Aftidan, Qayg'ulik Siymo ritsarimizning peshonasiga qo'g'irchoqlarim qiyofasini yo'qotish bitilgan ekan.

Maese Pedroning gaplari Sancho Pansaning ko'nglini bu-

zib yubordi.

– Yig‘lama, bunchalik kuyinma, – dedi u, – yuragimni ezma ortiq. Mening xo‘jayinim don Kixot oliyhimmat va vijdonli kishi. U senga qanchalik zarar yetkazganini tushungach, ortig‘i bilan to‘laydi, albatta.

– Men, sinor don Kixot o‘zi sindirgan qo‘g‘irchoqlarning yarmining tovonini bersa ham, minnatdor bo‘lardim. Unda muhtaram janoblari vijdon azobini chekmasdilar, chunki birovga zarar yetkazib, uni to‘lamagan kishi bu jazodan qochib qutula olmaydi.

– Bu gaplaringizning hammasi to‘g‘ri-yu, lekin men bir narsaga tushunmayotirman, maese Pedro, siz qaysi zararlar haqida gapirayotirsiz? – so‘radi don Kixot.

– Qanday zararlar to‘g‘risida deysizmi? – xitob qildi maese Pedro. – Bu bemahsul, qattiq yerda sochilib yotgan parchalar-chi! Ularni sizning qudratli qo‘llaringiz yer bilan yakson etmay, kim qildi? Bu qo‘g‘irchoqlar meniki bo‘lmay, kimniki edi? Axir, meni o‘shalar boqib kelardi-ku!

– Ha, endi tushundim, – dedi don Kixot, – meni ta‘qib qilayotgan jodugarlar avval ko‘zimga haqiqiy, jonli kishilarni ko‘rsatib, keyin ularni o‘zlari xohlagan shaklga aylantirarkanlar. Sinorlar, men chin vijdondan gapirayotirman; butun tomosha menga jonli haqiqatdek tuyuldi: qo‘g‘irchoq Melisendra haqiqiy Melisendra bo‘lib, don Gayferos – don Gayferos, Marsiliy – Marsiliy, Buyuk Karl – Buyuk Karl bo‘lib ko‘rindi. Men jahongashta ritsarlik burchini bajarish uchun qochoqlarni himoya qilishga ahd qildim. Mana shu muqaddas maqsad yo‘lida o‘zlaringiz shohidi bo‘lgan ishni qildim. Agar noto‘g‘ri ish qilgan bo‘lsam, unda men emas, balki meni ta‘qib qilib yurgan yovuzlar gunohkor. Shunga qaramay, bu xatoga o‘zim gunohkor bo‘lmasam-da, yetkazilgan zararlarni to‘lashga tayyorman. Ayting-chi, maese Pedro, parchalangan qo‘g‘irchoqlar uchun qancha so‘raysiz, men hozirning o‘zidayoq kastil tangalari bilan to‘lashga tayyorman.

Maese Pedro ta‘zim qilib dedi:

– Men barcha kambag‘allar va och-yalang‘och daydilar-

ning haqiqiy homiysi lamanchlik shonli don Kixotning shunday qilishiga ishonardim. Yakson qilingan qo'g'irchoqlarimning qancha turishini sinor xo'jayin bilan Sancholar baholay qolishsin.

Sancho bilan xo'jayin bu taklifni qabul qilishdi. Shundan so'ng maese Pedro boshi olingan Saragossa qiroli Marsiliyni qo'liga olib:

– Ko'rib turibsizki, bu qirolni qayta tiriltirib bo'lmaydi. Shuning uchun, agar sizlar e'tiroz bildirmasangizlar, uning o'ldirilishi, jon berishi va nobud qilinganligi uchun yarim real berilishini so'rardim, – dedi.

– Davom eting, – javob berdi don Kixot.

– Mana bu qoq ikkiga bo'lingan kalla uchun, – gapida davom etdi maese Pedro nimtalangan imperator Buyuk Karlni qo'liga olib, – insof bilan besh-u chorak real so'rasam bo'ladi.

– Bu unchalik arzon emas, – e'tiroz bildirdi Sancho.

– Har holda, qimmat ham emas, – dedi xo'jayin, – menimcha, six ham kuymasin, kabob ham – besh real berilsa bo'ladi.

– Unga besh-u chorak real beraveringlar, – gapga aralashdi don Kixot, – chorak real kam bo'ldi nima-yu, ortiq bo'ldi nima, buning unchalik ahamiyati yo'q. Faqat tezroq tugating, maese Pedro, kechki ovqatning ham vaqti bo'lib qoldi, qornim jizillab ketyapti.

– Mana bu qo'g'irchoqning burni kesilib, ko'zi chiqarilgan, – davom etdi maese Pedro. – Bu – go'zal Melisendra, uning uchun insof bilan ikki real-u o'n ikki maravedis so'rayman.

– Obbo, jin ursin meni, – xitob qildi don Kixot, – menimcha, hozir Melisendra o'z jufti haloli bilan Fransiya chegarasidan o'tdi, chunki ular ostidagi ot yo'rtib emas, go'yo uchib borardi. Shuning uchun iltimos, mushukni quyon deb sotmang va bu burunsiz qo'g'irchoqni Melisendra deb ishontirishga harakat qilmang meni. Haqiqiy Melisendra hozir Fransiyada o'z eri bilan baxtiyorlik ayshini suryapti. Har kim xizmatiga yarasha oladi, sinor maese Pedro, shuning uchun hamma ham to'g'ri yurishi va sog'lom fikr yuritishi zarur.

Don Kixotning yana to'nini teskari kiyib olganini ko'rgan

maese qo'rqib ketdi va hech vaqo ololmay quruq qolmayin deb, shosha-pisha gapira ketdi:

– Men chindan ham yanglishibman, bu Melisendra emas, uning xizmatkorlaridan biri. Bunga oltmish maravedis bera qoling, men roziman.

Shunday qilib, u birin-ketin barcha singan qo'g'irchoqlarini baholab chiqdi. U gapini tugatgach, Sancho bilan xo'jayini uning talabini biroz qisqartirdilar, keltirilgan zararining jami chorakam qirq real bo'ldi. Sancho endi hamyonini chiqaray deb turganda, maese Pedro maymunni tutish uchun yana ikki real berishni talab qildi.

– Beraver, Sancho, – dedi don Kixot, – agar u maymunni tuta olmasa ham, bir miriqib ichsin. Basharti biron kimsa sinora donya Melisendra o'z eri don Gayferos bilan Fransiyada, o'z otanalari davrasida o'tirganligini isbotlay olsa, hoziroq bajonidil ikki yuz real berar edim.

– Bu vazifani mening maymunimdan boshqa hech kim bajara olmasdi, – dedi maese Pedro. – Baxtga qarshi, endi uni iblis ham ushlay olmaydi.

Teatrning firibgar egasi ana shu so'zlarni aytarkan, Sanchodan olgan pullarni ham yonga soldi-da, birgalikda ovqatlanishga unamay, atrofdagilarga ta'zim qilib, yotog'iga qarab ketdi. Maese Pedroning don Kixot va Sancho Pansa bilan bundan buyon suhbatlashishdan qochayotganining sababi bor edi.

Kitobxonlar Siyerra Morena dasida don Kixotning jasorati bilan boshqa surgun qilinganlar qatorida Xines de Pasamontening ham ozod etilganligini eslasalar kerak. Ana o'sha Xines adolat sudiga tushib qolishdan qo'rqib, o'z qiyofasini turli tusga solishga harakat qildi. Chap yonog'iga ko'k shoyi yopishtirib, turli sarguzashtlardan so'ng Aragon qirolligiga yetib olgan edi.

Bu yerda u qo'g'irchoq teatriga ega bo'ldi, barbariy asirligidan allaqanday nasroniylardan maymun sotib olib, unga yelkasiga sakrab chiqib, qulog'iga nimalarnidir shivirlashni o'rgatdi. U o'z teatri va maymuni bilan qaysi bir qishloqqa bormoqchi bo'lsa, avval so'rab-surishtirib u yerda yashaydigan kishilar,

ularning sarguzashtlarini aniqlab olardi. Hamma gapni bilib olgach, u qishloqqa qarab jo'nar, tomosha ko'rsatardi, keyin esa maymunning san'atini tomosha qilishni taklif etardi. U har bir tomosha oldidan maymunning o'tmish va hozir haqida karomat etajagi, lekin uning aqli kelajakni bilishga yetmasligini uqtirardi. Har bir savolga berilgan javob uchun ikki real haq olardi. Pasa-monte – maese Pedro o'tkir zehni odam bo'lib, merov va laqma kishilarni juda ustalik bilan aldar, ichida ular ustidan kulib yurar edi. Endi kitobxonga uning don Kixot va Sancho Pansalarni osongina tanigani tushunarlidir. Lekin oliyjanob ritsar va uning qurolbardori qanchalik soddadil bo'lmasin, maese Pedro ularni uzoq vaqt aljiratib turishdan qo'rqardi. Shuning uchun u kechki ovqatdan bosh tortib o'z xonasiga g'oyib bo'ldi.

Maese Pedroning g'oyib bo'lganidan xo'jayin biroz ranji-di, boshqalar esa vaqtichog'lik bilan kechki ovqatga o'tirishdi. Don Kixot hammaga ziyofat berdi, uning saxovatining chegarasi yo'q edi. Ziyofat oxirida ritsar qurol olib ketayotgan dehqonning mo'jizalar haqida hikoya etishga bergan va'dasini eslab, undan so'zlashni iltimos etdi. Dehqon esa ortiqcha yalintirib o'tirmay, o'z sarguzashtlarini so'zlay boshladikim, bu kelgusi bobda bayon etiladi.

## QIRQ UCHINCHI BOB

### IKKI DO'STNING YO'QOLGAN ESHAKNI IZLASHGANI

– Sizga ma'lum bo'lgayki, muhtaram janoblari, – deb hi-koya qila boshladi hikoyachi, – bu yerdan to'rt yarim mil yiroq-dagi bir qishloqda rexidorning<sup>1</sup> eshagi yo'qolib qoldi. Bu hol rexidorni chuqur qayg'uga soldi. U eshagini rosa axtardi, biroq qancha axtarmasin jonivordan nom-nishon yo'q emish. Shu ah-volda ikki hafta o'tib ketdi. Kunlarning birida rexidori maydon-

<sup>1</sup> Rexidor – qishloq yoki shahar boshqarmasining a'zosi.

dan o'tib ketayotganida o'sha qishloqlik boshqa bir rexidor uning orqasidan yetib kelib: «Suyunchiga nima berasiz, og'ayni? Eshagingiz topildi!» – debdi. «Juda ajoyib suyunchi berishga va'da qilaman, – debdi u, – faqat qayerdan topilganini aytsangiz, bas». «Men uni bugun ertalab o'rmonda ko'rdim, – debdi ikkinchi rexidor, – u yugansiz edi, shu qadar oriqlab ketibdiki, ko'rgan odamning rahmi keladi. Men uni oldingizga haydab kelay dedim-u, lekin u shu qadar yovvoyilashib ketibdiki, meni ko'riboq shataloq, otib qochib ketdi. Butazorlar ichida ko'zdan yo'qoldi. Istasangiz, birga boramiz, biroq oldin eshagimni otxonaga bog'lab qo'yay, hozir qaytaman». «Siz meni ko'p xursand qildingiz, – debdi birinchisi, – sizga ham bu yaxshiligingizni qaytaraman». Xullas, ikki rexidor qo'lni-qo'lga berib o'rmonga jo'nashibdi. Ertalab ikkinchi rexidor eshakni ko'rgan joyda hech narsa ko'rinmabdi, ularning qidirishlari natijasiz tugabdi. Eshakning yo'qolganiga ishonch hosil qilgan ikkinchi rexidor og'aynisiga murojaat qilibdi: «Menga qarang, og'ayni, qochoq o'rmonda adashib qolish u yoqda tursin, hatto yer tubiga kirib ketgan bo'lsa ham, uni qo'lga tushirish yo'lini topdim. Men eshakka o'xshab juda yaxshi hangrayman, agar bu ish sizning qo'lingizdan ham oz-moz kelsa, ishimiz yurishib ketdi deyavering». «Oz-moz emish! Nimalarni aljirayapsiz, og'ayni, – debdi u. – Xudo haqqi, hangrashda eshakning o'zini ham yo'lda qoldirib ketaman». «Juda soz, – debdi ikkinchi rexidor, – endi shunday qilaylik: siz o'rmon ichidan bu yoqqa, men esa mana bu yoqqa ketaman. Shunday qilib, butun o'rmonni kezib chiqamiz, vaqti-vaqti bilan hangrab qo'yamiz. Eshak esa bizning hangrashimizni eshitib, ajab emaski, hangrab javob qilsa». Bunga eshagini yo'qotgan rexidor shunday javob qilibdi: «Ajoyib fikr, og'ayni, aqlingizga tasan-no». Shu yerda ular ajralishibdi. Birozdan so'ng ularning ikkovi shunday qoyillatib hangrashibdiki, eshak topilib, har biriga javob berayotganday bo'lib tuyulibdi. Har ikkovi aldanganicha bir-biriga qarab chopishibdi. Ular duch kelishgach, birinchi rexidor: «Og'ayni, nahotki hangragan eshak meniki emas?» – debdi. «Yo'q, – debdi sherigi, – hangragan men edim». «E'tirof qilib aytamanki, – debdi birinchisi, – siz bilan eshakning o'rtasida



qilcha ham farq yo‘q ekan. Umrim bino bo‘lib bunchalik chiroyli hangrashni eshitmaganman». «Siz ham ana shunday maqtovgga loyiqsiz, – debdi bu rejani o‘ylab topgan rexidor. – Yaratganning nomi bilan ont ichib aytamanki, eng mohir eshakni ham hangrashda uyaltirib qo‘yarkansiz. Ovozining shu qadar balandki, uni o‘rnida balandlatib, o‘rnida pastlatyapsiz; xullas, bu masalada o‘zimni yengilgan deb hisoblayman, nodir san‘atingizga tahsin o‘qiyman». «Bilasizmi, og‘ayni, – debdi birinchi rexidor, – endilikda o‘zim haqimda juda yaxshi fikrdaman. O‘ylaymanki, menda shunday iste‘dod bor ekan, qo‘limdan har narsa keladi. Ilgari ham durustgina hangray olishimni bilardim, lekin shu kungacha bu san‘atni yetuk darajada egallaganimni hech kim aytmagandi».

Ular yana ajralishib, hangrashga tushishibdi, lekin birbirlarini eshak gumon qilishib, yana adashaverishibdi. Nihoyat, ular eshak emas, balki o‘zlari hangrayotganliklarini ajratish uchun ketma-ket ikki martadan hangrashga shartlashib olishibdi. Shunday qilib, hamma yoqni boshlariga ko‘tarib hangrashganicha o‘rmonni kezib chiqishibdi, lekin yo‘qolgan eshakdan hamon darak yo‘q emish. U o‘zining borligi haqida javob ham berolmas ekan, negaki rexidorlar o‘rmonning eng qalin joyidan uning suyak-sayoqlarini topishibdi. Bo‘rilar uni allaqachon chavaqlab ketishibdi. Buni ko‘rgan eshakning egasi: «Men esa nega javob bermayapti deb hayron bo‘lib yuribman. Agar tirik bo‘lganida, bizning hangrashimizga, albatta, javob berardi, har holda, u eshak-da. Ishqilib, og‘ayni, vaqtimiz behuda ketmadi. Sizning quloqni qomatga keltirib hangrashingizni eshitdim». «Qulluq, og‘ayni, – debdi unisi, – ruhoniy avjga yaxshi chiqadi, lekin rohiba ham, undan qolishmaydi». Ular tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan, charchagan, tomoqlari qirilgan holda qishloqqa qaytib kelishibdi va bo‘lgan voqealarni do‘stlariga, tanish-bilishlariga aytib berishibdi; har qaysisi og‘aynisining eshakka o‘xshab boplab hangraganini shavq-zavq bilan hikoya qilibdi. Bu haqdagi xabar butun viloyatga tarqalibdi. Buni eshitganlarning hammasi ichaklari uzilguday kulishibdi, doimo sergak, hamisha dushmanlik urug‘ini sepib yuruvchi shayton esa danakday xamirturushdan

bir tog'ora janjal, ig'vo tayyorlabdi. Endilikda qo'shni qishloqdan birorta odam hamqishloqlarimizdan biror kishini ko'rib qolsa, eshak bo'lib hangray boshlabdi. Bora-bora bu hazil chinakam kulfatga aylandi: eshak bo'lib hangrash qishloqdan qishloqqa taralaveribdi, tevarak-atrofdagi qishloqlardagilar bizning qishloqliklarni oq odamlar orasidan negrni osongina ajratganday ajratib oladigan bo'lishibdi. Qishlog'imiz masxaralovchilarga qarshi bir necha bor jangga otlandi. Hozir ham hamqishloqlarim bizni doim ta'qib qilayotgan qo'shni qishloqliklarga qarshi yurish qilishga hozirlanmoqda. Jangga quruq bormaslik uchun meni nayza, oybolta olib kelishga yuborishdi. Sizlarga aytadiganlarim shu, xolos. Bu g'aroyib bo'lib tuyulmasa, g'azablanmanglar».

Saxovatli dehqon o'z hikoyasini ana shunday tugalladi.

Don Kixot va uning yonidagilar dehqonning hikoyasini qiziqish bilan eshitdilar. Ko'p o'tmay hamma bir-biriga xayrli tun tilab, dam olgani tarqadi. Tun tinch o'tdi. Dehqon qurolaslaha bilan tong otmasdan jo'nadi. Kun yoyilganda talaba bilan mahram o'rmidan turishib, don Kixot bilan xayrlashgani borishdi. Talaba o'z qishlog'iga qaytishi, mahram esa yo'lda davom etishi kerak edi, shu sababli don Kixot unga yo'l xarajati uchun anchagina pul berdi. O'zining ochiqqo'lligi bilan qo'noqxonaga egasini ham hayratga soldi. Lekin u Sancho xo'jayinining buyrug'i bilan kechki ovqat va tunashgani uchun ko'pgina pul to'laganida battar sevinib ketdi. Ana shu ishlarni tugallagach, don Kixot o'z qurolbardori bilan yana uzoq safarga ravona bo'ldi.

Qo'noqxonadan chiqqach, don Kixot Ebro sohili bilan ketmoqchi bo'ldi, keyin Saragossa tomon o'tlanishga chog'landi, chunki musobaqaning boshlanishiga ancha bor edi. Ular ikki kungacha osoyishta yo'l yurishdi, hech qanday sarguzashtlar bo'lmadi. Uchinchi kuni don Kixot allaqanday tepalikka ko'tarilayotganda karnay, nog'oralarning guldurosini, pilta miltiqlardan otilgan o'q tovushlarini eshitdi. Avvaliga nariroqdan askarlar bo'linmasi o'tayotganday bo'lib tuyuldi. Lekin tepalik ustiga chiqqach, pastda kalta nayzalar, oybolta va pilta miltiqlar bilan qurollangan olomon to'planganini ko'rdi. Ba'zilarining qo'llarida

pilta miltiq, ko'plari dumaloq qalqonlar ko'tarib olishgan. Pastga tushgach, bayroqni, undagi tamg'ani ko'rib qoldi. Uning diqqatini hangrovchi eshak tasvirlangan oq shohi bayroq ko'proq tortdi. Eshakning atrofiga shunday so'zlar yozilgan edi:

Eshak bo'lib bemaqsad Hangradi ikki ahmoq.

Shu payt don Kixot ular o'zlariga ozor berganlarga qarshi jangga otlangan hangrovchilarning hamqishloqlari ekanligini fahmladi. Bunday hodisalarga aralashishga toqati bo'lmagan Sanchoning ranjishiga qaramay, don Kixot siparini ko'tarib, oliyanob va jasur qiyofada eshak tasviri tushirilgan bayroqqa yaqinlashdi. Askarboshilar bu odam o'z tarafdorimiz deb o'ylab, uning atrofini qurshashdi. Ular don Kixotga indamay hayrat bilan tikiilib turishaverdi. Don Kixot hech kim gapirishga jur'at qilolmay indamay turganidan foydalanib, baland ovoz bilan shunday gap boshladi:

– Saxovatli sinorlar, sizlarga bir-ikki og'iz gap aytmoqchiman va o'tinib iltimos qilaman: gapimni bo'lmanglar. Bosharti gaplarim sizga uncha yoqmasa, ishora qilib qo'ysalaring bas, o'sha zahotiyoc og'zimga muhr bosib, tilimni jilovlab qo'yaman.

Hamma e'tibor bilan quloq solishga va'da berdi. Shundan so'ng don Kixot gapida davom etdi:

– Sinorlar, men – jahongashta ritsarman, kasbim – harbiy mashg'ulot, vazifam – ojizlarga homiylik qilish, baxtsizlarga yordam berish. Bundan bir necha kun muqaddam boshingizga tushgan kulfatdan hamda qo'lga qurol olib o'zlaringizni xafa qilganlardan o'ch olish niyatingiz borligidan xabar topdim. Sizlarning ishingiz haqida juda ko'p, uzoq mulohaza yuritdim, nihoyat o'zlaringizni haqoratlangan deb hisoblashga hech qanday asoslaring yo'q degan xulosaga keldim, chunki yakka bir kishi hech qachon butun bir jamoani tahqir olmaydi. Obod mamlakatdagi aqlli kishilar faqat to'rt xil taqdiridagina qilich yalang'ochlab o'z jonini, mol-u mulkini fido qilishi mumkin: birinchidan, katolik dinimizni himoya qilganda; ikkinchidan, o'z hayotini muhofaza qilganda, chunki ilohiy hamda azaliy qonun amri ham shu; uchinchidan, o'z nomusini, oilasini, mol-u mulkini himoya

qilganda; to‘rtinchidan, vatanni himoya qilganda. Albatta, bunga yana qo‘lga qurol olib himoya qilishga arziydigan adolatli, oqilon narsalarni ham qo‘shish mumkin. Biroq sira ranjita olmaydigan, arzimagan narsa, hazil, piching uchun sog‘lom aqldan mahrum kishilargina qurollanishi mumkin. Buning ustiga adolatsiz o‘ch olishni izlash (adolatli o‘ch olish umuman yo‘q) dushmanlarga yaxshilik qilish, bizni ko‘rolmaydiganlarni sevishni talqin qiluvchi muqaddas dinimizga qarshi borish demakdir. Ko‘plarga ana shu tariqatga rioya qilish qiyinga o‘xshab ko‘rinadi, faqat bu kishilar xudodan ko‘ra bu dunyo ishlarini ko‘proq o‘ylaganidan shunday bo‘ladi.

– Jin ursin meni, – dedi Sancho Pansa o‘zicha, – xo‘jayinim qip-qizil xudojo‘yning o‘zginasi ekan-ku. Ikkita tuxum bir-biriga qanday o‘xshasa, u ham xudojo‘yga shunchalik o‘xshaydi.

Don Kixot esa ozgina nafasini rostlab oldi, hamma odamlar gapga jim quloq solib turganlarini ko‘rib so‘zida davom etmoqchi bo‘ldi. Lekin shu payt o‘z donoligini ko‘rsatishga oshiqqan Sancho sabri chidamay xo‘jayinining gapini bo‘ldi.

– Xo‘jayinim lamanchlik don Kixot, – deb gap boshladi u, – bir vaqtlar G‘amgin Qiyofa ritsar, hozir esa Arslonlar ritsari deb atalgan juda aqlli idalgo, u lotin tilini har qanday bakalavrdan ham yaxshi biladi. Bundan tashqari, u tajribali jasur jangchi, yakkama-yakka jangning barcha qonun-qoidalarini besh qo‘lday biladi. Shu sababli uning maslahatiga kirganlaring ma‘qul. Ahmoq odamlar eshak bo‘lib hangrab g‘ashlaringga tegishsa xafa bo‘lmasalaring ham bo‘ladi. Esimda bor, yoshligimda hech kim so‘ramasa ham, juda qoyil qilib hangrardim. Buni eshitib qishlog‘imizdagi hamma eshaklar hangrab yuborishardi. Biroq bu ishim hurmatli ota-onamga o‘g‘il bo‘lib qolishimga zarracha bo‘lsin xalaqit bermasdi, aksincha, qishloqning hamma yoshlari mening san‘atimga havas qilishardi. Agar mening bu gapimga qanoat hosil qilmoqchi bo‘lsalaring, sabr qilib quloq solinglar. Eshakka o‘xshab hangrashni o‘rganish suzishni o‘rganishday bir gap: kimki bu san‘atni yaxshi egallagan bo‘lsa, hech qachon unutmaydi.

Shu payt u burnini qo‘li bilan berkitib shunday hangra-

diki, uning aks sadosi qo'shni vodiylargacha taraldi. Lekin uning bu qilig'i juda qimmatga tushdi. Qandaydir bir dehqon Sancho masxara qilib hangradi deb o'ylab, tayog'ini ko'tarib shunday tushirdiki, Sancho Pansa yerga o'likday guppa quladi.

Don Kixot qurolbardoriga ko'maklashishga tashlandi, lekin bir gala dehqon bir zumda ularni ajratib tashladi. Ritsarimizning boshiga tosh yomg'iri yog'ildi, ko'plab pilta miltiq va oyboltalar unga o'qtalindi. G'azabga mingan dehqonlarga bas kelolmasligini bilgan don Kixot Rosinantning boshini orqaga burib qochib qoldi. U birorta daydi o'q orqamga kelib tegmasin deb xudoga iltijo qilib borardi. Lekin olomon uning qochib qolganidan qanoat hosil qilgandi: orqadan hech kim o'q uzmadi. Dehqonlar Sanchoga ham shafqat qilishdi: u o'ziga kelishi bilanoq eshakning ustiga ortishib, kelgan tomoniga haydab yuborishdi. Qurolbardorning eshakni haydagani madori yo'q edi, lekin u Rosinantning izidan o'zi asta bormoqda edi. Bu orada don Kixot ancha masofaga borib, hech kim orqasidan quvmayotganiga ishonch hosil qilgach, Sanchoni kuta boshladi. Dehqonlar dalada qorong'i tushguncha o'tirishdi; dushmanlarining jang qilishdan bosh tortganlarini ko'rib, o'z qishloqlariga dabdaba bilan kirib kelishdi. Agar ular qadimiy yunonlarning udumiga amal qilinda edi, o'sha joyga haykal o'rnatishardi.

Sancho esa eshagiga arang tarmashgancha, xo'jayinining oldiga bazo'r yetib bordi-yu, Rosinantning oyog'i tagiga yiqildi. U qattiq kaltaklanganidan zo'rg'a nafas olardi. Don Kixot uning jarohatlarini ko'rgani otidan tushdi, lekin hech qanday jarohat nishonasini ko'rmay, g'azab bilan qichqirdi:

– Juda bemahalda hangradilar-da, Sancho! O'zini osgan odamning uyida arg'amchidan gap ochmaslik lozimligini unutdingizmi? Eshakchasiga kuylashingizga tayoq juda ham zo'r jo'r bo'ldi-da. Shunchalik oson qutulib qolganingiz uchun xudoga shukur qiling, Sancho.

– Javob qaytarishga holim yo'q, – dedi Sancho, – chamamda, og'zim bilan emas, orqam bilan gapirayotgandayman. Tezroq ketaylik. Endi eshak bo'lib hangramayman, lekin jahongashta ritsarlarning jang maydonidan qochib, saxovatli qurol-

bardorlarini dushmanning qo'liga tashlab ketishlari haqida indamay qololmayman.

– Chekinish – qochish emas, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – Sancho, shuni yaxshi bilginki, aql ishlatmay qilingan jasoratni ahmoqlik deydi, aqlsiz odamning qahramonligini mardlikdan ko'ra omad deb bilish kerak. Men chekinganimni tan olaman, biroq qochganim yo'q. Men o'zini yanada ulug' ishlar uchun ehtiyotlagan botirlarning yo'lini tutdim, xolos.

Shundan so'ng Sancho don Kixotning yordamida eshagiga minib oldi, don Kixotning o'zi Rosinantga mindi, ular yaqinroqda ko'rinib turgan butazor tomon ketishdi. Goh-goh Sancho «oh», «voh» deb ingrab qo'yardi. Nega ingrashini so'rab don Kixot bergan savolga Sancho umurtqasi chidab bo'lmaydigan darajada og'riyotganini aytdi.

– Xo'sh, – dedi don Kixot, – nega og'riyotganini uqtirish uncha qiyin emas; seni yo'g'onroq tayoq bilan urishdi, agar tayoq undan ham kattaroq bo'lganida og'riq ham zo'rroq bo'lardi.

– Xudo saqlasin! – xitob qildi Sancho. – Muhtaram janoblari katta bir shubhani hal qildilar. Hayron qolasan kishi, o'zim ham tayoq tegib o'tgan joyim og'riyotganiga shubha qilmayman. Chindan ham, sinor xo'jayin, tanasi boshqa dard bilmas ekan. Men kundan kunga muhtaram janoblari bilan darbadarlikda yurishdan hech qanday naf ko'rmasligimga ko'proq ishonmoqdaman. Bugun meni tayoqlashlariga yo'l qo'ydingiz, ertaga esa boshimga yana choyshabda umbaloq oshish yoki shunga o'xshash balolar o'yini tushar. Bugun orqamni tayoqqa tutgan bo'lsam, ertaga xudo ko'rsatmasin, ko'zim xiralashib qolar. Bas endi, muhtaram janoblari, men o'ylaymanki, xotinim, bola-chaqalarim oldiga qaytganim, ularni xudo bergan rizqi-ro'z bilan boqqanim ma'qulroq. Siz muhtaram janoblari bilan och-nahor qolib, tashnalik azobini tortib qadam yetmagan so'qmoqlar, odam bolasi yurmaydigan yo'llarda tentiramaganim yaxshi. Uyqu haqida gapirmasam ham bo'ladi! Qurolbardor og'ayni, ozgina mizg'ib olgiz kelmayaptimi? O'zingizga yetti qarich yer o'lchab oling, ko'proq kerak bo'lsa, yana yetti qarich ola qoling. Marhamat, tortinmang. Ko'nglingiz qancha tilasa, shuncha joyni egal-

diki, uning aks sadosi qo‘shni vodiylargacha taraldi. Lekin uning bu qilig‘i juda qimmatga tushdi. Qandaydir bir dehqon Sancho masxara qilib hangradi deb o‘ylab, tayog‘ini ko‘tarib shunday tushirdiki, Sancho Pansa yerga o‘likday guppa quladi.

Don Kixot qurolbardoriga ko‘maklashishga tashlandi, lekin bir gala dehqon bir zumda ularni ajratib tashladi. Ritsarimizning boshiga tosh yomg‘iri yog‘ildi, ko‘plab pilta miltiq va oyboltalar unga o‘qtalindi. G‘azabga mingan dehqonlarga bas kelolmasligini bilgan don Kixot Rosinantning boshini orqaga burib qochib qoldi. U birorta daydi o‘q orqamga kelib tegmasin deb xudoga iltijo qilib borardi. Lekin olomon uning qochib qolganidan qanoat hosil qilgandi: orqadan hech kim o‘q uzmadi. Dehqonlar Sanchoga ham shafqat qilishdi: u o‘ziga kelishi bilanoq eshakning ustiga ortishib, kelgan tomoniga haydab yuborishdi. Qurolbardorning eshakni haydagani madori yo‘q edi, lekin u Rosinantning izidan o‘zi asta bormoqda edi. Bu orada don Kixot ancha masofaga borib, hech kim orqasidan quvmayotganiga ishonch hosil qilgach, Sanchoni kuta boshladi. Dehqonlar dalada qorong‘i tushguncha o‘tirishdi; dushmanlarining jang qilishdan bosh tortganlarini ko‘rib, o‘z qishloqlariga dabdaba bilan kirib kelishdi. Agar ular qadimiy yunonlarning udumiga amal qilindanda edi, o‘sha joyga haykal o‘rnatishardi.

Sancho esa eshagiga arang tarmashgancha, xo‘jayinining oldiga bazo‘r yetib bordi-yu, Rosinantning oyog‘i tagiga yiqildi. U qattiq kaltaklanganidan zo‘rg‘a nafas olardi. Don Kixot uning jarohatlarini ko‘rgani otidan tushdi, lekin hech qanday jarohat nishonasini ko‘rmay, g‘azab bilan qichqirdi:

– Juda bemahalda hangradilar-da, Sancho! O‘zini osgan odamning uyida arg‘amchidan gap ochmaslik lozimligini unutdingizmi? Eshakchasiga kuylashingizga tayoq juda ham zo‘r jo‘r bo‘ldi-da. Shunchalik oson qutulib qolganingiz uchun xudoga shukur qiling, Sancho.

– Javob qaytarishga holim yo‘q, – dedi Sancho, – chammamda, og‘zim bilan emas, orqam bilan gapirayotgandayman. Tezroq ketaylik. Endi eshak bo‘lib hangramayman, lekin jahongashta ritsarlarning jang maydonidan qochib, saxovatli qurol-

bardorlarini dushmanning qo'liga tashlab ketishlari haqida indamay qololmayman.

– Chekinish – qochish emas, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – Sancho, shuni yaxshi bilginki, aql ishlatmay qilingan jasoratni ahmoqlik deydim, aqlsiz odamning qahramonligini mardlikdan ko'ra omad deb bilish kerak. Men chekinganimni tan olaman, biroq qochganim yo'q. Men o'zini yanada ulug' ishlar uchun ehtiyotlagan botirlarning yo'lini tutdim, xolos.

Shundan so'ng Sancho don Kixotning yordamida eshagiga minib oldi, don Kixotning o'zi Rosinantga mindi, ular yaqinroqda ko'rinib turgan butazor tomon ketishdi. Goh-goh Sancho «oh», «voh» deb ingrab qo'yardi. Nega ingrashini so'rab don Kixot bergan savolga Sancho umurtqasi chidab bo'lmaydigan darajada og'riyotganini aytdi.

– Xo'sh, – dedi don Kixot, – nega og'riyotganini uqtirish uncha qiyin emas; seni yo'g'onroq tayoq bilan urishdi, agar tayoq undan ham kattaroq bo'lganida og'riq ham zo'rroq bo'lardi.

– Xudo saqlasin! – xitob qildi Sancho. – Muhtaram janoblari katta bir shubhani hal qildilar. Hayron qolasan kishi, o'zim ham tayoq tegib o'tgan joyim og'riyotganiga shubha qilmayman. Chindan ham, sinor xo'jayin, tanasi boshqa dard bilmas ekan. Men kundan kunga muhtaram janoblari bilan darbadarlikda yurishdan hech qanday naf ko'rmasligimga ko'proq ishonmoqdaman. Bugun meni tayoqlashlariga yo'l qo'ydingiz, ertaga esa boshimga yana choyshabda umbaloq oshish yoki shunga o'xshash balolar o'yini tushar. Bugun orqamni tayoqqa tutgan bo'lsam, ertaga xudo ko'rsatmasin, ko'zim xiralashib qolar. Bas endi, muhtaram janoblari, men o'ylaymanki, xotinim, bola-chaqalarim oldiga qaytganim, ularni xudo bergan rizqi-ro'z bilan boqqanim ma'qulroq. Siz muhtaram janoblari bilan och-nahor qolib, tashnalik azobini tortib qadam yetmagan so'qmoqlar, odam bolasi yurmaydigan yo'llarda tentiramaganim yaxshi. Uyqu haqida gapirmasam ham bo'ladi! Qurolbardor og'ayni, ozgina mizg'ib olgingiz kelmayaptimi? O'zingizga yetti qarich yer o'lchab oling, ko'proq kerak bo'lsa, yana yetti qarich ola qoling. Marhamat, tortinmang. Ko'nglingiz qancha tilasa, shuncha joyni egal-



lab, o‘mashib oling. Kimki jahongashta ritsarlikni o‘ylab chiqargan bo‘lsa, ayniqsa, kim o‘tgan asrlardagi befahm jahongashta ritsarlarga qurolbardorlik qilishga rozilik bergan bo‘lsa, olovda yonib kuli ko‘kka sovurilsin. Hozirgilari haqida indamayman, chunki ularni juda hurmat qilaman, siz muhtaram janoblari ham shular jumlasiga kirasiz, menga ma‘lumki, aqlingiz zo‘r, shaytonga ham dars bera olasiz.

– Garov boylashib aytamanki, Sancho, – dedi don Kixot, – hozir sening gapingga xalaqit bermay turganimda har qanday og‘riqni ham unutding. Og‘zingga kelganini valdirayver. Faqat hech qayering og‘rimasa bo‘lgani, men esa har qanday qo‘pollik qilsang ham, bajonidil bardosh beraman. Lekin uyga, bola-chaqang oldiga qaytishni istasang, xudo ursin agar, yo‘lingni to‘smayman. Pullarim o‘zingda: qishloqdan uchinchi safarga chiqqanimizga necha kun bo‘lganini, xizmatning uchun qancha pul tegishini hisobla-da, o‘zingga o‘zing haq to‘la.

– Siz yaxshi taniydigan, bakalavr Samson Karraskoning otasi Tom Karraskoda xizmat qilganimda, – dedi Sancho, – yegan ovqatimdan tashqari oyiga yigirma real ishlardim. Lekin siz muhtaram janoblaridan qancha haq so‘rashga hayronman; shuni bilamanki, dehqonning batragi bo‘lishdan jahongashta ritsarning qurolbardori bo‘lish ancha og‘ir. To‘g‘ri, dehqonning qo‘lida kunduzi ishlab, kechqurunlari ovqatlanib bo‘lib, to‘shakda yotardik, marhamatli janoblarining xizmatlariga o‘tganimdan beri ko‘rpa-yostiq nimaligini bilmayman. Doim shamol-bo‘ronlarga bardosh berib, ochiq havoda, quruq yerda yotib uxlayman; qattiq non, quruq pishloq bilan tamaddi qildim, yo‘limizda uchragan ariqlardan suv ichdim.

– Tan olaman, – dedi don Kixot, – Sancho, sen aytgan gaplar hammasi chin haqiqat. Fikringcha, Tom Karrasko senga to‘lagan haqqa yana qancha qo‘shimcha qilishim mumkin?

– Menimcha, – javob qildi Sancho, – agar muhtaram janoblari har oyga ikki realdan qo‘shib bersalar, yetarli bo‘ladi. Lekin bu faqat oylikning o‘zi. Bundan tashqari muhtaram janoblari bironta orol gubernatorligini ham va‘da qilgansiz. Ana shuning o‘ziga adolatli ravishda yana olti realdan qo‘shish kerak,

hammasi bo'lib har oyga yaxlit o'ttiz realdan to'g'ri keladi.

– Juda soz, – dedi don Kixot. – Biz qishloqdan yigirma besh kun muqaddam yo'lga chiqqanmiz. Endi sendan qancha qarzdorligimni hisobla, Sancho, hamda o'z-o'zingga to'la.

– Eh, xudo yarlaqagur! – dedi Sancho. – Muhtaram janoblari hisoblashda qattiq adashyaptilar. Va'da qilingan orol uchun to'lovni va'da bergan kuningizdan to' shu bugungacha bo'lgan davrni hisoblab to'lash lozim.

– Va'da berganimdan buyon qancha vaqt o'tdi? – so'radi don Kixot.

– Agar yanglishmasam, – dedi Sancho, – yigirma yil bo'ldi yoki ikki-uch kun ortiqroq ham.

Don Kixot peshonasiga shapillatib urdi, qah-qah urib kulganicha shunday dedi:

– Axir, safarlarimizning hammasi ikki oydan ham ortgani yo'q. Sancho, sen esa orolni yigirma yil ilgari va'da qilgansiz, deb o'tiribsan! Endi bilsam, senga omonat topshirib qo'ygan pullarimning hammasini o'zingga olmoqchisan. Agar shunday bo'lsa, darrov ol, xudo omadingni bersin. Senga o'xshagan yaramas qurolbardordan qutulsam, cho'ntagimda sariq chaqa qolmasa ham, xursandman. Jahongashta ritsarlik tomonidan yozilgan qonunni buzgan hoy qurolbardor, qani ayt-chi, jahongashta ritsarga, o'z xo'jayiniga xizmat qilib turib, to'satdan: «Menga qanaqa oylik belgilaysiz?» – deb talab qilgan qurolbardorni biror yerda ko'rgan yo o'qiganing bormi? O qaroqchi, qo'rqqoq, rasvo maxluq. Agar birorta ritsarlik romanida sen aytgan gaplarni aytgan yoki ko'ngliga keltirgan birorta qurolbardorni uchratgan bo'lsang, ana shu so'zlarni peshonamga o'yib yozishingga, yana bir necha tarsaki ham tortib yuborishingga ruxsat beraman. Eshagingning jilovini tort-u, uyingga qaytib ketaver. Endi men bilan bir qadam ham yo'l yurmaysan. Tuzimni oqlaganing shum! Sendaqa odamga va'da berib yuribmanmi hali! Eh, hayvonga o'xshagan odam! Bu qanday bo'ldi? Xotiningning qarshiligiga qaramay, seni sinor qilaman deb qattiq ahd-paymon etgan bo'lsam-u, sen meni tashlab ketsang? Bir vaqtlar eshakni asal bilan boqmaydilar deb haq gapni aytgan ekansan. O'zing eshak eding,

hozir ham eshaksan, umringning oxirigacha ham eshakligingcha qolasan.

Don Kixot Sanchoni so'kayotganda qurolbardor unga ko'zini lo'q qilib qarab turdi. Nihoyat, u shunday vijdonan azoblandiki, ko'zlarida yosh yiltiradi, u ojiz, xasta ovoz bilan gap boshladi:

– Sinorim, tan berib aytaman, menda dum yo'q, xolos, yo'qsa chinakam eshakning o'ziman. Istasangiz, muhtaram janoblari, menga dum ulab qo'ying, shunda uni o'z joyiga tushdi, deb bilaman va muhtaram janoblariga umrimning oxirigacha eshakday xizmat qilaman. Meni afv eting, marhamatli janobim, men ahmoqqa rahmingiz kelsin. Bilimni kamligini e'tiborga oling, ko'p gapirganim alamimdan emas, ojizligimdan; kimki gunoh qilib qo'yib, uni yuvib yuborsa, xudo uni kechiradi.

– Sancho, maqolsiz gapirganingda ajablangan bo'lardim. Mayli, agar tuzalishga va'da berayotgan bo'lsang, seni kechiraman; lekin shuni bilib qo'yki, oldindan o'z manfaating uchun bunchalik jon kuydirma. Jasur, sabrli bo'l, garchi va'da qilingan narsa ancha kechikib ketayotgan bo'lsa ham, bardam bo'l, noumid bo'lma.

Sancho itoatkor bo'laman, har qanday kulfat yuz berganda ham, bardam bo'laman, deb javob qildi. Shunday qilib, ritsar bilan qurolbardor yarashishdi va yana yo'llariga ravona bo'lishdi. Ko'p o'tmay ular sersoya butazorga yetib borishdi-da, qayrag'och hamda shamshod daraxtlari tagida dam olish uchun cho'zilishdi. Sancho tunni zo'r azobda o'tkazdi, tungi shabada uning ko'kargan joylarini zirqiratib og'ritardi. Don Kixot esa odatdagidek o'z xayollariga berildi. Lekin bora-bora ularning ko'zlari yumildi va ikkovi ham qattiq uyquga ketishdi.

## QIRQ TO'RTINCHI BOB

### SEHRLANGAN QAYIQDAGI G'AROYIB SARGUZASHT

Ikki kundan so'ng don Kixot bilan Sancho Ebro daryosi sohiliga yetib kelishdi; ritsarimiz daryoning ko'z qamashtiruvchi to'liqlarini va bir tekisda oqishini huzur qilib tomosha qildi. Bu rohatbaxsh manzara unda ko'pdan ko'p sevgi tuyg'ularini uyg'otdi; ayniqsa, Montesinos g'orida ko'rganlari ko'z oldida yaqqol gavdalandi. Garchi maese Pedroning maymuni uning ko'ziga ko'ringan narsalarning hammasi ham haqiqat emasligini aytgan bo'lsa-da, u hanuzgacha ularni chin haqiqat deb ishonardi. Lekin Sancho uning hikoyalari butunlay uydirma ekanligini hadeb ta'kidlardi. Ular daryo sohilida asta-sekin yurib borishayotib sohildagi daraxtga bog'lab qo'yilgan eshkaksiz, chog'roqqina qayiqqa ko'zlari tushdi. Yaqin o'rtada hech kimsa ko'rinmasdi, uy ham yo'q edi, qayiqning egasi kim bo'ldiykin? Don Kixot atrofga nazar tashladi; atrofda hech kimni ko'rmagach, Rosinantdan sakrab tushdi-da, Sanchoga eshakdan tushib, har ikkala hayvonni yaqinroqdagi terakka bog'lashni buyurdi.

Hayron bo'lgan Sancho ritsardan bu buyruqning ma'nosini so'radi, don Kixot shunday javob qildi:

– Shuni bilginki, Sancho, qirg'oqqa suzib kelgan bu qayiq meni birorta ritsarga yoki boshiga kulfat tushgan boshqa bir aslzoda xonimga yordam berish uchun shoshilishga chaqirmoqda. Ritsarlik romanida doim shunday bo'ladi: mabodo birorta ritsarga halokat daf qilayotgan bo'lsa, uni boshqa bir ritsar qutqarishi kerak, sehrgarlar unga ajoyib qayiqni yuboradi, qayiq bir zumda yordam zarur bo'lgan joyda paydo bo'ladi. Sancho, ana shuning uchun ham sen qayiqni ko'rib turibsan: bu qayiq menga yuborilgan, albatta; bu kunday ravshan haqiqat, xullas, hali kun yorug' ekan, eshak bilan Rosinantni daraxtga bog'la, xudo hamisha bizga yor bo'ladi.

– Nima ham derdim, – dedi Sancho, – muhtaram janoblari yangi bir telbanamo ishni boshlagan bo'lsalar, u kishining buy-

ruqlarini bajarishdan o'zga ilojim yo'q, bir maqolda, xo'jang amriga itoat qil-u, u bilan bir dasturxonda o'tir, deyilardi, shu sababli qulluq qilib bosh egaman. Biroq nima bo'lsa-da, vijdonimni poklash uchun sizga ma'lum qilamanki, qayiq, menimcha, sehrlanmagan. Buni qandaydir baliqchilar daraxtga shunchaki bog'lab qo'yishgan, axir, bu daryoda baliq juda ko'p-da.

Shunday bo'lsa-da Sancho don Kixotning buyrug'ini bajo keltirdi. Eshagini sehrgarlarning homiyiligiga tashlab ketish unga juda malol keldi.

– Mana, ishlar bitdi, – dedi Sancho. – Endi nima qilamiz?

– Nima qilamiz deysanmi? – dedi don Kixot. – Cho'qinib olib, qayiqqa o'tiramiz-u, arqonni yechib yuboramiz.

Shunday deb u qayiqqa sakrab chiqdi, Sancho ham chiqib olguncha kutib turdi-da, keyin arqonni yechib yubordi, qayiq esa sohildan asta-sekin uzoqlasha boshladi. Daryoning o'rtasiga borganda Sancho yuz berishi lozim bo'lgan halokatni o'ylab dahshatdan qaltirab ketdi. Lekin eshagining hangrashini, Rosinantning boyloq turgan yerida depsinishini ko'rib, alamiga alam qo'shildi. U don Kixotga yuzlanib, xitob qildi:

– Bechora eshagim! U tashlab ketganimizga hangrayapti. Rosinantingiz esa tizginni uzib orqamizdan chopishga oshiq-yapti. O, aziz do'stlarim, sog'-salomat qolinglar! O, agar xudoning irodasi bilan sizlarni tashlab ketayotgan bo'lsak, bu – tentaklikning o'zginasi!

O, tezroq yonlaringga qaytsak edi!

Shu payt u achchiq-achchiq yig'lay boshladi, don Kixotning esa jahli chiqib, g'azab bilan bunday dedi:

– Hoy qo'rqqoq maxluq, nimadan qo'rqyapsan? Hoy latta yurak, nega yig'layapsan? Kim seni ta'qib qilib, kim orqangdan quvyapti, kalamushyurak? Senga nima kam, nimaga muhtojsan, axir, mo'l-ko'lchilikda rohat qilyapsan-ku! Sen yalang oyoq bo'lib tog'-toshda ketyapsanmi, xuddi hukmdor knyaz singari ajoyib qayiqda bir tekisda suzib ketyapsan-ku, axir? To'lqinlar hademay bizni ochiq dengizga olib chiqadi. Darvoqe, biz allaqachon dengizda bo'lsak kerak, axir, sakkiz yuz milcha suzib

qo'ydik-ku. Afsuski, yonimda usturlobim<sup>1</sup> yo'q, yo'qsa qanchalik ulkan masofani bosib o'tganimizni aniq aytib berardim senga. Ehtimol, biz ikki qutbdan barobar masofada yerni ajratib turadigan mintaqadan o'tgan bo'lsak kerak.

– Rohát-farog'at mintaqasiga qachon yetamiz, – so'radi Sancho, – unda qancha mil bosib o'tamiz?

– Ko'p yuramiz, – dedi don Kixot, – chunki kosmograflarning<sup>2</sup> eng mashhuri bo'lgan Ptolemey<sup>3</sup> hisobiga ko'ra suv va yer sathi uch yuz oltmish darajaga teng, sen bilan men yuqorida zikr qilingan chegaradan o'tarkanmiz, roppa-rosa o'sha masofaning yarmini bosgan bo'lamiz.

– Chakki emassiz, – deb xitob qildi Sancho, – allaqanday grafni yo shunga o'xshagan bir muhtaram zotning gapiga amal qilyapsiz-a!

Don Kixot Sanchoning kosmograf Ptolemeyning nomini ayta olmaganidan kulib shunday dedi:

– Menga qara, Sancho, qachonki bizning ispanlar Kadiksdan Shimoliy Hindiston tomon suzib borishsa, yer sharinig teng ikkiga bo'linadigan chegarasini osongina bilib olishadi, o'shanda sayohatchilardagi hamma bitlar o'ladi, ularni kema ichida axtarib, pulga ham topa olmaysan, Sancho, u yoq bu yoq'ingni qara-chi, agar hech narsa topolmasang, demak, biz o'sha chegaradan o'tib ketgan bo'lamiz.

– Bu narsaga hech qachon ishonmayman, lekin buyrug'ingizni bajaraman, – dedi Sancho. – Men tushunolmay qoldim, bu tajribalarning nima keragi bor? Axir, gunohkor ko'zlarim ko'rib turibdi, biz qirg'oqdan bir necha sarjin uzoqlashdik, xolos. Ana, Rosinant bilan eshak ham turibdi. Bir ko'zingiz bilan cha-

---

<sup>1</sup> **Usturlab, usturlob** – joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, ob'ektning azimutini, yulduzlarning chiqish va botish paytlarini, shuningdek amaliy astronomiyaning boshqa masalalarini hal qilishda ishlatiladigan ko'chma astronomik asbob.

<sup>2</sup> **Kosmografiya** – 1) koinotni tavsiflash-tasvirlash; koinot tavsifi-tasviri; 2) astronomiya va tabiiy geografiyadan umumiy ma'lumot beradigan o'quv fani). **Kosmograf** – kosmografiya fani mutaxassisi.

<sup>3</sup> **Ptolemey** – eramizning II asrida yashagan mashhur yunon astronomi, matematigi va geografi. Turg'un Yer sarnoviy jismlar markazida joylashgan degan kosmogonik qarashi, ya'ni olamning paydo bo'lishi haqidagi ta'limoti Kopernik va Galileyning noyob ixtirolariga qadar hammaga ma'qul ta'limot bo'lgan.

malab ko'rsangiz, toshbaqaday imillab ketayotganimizga ishonasiz-qo'yasiz.

– Sancho, sen men aytgan tajribani bir qilib ko'r, boshqasini qo'yaver: baribir sen koluriya, parallellar, burj, qutblar, ekliptika<sup>1</sup> degan narsalarni bilmaysan. Yo'qsa biz qancha parallelni bosib o'tganimizni, qancha burj belgilarini ko'rganimizni, anchagina yulduzlar turkumi orqada qolib ketganini allaqachonlar bilgan bo'larding. Shuning uchun gap tashlamay, o'zingda bor yo'qligini bir tekshir. Ishonchim komilki, sen oq qog'ozdan ham pok, musaffosan.

Sancho astagina oyog'ini paypaslay boshladi. Nihoyat, u boshini ko'tarib, o'z xo'jayiniga qaradi va shunday dedi:

– Yo sizning tajribangiz ikki pulga arzimaydi, yo muhtaram janoblari aytgan joyga hali ancha masofa bor.

– Qanday? – deb so'radi don Kixot. – Sen birorta bitni ushladingmi?

– Bitta emas, anchagina ushladim, – dedi Sancho.

Shu payt u qo'lga ilashgan narsani silkib tashladi, qo'lini suvga chayqab oldi. Bu orada qayiq daryoning o'rtasida asta suzib borardi, uni sirli kuch ham, ko'zga ko'rinmas sehrgar ham emas, balki tekis va silliq daryo oqimi harakatga keltirmoqda edi.

Shu payt uzoqdan to'g'on bilan bir necha tegirmon qorasi ko'rindi. Bunga ko'zi tushgan don Kixot qichqirib yubordi:

– Ko'ryapsanmi, do'stim, ana, qarshimizda azob chekayotgan ritsar, o'g'irlangan qirolicha yoki malika saqlanayotgan shahar, qasr yo qal'a ko'rinmoqda, men ularga yordam berish uchun yuborilganman.

– E jin ursin, qanaqa shahar, qasr yo qal'a haqida gapiryapsiz, sinorim? – dedi Sancho. – Axir, bular bug'doy tortadigan suv tegirmonlari ekanligini nahotki ko'rmayotgan bo'lsangiz?

– Jim bo'l, Sancho, – dedi don Kixot, – ular tegirmon bo'lib ko'ringani bilan aslida tegirmon emas, axir, senga aytganman-ku, sehrgarlik kuchi har qanday narsani ham o'zgartirib ko'rsatadi deb. Men bir narsani chindan ham ikkinchi bir narsaga

<sup>1</sup> Ekliptika – Quyosh bir yilda aylanib chiqadigan katta fazoviy doira.

aylanib qoladi demoqchi emasman, ular bizning ko'zimizga boshqacha bo'lib ko'rinadi. Barcha orzu-umidlarimning birdan bir panohi Dulsineyaning boshqa odam qiyofasiga kirib qolganini eslagin.

Bu orada oqim qayiqni o'z og'ushiga olib, chirpirak qilib oqizib keta boshladi. Tegirmonda ishlayotgan tegirmonchilar qayiqning girdobga tushib qolganini, hademay dabdala bo'lishini bilib, sayohatchilarimizni o'z vaqtida ushlab olish uchun to'g'on boshiga chiqishdi va qo'llariga uzun changaklar olishdi. Ularning hammasi boshdan oyoq unga belanganidan uzoqdan ajinalarga o'xshab ko'rinishardi. Ular sayohatchilarga qichqirishdi:

– Hoy, qayoqqa ketyapsizlar? Jonlaringdan to'ydilaringmi? Tegirmon parragi tagida o'lgilaring keldimi?

– Xo'sh, senga nima deb edim, Sancho! – dedi don Kixot. – Mana, nihoyat butun kuchimni, botiriligimni ko'rsatadigan jang bo'ladi. Qara, yo'limizni qanchadan qancha maxluqlar to'sib, tirjayib turishibdi! Hozir, hammangning ta'ziringni beraman, yaramaslar!

So'ngra u qayiqda tippa-tik turganicha tegirmonchilarga o'shqirdi:

– Yovuz, makkor maxluqlar, zindoningizda azoblanayotgan kishini darhol ozod qiling. U erkakmi yo xotinmi, aslzodami yo oddiy odammi – menga baribir: men azoblanuvchining darhol ozod qilinishini talab qilaman. Men lamanchlik don Kixot, boshqacha nomim Arslonlar ritsariman, mana shu sarguzashtni xayrli nihoyasiga yetkazish menga nasib qilgan.

Ana shu so'zlarni aytgach, qilichini qinidan sug'urib, havoda o'ynata boshladi. Tegirmonchilar esa bu aljishlarning ma'nosiga tushunmay, girdob bilan tegirmon parragi tagiga kirib ketayotgan qayiqni changak bilan ushlab qolishga intilishdi.

Sancho tiz cho'kib, xalos etishini so'rab xudoga iltijo qila boshladi. Chindan ham u qutulib qoldi, o'sha zahoti tegirmonchilar qayiqni changaklar bilan ushlab, to'g'on tomonga tortishdi. Biroq turtkning zarbi bilan qayiq ag'darilib ketdi, don Kixot bilan Sancho shalop etib suvga tushishdi. Garchi don Kixot suzishni o'rdakdan yaxshi bilsa ham, qurollarining vazminligi-



dan suvga g'arq bo'lishiga sal qoldi. Sancho esa suzishni mutlaqo bilmasdi. Agar tegirmonchilar o'zlarini suvga tashlab, ularni qutqarib qolmaganlarida, ritsar bilan qurolbardor shu yerning o'zidayoq halok bo'lishardi. O'zini sohilda ko'rgan Sancho yana tiz cho'kib, qo'lini ko'tarib, ko'zlarini osmonga tikkanicha xudoga uzundan uzoq iltijo qila boshladi va don Kixotning bema'ni qilmishlaridan asrashni yolvorib so'radi.

Shu payt qayiqning egasi bo'lmish baliqchilar yetib kelishdi. Tegirmonchilar do'stlarimizni qutqarguncha oqim qayiqni tegirmon parragi tagiga oqizib ketdi, natijada qayiq pacha-pacha bo'ldi. G'azabdan o'zini yo'qotgan baliqchilar Sanchoga tashlanishdi va uning kiyimlarini yechib ola boshlashdi. Don Kixotni ham haqorat qilishib, undan tovon to'lashni talab qilishdi. Ritsarimiz tegirmonchilar va baliqchilarga sovuqqonlik bilan, agar ular qal'alaridagi asir yoki asirani bo'shatib yuborishsa, tovonni bajonidil to'lashga tayyor ekanligini aytdi.

– Qanaqa qal'a-yu qanaqa asirlarni gapir yapsan, kallavaram? – dedi tegirmonchilardan biri. – Tegirmonda un tortish uchun kelgan ikkita dehqon bor, xolos.

– Bas! – dedi don Kixot o'z-o'ziga. – Bu yovuzlarni yaxshilik qilishga ishontirish foydasiz. Bu toshga azon aytish bilan teng narsa. Bu yerda faqat xudo qo'llashi mumkin, o'zim hech narsa qilolmayman.

So'ngra tegirmonga yuzlanib shunday dedi:

– Bu zindonga qamalgan do'stlarim, kim bo'lsangiz ham, meni afv etinglar. O'zingiz va mening baxtinga qarshi sizlarni bu yovuz asirlikdan qutqara olmayman. Bunday jasoratni ko'rsatish boshqa bir ritsarga nasib qilsa kerak.

Keyin biroz tinchlangach, baliqchilar bilan gaplashdi, qayiq uchun ellik real berdi. Sancho bu pulni to'ng'illab, aftini bujmaytirib arang uzatdi.

– Agar suvda yana bir marta shunaqa sayr qiladigan bo'lsak, hamma pullarimiz suvga cho'kadi.

Baliqchilar bilan tegirmonchilar ikkala ajoyib og'ayniga hayrat bilan boqishar, don Kixotning nimalar haqida gapirayotganini tushunolmasdilar. Nihoyat, ularning tentakligiga ishonch

hosil qilib, ularni o'z holiga qoldirishdi-da, har kim o'z joyiga – ba'zilar tegirmonga, ba'zilar baliqchi kulbasiga qaytishdi. Don Kixot bilan Sancho esa tashlab kelgan aqlsiz jonivorlarini qidirib ketishdi. Kitobxon ko'rib turibdiki, har ikkala do'stimiz ham aqllilik da'vosini qila olmasalar kerak.

## *QIRQ BESHINCHI BOB*

### **DON KIXOTNING GO'ZAL OVCHI AYOL BILAN UCHRASHGANI**

Ritsar va qurolbardor juda ma'yus holda o'z yo'rg'alari yoniga kelishdi. Ayniqsa, Sanchoning ta'bi xira edi: baliqchilarga berilgan pulga nihoyatda achinardi. Xo'jayin kissasidan pul chiqarib oladigan bo'lsa, yuragi naq hiqildog'iga kelardi, puldan ayrilgandan ko'ra ko'zlarini o'yib berish osonroqday tuyular edi unga. Bir-birlariga biron so'z qotmay ikkala do'stimiz Rosinant va yo'rg'atoyni yechishib, mashhur daryo sohilini tark etishdi. Don Kixot o'z muhabbati xayoliga, Sancho esa porloq kelajagi haqidagi orzuga cho'mib ketdi. Biroq Sanchoga bu shirin orzular, ayniqsa, shu paytda befoyda, puchdek tuyular edi. Chunki Sancho garchi anqovroq bo'lsa ham, u o'z xo'jayinining hamma yoki deyarli barcha xatti-harakatlari boshdan oyoq tentaklikdan iborat ekanligini yaxshi bilardi. Shuning uchun uning boshiga don Kixot bilan xayr-ma'zurni nasiya qilib, o'z haqidan kechib, uyga jo'nab qolish fikri tobora ko'proq kela boshladi. Ammo voqealar uning o'ylaganidan boshqacha bo'lib ketdi.

Ikkinchi kuni kechga yaqin don Kixot o'rmon etagida bir guruh ovchilarni ko'rib qoldi. U yaqinroq bordi, shunda ularning orqasidagi go'zal ayolga ko'zi tushdi. U ayol ustiga yashil yopinchiq to'shalgan, egarlari kumushdan jimjimador bezatilgan oppoq ot ustida o'tirardi. Ayolning o'zi ham boshdan oyoq yashilga burkangan edi, buning ustiga shunday ko'rkam va go'zal ediki, go'yo nafasat, nazokat mujassamlangandek tuyulardi; uning chap qo'lida lochin bor edi. Don Kixot bu ayolning mo'tabar zot

ekanini va boshqalar uning xizmatkorligini angladi. U Sanchoga shunday dedi:

– Yugur, bo‘tam Sancho, oq ot ustida chap qo‘liga lochin qo‘ndirib o‘tirgan o‘sha ayolga mening Arslonlar ritsari ekanligimni, uning beqiyos go‘zalligi oldida ehtrom bilan ta‘zim etayotganimni ayt. Agar muhtarama xonim ruxsat etsalar, qo‘llarini o‘pish va zoti oliylari nimaiki buyursalar, bajo keltirishga qodir holda huzurlariga boraman. Lekin bilib qo‘y, Sancho, odob saqlab so‘zla, gapingga biror bema‘ni maqol qo‘shishni xayolingga keltira ko‘rma.

– Xo‘p masxarabozni topibsiz-da! – javob qildi Sancho. – Siz buni kimga gapiryapsiz? Mo‘tabar va yoshi ulug‘ xonimlar huzuriga birinchi bor borayotganim yo‘q-ku!

– Men seni faqat sinora Dulsineya oldiga yuborganman, xolos, – dedi don Kixot. – Nazarimda, menda xizmat qilayotganingdan beri boshqa hech qanday topshiriq bermagan bo‘lsam kerak.

– Bunisi-ku to‘g‘ri-ya, – javob qildi Sancho, – to‘lab tursang, bir me‘yor; qancha bo‘lsa, qarz tayyor; to‘kin uy – to‘kin uy. Men sizga aytmoqchi bo‘lganim: pand-nasihatlarga ortiqcha ehtiyojim yo‘q, hamma narsani yaxshi bilaman va, binobarin, hamma vaqt bexato ish tutaman.

– Bunga imonim komil, Sancho, – dedi don Kixot, – bora qolgin endi. Xudoning o‘zi yor bo‘lsin.

Sancho yeldek uchib, go‘zal ayol yoniga keldi, yo‘rg‘asidan irg‘ib tushib ta‘zim qildi-da, dedi:

– Go‘zal sinora, huv anavi yerda Arslonlar ritsari nomli ritsar turibdi. U mening xo‘jayinim, men esa uning qurolbardoriman, ismim – Sancho Pansa. Yaqingacha G‘amgin Qiyofa ritsar deb, hozir esa Arslonlar ritsari deb atalgan ana shu ritsar meni yo‘llab, muhtarama xonimning huzurlariga borishimga va orzularini o‘rinlatishga ruxsat etish-etmasliklarini bilib kelgin dedilar. U kishining orzulari, aytishlariga qaraganda va mening ham o‘ylashimcha, sizdek iffatli va go‘zal zotga sodiq xizmat qilishdir. Sizga xizmat qilish u kishiga nasib etgudek bo‘lsa, mamnun bo‘lasiz, zotan, mening xo‘jayinim iltifotingizni yuksak

marhamat, katta baxt deb hisoblaydi.

– Sadoqatli qurolbardor, zimmangizdagi vazifani bunday vaziyat taqozosiga ko‘ra bekam-ko‘st ijro etdingiz, – javob qildi ayol. – O‘rningizdan turing! Biz ko‘p narsalar eshitgan G‘amgin Qiyofa buyuk ritsar qurolbardorining bunday tiz cho‘kib turishi yarashmaydi. Turing do‘stim, xo‘jayiningizga borib aytingki, u kishi ayni vaqtda kelganlar, men va erim gersog hurmatli ritsarni shu yaqindagi yozgi saroyimizda qabul qilish bilan o‘zimizni baxtiyor deb bilamiz.

Sancho o‘rnidan turdi. U saxovatli sinoraning chiroyi, lutf-karamidan hayratda qolgan edi. Ammo ayolning G‘amgin Qiyofa ritsar haqida ko‘p narsa eshitgani Sanchoni, ayniqsa, ajablantirgan edi. To‘g‘ri, u idalgoni Arslonlar ritsari deb atamadi, bu don Kixotning yangi laqabni yaqindagina olganligidandir.

Sancho Pansaning sust turganini ko‘rib, gersog xonim o‘z taklifini qaytardi:

– Bora qoling, inim Pansa, xo‘jayiningizga aytingki, biz uchun bunday jasoratli ritsarning tashrif buyurishlaridan ortiq dunyoda shodlik bo‘lmas, mulki panohimizga xush kelsinlar.

Bu jozibali so‘zlarni eshitgan Sancho xursand bo‘lib xo‘jayini yoniga shoshildi va oliyhimmat sinora nima degan bo‘lsa, hammasini unga yetkazdi. Sancho sodda, samimiy iboralarda xonimning go‘zalligi, muloyimligi va lutf-karamini ko‘klarga ko‘tarib maqtadi. Don Kixot qaddini rostlab oyoqlarini uzangiga qo‘ydi, siparini to‘g‘rilab, Rosinantning biqiniga niqtadi va sipolik bilan gersoginya tomon, uning qo‘llarini o‘pish uchun jo‘nadi. Gersoginya esa erini chaqirib, don Kixotning elchi yo‘llaganini aytib bergan edi. Ular maynabozlik, ermak qilish uchun uning g‘alati qiliqlar, telbalik qilishiga qo‘yib berishmoqchi, toki mehmon bo‘lib turar ekan, u nima desa, ma‘qullab, unga jahongashta ritsarga xos muomala qilmoqchi, ritsar romanlarida tasvirlangan barcha marosimlarga rioya qilishmoqchi bo‘lishdi – ular ritsar romanlarini ko‘p o‘qishar va bunday kitoblarga ixlosmand edilar.

Shu orada don Kixot siparini ko‘tarib, ularning yaqiniga kelib qoldi va shoshilayotganini bildirib, Sanchoga uzangilarni

ushlab turishga ishora qildi. Lekin Sancho tang holda qoldi: u eshagidan tusharkan, egar-jabduqlariga o'ralashib, boshi yerga osilganicha qoldi. Don Kixot esa Sancho kelib uzangini ushlab turibdi, degan xayolda oyog'ini dast ko'targan edi, bo'sh tortilgan egar bilan otdan yerga gupullab ag'darilib tushdi. Xijolatdan dovdirab, jahl bilan tuproqqa belanib tipirchilar, oyoqlarini chiqarolmay hamon kuymalanayotgan baxtiqaro Sanchoni so'kar, la'natlar edi. Gersog ritsar va qurolbardoriga tezda ko'maklashishni ovchi yigitlarga buyurdi. Ular don Kixotni ko'tarib turg'izishdi, u gersoginya va gersog qarshisida qulluq qilib tiz cho'kmoqchi bo'lganida gersog bunga e'tiroz bildirdi va otidan irg'ib tushib don Kixotni quchoqlar ekan, shunday dedi:

– G'amgin Qiyofa ritsar sinor, mulkimga muborak poyqadamingiz endi yetganda bunday falokatning sodir bo'lganidan g'oyat afsuslanaman. Lekin qurolbardorlarning ehtiyotsizligi ko'pincha bundan battarroq falokatlarni ham boshga soladi.

– Siz bilan uchrashuvni muvaffaqiyatsizlik, falokat deb bo'lmaydi, shavkatli hokim, – javob qildi don Kixot. – Sizni ko'rish sharafiga muyassar bo'lishni bilguday bo'lsam, jahannam qa'riga qulaganimda ham chiqib kelishga tayyorman, shavkatli hokim! Mening qurolbardoriga tavqi la'nat bo'lsin, nayrangbozlik qilib ko'p valdiraydi-yu, lekin qorinbog'ni tarangroq tortib, egarni mahkamlash qo'lidan kelmaydi. Biroq hechqisi yo'q: oyoqda turamanmi, chalqancha yotamanmi, otliqmi yoki piyodami – baribir, men sizga bu hurmatli rafiqangiz, go'zallik va beg'ubor lutf-iffat malikasi sinora gersoginyaga sodiq xizmat qilaveraman.

– Ortiqcha maqtamang, sinor lamanchlik don Kixot. Biz sizning qahramonliklaringiznigina emas, shuningdek, go'zal Tobosolik Dulsineyaga bo'lgan sadoqatingiz haqida ham ko'p eshitganmiz. Donya Dulsineya bo'lgan joyda boshqa go'zallar haqida gap yuritishning hojati yo'q.

Shu orada Sancho oyog'ini sirtmoqdan bo'shatib olib, suhbatdoshlarning yoniga keldi. Don Kixot gersogga hali javob qilishga ulgurmasdanoq, uning qurolbardori gapga tushib ketdi:

– Sinora Tobosolik Dulsineyaning go'zalligini rad etib

bo'lmaydi. Biroq kutilmaganda oldingdan suqsur chiqib qoladi. Axir, biz tabiat deb bilgan narsani ba'zi odamlar loydan idish yasaydigan kulolga o'xshatishadi, agar kulol loydan chiroyli bir idish yasagan bo'lsa, u bunday idishdan ikkitasini, uchtasini va yuztasini bermalol yasashi mumkin. Buni shuning uchun aytayapmanki, Xudo haqqi, sinora gersoginyaning xo'jayinimning xonimi sinora Tobosolik Dulsineyadan hech qolishadigan joyi yo'q.

Don Kixot gersoginyaga murojaat qildi:

– Ruxsati karamingiz bilan chizga shuni ma'lum qilaman-ki, birorta ham jahongashta ritsarning menikidek bunaqa vaysaqi, askiyaga mukkasidan ketgan qurolbardori bo'lmagan. Agar sizdek mo'tabar zotga atigi bir necha kun xizmat etish nasib bo'lsa, gapimning rostligini bilasiz.

Bunga gersoginya javob qildi:

– Agar baraka topkur Sancho hazil-mutoyibani yaxshi ko'rarkan, buning hech yomon tomoni yo'q. Aksincha, bu uning nodon emasligini ko'rsatadi. O'zingiz yaxshi bilsangiz kerak, muhtaram sinor don Kixot, fahmsiz kishilarninggina hazil-mutoyibaga mayli bo'lmaydi, binobarin, xushko'ngil Sancho hazil-askiyani yaxshi ko'rarkan, demak, u aqli raso odam.

– Bu mahmadona odam, – ilova qildi don Kixot.

– Yana yaxshi, – so'zini ilib oldi gersog, – kimki hazil-kashlik qilmoqchi bo'lsa, u ko'proq gapirishi kerak. Darvoqe, gap-so'z bilan vaqt o'tkazmaylik, iltimos qilaman, G'amgin qiyofa buyuk ritsar, marhamat qiling...

– Janoblari, yaxshisi, Arslonlar ritsari deng, – uning gapi- ni bo'ldi Sancho, – endi G'amgin Qiyofa yo'q, bizda faqat sher- largina bor.

Gersog so'zida davom etdi:

– Ha, sinor Arslonlar ritsari, qal'amizga marhamat qilsin- lar. U yerda zoti oliylariga munosib marhamat ko'rsatishadi.

Shu orada Sancho Rosinantning egarini qattiq tortib to'g'riladi. Don Kixot otga mindi, gersog chiroyli otiga sakrab chiqdi-da, hammalari qal'a tomon ketishdi. Qurolbardorning oqilona so'zlari behad huzur bag'ishlagani uchun gersoginya

Sanchoga yonma-yon borishni buyurdi. Sancho ortiqcha yalintirmay, birga borishga ko'ndi-da, tolmas tiliga erk berdi. Gersog va gersoginya o'z qal'alarida mashhur jahongashta ritsar va uning ajib qurolbardorini qabul qilishni buyuk baxt deb hisobladilar.

## *QIRQ OLTINCHI BOB*

### **DON KIXOT VA QUROLBARDORNI GERSOG QASRIDA QANDAY KUTIB OLGANLARI**

Gersog don Kixotni qurolbardori bilan birga o'z qasriga taklif qildi-yu, ritsarni tantana bilan kutib olish uchun zarur bo'lgan farmoyishlarni bergani oldinroq ot choptirib ketdi. Mana, nihoyat, ritsar gersoginya bilan qasr darvozasiga yaqinlashar ekan, harir qizil shohidan bashang qilib tikilgan uqali kiyim kiygan ikki malay yoki otboqar peshvoz chiqdi. Ular ritsarimizni qo'ltig'idan olib Rosinantdan tushirishdi-da, shunday deyishdi:

– Janobi oliylari, marhamat qilib sinora gersoginyaning otdan tushishlariga ko'maklashib yuborsalar.

Don Kixot gersoginya tomon oshiqdi va ular o'rtasida o'zaro izzat-ikrom musobaqasi boshlandi. Gersoginya mashhur ritsarni ovora qilishga haddi sig'masligini aytdi. Ritsar tavoze bilan unga jilmayib, so'zida turib oldi. Gersog shaxsan o'zi gersoginyaning uzangisini ushlab turib, bu bahsga chek qo'ydi. So'ngra ular keng, ichkari hovliga kirishdi. Bu yerda ikki go'zal qiz ular yoniga kelib, don Kixotning yelkasiga harir qizil movutdan tikilgan plash tashlashdi. Shu daqiqada ichkari hovlining yo'lag-u peshayvonlari gersogning xizmatkorlari bilan to'lgan edi, ular:

– Xush kelibsiz, jahongashta ritsarlar sultoni! – deb qichqirishardi.

Shu bilan ular gersog va uning xotini hamda don Kixotning ustidan muattar atirlarni sepishardi. Bunday tantana bilan kutib olinishidan g'oyat ta'sirlangan ritsarimiz o'zining qanday-

dir bir soxta ritsar emas, balki haqiqiy jahongashta ritsar ekanligiga butunlay ishonadi. Chunki, romanlarda tasvirlanganidek, o'tgan asrlarda jahongashta ritsarlarga qanday muomala qilishsa, hozir hammaning u bilan xuddi shunday muomalada bo'lishayotganini ko'rib turardi.

Gersoginyaning muloyim gaplaridan erib ketgan Sancho esa undan sira ajralgisi kelmas edi. U eshagini tashlab, don Kixot, gersog va uning xotiniga ergashib qasrga kirdi; ammo o'zining qadrdon eshagini o'z holiga tashlab kelgani haqidagi o'y unga bir zum tinchlik bermas edi. U gersog va gersoginyani kutib oluvchilar orasida bir muhtarama duenyaga ko'zi tushib, unga yaqinroq borib pichirladi:

– Sinora Gonsales yoki janobi oliyalarining ismlari...

– Mening ismim donya Rodrigues de Grixalba, – javob berdi duenya, – qanaqa ishingiz bor edi, inim?

Bunga Sancho shunday javob qildi:

– Mening muhtarama zotdan bir iltimosim bor edi. Qasrning tashqarisiga chiqsangiz, mening kulrang eshagimni ko'rasiz. Zoti oliyalari mendan iltifotlarini ayamasalar, eshagimni otxonaga olib kirib qo'yishlarini buyursalar yoki o'zlari olib kela qolsalar. Eshagim qurg'ur biroz hurkovuchroq, bechora yolg'iz qolishni aslo yoqtirmaydi.

– Agarda xo'jayiningning aqli ham senikiga o'xshasa, – deb javob berdi duenya, – rosa mehmonlarga yolchibmiz-ku! Inim, sizni bu yerga kim boshlab kelgan bo'lsa, o'sha bilan bu yerdan tuyog'ingizni bir shiqillatib qoling-chi, to'rt tomoningiz qibla. Eshagingizga o'zingiz qarayvering va shuni bilib qo'yingki, bu qasrdagi duenyalar bunday ishlarga o'rgatilmagan.

– Bu qandoq bo'ldi, – javob berdi Sancho, – ritsar romanlarini yaxshi biluvchi xo'jayinim menga Britaniyadan kelgan sinor Lanselot haqida hikoya qilib:

Qarashadi xonimlar unga, Tulporiga – kanizlar, – deb ishontirgan edilar-ku! Men eshagimni sinor Lanselotning qirchang'isidan kam deya olmayman.

– Inim, – dedi duenya, – agarda siz masxaraboz bo'lsangiz, hazilingizni bozori ko'taradigan joyda aytasiz, shilqim-



larga toqatim yo'q. Mendan olmurutdan boshqa narsa ololmay-siz.

– Bu ham chakki emas, xonim, – dedi Sancho, – olmurutlari o'zlariga o'xshash ancha yetilib qolgan bo'lsa kerak deyman, oyimcha?

– Ey, qurib ketgur, beodob ahmoq! – jahl bilan qichqirib yubordi duenya, – men yoshmanmi, qarimanmi, Xudoga ayon, mening yoshim bilan sen sarimsoqxo'r sassiq muttahamaning nima ishi bor?!

U shunday qattiq qichqirdiki, gersoginya qayrilib qarab, duenyani jahldan ko'ziga qon to'lganini ko'rib, nima gapligini so'radi.

– Mana bu muttahamani qarang, – javob berdi duenya, – darvoza oldida qoldirib kelgan eshagini otxonaga olib kirib qo'y deydi bezbetlarcha. Yana qandaydir Lanselotga allaqanday xonimlar xizmat qilganmish-u, uning tulporiga kanizlar yem berishgan emish. Ustiga-ustak meni kampir deb masxara qildi.

– Keyingi so'zini men ham og'ir haqorat deb bilgan bo'lardim, – dedi gersoginya. So'ngra u Sanchoga yuzlanib, ilova qildi:

– Do'stim Sancho, shuni bilib qo'yingki, donya Rodrigues hali juda yosh. Siz uning bosh kiyimini ko'rib adashgan bo'lishingiz mumkin, ammo bu kiyimni yoshi o'tib qolganidan emas, balki ulug' unvoni tufayli kiyib yuribdi.

– O'lay agar, – qichqirdi Sancho, – men uni xafa qilmoqchi emas edim! Men bu gapni o'z eshagimni juda yaxshi ko'rganimdan olamda eng muloyim xonimga ishonib topshirmoqchi bo'lgandim, sinora donya Rodrigues menga xuddi ana shunday zotga o'xshab ko'rindi.

Bu bahsni boshdan oyoq eshitib turgan don Kixot Sanchoga dedi:

– Sancho, hozir bunday gaplarning o'rnimikan?

– Sinor, – javob berdi Sancho, – kishi qayerda bo'lmasin, o'z ehtiyoji haqida gapiradi: eshagim esimga tushib ketdi-yu, shu yerda gapiraverdim. Agar men otxonada bo'lganimda, eshagim to'g'risida bu yerda emas, o'sha yerda gapirgan bo'lardim.

Gapga gersog aralashdi:

– Sanchoning gapi to‘g‘ri. Uni ayblab bo‘lmaydi. Qo‘y, Sancho, tashvishlanma: eshagingga xohlaganicha yem beriladi, unga xuddi o‘zingga qilingandek muomala qilishadi.

Don Kixotdan boshqa hamma qiziqib qolgan bu angla-shilmovchilikni bartaraf etib, mezbonlar mehmonlar bilan birgalikda zinapoyadan yuqori ko‘tarilishdi va ritsarimizni qimmatbaho kimxob-u zarboflar hamda ipak gilamlar bilan bezatilgan zalga olib kirishdi. Bu yerda uni oltita yosh xizmatkor qiz kutib oldi. Ular o‘z xo‘jayinlaridan yangi mehmonni qanday kutib olish to‘g‘risida batafsil ko‘rsatma olishgan edi. Don Kixot kirishi bilan qizlar uning egnidan qurol-aslahalarini yechib olishdi. Tor ishton va tuya junidan to‘qilgan kamzulda qolgan ritsar xuddi yo‘nilgan tayoqday novcha, qoqsuyak bo‘lib ko‘rinar, chakkalari bir-biriga shunday yopishib ketgan ediki, go‘yo ular ichkari tomondan bir-birlarini o‘pishayotganday edi. Don Kixotning turishi shu qadar ichak uzadigan ediki, qizlar o‘zlarini kulgidan to‘xtataman deb, naq nafasleri qaytib ketayozdi (xo‘jayinlari ularga kulib yubormaslikni qattiq tayinlagan edilar).

So‘ngra don Kixot yasan-tusanini bitirish uchun huzuriga Sanchoni yuborishlarini va ikkovlarini xoli qoldirishlarini iltimos qildi. U o‘zi uchun gersogning buyrug‘i bilan hozirlab qo‘yilgan chip-chinniday yupqa ko‘ylakni kiyib oldi-da, o‘z qurolbardorini tergay ketdi:

– Qani, menga ayt-chi, yangi chiqqan masxaraboz va ko‘hna anqov, sen bunday muhtaram va hurmatli duenyani haqorat qilishga qanday jur‘at etding? Nahotki eshagingni eslashga boshqa vaqt topolmasang? Yoki sen bizni shunchalik dabdaba bilan kutib olgan uy egalari bizning hayvonlarimizni qarovsiz tashlab qo‘ydilar, deb o‘yladingmi? Xudoni o‘rtaga solib yolvoraman, Sancho, o‘zingga hushyorroq bo‘l, qo‘polligingni har yerda ko‘rsataverma. Ey gunohkor banda, shuni esingdan chiqarmaki, odobli, aqlli xizmatkorlar xo‘jayinini izzat-hurmat qiladi. To‘ralarning xosiyati shundaki, ular xuddi o‘zlari singari munosib kishilarning xizmatlaridan bahramand bo‘lishadi. Nahotki sen xomkalla tushunmasang, uy egalari sening surbet va befahm

burun qishlog'imizda katta janjal bo'lib, unda aytishlariga qaraganda, mening xo'jayinim don Kixot ham qatnashgan, o'shanda temirchi Balbastroning sayoq o'g'li Tomasilo yarador bo'lgan edi... Xo'sh, mening marhamatli xo'jayinim, aying-chi, bu gaplar yolg'onmi? Sizdan o'tinib so'rayman, mening gaplarimning rostligini aying, bu aslzoda janoblar meni vaysaqi yoki yolg'onchi deb o'ylashmasin.

– Xo'sh, hozircha siz yolg'onchi emas, faqat vaysaqiga o'xshab turibsiz, nazarimda, – dedi ruhoniy, – qani ko'rarmiz, bu yog'i qanday bo'larkin.

– Sen, Sancho, – juda ko'p guvohlarning nomlarini tilga olyapsan, ehtimol, gaplaring rostdir, – dedi don Kixot. – Hikoyangni davom ettir-u, lekin qisqaroq qil, chunki boshlashingga qaraganda uni ikki kunda ham tamomlamaydiganga o'xshaysan.

– Yo'q, qisqartirmasin! – e'tiroz bildirdi gersoginya. – Bilganicha aytib beraversin. Agar u o'z hikoyasini olti kunda tugatolmasa ham, mayli, bu olti kunni hayotimdagi eng baxtiyor kunlar deb hisoblayman.

– Shunday qilib, sinorlar, – yana hikoyasini boshladi Sancho, – men besh qo'lday biladigan haligi idalgo, chunki uning uyi menikidan bir kamon o'qi yetgunchalik joyda, bitta qashshoq, ammo sofdil dehqonni uyga mehmonga chaqiribdi.

– Tezroq, birodar, – uning so'zini bo'ldi ruhoniy. – Bu ahvolda qiyomat qoyimgacha ham tugatolmaydiganga o'xshaysiz.

– Yarim yo'lda, balki, Xudo xohlasa, undan ham burunroq tugataman. Shunday qilib, sinorlar, haligi dehqon uni mehmonga chaqirgan idalgonikiga kelibdi, haligi idalgo – joyi jannatda bo'lsin, iloyo, – axir, u o'lgan-da, yana qanday o'libdi deng, xuddi farishtaday-a, farishtaday, menga shunday deb aytishdi, o'lganini o'zim ko'rganim yo'q, u paytda Temblekeda pichan o'rayotgandim...

– Bo'tam, – xitob qildi ruhoniy, – Xudo haqqi, Temblekadan tezroq qayting-u, hikoyangizni idalgoni dafn qilmasdan ilgariroq tugata qoling, yo'qsa bizni ham dafn etadiganga o'xshaysiz!

– Shunday qilib, – hikoyasini davom ettirdi Sancho, – ular dasturxonga o'tirayotganlarida, hozir ham xuddi tirikday ko'z o'ngimda turishibdi...

Gersog bilan gersoginya Sanchoning hikoyasi bu yoqda qolib, son-sanoqsiz mayda-chuyda gaplarga chalg'iyotgani ruhoniyning g'ashiga tegayotganini, don Kixotning esa g'azabdan jig'ibiyron bo'layotganini ko'rib, ichlarida huzur qilib kulishardi.

– Shunday qilib, haligi deng, – davom etdi Sancho, – ular hali aytganimday dasturxonga o'tirishmoqchi bo'lishdi, ammo dehqon idalgoni, idalgo esa dehqonni to'rga o'tishga qistagan, u o'z uyida o'zi xo'jayin ekanligini, mehmon mezbonning izmiga kirishi kerakligini aytgan. Biroq o'zini xushmuomala va odobli deb hisoblagan dehqon to'rga o'tishga sira ko'nmagan. Nihoyat, achchig'i chiqqan idalgo: «O'tiraversang-chi, kallavaram, men qayerda o'tirmayin o'sha yer uyning to'ri-da, axir», deb uni yelkasidan bosib majburan o'tirg'izgan. Aytmoqchi bo'lgan gapim shu, xolos, menimcha, hozir bu gapim juda o'rinli bo'lsa kerak.

Don Kixot qizarib-bo'zarib ketdi, uy egalari esa don Kixot Sanchoning ayyorlik bilan qilgan shamasini tushunib, butunlay jahli chiqmasin deb xavotirlanib, o'zlarini kulgidan zo'rg'a tiyib o'tirishardi.

Gersoginya don Kixot uchun noqulay bo'lgan bu suhbatni boshqa tomonga burib yuborish uchun don Kixotdan uning sinora Dulsineyadan xat-xabar olib turganini, keyingi kunlarda sinora huzuriga ko'plab dev va sehrgarlarni sovg'a qilib yubordimiyoyo'qmi, shuni so'radi: «Chunki, – deb ilova qildi u, – sinor ritsar ularning allaqanchasini yenggan bo'lsalar kerak». Bu savolga don Kixot shunday javob berdi:

– Mening baxtsizliklarimning, sinora, boshi bor-u, aslo nihoyasi ko'rinmaydiganga o'xshaydi. Men devlarni yengdim, uning izmiga qaroqchilar va yovuzlarni yubordim, ammo ular malikamni izlab topisha olmabdi, chunki u sehr bilan xunuk bir dehqon ayolga aylantirib qo'yilgan.

– Bilmadim-u, – uning so'zini bo'ldi Sancho, – u menga

dunyodagi eng kelishgan go'zalday bo'lib tuyulgandi. Ishqilib, u shunday epchilki, sakrashda dorbozlardan qolishmaydi. Gapim rost, sinora gersoginya, men uning eshakka bir sakrashda mushukdek sapchib minib olganini o'z ko'zim bilan ko'rdim.

– Uni boshqa qiyofaga kiringandan keyin ko'rdingizmi, Sancho? – deb so'radi gersog.

– Ko'rganda qanday! – javob berdi Sancho. – Axir, men birinchi bo'lib uning sehrlanganini bildim-da. U xuddi mening marhum otam singari sehrlab qo'yilgan.

Devlar, qaroqchilar va sehrgarlik haqidagi bu suhbatni eshitgan ruhoniy oxiri ro'parasida lamanchlik don Kixot o'tirganini fahmladi. Gersog telba idalgoning buyuk qahramonliklari haqidagi yaqinda paydo bo'lgan kitobdan shunday zavqlanar ediki, bu vallomat jahongashta ritsar haqidagi o'z hikoyalari bilan ruhoniyni bezorijon qilgan edi. Ruhoniy o'zining gumoni to'g'ri chiqqaniga ishonch hosil qilgach, u qasr xo'jayiniga jahl bilan shunday dedi:

– Marhamatli sinorim, bu oliyhimmat odamga qilgan muomalangiz uchun xudo oldida javob berasiz. Siz bu don Kixot yoki, to'g'rirog'i, don Ovsarning telbaligini bekorga rag'batlantiryapsiz. Siz o'z tentakligi va telbaliklarini davom ettirish uchun uning qo'liga barcha vositalarni berib qo'yyapsiz.

Ruhoniy don Kixotga murojaat qilib so'zida davom etdi:

– Ayting-chi, menga, ey tentak odam: jahongashta ritsarsiz, devlarni yengib, yovuzlarni asir qilib olasiz degan bema'ni gaplarni kim quydi miyangizga? Yaxshisi, uyingizga qayting-da, xo'jaligingizga tuzukroq qarang, ehtimol, tanazzulga yuz tutgan bo'lsa kerak u. Ikki jahon ovorasi bo'lib yurib, uchraganga masxara bo'lishni bas qiling. Dunyoda jahongashta ritsarlar bo'lgan va ular hozir ham bor, degan gapni qayerdan oldingiz? Ispaniyaning qayerida devlar yoki Lamanchda sehrgarlar bor-mish? Sehrlangan Dulsineya qayerda-yu, siz ko'pirtirib gapirgan hamma uydirmalaringiz qayoqda?

Don Kixot bu muhtaram zotning so'zlarini diqqat bilan eshitdi, ammo u so'zini tugatishi bilanoq, gersog va gersoginya-ga bo'lgan o'zining hurmat-ehtromiga qaramasdan, sakrab

oyoqqa turdi-da, g'azabidan titrab shunday dedi:

– Bu uy egalariga bo'lgan chuqur hurmatim hamda marhamatli din peshvosining martabasiga nisbatan bo'lgan ehtiro-mim mening haqqoniy g'azabimni bosib turishga majbur etmoq-da. Buning ustiga din peshvolarining zaharli tillaridan boshqa qurollari yo'q: ammo ular bu quroldan xuddi ayollardek ustalik bilan foydalanadilar. Shuning uchun men bundan boshqa qurolni qo'llamasdan, siz marhamatli zot bilan tengmateng jangga kiraman. Avvalo, shuni aytayin, ruhoniyy zotdan o'rinsiz haqorat-lar emas, balki yaxshi maslahatlar eshitish lozim edi. Xayrixohlik qilish, do'stona pand-nasihatlar odob bilan, muloyimlik bilan izhor etilishi lozim edi. Siz esa meni hammaga eshittirib dag'allik bilan koyib, oqilona pand-nasihat qilishning barcha chegarasidan chiqib ketdingiz. Hali o'zi bilmaydigan gunohlarni ocha turib, gunohkorlarni ovsar va tentak deyish ruhoniyya munosibmi? Qa-ni, menga shu narsani tushuntirib bering-chi, marhamatli janob, meni jinni deb atashga va xo'jaligimga qarash uchun jo'nab qoli-shimga maslahat berishga mendagi va mening yurish-turishim-dagi nimalar huquq berdi sizga? Jahongashta ritsarlik va uning urf-odatlarini haqida o'zboshimchalik bilan hakamlik yurgizmoq uchun nahotki, allaqanday qashshoq bir kollejda o'qib, bir balo qilib begona oilaga ruhoniyy bo'lib kirishning o'zigina kifoya qilsa? Nahotki, siz dunyoning huzur-halovatlaridan kechib, minglab mashaqqatli sinovlardan o'tib abadiylikka yetishuv uchun dunyoni jahongashtalik bilan kezishni bekorchi va be-ma'ni ish deb o'ylasangiz? Basharti meni biror oliyjanob ritsar yoki hurmatli to'ra ovsar deb ataganida men buni kechirilmas haqorat deb hisoblagan bo'lardim. Lekin meni umrida ritsarlik yo'lidan yurib ko'rmagan bir qiroatxon tentak deb atar ekan, uning vaysaganini bir pulga olmayman. Men ritsarman va, Xudo xohlasa, ritsarligimcha o'laman. Ba'zi bir kishilar takabburona shuhratparastlik yo'lidan, boshqalari esa pastkashlik va qullarcha xushomadgo'ylik yo'lidan, uchinchi xillari aldash, munofiqlik, to'rtinchilari esa haqiqiy e'tiqod yo'lidan boradilar. Men esa o'z yulduzim rahnamoligida jahongashta ritsarlikning tor so'q-mog'idan boraman, buning uchun men dunyoning huzur-halo-

vatlaridan hazar qilsam-da, nomusdan hazar etganim yo'q. Men ranj-alamlar uchun o'ch oldim, adolatni tikladim, surbetlarni jazoladim, devlarni yengdim, yovuzlarni poymol qildim. Jahongashta ritsarlik qonunlari talab qilgani uchun ham oshiqman – men va bu sevgim har qanday illatdan xoli, chunki u musaffo va pokdir. Mening barcha orzu-umidlarim doim oliyjanob maqsadga – hammaga yaxshilik qilish va hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaslikka qaratilgan. Janoblar, oliy zot sinorlar, gersog va gersoginya, endi o'zlaringiz o'ylab ko'ringlar, shunday o'ylagan, shunga amal qiluvchi va shunday gap gapiradigan kimsaga ahmoq degan laqab to'g'ri keladimi?

– Xudo haqqi, ajoyib gap bo'ldi! – qichqirib yubordi Sancho. – Sinorim, o'zingizni oqlash uchun bundan boshqa hech narsa demang! Baribir, bundan ortiqroq biron narsa deyish yoki o'ylab topish mumkin emas. Manavi sinorning go'yo dunyoda jahongashta ritsarlar bo'lgan emas, hozir ham yo'q deyishining o'ziyoq uning o'ylamay gapirayotganligini ko'rsatib turibdi.

– Siz, birodar, – so'radi ruhoniy, – don Kixot orol va'da qilgan o'sha Sancho emasmisiz?

– Xuddi o'sha, – javob berdi Sancho, – men sovg'aga orol olish uchun boshqa har qanday odamdan kam xizmat qilganim yo'q. Yaxshiga yaqin yursang, yetarsan murodga, deganlar. Men tug'ishganimni emas, tutinganimni deydigan odamlardanman. Men yaxshi xo'jayinga ergashdim, mana ko'p oylardan beri uning yonidaman. Xudo unga va menga uzoq umr bersin; u biror davlatga, albatta, imperator, men esa biror orolga hukmdor bo'lamiz.

– Juda to'g'ri, do'stim Sancho, – uning so'zini bo'ldi gersog, – sinor don Kixotga bo'lgan hurmatim tufayli men shu paytgacha gubernatorligiga loyiq kishi topa olmagan anchagina katta orolni sizning boshqaruvingizga topshiraman.

– Marhamatli zot oldida tiz cho'k, Sancho, – dedi don Kixot, – senga ko'rsatilgan iltifot uchun qo'llarini o'p.

Sancho aytilganlarni bajo keltirdi, buni ko'rgan ruhoniy darg'azab bo'lib o'rnidan turarkan, shunday dedi:

– Egnimdagi jubbam haqqi, janobi oliylari ham xuddi ma-

na shu ikkala badbaxt-gunohkordek tentakka o'xshaydilar, chamamda. Modomiki aqli raso kishilar ularning tentakliklariga haybarakallachilik qilib turishsa, ular boshlarini yo'qotmay nima qilishsin! Janobi oliylari, siz ular bilan qoling, ammo ular qasrda ekan, men ostonangizga qadam ham bosmayman. Men tanbeh berishim lozim bo'lgan, ammo o'zgartirishga kuchim yetmagan narsaga guvoh bo'lishni istamayman.

Ruhoniy shu so'zlarni aytib ziyofat tugamasdanoq zaldan chiqib ketdi. Gersog undan qolishni iltimos qildi-yu, ammo astoydil qistamadi. Ichida u ruhoniyning ketishidan juda mamnun edi.

– Marhamatli sinor Arslonlar ritsari, – dedi gersog don Kixotga murojaat qilib, – siz taqsimimizga shunday boplab javob qildingizki, dabdurustdan qaraganda haqorat bo'lib ko'rinadigan bunday so'z uchun bundan ortiqrog'i ortiqchalik qilardi. Axir, na din peshvolari, na ayollarning haqorat qilolmasligi bizga ma'lum-ku!

– Gapingiz to'g'ri, – deb javob berdi don Kixot. – Ular bizni xafa qilishi mumkin, ammo haqorat qila olmaydilar. Marhamatli janoblariga ma'lumki, xafa qilish bilan haqoratning o'rtasida katta farq bor. Haqorat qilgan kishi o'z haqoratini zo'r kuch ko'rsatish bilan tan oldiradi, ana shundagina haqoratlagan bo'ladi, xafa qilish esa har kimning ham qo'lidan kelaveradi. Masalan, bir kimsa ko'chadan ketyapti deylik, qo'qqisdan uning oldiga birov yugurib keladi-yu, tayoq bilan urib, qochib qoladi. Kaltak yegan uning ketidan quvadi-yu, lekin yetolmaydi. Bu odam to'g'risida aytish mumkinki, uni xafa qilishdi-yu, ammo haqoratlashgani yo'q, chunki haqoratlangan kishi qilgan haqoratini zo'r kuch bilan mustahkamlashi lozim. Shunday qilib men o'zimni xafa qilingan deb hisoblashim mumkin, chunki hurmatli ruhoniy o'zining haqoratomuz so'zlarini mustahkamlay olmaydi. Shuning uchun bu so'zlarda mening sha'nimga tegadigan hech narsa yo'q. Men uning biz bilan birga qolmaganligidan afsuslanaman, xolos. Zotan, u dunyoda jahongashta ritsarlar yo'q va bo'lgan emas, deb o'ylab, katta xato qilayotganligini, balki, tushunib olardi. Basharti bu so'zlarni Amadis yoki behisob jahon-



gashta ritsarlar namoyandalaridan birortasi eshitib qolganida, muhtaram taqsirim osonlikcha qutula olmas edi.

– Qasamyod qilamanki, shunday bo‘lardi, – dedi Sancho. – U qilichi bilan uni xuddi anor yoki qovun so‘yganday ikki pallaga bo‘lib tashlardi. Ular jig‘lariga tegishsa jim turadiganlardan emas edilar. Xudo haqqi, mabodo Montalbanlik Reynaldo bu janobning safsatasini eshitgani-da bormi, uning jag‘iga shunday musht tushirardiki, uch yilgacha og‘zini ham ocholmasdi.

Sanchooning mulohazalarini eshitib gersoginya qotib-qotib kulardi; unga qurolbardor xo‘jayinga qaraganda tentakroq va g‘alatiroq tuyulardi. Darvoqe, do‘stlarimiz bilan uchrashganlarning aksariyati ana shu fikrda edi.

Shunday qilib, don Kixot jahlidan tushdi, ziyofat tugadi, dasturxonni yig‘ishtirib olishdi. Shu payt to‘rt qiz paydo bo‘ldi: ulardan biri kumush jom, ikkinchisi kumush ko‘zacha ko‘tarib olgan, uchinchisining yelkasiga ikkita oppoq sochiq tashlangan, yeng'i tirsagigacha shimarilgan to‘rtinchi qizning qo‘lida esa bir kulcha yumaloq neapolitan sovuni bor edi. Birinchi qiz jomni ustalik bilan va beozorgina don Kixotning soqoli ostiga tutdi. Ritsarimiz bu rasm-rusumdan juda taajjublandi, ammo, u bu mamlakatda, ehtimol, qo‘lni emas, soqolini yuvdirish odati bordir, deb o‘yladi. Shuning uchun u hech narsa demasdan bo‘ynini oldiga cho‘zdi; shu daqiqada ko‘zachadan suv qo‘yildi va sovun ushlagan qiz esa uning soqolinigina emas, balki butun yuzi, ko‘zlariga tez-tez sovun surkay boshladi. U g‘ayrat bilan sovun surtardi deng, oppoq ko‘piklar go‘yo qor parchalaridek har tomonga sachrardi. Don Kixot ko‘zlarini beixtiyor yumishga majbur bo‘ldi. Gersog va gersoginya kutilmagan bu yuvinishni hayronlikda kuzatishib turishardi, chunki buni qizlarning o‘zlari, xo‘jayinlarining buyrug‘isiz qilishmoqda edilar. Bu orada don Kixotning butun yuzi sovun ko‘pigi bilan qoplandi; shunda qiz go‘yo suv tamom bo‘lganday qilib, ritsardan biroz kutib turishni so‘radi-da, sheriklaridan birini suvga yubordi. U «xo‘p» deb yugurib ketdi, don Kixot esa sovun ko‘pigiga belanganicha toqat qilib o‘tirar, bundan ham g‘alati, bundan ham kulgili basharani tasavvur etish mumkin emas edi. Bu yerda hozir bo‘lganlar uning

oq ko'pikka belanib, uzun, qorachadan kelgan bo'ynini oldinga cho'zib, ko'zlarini yumib o'tirishini indamay tomosha qilishardi. Shunisi ajablanarli ediki, hech kim kulmadi. Bu hazilni o'ylab topgan qizlar xo'jayinlariga qarashdan qo'rqib, ko'zlarini yerga qadab turishardi, xo'jayinlar esa bu o'zboshimcha sho'xlilari uchun ularni jazolash kerakmi yoki bu kulgili va g'alati tomosha uchun mukofotlash kerakmi, shuni bilmasdan hayron edilar. Nihoyat, suvga ketgan qiz keldi, don Kixotni yuvintirish tugadi; sochiq ushlagan xizmatkor qiz uning yuzini artib qo'ydi; so'ngra to'rtovlari unga ta'zim qilib chiqib ketmoqchi bo'lishdi. Ammo gersog, bu yuvintirish ataylab qilinganini don Kixot sezib qolmasligi uchun, jom ushlagan qizni chaqirib, shunday dedi:

– Qani, endi meni yuvintiringlar, ammo suvinglar yetmay qolmasin tag'in.

Mug'ambir va farosatli qiz gersogga yaqin keldi-yu, xuddi don Kixotga tutgandek unga ham jom tutdi. Xizmatkor qizlar uning yuzini yaxshilab yuvishdi-da, so'ngra chiqib ketishdi. Keyinchalik gersog agarda qizlar uni ham xuddi don Kixotdek yuvintirishmasa, ularni shumliklari uchun jazolamoqchi bo'lganini aytdi. Ammo qizlar nima qilish kerak ekanligini fahmlashib, uning chakkalarini binoyidek qilib yuvishdi.

Sancho yuvintirish marosimini diqqat bilan kuzatarkan, o'zicha ming'irladi:

– Obbo, jin ursin! Ehtimol, bu mamlakatda faqat ritsarlarnigina emas, ularning qurolbardorlarining ham soqollarini yuvish odati bordir. Xudo haqqi, juda joyida bo'lardi-da. Agarda shu bilan bir vaqtda chakkalarimni ham bir qirtishlab qo'yishsa, savobning o'zginasi bo'lardi-da.

– Nima deb g'uldirayapsiz, Sancho? – deb so'radi gersoginya.

– Gap shundaki, sinora, – javob qildi u, – menga ma'lum bo'lishicha to'ralarning saroylarida ovqatdan so'ng mehmonlarning qo'llarini yuvdirishardi, ammo soqollarini yuvdirishganini sira eshitmagan edim. Ammo, menimcha, bu, ayniqsa, qurolbardorlarga ham rasm bo'lsa, juda yaxshi odat ekan.

– Xafa bo'lmang, do'stim Sancho, – javob berdi gerso-

ginya, – men hozir buyruq beraman, qizlarim sizni yuvintiribgina qolmay, agar lozim bo'lsa, hatto qirtishlab ham qo'yishadi.

– Ular mening soqolimni yuvib qo'yishsa ham, juda minnatdor bo'lardim, – dedi Sancho, – u yog'iga esa xudoning aytgani bo'lar.

– Eshik og'asi, – dedi gersoginya, – esingizda tutingki, oliyanob Sancho nimani so'rasa, darhol bajaringlar.

Eshik og'asi sinor Sanchoning har qanday xizmatiga doim tayyor ekanini aytdi. Shunday dedi-yu, u Sanchoni boshlab ovqatlangani ketdi, gersog, gersoginya va don Kixot esa shu yerda qolib harbiy ish va jahongashta ritsarlikka doir turli narsalar haqida gapirishib o'tirishdi.

Gersoginya don Kixotdan mish-mishlarga qaraganda go'zallikda dunyoda tengi yo'q sinora Dulsineyaning tashqi ko'rinishini tasvirlab berishni so'radi. Don Kixot gersoginyaning iltimosini tinglab, bir xo'rsinib qo'ydi-da, shunday dedi:

– Basharti yaqinda boshqa qiyofaga kirishi natijasida uning timsoli xotiramda o'zgarib ketmaganida edi, men iltimosingizni bajo keltirgan bo'lar edim. Baxtsizligim shu qadar kattaki, men o'z xonimimni tasvirlash emas, balki unga motam tutishim kerak. Janob oliyalariga ma'lum bo'lg'aykim, bundan bir necha kun muqaddam qo'lini o'pib, uchinchi safarimga fотиha olaman deb uning huzuriga yo'l olgan edim. Afsuslar bo'lsinki, izlab borgan yerimda butunlay boshqa bir holga duch keldim; uni sehrlab qo'yishibdi: malika edi, dehqon xotinga aylantirishibdi, go'zalni xunukka, farishtani shaytonga, shirinsuxanni qo'polga, basavlat xonimni dikir-dikir sakraydigan yengiltak ayolga, numi zulmatga – xullasi kalom, Tobosolik Dulsineyani oddiy bir qishloqi xotinga aylantirishibdi.

– Xudoyo, o'zing rahm qil! – qichqirib yubordi gersog. – Bunday ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yovuzlik qilgan kim, axir? Borliqni chiroyga o'rab quvonch baxsh etgan go'zallikdan, olamni shodliklarga to'ldirgan quvonchdan, iffat va hikmatda tengi yo'q farishtadan mahrum etgan kim?

– Kim deysizmi? – javob qildi don Kixot. – Menga hasad qilib, ta'qib etib yuruvchi behisob yovuz sehrgarlardan biri bo'l-

may kim bo'lardi? Bu la'nati qabila haqqoniy odamlarning ishlarini qoralash va murdorlarning ishlarini ko'kka ko'tarish uchun dunyoga tarqalib ketgan. Jodugarlar meni ta'qib qilishgan, jodugarlar meni ta'qib qilishyapti. Jodugarlar to meni va mening yuksak ritsarlik ishlarimni yo'qqa chiqarib yubormagunlaricha meni ta'qib qilishaveradi. Ular mening nozik joyimni bilishadi va o'sha tomonimdan ketma-ket zarba berishyapti. Negaki jahongashta ritsarning ko'nglini band etgan xonimni o'g'irlash, uning ko'zini, yo'llariga nur-ziyo sochgan quyoshini o'g'irlash, ucharga qanotini qayirish, yurarga madorini quritish demakdir. Men ilgari ham aytganman, yana takror aytamanki, ma'shuqasi bo'lmagan jahongashta ritsar bamisoli yaproqsiz daraxt, poydevorsiz bino-yu tanasi tark etgan soyaga o'xshaydi.

– Bu aytganlaringizga qo'shilmay bo'lmaydi, – dedi gersoginya, – ammo don Kixot haqidagi mish-mishlarga ishonil-sa, unda siz muhtaram janoblari ham sinora Dulsineyani hech qachon ko'rmagansiz. Aytishlaricha, u hech qachon bo'lgan ham emas, u marhamatli janoblarning tasavvuridagi xayoliy bir mavjudot emish.

– Bu xususda ko'p narsa aytish mumkin, – dedi don Kixot, – Dulsineyaning dunyoda bor-yo'qligi, xayoliymi yoki haqiqiy-mi – bu birgina xudoga ma'lum. Xullasini aytganda, buning unchalik ahamiyati yo'q. Har qalay, men qalbim xoqonini barcha ezguliklardan bahramand, go'zallarning go'zali, takabburlikdan xoli bo'lgan aqlli, vazmin, xushmuomala va shirinsuxan, odobli va nihoyat, zoti nasabi ulug' bir ayol deb o'ylayman.

– Gapingiz rost, – javob qildi gersog, – ammo sinor don Kixot ruxsat bersalar, men o'z fikrimni aytsam. Albatta, Dulsineya, haqiqatan ham, bor hamda dunyodagi hech bir ayol go'zalikda unga teng kelolmaydi. Ammo u ritsarlik romanlarida ko'p tilga olinadigan, masalan, Oriana, Alastraxariya yoki Medasimalar bilan nasl-nasabda tenglasha olmaydi...

– Bunga men qo'shila olmayman, – dedi don Kixot, – Dulsineya – o'z ishining quli. Faqat ezgulikni oliyjanoblik keltiradi, nasabi yuqori bo'lmasa-da, oliyhimmat kishi yuqori nasabli-yu, ammo beodobga qaraganda ko'proq hurmat-ehtiroimga sa-

zovor bo'ladi.

— Sinor don Kixot, — dedi gersoginya, — so'zlaringiz bag'oyat donoligingizdan darak berib turibdi. Siz meni ishontirdingiz; endi bundan buyon Tobosolik Dulsineyaning borligiga va don Kixotday mashhur ritsar xizmatini qilsa arziydigan darajada go'zal va aslzoda ekanligiga o'zim ham ishonaman, boshqalarni ham bunga ishonishga majbur qilaman. Men uning maqtoviga munosib so'z topolmayman. Ammo meni bitta shubha qiynabroq turibdi. Sancho Pansaning aytishiga qaraganda, u marhamatli janoblarining maktublarini sinora Dulsineyaga olib borganida, go'yo u don elayotgan emish: ana shu hol uning oliyjanob xonimligiga menda shubha uyg'otyapti.

Don Kixot bamaylixotir shunday javob qildi:

— O sinoram, janobi oliyalariga ham ma'lum bo'lg'aykim, dushmanlarim bo'lmish sehrgarlar men uchun jahonda eng qimmatli bo'lgan narsadan o'chlarini olishyapti. Illo, hayot-mamotim bo'lgan Dulsineyani ta'qib qilish bilan ular meni yorug' jahondan mahrum qilishmoqchi. Qurolbardorim Dulsineyaga mening maktubimni olib borishi bilanoq, uni don elayotgan oddiy dehqon ayolga aylantirib qo'yishibdi. Ammo men aminmanki, o'sha don — Sharq marvaridi bo'lishi kerak. Bu fikrimning haq-nohaq ekanligini janobi oliylari, o'zingiz o'ylab ko'rishingiz mumkin. Bundan bir qancha vaqt muqaddam men Tobosoda bo'lib, Dulsineyaning saroyini hech topa olmagan edim. Vaholanki, mening qurolbardorim Sancho ertasiga uni haqiqiy qiyofasida, ya'ni jahonda yagona go'zal qiyofada ko'ribdi. Menga esa u qo'pol va xunuk dehqon ayol qiyofasida, basharti o'zida jahonning butun donishmandligi mujassam bo'lsa-da, ahmoqona bir tusda ko'rindi. Ammo men sehrlanmagan ekanman, demakki, u sehrlangan, ranjitilgan, qiyofasi o'zgartirilgan; demak, dushmanlarim undan o'ch olishibdi, men esa to u o'zining asl qiyofasida ko'rinmaguncha abadiy ko'z yoshi to'kishim lozim. Shuning uchun Sanchoning don elash to'g'risidagi gaplari hech kimni xijolat qilmasligi kerak. Axir, mengaki Dulsineyaning qiyofasini o'zgartib ko'rsatganlaridan keyin, unga ham boshqa qiyofada ko'rsatishganiga ajablanmasa ham bo'ladi-

ku. Dulsineya – mashhur va aslzodalar nasabidan. Jahonda hech kimning tolei mening sinoramning toleiday emas, chunki Troya Yelena bilan, Ispaniya esa Kava<sup>1</sup> bilan shuhrat qozonganidek, uning nomi ham ona shahrini kelgusi asrlarga mashhur qiladi. Bundan tashqari, marhamatli sinora, Sancho Pansa bir paytlar jahongashta ritsarlarga xizmat qilgan barcha qurolbardorlarning eng g'alatisi... Uning soddadil qiliqlari ba'zan nihoyatda o'tkir bo'ladi: ba'zan u shunday shumki, ayyor deb ham o'ylash mumkin; ba'zan shunday ovsarki – befahmga o'xshaydi. U hamma narsadan shubhalanadi hamda hamma narsaga ishonaveradi: u menga go'yo bema'nilik jariga qulaganday bo'lib ko'ringanda, yana birdan osmonga sapchiydi. Xullasi kalom, men ustiga shahar qo'shib berishganda ham uni boshqa hech qanday qurolbardorga alishmayman. Ammo, har qalay, janobi oliylari hadya qilgan orolni boshqarishni unga ishonib topshirib bo'larmikin, buni bilmadim.

Gersog, gersoginya va don Kixot o'rtasida borayotgan suhbat ana shu yerga kelganda qo'qqisdan qandaydir to's-to'polon, shovqin-surondan bo'linib qoldi. Zalga bo'yninga ozoda sochiq o'rniga qandaydir kir latta bog'lagan, quti o'chgan Sancho hansiragancha otilib kirdi, uning ketidan bir necha oshxonada xizmat qiladigan bolalar qiy-chuv qilib chopishib kelishdi. Ulardan biri mag'zava to'la kir tog'ora ko'tarib olgan va zo'r berib uni Sanchoning iyagi ostiga tutishga urinardi.

– Bu nimasi, do'stlarim, – so'radi gersoginya. – Bu nima o'zi? Bu yaxshi odamni nega qiynayapsizlar? I-e, hali sizlar uning gubernator qilib tayinlanganini unutdilaringizmi?

---

<sup>1</sup> **Kava** – qadimiy ispan afsonalaridan birida VIII asrda Ispaniyaning arablar tomonidan zabt etilishi to'g'risida shunday hikoya qilinadi. Qudratli graf Yulianing Kava ismli go'zal qizi bo'lgan ekan. Yulian qizini nihoyatda sevar va uni ko'z qorachig'idek asrar, e'zozlar ekan. Biroq bu baxtsiz otaning to'la ishonchiga kirib olgan qirol Rodrigo go'zal Kavaning nomusini buzadi. Rodrigodan o'ch olish uchun graf Yulian arablarni Ispaniyaga chaqiradi. Rodrigo arablarga qarshi jang qiladi, lekin butunlay tor-mor bo'ladi, o'zi ham jangda o'ladi, Yulian qizi uchun o'ch olganidan xursand bo'lishi kerak edi. Ammo arablar Ispaniyada qolishadi va yarim orolni asta-sekin butunlay o'zlariga qaratib olishadi. Shunday qilib, don Kixot Yelena bilan Kavani bir-biriga taqqoslar ekan, u Yelenani o'g'irlashganda Troya xarob bo'lganidek, Kavani haqoratlagani tufayli Ispaniya arablarning bosqiniga uchraganini aytmoqchi bo'ladi.

Bunga javoban oshpaz shogirdi — sartarosh bola shunday javob qildi:

— Bu sinor bizning rasm-rusumimiz bo'yicha soqolini yuvdirmayapti. U janob gersog va o'z xo'jayinidan ibrat olishni istamayapti.

— Yolg'on gapirma, judayam xohlayman-da, — jahl bilan javob berdi Sancho, — ammo men sochiq oqroq, suv tiniqroq, qo'ling tozaroq bo'lishini xohlardim. Men bilan xo'jayinim o'rtasidagi farq unchalik katta emaski, uni farishtaning suvi bilan, meni esa shaytonning mag'zavasi bilan yuvishsa. Turli mamlakatlarning va knyaz saroylarining odatlari hech kimning ko'ngliga tegmasagina, yaxshi bo'ladi, ammo bu yuvinish odati o'z-o'zini qiynashdan boshqa hech narsa emas. Mening soqolim toza va bunaqangi yuvishning hech hojati yo'q. Kimki menga qo'l tekkizgudek bo'lsa, uning miyasini qoqib, qo'lga beraman. Chakkaga sovun surkaladigan bu rasm-rusumlar mazax qilishdan boshqa hech narsa emas.

Oshxona malaylarining o'z qurolbardoriga qilgan qo'pol hazillari don Kixotga unchalik yoqmadi. Shuning uchun u gersog va gersoginyaga, go'yo ulardan janjalga aralashishga ruxsat so'rayotgandek, chuqur ta'zim qilib, xizmatkorlar to'dasiga o'shqirdi:

— Ey, sinor jo'ralar, qani bu yigitni tinch qo'yib bir jo'nab qolinglar-chi. Mening qurolbardorim boshqalardan isqirt emas, bu tog'ora unga unchalik to'g'ri kelmaydi. Mening gapimga kiringlar-u, unga tega ko'rmanglar, chunki u ham, men ham bunday hazilni yoqtirmaymiz.

Sancho esa uning so'zini ilib ketdi:

— Bunday hazillar faqat darbadarlarga qilinadi. Bunday hazillaringizga ko'nib bo'pman. Mayli, taroq olib kelishib, soqolimni tarab ko'rishsin, agarda zig'ircha kir topilsa, qo'yingning junini olgandek sochimni qirtishlab tashlay qolishsin.

Shu payt o'zini hamon kulgidan to'xtata olmayotgan gersoginya gapga aralashdi:

— Sancho Pansa tamoman haq, umuman, u nimaiki desa, doim haq bo'ladi. U yuvintirib qo'yishga muhtoj emasligini

aytyapti. Bizning odatlarimiz unga yoqmasa, na chora, bu uning ishi, ammo tozalik homiylari, shunday sinorga sof oltin jom bilan ko'za tutish, nemischa sochiq o'rninga allaqanday isqirt tog'ora bilan oshxona sochiqlarini tutib yaxshi qilmabsizlar. Sizlar jahongashta ritsarning qurolbardoriga bo'lgan hasadlaringizni yashira olmasangizlar, nima degan odam bo'ldilaringiz?

Oshxona pikarolari<sup>1</sup> ham, eshik og'asi ham gersoginya jiddiy gapiryapti, deb o'ylashdi. Ular darrov Sanchoning bo'ynidan isqirt lattani olishdi-yu, xijolat bo'lib chiqib ketishdi. Sancho esa, xavf-xatar tugaganini ko'rib, gersoginya oldida tiz cho'kdi:

– Ulug' sinoradan doimo ulug' marhamatlar kutish mumkin. Ammo zoti oliyalarining homiyliklari evaziga minnatdorchilik bildirish uchun menga tezroq jahongashta ritsarlik unvonini berishlarini xohlar edim. Ana o'shanda men butun hayotimni, ulug' sinora, sizning xizmatingizga bag'ishlagan bo'lardim. Men oddiy dehqonman, ismi sharifim Sancho Pansa, uylanganman, bolalarim bor, qurolbardorlik xizmatidaman, ammo zoti oliyalariga biror manfaatim tegadigan bo'lsa, xizmatingizga doim tayyorman, bir og'iz aytsangiz bas.

– Ko'rinib turibdiki, Sancho, – dedi gersoginya, – siz odobni eng yaxshi kishilardan o'rganibsiz. Har bir odam sizni xo'jayiningiz don Kixotning sodiq shogirdi deb taniydi. Bunday xo'jayin va uning bunday xizmatkorlariga shon-sharaflar bo'lsin. O'rningizdan turing, Sancho. Sizning odobingiz uchun hukmdorim gersogdan, iloji boricha, tezroq sizni gubernatorlik bilan mukofotlashini so'rayman.

Shu bilan suhbat tugadi. Don Kixot ovqatdan so'ng dam olish uchun kirib ketdi, gersoginya esa Sanchodan agar unchalik uyquasi kelmayotgan bo'lsa, ovqatdan so'nggi vaqtini o'zi va qizlari bilan o'tkazishni so'radi. Sancho, rostini aytganda, yozda ovqatdan keyin to'rt soatlarcha uxlab olishga odatlanganini, ammo u gersoginyaning marhamatidan juda minnatdorligi tufayli butunlay uxlamaslikka ahd qilganini aytdi.

---

<sup>1</sup> Oshxona pikarolari – feodal saroylarining oshxonalariga suqilib kirib olgan va mulozimlar hamda xizmatkorlardan qolgan sarqit ovqatlar bilan kun kechiruvchi yuvindixo'rlar. Pikaro so'zining aniq ma'nosi – daydi, ayyor, tilanchi demakdir.



Shu soʻzlar bilan tushki ovqatini tugatgani joʻnadi.

Sancho oʻz soʻziga amal qilib, ovqatdan keyinoq gersoginyaning oldiga keldi. U yonginasidagi pastakkina kursiga oʻtirishni taklif qildi. Ammo chinakam xushodob kishi boʻlgan Sancho bunga koʻnmadi. Shunda gersoginya boʻlajak gubernator sifatida oʻtira olishi, qurolbardor sifatida bemalol gapiraverishi va bu har ikki unvon unga hatto Sidning ham oʻrindigʻiga oʻtirishiga huquq berishini aytdi. Sancho yelkasini qisib, itoatkorona oʻtirdi, barcha duenyalar va gersoginyaning kanizlari uni oʻrab olishib, uning nima deyishini kutib, jimgina turishardi. Gersoginya birinchi boʻlib soʻz boshladi:

– Endi, biz yolgʻiz va bizni hech kim eshitmas ekan, men xohlardimki, sinor gubernator Tobosolik Dulsineyaga doir baʼzi shubhalarimni yechib bersalar. Avvalo, ey sof yurak Sancho, bizga ayting-chi, siz uni koʻrmagan va unga don Kixotning hech qanday maktubini bermagan boʻlsangiz ham, sinora Dulsineyaning javoblarini ichdan toʻqib chiqarishga va uni goʻyo don elayapti, deyishga qanday jurʼat etdingiz? Axir, bularning hammasi dunyoda tengi yoʻq Dulsineyaning obroʻ-eʼtiboriga putur yetkazuvchi va sof yurakli qurolbardorning sadoqati hamda shaʼniga yarashmaydigan surbetlarcha uydirma-ku!

Buni eshitib Sancho indamay kursidan turdi-da, barmoqlarini labiga bosib, deraza va uning pardalarini bir-bir koʻzdan kechirganicha zalni asta aylanib chiqdi.

Soʻngra yana oʻz joyiga kelib oʻtirtgach, soʻz boshladi:

– Sinoram, bizni hech kim poylab eshitib turmaganiga qanoat hosil qilganimdan soʻng, sizning savollaringizga qoʻrqmasdan javob bera olaman va rostini aytamanki, men janobim don Kixotni aqldan ozgan kishi deb hisoblayman. Toʻgʻri, baʼzida u shunday aqlli gaplar gapiradiki, shaytonning oʻzi ham bunchalik gapira olmaydi, baribir, chin vijdon bilan aytganda, uning jinniligiga imonim komil. Modomiki, bu fikr miyamga oʻrnashib qolgan ekan, men unga Dulsineyaning javobi yoki uning boshqa qiyofaga kirganligi kabi har qanday bemaʼni gaplarni gapirishdan uyalmayman. Yaqinginda men xoʻjayinimni Dulsineyaning sehrlanganligiga ishontirgan edim, ammo bu gap

nok daraxtida olxo'ri pishadi, degan bilan bab-baravar.

Gersoginya Sanchodan Dulsineyaning boshqa qiyofaga kirishi haqidagi nayrangni batafsilroq aytib berishini so'radi, u esa voqea aslida qanday bo'lganini aytib, tinglovchilarga ancha huzur bag'ishladi. Ammo gersoginya rosa kula-kula, shunday dedi:

– Sof yurakli Sanchoning hikoyasi menda shubha uyg'otdi: Boringki, lamanchlik don Kixot aqldan ozgan va jinni odam deb faraz qilaylik. Ammo Sancho Pansa buni bila turib, uning ahmoqona va'dalariga uchib, unga xizmat qilib yuribdi? Demak, u xo'jayiniga qaraganda ham aqlsizroq ekan-da? Men, o'zimcha, o'ylab qoldim: bunday odamga orolni boshqarishni ishonib topshirib bo'ladimi? Zotan o'zini eplay olmagan odam boshqalarni qanday qilib boshqara oladi?

– Xudo haqqi, sinora, – dedi Sancho, – siz marhamatli zotning shubhalaringiz butunlay to'g'ri. Agarda men dono, farosatli odam bo'lganimda, o'z xo'jayinimni allaqachonlar tashlab ketgan bo'lardim. Ammo mening achchiq qismatim shunda: har qancha urinmayin, uni tashlab ketolmayman, biz u bilan bir qishloqdanmiz, uning tuzini totdim, uni yaxshi ko'raman, xo'jayinim buni biladi, u menga o'z xo'tiklarini taqdim qildi, eng muhimi, men sodiq odamman, shuning uchun bizni go'rgina ajrata oladi. Agarda oliy hazrat malikam menga orol berishni istamas ekanlar, nima ham deya olardim, xudo meni qashshoq qilib yaratgan ekan, shundayligicha qolaman. Daladagi parrandalar rizqini xudoning o'zi beradi, o'zi parvarish qiladi, to'rt gaz qalin mato shuncha gaz eng yupqa matoga qaraganda yaxshiroq isitadi. Ehtimol, menga orol bermasliklari mumkin, bu menga yaxshi bo'ladi, chunki chumoliga ham qanot bitadi deganlar, tentak bo'lsam ham, bu gapning tagini tushunaman. Ehtimol, qurolbardor Sancho gubernator Sanchoga qaraganda tezroq arshi a'loga jo'nab qolar. Biz bu dunyodan safar qilar ekanmiz, shoh ham, gado ham bitta so'qmoqdan o'tishadi; papa so'fidan qancha aziz bo'lmasin, ikkalasi uchun ham ikki gaz yer yetadi, xolos. Shuning uchun takror aytamanki, hazrati oliyalari mening tentakligim uchun menga orol taqdim etishni istamas ekanlar,

men, zig'ircha bo'lsa-da, xafa bo'lmayman va bu bilan o'zimning aqli ekanligimni isbot qilaman. But osti va shaytonlar uya qurgan; yaltiragan bilan hamma narsa oltin bo'lavermaydi, dey-dilar. Agarda eski baytlarga ishonguday bo'linsa, dehqon Vambani<sup>1</sup> qo'sh haydab turgan joyidan olib kelib Ispaniya qiroli qilib ko'tarishgan, Rodrigoni esa mol-mulkidan mahrum etib, ilonlarga yem qilishgan.

Gersoginya Sanchoning mulohazalari va aytgan maqollarini eshitib hayratda qoldi.

– Sof ko'ngil Sanchoga ma'lum bo'lsa kerak, – dedi u, – agarda ritsar nimadir va'da qilgudek bo'lsa, bu va'dasining ustidan chiqish uchun jonini ham ayamaydi. Mening erim va hukmdorim bo'lmish gersog – haqiqiy ritsar, shuning uchun ham u har qanday bo'lsa-da o'z va'dasini bajaradi. Shunday qilib, Sancho, ko'nglingiz to'q bo'lsin. Aslo kutmagan bir paytingizda sizni berilajak orol va davlat taxtiga ko'tarishadi. Sizdan bir narsani iltimos qilaman: o'z fuqarolingizni adolat bilan boshqaring, chunki ular sofdil va oliyjanob kishilar.

– Adolat bilan boshqarish masalasiga kelganda, – javob berdi Sancho, – mendan iltimos qilib o'tirishning hojati yo'q, chunki men tabiatan rahmdil odamman, kambag'allarga achinaman: ter to'kib, mehnat qilgan kimsaning haqiga xiyonat qilmayman. Men ov ko'rgan kekxa tozilardan bo'laman, shitir etgan narsani bilaman, paytiga qarab, ko'rsam ham ko'rmaslikka olaman. Lekin oldimda kalamushlarning yugurgilab yurishiga yo'l qo'yib qarab o'tirolmayman, chunki qaysi kovush oyog'imni siqayotganini sezaman, yer tagida qimirlagan ilonni bilib tura-man. Buni shuning uchun aytyapmanki, yaxshi odamlar uchun yordamga tayyorman, yomonlar uchun esa eshigim yopiq, ostonamga yo'latmayman ularni. Fikrimcha, hukmdorlikda eng muhimi – avvalo, ishni boshlab olish. Ehtimol, men gubernatorlik lavozimida ikki haftacha ishlasam, balki, behuda qo'sh haydagan dehqondan afzalroq gubernator bo'lib olishim mum-

---

<sup>1</sup> Vamba (672 – 680) – gotlar sulolasidan chiqqan ispan qiroli. Rivoyatlarga ko'ra, u dehqon tabaqasidan chiqqan.

kin.

– Gapingiz rost, Sancho, – dedi gersoginya, – hech kim onasining qornidan olim bo‘lib tug‘ilmaydi, hatto yepiskop-larning oddiy kishilardan ortiq yeri yo‘q. Ammo, yana Dulsineyaga qaytamiz. Menimcha, Sancho qarmoqqa ilingan. O‘z xo‘jayini ustidan kulish maqsadida, Dulsineyani boshqa qiyofaga kirgani uchun tanib bo‘lmaydi, deb unga aytgan. Ammo bu ayyorlikni unga don Kixotni ta‘qib etib yurgan sehrgar uqtirgan. Menimcha, eshakka sakrab minib olgan o‘sha ayol Tobosolik Dulsineya bo‘lsa kerak. Sof ko‘ngil Sancho xo‘jayinini aldayman deb, o‘zi ham aldanib qolgan. O‘zimiz ko‘rmagan narsadan aslo shubhalanmasligimiz kerak. Shuni bilingki, sinor Sancho Pansa, bu yerda ham dunyoda bo‘lib turgan ishlardan bizga xabar berib turuvchi sehrgarlar bor. Hali shoshmay turing, o‘ylamagan va kutmagan bir paytda Dulsineyaning husni-jamolini ko‘rib ham qolarmiz. Qanday adashib yurganligingizni o‘shanda bilasiz.

– Shunday bo‘lishi mumkin, – dedi Sancho Pansa. –

Endilikda xo‘jayinimning sinora Tobosolik Dulsineyani Montesinos g‘orida go‘yo sehrlash mening xayolimga kelib qolgan paytdagi kiyimida ko‘rganman, degan gapiga ham ishonaman. Axir, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, men bechoraning shu ojiz aqlim bilan bunday ayyorlik qo‘limdan kelarmidi? Xo‘jayinim ham mening to‘qiganlarimga ishonib ketaveradigan anoyilardan emas. Ammo, saodati oliyalari, sizning meni makkor odam deb o‘ylashingizni istamayman. Men, xo‘jayinim savalab qolmasin tag‘in deb, bu yolg‘onni ishlatganman. Ammo men hech qanday yomonlikni ravo ko‘rmoqchi emas edim. Demak, hamma ish yovuz sehrgarlar aytganidek bo‘lgan ekan-da. Siz aytmasangiz, hech qachon aqlim yetmas ekan bunga.

– Endi, Sancho, siz eslab o‘tgan Montesinos g‘orida nima hodisa sodir bo‘lganini gapirib bersangiz. Bu haqda eshitishni juda istardim.

Sancho bu voqeani bor tafsilotlari bilan to‘la-to‘kis so‘zlab berdi. Uni tinglab bo‘lib, gersoginya shunday dedi:

– Mana endi hamma narsa ravshan, demak, ulug‘ don Ki-

xot Sancho Tobosodan chiqaverishda ko'rgan dehqon ayolni g'orda ko'rdim deyayotgan ekan, bu haqiqiy Dulsineya, sehr-garlar esa judayam hiylakor va uddaburo ekanlar.

– Men ham shunday deya-man-da, – uning gapini ilib ketdi Sancho Pansa. – Basharti sinora Dulsineya sehrlangan ekan, o'ziga qiyin. Ammo xo'jayinimning dushmanlari bilan pachakilashishga tobi yo'q; ular juda ko'p, buning ustiga juda yovuz bo'lishlari kerak. Rostini aytganda, men dehqon ayolni uchratganman va uni dehqon ayol deb bilganman, albatta. Modomiki u Dulsineya ekan, bunga mening daxlim yo'q, vassalom.

– Bajonidil ishonaman sizga, – dedi gersoginya. – Ana endi dam olmoqchi bo'lsangiz, marhamat, boring. Sancho, men esa sizga gubernatorlikni tezroq berishlari uchun erim bilan gaplashay.

Sancho gersoginyaning qo'llarini yana o'pdi-da, unga bir marhamat ko'rsatishini – xuddi o'z o'g'lidek yaxshi ko'radigan kulrangidan xabar olishini iltimos qildi. – Kulrangingiz nimasi? – deb so'radi gersoginya.

– Mening eshagim, – dedi Sancho. – Uni bu nom bilan atamaslik uchun, men ko'pincha uni «kulrang» deb o'rganib qolganman. Biz bu yerga kelganimizda men mana bu sinora duenyadan unga qarab turishini so'ragan edim, u esa xuddi men uni xunuk yoki qari deb haqorat qilgandek meni jerkib tashladi. Ammo-lekin, menimcha, duenyalar uchun saroylarda savlat to'kib o'tirishdan ko'ra hayvonlarga qarash juda bop keladigan ish.

– Xavotir olmang, sinor Pansa, – javob berdi gersoginya, – kulrangingizga o'zim g'amxo'rlik qilaman, chunki u Sancho uchun shunchalik qimmatli ekan, men uni ko'z qorachig'imgay asrayman.

– Uni otxonaga kiritib qo'yishsa, kifoya, – dedi Sancho, – chunki u ham, men ham sizning bunchalik ovora bo'lishingizga arzimaymiz. Bundan ko'ra meni xanjar bilan chavaqlab tashlaganlari yaxshiroq. Mening xo'jayinim odob bobida kamtakalluf bo'lgandan sertakalluf bo'lgan afzal, desa, deyaversin, ammo eshak va otlar masalasida mezondan chiqmaslik lozim.

– Eshagingizni ham gubernatorligingizga olib keta qoling,

– dedi gersoginya, – u yerda siz uni rosa boqasiz, ishlatmaysiz.

– Zoti oliyalari, o‘ylaymanki, bu butunlay ko‘z ko‘rman, quloq eshitmagan gap, – deb javob qildi Sancho. – Men gubernatorlikka eshaklarni yuborayotganliklarini birinchi marta ko‘rayotganim yo‘q, basharti men ham uni olib ketgudek bo‘lsam, buning hech qanaqa yangilik joyi yo‘q.

Sanchoning so‘zlaridan gersoginya rosa kuldi.

Sanchoni dam olishga yo‘llab, u Sancho bilan o‘zi o‘rtasida bo‘lgan suhbatni yetkazish va don Kixotga xuddi ritsarlik romanlariga mos tushadigan biron hazil qilishni o‘ylab, bir fikrga kelish uchun gersogning huzuriga jo‘nadi.

## *QIRQ YETTINCHI BOB*

### **TOBOSOLIK DULSINEYANI SEHRDAN OZOD QILISH YO‘LINING QANDAY TOPILGANI**

Gersog va gersoginya don Kixotning Montesinos g‘ori haqidagi hikoyalariidan foydalanib, do‘stlarimizni boplab ahmoq qilishga ahd qilishdi (garchi hamma narsani o‘zi o‘ylab topgan bo‘lsa-da, Dulsineyani sehrlangan deb ishongan Sanchoning go‘lligi gersoginyani juda mamnun qilardi). Ular xizmatkorlar o‘rtasida oldindanoq rollarni taqsimlab chiqishdi, ularga nimani gapirish va nima qilish kerakligini aytishdi, kerakli niqoblar va liboslarni tayyorlab qo‘yishdi. Hamma narsa tayyor bo‘lgach, gersog juda ko‘p merganlar va tozi itlar qatnashadigan katta ov tashkil qildi. Don Kixotga ovchilar kiyimi, Sanchoga esa yupqa movutdan yashil ko‘ylak tayyorlangan edi. Ritsar bir necha kundan keyin harbiy ishga qatnashajagi va shunda u libos mutlaqo keraksiz bo‘lib qolishini aytib, sovg‘adan bosh tortdi. Sancho dastlabki qulay fursatdan foydalanib o‘ni pullashni o‘ylab, ko‘ylakni xursandchilik bilan oldi.

Belgilangan kun kelgach, don Kixot o‘zining qurol-anjomlarini taqdi, Sancho esa gersog bergan ovchilar kiyimini kiyib oldi. Ammo unga yaxshi ot taklif qilishsa ham, eshagidan ajra-

lishni istamadi. Gersoginya yasan-tusan bilan chiqdi, don Kixot gersoginyaning noroziligiga qaramasdan, u otga minayotganida boodob va iltifotli kavalerdek uzangisini ushlab turdi. Nihoyat, ular baland tog'lar orasidagi vodiya joylashgan o'rmonning chekkasiga yetib borishdi. Ovchilar joy-joylariga tarqalib, hamma so'qmoq va yo'llar to'sib olingach, itlarni qo'yib yuborishdi. Vodiy shovqin, qiyqiriq va itlarni olqishlash ovozlari bilan shunday to'lib ketdiki, ov qatnashchilarining quloqlari bitayozdi. Gersoginya otdan tushib, qo'liga o'tkir nayza olib, ko'pincha yovvoyi to'ng'izlar o'tadigan so'qmoq yo'lining chekkasida turib oldi. Don Kixot bilan gersog ham otdan tushib gersoginyaning yonida turishdi, Sancho esa eshagidan tushmasdan ularning orqasiga turib oldi: u biron kor-hol bo'lmasin deb do'stini tashlab ketishni istamadi. Ularning yonidan juda ko'p xizmatkorlar joy olishdi. Ovchilar hali joy-joylariga turib olmaslaridanoq, mergan va tozilar quvlab kelayotgan katta to'ng'iz o'rmondan yugurib chiqib qoldi. U tishlarini dahshat bilan taqillatar, tumshug'ini ko'pik bosgan edi. Don Kixot to'ng'izni ko'rishi bilanoq qalqonini rostlab, qilichini yalang'ochladi-da, unga ro'baru chiqdi. Gersog ham nayzasini qo'liga olib, oldinga intildi. Agarda gersog ushlab qolmaganida, gersoginya har ikkalasidan ham oldinroq to'ng'izga hujum qilardi. Sancho esa dahshatli hayvonni ko'rishi bilanoq eshagidan tusha solib jonholatda qocha boshladi. U yo'lda uchragan birinchi daraxtga yetiboq, unga tirmashib yuqoriga intildi. Ammo taqdir bechora bilan bu safar ham qattiq hazillashdi. Sancho qo'rqqanidan juda ingichka shoxga tirmashib olgan ekan, shox qars etib sinib, u pastga qarab uchib ketdi. Baxtiga egnidagi kamzuli yo'g'on butoqqa ilinib, bechora havoda muallaq osilib qoldi. Yashil movutdan tikilgan kamzul uzoq chidash bera olmay yirtilib ketib, yerga qulayman-u, ovchilardan qochib borayotgan quturgan maxluq shartta menga tashlanadi, deb xavotirlangan Sancho jon-jahdi bilan baqira boshladiki, hamma uni vahshiy hayvonning panjasiga tushib qolibdi, deb o'yladi. Nihoyat, bahaybat tishli maxluq merganlar nayzalari zarbidan quladi. Shu payt don Kixot Sanchoning ovozini eshitib qayrilib qararkan, uning eman shoxida oyog'i

osmondan bo'lib osilib yotganini va ostida esa xo'jayinini falakat yuz berganda tashlab ketmagan eshagini ko'rdi. Don Kixot shoshilib kelib qurolbardorini daraxtdan tushirib oldi. Sancho o'zini xavf-xatarsiz sezgach, yirtilgan kamzuliga pada achuna boshladi. Ovchilar to'ng'izning go'shtini xachirlarga o'rtib, turli xushbo'y giyohlar bilan o'rab, g'alaba o'ljasi sifatida osmondan o'rtasidagi o'tloqqa tikilgan chodirga olib borishdi. Bu yerda dasturxon tuzalib shunday quyuq ziyofat hozirlangan edi, xo'jayinlarning naqadar saxiyliklari va badavlatliklari darak berib turardi. Sancho o'zining yangi libosining yirtilganini gersoginyaga ko'rsatarkan, shunday dedi:

– Agarda biz quyon yoki parranda ovlaganimizda, emol, mening kamzulimga balo ham urmasdi. Hayronman, xanjardek tishi bilan bir ursa, odamni narigi dunyoga ravona etadigan hayvonning orqasidan quvishning nima keragi bor-a? To'ralar va qirollar o'z huzur-halovatlarini deb o'zlarini bunaqa xavf-xatarlarga nega ro'para qilishar ekanlar-a? Axir, hech qanday yomonlik qilmagan hayvonni o'ldirishdan qanday huzur-halovat qilish mumkin?

– Yo'q, Sancho, siz xato qilyapsiz, – dedi gersog, – qirollar va to'ralar uchun tozilar bilan ov qilishdan ko'ra a'loroq mashg'ulot bo'lishi mumkin emas. Ov ham urushning xuddi o'zi; ba'zan ovchi ham dushmanni yengish uchun turli hiyla-nayrang ishlatishi, pistirmalar qo'yishi kerak. Ovda biz qahraton sovuqqa ham, jazirama issiqqa ham chidaymiz, uyqudan kechamiz, kuchimizni yanada mustahkamlaymiz, mashq qilib yanada pishiq, epchil bo'lamiz. Buning ustiga tozi bilan ovga chiqish shunday mashg'ulotki, hech kimga zarari tegmaydi, kishiga huzur bag'ishlaydi. Eng muhimi, buni hamma ham uddasidan chiqa olmaydi. Shunday qilib, Sancho, gubernator bo'lganingizdan keyin ov haqidagi o'z fikringizni o'zgartirishingiz lozim bo'ladi. O'shanda siz ovning qanchalik foydali ekanini bilib olasiz.

– Yo'g'e, – dedi Sancho, – yaxshi gubernator xuddi oyog'i singan odamdek doim uyida o'tirishi kerak. Basharti arzgo'ylar uning oldiga zarur ish bilan kelishsa-yu, u bu vaqtda qayerdadir o'rmonda o'zini ovutib yursa, qanday bo'larkan?



Unaqada ishlari chappasidan ketadi-ku! Sinor, rostini aytsam, ov va boshqa dilxushliklar gubernatoridan ko'ra bekorchilarga ko'proq yarashadi.

Yo'q, yaxshisi, men katta bayramlarda kissa – hamyon, yakshanba kunlari esa chillak o'ynaganim ma'qulroq. Sizning bunaqa ovlaringiz menga sira to'g'ri kelmaydi, vijdonim qabul qilmaydi..

– Sancho, ilohim, so'zingizda turing, – dedi gersog, – chunki so'z boshqa-yu, ish boshqa bo'lmasin tag'in.

– Har qalay, – dedi Sancho, – insofli to'lovchiga hech qanday garov qo'rqinchli emas. Yugurgannikimas, buyurganniki, deydilar. Men, Xudo xohlasa, o'z burchimni sof ko'ngil bilan bajaraman, xuddi lochindek boshqaraman. Ishonmasangiz, barmog'ingizni og'zimga solib ko'ring, tishim bor-yo'qligini bilasiz-qo'yasiz.

– Xudo urgur, Sancho, – qichqirib yubordi don Kixot. – Ahmoqona matallaringni qachon tashlaysan, axir? Senga buni necha marta aytdim! Janobi oliylari, qo'ying bu laqmani. U o'zining maqollari bilan qulog'ingizni qoqib, qo'lingizga beradi. So'z boshladi deguncha minglab maqolni to'qib soladi. Yana o'rinlimi, yo'qmi ishlataveradi. Xudo jazosini bersin uning, gaplariga quloq solsam mening ham.

– To'g'ri, Sanchoning maqollari ko'p, ammo bu maqollar menga yoqadi, – e'tiroz bildirdi gersoginya, – ular lo'nda-yu o'tkir, har qancha maqtasa, arziydi.

Shunday qiziqarli suhbat bilan tushki ovqat ham tugadi. Kech kira boshladi. Hamsuhbatlar toza havo olish uchun tashqariga chiqishdi, shu payt birdan o'rmonning to'rt tarafidan lovullab alanga ko'tarildi. Dam u yerdan, dam bu yerdan, goh chap, goh o'ngdan muguz va karnaylarning ovozlari eshitila boshladi, go'yo o'rmondan minglab otliq askarlar kelayotganday edi. O'tlarning shu'lasi hamda jangovar karnay tovushlari ovchilarni hang-mang qilib quydi. Tez orada mavrlarning harbiy na'rsi: «Lelili!» degan hayqiriqlar eshitildi. Karnay va surnaylar chalilib ketdi, nog'oralar gumburladi, bunday dahshatli musiqadan hammaning qulog'i qomatga keldi. Gersog qotib qoldi, don

Kixot taajjublandi, Sancho dag'-dag' titrardi, hatto gap nimaligini bilganlar ham qo'rqib ketib, nafaslari ichlariga tushib ketdi. Shu daqiqada ularning oldida iblis kiyimidagi otliq paydo bo'ldi, u kattakon muguzni vahimali qilib chalardi.

– Hoy, birodar, – qichqirdi gersog, – siz kimsiz, qayoqqa ketyapsiz, o'rmonimizdan qanaqa qo'shin o'tyapti?

Bunga otliq momaqaldiroq singari ovozi bilan shunday javob qildi:

– Men – iblisman va lamanchlik don Kixotni izlab yuribman. O'rmondan esa go'zallikda beqiyos Tobosolik Dulsineya bilan bahodir Montesinosni olib borishayotgan sehrgarlar kelishyapti. Ular don Kixotga bu aslzoda sinorani qanday qilib qaytadan o'z qiyofasiga kiritish mumkinligini aytgani kelishyapti.

– Modomiki, siz iblis bo'lsangiz, ro'parangizda turgan don Kixotni nega tanimadingiz?

– Xudo va vijdonim haqi, – deb javob qildi iblis, – men unga qaramabman ham. Ishim nihoyatda ko'pligidan eng muhimini unutib qo'yibman.

– Shubhasiz, – deb qo'ydi Sancho, – bu iblis – yaxshi odam-u sof ko'ngil nasroniy ekan, aks holda, u xudoning nomini tilga olarmidi? Endi men do'zaxda ham yaxshi odamlar topishimga ishonaman.

Iblis esa otidan tushmasdan don Kixot tomonga burilib shunday dedi:

– Ey Arslonlar ritsari (iloyo, tezroq ularning panjasiga tushkur), meni huzuringga baxtiqaro, ammo bahodir ritsar Montesinos yubordi. Uni shu yerda kutib turishingni iltimos qilishimni buyurdi. U Tobosolik Dulsineyani olib kelyapti va uni sehrdan qanday xalos qilish yo'lini senga aytadi. Senga yetkazishim kerak bo'lgan so'zlar – mana shu. Bu yerda ortiq qolishimning hojati yo'q. Senga mendek iblislar, boshqalarga esa farishtalar yor bo'lsin.

U shu so'zlarni aytdi-yu, o'zining bahaybat muguzini chalganicha, javobni ham kutmasdan o'rmonga ot choptirib kirib ketdi.

Bu voqeadan hamma, ayniqsa, Sancho bilan don Kixot

hayratda qolgan edi. Sancho Dulsineyaning, haqiqatan ham, borligi, demak, uning sehrlab qo'yilgani rostligidan, don Kixot esa Montesinos g'orida bo'lib o'tgan voqealarga unchalik ishonmaganligi uchun hang-mang bo'lib qolishgan edi. Gersog ularning xayolini bo'ldi:

– Xo'sh, sinor don Kixot, muhtaram janoblari uni kutib turadilarmi, yo yo'qmi?

– Albatta, kutaman, – dedi u. – Butun do'zaxilar boshimga yopirilsa-da, men aslo cho'chimasdan bardosh beraman.

– Agar yana birorta shaytonni ko'rsam yoki tag'in o'shanaqa karnay ovozi eshitsam, meni Flandriyadan topasizlar, – dedi Sancho.

Bu orada tamoman qosh qorayib qoldi; o'rmon bo'ylab behisob o'tlar porlab ketdi, shunday shovqin-suron ko'tarildiki, go'yo ho'kiz qo'shilgan minglab aravalarning g'ildiraklari g'ijirlayotganday edi. Birdan shovqin-suron yanada kuchaydi: bir tomonda qudratli zambaraklar gumburlar, ikkinchi tomonda minglab multiqning «tasir-tusiri» eshitilar, yaqinroqda jang-suron qilayotganlarning hayqiriqlari, olisda esa mavrlarning na'rasi – «Lelili» yangrayotgandek tuyulardi. Xullas kalom, muguzlar, ov karnaylari, surnaylar, nog'oralar, zambaraklar, multiqlar, aravalarning g'ijirlashi shunday vahimali shovqin-suron bo'lib eshittirdiki, don Kixot ham o'zini yo'qotib qo'ymaslik uchun bor vujudi bilan bardam turishga tirishardi. Gersoginya hushdan ketib oyog'i ostiga yiqilib qolgan Sanchoning yuziga suv sepishni buyurdi. Uning buyrug'i o'sha zahotiyoq bajarildi, Sancho g'ildiragi g'ijirlagan aravalardan bittasi to'ppa-to'g'ri ular ustiga bostirib kelayotgan daqiqada hushiga keldi.

Aravaga to'rtta yalqov ho'kiz qo'shilgan bo'lib, ho'kizlarning ustiga qora mato yopilgan, shoxlariga bog'langan mash'allar yonib turardi. Aravaning ustiga baland taxt o'rnatilgan bo'lib, unda oppoq soqoli tizzasiga tushib turgan mo'ysafid chol savlat to'kib o'tirardi, uning egnida qora bo'zdan tikilgan keng kiyimi bor edi. Juda ko'p mash'allar aravani yoritib turganidan undagi hamma narsa ko'zga yaqqol tashlanardi. Aravaning oldida qora ro'dapo chopon kiygan ikki badbashara iblis o'tirar,

ularning basharalari shunday xunuk ediki, Sancho bir qarashdayoq qo'rqib, ko'zlarini chirt yumib oldi. Arava ovchilar turgan joyning ro'parasiga kelganda nuroniy mo'ysafid o'rnidan turdi-da, baland ovoz bilan qichqirdi:

– Men – donishmand Lirgandeo bo'laman.

U boshqa hech narsa demadi va arava o'rnidan qo'zg'aldi. Birinchi aravaning ketidan ikkinchisi paydo bo'ldi, unda ham xuddi haligiday mo'ysafid chol o'tirardi. U aravakashlarga to'xtash ishorasini qildi-da, qichqirdi:

– Men tutqich bermas Irgandaning do'sti – donishmand Alkifo bo'laman.

U ham yo'lida davom etdi. So'ngra uchinchi arava yaqinlashdi: unda chol emas, balki qovog'i soliq baquvvat yigit o'tirardi; yaqinroq kelgach u ham o'rnidan sakrab turdi-da, vahimali do'rillagan ovoz bilan qichqirdi:

– Men Galliyalik Amadis va uning avlod-ajdodining ayovsiz dushmani sehrgar Arkalaus bo'laman.

Yuqoriroqqa o'tib uchala arava ham to'xtadi va g'ildiraklarning g'ashga teguvchi g'ijirlashi tindi. Tasir-tusir, gumburlash tugab, nozik va dilrabo kuy yangradi. Sancho bu biron yaxshilik dalolati deb, juda xursand bo'lib ketdi.

Gersoginyaning yonidan bir qadam ham siljimagan Sancho unga shunday dedi: – Sinora, qayerda musiqa chalinsa, o'sha yerda hech qanday yomonlik bo'lmaydi.

– Yorug'lik haqida ham shunday deyish mumkin, – deb javob qildi gersoginya, – chunki undan barcha ins-u jins qochadi.

Bunga Sancho e'tiroz bildirdi:

– To'g'ri, ammo qayerda yorug'lik bo'lsa, u yerda olov bo'lishi mumkin. Marhamatli xonim, qarang, atrofimizda qancha o't yonyapti. Ishqilib, bizni yondirib yuborishmasa bo'lgani. Musiqa esa hamisha bayram va shod-xurramlikni anglatadi.

– Hali buni ko'rarmiz, – dedi ularning suhbatini eshitib turgan don Kixot.

Bu orada dilrabo kuy sadolari ostida to'rtinchi arava ham yaqinlashib kela boshladi, bu aravaga ustlariga oq yopqich yopilgan oltita to'riq xachir qo'shilgan bo'lib, har qaysi xachir ustida

oq kiyimda, qo'liga katta mash'al tutgan tavba-tazarru etuvchi kishilar o'tirardi. Bu arava avvalgilaridan ikki, hatto uch baravar katta edi. Unga qaragan odam ham hayratda qolishi, ham dahshatga tushishi mumkin edi: aravada egnilariga oq kiygan, qo'l-larida mash'ala tutgan tavbasiga tayanuvchi o'n ikki kishi o'rta-sidagi baland taxtda qavat-qavat zarrin gulli kumush rang yop-qichlarga burkanib, bir pari-farishta o'tirardi. Yuzidagi harir parda ostidan yosh, go'zal chehrasi ko'rinib turardi. Uning yoni-da yuziga qora parda tutgan, qora kiyim kiygan bir kimsa o'tirardi. Arava gersog, Gersoginya va don Kixotlarning oldiga kelib to'xtaganda, musiqa ovozi ham tindi. Noma'lum kimsa o'rnidan turdi-da, pardasini ko'tardi. Shu on hozir bo'lganlar oldida Ajal-ning shunday qo'rqinchli qiyofasi namoyon bo'ldiki, don Kixot ham qovog'ini solib oldi, Sancho esa qo'rqib ketdi, gersog va gersoginya sal-pal titrab ketishdi. Tirik Ajal esa qaddini rostlab, uyqusiragan tovush bilan shunday dedi:

*Iblis turgan zot deganlari  
Menman o'sha! Merlinman o'sha!  
Jodugar-u sehrGAR bari  
Shox taqadi boshiga qo'sha.  
Men-chi biroq butunlay boshqa,  
Qalbimda bor tuyg'ular iliq.  
Tobosolik Dulsineya haqda  
Xabar keldi qayg'uga to'liq,  
Emishlarkim, yovuz kuch qattol.  
Uning ruhin bosib olganmish.  
Shunday bir zot shaddod va qo'pol  
Dehqon qizi bo'lib qolganmish.  
Rahm qilurman men unga hozir  
Va ruhimni solgum diliga.  
O, jasur zot, hayiqmay taqir,  
Peshvoz chiqib turgin yo'liga.  
Tobosolik Dulsineya qayta  
O'z holiga kelmog'i uchun  
Jasur mergan Sancho o'ziga...*

Shu yerga kelganda Ajal birdan jim qoldi; hamma nafasini ichiga yutib, uning yana nima deyishini kutib turardi. Bir necha daqiqadan so'ng, o'zini Merlin deb atagan Ajal shunday dedi:

– Buning uchun qurolbardor o'zini o'zi darra bilan uch ming uch yuz marta savalasin!

– Daf bo'l-e! – qichqirib yubordi Sancho. – Uch ming u yoqda tursin darra bilan uch marta urishning o'zi men uchun xanjar bilan chavaqlaganday gap. Agarda boshqacha yo'l bilan sehrdan xalos eta olmasang, tur yo'qol! Hayronman, mening bechora badanim bilan bunaqa sehrgarliklarning nima aloqasi bor ekan? Xudo ursin, agar sinor Merlin sinora Tobosolik Dulsineyani boshqacha yo'l bilan sehrdan xalos qilolmas ekan, uni shundayligicha dafn eta qolishsin.

– Ey surbet, qo'pol, hozir yoqangdan g'ippa bo'g'aman-u, daraxtga bog'lab qo'yib, uch ming uch yuzta emas, olti ming olti yuzta qamchi uraman, – dedi don Kixot. – Agar qarshilik ko'rsatguday bo'lsang, joningni sug'urib olaman.

– Yo'q, ey oliyjanob ritsar, – e'tiroz bildirdi Merlin, – bunday qilish yaramaydi. Sancho o'z ixtiyori bilan, o'zi xohlagan paytda o'zini savalasin. Buning uchun aniq muddat belgilash kerak emas. Darvoqe, basharti u bu zarbalarni qo'li og'irroq boshqa odam urishiga rozi bo'lsa, zarbalar soni yarmiga qisqarishi mumkin.

– Begonasiyam, o'zimmikiyam, og'iriyam, yengiliyam, xullasi kalom, hech qanday qo'l mening badanimga tegmaydi, – dedi Sancho. – Axir, bu qanaqasi bo'ldi – nima, men Dulsineyaning otasimanmiki, uning gunohkor ko'zlari uchun men tanim bilan javob berayin? – Mana, mening xo'jayinim uni har bir qadamida hayotim, tayanchim, ishonchim deydi. Uni sehr-jodudan ham o'sha ozod qilaversin. Ammo men o'zimni o'zim savalashga kelganda esa, abernuncio<sup>1</sup>.

Sancho bu so'zlarni aytib bo'lmagan ham ediki, Merlinning yonida turgan pari o'rnidan turdi-da, go'zal yuzidagi parda-

---

<sup>1</sup> **Abernuncio** (lotincha: abrenuncto) – «hech qachon qilmaslik», «voz kechish» iboralari bilan ma'nodosh ibora.

ni olib tashlab, Sanchoga qarab jahl bilan gapira ketdi:

– Ey, badbaxt qurolbardor, bedavo ko‘ngil, tosh bag‘ir kishi! Agar senga, ey qonxo‘r qaroqchi, baland minoradan o‘zingni pastga tashla deyishsa, agar senga, ey inson zotining dushmani, bir dyujina<sup>1</sup> qurbaqa, ikki dyujina kaltakesak va uch dyujina ilonni ye deyishsa, basharti sendan xotining va bolalaringni qilich bilan so‘y deb iltimos qilishsa, sening bunday injiqliging, o‘jarligingga hech kim hayron qolmas edi. Ammo qandaydir arzimagan uch ming uch yuz darra uchun shovqin solib, tortishib turishing butun rahmdil odamlarni hayratda qoldirdi, ranjitdi. Nazar sol, ey ayanchli va behis hayvon! Menga qarasang-chi, ey hurkak boyo‘g‘li, sen mening shahlo ko‘zlarimdan issiq ko‘z yoshlari to‘kilayotganini ko‘rsan. Nahotki, mening o‘n gulimdan bir gulim ochilmagan davrimda – o‘n to‘qqiz yoshimda oddiy qishloq ayolining qo‘pol qiyofasida xazon bo‘layotganimni ko‘rib, zarracha bo‘lsa-da achinmasang? Ey yovuz maxluq, mabodo sen meni chiroyli qiyofada ko‘rayotgan bo‘lsang, bu sinor Merlinning sening ko‘nglingga rahmshafqat solish uchun marhamat qilib o‘z husnimni qaytarib berganligidan. Jafokash go‘zalning ko‘z yoshlari qoyani uvadaga, yo‘lbarzlarni qo‘zichoqqa aylantiradi. Savala o‘zingni, savalasang-chi, ey qattol hayvon, bir dovyuraklik qilib o‘zingning mechkaylikdan boshqa ham hunaring borligini ko‘rsat. Menga terimning mayinligi, fe‘limning nozikligini, yuzimning go‘zalligini qaytarib ber. Basharti mening go‘zalligim va baxtsizligim sening yuragingni yumshatolmasa, yoningda turgan fikri-yodini men band etgan baxtsiz ritsar uchun, xo‘jayining uchun bu ishni qil. Uning joni halqumiga tiqilib turibdi, agar sen o‘jarlik qilaversang, bechora jonidan mangu ajraladi.

Don Kixot bu so‘zlarni eshitib, tomog‘ini silab qo‘ydi-da, gersogga murojaat qildi:

– Xudo haqqi, sinora Dulsineya rost aytyapti, mening jonim xuddi zambarakning o‘qidek tomog‘imga qadalib turibdi.

– Siz bunga nima deysiz, Sancho? – so‘radi gersoginya.

<sup>1</sup> Dyujina (lotincha: duode-cim – o‘n ikki) – o‘n ikki dona (bir xildagi narsalar haqida).

– Boyagi aytganim aytgan, – dedi Sancho, – o‘zimni o‘zim urish – abernuncio.

– Sancho, abrenuncio deyish kerak, – dedi gersog.

– Meni tinch qo‘ying, janobi oliylari, – javob berdi Sancho. – Hozir so‘zlardagi harflarni sanab o‘tirishga vaqtim yo‘q. Axir gap yo o‘zimni o‘zim, yoki birov meni savalashi ustida boryapti. Men hayajonlanib so‘zlarni adashtirib yuborgan bo‘lishim mumkin. Sinora Dulsineya, sizga qarab to‘ymayman. Siz meni darra bilan o‘z terimni o‘zim shilib olishingga undayapsiz-u, ayni vaqtda meni to‘ngak, behis hayvon, toshbag‘ir va iblis ham toqat qilolmaydigan boshqa haqoratlar bilan koyiyapsiz. Yoki siz mening badanimni bronzadan yasalgan deb o‘ylayapsizmi? Sal shafqat qiling! Siz mening ko‘nglimni ovlamochisiz-u, ammo meni bosh-oyoq yasantirish o‘rniga antiqa haqoratlar bilan siylayapsiz. Axir, siz, oltin eshak toqqa ham ko‘tarib chiqadi, sovg‘alar esa qoyalarni ham nuratadi, xudodan tila-yu, harakatingdan qolma, degan ajoyib maqollarni bilsangiz kerak, albatta. Buning ustiga xo‘jayinim ham daraxtga bog‘lab ikki baravar qilib savalayman, deydi. Yo‘q, yo‘q! Bu sinorlarga shuni eslatib qo‘yishga to‘g‘ri keladiki, bu yerda gap oddiy bir qurolbardornigina emas, gubernatorni savalash ustida ketyapti. Bu esa, men sizlarga aytsam, bo‘yoqchining nili emas. Yo‘q, yo‘q, sinorlar. Avvalo, tuzukroq iltimos qilish va ko‘ndirishni o‘rganib olinglar. Buning ustiga uyning gapi ko‘chaga to‘g‘ri kelmaydi: kishining avzoyi doim bir xil bo‘lavermaydi. Mana hozir, – busiz ham mening yashil kamzulim yirtilib ketganidan fig‘onim falakka chiqib turibdi-ku, buning ustiga kela solib: «O‘z ixtiyoring bilan o‘zingni savala» deyishlariga o‘laymi bularning. O‘z ixtiyorim bilan emish-a! Hali zamon o‘z ixtiyoring bilan qoziqqa o‘tir dersizlar.

– Lekin, do‘stim Sancho, – dedi gersog, – agar siz bu bechoraga achinmasangiz, sizga orolni boshqarish nasib qilmaydi. Axir, men jafokash qizlarning ko‘z yoshlari ham, oqil va fozil odamlarning hamda sehrgarlarning iltimoslari kor qilmaydigan toshbag‘ir odamni gubernator qilib tayinlasam, mening to‘g‘rimda nimalar deydi odamlar? Xullasi kalom, Sancho, yo siz



o'zingizni savalaysiz yoki sizni savalaydilar, yoki siz gubernatorlikdan voz kechasiz.

– Sinor, – dedi Sancho, – menga o'ylab olish uchun ikki kun muhlat bermaysizmi?

– Hech qachon, – e'tiroz bildirdi Merlin. – Siz darhol javob berishingiz kerak. Dulsineya yana Montesinos g'origa qaytib, qishloqi ayol qiyofasida azob chekaveradi yo siz o'zingizga ko'rsatilgan miqdordagi darrani urmagingizcha Yelisey dalalariga<sup>1</sup> uchib borib, xuddi siz hozir ko'rib turganingizday go'zal qiyofada yuraveradi.

– Xo'sh, sof ko'ngil Sancho, – dedi gersoginya, – qani, bir qarorga keling. Don Kixot bergan tuz-namakni oqlang. Biz hammamiz oliyanoblighi va mardliklari uchun bu qahramon ritsarga doimo xizmat qilishimiz kerak. Tezroq rozilik bera qoling o'zingizni savalashga. Iloyo, shaytonning bo'yni uzilsin, qo'rqoqlarning yuragi yorilsin. Har qanday falokat qahramon yurakka bas kela olmaydi.

Ammo Sancho vaqt o'tkazish uchun gapni burarkan, Merlindan so'radi:

– Marhamatli sinor Merlin, aying-chi, axir, bu yerga chopar qiyofasida kelgan iblis sinor Montesinosning nomidan gapirib, uni shu yerda kutib turishimizni va sinor Montesinos mening xo'jayininga Tobosolik Dulsineyani qanday qilib sehrdan xalos etish yo'lini aytadi degan edi, holbuki, shu paytgacha bu sinorni ko'rganimiz yo'q.

Bunga Merlin shunday javob qildi:

– Do'stim Sancho, o'sha iblis nodon va o'taketgan yaramas. Men uni sizning xo'jayiningizning huzuriga Montesinos nomidan emas, o'z nomimdan yuborgan edim. Montesinos qachon meni sehrdan xalos etisharkan deb g'orida intizor bo'lib kutib yotibdi. Qani, endi savalash uchun rozilik bering, axir. Menga ishoning, savalash badaningizga ham, qalbingizga ham katta foyda keltiradi: qalbingizga foydasi shuki, u kishini rahmdil

<sup>1</sup> Yelisey dalalari – qadimgi yunon va rim afsonalarida tasvirlangan baxtiyorlar maydoni, qahramonlar o'lgandan so'ng ruhi yashaydigan joy.

qiladi, badaningizga foydasi shundaki, ko'rib turibmanki, serqon odam ekansiz, ozgina qoningiz ketsa, hech narsa bo'lmaydi.

– Dunyoda juda tabiblar ko'p-da, – javob qildi Sancho, – sehrgarlar ham shu ish bilan mashg'ul bo'lgandan keyin... Xo'sh, demak, hamma meni ko'ndirishga urinayotgan ekan, agarda o'zim boshqacha fikrda bo'lsam-da, o'zimga uch ming uch yuz darra urishga roziman, ammo bitta shartim bor: bu ahmoqona ishni ijro etishning hech qanday muddati belgilanmaydi, qachon xohlasam, shunda o'zimni-o'zim savalayman. Aytganday, butun dunyo sinora Dulsineyaning go'zalligidan bahramand bo'lsin deb, bu qarzni tezroq uzishga harakat qilaman. Rostini aytsam, uni shunchalik sohibjamol deb hech o'ylamagan edim. Yana shuni aytib qo'yayki, men o'zimni qon chiqquncha savalashga majbur emasman, ba'zan urganlarim pashsha cho'chitguday bo'lsa ham, hisobga qo'shilaveradi. Mabodo hisobdan adashib ketsam, har narsadan xabardor bo'lgan sinor Merlinning o'zlari hisoblab, menga qancha kam-ortiqqligini aytib turadi.

– Bu to'g'rida tashvish tortmang, – dedi Merlin, – chunki siz belgilangan kaltakni yeb bo'lishingiz bilanoq sinora Dulsineya sehrdan xalos bo'lib, yaxshiligingiz uchun minnatdorchiilik bildirgani va sizni taqdirlagani huzuringizga keladi. Shuning uchun hisobdan adashib ketaman, deb qo'rqmang: tangrining o'zi sizning qilcha adashuvingizga yo'l qo'ymaydi.

– Unday bo'lsa, o'zimni xudoning ixtiyoriga topshiraman, – dedi Sancho. – Men achchiq qismatimga bo'ysunib, o'zimni savalashga ko'naman. Mayli, bo'lganicha bo'lar.

Sancho bu so'zlarni aytib tugatmasdanoq surnay ohanglari yangrab ketdi, son-sanoqsiz multiqlardan o'q varangladi, don Kixot esa Sanchoni quchoqlab o'pa boshladi. Gersog, gersoginya va a'yonlar o'zlarining g'oyatda mamnun bo'lishganini bildirishdi. Dulsineya gersog va gersoginyaga, keyin Sanchoga ikki bukilib ta'zim qildi-yu, aravada jo'nab ketdi.

Bu paytda tong otay deb qolgan edi. Dala gullari o'zlarining quyi solingan boshlarini yana ko'tardilar, ariqlardagi zilol suvlar chuldirab, oq va sariq mayda toshlar orasidan o'tib, o'z o'lponlarini to'lagani olislarda kutib turgan daryolar sari ilgarilab

ketishdi. Quvnoq yer, musaffo osmon, shaffof havo, yorqin yorug'lik kunning yorug' va ochiq bo'lishidan darak berib turardi. Yaxshi ov va don Kixotning ustidan qilingan o'tkir hazildan mamnun bo'lishgan gersog va gersoginya yana qandaydir yangi hazil topish istagi bilan qasrga qaytishdi, chunki dunyoda hech narsa ularga bunchalik huzur baxsh eta olmas edi.

## *QIRQ SAKKIZINCHI BOB*

### **DUENYA DOLORIDA YOKI GRAFINYA TRIFALDINING AJAYIB SARGUZASHTLARI, SHUNINGDEK, SANCHONING O'Z XOTINI TERESA PANSAGA YOZGAN MAKTUBI**

Gersogning juda qiziqchi va g'alati eshik og'asi bor edi. Mahramlardan biriga Dulsineya rolini topshirishni o'ylab topgan va bu tomoshalarni o'rmonda ijro etgan ham o'sha edi. Tez kunda u yana bir yangi ajoyib, tomoshani tashkil etdi.

O'rmondagi antiqa voqeaning ertasiga gersoginya Sanchodan Dulsineyani yovuz sehrgarlar sehr-u jodusidan xalos etish uchun tavba-tazarru mashqini, ya'ni o'zini o'zi savalashni boshlagan-boshlamaganligini so'radi.

Sancho esa boshlaganini, allaqachonoq o'ziga besh marta zarba berganligini aytdi. Gersoginya nima bilan zarba berganini so'radi.

– Shunday, qo'lim bilan, – javob berdi Sancho.

– Bu qanday savalash bo'ldi! – dedi gersoginya. – Ishonchim komilki, sizning o'zingizga qilayotgan bu muruvvatingiz donishmand Merlinga yoqmaydi. Siz, Sancho, o'zingizni boplab qamchilashingiz kerak. O'zingizni shapatilash bilan-gina sinora Dulsineyani sehr-jodudan xalos etib bo'lmaydi. Shuni yaxshi bilingki, Sancho, ko'ngilchanlik orqali noshudlik bilan bajarilgan ishning ahamiyati bo'lmaydi va hech qachon hisobga o'tmaydi.

Bunga Sancho shunday javob berdi:

– Yo‘qsa siz, hazrati oliyalari, menbop qamchi hadya qil-sangiz. Agar u juda ham og‘ritmaydigan bo‘lsa, men uni ishla-taman. Ruxsatingiz bilan shuni aytishni lozim topamanki, marha-matli bekam, men oddiy dehqon bo‘lsam-da, badanim dag‘al emas, paxtaga o‘xshaydi, shuning uchun ham boshqalarning foydasi deb o‘zimni mayib qilishim yaramaydi.

– Bosh ustiga, – javob berdi gersoginya, – ertagayoq siz-ning nozik badaningizga mos qamchi hadya qilaman.

Sancho bir daqiqa jim qolib, keyin gapni boshqa yoqqa burish maqsadida shunday dedi:

– Hazrati oliyalariga ma‘lum bo‘lsinkim, qimmatli sinora men xotinim Teresa Pansaga xat yuborishga qaror qildim. Xatim-da sayohat paytida yuz bergan voqealarning hammasini aytaman. Xatni yuborishdan avval donolarning donosi bo‘lmish siz hazrati oliyalarning u bilan tanishib chiqishingizni juda istardim. Me-nimcha, xat xuddi gubernatorlar yozadigandek qilib yozilgan.

– Kim to‘qigan uni? – so‘radi gersoginya.

– Men gunohkor bandadan boshqa kim ham to‘qirdi?

– javob berdi Sancho.

– Xatni ham o‘zingiz yozdingizmi? – davom etdi ger-soginya.

– Voy-bo‘y, nimalarni istamaysiz-a, bekam! – javob berdi Sancho. – Axir, men o‘qishni ham, yozishni ham bilmayman-ku. Bir amallab o‘z ismimni yozaman, xolos.

Xatni men aytib turdim, eshik og‘angiz yozdi.

– Qani bering-chi, ko‘raylik, -- dedi gersoginya. – Ehti-mol, u juda mazmunli va qiziq maktub bo‘lsa kerak.

Sancho qo‘ynidan hali berkitilmagan xatni olib, ger-soginyaga berdi.

Sancho Pansaning xotini Teresa Pansaga maktubi

Shunday qilib, azizam Teresa, endi mening gubernator bo‘lishimga ozgina qoldi. Faqat u meni savalash evaziga qo‘lga kiritiladi. Qimmatli rafiqam, sen hozircha bunga tushunmaysan, lekin keyinroq senga hammasini birma-bir aytib beraman. Shu narsani bilib qo‘yki, Teresa, endi sen karetada yurishing kerak, sichqon quvgan mushuklarga yayov yursin, ha, men shunday

qat'iy qarorga keldim. Sen gubernatorning xotinisani, bilib qo'y, seni oyoq osti qilishlariga yo'l qo'yma. Xat bilan birga senga yashil ov kiyimi jo'natyapman, uni menga gersoginya hadya qildi. Uni qizimizga belbog'li yubka qilib berishga harakat qil. Janobim don Kixotni esa bu yerdagi o'lkalarda jinni bo'lsa ham dono, tentak bo'lsa ham, ajoyib deyishadi. Meni sinoridan sira qolishmaydi, deb qo'shib ham qo'yishadi. Biz Montesinos yurtida bo'ldik. Donishmand Merlin o'z vatanida oddiygina qilib Aldonsa Lorenzo deb yuritiladigan Tobosolik Dulsineyani yovuz sehrgarlar sehridan xalos etish uchun meni tanladi. Men o'zimni qamchi bilan uch ming uch yuz marta savalashim kerak, shundagina u ozod qilinadi. Bilib qo'y, tag'in bu haqda hech kimga og'iz ochma ko'rma. Agar qilgan ishlaringni odamlarga aytasang, birov seni qora desa, ikkinchisi oq deydi. Yana bir necha kundan so'ng o'z orolimga jo'nayman. Ko'proq pul to'plashni juda-juda istayman. Aytishlariga qaraganda, umuman, yangi tayinlangan hamma gubernatorlar ham ana shu orzu bilan yashasharkan. Yangi yerga borib biroz ko'nikib, u-bu orttirganimdan keyin bu yoqqa kelsang bo'ladimi yoki yo'qmi, hammasini, albatta, yozib yuboraman. Kulrangim o'zini yaxshi his etyapti, u senga salom yo'llayotir. Basharti meni turklar sultoni qilib ko'targanlarida ham, undan aslo ajralmayman. Gersoginya, mening valine'matim, sening qo'llaringni ming martalab o'padi, sen unga ikki yoki uch ming marta bo'sa in'om qil. Xo'jayinim aytganidek, shirin so'z bilan davlating kamaymaydi. Bu safar xudoyim menga bir chemodan aqcha ato qilishni ravo ko'rmadi. Lekin bunga achinma, azizim Teresa. Sal sabr qil: gubernator bo'lganimdan so'ng tuvagimiz ham oltindan bo'lib ketadi. Xullas, bir so'z bilan aytganda, qanday bo'lmasin seni boyvuchcha qilaman.

— Ering, gubernator Sancho Pansa.

Gersoginya xatni o'qib bo'lgach dedi:

— Juda yaxshi yozilibdi-yu, lekin bir jihatdan marhamatli gubernatorimiz xiyol haq yo'ldan chiqib ketibdilar: bir yerda ta'magirlik, ochko'zlik yaqqol bilinib qolibdi. Gullar ochilmay turib so'lib qolishidan qo'rqaman. Nafsi yomon hayitda o'ladi, deydilar. G'arazgo'y, ta'magir hukmdor esa adolat bilan ish yu-

ritolmaydi.

– Axir, men sira ham bunday demoqchi emas edim, sino-  
ra, – javob berdi Sancho. – Marhamatli bekam xat noto‘g‘ri yo-  
zilibdi deb o‘ylasalar, keling, yaxshisi yirtib tashlay qolamiz.  
Faqat boshqasi bundan ham battar chiqib qoladimi deb qo‘rqa-  
man. O‘z miyamga ishonishim qiyin.

– Yo‘q, yo‘q, – e‘tiroz bildirdi gersoginya, – xat juda  
yaxshi yozilgan, shuning uchun ham men uni gersogga ko‘rsa-  
tishni istayman.

U shu so‘zlarni aytdi-yu, bugun tushki ovqatlanishga  
qaror qilingan bog‘ga qarab ketdi.

Gersoginya xatni gersogga ko‘rsatgan edi, u huzur qilib  
o‘qib chiqdi. Ovqatlanish shod-xurramlik bilan o‘tdi. Nihoyat,  
dasturxonni ham yig‘ishtirishdi. Biroq gersog bilan gersoginya  
Sanchoning ajoyib qiziqchiligidan rohat qilib hali ham joylaridan  
qimirlagilari kelmasdi. Sokin va osoyishta oqshom edi. Birdan  
nayning mungli sadosi va do‘mbiralarning bo‘g‘iq, xavotirli  
sadolari eshitildi. Bu jangovar va mungli musiqa tovushidan  
hamma hayratda qoldi. Ayniqsa, don Kixot hayajondan joyida  
o‘tirolmadi. Sancho esa qo‘rqqanidan odatlanib qolgan panago-  
higa – gersoginyaning ortiga o‘tib oldi. To‘g‘risini aytganda,  
bog‘dan kelayotgan ohang sadosi, haqiqatan ham, xatarli va  
mungli edi. Bu yerda hozir bo‘lganlar hammasi hayron bo‘lib  
angrayib turgan bir paytda, bog‘ga keng va uzun motam libosi-  
dagi ikki kishi kirib keldi, ularning etaklari yer supurib kelardi.  
Ular hadeb qora mato sirilgan katta do‘mbirani chalar edilar.  
Ularning ketidan xuddi shulardek boshdan oyoq qora kiyinib  
olgan naychilar, naychilarning ortidan esa etagi yerga sudralib  
yuradigan qop-qora chakmon kiygan bahaybat gavdali bir kishi  
ham kelardi; chakmoni ustidan serbar qora belbog‘ bog‘lab olgan  
bo‘lib, unda qora qinli kattakon qilich osig‘liq turardi. Yuziga  
yupqa qora niqob tutilgan bo‘lib, uning ustidan uzun qordek  
oppoq soqoli ko‘rinib turardi. U do‘mbira ohanglari ostida salo-  
bat bilan qadam tashlardi. Uning haybatli qomati, viqorli odim  
tashlashi, qop-qora libosi va atrofdagi mulozimlari har qanday  
odamni, ayniqsa, bu kishilarning kimligini bilganlarni lol qoldir-

may qo'ymas edi.

Bu noma'lum odam asta tantanali ravishda o'z yaqinlari davrasida uni kutib turgan gersogga yaqinlashib, tiz cho'kdi. Gersog esa o'rnidan turishni buyurdi. Shundan keyingina ulkan gavdali kishi o'rnidan turib, hali inson ko'zi ko'rmagan dahshatli, sersoqol basharasini ochib yubordi. Keyin gersogga tikilib turib sekin, lekin ohangdor qilib dedi:

– Ulug', qudratli sinor, meni Trifaldi Oq Soqol deydilar; men – duenya Dolorida deb ataluvchi grafinya Trifaldining qurolbardoriman. U meni siz hazrati oliylarining huzurlariga o'zining bag'oyat musibatli qayg'u-alamini bildirish uchun ruxsatingizni so'ragani chopar qilib yubordi. Lekin hammadan oldin u jasur va yengilmas ritsar lamanchlik don Kixotning sizning qasingizdami, yo'qmi, shuni bilishni istaydi. Bu shavkatli ritsarni qidirib u o'zining olisdagi qirolligidan goh yayov, goh och-nahor qolib sizning mamlakingizga yetib keldi. Grafinya saringiz darvozasi oldida turibdi, agar siz maqbul javob bersangiz, u kishi huzuringizga tashrif buyuradilar. Gapim tamom.

U shunday dedi-yu, yo'talib olib, qo'llari bilan soqollarini tutamlab, gersogning javobini sabr sizlik bilan kuta boshladi. Gersog esa shunday javob berdi:

– Grafinya Trifaldining boshiga og'ir musibatlar tushganligi, ya'ni yovuz sehrgarlar uni duenya Dolorida deb atashga majbur qilganliklari haqidagi xabar bizga allaqachonoq yetib kelgan edi. Unga shuni aytingki, jasur lamanchlik ritsar don Kixot shu yerdadir, u, albatta, har qanday yordam va himoyasini ayamaydi. Mening o'zim ham unga yordam berishga tayyorman, zeroki ritsarlik sha'nim taqozo etadi buni.

Trifaldi bu so'zlarni eshitib, yana tiz cho'kib ta'zim qildi-da, naychi bilan do'mbirachiga ishora qilib bog'ga qanday qilib kirib kelgan bo'lsa, xuddi shunday tantanali vaziyatda orqaga qaytdi. Gersog esa don Kixotga murojaat qilib dedi:

– O, mashhur ritsar, sizning sharafli jasurligingiz naqadar ulug'! Hali bizning panohimizga kelib ulgurmasingizdanoq uzoq mamlakatlarning har chekkasidan kishilar sizning yordamingiz va himoyangizni so'rab kelishmoqda. Chunki ular sizning him-

mat va jasoratingizning nihoyasi yo'qligini yaxshi bilishadi.

– Xudoyimga shukronalar o'qiyman, – javob berdi don Kixot. – Chunki u mening jahongashta ritsar bo'lishimga ijozat berdi. Bu yo'lda boshimga qanchadan qancha kulfat-u alam tushmasin, qanchalik qiyinchiliklarga duch kelmay, baribir, ularning foydali bo'lishiga imonim komil. Faqat shunisi achinarliki, shu tobda bu yerda hurmatli ruhoniyingiz yo'q. Esingizdami, jahongashta ritsarlar haqida u qanchalik nafrat bilan so'zlagandi. Hozir u barcha hasrat-nadomatga botgan, mazlumlarning xuddi ana shu jahongashta ritsarlardan najot istab kelishlariga ishonch hosil qilgan bo'lardi. Mayli, o'sha duenya mendan istaganini so'ray qolsin: bilakdagi bor kuchim hamda qo'rquv bilmas ruhim uning boshiga tushgan falokatdan qutulishiga xizmat qilsin.

Gersog va gersoginya don Kixotning ular o'ylab topgan hazilini haqiqat deb bilib, bunga qanchalik soddadillik bilan ishonganidan xursand bo'lib ketdilar. Sancho o'ylab turib shunday dedi:

– Bu sinora duenya mening gubernator bo'lishimga xalal bermasa deb qo'rqaman. Toledolik bir tanishim: «Basharti ishga duenyalar aralashdimi, tamom, bundan yaxshilik kutma», – degan edi. Tag'in bu duenya Dolorida<sup>1</sup> yoki grafnya Trifaldi, yo Uch dumli (qadimgi ispan tilida faldi ham dum degan ma'noni anglatardi) bizga biror kasofat keltirmasin deb cho'chiyapman.

– Bas qil, do'stim Sancho, – uni so'zlashdan to'xtatdi don Kixot, – bu sinora duenya shunchalik uzoq mamlakatdan kelibdimi, demak, u sening tanishing aytgan duenyalardan emas, buning ustiga u grafnya. Grafin yalar esa qirolicha yoki malikalargagina duenyalik xizmatini qiladi. O'z uylarida esa ular aslzoda xonimlar hisoblanadilar, ularga boshqa duenyalar xizmat qilishadi.

Bu gapni eshitgan Donya Rodrigues shunday dedi:

– Mening sinora gersoginyam duenyalari orasida shunday xonimlar borki, agar taqdir yor bo'lsa, ular ham grafnya bo'lishlari mumkin edi. Hech kim duenyalar haqida ahmoqona

<sup>1</sup> Dolorida (*ispancha*) – 1) g'amgin; 2) shikoyatchi; 3) yig'loqi, 4) ta'sirchan.



gap gapirmasin. Shunisi ham borki, qurolbardorlar har mahal ham bizning dushmanimiz bo‘lib kelishgan, ular poygohda qolib ketib, doim g‘iybatimizni qilishadi, bekorchilikdan bizning shon-sharafimizga chuqur qazimoqchi bo‘lishadi. Iloyo, boshlari bandi eshkakchilikdan chiqmasin, biz esa qasdma-qasdlikka yashayveramiz, tag‘in ochlikdan o‘lib ketish yoki qora ro‘dapoga o‘ralib yurish o‘rniga hashamatli qasrlarda yashaymiz.

Nay va do‘mbiralar sadosi ostida duenya Doloridaning bog‘ga kirib kelishi bilan subbat uzilib qoldi. Mehmon, har holda, grafinya va aslzoda xonim bo‘lgani uchun gersoginya eridan, unga peshvoz chiqmaymizmi, deb so‘radi. Gersog bunga javob berib ulgurmasdan, Sancho so‘zga aralashdi:

– U grafinya bo‘lgani uchun ham, hazrati oliylari, peshvoz chiqsalingiz bo‘lardi, lekin u duenya ekan, joylaringizdan qo‘zg‘almasangizlar ham bo‘laveradi, deb hisoblayman.

– Senga birov bu ishga aralashsin deyaaptimi, Sancho? – dedi don Kixot.

– Kim so‘rayapti? – javob qildi Sancho. – Men haqqim bo‘lgani uchun aralashyapman: axir, bekorga sizning qurolbardoringiz emasman-ku, bu odob-muomalani marhamatli janoblarning o‘zlaridan o‘rganganman, axir, sizni eng odobli, yaxshi tarbiya ko‘rgan ritsar deb aytish mumkin-ku.

– Sancho haq, – dedi gersog, – oldin qanaqa grafinya ekanini ko‘raylik-chi, keyin unga qanday munosabatda bo‘lish lozimligini hal qilamiz.

Shu daqiqada bog‘ga kirib kelayotgan musiqachilar bilan birga jun matodan tikilgan uzun ko‘ylakli va peshlari yerga tekkudek oppoq xalat yopingan yigirma chog‘li duenyalar paydo bo‘lishdi. Ularning ketidan qurolbardori Trifaldi Oq Soqolning qo‘liga suyangan holda grafinya Trifaldining o‘zi kirib keldi. U g‘oyat uzun, uch taram etakli harir qora matodan ko‘ylak kiyib olgan, uning orqasidan esa barining uchidan tutgan motamsaro libosdagi uch etakbardor kelardi. Bu kesma uchburchak chiroyli matematik shakl kasb etgan edi. Shuning uchun ham hamma shu zamonoz grafinya Trifaldining xuddi ana shu bezaklar ifodalab turganini, ya‘ni uning grafinya Uch fald ekanligini angladi.

Bu sinora duenyalar qurshovida salobat bilan odim tashlab kelardi, duenyalarning betlariga tortilgan qora chodirlar Trifaldinikidek yupqa va harir bo'lmagani sababli hech narsa ko'rinmasdi. Bu holni ko'rgan gersog, gersoginya va don Kixot, ular ketidan esa boshqalar ham o'rinlaridan turishdi. Duenyalar yaqinlashgach to'xtab, Trifaldining qo'liga suyanib kelayotgan Doloridani oldinga o'tkazib yubordilar. Gersog, gersoginya va don Kixotlar unga tomon yigirma qadamcha yurdilar, Dolorida esa tiz cho'kib bo'g'iq va xirillagan tovush bilan so'zlay ketdi:

– Hazrati oliylari, iltifot ko'rsatib o'zlarining sodiq xizmatkorlariga, kechirasiz, oqsochlariga, bunchalik izzat-ikrom ko'rsatmasalar. So'zdan adashib qolayotganim uchun ajablanmang. Meni hozir shunday bir qayg'u azoblayaptiki, balandparvoz gaplarni ayta olmayman. Kutilmagan falokat aqlimni olib, ehtimolki, narigi dunyoga ravona qildi, shuning uchun uni qancha qidirmay, baribir, topa olmayman.

– Darhaqiqat, sinora grafinya, – dedi gersog, – oliyjanob va yaxshi tarbiya ko'rgan kishilarga nisbatan ko'rsatiladigan hurmat-ehtiromga loyiq ekanligining fahmiga yetmaslik uchun aqldan ozmoq lozim.

Gersog shunday dedi-yu, qo'lini tutib, unga o'zidan kam mulozamat qilmayotgan gersoginya yonidagi o'rindiqdan joy ko'rsatdi. Don Kixot jim edi, Sancho esa Trifaldining yoki uning duenyalaridan birortasining basharasini ko'rish ishtiyoqida yonardi. Lekin o'zining bu sezgisini sira bildirgisi kelmasdi, shuning uchun ham toki ularning o'zlari betlarini ochishlarini kutib turishga to'g'ri keldi.

Hamma ham o'rtadagi jimlikni buzib qo'ymaslik uchun sukut saqlab turardi. Nihoyat, duenya Dolorida so'z ochib qoldi:

– Aminmanki, qudratli sinor, go'zal sinora, qolgan hamma oqil va fozil janoblar, mening dard-u alamim qalblaringizda muruvvat uyg'otadi, dardimga hamdard bo'lasizlar, zeroki boshimga tushgan nadomatlar shu qadar zo'rki, u sovuq marmarni yoradi, olmosni yumshatadi, po'latni eritadi. Avvalo, bu ajoyib jamoatchilik orasida yengilmas ritsar don Kixot va uning qurolbardori Sancho Pansa bormi-yo'qligini bilishni istardim?

Bunga boshqalar hali javob bermaslaridanoq, Sanchoning o'zi og'iz juftlab qoldi:

– Kiroyi qurolbardor Pansa janoblari shu yerda, ayni don Kixot zoti oliylari ham. Ta'blari neniki istasa, bermalol so'zlayversinlar, zotan, sizning amri oliylaringizga mushtoq xizmatkoringizimiz.

Shundan keyin don Kixot o'rnidan turib, Doloridaga qarab dedi:

– Agar sizning cheksiz uqubatlaringiz, sinora, jahongashta ritsarning jasorati hamda zabardast bilagi sizga yordam bera olishiga bo'lgan umidingizni yo'qotmagan bo'lsa, u holda men bor kuchimni, u qanchalik ojiz va nazarga ilmaydigan darajada bo'lmasin, sizning xizmatingizga ishlatishga tayyorman. Men lamanchlik don Kixot bo'laman, – mening burchim barcha nochorlarga yordam ko'rsatishdir. Bizga yig'i-sig'i bilan arz qilib o'tirishning hojati yo'q. Uqubatlaringizni to'g'ri va ochiq-oydin aytib bering, biz sizga quloq solib, yordam berishga yoki hech bo'lmaganda dardingizga hamdard bo'lishga tayyormiz.

Buni eshitgan duenya Dolorida o'rindiqdan irg'ib turdida, o'zini don Kixotning oyoqlariga tashlab dedi:

– O, yengilmas ritsar, barcha jahongashta ritsarlik ostonalari bosh eggandek sizning oyoqlaringizga bosh qo'yaman, boshimga tushgan kulfat-uqubatlarni toptab meni musibatlardan xoli qilishga qodir oyoqlaringizni o'pmoqchiman. O, shavkatli jahongashta ritsar, sizning ulug'vor jasoratlaringiz Amadislar, Esplandianlar<sup>1</sup> hamda Belyanislarning barcha afsonaviy jasoratlaridan ming chandon oshib tushadi.

Keyin u Sancho Pansaga murojaat qilib, uning qo'llariga mahkam yopishib olgan holda dedi:

– O, jahongashta ritsarlar qurolbardorlari orasida eng so-

---

<sup>1</sup> **Esplandian** – Bu roman «Galliyalik Amadis» asarining bevosita davomidir. Esplandian – Amadis va Oriananing o'g'li. Esplandian ritsarlik unvonini olgach, sarguzasht izlab ketadi. U jasoratlar ko'rsatadigan asosiy maydon Sharqdir. U bu yerda turklar va saratsinlar bilan kurashadi, yakka o'zi ular ustidan mislsiz g'alabalar qozonadi, shaharlarni zabt etadi, yovuz jodugar va sehrgarlarning hiyla-yu nayranglarini chippakka chiqaradi, nihoyat, Istanbul imperatori bo'lib qoladi.

dig'i, sening shon-shavkating va e'tiboring mening hamrohing Trifaldining soqolidan ham kattadir. Sen ulug' don Kixotga xizmat qilish bilan faxrlansang arziydi, chunki uning timsolida qadimgi barcha ritsarlarga xizmat qilayotirsan. Sening sadoqatingga ofarinlar o'qiyman, toki sen men bilan janobing o'rtamizda hakamlik qil, toki u meni, itoatli va baxtiqaro grafinyani o'z himoyasiga olsin.

Sancho esa bunga shunday javob qildi:

– Mening shon-shavkatim hamda e'tiborim haqida gapirishning hojati yo'q, sinora. Men bunday yolvorishlarsiz ham janobimdan sizga yordam berishni so'rashga tayyorman. Faqat boshingizga tushgan kulfatlarni tezroq ochiq-oydin aytib bersangiz bo'lgani. Marhamatli xonim, undan keyin ko'p xafa bo'lavermang. Biz janobim bilan sizga qanday yordam bera olishimiz haqida o'ylab ko'ramiz.

Bu gaplarni eshitarkan gersog va gersoginyalar kulaverib ichaklari uzilayozdi. Ichlarida grafinya Trifaldining o'tkir zehni va ishni ustalik bilan olib borayotganiga tahsin o'qirdilar. U esa gapida davom etdi:

– Ulug' Trapobana hamda Janubiy dengiz oralig'idagi Komorin burunidan ikki mil naridagi shonli Kandayya qirolligida donya Magunsiya – qiroq Archipelining beva xotini hukmronlik qilardi; uning Antonomasia ismli go'zal qizi bor edi. Onasining barcha duenya enagalari ichida eng mo'tabari va mashhuri bo'lganim uchun u mening nazoratim ostida tarbiyalanardi. Biz tinch-xotirjam, baxtli yashardik. Yillar ketidan yillar o'tib borardi. Nihoyat Antonomasia o'n to'rt yoshga kirdi. U shu qadar chiroyli ediki, xuddi tabiat bunday go'zallikni boshqa yaratolmaydiganday. Uning bu go'zalligi butun yer yuziga yoyildi, o'z o'lkamiz hamda begona yurtlardan kelgan botir shahzodalar eshigimizga tanda qo'ya boshladilar. Ulardan biri – oddiy bir ritsar malikamning qalbini rom qilmoqchi bo'libdi. U o'zining navqironligi hamda husni, zehning o'tkirligi hamda qo'lidan har qanday ish kelishiga ishongan edi. Lekin shuni aytib qo'yishni istaymanki, oliy hazratlari, agar hikoyam sizni zeriktirib qo'ymagan bo'lsa, o'sha yigit gitara chalganida uning torlari tilga

kirib ketardi: buning ustiga u ham shoir, ham ajoyib raqs tushadiganlardan edi, hatto u qushchalar uchun qafaslar yasashni, lozim bo'lsa, tirikchilik uchun pul ham ishlashni bilardi<sup>1</sup>. U shunday qobiliyati bilan nozikkina bir qizning qalbini rom etish u yoqda tursin, tog'ni ham o'rnidan surib qo'ya olardi. Biroq u qotil va qaroqchi don Klavixo avval hiylagarlik bilan meni tuzoqqa ilintirish payiga tushmaganida edi, uning go'zalligi ham, jozibasi ham, iste'dodi ham shogirdimni asir qilolmasdi. Bu makkor sayoq avvaliga mening yuragimni o'ziga qaratib olmoqchi bo'ldi. U qayoqdagi yolg'on-yashiq gaplar bilan qo'ynimni puch yong'oqqa to'ldirib, meni yo'ldan ozdirib, o'ziga og'dirib oldi. Shundan keyin mening yordamim orqasida Antonomasia bilan tanishib, uni o'ziga rom qildi. Mening ehtiyotkorligim va sezgirligim sababli dastlabki uchrashuvlarini hech kim sezmedi, lekin, baribir, ularning muhabbati qachon bo'lmasin oshkor bo'lishi kerak edi. Qanday bo'lmasin ishni yo'lga solish lozim edi. Don Klavixo ruhoniyaning Antonomasianing qo'lini so'raydigan, malikaning unga tegishni istab yozgan xatini ko'rsatadigan bo'ldi. Ruhoniy xatni o'qib, malikani chaqirtirib uning gapini eshitdi, shundan keyin hurmatli algvasillardan<sup>2</sup> birining uyiga yashirinishni buyurdi...

Shu yerga kelganda Sancho hikoya qiluvchining so'zini bo'ldi:

– Kandayya algvasillar, shoir va duenyalar bor ekan, qasamyod qilib aytamanki, dunyodagi hamma yer ham bir xilda ekan. Lekin sinora Trifaldi, tezroq ayta qoling, kech bo'lib qoldi, men esa bu ishning oqibati qanday tugaganini bilishni juda-juda istayman.

– Hozir bilib olasiz, – dedi grafinya.

Sanchoning har bir so'zi gersoginyani hayratda qoldirar, don Kixotning esa fig'onini oshirardi. U qurolbardoriga gapni

<sup>1</sup> Tabaqalanish, nasl-nasab bid'ati dvoryanlarga biror hunar bilan shug'ullanishni man qilardi. Faqat qushlarga qafas va tish tozalagich yasashgina dvoryanning sha'niga dog'tushirmaydigan mashg'ulot sanalardi.

<sup>2</sup> Algvasil – politsiya nazoratchisi, jamoatchilik orasida osoyishtalik, tartib va intizomni saqlovchi nozir.

bas qilishni buyurdi. Dolorida esa hikoyasini davom ettirdi:

– Ruhoniy Antonomasianing oldiga bir necha marta bo-rib, u bilan uzoq-uzoq suhbatlashdi. U nihoyat malikaning o‘z fikrida qattiq turganiga ishonch hosil qilgach, Klavixo bilan nikoh o‘qitishga rozilik berdi. Nihoyat, u don Klavixo tomoniga og‘ib, Antonomasiani unga shar‘iy jufti halollikka berishdi. Bundan malikaning onasi – qirolicha donya Magunsiya ich-etini yeb, shu qadar kuyib ketdiki, uch kundan keyin olamdan o‘tdi, uni ko‘mdik.

– Rostdan-a, – dedi Sancho.

– Hammasi ayon gap, – javob berdi Trifaldi, – Axir, Kandayyada tiriklarni emas, murdalargina ko‘miladi-da.

– Shunday voqealar ham bo‘ladiki, sinor qurolbardor, – e’tiroz bildirdi Sancho, – ba‘zan hushidan ketib qolgan odamni ham o‘lib qolgan deb ko‘mib yuboradilar. Menimcha, qirolicha Magunsiya o‘lib qolmay, hushidan ketib yiqilishi kerak edi. Kishi hayotligida hamma ishni to‘g‘rilasa bo‘ladi, buning ustiga malikaning gunohi shunchalik xafa qiladigan emas ekan. Agar sinora hayotda uchrab turadiganidek o‘z mahramiga yoki biror xizmatkoriga tekkanda edi, buni to‘g‘rilab bo‘lmasdi. Biroq, duenyaning ta‘biri bilan aytganda, shunday aqlli yosh ritsarga tegish, Xudo haqqi, sira ham ahmoqlik emas. Xo‘sh, u graf yoki markiz emas, oddiy dvoryan bo‘lsa, nima bo‘pti! Janobimning aytishicha, har bir olim yepiskoplik, har bir ritsar esa, ayniqsa, jahongashta ritsar qirol yoki imperatorlik umididan bahramand bo‘lishi mumkin.

– Sen haqsan, Sancho, – dedi don Kixot, – jahongashta ritsar, basharti yovuz sehrgarlar to‘sqinlik qilmasalar, dunyoda eng ulug‘ sinor bo‘lib olishi hech gap emas. Siz davom etavering, sinora Dolorida. Menimcha, siz bu voqeaning achinarli tugal-lanishini gapirib berishingiz kerak.

– Achinarli bo‘lganda qandoq! – javob berdi grafinya. – Buning oldida hatto achchiq turp shirinlik qiladi, tolgul yaprog‘i esa undan ham mazalikka o‘xshaydi. Shunday qilib, qirolicha hushidan ketib qolmadi, balki o‘ldi, biz uni ko‘mdik. Uning ustiga tuproq tortib, so‘nggi bor vidolashmasimizdanoq qirolicha-

ning qabri tepasida Magunsiyaning yog'och ot mingan amaki-  
vachchasi – o'taketgan yovuz, shu bilan birga sehrgar Malambruno  
paydo bo'lib qoldi. O'z opasi uchun qasd olish, don Klavixoni  
bu qilg'ilig'i, Antonomasiani yengiltakligi uchun jazolash maq-  
sadida u qabrning o'zidayoq malikani sehrlab, bronza may-  
munga, uning erini esa qo'rqinchli timsoghga aylantirib qo'ydi.  
Ular o'rtasiga avval kandyachasiga, so'ngra esa ispanchasiga  
tarjima qilganda: «Bu tentak kelin-kuyovlar faqatgina jasur  
lamanchlik men bilan yakkama-yakka olishuvda kuch sinashib  
ko'rgandagina o'z asliga kelishi mumkin, zeroki taqdir ularning  
ko'z ko'rib, quloq eshitmagan sarguzashtini faqat uning shon-  
shavkatlari uchun ato etgan», degan suriyacha so'zlar yozilgan  
ustun o'rnatib qo'ydi. Shundan keyin Malambruno egri qilichini  
qinidan sug'urib, mening sochlarimdan ushlab oldi-da, boshimni  
shartta uzib tashlamoqchi bo'ldi. Qo'rqib ketganimdan gangib  
qoldim. Tilim tanglayimga yopishib qolgan bo'lsa-da, bir amal-  
lab o'zimni o'nqlab olib, dag'-dag' titraganimcha yalinib-yolvo-  
rib iltijo qila boshladim. Malambruno meni kechirdi. U qilichini  
qiniga solayotib, hozir ro'parangizda turgan duenyalarning  
hammasini olib keling, deb buyurdi. Hammamizni o'limga emas,  
og'ir jazoga – uzoq va sharmandali jazoga mahkum etajagini  
aytdi. U gapni tugatmay turiboq chakkalarimiz va dahan-  
larimizga minglab o'tkir ignalar sanchila boshlaganini sezdik.  
Biz beixtiyor qo'llarimizni yonoqlarimizga olib bordig-u, hozir  
siz ko'radigan ahvolni angladik...

Shu zamonaoq Dolorida va boshqa duenyalar chodirlarini  
ochib yubordilar-u, bu yerdagilarning bari g'alati bir tomosha-  
ning guvohi bo'ldilar. Hamma duenyalarning soqollari bo'lib, bir  
xillarini kulrang, boshqalariniki qora, oppoq, yana bir xilla-  
riniki moshguruch edi. Gersog va gersoginya hayratda, don Kixot  
bilan Sancho Pansa taajjubda, boshqalar esa dovdirab qolishdi.  
Grafinya Trifaldi esa gapida davom etdi:

– Mana, badbaxt Malambruno biz uchun qanday jazo  
o'ylab topibdi. U bizning nozik yuzlarimizni dag'al soqol bilan  
qoplatdi. Chehramizni bunaqa namat bilan qoplagandan ko'ra  
o'ldirgani afzal edi. Lekin shunisi ham borki, bunaqa soqolli

duenyalar kimning ko'ziga ham ko'rina olardi? Bunga qaysi ota-ona chidashi mumkin? Kim unga yordam bera oladi? Mabodo duenyalarning yuzi silliq bo'lib, ularning terisi upa-elik bilan chaplanganda ham, boshqalarga manzur bo'lishi qiyin-u, betiga mana bunaqa o'rmon o'sib chiqqanda, u nima ham qila oladi? O, mening dugonalarim, duenyalar, badbaxt onlarda dunyoga kelib-miz, onalarimiz bevaqt tuqqan ekan bizlarni.

U shunday dedi-yu, hammaning ko'z o'ngida hushidan ketib qoldi.

Shunda Sancho behush yotgan Doloridaga qarab dedi:

– Odobli kishilar va butun avlod-ajdodlarim nomidan qasamyod qilamanki, umrim bino bo'lib bunaqa voqeani eshitmaganman, hatto janobim ham bunday ishlar bo'lishini sira aytmagan edi. Axir, bu uning xayoliga ham kelmagandi. Sen, sehrgar va bahaybat Malambrunoga abadiy la'natlar bo'lsin! Nahotki bu baxtiqaro bechoralarga soqoldan bo'lak jazo bo'lmasa? Menimcha, bu bechoralarning sartaroshning haqini to'lashga ham hech narsalari bo'lmasa kerak.

– To'g'ri aytasiz, sinor, – javob berdi o'n ikki duenyaning biri, – agar sinor don Kixot bizni bu soqollardan xalos etmasa, go'rga ham soqol bilan kiramiz.

Shundan keyingina don Kixot ularni yupatish uchun so'z qotdi:

– Sizni shu ahvolga tashlab qo'ygandan ko'ra, mavrlar yurtida mening soqollarimni bittalab yulib olganlari ma'qul.

Shu tobda hushiga kelib qolgan grafinya Trifaldi shunday dedi:

– O, shavkatli ritsar! Bizga quvonchli umid baxsh etayotgan yoqimli tovushingiz meni hayotga qaytardi. Shuhratli va qudratli jahongashta sinor, oliyhimmatlik bilan bergan va'dangizning ustidan chiqishingizni o'tinib so'rayman.

– Men ishni bu holda qoldirmayman, – javob qildi don Kixot, – faqat ayting-chi, sinora, nima qilishim kerak, zeroki bor jasoratim siz uchun xizmat qilishga muntazir.

– Ish shundaki, – javob qildi Dolorida, – bu yerdan Kandayya qirolligigacha agar quruqlik orqali borilsa, besh ming mil.



Mabodo uchib borilsa, uch ming ikki yuz yigirma yetti mil. Bundan tashqari, Malambruno aytdiki, mabodo taqdir meni siz xaloskor ritsarimizga yo'liqtirgudek bo'lsa, ot yuborarmish, ot bo'lganda ham allaqanday qirchang'i emas, balki shavkatli Pergo'zal Magelonni olib ketgan qoyilmaqom yog'och otni yuborarmish. Bu otni qansharidagi murvatni burab boshqariladi, u osmonda shu qadar tez uchadiki, xuddi uni shaytonlar niqtab haydab borayotganga o'xshaydi. Rivoyatlarga ko'ra, bu otni dono Merlin yasagan, uni faqat do'sti Perga foydalanishga berib turgan. Lekin Merlin o'z otini kimni ko'ngli xohlasa yoki kim yaxshi haq to'lasa, shungagina berardi. Malambruno o'z sehr-u jodulari yordami bilan qo'lga kiritgan bu otni endilikda o'zi minib, olamni kezib yuribdi: bugun bu yerda, ertaga Fransiyada, indinga esa Amerikada. Hammadan qoyili shuki, bu ot hech nima yemaydi, uxlamaydi, taqasi ham yeyilib ketmaydi, qanotsiz ham shunday tekis uchadiki, ustida ketayotgan chavandoz bir piyola suv ko'tarib olganda ham bir tomchisi to'kilmaydi.

Gap shu yerga yetganda Sancho bunday dedi:

– Yengil va ravon uchishiga kelganda shuni aytish kerakki, mening kulrangim ham osmonda ucholmasa-da, qattiq yerda hech qanday yo'rg'adan qolishmaydi.

Hamma kulib yubordi, Dolorida esa gapida davom etdi:

– Shunday qilib, agar Malambruno bizni boshimizga tushgan balodan qutqarmoqchi bo'lsa, qorong'i tushgandan keyin yarim soat o'tgach, ot shu yerda hozir bo'ladi.

– Siz aytayotgan otga necha kishi minishi mumkin? – deb so'radi Sancho. Dolorida shunday deb javob berdi:

– Ikki kishi: biri egarga, ikkinchisi otning sag'risiga. Odatda ritsar biror xonimni olib qochayotgan bo'lsa, unga qurolbardori bilan ikki kishilashib minadilar.

– Men shuni bilishni istardimki, sinora Dolorida, – dedi Sancho, – bu otning ismi nima ekan-a?

– Uning ismi, – javob qildi Dolorida. – Bellerofont<sup>1</sup> otini-

---

<sup>1</sup> Bellerofont – yunon afsonalarining qahramonlaridan biri, Korinf qiroli Glavkning o'g'li. Bellerofont tasodifan akasini o'ldirib qo'yib, Korinfdan chiqib ketishga majbur bo'ladi. U Argosga, podsho Pretos huzuriga jo'naydi. Podsho uni juda yaxshi qabul

kiga o'xshab Pegas yoki Buyuk Iskandarning otinikiga o'xshab Butsefal emas, Bayard laqabli Montalbanlik Reynaldnikiga ham o'xshamaydi.

– Bu otning nomi mashhur ritsarlarning tulporlari nomi sharafiga qo'yilmagan ekan, demak, u mening janobimning Rosinanti nomi bilan ham yuritilmas ekan-da.

– Mutlaqo to'g'ri, – dedi sersoqol grafinya, – u ot o'zining tezkorligi bilan Uchar Klavileno deb ataladi.

– Bu nom menga yoqadi, – davom etdi so'zida Sancho. – Uni qanday boshqariladi, jilov bilanmi, jilovsizmi?

– Men sizga aytdim-u, jilov bilan emas, alohida murvati bilan deb, – javob qildi grafinya Trifaldi. – Unga mingan ritsar murvatini goh, bu tarafga, goh u tarafga burib, istagan tomonga uchiradi: ot yoki ko'kka parvoz qiladi yoki yerga tushadi.

– Bu sehrli otni bir ko'rishga qarshi emasman, – dedi Sancho, – lekin siz meni unga minadi deb chuchvarani xom sanamay qo'ya qoling. Siz mening otning yog'och yag'riniga minishimni istaysizmi, tag'in to'shaksiz yoki yostiqsiz-a. Jin ursinki, allaqanday notanish duenyalarning soqolini yo'q qilishga ko'maklashish uchun ichak-chavog'imni ag'dar-to'ntar qilarkanmanmi. Shunisi ham borki, albatta, ularga mening yordamim kerak ham emas.

– Juda kerak-da, do'stim, – e'tiroz bildirdi Trifaldi, – shunday kerakki, sizning ishtirokingizsiz hech narsa qilolmaymiz.

– Meni qutqaringlar, saxovatli kishilar! – xitob qildi Sancho. – Xo'jayinlarning qilmish-qidirmishlari bilan qurolbardorlarning qanchalik ishi bo'lsin? Borki izzat-ikrom, shon-shuh-

---

qiladi, biroq podshoning xotini malika Stenobeya Bellerofont go'yo uni yo'ldan ozdirmoqchi bo'lganini eriga arz qiladi. Shunda Pretos mehmonni o'zi jazolashni istamay, uni qarindoshi podsho lobatey huzuriga jo'natadi. Uning qo'liga lobateyga topshirish uchun maktub beradi. Sirli harflar bilan yozilgan xatda Pretos Bellerofontni o'ldirishni iltimos qiladi. lobatey xatni olib, Bellerofontni dahshatli maxluq Ximera bilan olishishga buyuradi, u bu kurashda yigit halok bo'ladi deb o'ylagan edi. Biroq Afina ma'budasining yordami bilan, ya'ni Bellerofontga tortiq qilgan sehrli ot Pegas ko'magida bahaybat maxluqni yengadi. Bundan keyin ham u shunchalik ko'p ajoyib qahramonliklar ko'rsatadiki, qoyil qolgan lobatey u bilan yarashibgina qolmay, balki unga qizini berib, o'ziga kuyov qiladi.

rat ritsarlarga ravo ko'riladi, bizdaqa qurolbardorlar o'z haddini bilib ishini qilaversin. Hatto tarixchilar ham jahongashta ritsarlarning qahramonliklarini tasvirlar ekanlar, hech qachon qurolbardor haqida lom-mim demaydi, go'yoki qurolbardor zoti yorug' olamda bo'lmagan. Yo'q, sinorlar, takror aytamanki, janobimning yolg'iz o'zi boraveradi, xudo omadini bersin, men esa shu yerda sinora gersoginya huzurida qolib, sinora Dulsineyani sehr-jodudan xalos etish bilan shug'ullanaman. Menga shuning o'zi ham yetadi.

– Har holda, saxovatli Sancho, – dedi gersog, – lozim bo'lsa, siz o'z janobingizga hamroh bo'lib borishingiz kerak. Sizing bema'ni qo'rqqolingizni deb bu sinoralarning yuzi shunday badbashara bo'lib qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir, bu odobdan emas.

– Yana iltijo qilaman: qutqaringlar meni! – xitob qildi Sancho. – Basharti tarki dunyo qilgan yosh qizaloqlarga rahmshafqat ko'rsatish lozim bo'lsa, boshqa gap edi. Lekin duenyalarni soqoldan xoli qilish uchun azob chekaymi? He, jin ursin ularni! Ularning kattasidan tortib kichigigacha, birinchi tamanosidan tortib, so'nggi qiyshang'isigacha soqol bilan yuraversin.

– Duenyalarni yaxshi ko'rmas ekansiz, do'stim Sancho, – dedi gersoginya. – Biroq ont ichamanki, siz nohaqsiz.

Mening uyimda ibrat olsa arzigulik duenyalar bor. Mana, masalan, oldingizda turgan donya Rodriguesni olaylik.

– Kulavering, kulavering, hazrati oliyalari, – dedi donya Rodrigues. – Duenyalarni ham xudo yaratgan, demak, ularni nimaga yaratganini o'zi biladi. Yaratgan tangrim marhamatini darig' tutmasin, mayli, bu qo'pol qurolbardorning barcha haqoratlariga chidayman va...

– Duenyalar haqidagi gaplarni bas qilaylik, – dedi sabrtoqati tugagan don Kixot. – Qani, o'sha Klavileno kelsin-chi, shu zamonogacha minib o'sha Malambruno bilan jangga kiramanu, sizning soqollaringizni ustara bilan olishdan ham osonroq yo'l bilan kallasini tanasidan judo qilaman-qo'yaman, Sancho esa, albatta, nimaniki buyursam, hammasini bajaradi.

– Qoyil! – deb yubordi Dolorida. – O, shavkatli ritsar, sa-

moviy mavjudotlar lutf aylab, sizdek ulug' zotga zafar va jasorat yo'llasinkim, toki siz sharmandai sharmisor qilingan hamda ezilgan duenyalarning homiysi, tayanchi bo'lg'aysiz: uni begonalar ko'rolmaydi, qurolbardorlar la'natlaydi, mahramlar g'iybat qiladi. O, bahaybat Malambruno, bu uqubatdan xalos bo'lish uchun tezroq tengi yo'q Klavilenoni yubora qol!

Trifaldi bu so'zlarni shunday hayajonlanib aytdiki, bu yerdagilarning hammasining ko'zidan yosh chiqib ketdi, Sancho ham ko'ziga yosh olib, shu zamonoz ichida don Kixot bilan hatto dunyoning u chetiga ham borishga qaror qildi.

Bu orada tun cho'kib, tengi yo'q Klavileno yetib keladigan payt ham bo'ldi. Biroq haligacha undan darak yo'q edi. Don Kixot bezovtalana boshladi. Malambruno u bilan yakkamayakka olishishdan voz kechib, boshqa ritsar bilan kurashishga ahd qilib, aynib qolgan bo'lsa-ya, deb xavotirlana boshladi. Biroq to'satdan bog'ga to'rt vahshiy odam kirib keldi. Ular yelkalarida katta yog'och otni ko'tarib kelardilar: vahshiylar don Kixotning oldiga kelib, otni yerga qo'ydilar, so'ngra ulardan biri:

– Qani, bu ulkan otga botirligi yetadigan ritsar minsin, – dedi...

– Har qalay, men minmayman, – so'zni bo'ldi Sancho, – mening botirligim ham yetmaydi, ritsar ham emasman. Vahshiy so'zida davom etdi:

– ...mabodo o'sha ritsarning qurolbardori bo'lsa, otning sag'risiga minsin. Otning qansharidagi murvat buralsa bas, u shu zamonoz parvoz qilib, chavandozlarni kutib turgan Malambruno oldiga bir zumda yetkazib qo'yadi. Ammo uchish oldidan chavandozlar ko'zlarini, albatta, bog'lab olishlari kerak. Yo'qsa boshlari aylanib, yerga yiqilib tushishlari mumkin. Toki ot kishnab, parvoz tugaganini bildirmaguncha, chavandozlar ko'zlarini ochmasliklari lozim.

Shu gaplardan keyin vahshiylar Klavilenoni qoldirib, ta'zim qilib chiqib ketdilar.

– Shavkatli ritsar, Malambruno o'z va'dasining ustidan chiqdi, – mana, ot qarshingizda turibdi. Soqollarimiz esa tobora o'sib boryapti, senga yolvoramiz, bizni qutqar undan. Buning

uchun sen oting sehrli kuchiga ishonib o'z qurolbardoring bilan unga minib olsang, bas.

– Men buni bajonidil bajaraman: axir, men siz sinora va barcha duenyalarigizning nozik chehralarini top-toza va silliq holda ko'rish ishtiyoqida yonyapman.

– Men esa bu ishni bajonidil ham, bebajonidil ham, umuman hech qanaqasiga bajarmayman, – dedi Sancho. – Mabodo bu xonimlarning soqolini to'kish uchun ot sag'risiga mingashish zarur bo'lsa, unda janobim boshqa qurolbardor axtara qolsin yoki bu sinoralar o'z yuzlarini tekislash uchun birorta boshqa yo'l topishsin. Nima, jodugarmidimki osmon-u falakda uchib yursam? Axir, orolliklar gubernatorlarining osmonda uchib yurganini payqab qolishsa, nima deb o'ylashadi! Bundan tashqari, Kandayyagacha uch ming mil uchib borilsa. Mabodo otimiz charchab qolsa yoki pahlavon Malambruning jahli chiqib ketsa, qanday qilib qaytamiz? U holda hech qanday orol meni ko'rolmaydi. Axir, kishilar sigir hadya qilishdimi, darrov arqonga chop, deb bekorga aytishmagan-ku. Shuning uchun sinoralarning soqollari meni kechirsin, menga shu yer ham yaxshi. Bu xonadonda meni erkalashadi, qasr sohibi esa zo'r marhamat ko'rsatib, meni gubernator qilib tayinlashga va'da qilgan.

Gersog esa bunga shunday javob qildi:

– Do'stim Sancho, har qanday unumli va yuqori mansab ma'lum xizmat evazigagina qo'lga kiritiladi. Buni mendan ko'ra o'zingiz yaxshiroq bilsangiz kerak. Ma'lumingiz bo'lsinki, sinor don Kixotga hamroh bo'lib yo'lga tushganingizdan keyingina mendagi gubernatorlikni qo'lga kirita olishingiz mumkin. Klavilenodan eson-omon qaytib kelasizmi, yoki shum taqdir taqozosi bilan qalandarnamo darbadar, behuda tentiysizmi, xullas, qachon qaytmang, baribir, orol va gubernatorligi sizniki bo'ladi. Qarorim qat'iy: so'zlarimning to'g'riligiga ishonung, Sancho, aks holda, men o'zimni qattiq haqoratlangan hisoblayman.

– Boshqa bir og'iz ham gap kerak emas, sinor, men oddiy bir qurolbardorman va hech qachon so'zlarigizning to'g'riligiga ikkilanmayman, – javob berdi bechora Sancho. – Mayli, janobim otga mina qolsin, ko'zimni bog'lang, haqqimga duo qilib,

tangriga iltijo qiling, shu narsani ayting-chi, ruhimni qodir egamga topshirib, falakda uchib ketayotib farishta-yu maloikalarni ko'makka chaqirsam bo'ladimi?

Bunga Trifaldi shunday javob qaytardi:

– Albatta, Sancho, siz o'z joningizni xudoga yoki istagan kishingizga topshirsangiz bo'laveradi. Axir, Malambruno ham sehrgar bo'lgani bilan, har holda, nasroniy-ku.

Shu payt don Kixot Sanchoni yoniga chaqirib, gapni bo'ldi. U Sancho bilan chekkaroqdagi bir daraxt ostiga keldi-da, uning qo'lidan ushlab turib dedi:

– Ko'rdingmi, birodar Sancho, biz olis safarga otlanishimiz kerak. Qachon qaytishimiz va sen bermalol, shoshmasdan Dulsineyaga bergan va'dangni bajarishga kirishishing bir xudoning o'ziga ayon. Shuning uchun hozir o'z xonangga jo'nashingni istardim. Yo'lga nima olishing kerakligini aytgin. Borib, hech bo'lmaganda, besh yuz qamchi tushirsang ham mayli. Buning uchun ozginagina vaqt kerak, xolos, bu bilan esa menga katta tasalli bergan bo'lasan. Buning men uchun qanchalik muhimligini o'zing bilasan-ku.

– Yo'q, marhamatli janobim, – xitob qildi Sancho, – bunaqasi ketmaydi. Hozir men qip-yalang'och yog'ochga o'tirarkanman-u, marhamatli janobim esa o'z-o'zimni savalashni istar ekanlar-da! Oldin bu duenyalarning soqolini to'kkani jo'naylik, qaytib kelishimiz bilanoq o'z va'damni bajarishga kirishishga va sizga to'la-to'kis tasalli berishga so'z beraman. Gap tamom shu bilan.

Don Kixot esa javob qaytardi:

– Mayli, oliyjanob Sancho, va'dangga qoniqish bildirib, gapingning ustidan chiqasan deb ishonaman.

Shundan keyin ular Klavilenoning yoniga bordilar. Don Kixot otga mina turib dedi:

– Ko'zingni bog'lab, otga mingash, Sancho, shunday olis mamlakatdan yo'qlatishgan ekan, demak, bu bizni aldash uchun emas, darvoqe, ishonuvchan kishilarni aldash uyat. Hatto, bu sarguzashtimiz men o'ylagandek bo'lib chiqmasa ham, har qalay, bunday jasoratga otlanib, jahondagi hech qanday yovuzlik

dog' tushirolmaydigan shon-shuhratga erishamiz.

– Qani ketdik, sinor, – javob berdi Sancho, – bu sinoralarlarning soqol va ko'z yoshlari qalbimni pora-pora qilib yuboray deyapti. Ular bu balodan qutulmagunlaricha tomog'imdan hech narsa o'tmaydi. Siz oldin mining, marhamatli janobim va ko'zingizni bog'lab oling. Men, axir, sag'risiga mingashaman-ku, egarga minadigan odam oldin minishi hammaga ayon-ku.

– Ha, to'g'ri aytasan, – dedi don Kixot.

Shundan so'ng u cho'ntagidan ro'molchasini olib, Doloridadan ko'zini yaxshilab bog'lab qo'yishni iltimos qildi, keyin yog'och Klavilenoga lip etib minib, qansharidagi murvatni ushladi. Egarning uzangisi yo'qligidan don Kixotning oyog'i havoda osilib qoldi. U xuddi flamanacha gilamga to'qilgan, zafar qozongan rimlik chavandozga o'xshab ketdi.

Sancho erinibgina va istar-istamas tuzukroq joylashib olgach, bunday o'tirish nihoyatda qiyinligidan nolib qo'ydi. U gersogdan, sinoraning yotog'idan yoki biror mahramning o'midan bironta yostiq yoki to'shakcha olib, otning sag'risiga solinsa qanday bo'larkin, deb so'radi. Bunga Trifaldi Klavilenoning o'z sag'risiga hech qanday yostiq va namat solishlariga yo'l qo'ymasligini, juda bo'lmasa, Sanchoning otga ayolchasiga mingashishini, shunday qilsa, bunchalik qattiq botmasligini aytdi. Sancho shunday qilib o'tirdi-da, xayrlashib bo'lib ko'zini bog'lab qo'yishlariga ijozat berdi. Bu ish bajarilgach, u yana ko'zini ochib, bu sinovda madad berishlarini va ularning har biri «Otche nash» hamda «bibi Maryam» duolarini o'qishlarini ko'ziga yosh olib ulardan iltijo qildi.

– Ehtimol, – deb ilova qildi u, – ular ham bir vaqt kelib shunday mushkullikka tushib qolishar, o'shanda xudo ular uchun ibodat qiladigan kishi yuboradi.

Shunda don Kixot dedi:

– Bu qanaqa ahmoqchilik! Xuddi seni dor yoki o'lim kut-yapti, deb o'ylasa bo'ladi-ya. Nima keragi bor bunaqangi iltijo-larni? E, uyatsiz, qo'rqoq maxluq, axir, sen bir vaqtlar go'zal Magelonna mingashgan joyda o'ltiribsan-a, agar tarixchilar aldagan bo'lsa, bu otdan tushib u lahadga kirgan emas, Fransiya

taxtiga o'tirgan. Nahotki, men bir vaqtlar shavkatli Per o'ltirgan joyda, ya'ni yoningda o'ltirgan kamina-yu kamtarinlari o'sha jasur ritsarga tenglasha olmasam? Bog'la ko'zingni, yuraksiz maxluq. Bundan buyon hech bo'lmaganda men borligimda vahima sening tiling bilan so'zlamasin.

– Ha, mayli, bog'lang ko'zlarimni, – dedi Sancho itoatkorona, – ibodat qilishimga ham, boshqalarning men uchun ibodat qilishlariga ham qo'yishmaydi, tag'in yo'lda bizga shaytonlar galasi uchrab, bizlarni do'zaxga ravona qilishmasa deb qo'rqyapti, deb hayron ham bo'lishadi.

Nihoyat, Sanchoning ko'zini bog'lashdi, don Kixot ham hamma ish bitganini ko'rib, o'ning murvatini buradi. U shunday qilishi bilanoq hamma duenyalar va to'plangan boshqa odamlar qichqirib qolishdi:

– Xudo hamrohingiz bo'lsin, shavkatli ritsar!

– Xudo yor bo'lsin, qo'rqmas qurolbardor!

– Mana, hozir ko'kka ko'tarilib, o'qdek uchib ketasiz.

– Mahkam ushla, dovyurak Sancho, lapanglama. Ehtiyot bo'l, yiqilib tushma, naq sening yiqilishing o'z otasi – Quyoshni<sup>1</sup> g'ildiratib yubormoqchi bo'lgan yigitning qulashidan bo'lmasin tag'in.

Buni eshitgan Sancho janobiga mahkamroq yopishib oldida, qo'llari bilan uni quchoqlab olib dedi:

– Sinor, ular nega bunday deyishyapti, nima, biz juda osmonga ko'tarilib ketdikmi, ularning tovushi xuddi yonginamizda turishgandek yaxshi eshitilyapti-ku, axir?

– Shuni unutmaginki, Sancho, sehrgarlik aralashgan yerda hech kutilmagan ishlar bo'ladi. Lekin menga bunchalik o'zingni tashlab olma, otdan ag'darib yuborasan meni, tavba, nega bunchalik xavotirlanasan-a, sira tushunolmayman; imonim komilki, hech qachon shu qadar tekis va ravon uchadigan otda

---

<sup>1</sup> Quyosh ma'budi Gelios qadimgi yunon rivoyatlariga ko'ra, o'z o'g'li Faetonning iltimosi bilan unga quyosh g'ildiragini aylantirishni ishonib topshiradi. Lekin zaif va tajribasiz bola yo'ldan toyib, butun olamni yondirib yuborishiga oz qoladi. Dunyoni saqlab qolish uchun ma'budlar hokimi Zevs chaqmoq zarbi bilan bechora yigitchani uradi, Gelios esa quyoshni yana to'g'ri yo'lga solib yuboradi.



yurishga to'g'ri kelmagandi. Xuddi bir joyda qimirlamay turganga o'xshaymiz. Shunday qilib, do'stim, qo'rqma, ishimiz joyida, orqadan esgan shamolning o'zi uchirib ketyapti.

– Ha, bu to'g'ri, – javob berdi Sancho, – shuning uchun bo'lsa kerak, mening bir biqinimdan shunday shamol qattiq ur-yaptiki, xuddi yonimda minglab bosqonchilar ishlayotganga o'xshaydi.

Haqiqatan ham, shunday edi. Gersog xizmatkorlari bilan oldindanoq sarguzashtning hamma tayyorgarligini ko'rib qo'ygan, hozirlab qo'yilgan bosqonlarning dami to'g'ri jasur sayyohlarga qaratilgan edi.

– Biz shunchalik shiddat bilan uchyapmizki, Sancho, dam o'tmay olovli yerga yetamiz. Bu sehrli ot bizni lovullab turgan olov ichiga olib kirib, bu sovut-qalqonli badanlarimizni kuydirib kulga aylantirmasligi uchun nima qilishni ham bilmay qoldim.

Shu payt gersogning xizmatkorlari tayoqlar uchiga bog'langan, yonib turgan mash'alalarni xuddi ularning burunlari ostida silkita boshladilar. Sancho issiqdan qichqirib yubordi:

– Agar biz olovli yerga kelmagan bo'lsak, jonimni sug'urib oling. Yarim soqolim kuyib bo'ldi. Men ko'zimni ochib, qayerda turganimizni bilmoqchiman.

– Bunday qila ko'rma, – e'tiroz bildirdi don Kixot, – agar Malambruning amrini buzsak, kim bilsin, bizni qanday falokatlar kutyapti. Ehtimol, biz shunday yuksaklikka ko'tarilgandirmizki, balandga ko'tarilib turib, pastdagi qarqaraga o'qdek tashlanadigan burgut yoki shunqor kabi to'ppa-to'g'ri Kandayya qirolligiga tusharmiz. Basharti bog'dan chiqib ketganimizga yarim soat bo'lgan bo'lsa-da, ishontirib aytamanki, biz juda uzoq masofani bosib qo'ydik.

– Sira tushunolmay qoldim, – javob berdi Sancho, – o'ylaymanki Magalyanes yoki Mageloni shu otning sag'risida o'tirib uchgan ekan, demak, u unchalik noziktabiat emas ekan.

Gersog, gersoginya va hamma mulozimlar qahramonlarimizning suhbatini eshitib kulgidan o'zlarini arang tutib turishardi. Nihoyat, gersog bu ajoyib sarguzashtga xotima berish uchun portlovchi raketali lovullab turgan mash'alani Klavileno-

ning dumiga tutishni buyurdi. Raketa portlab ketib, ot gumburlab osmonga otildi. Sal-pal kuygan don Kixot bilan Sancho yerga yumalab tushishdi. Ular o'zlariga kelganlarida, o'zlari jo'nagan bog'da turganliklarini ko'rib lol bo'lib qolishdi, ularning atrofida esa gersog, gersoginya va boshqalar hushdan ketib yotishardi. Grafinya Trifaldi boshliq sersoqol duenyalar esa qayoqqadir g'oyib bo'lishibdi. Ular shundoq yonginalarida yerga sanchilgan, uchiga zangori ipak bilan suv o'tkazmaydigan oppoq qog'oz bog'lab qo'yilgan uzun nayzani ko'rib, ayniqsa, ajablanishdi, qog'ozga katta-katta zarhal harflar bilan shunday so'zlar yozilgan edi:

Mashhur lamanchlik ritsar don Kixot grafinya Trifaldini xalos etish yo'lidagi ulkan ishni qoyil qildi. Undan faqat bu jasoratga o'tlanish talab qilingan edi. Malambruno shuni ta'kidlaydiki, u shavkatli ritsarning bu jasoratidan qoniqdi. Duenyalarining yuzi sip-silliq, tekis va top-toza bo'ldi, qirol don Klavixo bilan qirolicha Antonomasianing hayoti, ozodligi qaytarib berildi. Barcha sehrgarlarning sehrgari donishmand Merlin shunga qapop qildiki, qurolbardor o'zini o'zi savashni tugatgani hamonoq oq kabutar qiynab azob berayotgan vahshiy qirg'iyalar changalidan ozod bo'ladi.

Don Kixot buni o'qib, unda Dulsineyaning ozod qilinishi haqida gap borayotganligini tushundi va shunday arziyas xavf-xatarni boshdan kechirish bilan shunchalik ulug' ishni osongina bajarganligi hamda hurmatli duenyalarining betlari dastlabki nozik terilariga qaytganligi uchun tangriga shukronalar o'qidi. Shundan keyin u hamon hushsiz yotgan gersog va gersoginya-ni oldiga keldi-da, gersogning qo'lidan ushlagan holda dedi:

– Bas endi, dadil bo'ling, ey oliyhimmat sinor, bularning bari arzimagan bir gap. Sarguzashtimiz mana bu suv o'tkazmaydigan qog'ozda yozilgandek to'la g'alaba bilan tugadi.

Gersog xuddi qattiq uyquda yotgan kishidek asta-sekin o'ziga keldi. U qog'ozdagi yozuvni o'qigach, don Kixotni quchoqlab oldi va ajoyib g'alaba bilan tabrikladi; yerda yotgan gersoginya va boshqalar ham uyg'onishdi. Ularning chehralarida shunday qo'rqinch va hayrat aks etib turardiki, go'yo bu voqea

ajoyib hazilga emas, balki chin haqiqatga o'xshardi. Sancho esa Doloridani qidirar, uning soqolsiz chehrasini, haqiqatan ham, go'zal ekanligini ko'rgisi kelardi. Lekin unga olovga burkalgan Klavileno yerga gursillab qulashi bilanoq barcha duenyalar Trifaldi bilan g'oyib bo'lib qolishganini, ammo ularning soqollari xuddi eng mohir sartarosh qirib tashlagandek top-toza bo'lib qolganini aytishdi. Gersoginya Sanchodan bu uzoq safar davomida o'zini qanday his qilganini so'radi, Sancho shu zamonAQ hikoya qilishga kirishdi:

– Sinora, biz olovli yerdan uchib borayotganimizda ko'zim bog'langan ro'molchani sal surib pastga – yerga qaradim. U xuddi garmdori urug'icha, yerda yurgan odamlar esa yong'oqdek bo'lib ko'rindi. Shuning o'zidanoq naqadar balandlikka ko'tarilganimizni bilib olishingiz mumkin.

Bunga gersoginya shunday javob qildi:

– Do'stim Sancho, nima deyayotganingizni o'ylab ko'ring. Agar sizga yer garmdori urug'idek, odamlar esa yong'oqdek ko'ringan bo'lsa, unda bu odamlar yerga qanday qilib sig'ishadi?

– Shuni yaxshi bilib olingki, hazrati oliyalari, – dedi Sancho, – bizning uchishimiz sehr orqali bo'ldi. Demak, men butun yer yuzi va odamlarni sehrlangan holda ko'rdim. Mabodo marhamatli bekam ishonmasalar, demak, bundan bu yog'iga ham ishonmaydilar. Ko'zimdagi ro'molchani surganimda, osmon xuddi mendan bir yarim futcha narida turganligiki ko'rdim, so'zlarimga ishonong, u nihoyat ulkan edi. Samoda yana yetti uloqni<sup>1</sup> ko'rdim. Sizga shuni aytishim kerakki, yoshligimda men echki-boqar edim, shuning uchun ham bu echkilarni shunaqangi erkalagim keldiki, naq yuragim yorilib ketay dedi. Men o'z xo'jayinimga lom-mim ham demay, Klavilenodan astagina tushdimda, jajji, shumtaka uloqlar bilan chorakam bir soatcha o'ralashib qoldim. Klavileno esa bu vaqt ichida bir qadam ham siljimay joyida tek turaverdi.

<sup>1</sup> Cho'ponlarning afsonalarida ko'pincha yulduzlar osmonda farishtalar boqib yurgan echkilar yoki qo'ylar suruvi qilib ifoda etilardi.

– Oliyjanob Sancho uloqlar bilan ovora bo‘lib yurgan chog‘da sinor don Kixot nima bilan mashg‘ul bo‘ladi? – deb so‘radi gersoginya.

Bunga don Kixot shunday javob qildi:

– O‘zim haqimda gapiray, men ko‘zimdagi ro‘molchani balandga ko‘tarmadim ham, pastga tushurmadim ham, shu sababli na osmonni, na yerni, na dengizni ko‘rdim. To‘g‘ri, havo qatlamini yorib o‘tganimizni, hatto olovli yerga yaqinlashganimizni his qildim, biroq to‘xtaganimizni, Sanchoning Klavilenodan tushganini sezmadim. Shuning uchun ham u yo aldayapti yoki xayol suryapti.

– Aldayotganim ham yo‘q, xayol ham surmayotirman, – javob berdi Sancho, – ishonmasangiz, mendan o‘sha uloqlarning qanaqaligini so‘rab ko‘ring, keyin ishonasiz gaplarimning to‘g‘riligiga.

– Qani, ularning qanaqaligini tasvirlab bering-chi bizga, Sancho, – dedi gersoginya.

– Ulardan ikkitasi yashil tusli edi, – javob berdi Sancho, – ikkitasi qizil, ikkitasi zangori, bittasi ola-bula edi.

– Bu qanaqangi uloqlar bo‘ldi? – dedi gersog. – Yer yuzida bunaqangi rang-barang echkilar bo‘lmaydi-ku.

– Tushunarli, – javob berdi Sancho, – yer echkisi bilan osmonnikining farqi bo‘lishi kerak-ku, axir.

Shundan so‘ng bu sayohat haqida boshqa savol berishmadi unga, chunki Sancho bog‘dan bir qadam ham jilmasdanoq yetti qavat osmonni aylanib, u yerlarda bo‘layotgan hamma narsani aytib bera olishi ravshan edi. Shu bilan gersoglar oilasini mamnun qilgan hamda Sancho, basharti abadiy barhayotlikka erisha olsa, toabad oldi-qochdi gaplarni to‘qib chiqarishi mumkin bo‘lgan duenya Dolorida sarguzashti tugadi.

Don Kixot Sanchoning qulog‘iga engashib dedi:

– Sancho, agar sening ko‘kda ko‘rganlaringning hammasiga ishonishimizni istasang, unda mening Montesinos g‘ori haqidagi hikoyamga ham ishonishing lozim.

Senga aytmoqchi bo‘lgan gapim shu, xolos.

**DON KIXOTNING OROLNI BOSHQARISHGA JO'NAB  
KETISH OLDIDAN SANCHO PANSAGA QILGAN  
PAND-U NASIHATLARI**

Dolorida sarguzashti gersog va gersoginyaga shunchalik yoqib qolgan ediki, ular endi bu soddadil do'stlar ustidan yana bir necha qiziq hangomalar uyushtirishga ahd qilishdi. Shuning uchun ham Klavileno uchgan kunning ertasiga gersog Sanchoga gubernatorlik vazifasini bajarishga kirishish kerakligini, chunki orolliklar uning kelishini xuddi bahor yomg'iridek orziqib kutishayotganligini aytdi. Sancho ta'zim qilib, dedi:

– Osmondan turib yerning naqadar kichkina ekanligini ko'rganimdan beri gubernator bo'lish ishtiyoqi bir qadar so'ndi. Garmdori urug'idek yerga ega bo'lish-u, besh-olti nafar yong'oqdek-yong'oqdek odamlarga boshchilik qilishdek sharafiga muyassar bo'lish nima degan gap ekan. Agar janobi oliylari osmonning bir chekkasinigina, mayli, yarim mil bo'lsa ham, hadya etganlarida edi, olamdagi eng katta oroldan ko'ra o'shani bajonidil qabul qilgan bo'lardim.

– Do'stim Sancho, – javob berdi gersog, – men osmonning bir qarichini, hattoki tirnoqchasini ham hech kimga sovg'a qilolmayman, bunga yakka-yu yagona xudoning o'zigina qodir. Men sizga qo'limdan keladiganini hadya qilaman, eng yaxshi, dum-dumaloq va tep-tekis, serhosil, to'kin-sochin ajoyib bir orolni beraman. Agar ishlarni yaxshi o'rната olsangiz bormi, yerning noz-ne'mati bilan yetti qavat osmon-u falak ayshini sursangiz bo'ladi.

– Mayli, orol bo'lsa orol-da, – javob berdi Sancho. – Men gubernatorlikni shunday olib borayki, ruhim barcha muttahlarni dog'da qoldirib, to'ppa-to'g'ri arshi a'loga uchsini. Men ishga g'araz yoki kibr bilan, yoki qo'limdan kelmaydigan yuqori martabani egallash ishtiyoqi bilan kirishmoqchi emasman, aksincha, bu gubernatorlik mansabi qanaqaligini shunchaki bir ko'rib qo'ymoqchiman, xolos.

– Bu ishning mazasiga bir marta tushunib olsangiz, Sancho, – javob berdi gersog, – keyin mazaxo‘rakka o‘rganib qolasiz, chunki olamda buyruq qilishdan va hammaning amringizga itoat etishini ko‘rishdan huzurliroq ish yo‘q, axir. Imonim komilki, xo‘jayiningiz imperator bo‘lib olgach, darvoqe, bu kun uzoq emas, albatta, hech kim hokimiyatni uning qo‘lidan tortib ololmaydi va shuncha yildan beri imperatorlik qilma-ganligiga ich-ichidan achinadi.

– Sinor, – javob berdi Sancho, – men hatto qo‘ylar suru-viga bo‘lsa-da, buyruq qilish yoqimli ekanligini tushunib turibman.

– Ikkalamiz bir xil ekanmiz, Sancho, – dedi gersog. – Hamma narsaga aqlingiz yetadi, ishonamanki, orolni ham aql bilan mulohaza yuritganingizdek oqilona boshqarasiz. Bilib qo‘-ying, ertagayoq gubernatorlik qilishga jo‘naysiz, bugun esa sizga lozim bo‘lgan liboslarni berishadi.

– Qanday qilib kiyintirishsa ham mayli, – javob berdi Sancho. – Kiyimim qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, baribir, men Sancho Pansaligimcha qolaman.

– Mutlaqo to‘g‘ri, – dedi gersog. – Biroq odam o‘z man-sabi va mavqeiga qarab kiyinishi lozim. Axir, yuristga askarning kiyimi, askarga esa ruhoniy jubbasi munosib emas-ku. Siz Sancho, bir yo‘la ham olimona, ham harbiycha kiyinasiz, zeroki men sizga hadya qilgan orolni boshqarish uchun qancha bilim zarur bo‘lsa, shuncha harbiy san‘atni bilish zarur va aksincha.

– Bilimim yo‘qroq, – e‘tiroz bildirdi Sancho, – men hatto alifbeni ham bilmayman, biroq ko‘rasiz, hazrati oliylari, bu hol yaxshi gubernator bo‘lishimga xalal bermaydi. Harbiy san‘atga kelganda, agar menga qurol bersalar, xudoning irodasi bilan to yiqilib qolmagunimcha uni qo‘limdan qo‘ymayman.

– Bunday qat‘iy qaror bilan, ehtimol, hech qachon bironta ham xatoga yo‘l qo‘ymassiz, Sancho, – javob berdi gersog.

Shu payt don Kixot kirib keldi. U Sanchoning oxir-oqibat orolga gubernator qilib tayinlaganini bilgach, gersogning ruxsati bilan uning qo‘lidan ushlab pand-nasihatchiligi o‘z xonasiga boshladi. Xonaga kirgach, eshikni yopib, Sanchoni majbur qilib

yoniga o'tqazdirda, vazminlik bilan gap boshladi:

– Do'stim Sancho! Falakka ming-ming tashakkurki, mening baxtim kulib boqmasdanoq sening omading kelib qoldi. Men sodiqlik bilan qilgan xizmatning evaziga seni mukofotlash uchun taqdirning marhamatidan umidvor edim, mana men endigina yuksaklikka ko'tarila boshladim-u, sening esa fursati yetmayoq barcha aql-idrok qoi dalariga tamoman xilof ravishda orzularing ushalyapti. Boshqalar esa pora beradilar, yalinib yolvoradilar, jonga tegadilar, uyqularini harom qiladilar, o'jarlik qiladilar, lekin, baribir, hech narsaga erisholmaydilar, sen esa hech nima qilmay turib, shunday mansab va mavqega erishdingki, uning ishqibozlari hamma vaqt ham topiladi. Sen azonlab turmading, tunlarni ham bedor o'tkazmading, sira urinmading ham, shunga qaramay, jahongashta ritsarning ruhi qo'llab, hech narsadan hech narsa yo'q seni orolga hukmdor qilib tayinlashdi. Men buni shuning uchun aytayotirmanki, Sancho, bu marhamat qilgan mehnatlarim evaziga ko'rsatilyapti, deb o'ylama aslo. Yo'q, buning uchun sen, avvalo, ishimizni asta-sekin oldinga bostirgan tangriga, qolaversa, shunday katta kuchga va ulug'vorlikka ega bo'lgan jahongashta ritsar ordeniga hamd-u sanolar o'qi. Bu gaplarimga ishonmoqqa majbur et qalbingni, ey bo'tam, so'ngra diqqat bilan quloq sol: sen jo'nab ketadigan To'fonli dengizning osoyishta qo'ltig'iga yetib olishingda yo'lingni yoritib turuvchi yo'lchi yulduzing bo'lib qolishni istayman, chunki yuqori martabalar yo'ldan ozdiruvchi tubsiz bir girdobdir.

Avvalo, ey bo'tam, xudodan qo'rqishing kerak, chunki xudodan qo'rqsang, aql bilan ish yuritsang, xato qilmaysan.

Ikkinchidan, o'zligingni bilishga harakat qil, shunda sen mag'rurlanib ketmaysan, ho'kizga o'xshamoqchi bo'lgan qurbaqaga o'xshab shishib ketmaysan, ukpar dumlik va xunuk oyoqli tovusga o'xshab qolmaysan. Ilgarilari cho'chqa boqqanligingni unutma aslo.

– Bu to'g'ri, – javob berdi Sancho, – ammo u paytlarda men yosh bola edim, yigitcha bo'lib qolganimdan so'ng cho'chqa emas, g'oz boqqanman. Lekin, menimcha, buning ahamiyati bo'lmasa kerak, axir, hamma hukmdorlar ham qirollar avlodidan

emas-ku.

– Bu ham to‘g‘ri, – dedi don Kixot, – biroq past tabaqadan chiqqan odam o‘zining yuqori vazifasini ado etarkan, kamtar va muruvvatli bo‘lishi kerak. Bu esa uni hukmdorlar qochib qutulishi amrimahol bo‘lgan g‘arazli g‘iybat-u bo‘htonlardan saqlaydi. Sen oddiy dehqon oilasida tug‘ilganingni unutma. Buni bo‘yningga olishdan uyalma, agar sen bundan uyalmasang, boshqalar ham seni bu bilan uyaltirmaydi. Allaqanday takabbur zot emas, balki yuvosh taqvodor odam bo‘lishga harakat qil. Shuni unutmaki, qashshoq bo‘lib tug‘ilib, oliy hurmatga papa va imperatorlikka sazovor bo‘lganlar son-sanoqsiz. Men bunday misollarni keltiraversam, tinglayverib charchab qolishing mumkin.

Shu narsa yodingda bo‘lsinki, Sancho, sen bunday saxovat va muruvvat yo‘lidan borsang, o‘zingni hech qanday knyaz yoki qiroidan kam his qilmaysan, zero ki muruvvatlilik aslzodalik nasl-nasabidan yuqori turadi.

Mabodo sen gubernatorlik qilib turgan paytingda qavm-qarindoshingdan birontasi kelib qolsa, uni haydama, xafa qilma, aksincha, samimiy qabul qil. Xotiningni chaqirtirib olgach – hukmdor o‘z xotinini uzoq vaqt iztirob chektirib qo‘yishi kerak emas – unga tug‘ma qo‘polligini tashlashni, odobli bo‘lishni o‘rgat, ko‘pincha shunday ham bo‘ladiki, xotining ahmoqona xatti-harakati natijasida aqlli gubernatorning butun hurmati chip-pakka chiqadi, topgan-tayangani nest-nobud bo‘ladi. Uning hech qachon hukmdorlikka aralashishiga yo‘l qo‘yma. Bilib qo‘y, tag‘in u loyqa suvdagi baliqni ovlaydigan qarmoq bo‘lib yurmasin. Ochig‘ini aytayki, xotini arzgo‘ydan olgan ozginagina pora uchun ham eri dahshatli sud oldida javob beradi.

Hech mahal o‘zboshimchalik bilan ish tutma, o‘zini aqlli sanovchi nodonlargina shunday qiladilar.

Qashshoqlarning ko‘z yoshi ko‘nglingga rahm solsin, ammo bu shafqat badavlat kimsaning arz-u shikoyatiga o‘xshab adolat me‘yoridan oshib ketmasin.

Doim haqiqat yo‘lida bo‘l, buning uchun senga sovg‘alar ham, boylarning va‘dalari ham, kambag‘allarning yolvorish va duolari ham xalaqit berolmaydi.



Qayerdagi beg'arazlik mavjud bo'lsa, javobgarni qattiq jazolama, zeroki toshko'ngil sudyaning shon-sharafi hojatbaror sudyaning sharafidan ortiq emas.

Agar qonunni yengillashtirmoqchi bo'lsang, buni faqat senga va'da qilgan sovg'alar haqqi emas, balki gunohkorga rahm-shafqat yuzasidan qil.

Agar qachon bo'lmasin o'z dushmaningning da'vosini tekshiradigan bo'lsang, unga nisbatan bo'lgan dushmanligingni yodingdan chiqarib yubor, haqiqat qaysi tomondaligini o'yla faqat.

Boshqalarning ishini tekshirishda shaxsiy manfaatingni ko'zlama, yo'qsa hech qachon to'g'rilab bo'lmaydigan xatoga yo'l qo'yan. Agar huzuringga biror go'zal ayol adolat talab qilib kelib qolsa, uning ko'z yoshlariga va oh-vohlariga qaramay, qattiq turib uning talablariga quloq sol. Aks holda, butun fikri-zikring uning oh-vohi-yu ko'z yoshlari bilan band bo'lib qoladi.

Mabodo birovni jazolamoqchi bo'lsang, uni qattiq so'kma, chunki bu baxtiqaroning g'ami o'zi bir jazo.

Aybdorga gunohkor bandasining zaif tabiati yo'ldan ozdirgan bir baxtiqaro odam deb qara va shu sababli unga nisbatan rahm-shafqatli bo'l; yodingda tut: rahm-shafqatli bo'lish har qanday saxovatlilikdan ustun turadi.

Bu nasihatlarimning hammasi yuragingga tegishli. Endi tanangga tegishli bo'lgan bir qancha nasihat qilaman. Avvalo, doim toza yurishni maslahat qilaman, soch tarab, soqol-mo'ylovingni, tirnoqlaringni tez-tez olib tur, aks holda ular kalta-kesakxo'r qirg'iyning o'tkir tirnoqli panjalariga o'xshab ketadi. Hech qachon boshqalarning ko'ziga yirtiq va irkit kiyimda ko'rinma, chunki faqat dangasa va bebosh odamlargina shunday yurishadi, Sancho.

Agar yuksak martabang xizmatchilaringning uqali kiyim kiyishini taqozo etsa, u holda, bu libos juda ham hashamdor va yarqiragan bo'lmasin, ularni xizmatkorlarning hamda kambag'allarga bab-baravar bo'lib ber, olti mahramni kiyintirgandan ko'ra uch kambag'al bilan uch mahramni kiyintir, shundagina bu dunyoying ham, u dunyoying ham but bo'ladi.

Piyoz ham, sarimsoq ham yema, toki uning hididan kelib chiqishing dehqon ekanligini payqab qolishmasin.

Yurganda ohista qadam tashla, vazmin-xotirjam so'zla, lekin o'zingga o'zing gapirayotgandek ming'irlama, chunki har qanday balandparvozlilik – yaramas odat.

Tush paytida kamroq ovqat ye, kechqurun undan ham kamroq, chunki tanimizning salomatligi oshqozonga bog'liq.

Ichkilikni xurmachangga qarab ich, bilib qo'y, me'yoridan ortiq ichgan kishi sir saqlolmaydi, so'zining ustidan ham chiqolmaydi.

Sen, Sancho, gapirayotganingda ko'p maqol keltirishga odatlangansan, bundan qoch, garchi maqol aqllilik timsoli bo'lsa-da, sen ko'proq ularni noo'rin ishlatasan, shuning uchun ham aqlli gap emas, shunchaki bema'nilikka aylanib qoladi.

– Bu masalada menga birgina xudoning o'zi yordam berishi mumkin, – javob berdi Sancho, – chunki mening kallamda kitoblardagidan ham ko'proq maqol bor. Gap boshladimmi, tamom, hammasi birdaniga tilimga kelaveradi yopirilib. Shunda men tilimga kelib qolgan dastlabki maqolning o'rinli-o'rinsiz ekanligi bilan hisoblashmay turib, aytib yuboraveraman. Lekin bundan buyon mavqeimga mos tushadigan maqolni aytaman, chunki badavlat xonadonda suhbat qurmoq qiyin emas, qarta ulashilayotgan paytda chiylanmaydi, kimki bong ursa xatardan xoli turadi. Olish-berishning hisobini qilishga bosh ishlashi kerak.

– Juda to'g'ri, Sancho! – xitob qildi don Kixot. – Xo'p, mayli, maqollaringni munchoqdek ipga tizsang tizaver, hech kim qo'lingdan ushlayotgani yo'q: onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada, deganlar! Men senga maqol ishlatishdan qoch desam, sen esa birpasda uning bir qatorini tizib tashlading, yodingda tut, Sancho, men agar maqollar o'z o'rnida keltirilsa, aslo qarshi emas man, agarda ular o'rinsiz qalashtirib tashlanaversa, gapning tuzini ketkazib qo'yadi.

Davomini eshit, Sancho, otga minganingda oyog'ingni uzangiga tirab gavgangni orqaga tashlab, g'o'dayib o'tirma, xuddi eshakda ketayotganday bukchayib ham o'tirma. Bilib

qo'y, otga qanday minganingga qaraboq, kabaleromisan yoki otboqarmisan, darrov bilib olish mumkin.

Ko'p uxlama, kimki quyosh bilan baravar uyg'onmasa, kunning go'zalligidan bahramand bo'lolmaydi. Shuni ham unutmaki, Sancho, omad kaliti – harakat, ammo tanballik bilan orzuga erisholmaydi kishi.

Kiyiming uzun lozim, uzun kamzul va undan ham uzunroq plashdan iborat bo'lishi kerak, cholvorni xayolingga ham keltira ko'rma, zeroki u ritsarlarga ham, gubernatorlarga ham yarashmaydi.

Hozircha senga aytmoqchi bo'lgan gaplarim shu, Sancho. Agar bu nasihatlarimga amal qilsang, uzoq umrli, so'nmas shuhratli bo'lasan, baxting doim yor bo'ladi. Bolalaringni istaganingcha uyli-joyli qilasan, o'g'illaring va nevaralaring oliyhimmat aslzodalar hisoblanadi, sen esa atrofingdagi o'zingga xayrixoh kishilar bilan tinch-totuv yashaysan, uzoq umring tugagach, o'limni esa qarib-churib kutib olasan, chevaralaringning kichkina, nozik qo'llari ko'zlaringni yumib qo'yadi.

– Sinor, – dedi Sancho, – siz muhtaram janoblarning menga xolis niyat bilan yaxshi pand-u nasihat qilib, saxovatli, foydali ishlarni o'rgatayotganligingizni yaxshi tushunyapman, lekin hozirning o'zidayoq unutib qo'ysam, ular qanday qilib naf keltirishi mumkin menga? Albatta, tirmoqni o'stirib yubormaslik, ovqatlanish haqidagi maslahatlaringizni eslab qoldim, lekin qolgan mayda-chuydalarini esda saqlab qololmayman... Shuning uchun ham bu nasihatlarni mening qo'limga qog'ozga yozib bersangiz, yomon bo'lmas edi. Savodsiz bo'lsam ham, hechqisi yo'q, xatni ruhoniyimga berib, qo'yaman, u zarur bo'lgan chog'da sizning bu qoidalarigizni menga uqtirib turadi.

– O'ylab ko'r, Sancho! – deb qichqirib yuborayozdi don Kixot. – Axir, savoding bo'lmasa, qanday gubernatorsan o'zing. Men hech bo'lmaganda o'z ismingni yozishni o'rganib olishingni maslahat qilardim.

– Buni bilaman, – dedi Sancho, – qishlog'imizga oqsoqol ekanimda yuk toylariga yozib qo'yilgandaqa harflar chizishni o'rgatib, sening oting shunday yoziladi deyishgan. Lekin buning

unchalik ahamiyati yo'q: doim o'ng qo'lim og'riydi deb aytaman va men uchun boshqa kishi imzo chekishini buyuraman. Dunyoda o'limdan boshqa hamma narsani to'g'rilasa bo'ladi: qo'limda gubernatorlik tayoqchasi bo'lgach, hushimga kelganini qilaverman. Otang alkald<sup>1</sup> bo'lgandan keyin o'zingga o'zing xo'jayinsan, deb bekorga aytishmagan-ku... Men esa gubernator bo'laman-ku – bu alkaldlikdan baland martaba, axir! Mushugimni «pisht» deyishga kimning haddi sig'arkan. Kimki menga chuqur qazisa, o'zi qulaydi, xudoga xush kelgan kishi yuzaga chiqadi. Og'zi qiyshiq bo'lsa, ham boyning o'g'li gapirsin deyдилar, men ham boy bo'laman, axir, gubernatorlar hamisha boylilik orttiradilar. Demak, asalday shirin bo'lishim kerak emas, yo'qsa, meni pashshalar shimib qo'yadi: «borniki farmon bilan, yo'qnik i armon bilan» deyardi buvim, badavlat odam bilan esa hech kim teng bo'lolmaydi.

– Ming la'nat! – o'zini tutolmay qichqirib yubordi don Kixot. – E, o'sha maqollaring bilan qo'shmozor bo'lgur! Bir soatdan beri maqollaring bilan jig'imga tegasan. Shuni bilib qo'yki, bir kun emas bir kun bu maqollar seni dor ostiga olib boradi, qo'l ostingdagilar seni yo oroldan haydab yuborishadi yoki ular orasida qo'zg'olon ko'tariladi. Sen bu maqollarni qayoqdan topayotirsan, ey nodon? Kezi kelib qolganda biror maqol ishlatmoqchi bo'lsam, uni topguncha xuddi yer qaziyotgan kishidek terga botib ketaman.

– Xudo haqqi, sinor, – dedi Sancho, – marhamatli janobimning bekorga jahllari chiqyapti. Men o'z bisotimdagi maqollarni ishlatganimga namuncha o'zingizni qiynamasangiz? Axir, mening maqollardan bo'lak hech qanday davlatim yo'q-ku. Mana hozir ham xayolimga bir necha maqol kelib qoldi, xuddi o'z o'rmda tag'in, go'yo savatdagi noklardek terilib turibdi, lekin aytmayman, nega desangiz, vaqtida o'zimni tiyib tura olaman.

– O'taketgan mahmadonasan, Sancho, biroq hozir kallinga qanday maqol kelib qolganligini va o'rinli ekanini bilгим

---

<sup>1</sup> Alkald – bir yillik muddatga saylangan shahar hokimi yoki qishloq oqsoqoli; u shuningdek, sudyalik vazifasini ham bajarib kelgan.

kelyapti. Men esa xotiramni har qancha jamlamay, xotiram esa yomon emas, lekin birortasini topolmayman.

— Manavi maqollardan yaxshisini topolmaysiz, — dedi Sancho, — barmog'ingni aql tishi ostiga suqma; yurgan yo'lingdan qolma, suymaganga suykalma deyishsa, bir og'iz so'z qaytarma; xurmachani toshga urasanmi, toshni xurmachaga — baribir. Ayni holga monand maqol bundan ortiq bo'lmaydi. Bu maqollarning mazmuni shunday: gubernator yoki boshqa biror amaldor bilan bahslashish — barmoqni oziq tishlar orasiga qo'yishdir. Axir, bunda joning og'riydi-ku. To'rt tomoning qibla, yo'lingdan qolma deganda jimgina ketgandek, gubernatorga hech vaqt e'tiroz bildirma. Xurmacha va tosh xususidagi maqol ikki o'n besh — bir o'ttiz — baribir degan gap, bu har qanaqa odamga ayon. Xullas, o'zgada nuqson ko'rsang, o'zingni benuqson dema, aks holda, darchaning eshikdan kulishi bo'ladi, siz marhamatli janoblariga ma'lumki, ahmoq o'z uyida begonalarnikida turuvchi donodan ko'ra ko'proq narsani tushunadi.

— To'g'ri emas, Sancho, — e'tiroz bildirdi don Kixot. — Ahmoq o'z uyida ham, begona yerda ham hech narsaga shuning uchun ham tushunmaydiki, ahmoqlik asosida aqllilik binosini qurib bo'lmaydi. Bu haqdagi gapimiz yetar. Sancho, mabodo sen yomon hukmdor bo'lsang, o'zing aybdor bo'lasan, uyati esa menga tegadi. Biroq senga qilishim kerak bo'lgan pand-nasihatni berib, o'z burchimni bajardim. Men va'damning ustidan chiqdim va shu bilan zimnamdagi vazifa tugadi. Xudo yor bo'lsin, Sancho, u sening mushkul ishingda madad bergay. Ishqilib, tezroq ko'nglimdagi xavotirlik ko'tarilsin. Gubernatorlikdan qulamagin tag'in, deb qo'rqaman. Biroq sening semizliging va sipo vajo-hatingga qaramay, maqol va yolg'on-yashiq to'la bo'sh qop ekanligingni gersogga ochiq aytib, seni bu baxtsizlikdan qutqarib qolishim ham mumkin.

— Nima ham derdim, sinor, — e'tiroz bildirdi Sancho, — marhamatli janoblari meni gubernatorlikka munosib emas, deb hisoblasalar, u holda men bu mansabni qabul qilmayman. Nonni piyoz bilan qo'shib chaynovchi oddiy dehqon bo'lib qolaverganimda ham mazza qilib axta xo'roz va kaklikni yeydigan har

qanday gubernatordan yomon yashamayman. Bundan tashqari, uyquga ketganimizda hammamiz ham: aslzodalar ham, fuqaro ham, boylar ham, kambag'allar ham tengmiz. Faqat bir narsani aytib o'tmoqchiman, agar siz, sinorim, yaxshilab o'ylab ko'rsangiz, gubernatorlikka o'zingiz da'vat etganingizni eslaysiz. Axir, men gubernatorlik va orollar haqidagi gapning ma'nosini yovvoyi qirg'iychalik ham fabmlamayman-ku. Mabodo gubernatorlik uchun shayton meni do'zaxga ro'para qiladi deb qo'rqsangiz, unda Sancholigimcha qolib, jannatga tushganim tuzuk. Jonimning tirnoq uchichalik bo'lagi men uchun butun tanamdan qimmat turadi.

– Ochig'ini aytsam, Sancho, – dedi don Kixot, – hozirgi gaplaringga qaraganda, minglab orollarni boshqarishga loyiqsan. Ajoyib yuraging bor, usiz har qanday bilim ham – uch pul. O'zingni xudoning marhamatiga topshir va har doim ko'nglingga kelganini qil. Endi tushlik qilgani boramiz, menimcha, xo'jayinlar bizni kutishayotgan bo'lishsa kerak.

## *ELLIGINCHI BOB*

### **SANCHONING O'Z OROLIGA QANDAY BORGANI VA UNI BOSHQARISHGA KIRISHGANI**

Tushki ovqatdan so'ng don Kixot Sanchoning iltimosiga ko'ra barcha pand-nasihatlarni qog'ozga tushirib, yangi gubernatorga topshirdi. Biroq Sancho shu zahotiyoyq uni yo'qotib qo'ydi, xizmatkorlardan kimdir uni topib olib gersogga topshirdi. Gersog gersoginyaga don Kixotning bu fikrlarini o'qib berdi, ikkovlari ham ritsarning aql-zakovati hamda tentakligidan hayratda qolishdi. Ular shu zamonog o'zlarining alomat rejalarini amalga oshirishga ahd qilib, Sancho uchun orol vazifasini o'taydigan bir qishloqqa mulozimlar kuzatuvida dabdaba bilan jo'natish taraddudiga tushishdi. Gersog Sanchoga aqlli va chaqqon, Trifaldi rolini boplab o'ynagan eshik og'asini qo'shib qo'ydi. Uning bu ishni a'lo darajada bajarishiga shubha qilmasa ham

bo'lardi. Biroq Sancho eshik og'asiga ko'zi tushishi bilan uning Trifaldiga juda o'xshashini payqab qoldi. U don Kixotga murojaat qilib, dedi:

– Sinor, mana bu eshik og'asining ko'rinishi quyib qo'y-ganday Doloridaga o'xshamasa, shu yerdan o'ligim chiqsin.

Don Kixot eshik og'asiga tikilarkan, Sancho ga dedi:

– O'lishingning hech hojati yo'q, do'stim Sancho. Haqiqatan ham, eshik og'asi duenya Doloridaga o'xshaydi. Lekin bu eshik og'asi chindan ham Doloridaning o'zi degan gap emas. Yaxshisi, bunday taxmini xayolingga ham keltirmaganing ma'qul. O'zing bir o'ylab ko'rgin-a, mabodo shunday bo'lsa, boshimizga qanday malomatlar tushishi mumkin. Ikkovimiz ham xudoga iltijo qilib, bu yovuz jodugar va sehrgarlardan xalos etishni so'ramog'imiz lozim edi.

Bunga Sancho shunday javob qildi:

– Men hozirgina u bilan gaplashgan edim, qulog'imga xuddi Trifaldining ovozi chalinganday bo'ldi. Ha, mayli, indamay qo'ya qolaman, lekin, har qalay, ehtiyotdan har narsadan ko'z-quloq bo'lib turaman.

Ehtimol, shubhalarim tasdiqlanar, balki, yo'qolar.

– Xuddi shunday qil, Sancho, – dedi don Kixot, – illo, bor gapni menga xabar qil, shuningdek, barcha gubernatorlik ish-laring haqida ham yozib tur.

Nihoyat, Sancho bir talay mulozimlar qurshovida yo'lga chiqdi: egnida olimlar kamzuli, uning ustidan esa oltin uqali sarg'imtir movut plash kiyib olgan edi. Boshida ham xuddi shu matodan qalpoq. U xachirga minib olgan, ketidan esa gersogning buyrug'iga binoan ustiga shoyi yopqich tashlanib, turli taqin-choqlar bilan bezatilgan eshagi borardi. Sancho dam-badam orqasiga o'girilib kulrangiga qarab-qarab qo'yardi: sodiq do'sti-ning yonida bo'lishi gubernatorimizga shunday huzur baxsh etardiki, u bu huzur-halovatni hatto Germaniya imperatorligiga ham alishmasdi. U gersog va gersoginyaning qo'llarini o'pib xayrlashib bo'lgach, don Kixotdan oq yo'l tilashni iltimos qildi. Don Kixot ko'ziga yosh olib, uning iltimosini ado etdi, Sancho esa uning oq fotihasini olarkan, piqillab yig'lab yubordi.

Gersog Sanchoga boshqarishni topshirgan qishloq gersog qasridan unchalik olisda emas edi, shuning uchun ham gubernator o'z mulozimlari bilan bu yerga tezda va hech qanday sarguzashtsiz yetib keldi. Qishloq darvozasi oldida ularni yerlik ma'murlar kutib olishdi. Shu zamonog qo'ng'iroqlar chalindi, yig'ilgan aholi yangi gubernatorni shod-xurramlik bilan qutladi va shukronalar o'qigani uni zo'r tantana bilan bosh ibodatxonaga boshlab ketdilar. Turli kulgili tantanalardan so'ng Sanchoga shaharning kalitini topshirib, uni Baratariya orolining abadiy gubernatori deb e'lon qildilar. Yangi gubernatorning libosi, soqoli va katta qorni yangi gubernator tayinlashning siridan voqif bo'lmaganlarning hammasini hayratga soldi. Ibodatxonadan Sanchoni sud zaliga olib kirib, kresloga o'tqazishdi, gersogning eshik og'asi gap boshladi:

– Sinor gubernator, bizning orolimizda qadimiy bir udum bor: kimki bu ajoyib orolga hukmdor bo'lib kelsa, o'ziga beriladigan murakkab va chalkash savollarga javob qaytarishi kerak. Uning javoblari orol aholisiga yangi gubernatorning qanchalik dono ekanini ko'rsatishi lozim, chunki fuqaro uning gubernator qilib tayinlanganidan quvonishi yoxud qayg'urishi kerak.

Eshik og'asi so'zlayotganda, Sancho ro'parasidagi devorga katta harflar bilan yozilgan yozuvga ko'z tashladi. U savodsiz bo'lganligi uchun nima deb yozilganini so'radi.

– Sinor, u yerga shunday deb yozilgan: «Bugun falon yil, falon oyning falon kunidan boshlab don Sancho Pansa orolga hukmronlik qila boshladi. Iloyo, ko'p yillar hukmronlik qilsin!» – deb javob berishdi.

– Don Sancho Pansa kim o'zi? – deb so'radi Sancho.

– Siz, janobi oliylari, – dedi eshik og'asi, – axir, orolga yakka-yu yagona Sancho qadam ranjida qilgan, xolos, mana, u ko'z oldimizda kresloda o'tiribdi.

– Shuni yaxshi bilib qo'yingki, birodar, – e'tir oz bildirdi Sancho, – men ham, mening avlod-ajdodlarimdan biror kimsa hech qachon don bo'lmagan. Meni oddiygina Sancho Pansa dey-dilar, otamning ham ismi Sancho, buvamning ham ismi Sancho bo'lgan, xullas, hammalari hech qanday don-ponsiz Pansa deb



atalganlar. Orolingizda donlar chaqirtoshdan ham ko'pmi deymen. Bu haqdagi gap tamom; xudoyimning o'zi meni tushunib turibdi, agar men bu yerda bir necha kun bo'lsa-da gubernatorlik qila olsam, bunday donlarning hammasini yo'qotaman. Ular bu yerda g'ujg'on o'ynab yotgan chivindek hammangizning joningizga tekkan bo'lsa kerak. Qani, unda, sinor eshik og'asi, savollaringizni bering, men fuqaromni xursand qilamanmi, achintiramanmi, aqlim yetganicha javob beraman.

Shu payt sud zaliga ikki kishi kirib keldi, ulardan biri dehqon, ikkinchisi tikuvchi kiyimida bo'lib, uning qo'lida kattakon qaychisi ham bor edi. Tikuvchi shunday dedi:

– Sinor gubernator, biz manavi dehqon bilan birga marhamatli janoblari huzuriga bir ish yuzasidan kelgan edik: bu saxovatli kimsa kecha do'konimga kirib, bir parcha movutni uzatib: «Mana bu movutdan menga qalpoq chiqarmikin?» deb so'radi. Men mo'ljallab ko'rib, chiqadi, dedim. Shunda bu kishi movutimdan bir parchasini o'g'irlab qolmoqchiga o'xshaydi, deb shubhalanib: «Ehtimol, ikkitaga yetar?» dedi. Shunda uning nimani o'ylayotganini fahmlab, yetadi, dedim. U esa battar shubhalanib, qalpoq yoniga qo'shaverdi, men hammasiga rozi bo'lavdim. Nihoyat, u bilan besh qalpoqqa kelishdik. Bir necha kundan keyin u qalpoqni olib ketgani keldi. Qalpoqlar tayyor bo'lgan edi, lekin u haq to'lash u yoqda tursin, hatto matoni qaytarib berishimni yoki pulini to'lashimni talab qildi.

– U to'g'ri gapiryaptimi, birodar? – deb so'radi Sancho.

– Ha, sinor, – javob berdi dehqon, – lekin u menga tikib qo'ygan qalpoqlarni ko'rsatishni buyuring, muhtaram janob.

– Bajonidil, – dedi tikuvchi va har bir barmog'ida bittadan qalpoq bo'lgan qo'lini plash cho'ntagidan chiqarib davom etdi: – Mana, bu saxovatli kishi menga buyurgan beshta qalpoqcha. Xudo haqqi va vijdonan aytamanki, menda bir parcha ham movut qolmadi, men o'z ishimni sex vakillariga ham ko'rsatishga tayyorman.

Tikuvchining bu alomat gaplaridan hamma xaxolab kulib yubordi. Sancho bir daqiqa o'ylab turib, dedi:

– Mening hukmim shunday: tikuvchi o'z ishi uchun haq

olmaydi, dehqon esa – buzib qo‘yilgan movutining pulini, qalpoqchalar qamoqdagilarga beriladi, vassalom, ish tamom.

Bu yerda hozir bo‘lganlar kulib yuborishdi, biroq gubernatorning qarorini to‘g‘ri deb tan olib, shu ondayoq uni bajarishga kirishdilar.

Shu payt zalga ikki chol kirib keldi. Ulardan biri yo‘g‘on hassasiga tayanib, viqor bilan qadam tashlardi. Ikkinchisi esa astagina uning ketidan kelardi. Ularning ikkinchisi Sanchoga ta‘zim qilib, gap boshladi:

– Sinor gubernator, men mana bu kishiga so‘ragan zamonim qaytarib berish sharti bilan o‘nta oltin eskudo qarz bergan edim. Bunga ko‘p vaqt bo‘ldi, men ham so‘ramadim, chunki u mendan qarz olgan paytda qiyin ahvolda bo‘lsa, qarzimni to‘lagach, besh battar mushkullikka tushib qolishini tushunardim. Nihoyat, nazarimda, u qarzini butunlay unutib yuborganga o‘xshab qoldi: shunday keyin men unga buni eslatib qo‘ymoqchi bo‘ldim, u esa qarzini berish u yoqda tursin, sendan hech qachon pul olmaganman, olgan bo‘lsam ham allaqachon to‘laganman, deb turib oldi. Men marhamatli janoblaridan iltimos qilardimki, bu odamga qasam ichdirsangiz, agar qarzimni to‘laganman deb qasam ichsa, shu yerdayoq xudo shohidligida haqimdan kechishga tayyorman.

– Bunga nima deysiz, ey hassali chol? – so‘radi Sancho. Chol shunday javob qildi:

– Sinor, undan pul olganligimni tan olaman. Lekin rostini aytayki, qarzimni allaqachonoq to‘la-to‘kis to‘laganman. Da‘vogarning aytishicha, u qasamimga ishonar emish, mayli, marhamatingiz bilan asongizni o‘pib qasam ichishga tayyorman.

Gubernator asosini tutdi. Shunda chol o‘z hassasini qasam ichib bo‘lguncha ushlab turishni iltimos qilib da‘vogarga berdi va qo‘lini asoning xochiga qo‘yib, haqiqatan ham, o‘n eskudo qarz olganligini, lekin o‘z qo‘li bilan qo‘liga berganini, lekin qarz beruvchi faromushxotirligi sababli undan qarzini bir necha bor so‘raganini aytdi.

– Xo‘sh, endi nima deysan? – deb so‘radi gubernator da‘vogardan.

U esa o'z qarzdorini halol va saxovatli nasroniy deb hisoblashini bildirdi. Ehtimol, o'sha o'n eskudoni qachon qaytarib berganini rostdan ham unutmagan. Lekin, har holda, buni endi hech qachon talab qilmaydi.

Qarzdor hassasini oldi-da, ta'zim qilib, suddan chiqib ketdi. Boyadan beri cholni ziyraklik bilan kuzatib turgan Sancho esa boshini egib, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'ini burniga qo'yganicha biroq o'ylanib turdi-da, keyin hassali cholni qaytarishni buyurdi.

Uni qaytarib olib kirishganda Sancho unga qarab turib dedi:

- Qani, saxovatli qariya, hassangizni bering-chi menga!
- Jonim bilan, - dedi chol, - mana, sinor.

U hassasini berdi. Sancho hassani olib, ikkinchi cholga tutqazarkan, shunday dedi:

- Mana, haqqingiz ham to'landi. Ketavering endi.

- Nima uchun, sinor! - xitob qildi chol. - Axir, shuni o'n oltin eskudoga oladimi?

- Oladi, - javob berdi gubernator, - yoki Xudo haqqi qasam ichaman, dunyodagi eng ahmoq odamman. Butun boshli qirollikni eplay olamanmi-yo'qmi, hozir ko'rasiz.

U hassani sindirishni buyurdi. Hassani sindirishgan edi, ichidan oltin tangalar tushdi. Hamma gubernatorning xuddi podsho Solomondek donoligiga qoyil qoldi va Sanchodan o'n eskudo shu hassaga yashirib qo'yilganini qanday bilib olganini so'rashdi. Sancho bunga cholning qasamyod qilayotib o'z raqibiga hassasini tutqazganini va qarzini to'la hamda aldovsiz to'laganligini aytdi, dedi. Qasam ichib bo'lgandan keyin esa yana hassasini qaytarib oldi. Buni payqagan Sancho janjalga sabab bo'lgan o'n eskudoning hassaga yashirilganini tushungan edi.

- Bundan xulosa shuki, - qo'shimcha qildi Sancho, - gubernator eng kallavaram odam bo'lsa-da, agar u vijdonli va adolatli bo'lsa, xudoning o'zi haqiqatni topishga madad beradi. Darvoqe, qish log'imiz ruhoniysi shunga o'xshagan bir voqea haqida gapirib bergan edi, mening xotiram esa juda yaxshi. Agar xotiramda saqlash kerak bo'lgan narsani ko'pincha unutib qo'y-

maganimda edi, ehtimol, bunday xotira bu orolni boshdan oyoq izlab chiqqanda ham topilmasdi.

Shunday qilib, chollar, biri ta'bi tirriq, ikkinchisi esa mamnun bo'lib chiqib ketishdi. Yig'ilganlarning hammasi hamon hayratda edi, Sanchoning faoliyati, xatti-harakati va nutqlarini yozib borish vazifasi topshirilgan kotib esa yangi gubernatorni ahmoq deb yozishni ham, aqlli deb yozishni ham bilmasdi.

Sud tugagach, gubernatorni hashamatli saroyga olib kirishdi. Bu yerdagi katta zalda Sancho qirollarga yasatiladigandek tuzalgan dasturxonga ko'zi tushdi. Nafis guldor dasturxonda turli xil taomlar, vazalarda esa turli xil ho'l mevalar va gullar bor edi. Sancho hozir bo'lishi bilan musiqa sadolari yangradi, to'rt mahram qo'l yuvishga suv tutdi, u ulug'vorlik bilan qo'llarini yuvdi. Musiqa sadolari tingach, Sancho to'rga o'tib o'tirdi, uning yoniga qo'lida kit mo'ylovidan yasalgan tayoqcha ushlagan qandaydir bir kishi kelib turdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, u doktor ekan. Dasturxon usti ochilgach, ko'rinishidan ruhoniyya o'xshagan bir kishi taom uchun duo o'qidi. Mahramlardan biri Sanchoning ko'kragiga guldor ro'molcha tutdi, boshqasi esa bir tovoq ho'l meva keltirib qo'ydi<sup>1</sup>. Biroq Sancho bitta ham tatib ko'rmasdan turib, doktor tayoqchasini tovoqqa tekkizgan edi, shu zamonq uni olib chiqib ketishdi, uning o'rniga boshqasini keltirib qo'yishdi. Sancho undan tatib ko'rmoqchi bo'lib, qo'l uzatishi bilanoq boyagi tayoqcha yana tovoqqa kelib tegdi, mahram mevani qanday epcillik bilan olib chiqib ketgan bo'lsa, uni ham shunday olib ketdi. Buni ko'rgan Sancho dovdirab, atrofda-gilarga bir-bir ko'z yugurtirib, nahotki bu ovqatni ko'zboylog'ichlik tomoshalariday qilib yeyilsa, – deb so'radi.

Bunga tayoqchali kishi shunday javob qildi:

– Yo'q, sinor gubernator, bu orolda boshqa gubernatorlar boshqarayotgan orollarda qanday ovqatlanilsa, xuddi shunday ovqatlaniladi. Men doktorman, sinorim, katta maosh badaliga

---

<sup>1</sup>Dastlabki taom – meva. Servantes davrida yaxshi shifokorlar ovqatlanishni mevalardan boshlashni maslahat berganlar.

gubernatorga shaxsiy xizmat qilish uchun tayinlanganman. Uning sog'ligiga o'zimga ham yaxshiroq g'am-xo'rlik qilaman. Men gubernatorning tobi qochib qolgan taqdirda davolash uchun uning butun a'zoyi badanini tun-u kun uxlamay o'rganaman, ammo asosiy vazifam tushlik va kechki ovqat paytida hozir bo'lib, o'z tushunishimcha, gubernatorga yoqadigan ovqatni berishga ruxsat etish va, meningcha, uning oshqozonini buzadigan taomlarni dasturxondan yo'qotishdir. Mana shuning uchun ham ho'l mevalarni olib ketishlarini buyurdim, chunki ularda suv ko'p, keyingisi bo'lsa, haddan tashqari achchiq va ziravorlangan edi, bu esa hammaga ayonki, kishini chinqatadi. Ko'p suyuqlik ichish esa hayot quvvatimizni qirqadi.

– Unday bo'lsa, manavi qovurma kakliklar-chi, ko'rinishdan juda mazaliga o'xshaydi, ehtimol, menga zarar qilmas.

Bunga doktor shunday javob qaytardi:

– Toki men hayot ekanman, sinor gubernator bu taomga qo'l tekkiza olmaydilar.

– Nega, axir? – so'radi Sancho.

– Chunki, tibbiyot olamining yulduzi va mash'ali, ustod Gippokrat<sup>1</sup> yeyiladigan hamma narsa ham, ayniqsa, kaklik yeyish zararli degan.

– Unda, sinor doktor, – dedi Sancho, – tayoqchangiz bilan stoldagi tovoqni tiqillatgandan ko'ra, marhamat qilib menga ko'proq foyda, ozginagina zarar keltiradigan ovqatlardan birini tanlasangiz-da, uni yeyishga ruxsat bersangiz, chunki, gubernator hayoti haqqi, qasamyod qilamanki, – xudoning o'zi uzaytirsin umrimni, – ochdan o'lay deyapman. Nima desangiz deng, qanchalik jahlingiz chiqsa chiqsin, sinor, oldimdan ovqatimni olib qo'yib, umrimni uzaytirish u yoqda tursin, aksincha, qisqartiryapsiz.

– Marhamatli sinor gubernator mutlaqo to'g'ri aytadilar,

---

<sup>1</sup> **Gippokrat** (miloddan avvalgi 460 – 364) – qadimgi zamonning buyuk shifokori, uni «tibbiyotning otasi» deb atashgan. Uyg'onish davrida ham Gippokratning obro'si nihoyatda baland bo'lgan va doktorlar undan dalil keltirishni yaxshi ko'rishardi. Bu o'rinda doktor Sanchoni shunchaki ahmoq qiladi: Gippokrat hech qachon kaklik haqida gapirmagan.

– dedi doktor, – shuning uchun ham quyvon go'shti solingan manavi qovurdoqdan yemasliklari kerak, marhamatli janoblari, negaki bu taom badhazmdir. Mana bu buzoq go'shtidan esa agar qovurib va dimlab pishirilmaganda, yesangiz bo'lardi, biroq bu turisida yemaganingiz ma'qul.

– Mana bu katta tovoqdagi bug'i chiqib turgan taom go'sht va quyruq solingan dimlamaga o'xshaydi-ya, chamamda, unga odatda turli narsalar qo'shiladi. Ehtimol, undan dilimga yoqadigan va foydali biror narsa chiqib qolar.

– Xudo saqlasin! – xitob qildi doktor. – Bunday xavfli fikrdan qoching, dunyodagi hech qaysi taom ham mevali dimlamachalik sog'liqqa zarar qilmaydi. U ruhoniylarga, o'quv yurtlarining rektoriga<sup>1</sup>, dehqonlarning to'ylariga munosib, gubernatorning dasturxoniga esa to'g'ri kelmaydi. Gubernator yumshoqina, tez hazm bo'ladigan taomlar bilan ovqatlanishi kerak. Yo'q, sinor gubernator o'z sog'ligini saqlamoqchi va yanada mustahkamlamoqni istasalar, men xamiri yupqa qilib kesilgan qayla bilan bir necha tishlam behi yeyishlarini maslahat berardim – bu ovqatlar oshqozonlarini baquvvat qiladi va yengil hazm bo'ladi.

Buni eshitib Sancho kreslo suyanchig'iga suyanib, doktorga diqqat bilan tikilib turdi-da, jiddiy tovush bilan uning otini va qayerda o'qiganini so'radi.

Doktor javob berdi:

– Sinor gubernator, ismi-sharifim doktor Pedro Resio de Mal-Aguero, Almodavar del Kampodagi Karakuela yo'lining o'ng tomonidagi Tirteafuera<sup>2</sup> degan yerda tug'ilganman, tibbiy unvonni Osuna universitetida olganman.

Jon-poni chiqib ketgan Sancho qichqirib yubordi:

– Yo'qsa, gap bunday, Tirteafuerada tug'ilib, Osuna universitetida doktorlik unvonini olgan doktor Pedro Resio de Mal-Aguero, tezroq bu yerdan jo'nab qoling! Yo'qsa, quyosh haqqi, qo'limga so'yil olib, sizdan boshlab, oroldagi barcha

<sup>1</sup> Rektor (*lotincha*: restor – boshqaruvchi; rahbar) – universitetlar va boshqa ayrim oliy o'quv yurtlarining rahbari.

<sup>2</sup> Tirteafuera (*ispancha*) – narigi dunyoga jo'na, yer yutsin degani.

doktorlarni quvib chiqaraman. Men ko'zimga johil bo'lib ko'ri- nadiganlar haqida gapiryapman. Aqlli, tajribali va bilimdon dok- torlarni ko'z qorachig'idek asrayman hamda eng ulug' valine'- matlardek izzat qilaman. Qani, jo'nab qoling-chi bu yerdan, Pedro Resio, yo'qsa manavi o'tirgan kreslom bilan boshingizni yoraman. Agar meni javobgarlikka tortgudek bo'lsalar, o'z ham- shaharlarining jallodi bo'lgan bema'ni bir doktorni o'ldirib, xudoga ma'qul tushadigan ish qildim deb aytaman. Qani, endi yeyishga ovqat bering yoki uning qornini to'yg'iza olmaydigan va ikki dona loviyaga ham arzimaydigan gubernatorlik mansa- bini olib tashlang!

Gubernatorning jahli chiqib ketganini ko'rib xijolat chek- kan doktor endi juftakni rostlab qolmoqchi bo'lib turgan ediki, birdan ko'chadan chopar burg'usining sadosi eshilib qoldi. Eshik og'asi derazadan tashqariga qaradi-da, Sancho yoniga kel- lib shunday dedi:

– Sinor gersog huzuridan chopar keldi, biror muhim topshiriq bilan kelgan bo'lsa kerak.

Terga botgan chopar hansirab kirib keldi-da, qo'ynidan xat olib, gubernatorga topshirdi. Sancho uni eshik og'asiga tutqazib, kimga yuborilganini o'qishni buyurdi. Xatning ustiga shunday deb yozilgan edi:

«Baratariya orolining gubernatori don Sancho Pansaning o'z qo'liga yoki kotibiga tegsin». Buni eshitgan Sancho:

– Kim bu yerda mening kotibim? – deb so'radi. To'p- langanlardan biri javob berdi:

– Men, sinor, chunki o'qish va yozishni bilaman.

– U holda, – dedi Sancho, – siz hatto imperatorning ham kotibi bo'lishingiz mumkin. Xatni ochib, unda yozilganlarni o'qib chiqing.

Yangi tayinlangan kotib topshiriqni bajardi, xatni o'qib, mutlaqo maxfiy ekanligini aytdi.

Shunda Sancho bakovul<sup>1</sup> bilan eshik og'asinigina o'z hu-

<sup>1</sup> Bakovul – podshoh, xon va lashkariarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'ruvchi mansabdor; bosh oshpaz (XV asr va undan keyingi davr), oshpaz, dasturxonchi.

zurida olib qolib, boshqalarga chiqib ketishni buyurdi. Hamma, shu jumladan, doktor chiqib ketgach, kotib gersogning xatini o'qib berdi:

Sinor don Sancho Pansa, menga shu narsa ma'lum bo'ldiki, mening va sizning dushmanlarimiz yaqin kechalardan birida orolimizga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rayotgan emish. Sizni g'aflatda qoldirmasliklari uchun ularni kutib ogoh bo'lib turing. Bundan tashqari, ishonchli ayg'oqchilar orqali shuni ham bilib oldimki, qiyofasini o'zgartirgan to'rt chog'li niyati buzuq jinoyatchi joningizga qasd qilib, orolingizga kirib olgan. Zeroki sizning aql-zakovatingiz ularning ko'ngliga g'ulg'ula solib qo'yan. Hushyor bo'ling, zaharlab qo'yimasliklari uchun bergan taomlarini aslo yeya ko'rmang. Basharti biror xavf-xatar tahdid qilgudek bo'lib qolsa, tezda yordamga yetib boraman.

Ushbu xat avgustning o'n oltinchi kuni, ertalab soat to'rt-da qasrimizdan jo'natildi.

Do'stingiz Gersog.

Sancho hayratga tushib qoldi, boshqalar ham o'zlarini hayron bo'lganga o'xshab ko'rsatishga urinishdi. Sancho biroz sukut saqlab turgach, bakovulga dedi:

– Menimcha, bu yerdagi eng xavfli odam doktor Resio; u meni eng og'ir halokatga – ochlikdan o'lishga mahkum etmoqchi.

– Lekin, har holda, – dedi eshik og'asi, – marhamatli janoblari, dasturxonga qo'yilgan taomlarga qo'l urmasliklarini maslahat berardim, nega deganingizda, bularni rohibalar tayyorlagan, ularga ishonib bo'lmaydi.

– Siz bilan adi-badi aytishib o'tirmayman, – dedi Sancho, – hech bo'lmaganda, menga bir burda non bilan to'rt funt uzum beringlar. Bundan zaharlanaman deb cho'chimasa ham bo'ladi, to'g'risini aytsam, aslo chidab turolmayman. Buning ustiga, himoyaga tayyorlanishimiz kerak, buning uchun esa yaxshilab to'yib olish lozim, axir, qorin dovyuraklikka emas, dovyuraklik qorinning to'qligiga bog'liq-ku. Siz esa, kotib, sinor gersogga, topshiriqlaringizning hammasi to'la-to'kis bajariladi, deb javob yozing hamda sinora gersoginyaga qo'llarini g'oyibdan o'paja-



gimni, bir yo'la janobim sinor don Kixotning ham qo'lini o'pib qolishimni ham yozib qo'ya qoling, tag'in u meni nonko'r ekan deb yurmasin. Qolganini esa mohir kotiblardek boplaysiz. Xayolingizga kelgan hamma o'rinli gaplarni qo'shib qo'yaverasiz. Endi, qani, stoldagi narsalarni yig'ishtirib, yegani bir nima beringlar, mabodo qandaydir ayg'oqchi, qotil yoki sehrgarlar menga yoxud orolinga hujum qilgudek bo'lsalar, bemalol daf qila olaman ularni.

Shu payt zalda yana doktor Pedro Resio hozir bo'ldi, u Sanchoning g'azabidan qo'rqib, tibbiy qoidalarini buzib bo'lsada, kechqurun ovqatlanishga ruxsat berajagini aytdi. Gubernator bu gapdan qanoatlanib, kechqurungi ovqat soatini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Nihoyat, kutilgan vaqt ham yetib keldi: kechki ovqatga piyozli dimlama mol go'shti va qaynatilgan buzoq go'shti qo'ydilar, bu jonivor ham rosa eskirib qotib ketgan ekan. Sancho ularni xuddi Milan makiyoni, Rim qirg'ovuli, Sorrento buzog'i, Moron tustovug'i yoki Lavax g'ozi go'shtidek zo'r ishtaha bilan yeya boshladi. Ovqat o'rtasida doktorga murojaat qilib dedi:

– Eshitib qo'ying, sinor doktor, bundan keyin meni bunaqangi ajoyib noz-ne'matlar va lazmatli taomlar bilan mehmon qila ko'rmang, bu bilan oshqozonimni buzasiz, baraka topkur. Men echki, mol go'shti, dumba, sur go'sht, sholg'om, piyoz bilan ovqatlanishga odatlanganman. Agar meni nuqul saroy ovqatlari bilan boqadigan bo'lsangiz, u holda oshqozonim yaxshi qabul qilmaydi, ozor chekadi. Yaxshisi har kuni menga go'sht-u har xil ko'kat hamda sabzavotlar solingan dimlama tayyorlashgani tuzuk, unga qanchalik ko'proq noz-ne'mat solinsa, shunchalik mazali bo'ladi, lekin meni mayna qilgani hech kimga yo'l qo'ymayman. Shunday qilib, keling, do'stona yashab, do'stona ovqatlanaylik. Axir, xudoning tongi hamma uchun baravar otadiku. Men orolni shunday boshqaramanki, o'lponning tiyinini ham yo'qotmayman, pora ham olmayman, siz hammangiz atrofga ko'z-quloq bo'lib turinglar. Yo'qsa men umringizda ko'rmagan g'aroyibotlarni ko'rsatib qo'yaman.

– Vijdonan aytamanki, sinor gubernator, – dedi eshik og'asi, – muhtaram janoblari mutlaqo to'g'ri gapiryaptilar.

Shu orollardagi barcha orolliklar nomidan va'da bermamanki, ularning bari siz marhamatli janoblariga siddiqdillik bilan muhabbat va ixlos bilan xizmat qiladilar. Siz hukmdorlikning boshlanishidanoq o'zingizning shu qadar saxovatli ekanligingizni ko'rsatdingizki, marhamatli janoblariga xush kelmaydigan bironta noma'qul ish qilishni hatto xayollariga ham keltirmaydilar ular.

– Albatta, – javob berdi Sancho, – yo'qsa ular xizmat bo'lgan bo'lur edilar. Lekin takror aytamanki, mening va kimsamning eshagimning ovqatimiz haqida g'amxo'rlik qilib turinglar, men uchun hamma narsadan ham zarur, kechiktirib bo'lmaydigan ish bu. Qorong'i tushishi bilan orolni aylanib chiqamiz, chunki men har qanday bekorchi daydilar va yo'ldan ozgan kimsalardan tozalamoqchiman uni. Shuni bilib qo'yinglarki, do'stlaringiz dangasalar va bekorchilar ishlamay tishlaydigan tekintiradilar. Dehqonlarga homiylik qilish, idalgolarning haq-huquqini himoya etish, saxovatlilarni mukofotlash, ayniqsa, dinni hurmatlash, din peshvolarini e'zozlash niyatidadirman. Xo'sh, bunga nima deysizlar, do'stlar. To'g'ri gapiryapmanmi, yoki bema'nimi?

– Siz shunday gapiryapsizki, sinor gubernator muhtaram janoblari, – javob berdi bakovul, – qanday qilib shunday orol odamning, – bilishimcha, muhtaram janoblari savodsiz-ku, axir. – shunday aqlli gaplarni va oqilona pand-nasihatlarni o'ylab topayotganlaridan hayratda qoldim. Na sizni bu yerga yuborganlar, na huzuringizda turgan bizlar siz muhtaram janoblaridan bunday iste'dodni kutgan edik. Toki hayot ekansan, har kuni biror yangilikning shohidi bo'larkansan: hazillar jiddiy ishga aylanar ekan, mazax qiluvchilar esa mayna bo'lib qolarkanlar.

Shunday qilib, gubernator bakovul, kotib, eshik og'asi va zimmasiga Sancho fazilatlarini xatga tushirib, kelgusi nasllarga yetkazish vazifasi yuklangan solnomachi hamrohligida orol bo'ylab tungi sayohatga otlandilar. Ularning ketidan shu qadar ko'p kotib va algvasillar borardiki, ulardan bir kichikroq harbiy bo'linma tuzsa bo'lardi. Asosini ushlab olgan Sancho o'rtada

shahdam qadam tashlab borardi. Unga qaragan sari qaraging kelardi. Ular bir necha ko'chani aylanib o'tgach, to'satdan quloqlariga qilichlarning jarangi chalinib qoldi. Hammalari shovqin kelayotgan tomonga otildilar. Ular bir necha qadam chopib borishgach, yakkama-yakka qilichlashayotgan ikki noma'lum kishiga duch kelishdi. Tartib saqlovchi nozirlarga ko'zi tushgan raqiblar to'xtab qolishdi, ulardan biri xitob qildi:

– Xudo va qirol haqqi! Bu qishloqda hammaning ko'zi oldida birovlarini talab, ko'chani qoq o'rtasida o'tgan-ketganga tajovuz qilish qanaqasi bo'ldi?

– Tinchlaning, ey saxovatli odam, – dedi Sancho, – qani menga ayting-chi, janjalingiz nimadan chiqdi; men – gubernatorman.

Shunda ikkinchi raqib gap boshladi:

– Sinor gubernator, men sizga janjal nimadan chiqqanligini qisqacha gapirib berishga harakat qilaman. Muhtaram janoblariga ma'qul bo'lsinki, manavi yigit hozirgina soqqa o'y-nab ikki ming realdan ortiqroq pulimni yutib oldi. Albatta, u qanday hiyla ishlatib yutdi, bu faqat xudogagina ayon. Men o'yinning guvohiman, lekin vijdonim azoblanib tursa-da, bir necha marta shubhali otishni uning foydasiga hal qildim. Nihoyat, o'yin tugab, u yutuqlarini yig'ishtirib oldi. U menga cho'tal beradi deb o'ylasam, yutug'ini cho'ntagiga soldi-yu, indamay ko'chaga chiqib ketaverdi. Xafa bo'lganimcha orqasidan borib, yaxshilikcha, muloyimlik bilan hech bo'lmaganda sakkiz real berishni so'radim. U mening halol odam ekanimni, amal-taqalim, topar-tutarim yo'qligini biladi. Chunki ota-onam meni hech nar-saga o'rgatmagan ham, mol-dunyo qoldirmagan ham. Bu qallob bo'lsa, atigi to'rt realgina chiqarib berdi. Sinor gubernator, o'zingiz bir o'ylab ko'ring-a, bu qanday hayosizlik, noinsoflik! Vijdonan aytaman, muhtaram janob, agar siz yetib kelmaganingizda uning yutuqlarini zo'rlab tortib olgan bo'lardim.

– Bunga siz nima deysiz? – so'radi Sancho qimorbozdan.

Qimorboz bu qallob tamagirning to'g'ri gapirayotganini, haqiqatan ham, unga to'rt realdan ortiq berishni istamaganini, chunki uning har kuni cho'tal so'rashini gapirib berdi. Cho'tal va

sadaqa bilan kun ko'radigan odam esa muloyim bo'lishi, omadli qimorboz bilan savdolashib o'tirmay, berganini olishi kerak, dedi u.

– Mabodo men chindan ham g'irrom bo'lganimda edi, – dedi qimorboz, – sal saxiyroq bo'lardim, negaki g'irromlar bunaqa firibgarlarga ko'proq pora berishga majbur, chunki ularning hiylasi cho'tal oluvchilarga ayon. Men oz cho'tal beryapmanmi, demak, shuning o'zi halol o'ynaganimni ko'rsatib turibdi.

– To'ppa-to'g'ri, – dedi bakovul. – Sinor gubernator, bu ikkala yigitchaga nisbatan qanday farmoyish beradilar?

– Farmonim shundan iboratki, – javob berdi Sancho – siz, sinor qimorboz, hoziroq manavi janjalkashga yuz real berasiz, yana buning ustiga qamoqdagilar foydasiga o'ttiz real bag'ishlaysiz. Siz esa amal-taqal, topar-tutarsiz yigitcha, yuz realni oling-u, ertadan kechikmay jo'nab qoling, siz o'n yilga badarg'a qilinasiz. Bizning orolda bekorchilarga o'rin yo'q, agar qaytib kelgudek bo'lsangiz, yo o'z qo'lim bilan yoki jallod yordamida dorga osaman. Gap qaytarmang, mening qahrimni keltirmang.

Raqiblarning biri pulni chiqarib ikkinchisiga berdi, ularning biri badarg'a, ikkinchisi uyiga yo'l oldi, gubernator esa shunday dedi:

– Yo mening saltanatim sariq chaqaga ham arzimay qoladi yo bu qimorxonalarining hammasini yopaman, chunki, nazarimda, ularning foydasidan ko'ra zarari ko'proqqa o'xshaydi.

Shu payt ularga politsiyachi yaqinlashib, bir yigitchani Sanchoning yoniga boshlab keldi:

– Sinor gubernator, – dedi u, – manavi yigitcha ro'paramizdan kelayotib, politsiyachi ekanligimizni payqab qolishi bilanoq orqasiga qarab xuddi kiyikdek qocha boshladi. Bu qilig'i juda shubhali ko'rindi. Men uni quva boshladim, agar qoqilib yiqilib tushmaganida, ehtimol, ushlay olmagan bo'lardim.

– Nega qochding, oshna? – deb so'radi Sancho.

Bunga yigitcha shunday javob berdi:

– Chunki politsiyachilar hadeb so'rab-surishtiraveradi, javob berishga esa mening hushim yo'q.

– Nima ish qilasan?

**SANCHO PANSANING XOTINI TERESA PANSAGA  
GERSOGINYA MAHRAMINING QANDAY QILIB  
MAKTUB OLIB BORIB BERGANI**

Sancho Pansa Baratariya orolida gubernatorlik qilib turgan bir vaqtda gersoginya uning xotini Teresa Pansaga eri va o'z nomidan maktub yubordi, bu maktubni o'rmonda o'ynalgan g'alati tomoshada Dulsineya rolini boplab ijro etgan o'sha mahram olib bordi. Gersoginya maktubga ajoyib sovg'a – bir shoda marvarid qo'shib jo'natdi.

Uddaburo, epchil mahram xo'jayinlarining iltifot va marhamatiga sazovor bo'lmoq uchun bu vazifani ado etishga bajonidil kirishib, shu ondayoq Sanchoning qishlog'i tomon yo'l oldi. Qishloqqa yaqinlasharkan soy bo'yida kir yuvayotgan bir talay ayollarga duch keldi, shunda mahram ulardan lamanchlik don Kixot degan mashhur ritsarning qurolbardori Sancho Pansaning xotini Teresa Pansa qayerda yashaydi deb so'radi. Bu so'zlarni eshitib, kir yuvayotgan ayollar orasidan bir qiz qaddini rostlab:

– Teresa Pansa – mening onam, sinor Sancho Pansa – otam, siz aytgan ritsar esa xo'jayinimiz, – dedi.

– Unday bo'lsa, yaqinroq keling, qizcha, – dedi mahram, – meni onangiz huzuriga boshlab boring, men onangizga padari buzrukvoringizdan maktub va sovg'a-salom keltirdim.

– Bosh ustiga, sinor, – dedi ko'rinishidan o'n to'rt yoshlarda bo'lgan bu qiz.

Qizcha shunday dedi-da, yuvayotgan kirlarini dugonalaridan biriga qoldirib, bir hatlab mahramning oti yoniga kelib qoldi, qiz oyoqyalang, sochlari to'zg'igan edi. U:

– To'g'riga qarab yuravering, muhtaram janob. Kulbamiz shundoqqina qishloqqa kiraverishda, onam sho'rlik otamdan ko'pdan beri xabar bo'lmagani uchun qayg'u-nadomat chekib, qon yig'lab o'tirgandilar, – dedi.

– Men yaxshi xabarlar olib keldim, – dedi mahram, – onangiz buning evaziga tangriga hamd-u sanolar o'qib, shukro-

nalar aytadi.

– Bu yoqqa chiqing, oyijon, tezroq chiqing bu yoqqa, otajonimning oldidan bir sinor kelibdi, u otamdan maktub va har xil sovg'a-salomlar olib kelibdi, – deb qichqira boshladi.

Qizchani ovozini eshitib uydan Teresa Pansa xola otilib chiqdi. Uning egnida kulrang yubka, belidagi tasmasi ham, kalta ko'ylagi ham kulrang edi. Bu juda baquvvat, g'oz qomat, zuvalasi pishiq, bug'doymag'iz, qirq yoshlar chamasidagi ayol edi. Qizi va uning yonidagi mahramga ko'zi tushgan hamonoq:

– Nima gap qizim, bu sinor kim ekan? – deb so'radi u.

– Kaminalari donya Teresa Pansa xonimning sodiq qullaridir, – deb javob berdi mahram.

Shunday deyarkan, u otdan sakrab tushdi-da, ehtirom bilan ta'zim bajo keltirib, sinora Teresaning oyoqlariga bosh urib tiz cho'kdi.

– Qo'lingizni o'pmoqqa ruxsat eting, sinora donya Teresa, – deb gapni davom ettirdi mahram, – men hazrati oliyalarini Baratariya qirolining gubernatori sinor don Sancho Pansaning shar'iy justifi halollari sifatida chin qalbidan tabriklayman.

– Voy, sinor, qo'ying, bas! Nima qilyapsiz o'zi? – dedi Teresa. – Men hech qanday saroy xonimlaridan emasman, hech qanaqa gubernatorning emas, balki o'lkama-o'lka kezib yurgan bir jahongashta ritsar qurolbardorining xotini, kambag'al dehqon ayolman.

– Yo'q, marhamatli xonim, – dedi mahram, – siz eng hurmatli gubernatorning hurmatga loyiq bekasidirsiz. Bu so'zlarimning haqligi uchun manavi maktub va sovg'a-salomlarni qabul etgaysiz, muhtarama bekam.

Shunday deb u cho'ntagidan oltin sharchalari bor marvarid shodasini olib, Teresaning bo'yniga taqdi-da, so'zini davom ettirdi:

– Manavi maktub sizga sinor gubernatordan, mana bunisi meni sizning qoshingizga yuborib, bu marvaridlarni tortiq qilishni buyurgan oliyhimmat bekamdan.

Teresa bilan qizi hayratdan dong qotib qolishdi.

Nihoyat, qizaloq tilga kirib:

– Bu xo‘jayinimiz sinor don Kixotning ishi bo‘lmasa, turgan joyimda til tortmay o‘lay. Ehtimol, u otamga ko‘pdan beri va‘da qilib yurgan biror gubernatorlik yoki graflik mansabini hadya qilgandir.

– Juda to‘g‘ri, – dedi mahram. – Sinor don Kixotning ko‘rsatgan yuksak xizmatlari evaziga sinor Sancho ayni vaqtda Baratariya orolining gubernatoridirlar.

– Marhamat qilib o‘qib bering bu maktubni, muhtaram sinor, – dedi Teresa, – chunki men, ip yigirishga qanchalik usta bo‘lmay, birorta ham harfni tanimayman, o‘qishni mutlaqo bilmayman.

– Men ham bilmayman, – deb qo‘shib qo‘ydi Sanchika, – birpas shoshmay turing, hozir birorta o‘qishni biladigan odamni – yo ruhoniyni, yo bakalavr Samson Karraskoni chaqirib kelaman. Ular otam haqidagi biror yangilikdan boxabar bo‘lgani bajonidil kelishadi.

– Ularni chaqirishning hojati yo‘q, – dedi mahram, – ip yigirish qo‘limdan kelmasa-da, lekin o‘qishni bilaman, sizlarga maktubni o‘zim o‘qib beraman.

Shundan so‘ng u yuqorida zikr etilgan, kitobxonga ma‘lum bo‘lgan, Sancho Pansaning maktubini o‘qib berdi.

Sancho Pansaning maktubini o‘qib bo‘lgach, mahram cho‘ntagidan gersoginyaning maktubini chiqardi. Gersoginya o‘z maktubida Teresa Pansaga mana bunday deb yozgan edi.

O‘rtoqjonim Teresa, eringiz Sanchoning halol, sofdil odamligi, uning aql-u zakovati meni o‘ziga rom etib, behisob orollar hukmdori bo‘lgan umr yo‘ldoshim gersogdan bu orollardan birortasini boshqarishni Sanchoga tortiq etishni iltimos qilishga majbur etdi. Bizga xabar berishlaricha, Pansa bu orolni shunqorona boshqarayotgan emish. Ana shu boisdan men va, o‘z-o‘zidan ravshandirkim, gersog Sanchodan behad minnatdormiz. Men ana shunday odil hukmdorni tanlashda yanglishmaganim uchun tangriga behisob hamd-u sanolar o‘qiyman; siz, sinora Teresa, yana shu narsadan boxabar bo‘lmog‘ingiz joizki, odil gubernator topish g‘oyat mushkuldir, zotan, Sancho o‘z mulkida qanday odillik ko‘rsatayotgan bo‘lsa, tangridan menga

ham shunday odillik ato etishini iltijo qilaman.

Men sizga, qimmatli dugonam, oltin sharchalari bor marvarid shodasi tuhfa qilarkanman, bu marvarid o'rniga Sharq duru injulari sovg'a qila olganimda behad baxtiyor bo'lurdim, lekin shu o'rinda quyidagi maqolni yodga olaylik: sening boshingni silagan odam senga o'limni hech ravo ko'rmaydi. Vaqti-soati kelib tanishib, do'stlashib ketarmiz degan umiddaman, yana kim biladi deysiz, kelajakda nima bo'lishi bir Xudoning o'ziga ayon. Mendan qizingiz Sanchikaga duo deng, qizingizga yana shu narsani aytib qo'yingki, unga yetti uxlab tushiga kirmagan badavlat qayliq topib beraman.

Eshitishimcha, sizlarning o'lkangizda yirik-yirik cho'chqayong'oqlar juda ko'p bo'larkan. Ana shu cho'chqayong'oqlardan ikki dyujinasini yuborsangiz; o'z qo'llaringiz bilan terilgan bo'lsa, men behad xursand bo'lardim. Sog'lingiz, turmushingiz haqida batafsil yozishingizni o'tinib so'rayman, mabodo, biror yetishmovchiligingiz bo'lsa, bir og'iz so'zingiz kifoya, har qanday tilagingizni qanoatlantirurmiz. Ilohi, Tangri sizni o'z panohida asrasin.

Bu maktub mening mulkimdan jo'natildi. Sizni chin qalbdan sevuvchi dugonangiz gersoginya.

– Oh! – deb faryod urib yubordi Teresa bu maktubni eshitib, – qanday saxiy, oddiy va kamtarin sinora ekan-a! Bunaqangi sinora bilan bitta go'rda birga yotishga ham rozi edim. Bu sizga qishlog'imizdagi sirkasi suv ko'tarmaydigan, o'zgaga shamolni ravo ko'rmaydigan, dvoryan bo'lgani uchun seni oyoq uchida ko'rsatadigan begoyimlardan emas, ular cherkovga shunchalik viqor, dabdaba bilan borishadiki, xuddi malika-yu qirolichalar deysiz, dehqonlarning ayollariga hatto qiyo ham boqishmaydi, buni o'zlariga isnod deb bilishadi. Bu oliyhimmat sinora o'zi gersoginya bo'la turib, maktubida meni o'rtoqjon deb yozibdi, menga xuddi o'z tengidek muomala qilibdi. Iloyo, uning martabasi Lamanchdagi eng yuksak qo'ng'iroqxonadan ham baland bo'lsin. Cho'chqayong'oqlarga kelsak, sinor, gersoginya hazrati oliyalariga bir dunyosini yuboraman, yuborganda ham shunaqangi yiriklarini yuborayki, ularni tomosha qilgani barcha



kelsin, ko'rib og'izlari ochilib qolsin. Endi, Sanchika, bu sinorni ziyofat qilgani hozirlik ko'r. Og'ilxonadan tuxum olib chiq, cho'chqa moyidan ko'proq to'g'rab, uni shohona mehmon qil. O'zi ham bo'yi-basti kelishgan odam ekan, olib kelgan xabari ham xushxabar, shuning uchun u ziyofat qilishga loyiq. Otiga ham yaxshilab qara. Men hamsoyalarnikiga kirib, bu quvonchli xabarni yetkazaman, ruhoniy ota bilan sartaroshxonaga, usta Nikolasning oldiga ham kiraman, axir, ular otangni yurakdan ma'zur ko'rishardi-ku.

– Hammasini o'rninga qo'yaman, oyijon, – dedi Sanchika, – lekin anavi marvaridning yarmini menga berasiz-a. Marvaridning hammasini sinora gersoginyaning birgina sizga yuborganiga sirayam ishonmayman.

– Hammasi seniki, – dedi Teresa, – bir necha kungina taqib yursam bas. Rostini aytsam, uni ko'rsam ko'nglim quvonchga to'lib, yuragim yorilib ketayozyapti.

– Men sizga olib kelgan boshqa sovg'ani ko'rsangiz, qanday suyunib ketarkansiz! – dedi mahram. – Bu juda harir yashil matodan tikilgan kamzul – uni sinor gubernator qizchasi Sanchikaga berib yubordi.

– Ey xudo, baxtinga ming yillar salomat bo'lsin otam! – dedi Sanchika hayajonlanib. – Buni olib kelgan odam ham ming yil, kam bo'lsa, ikki ming yil umr ko'rsin.

Bu orada Teresa marvaridni bo'yniga taqib olib, qo'lidagi maktublarni chirmanda chalayotgandek chalib ko'cha bo'ylab chopib borarkan, ruhoniy va Samson Karrasko bilan tasodifan to'qnashib qoldi-da, o'yinga tushib:

– Ha, mana endi biz qashshoq emasmiz, biz endi gubernator oilasimiz. Ishonmayapsizlarmi, unda eng olinasab dvoryan ayolni olib kelinglar bu yoqqa, uning o'rni qayerdaligini ko'rsatib qo'yaman.

– O'zi nima gap, Teresa Pansa? Namuncha xursandsiz, qo'lingizdagi qanaqa qog'ozlar?

– Qo'limdagi gersoginya va gubernatordan kelgan maktublar, shuning uchun xursandman, bo'ynimdagi esa oltin sharchalari bor marvarid, endi men gubernator xotiniman.

– Nimalar deyapsiz, Teresa? Tangridan bo‘lak hech zog‘ tushuna olmaydi so‘zlaringizga.

– Mana, o‘zlaringiz ko‘ringlar, – dedi-da, Teresa qo‘lidagi maktublarni uzatdi ularga.

Ruhoniy ovozini chiqarib maktublarni o‘qidi. Samson bilan ruhoniy esankirab, bir-birlariga qarab olishdi, keyin bakalavr, bu maktublarni kim olib keldi, deb so‘radi. Ruhoniy esa Teresaning bo‘ynidagi marvaridini olib, u yoq bu yog‘ini ko‘zdan kechirgach, uning asl ekanligiga ishonch hosil qilib, yanada hayratda qoldi.

– Zimmamdagi lavozimim haqqi, qasamyod etamanki, bu maktublar va sovg‘alarga aslo tushunolmadim. Men asl marvaridlarni ko‘rib, o‘z qo‘llarim bilan ushlab turibman, ayni vaqtda allaqanday bir gersoginyaning ikki dyujina cho‘chqayong‘oq yuborishlarini iltimos qilib yozgan maktubini ham o‘z ko‘zim bilan o‘qib turibman.

– Qani yuring-chi, bu maktublarni olib kelgan odamni bir ko‘raylik, balki, u hamma shubhalarimizga barham berar.

Ular shunday qilishdi ham, Teresa ham uyiga qaytdi. Bu payt mahram otiga arpa solish bilan band, Sanchika esa choparni ziyofat qilish uchun cho‘chqa moyi to‘g‘ramoqda edi. Mahramning qiyofasi va chiroyli, hashamdor ust-boshi ularga juda yoqdi. Samson ta‘zim qilib, ehtirom-la mehmon bilan salomlashgach, undan don Kixot hamda Sancho Pansa haqidagi yangiliklarni so‘zlab berishni iltimos qildi va Sancho bilan gersoginyaning maktublarini o‘qiganlarini, ammo Sanchoning qaysi orolda hokimlik qilayotganini tushunolmaganlarini aytdi. Bunga mahram shunday javob berdi:

– Manavi xonimning sinor Sancho Pansaning xotini ekanligi qanchalik haq bo‘lsa, uning hozir gubernatorligi ham shunchalik haq. Ammo uning qayerni va nimani – orolmi, orol emasmi – boshqarayotgani haqida aniq bir nima deyolmayman: u qishloqning aholisi ming kishidan ortiqroq ekanini aytsam ham kifoya. Cho‘chqayong‘oqlarga kelsak, bekam gersoginya juda kamtarin hamda g‘oyatda xushmuomala ayol, u har qanday dehqon ayoldan cho‘chqayong‘oq yuborishini sira tortinmay iltimos

qilaveradi.

Etagiga tuxum solib olgan Sanchika paydo bo'lishi bilan ularning suhbatini bo'linib qoldi.

– Shuni ayting-chi, sinor, – deya murojaat qildi mahramga u, – gubernator bo'lgandan keyin otam uzun ishton kiyadigan bo'lib qolgandir?

– Bunga e'tibor bermabman, – deb javob qildi mahram, – ehtimol, uzunini kiyib yurgandir.

– Voy xudoyim-ey! – dedi Sanchika. – O'shanaqa kiyimda yurganini bir ko'rsamiydi! Otamning uzun ishton kiyganini ko'rishni yosh bolaligidan orzu qilib yurardim. Qiziq, emasmi, axir, bu?!

– Albatta, ko'rasiz, muhtaram xonim, – dedi mahram, – omon bo'lsangiz, ko'rasiz. Vijdonim haqqi, qasamyod etamanki, uning gubernatorligi yana ikki oy davom etsa, otangizni ishtondagina emas, balki sayyohlar qalpog'ini kiyib yurganini ham ko'rasiz.

Ruhoniy bilan bakalavr mahramning Sanchikani mazax qilayotganini juda yaxshi angelayotgan bo'lsalar-da, ularni marvaridning haqiqiyliги va Teresa allaqachon hammaga ko'z-ko'z qilgan, Sancho yuborgan ov kiyimi chalg'itib qo'ygan edi. Ular Sanchikaning orzu-istagidan miriqib kulishdi, lekin Teresaning quyidagi so'zlaridan yanada qotib-qotib kulishdi:

– Sinor ruhoniy, qishlog'imizdan birorta odam Madrid yoki Toledoga ketayotgani yo'qmikin, shuni bilib bersangiz, baraka topkur, men unga hozirgi kunda rasm bo'lgan haqiqiy dumaloq fijma sotib olib kelib berishini buyurardim. Men gubernator erimning shon-sharafini saqlashga, sha'niga dog'tushirmaslikka qo'limdan kelganicha tirishaman, ehtimol, qishloqda yashash ko'nglimga tegar, shunda men saroyga boraman va foytun sotib olaman. Gubernator xotiniga foytun sotib olish uchun ruxsat bor-ku, axir.

– Bo'lmasa-chi, oyijon, – dedi Sanchika, – ey xudo, shu kunga ertaga emas, bugun yetkaz. Men oyijonim bilan birga foytunda yuraman, mayli, qo'shnilar: «Anavi dehqon qizning foytunda xuddi grafinyalarga o'xshab taltayib o'tirishini qarang-

lar», – deyishsa, deyishaversin. Qo'yavering, ular loyga belanib yuraverishsin, men foytunda yuraman. Iloyo, dunyodagi g'iybat-chilar, fisqi-fasodchilar qirilib bitsin. Men issiqqinada o'tirsam bo'lgani, odamlar kulsa, kulavermaydilar.

Nima, yomon gapni gapiryapmanmi, oyijon!

– Yo'q, qizim, juda yaxshi gapiryapsan, – dedi Teresa, – mening saxiy, oqko'ngil Sanchom shunday bo'lishini oldindan aytgandi: ko'rarsan hali, qizim, men grafinya bo'laman. Eng muhimi – baxt yo'liga dastlabki qadamni qo'yish. Oqko'ngil, saxiy otang, uni maqollar otasi desa ham bo'ladi, menga nuqul: «Senga sigir in'om qilsalar, tizginini ham so'ra», – derdi, bu esa, senga gubernatorlikni beribdilar, darrov uni qabul et, graflikni taqdim etsalar, unga qo'sh-qo'llab yopish, agar biror tuzukroq sovg'a tuhfa etsalar, ol-u, cho'ntakka ur, agar ishyoqmas dangasa bo'lsang, baxt va omad eshigingni qoqib tursa ham, bunga quloq solmay, gum tushib uxlab yotaverasan, deganidir.

– Eng so'nggi rasm bo'lgan kiyimlarni kiyib, yasanib yuranimda, odamlar nimalar deb vaysashsa, vaysashaverishsin, mening nima ishim bor? – deb ilova qildi Sanchika. – Odamga libos, eshakka to'qim; o'zingni bil, o'zgani qo'y, degan maqollar bor-ku, axir.

Bu gaplarni eshitib:

– Pansalar avlod-ajdodi bilan maqolchi bo'ladilar deb qo'ydim: ulardan birortasining ham, qachon gaplashmang, so'z orasida maqol yoki matal qistirmay suhbatlashganini ko'rmabman-a, – dedi ruhoniy.

– Mutlaqo haq gapni aytdingiz, – dedi mahram, – gubernator Sancho janoblari ham nuqul maqollar bilan gapiradilar. Zotan, bu maqollar hamma vaqt o'rniga tushavermasa hamki, mening xo'jayinlarim – gersog bilan gersoginya uni juda maqtaydilar.

– Shunday qilib, muhtaram sinor, – dedi bakalavr, – Sanchoning gubernatorligi va uning xotiniga maktub hamda sovg'a-salom yuborgan gersoginya olamda, haqiqatan ham, bor ekanligi haq gapmi? Agarda bu sovg'a-salom va maktublar ko'z o'ngimizda turgan bo'lsa-da, har holda, biz bunga ishon-

qiramayotirmiz, inchunin, biz bu ishlar hamqishlog'imiz don Kixotning ajoyib sarguzashtlaridan bir ko'rinishi bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz. Zeroki uning, hayotimda nimaiki sodir bo'lsa, faqat sehr-jodu natijasida ro'y beradi, deb hisoblashi bejiz emasdi. Ana shu boisdan, hurmatli janob, ochig'ini aytsam, men sizni o'z qo'llarim bilan paypaslab turib ko'rmoqchidurman: qani, xayoliy sharpamikinsiz yoki et va suyakdan iborat oddiy odam-mikinsiz.

– Muhtaram sinorlar, – dedi mahram, – men sizlarga yolg'iz birgina narsani dalolat etmog'im mumkin, kaminalari chindan ham elchidirlar, sinor Sancho Pansa ham chinakam gubernatordir, xo'jayinlarim gersog va gersoginya unga gubernatorlik in'om qilishga qodirdirlar, shunday qildilar ham, ovozalarga qaraganda, Sancho Pansa o'z ishini hamin qadar o'rniga qo'ya-yotgan emish. Buni sehrgarlik deb o'ylaysizlarmi yo boshqami, o'zlaringiz bilasizlar, illo, men o'zimga ayon bo'lgan gaplarningina aytdim, bu gaplarning barhaqligiga sevimli va, hurmatli ota-onamning hayoti haqqi, qasamyod etaman. Basharti menga durust so'zlamayapsan deb ishonmaydigan bo'lsanglar, mayli, biror kimsa men bilan borsin-da, o'z ko'zi bilan ko'rsin, zeroki quloq bilan eshitib ishonmagandan ko'ra, ko'z bilan ko'rib ishonmoq maqbuldir.

– Keling, men siz bilan birga boraman, – dedi Sanchika. – Meni otingizga mingashtirib olsangiz, muhtaram sinor, padari buzrukvorimni ko'rgani bajonidil boraman.

– Gubernatorlarning qizlari foytunsiz, taxtiravonsiz, xizmatkorlarsiz yolg'iz o'zlari yursa, yarashmaydi, bu mumkin emas.

– Foytunda yuramanmi, yoki eshakdami, Xudo haqqi, menga baribir, – deb javob berdi Sanchika, – men unaqa nozik tabiat injiqlardan emasman.

– O'chir ovozingni, qizim, – deya uning gapini bo'ldi Teresa, – nimalar deyayotganingni o'zing ham bilmaysan. Bu janob haq gapni aytyapti: ilgarigi paytlaring o'tib ketdi. Endi o'zgacha vaqt, o'zgacha davron. Ilgari otang shunchaki Sancho-ligida sen oddiygina Sanchika eding, hozir otang gubernator –

endi sinorasan. To'g'ri gapirayotgan bo'lsam kerak-a, janoblar?

– Sinora Teresa o'ylaganidan ham ortiqroq bama'ni gaplarni gapiryapti, – dedi mahram.

– Qani, endi qormimni to'yg'azinglar-u, tezroq javob beringlar, kun yorug'ida yo'lga chiqa qolay.

Bunga javoban ruhoniyl dedi:

– Biznikiga marhamat qilsinlar, taqdir, baholi qudrat taomlarimizni baham ko'rurimiz, zeroki sinora Teresa bunday olinasab mehmonni chin ko'ngildan ziyofat qilmoqchi bo'lsa-da, biroq biror tuzukroq nimadir topolmaydur.

Mahram xiyla mahalgacha ruhoniyning taklifini rad etib turdi-da, nihoyat ko'ndi, bundan mamnun bo'lgan ruhoniyl don Kixot haqida va uning ko'rsatgan qahramonliklari haqida batafsilroq so'rab-surishtirish niyatida quvonch bilan uni uyiga boshlab ketdi.

Bakalavr esa olgan maktublariga javob yozib bermoqni taklif etdi Teresaga. Lekin Teresa uni hammani mazax qiladigan odam hisoblagani uchun bakalavrning bu ishlarga aralashishini xohlamadi va rozi bo'lmadi, u ozgina non bilan ikkita tuxum berib cherkov xizmatchisiga javob yozdirishni ma'qul ko'rdi.

Bu orada qormini to'yg'azib, don Kixot va uning sodiq qurolbardori Sancho Pansaning ishlari haqida miriqib gaplashib olgan mahram Teresalarnikiga qaytib keldi. U xo'jayinlariga maktublarni tezroq yetkazish va don Kixot hamda Sancholarning qishlog'iga ko'rgan-eshitganlarini so'zlab berishga shoshilardi. Shuning uchun ham chopar ikkita javob xati bilan Teresaning sovg'a-salomini – bir to'rva cho'chqayong'oqni oldi-yu, yo'lga tushdi. Uning uyga yetib kelishi don Kixot va behisob saroy a'yonlari ulfatchiligida vaqtlarini xushchaqchaqlik bilan o'tkazayotgan gersog hamda gersoginyani g'oyatda quvontirib yubordi. Mahramga olisdan ko'zlari tushishi bilanoq uni savollarga ko'mib tashlashdi, lekin mahram begonalar oldida so'zlash mushkul ekanini aytib, yolg'iz xo'jayinlarning o'zlarigagina so'zlab berishni iltimos qildi. Hozircha esa, oliy hazratlarim, Teresaning maktubini ermak qilib turinglar, deya ikkala maktubni chiqarib gersoginyaga uzatdi. Ulardan biriga: «Maktub sinora

gersoginyaga tegsin, ism shariflarini esa bilmayman», ikkinchisiga: «Baratariya orolining gubernatori erim Sancho Pansaga tegsin – iloho, tangrim unga menikidan ko‘ra ziyodroq umr ato qilsin», deb yozilgan edi. Gersoginya sabri chidamay tipirchilab qoldi, u maktubni tezroq, ochib o‘qishga oshiqardi. Nihoyat, u o‘zini tutib turolmay, maktubni shartta ochdi, gersoginya unga bir ko‘z yugurtirib, bermalol ovoz chiqarib o‘qisa bo‘larkan, degan qarorga keldi:

Teresa Pansaning gersoginyaga maktubi:

Siz hazrati oliyalarining menga yozgan maktubingizdan behad xursand bo‘ldim, zeroki u aynan mening ko‘nglimdagi maktub ekan. Berib yuborgan bir shoda marvaridingiz juda yaxshi, chiroyli ekan, erim yuborgan ovchilar kiyimi ham undan qolishmaydi. Darhaqiqat, hech kim, ayniqsa, ruhoniy, sartarosh Nikolas va bakalavr Samson Karraskolar bunga ishonmasa hamki, mening umr yo‘ldoshim Sanchoni gubernator qilib tayinlaganingiz, hazrati oliyalari, butun qishlog‘imiz uchun katta quvonchdir. Ishonmasa, ishonmasin: buning men uchun hech qanaqa ahamiyati yo‘q, axir, shu gap rost bo‘lgandan keyin har kim ko‘ngli tusaganini gapiravermaydimi. Rostini aytsam, marvarid bilan ovchilar kiyimi bo‘lmaganida, o‘zim ham ishonmasdim, chunki qishlog‘imizdagilarning hammasi erimni befarosat ovsar hisoblashadi, shu kungacha echki boqishdan bo‘lak ish qo‘lidan kelmagan, shuning uchun undan biror tuzukroq hokim chiqishini hatto tasavvur ham qila olishmaydi. Iloyo, tangri madadkor bo‘lib, bolalari baxtiga ishi o‘ngidan kelsin!

Men esa, muhtaram sinora, hazrati oliyalarining ijozatlari bilan foytunda taltayib o‘tirgancha poytaxtgacha borishga ahd qildimki, toki ming-minglab hasadchilarning ko‘zlari kosasidan chiqqudek bo‘lib o‘ynasin, ana shu boisdan siz zoti oliyalariga ta‘zim etib yolvoramankim, erim, iloji boricha, ko‘proq pul yuborsin, qancha ko‘p yuborsa, shuncha yaxshi – axir, poytaxtda xarajatlar juda katta bo‘ladi-ku: non bir real, bir funt go‘sht o‘ttiz maravedis tursa – bu, axir, xonavayron bo‘lishi emasmi, mabodo u yoqqa borishim erimga noqulay bo‘lsa, unisini ham tezda yozib yuborsin, chunki bir yerda qo‘nim topib turolmayapman, tezroq

yo'lga chiqsam deyman, oyoqlarim o'z-o'zidan yo'lga tortib ketyapti. Bundan tashqari qo'shnilarim ham, qizing ikkoving poytaxtga yasanib-tusanib, bashang kiyinib borsanglar, sen tufayli ering juda mashhur bo'lib ketadi, deb holi-jonimga qo'yishmayapti, chunki hamma, albatta: «Foytunda ketayotgan bu xonimlar kim?» – deb so'rasharmish, mening xizmatkorim bo'lsa: «Bular – Baratariya oroli gubernatori Sancho Pansaning xotini bilan qizi», – deb javob berarmish. Ana shunday qilib hammamiz – men ham, erim ham izzat-ikromda bo'larmishmiz.

Bu yil cho'chqayong'oqning juda kam bo'lganiga shunday achindimki, buni qanday izhor qilishimni ham bilmay qoldim. Shunga qaramay, siz hazrati oliyalariga maydalaridan bo'lsa ham, yarim xalta yubordim – ularni bittalab o'rmondan o'z qo'lim bilan terdim, afsuski, yirikroqlarini topolmadim, har bittasi tuyaqushning tuxumiday bo'lsa, ko'nglimdagidek bo'lardi-da!

Javob yozish yodingizdan chiqmasin, muhtaram xonim, men esa, albatta, sizga javob yozaman, qishloqda sodir bo'layotgan bari ishlar haqida xabar qilaman, hozircha o'z uyimda istiqomat qilib turarkanman, siz hazrati oliyalarini o'z panohida asrashini va marhamatidan darig' tutmasligini Tangridan iltijo qilgayman. Qizim Sanchika, uni yana Marisancha ham deyishadi, va o'g'ilcham siz hazrati oliyalarining qo'lingizni o'pib qoladilar.

Siz olinasab xonimga maktub yozishdan ko'ra o'zingizni ko'rishga ko'proq mushtoq bo'lgan dugonangizdan deb bilursiz.

Sodiq qulingiz Teresa Pansa.

Bu yerda hozir bo'lganlarning hammasi Teresa Pansaning maktubini huzur qilib tinglashdi. Keyin gersoginya don Kixotdan gubernatorning nomiga yuborilgan maktubni ochib o'qisak bo'larmikin, o'ziyam juda qiziq bo'lsa kerak, siz nima deb o'y-laysiz, deb so'radi. Don Kixot bunday qilishga o'zi tayyor ekanini aytib, xatni qo'lga oldi-da, baland ovoz bilan o'qiy boshladi.

Xatingni olib, azizim Sancho, nasroniylik va katolikligim haqqi, qasamyod qilib seni ishontirib aytamanki, quvonib ketganimdan aqlan ozib qolayozdim. Bilasanmi, jonginam, sening



gubernator bo'lganingni eshitib, yuragim qoq yorilib o'lib qolishimga sal qoldi; sen, axir, kutilmagan baxt to'satdan boshga tushgan kulfatdan ortiqroq ta'sir qilishini bilasan-ku odamga. Oldimda sen yuborgan ovchilar kiyimi tursa, bo'ynimda sinora gersoginya yuborgan marvarid bo'lsa-yu, qo'limda yozgan mak-tublaringizni ushlab tursam, ularni olib kelgan chopar qarshimda bo'lsa hamki, ko'rib-ushlab turganlarimning bari, nazdimda, tushga o'xshardi. Echkiyoqar cho'ponning bir orolning gubernatori bo'lishini kim xayoliga keltiribdi, deysan? Jonginam, bechora onamning: «Ko'p yashagan ko'pni ko'radi», degani yodingdadir. Buni shuning uchun aytyapmanki, agar hayot bo'lsam, bundan ham ortiqrog'ini ko'rishdan umidvorman. Rostini aytсам, seni ijarador yoki soliq yig'uvchi o'rnida ko'rman-gunimcha ko'nglim tinchimaydi. Albatta, kimki soliq yig'ayot-ganida mansabidan foydalanib xiyonat qilsa, do'zaxga tushishi shubhasizdir, Biroq cho'ntagidan pul arimaydi. Gersoginya xonim senga poytaxtga bormoqchi bo'lganimni xabar qiladi. Bu senga ma'qulmi yo yo'qmi, o'ylab ko'rib javob yoz, u yoqqa borib, foytunda yurarkanman seni sharmanda qilmaslikka hara-kat qilaman.

Qishlog'imiz ruhoniysi, sartarosh, bakalavr va hatto ruho-niyning yordamchisi ham sening gubernator bo'lganingga sira ishonishmayapti, bularning bari shaytonning vasvasasi yoki don Kixotning hamma sarguzashtlari kabi sehrgarlik deyishyapti. Samson esa oldiga borib, boshidagi u ko'knori xayol guber-natorlikni, don Kixotning miyasidagi telbalikni uloqtirib tashlay-man deydi, lekin men uning gaplaridan kulib, bo'ynimdagi mar-varidga qarab-qarab qo'yaman va sen yuborgan ovchilar kiyi-midan qizimga qanaqa ko'ylak chiqishini chamalayman.

Men gersoginya xonimga ozgina cho'chqayong'oq yubordim, ochig'ini aytсам, ularning sof oltindan bo'lib qoli-shini istardim. Agar orolingdagilar dur taqishsa, bir nechtasini yubor. Qishlog'imizdagi yangiliklar quyidagicha. Berruena qizini qishlog'imizga allaqayoqlardan kelgan, kim nimani buyur-sa, o'shani chizib-chaplayveradigan bir lapashang rassomga uzatdi. Don Pedroning o'g'li esa bir amallab unvon olib, endi

diniy unvon olishga tayyorlanyapti. Bundan Mingo Silvatoning nevarasi Mintilya xabar topib, arz qilibdi, chunki u Mintilyaga uylanaman deb soʻz bergan ekan.

Bu yil zaytun hosil bermadi, butun qishloqdan bir tomchi sirka izlab topolmaysan.

Sanchika toʻr toʻqiyapti, har kuni naqd sakkiz maravedis pul topib, qutichaga solib, oʻziga sep hozirlayapti. Xudoga shukrlar boʻlsinkim, endi uning bu haqda qaygʻurishining hojati yoʻq.

Maydonchamizdagi favvoraning suvi qurib qoldi, dori-mizni yashin urib kuydirib yubordi, iloyo, boshqa joydagilari ham shunday boʻlsin.

Poytaxtga borishim haqida qanday fikrda ekaningni orziqib kutaman; iloyo, Tangri mendan koʻra senga ziyodroq umr ato qilsin yoki kam deganda seni bu foniylar dunyoda yolgʻiz tashlab ketgim kelmagani uchun mening umrimni bersin. Xotining Teresa Pansa.

Bu maktublar tinglovchilarni zavqlantirdi, kulgilarini qistatdi, ularning olqishlariga sazovor boʻldi va hayratga soldi. Shundan keyin gersoginya mahramidan Sanchoning qishlogʻida qanday hodisalar boʻlganini soʻrab-surishtirgani chiqib ketdi, mahram unga hammasini batafsil hikoya qilib berdi, bundan tashqari u gersoginyaga Teresa berib yuborgan choʻchqayongʻoq bilan pishloqni ham topshirdi. Gersoginya bularni bajonidil oldi, shu yerda biz buyuk Sancho Pansaning gubernatorlik hukmronligi qanday tugaganini hikoya qilmoq niyatida u bilan xayrmaʼzur qilamiz.

**SANCHONING BARATARIYA OROLIDAGI  
HUKMRONLIGINING DAVOMI VA  
GUBERNATORLIGINING QAYG'ULI TUGASHI**

Sancho o'ziga idora qilish uchun topshirilgan orolni mulozimlari bilan birgalikda aylanib, ko'zdan kechirib chiqib, saroyga qaytdi-da, shu zamonAQ uyquga ketdi, u bugungi burchini ado etganidan mamnun bo'lib, ertalabgacha miriqib uxladi. Sancho Pansaning gaplari va xatti-harakatidan hayratga tushgan bakovul esa tunning qolgan qismini o'z xo'jayinlariga xat yozish bilan o'tkazdi. Nihoyat, gubernator janoblari ham uyg'ondilar. Doktor Pedro Resioning buyrug'iga binoan unga nonushtaga ozingina murabbo bilan uch-to'rt tomchi sovuq suv keltirishdi – bularning barini Sancho bir burda non-u bir bosh uzumga jon-jon deb alishgan bo'lardi, ammo ko'ngli har qancha ranjimasin, qorni qanchalik tatalamasin, bu parhezga rioya qilishga majbur bo'ldi, chunki Pedro Resio yengil ovqat kishining shifolash qobiliyati va zehni o'stiradi, jismoniy ish qilmay, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi katta lavozimdagi ulug' zotlarga shunday ovqat munosibdir, deb ishontirgan edi.

Sancho ochlikdan azoblanar, ichida gubernatorlikka va hatto uni in'om etganlarga la'natlar o'qirdi. Shunga qaramay, murabboning o'zinigina tanovul qilib, qorni ochligicha qolavergan bo'lsa-da, u bugun ham sud ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Birinchi bo'lib bir kelgindi uning huzuriga kirib, bakovul va boshqa mulozim-u xizmatkorlar hozirligida Sanchoga shunday iltimos bilan murojaat qildi:

– Sinor, juda muhim va juda chalkash bir ish yuzasidan maslahat so'ragani keldim. Bir katta amaldorning mulkidan ser-suv daryo oqib o'tadi; unda ko'prik bor, ko'prik yoniga dor qurilgan va bir bino solingan. Bu binoda to'rtta sudya ish ko'rishadi. Bu sudyalarning yer egasi tomonidan e'lon qilingan qonunlarning qat'iy bajarilishini nazorat qilib turishlari lozim. Bu qonunda shunday deyiladi: «Ushbu ko'rikdan o'tuvchi har bir

kimsa qasamyod etib qayoqqa va nima maqsadda ketayotganini aytishga majbur. Agar u rostini aytsa, hech qanday moneliksiz o'tkazib yuboriladi, basharti yolg'on gapiradigan bo'lsa, o'limga hukm etilib, ko'prik yonidagi dorga osiladi». Ana shu shafqatsiz qonun e'lon qilingandan buyon ko'prikdan ozmuncha odam qatnamadi, yo'lovchilarning haq gapirayotganlari aniqlangan zamonoz sudyalar ularni, to'rt tomoning qibla, xohlagan tarafingga ketaver, deb qo'yib yuborishardi. Yaqinda allaqanday bir yo'lovchi qasamyod etib, meni ana shu dorga osinglar deb keldim bu yerga, debdi. Uning bu qasamyodi sudyalarni dovdiratib qo'yibdi, ular quyidagicha mulohaza yuritishibdi: «Agar biz bu odamni qo'yib yuborsak, unda yo'lovchi yolg'on qasam ichgan bo'ladi, u holda qonun bo'yicha osilishi lozim. Mabodo otishga hukm qilsak, unda yo'lovchi to'g'risini gapirgan bo'lib chiqadi, chunki u, bu yerga osinglar deb keldim, deb qasam ichdi – binobarin, yana yuqoridagi qonunga binoan u ozod etib yuborilishi kerak». Ana shu masalada men siz bilan maslahatlashib, muhtaram gubernator janoblari, sudyalar bu odamni nima qilsinlar, deb so'ramoqchi edim, chunki sudyalar shu damgacha nima qilishlarini bilmay, xunob bo'lib yotishibdi. Siz muhtaram janoblarining buyuk aql, o'tkir zehn egasi ekanligingizni eshitib, ular meni o'z nomlaridan bu chalkash hamda mujmal ish yuzasidan siz marhamatli janobning hukmingizni bilgani huzuringizga yuborishdi. Sancho shunday javob qildi:

– Menimcha, bu ishni ikki kalima so'z bilan hal qilsa bo'ladi, mana bunday qilib. O'sha odam, meni osinglar deb keldim, deb qasam ichgan. Shunday qilib, agar osilsa, ichgan qasami haq, bo'lib chiqadi, shuning uchun uni qo'yib yuborish kerak. Lekin uni qo'yib yuborilgudek bo'lsa, u paytda ichgan qasami yolg'on bo'lib, dorga osilishi lozim bo'lib qoladi.

– Janob gubernator juda to'g'ri gapiryaptilar, – dedi sudyalar yuborgan vakil, – siz bu ishni, shubhasiz, juda yaxshi tushunib, mag'zini chaqibsiz.

– Shunday ekan, – dedi Sancho, – sudyalar u odamning rost gapirgan bo'lagini qo'yib yuborsinlar-u, yolg'on gapirganini osishsin: ana shunday qilinganda qonunga qat'iyon rioya qilin-

gan bo'ladi.

– Unaqada, gubernator janoblari, u odamni ikki nimta – rostgo'yini bir nimta, yolg'onchisini bir nimta qilib nimtalash kerak-ku, bu holda uning o'lishi-muqarrar, qonun buziladi-ku, – deb e'tiroz bildirdi vakil.

– Gapimga quloq, soling, qimmatli sinor, – dedi Sancho, – mabodo, mening miyam aynib qolmagan bo'lsa, o'ylaymanki, o'sha yo'lovchigizning o'limga qanchalik asosi bo'lsa, hayot qolish va ko'p rikdan o'tishga ham o'shancha asosi bor – chunki yolg'on gapirgani uni qanchalik o'limga mahkum etsa, haq gapirgani unga shunchalik hayot ehson qiladi. Shuning uchun ham sizni bu yerga jo'natgan janoblarga mening nomimdan borib aytingkim, o'sha yo'lovchiga ozodlik baxsh etishsin, chunki yaxshilik qilish yomonlik qilishdan ko'ra hamma vaqt ko'proq maqtovg'a loyiqdir. Agar savodim bo'lganida bu qarorning ostiga o'zim imzo chekardim. Bu gaplarning barini o'z miyamdan chiqarib aytayotganim yo'q, xo'jayinim don Kixotning bu orolga kelishim arafasida qilgan nasihatlaridan biri shunchaki esimga kelib qoldi, xolos. U menga shubhali, mujmal ishlarda rahmshafqat yo'lidan borib, marhamatli bo'lishimni nasihat qilgan edi.

– Gubernator janoblari, – dedi bakovul, – bu ishni eng mashhur qonunshunoslardan ham ortiqroq qilib, donishmandlik va fozillik bilan oqilona hal etdingiz. Shu bilan ertalabki majlisimizni tugatsak, men hoziroq janob gubernatorni ko'ngillari tusagan taomlar bilan ziyofat qilishlarini buyuraman.

– Shunisi kerak-da, menga, ochig'ini aytsam! – dedi Sancho jonlanib. – Avval qornimni to'yg'azinglar, keyin, mayli, bunaqa chalkash va mujmal ishlar do'lday yog'ilib tursa ham, birpasda qotirib tashlayman.

Sanchodek aqlli gubernatorni och qo'yib tinkasini qurita-yotgani uchun bakovul vijdonan azoblana boshlagan edi, ana shu boisdan u Sancho Pansani yaxshilab ziyofat qilib, shu kuni kechqurunoq so'nggi masxarabozlikdan keyin bu antiqa tomoshaga barham bermoqqa ahd qildi.

Shunday qilib, o'sha kuni Sancho tirteafueralik doktor-

ning ko'rsatmalariga xilof ravishda bo'lib qolgudek miriqib ovqatlandi.

U endi dasturxon yonidan turaman degan paytda, chopar don Kixot nomidan gubernatorga maktub olib kelib qoldi. Sancho kotibga, avval ichingda o'qib chiq, agar xatda maxfiy saqlanishi lozim bo'lgan xabar yo'q bo'lsa, ovozingni chiqarib o'qib deb buyurdi. Kotib Sanchoning aytganini bajo keltirib, avval xatga ko'z yugurtirib chiqdi-da:

— Bu maktubni eshittirib o'qib bersa bo'ladi, chunki don Kixot janoblarning siz janobi oliylariga yozgan gaplarini hammaning e'tiboriga yetkazish uchun uni oltin harflar bilan bosib chiqarish lozim ekan, u mana bunday deb yozibdi:

Lamanchlik don Kixot janoblarning Baratariya orolining gubernatori Sancho Pansaga maktubi

Do'stim Sancho, men hamma vaqt sening noo'rin xatti-harakating va yo'l qo'ygan xatolaring haqida biror gap qulog'imga chalinib qolmasa go'rga edi, degan xavotirda edim. Lekin, aksincha, hamma sening fahm-farosating va o'tkir zehningga tasanno o'qib maqtayapti. Bu gaplarni eshitib, go'ngga belanib yotgan bir bechora kambag'alni shunday ko'klarga ko'tarib maqtangani hamda bir kaltafahm, befarosat kimsani shu qadar donolik cho'qqisiga mindirgani uchun Tangriga hamd-u sanolar o'qidim. Menga aytishlaricha, sen haqiqiy insonlardek hokimlik qilayotgan emishsan, shuningdek, kamtarinlik va boodoblik namunalarni ko'rsatib, shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda xuddi tilsiz jonivorlarday sabr-qanoatli emishsan. Yana shu narsani aytib qo'ymog'im lozimdirki, hokim odam obro'-e'tiborni martabasiga munosib ravishda saqlamoq uchun ko'pincha o'z xohishirodasiga tamoman qarshi ish tutmoqqa majbur bo'ladi. Shuning uchun ham o'zingning haddan ziyod jo'n hamda yaramas xatti-harakatlaringni, didi pastlik nuqsoningni yo'qotishga va o'zingning yuksak mavqeingga munosib tutishga harakat qil. Odamga libos, eshakka to'qim deganlaridek, hamisha yaxshi kiyinib yur. Bu bilan har turli bachkana kiyimlar kiyib, ming xil bemaza narsalar taqib yasanib-tusanib yur demoqchi emasman. Aslo unday emas! Lekin o'z martabangga munosib ustbosh kiy, shuni ham

unutmaki, u doim chinniday ozoda va pokiza bo'lsin.

Qo'l ostingdagi fuqarolaringga yoqish va ularning hurmat-e'tiborini qozonmoq uchun quyidagi ikki qoidaga amal qil: birinchidan, hamma bilan xushmuomalada bo'l, ikkinchidan, fuqarolaringning hamisha qorni to'q, usti but bo'lsin, chunki hech narsa kambag'allarning g'azabini ochlik va muhtojlikchalik qo'zg'ab, g'alayonga keltirolmaydi.

Har xil buyruq va farmonlar chiqaraverma, mabodo shunday qiladigan bo'lsang, bama'ni va o'rinli bo'lishiga, eng muhimi ularga rioya qilishlari hamda bajarishlarini nazorat qilib turishga harakat qil. Basharti qonunlarga rioya qilinmasa, unda fuqarolaringning ko'ngliga hokimimizning bu farmoyishlarni chiqarishga aqli yetibdi-yu, amalga oshirishni nazorat qilib borishga qo'li qisqalik qilib, hukmi o'tmabdi-da, degan fikr tug'iladi. Shu narsa yodingda bo'lsin, eng qattiq, eng shafqatsiz qonunlar, agar u bajarilmasa, unga rioya qilinmasa, qonun chiqargan hokim anavi qurbaqalarga podsho bo'lib olgan ahmoqning kuniga tushadi: oldin undan qo'rqishadi, keyin esa nafratlanishadi, nazar-pisand qilmay qo'yishadi. Ayni vaqtda doim birdek qattiq-qo'l bo'lish ham hamisha oqko'ngil va muloyim bo'lish singari yaramas bir hol: ana shu ikki yo'lning o'rtasidan bor. Chinakam donishmandlik – eng oqilona yo'l shu. Turma, kushxona va bozorlarni borib ko'r, yaxshilab ko'zdan kechir, bu juda muhim masala: shunday qilganingda o'z ishlarining tez kunlarda hal bo'lishini intizorlik bilan kutib yotgan mahbuslarning ko'ngli ko'tariladi, seni ko'rib qassoblar qo'rqanlaridan tarozini to'g'ri tortadigan bo'lishadi, bozordagi qallob chayqovchi xotinlarni yo'qotasan. Orolga jo'nashing arafasida yozib bergan o'gitlarimni yodingda tut, shunga qarab, o'ylab ish yurit. Agar o'sha nasihatlarimga amal qilsang, gubernatorlar har qadamda yo'liqib turadigan har qanday og'ir va mushkul ahvoldan qutulib ketishingga behad yordam berajagiga ishonch hosil qilursan. Gersog bilan gersoginyaga o'z minnatdorchiligingni yubor, chunki qadr bilmaslik, ya'ni nonko'rlik – mag'rurlik arzandasidir, olamda mavjud bo'lgan gunohlarning eng azimidir, lutf aylab yaxshilik qilgan odamga nisbatan minnatdorchilik bildirgan kimsa

o'zining yaxshilikni biluvchi, Tangrining ko'rsatgan marhamatiga shukronalar o'quvchi oliyjanob kishi ekanligini namoyish qiladi.

Sinora gersoginya xotining Teresa Pansaga chopar opqali ko'ylak va maxsus sovg'a-salom berib yubordi. Hol-ahvollaring qandayligini menga batafsil yozib yubor. Bu ishni tezroq bajar, chunki men tez orada bu dabdabali hayotni tark etmoqchiman, zotan, men bunaqa dabdabali saroyda yashash uchun tug'ilgan emasman.

Alvido, do'stim, qodir Egam ko'nglingga shafqat solsin, odamlarga zulm qilishdan o'zi asrasin.

Do'sting lamanchlik don Kixot

Sancho don Kixotning maktubiga zo'r diqqat bilan quloq soldi, shu yerda hozir bo'lganlarning hammasi bir og'izdan maktubni juda oqilona yozilgan deb maqtashdi. Keyin Sancho o'rni-dan turdi-da, kotibni yoniga olib, yotog'iga kirib ketdi: u ishni orqaga cho'zib o'tirmay, o'z xo'jayini don Kixotga shu zahotiyoq javob yozib yubormoqchi bo'ldi. U kotibga aytib turib, quyidagi mazmunda xat yozdirdi:

Sancho Pansaning lamanchlik don Kixotga maktubi:

Hozir tashvish va ishim oshib-toshib yotibdiki, bosh qashigani, hatto o'sib ketgan tirnog'imni olgani qo'l tegmaydi.

Ana shu vajdan orolda qanday yashayotganim haqida sizga hanuzgacha maktub yoza olmaganim uchun jahlingiz chiqmasligini o'tinib so'rayman, qimmatli sinor. Shu kunlarda men bu yerda ikkalamiz birgalikda o'rmon-u sahrolarda kezib yurgan vaqtlardagidan ortiqroq, ochlik azobini tortyapman.

Kuni kecha janob gersogdan maktub oldim. U orolga meni halok etish maqsadida allaqanday josuslar borganmish deb yozibdi. Men hozircha faqat birgina jinoyatchini aniqlay oldim, xolos, u ham bo'lsa, bu yerga kelgan hamma gubernatorlarni jonidan to'ydirib, bezor qiluvchi bir tabibdir, u shu xizmati evaziga maosh olarkan, uning ismi-sharifi Pedro Resio, o'zi tirteafueralik ekan, taqdir, o'zingiz bir o'ylab ko'ring-a, bu qanaqa ism bo'ldi! U yana odamni nobud qilib qo'ymasin, deb aziyat chekmay bo'ladimi? Bu tabib, mening ishim kasalni davolash



emas, balki uning oldini olishdir deb, ming'illagani-ming'ilagan, dori-darmon yozib berish o'rniga nuqul parhez qilishni buyuradi, shuning uchun ham uning bemorlari buning oqibatida eti ustixoniga yopishib, suyak bo'lib qoldilar, axir, oriqlik har qanday kasallikdan ham besh battar-ku. Xullas, u ochlikdan tin-kamni qurityapti, g'azabim qaynab, jonim hiqildog'imga kelib qoldi. Men tentak, gubernator bo'lib olganimdan keyin boplab mazali ovqatlar yeyman, tanam yayraydigan huzurbaxsh muzdek ichimliklar ichib, rohat qilaman, gollandcha choyshab-u parto'shaklarda mazza qilib yotaman deb, chuchvarani xom sanab yurgan ekanman, buning o'rniga allaqanday qalandarlarga o'xshab juda qashshoq kun kechiryapman.

Hanuzgacha biron chaqa soliq tushgani ham, biron tanga pora olganim ham yo'q. Nima gapligiga sira aqlim yetmay qoldi, bu yerlik odamlar odatda orolga biron yangi gubernator tayinlanadigan bo'lsa, u yetib kelmasidan burun orol aholisi unga ancha-muncha pul covg'a qilib yuboradi yoki qarzga beradi, bunday odat faqat bizninggina gubernatorlarga rasm bo'lmay, balki, umuman, barcha hukmdorlar ham shunday qilishadi, deyishadi.

Muhtaram janoblarining nasihat va yo'l-yo'riqlariga amal qilib, bozorlarga borib turibman, kecha bir yong'oqfurush xotini ko'rdim, u yangi yong'oq sotayotgan ekan, qarasam, yangi yong'oqqa puchroq, qurtlab ketgan eski yong'oqlarni aralashtirib sotyapti, buni payqab qolib, yong'oqlarni maktab bolalariga ulashib berishni buyurdim, – axir, bolalar yong'oqlarning puch yo to'qligini birpasda ajratib tashlashadi-da, – yong'oqfurush xotinning bozorga chiqishini ikki haftagacha man qilib qo'ydim. Odamlarning fikricha, to'g'ri ish qilibman. Yolg'iz siz marhamatli janobimgagina bir narsani aytmoqchiman: bu yerlik xalqning fikricha, bozorchi ayollarning barchasi olamdagi eng yaramas ayollar, chunki ularning hammasi benomus, sharin-hayosiz, toshbag'ir va bezbet, men ham bu fikrga qo'shilaman, chunki boshqa shaharlarda ham bunaqalarning ko'pini ko'rganman.

Gersoginya xonimning mahbubam Teresa Pansaga maktub yozgani va siz taqsim aytgan sovg'a-salomni yuborganidan behad minnatdorman. Vaqti kelib men gersoginya xo-

nimga o'z minnatdorchiligimni bildirishga harakat qilurman, muhtaram janobim, men uchun u ulug' xonimning qo'llarini o'pib qo'ying va sovg'a-salomingiz behuda ketmaydi deb qo'ying, bunga u olinasab xonim amalda ishonch hosil qilajaklar.

Basharti mahbubam Teresa Pansa menga maktub yoza-digan bo'lsa, uni yo'l kirasini to'lab, bu yoqqa jo'nating, chunki uy-joyim, bola-chaqamning hol-ahvoli qandayligini bilishni juda-juda istayman. Iloho, Tangri sizdek janobimni yovuz sehr-garlar tahdididan asragay, agarda bunga ishonmasam-da, chunki tabib Pedro Resioning menga ko'rsatayotgan g'amxo'rliги sharo-fati bilan bu yerdan eson-omon qutulib ketolsam kerak, deb o'y-layman, iloho, gubernatorlik muddatimni sog'-salomat tugatay.

Marhamatli janoblarning sodiq qullari gubernator Sancho Pansa.

Kotib maktubni so'rg'ichlab, kelgan choparni o'sha zaho-tiyoq jo'natib yubordi-yu, eshik og'asi va bakovul huzuriga jo'nadi. Sanchoning gubernatorligidek masxarabozlikni tugatish muddati yetgandi, ana shuning uchun ular o'zaro kengashib, buni qanday qilib amalga oshirilsa, ma'qulroq bo'lishini maslahat-lashib olishdi. Sancho bo'lsa bu kech orol aholisining farovon-ligini yanada yuksaltirish umidida yangi farmonlar ijod etmoqda edi. U oziq-ovqat mollari savdosi ustidan qat'iy nazorat belgiladi, har tarafdin vino olib kelib sotishga ruxsat berib, bu ishda har qanday qalloblik va tovlamachilik qilganlarga qarshi qattiq jazo choralarini belgiladi; poyabzal narxini, ayniqsa, uning fikricha, juda qimmat bo'lgan boshmoq narxini pasaytirdi; xizmatkorlarga to'lanadigan maosh miqdorini belgiladi; ko'zi ojizlarning har turli mo'jizalar haqida kuylashlarini man etib, agar ular bu mo'jizalarning darhaqiqat sodir bo'lganini isbotlay olmasalar, uni kuylamasinlar deb farmoyish berdi; kambag'al bechoralar holidan xabardor bo'lib turish maqsadida algvasil lavozimini ta'sis etdi, u kambag'allarni ta'qib etmay, balki ularning chindan ham qashshoq ekanliklarini tekshirish lozim, zotan, ko'pincha mayib-majruh joylarini hamda yara-chaqalarini ro'kach qilish, hammaning rahmini keltirish zamirida o'g'rilik va mayxo'rlik illati yashiringan bo'ladi. Xullasi kalom, u allaqancha ajoyib

farmoyishlar ijod etdiki, bu farmoyishlarga o'sha yurtlarda to shu kunga qadar amal qilinadi va u buyuk Sancho Pansaning qonunlari deb atalib kelinadi.

Buyuk gubernator hozircha o'zining oqilona qonun-qoidalari ustida bosh qotirarkan, bu yoqda uning taqdiri hal qilinmoqda edi. Hayot, taqdir o'zgarmas, qotib turadi, deb o'ylash yaramaydi. Aksincha, olamdagi hamma narsa harakatda, o'z o'qi tevaragida aylanadi. Bahordan keyin yoz keladi, yozdan keyin kuz, kuzdan keyin qish, qishdan keyin esa yana bahor – yana shunday qilib, vaqt beto'xtov o'taveradi, harakatining cheki-chegarasi yo'q, charxpalakdek tinimsiz aylanaveradi. Inson umri o'z intihosi tomon shamoldan tezroq yeladi, hech yoqqa qaramaydi, hech narsaga quloq qoqmaydi. Biz bu gaplarni o'z donishmandligimizni ko'z-ko'z qilish va tahsinga loyiq bo'lish uchun aytayotganimiz yo'q, balki Sancho Pansaning ta'rifi olamga taralgan gubernatorlik davrining qanchalik tez tugaganini, inqirozga yuz tutganini va tutundek tarqalib ketganini kitobxonga yetkazmoqchimiz, xolos.

O'z hukmronligining yettinchi kechasida Sancho qornini non-u vino bilan emas, balki sud hukmlari chiqarish, farmoyish hamda qonunlar chiqarishdek mashaqqatli ishlar bilan to'yg'azgan holda yotardi o'rmda. Qorni g'oyatda och bo'lishiga qaramay, endi uyqu eltib borayotgan bir paytda, quloqni batang qiladigan shovqin-suron va qo'ng'iroqlarning jarang-jurungi eshitildi, uning nazarida, butun orol ag'dar-to'ntar bo'lib ketayotgandek tuyuldi. U karavotida o'tirib, bu g'ala-g'ovurning sababini anglashga harakat qilib diqqat bilan quloq sola boshladi. Lekin hech narsaga tushunolmadi, chunki ko'p o'tmay shovqin-suron va qo'ng'iroqlar sadosiga karnay hamda do'mbiralarning gumburi jo'r bo'la boshladi, bu hol Sanchoning yana-da o'takasini yorib yuborgudek bo'ldi. Shunda u o'rmidan sakrab turdi-da, uy zax bo'lgani uchun oyog'iga kavushini ilib, kamzulini yelkasiga tashlab ulgurmayoq eshik oldiga yugurib borib, ochib yuborgandi, qo'llarida mash'ala ushlab, qilichlarini yalang'ochlab olgan olomonning bostirib kelayotganiga ko'zi tushib qo'rqib ketdi. Olomon ovozi baralla qo'yib qichqirib kelardi:

– Qurollaning, qurollaning tezroq, janob gubernator! Orolimizni yov bosdi, o‘zingiz jasorat va mahorat ko‘rsatmasangiz, omon qolmaymiz, hammamiz halok bo‘lamiz.

– Shunday deya jazavaga tushgan olomon baqirib-chaqirib, shovqin solib, ko‘rib turgan va eshitganlaridan hang-u mang bo‘lib esankirab qolgan Sanchoning yotog‘iga bostirib kirdi. Ulardan biri:

– Halok bo‘lmasin, orol xarob bo‘lmasin desangiz, tezroq qurollaning, sinor! – deb qichqirdi entikib.

– Qurollanib nima qilaman? – dedi Sancho. – Qurollanganimda, qo‘limdan nima keladi? Bunaqa ishni xo‘jayinim don Kixot janoblari o‘rniga qo‘yadilar. U kishi bir zarb bilan hamma dushmanlarni zabun qilgan, hammamizni xatardan xalos etgan bo‘lurdilar, men bir gunohkor bechora harbiy ishda hech nimaning farqiga bormayman.

– O, gubernator janoblari, – dedi boshqa birov, – bu qanday jur‘atsizlik! Tezroq qurollanib, maydonga chiqing, muhtaram janob, bizga yo‘lboshchi bo‘ling, gubernatorimiz bo‘lganingiz uchun ham bu unvon sizga mansub.

– Unday bo‘lsa, qurollantiring meni! – dedi Sancho ma‘yuslik bilan.

U shunday degan zahotiyuq jangchilar ikkita qalqonni ola solib Sanchoning ust ko‘ylagini kiyishga ham yo‘l qo‘ymay, birini oldiga, ikkinchisini orqasiga qilib, arqon bilan shunday chirmab tashladilarki, bechora gubernator na tizzasini buka olar, na biror qadam yura olardi. Uning qo‘liga nayza tutqizdilar, yiqilib ketmaslik uchun ana shu nayzaga tayanib qoldi. Keyin biron daqiqani o‘tkazmay, shu ondayoq qo‘shinga qo‘mondonlik qiling, oldingi safga o‘tib, jangchilarga dalda bering, deyishdi unga. «Basharti ulug‘ gubernatorimiz rahnamo bo‘lib, mash‘ala kabi yo‘limizni yoritib, bizni jangga boshlab borsalar, ishimiz o‘ngidan keladi», – deyishardi ular baravariga.

– Manavi la‘nati qalqonlar qimir etgani yo‘l bermasa, qanday qilib yuray men sho‘rlik! – dedi Sancho. – Meni dast ko‘tarib birorta darvoza yoki eshik oldiga olib borib qo‘yinglar, men dushman hamlasini nayza bilan qaytarib, yo‘liga tanamni

qalqon qilay.

– Qani, yura qoling, sinor gubernator, – dedi jangchilardan biri, – yurishingizga qalqonlar emas, qo‘rqoqlik xalal ber-yapti deyman. Tezroq bo‘ling, fursat o‘tib ketyapti, yov tobora ko‘payyapti, eshityapsizmi, ularning shovqin-suroni borgan sayin kuchayyapti, xavf tobora ortyapti.

Olomon uni shunchalar shoshiltirib, shunchalar koyiy boshladiki, bechora gubernator nihoyat yurishga urinib ko‘rdi, bir odim tashlamasdan oq zarb bilan ag‘darilib tushdi, nazarida, etlari parcha-parcha bo‘lib burdalanib, atrofga sochilib ketgan-day bo‘ldi. U shu holatda, qopqoqlari orasida qisilib qolgan toshbaqa yoki ichiga qum to‘lib qolgan qayiqdek, qaddini rostlolmay uzala tushib yotaverdi. Atrofdagi masxarabozlarning hatto shunda ham tirnoqcha rahmlari kelmadi unga, achinmadilar ham. Ular qo‘llaridagi mash‘allarni o‘chirib, yanada besh battarroq shovqin sola boshladilar, Sanchoni tepkilab, toptab, tezroq qurollaning deb baqirishib, uning qalqonlariga qilichlari bilan betinim tushiraverdilar. Boshini qalqonlar ichiga tortib, g‘ujanak bo‘lib olmanida, baxtiqaro gubernatorning holiga maymunlar yig‘lardi. Toptalgan, nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qolgan, terlab-pishib ketgan Sancho o‘zini xudoning panohiga topshirib, o‘zing sog‘-salomat asragin deb, chin yuragidan Tangriga iltijo qilib yotaverdi. To‘sto‘polon kuchaygandan kuchayib borardi. Ba‘zilar unga atayin qoqilishar, boshqalari to‘ppa-to‘g‘ri uning ustiga yiqilishar, bir so‘loqmonday yigit esa xuddi qo‘riqchi minorasiga chiqqandek, Sanchoning ko‘kragiga chiqib oldi-da: – Ey, biznikilar, bu yoqqa yuguringlar! Yov bu tomondan juda qisti-bastiga olyapti. Manavi eshikni to‘singlar! Darvozani berkitinglar, zinapoyalarga xodalar tashlab, yo‘lni to‘sib qo‘yinglar! Qatron qaynatilayotgan xumlar-ni keltiringlar, qaynab turgan yog‘larni olib kelinglar... Ko‘chalarga to‘siqlar quringlar, minoraga chiqiladigan yo‘lni berkitib tashlanglar! – deb qichqiraverdi ovozi boricha.

To‘sto‘polonga quloq solarkan, busiz ham o‘takasi yorilgudek qo‘rqib ketganidan chalajon bo‘lib yotgan Sanchoni tobora vahima bosmoqda edi.

«Ey xudo, qani endi irodang bilan shu orolni tezroq yov

egallasa-yu, men yo tezroq olamdan o'tsam, yo bu dahshatli manzaradan tezroq qutulsam!»

Nihoyat, uning bu iltijosi, ohi-zori mustajob bo'ldi chog'i, u endi tamom bo'ldim deb, umidini uzgan bir paytda:

– G'alaba, g'alaba qozondik, yov chekinmoqda! Ey, gubernator janoblari, turing o'ringizdan. Zafar sharbatidan totmoq va sizdek sohibqiron hamda yengilmas sardorimiz rahnamoligida yovdan olingan o'ljalarni bo'lishib olmoq fursati yetdi! – degan hayqiriqlar yangradi.

– O'rnimdan turg'azib qo'yinglar, axir, – dedi qiynalib ketgan Sancho arang.

Uni o'rnidan turg'azib qo'yishdi, qaddini rostlagach:

– Qo'lga tushgan o'ljalaringizning padariga la'nat! Bilganingizni qilinglar, basharti orangizda biror do'st odam topilgudek bo'lsa, bir qultum vino keltirishini o'tinib so'rayman, tomg'im qaqrab ketdi-ku, keyin terimni artib qo'yishni iltimos qilaman, yo'qsa, og'zi-burnim terga to'ladi hozir, – dedi.

Hamma yog'ini artib-surtishdi, vino olib kelib berishdi, keyin qalqonlarini yechib tashlashdi. Turtkilash va tepkilashdan tinka-madori qurigan Sancho boshdan kechirgan vahima hamda qo'rquv natijasida hushdan ketib, karavotga shilq etib tushdi. Bu hangomani boshlagan masxarabozlar hazilimizning oqibati zilga aylanib ketmasa edi, deb qo'rqib ketishdi, ammo ularning bezovtalanishi ko'pga bormadi: gubernator tezda hushiga kelib, soat necha bo'ldi deb so'radi; unga tong otib qoldi, deb javob berishdi. U indamay kiyina boshladi. Nima qilarkin deb, boshqalar ham churq etmay tikilib turishardi. Sancho kiyinib bo'lib, asta-asta yurib otxona tomon yo'l oldi, chunki rosa tepki yeganiidan oyog'ini ko'tarib bosishga ham madori yetmay qolgandi. Barcha a'yon-u mulozimlar unga ergashishdi. Otxonaga kirib, u eshagi yoniga bordi-da, bo'ynidan quchoqlab mehr bilan peshonasidan o'pdi, ko'zlariga yosh olib:

– Og'ir va musibatli kunlarimni yengil qilgan hamdardim, ko'makdosh do'stim, kel, yana birga bo'laylik. Butun fikr-u yodim sen bilan, seni qorningni to'yg'azish va abzallaringni yamab-yasqash bilan band bo'lgan damlar, sen bilan birga o't-

kazgan kunlarim, yillarim hayotimdagi eng baxtiyor damlar ekan. Sendan ajralib, shon-shavkat va iftixor minorasiga chiqib olganimdan buyon ming bir balolarga, mushkulot-u mashaqqatlarga giriftor bo'ldim, – dedi.

Shunday deya u eshagini egarlayverdi. Hech kim churq etmas, hammalari indamay turishardi. Eshagini egarlab bo'lgach, Sancho inqillab-sinqillab unga minib oldi-da, bakovul, kotib, eshik og'asi, tabib Pedro Resio va shu yerdagilarning hammasiga qarab bunday dedi:

– Chetroq turinglar, muhtaram sinorlar. Menga xalal bermanglar. Endi ko'zim ochildi, olamdan o'tgan ekanman, qaytadan jon bitdi menga, avvalgi erkin va betashvish hayotimga qaytmoqni istayman. Men gubernatorlik qilish, orol va shaharlarni dushmandan himoya qilish uchun tug'ilgan emasman. Menga qonunlar chiqarish, orol va shahar-u mamlakatlarni himoya qilishdan ko'ra yer haydab, ekin ekish, tok o'tqazib, uni parvarish qilish ko'proq yarashadi. Endilikda har kim qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanishi lozim ekanini yaxshi anglab oldim. Qo'llarim gubernator asosini tutgandan ko'ra, o'roq tutgani ma'qulroq, bir surbet tabibning ochdan o'ldirayozgan parhezlaridan azob chekkandan ko'ra, bo'kib qolgunimcha to'yib ovqatlanganim afzalroq. Bu gubernatorlik zindonida gollandcha choyshabda cho'zilib yotish-u suvcap teri po'stinlarga o'ralib yurishdan ko'ra, yozda eman daraxti soyasida qoq yerga ag'anab yotish-u qo'y terisidan qilingan po'stakka o'ralib yurish ming bora afzal deb bilaman. Sizlarni xudoning panohiga topshirdim, muhtaram janoblar, sinor gersogga, u onadan qanday tug'ilgan bo'lsa, shundayligicha ketdi, hech narsa yutmadi ham, yutqazmadi ham, deb qo'yinglar. Yana shuni ham aytib qo'yayki, odatda gubernatorlar boshqacharoq ish tutishlariga qaramay, men bu yerga cho'ntagimda qora chaqasiz kelgandim, qora chaqasiz tashlab ketyapman orolni. Qani, endi chetlaninglar, yo'l beringlar menga. Borib davolanay, nazarimda, aqalli, birorta qovurg'am sog' qolmaganga o'xshaydi.

– Siz hech qachon bunday qilmaysiz, sinor gubernator! – dedi Resio. – Muhtaram janoblariga ichgan zahotiyoc jarohat-

lariga malham bo'ladigan dori beraman. Uni ichishingiz bilanoq ilgarigi kuch-quvvatingiz qaytadi, tuzalib ketasiz. Bundan tashqari, o'z xatomni tuzataman va ko'nglingiz tusagan taomni yeyishga ruxsat beraman.

– Vaqt o'tdi, ha, vaqt o'tdi! – dedi Sancho. – Safarni bir daqiqa kechiktirgandan ko'ra, chulchut bo'lib qolganim ma'qul. Yo'q, yo'q, bunaqangi maynabozchilik aslo takrorlanmaydi. Xudo haqqi qasamyod qilib aytamanki, bu yerda gubernator bo'lib qolmayman, boshqa yerning gubernatorligini oltin tovoqqa solib tutganlarida ham qabul qilmayman. Bu – qanotsiz ko'kka parvoz etib bo'lmaganidek haq gap. Men, axir, Pansalar avlodidanman-ku, ularning hammasi qaysar, bir so'zli odam bo'lganlar. Zotan, ulardan birortasi «toq» degan bo'lsa, butun olamdagilar «juft» deb tasdiqlagani bilan o'z so'zidan qaytmagan. Baxtga qarshi, dushmanlarimning yulqib tepkilashlari uchun meni shunday yuksaklarga olib chiqqan o'sha chumoli qanotidek nozik qanotlarim ana shu otxonada qolib ketsin. Mayli, yuksaklarda parvoz etmay, yerda g'imirlab yura qolay, mayli, oyoqlarimga antiqa xrom<sup>1</sup> kavush kiymay qo'ya qolay, peshonamga bitgan o'sha qo'poldan qo'pol chipta kavushdan qo'ymasin. U har doim topiladi. Teng tengi bilan, tezak qopi bilan deydilar-ku, axir! Ko'rpangga qarab oyoq uzat, degan matal ham bor. Bas, behuda gap sotish yetar. Qani, yo'l beringlar menga, vaqt ham kech bo'lib qoldi!

Shunda bakovul bunday dedi:

– Sinor gubernator, sizning oqilona ish tutishingiz va nasroniylarga xos fe'li-atvoringiz biz uchun naqadar qadrli bo'lmasin, sizdan ajralish naqadar og'ir bo'lmasin, bajonidil ruxsat berishga tayyormiz. Biroq hammaga ayonki, har bir gubernator qo'l ostidagi viloyatni tark etishdan avval hisobot topshirishga majbur. Hazratim, o'n kunlik hukmronligingiz haqida hisobot

---

<sup>1</sup> Xrom (*yunoncha*; rang, bo'yoq) – Mendeleyev davriy sistemasining VI guruhiga mansub kimyoviy element; zangorikumush tusli, qiyin eriydigan qattiq metall (ko'pgina qotishmalarning zaruriy komponenti). Xrom – xrom tuzlari bilan ishlov berib tayyorlangan yumshoq, yuzasi to'rsimon naqshli, yaltiroq yupqa teri (bu yerda shu ma'noda).



topshiring-u, bermalol yo'lga tushavering.

– Hisobot talab qilishga meni bu lavozimga tayinlagan gersog janoblaridan bo'lak hech kimning haqqi yo'q, – dedi Sancho. – Uning huzuriga boraman va unga hisobot beraman. Unga bu yerga qanday qashshoq ahvolda kelgan bo'lsam, shunday qashshoqligimcha ketayotganimni ham aytaman. Bu esa orolni farishtalardek halollik bilan boshqarganimning eng yaxshi dalolatidir.

– Vijdonan aytganda, ulug' Sancho haq! – dedi tabib Resio xitob qilib. – Menimcha, unga javob berishimiz kerak, zotan, gersog u bilan uchrashishdan behad xursand bo'ladi.

Hamma uning gapini ma'qul topib, Sanchoga yo'lga tushishga ruxsat berishdi, unga faxriy soqchilar va safarga oziq-ovqat olishni taklif etishdi. Sancho, eshagimga ozroq suli, o'zimga esa bitta tegarak non bilan bir bo'lak pishloq bersanglar bas, dedi, boshqa hech narsaning hojati yo'qligini, chunki yo'li unchalik olis emasligini, tezda gersog saroyiga yetib olajagini aytdi. Hammalari navbatma-navbat Sancho bilan, u esa ularning har biri bilan quchoqlashib xayrlashdi-da, o'zining qat'iy va oqilona qarori bilan hammani hayratga solib, jo'nab ketdi.

## *ELLIK UCHINCHI BOB*

### **SANCHO PANSANING O'Z XO'JAYINI BILAN QANDAY UCHRASHGANI VA IKKOVLARINING GERSOG QASRINI TARK ETGANLARI**

Xursand hamda ayni vaqtda sal g'amginroq kayfiyatda bo'lgan Sancho o'z gubernatorligini tashlab, xo'jayinining huzuriga jo'nadi. U butun olamdagi orollarga hokimlik qilishdan ko'ra xo'jayini bilan birga bo'lishni ma'qul ko'rardi.

Sancho o'zining sobiq saroyidan hali olisga ketib ulgurmasdanoq orqadan allakim qichqirib uni chaqirib qoldi. Sancho hayron bo'lib o'girilib qaragandi, olisda bir yo'lovchining qo'lini

cho'zib, uni chaqirayotganini ko'rdi. Sinchiklab qarab, yaqinlashib kelayotgan yo'lovchining mavrlar Ispaniyadan haydab chiqarilganiga qadar<sup>1</sup> ularning qishlog'ida do'kondorlik qilgan mavr Rikoteni tanidi. Bu uchrashuvdan sevinib ketgan Sancho o'sha zahotiyiq eshakdan sakrab tushib, oshnasini quchoqlab oldi. Ular samimiy suhbatlasha ketdilar. Rikoteda uncha-muncha yegulik narsa va vino solingan kattagina suvdon bor ekan. Ular yo'l bo'yiga o'tirib olishib, kun bo'yi rosa chaqchaqlashishdi. Rikote boshidan kechgan barcha musibatlarni, o'z ishlarini yana yo'lga qo'yib yubormoq niyatida Ispaniyaga yashirincha qanday qaytib kelganini so'zlab berdi. Sancho o'z navbatida Rikotega Baratariya oroliga gubernatorlik qilganida qanday og'ir kunlarni boshidan kechirganini so'zlab berdi. Suhbat oxirida Rikote Sanchodan o'zini ma'murlarga tutib bermasligini iltimos qildi. Sancho uni tutib bermaslikka so'z berdi.

Bu orada quyosh ufqqa bosh qo'ya boshlagan edi. Buni ko'rib Sancho, allaqachon yo'lga tushishim kerak edi, deb shoshib qoldi. U shosha-pisha Rikote bilan xayrlashib, eshagiga minib, gersog qasri tomon hayday ketdi. Baribir, u qasrga kun yorug'ida yetib borolmadi.

Hamma yoqni qop-qorong'i tun qamrab olganida ham Sancho hamon yo'lda edi. U parvo qilmay borardi. Hozir yoz, havo ham yaxshi, u ochiq havoda tunashga ahd qildi. Tunni o'tkazish uchun yo'l chetidan qulayroq joy izlarkan, birdan kulrang do'sti bilan birgalashib qop-qorong'i jarga tushib ketayotganday bo'ldi, yuragi shuvullab orqasiga tortib ketdi. Shunda Sancho jahannamga quladim deb o'ylab, o'zini Tangrining panohiga butunlay topshirdi. Ammo oqibat, u o'ylaganidan yengilroq bo'lib chiqdi; shuvullab ikki sarjinchga pastlikka qulab tushib,

---

<sup>1</sup> Mavrlarni quvish Filipp II (1556 -1598) va uning valiahdi Filipp III (1598 -1621) davrida mavrlarni Ispaniyadan quvish nihoyasiga yetkazilgan. Bu quvg'in oqsuyak hukmronlar tomonidan ham, inkvizitsiyachilar tomonidan ham quloq eshitmagan yovuzliklar bilan amalga oshirilgan. Servantes xuddi o'z romani «Don Kixot»ni yozayotgan vaqtda, ya'ni 1609 -1610 yillarda mavrlar Lamanchdan zo'rlab chiqarilayotgan edi. Afrikaga ko'chib borgan mavrlar bir necha mayda davlatlarni tashkil qilishadi. Keyinchalik ularni Fransiya, Italiya va boshqa Yevropa davlatlari bosib olib, o'zlarining mustamlakalariga aylantirishadi.

eshagi tikka turib qoldi. Sancho esa unga minib olganicha o'tirardi. U o'zining a'zoyi badanini paypaslab ko'rib, ziyon-zahmat yetmay sog'-salomat qolganiga ishonch hosil qilgach, xudoga shukronalar o'qidi. Keyin bironing ko'magisiz bu yerdan chiqib keta olarmikanman deb g'orning devorlarini paypaslab ko'rdi. Devorlar sip-silliq ekan. Sancho juda xafa bo'lib ketdi, kulrang do'stining yurakni ezib ohista inqillashi, ayniqsa, ko'nglini buzib yubordi. Bu qulashda Sanchoga zarar yetmagan bo'lsa-da, chamasi, eshak og'irroq shikastlangan edi.

– O, inson bolasi peshonasiga qanchalar falokat-u musibatlar bitilgan-a, uning boshiga qo'qqisdan qanday malomat toshlari yog'iladi-ya! – deb fig'on chekdi bechora Sancho. – Kechagina gubernatorlik taxtida o'tirgan odam bugun allaqanday bir g'orda tiriklayin ko'milib o'tiradi deb kim ayta olardi! Menga yordam beradigan, bu jahannamdan qutqazib oladigan biror kimsa: na xizmatkor, na mute fuqarolarim bor, hatto birorta tasodifiy yo'lovchi ham uchramaydi-ya. Basharti eshagim ko'rgan jarohatlaridan, men esa boshimga tushgan bu musibatdan yuragim yorilib olamdan o'tmasak, ana shu la'nati joyda ochdan o'lishga mahkum etilganga o'xshaymiz. Xo'jayinim don Kixot janoblari hammani hayratda qoldirib Montesinos g'origa tushganlarida juda rohat qilgandilar. G'orda u kishiga o'z uylaridagilardan ko'ra ortiqroq izzat-ikrom ko'rsatishgan edi. U yerda janobim ajoyibot-g'aroyibotlarni ko'rganlar, bu yerda esa qurbaqa-yu ilon-chayonlardan bo'lak narsa yo'qqa o'xshaydi.

O, qanday musibatlarga giriftor bo'ldim men baxtiqaro! Tentakligim va ahmoqona o'y-niyatlarim tufayli ana shunaqa kunlarga qoldim! Ehtimol, bir kun emas bir kun odamlar mening etlari kemirilgan oppoq suyaklarimni eshagimning suyaklari bilan birga shu yerdan topishar. Bu suyaklarni ko'rib Sancho Pansaning o'z eshagidan, eshakning esa Sancho Pansadan ajralmay, doimo birga ekanligini bilgan odamlarning bari bu yerda kim halok bo'lganini fahmlaydilar, albatta. Eh, sho'rimiz quridi endi! Qanday dahshatli o'lim bitilgan ekan qismatimizga! O'z uyimizda, yaqin kishilarimiz oldida oyoq uzatish nasib etmagan ekan bizga. O'z yurtimizda bo'lsak, aqalli, tomog'imizga suv

tomizadigan, ko'zimizni bekitib qo'yadigan biror odam topilib qolardi. Eh, do'stim, birodarim, menga qilgan shuncha xizmatlaringni yaxshilik bilan qaytara olmadim!

Sancho Pansa ana shunday fig'on chekarkan, eshagi jimgina quloq solardi, uning nolasidan bechora jonivor g'amga botganga o'xshardi. Butun tun ana shunday nola-yu fig'on bilan o'tdi. Nihoyat, tong otdi, kun yorishib olam quyosh nuriga g'arq bo'lgach, bu quduqdan birovning ko'magisiz aslo chiqib ketish mumkin emasligiga Sanchoning imoni komil bo'ldi. Shunda u biror kimsaning qulog'iga chalinib qolar deb, yanada balandroq nola cheka boshladi. Ammo uning oh-vohlari kimsasiz dasht-u biyobonda faryod urishday bir gap edi; bu joylarda uning fig'oni-ga quloq soladigan hech zog' yo'q edi. Sancho endi shubhasiz halok bo'larkanman degan qarorga keldi. Keyin u oh-voh qilishni, yordamga chaqirishni yig'ishtirib, eshagiga qaray boshladi. Eshagi esa tumshug'ini osmonga qilganicha cho'zilib yotardi. Sancho bir amallab o'rnidan turishiga yordamlashdi-da, keyin safar to'rvasidan bir bo'lak non olib, eshagiga uzatdi. Eshak juda suyunib ketdi, Sancho esa go'yo u tushunadigandek:

– Non har qanday falokat-u dardlarning davosi, – dedi nasihatomuz.

Shu payt, uning baxtiga, bu zindon devorlaridan biriga quyosh nuri tushib yoritdi, shunda Sancho devorda allaqanday kovak borligini ko'rib qoldi. U bu kovakka qorni bilan sudralib kirib, uning boshqa g'orga olib o'tadigan yo'lak ekaniga ishonch hosil qildi. Keyin orqasiga qaytib chiqib, katta bir toshni oldi-da, kovak og'zini tosh bilan urib kengaytira boshladi. Nihoyat, u kovakni eshak o'ta oladigan qilib kengaytirishga muyassar bo'ldi. Sancho eshagini yetaklab yo'lakka olib kirdi-da, ilgarilab ketaverdi. U yer bu yerda tepadan tushib turgan yorug'lik g'orni yoritib, zulmatni quvardi-yu, biroq bechora qurolbardorning dahshat va g'ashlik bilan to'lgan qalbini yoritolmas, undagi vahimani quvolmasdi.

– Ey, qodir Egam, o'zing madad bergaysan! – deb takrorladi ichida. – Qani endi mening o'rnimda xo'jayinim don Kixot janoblari bo'lib qolsa. U, balki, manavi jahannamga o'xshagan

g'orni chamandek yashnab turgan bog'lar va podsholarning hashamatli qasrlari deb hisoblagan, bu zimiston yo'lak birorta chamanzorga olib chiqadi deb umid qilgan bo'lardi. Men bechora bo'lsam o'takam yorilib, mana hozir oyog'im ostidan birorta chuqur chiqib qoladi-yu, tubi yo'q jahannamga qulayman deb yuragimni hovuchlab borishdan nariga o'tolmayman.

Sancho g'ordan ehtiyotkorlik bilan sekin-sekin o'tib borarkan, mana shunday fikrlar ko'ngliga qutqu solar, azob berardi.

Zimiston yo'lakdan yarim milcha yurilgach, nihoyat, u old tomonda xiragina yorug'lik ko'rdi. Bu yorug'lik, Sanchoning nazarida, jahannamga olib boradigandek ko'ringan yo'lakning yorug' jahonga olib chiqishidan nishona edi.

Sancho ana shu zimiston g'orda birpas aziyat cheka tursin, qani ko'raylik-chi, uning xo'jayini don Kixot ertalab nimalar bilan mashg'ul bo'lganiykin?

Ritsarimiz tongotarda uyg'onib, sahargi sarrin havodan to'yib-to'yib nafas olish va go'zal sinora Dulsineya haqida g'amgin xayollarga berilish uchun dalaga chiqib ketdi.

Don Kixot biroz chigillarini yozmoqchi bo'lib Rosinantni yo'rttirib ketdi. Yo'rg'alab borayotgan sodiq oti qo'qqisdan allaqanday o'pirilib tushgan chuqur oldiga borib qoldi. Don Kixot bor kuchi bilan jilovidan tortib qolmaganida, chuqurga qulashi turgan gap edi. Ammo ritsarimiz Rosinantni chuqurning shundaygina qirg'og'ida to'xtatib qolgandi. U otda o'tirgan joyida chuqurni ko'zdan kechirdi: o'pirilgan joy juda chuqurga o'xshardi, tubi qop-qorong'i zimiston edi. Ritsar endi otdan tushmoqchi bo'lib turganida yer qa'ridan allaqanday qichqirgan ovozlari va nola eshitildi. Birpas diqqat qilib quloq solib turgach, quyidagi so'zlarni angladi.

– Ey! Ey, yuqoridagilar! Nahotki tiriklayin go'rga kirgan bir gunohkor bandaning nolasini eshitib, unga shafqat qiladigan biror nasroniy yoki unga yordam qo'lini cho'zadigan biror saxovatli ritsar topilmasa! – derdi bu ovoz.

Don Kixot xuddi Sancho Pansaning ovozi eshitayotganday bo'ldi. G'oyatda taajjublangan don Kixot chuqurga engashib, ovozi boricha:

– Ey! Pastda nola chekayotgan kim? Kim yordamga chaqiryapti, – deb qichqirdi.

– Baratariya orolining gubernatori, mashhur ritsar la-manchlik don Kixotning sobiq qurolbardori, baxti qaro Sancho Pansadan bo‘lak hech kimsa emas, – deb javob qildi yer qa‘ridan kelgan ovoz.

Bu gaplarni eshitib, don Kixotning kapalagi uchdi. Sancho Pansa olamdan o‘tibdi, bechora qurolbardorimning murdasi lahadda azob chekayotgan ekan, degan fikr keldi. Xayoliga kelgan mudhish fikrdan larzaga kelib:

– Barcha aziz avliyolar haqqi, o‘tinib so‘raymankim, kimsan o‘zing? Agar sen biror iztirob chekayotgan ruh bo‘lsang, qabrda tinch yotmog‘ing uchun qanday yordam bermog‘im mumkin, shuni ayt menga. Basharti mening burchim bu dunyodagilarga madad berish, ularning dardiga malham bo‘lish bo‘lsada, ammo men u dunyoda iztirob chekayotgan jafokashlarga ham yordam bermoqdan benihoyat xursand bo‘lurman.

– So‘zlaringiz hamda tovushingizdan valine‘matim don Kixot janoblariga o‘xshaysiz, – degan ovoz chiqdi g‘orda.

– Ha, men don Kixotman, – deb javob berdi ritsarimiz, – zaiflar va oqizlarning madadkori, himoyasizlarning pushtipanohi o‘sha don Kixotman. Kimki muhtoj bo‘lsa, u xoh tirik, xoh o‘lik, bundan qat‘i nazar, unga ko‘mak bermoq mening burchimdir. Kimligingni ayt, ey bechora ruh. Agar sen, haqiqatan ham, mening qurolbardorim Sancho Pansa bo‘lsang-u, bandalikni bajo keltirib, Tangrining marhamati bilan do‘zax azobidan qutulib, arosatga tushib qolgan bo‘lsang, qani ayt-chi, nega iztirob chekyapsan? Muqaddas cherkovimiz tortayotgan azob-uqubatlaringni yengillatishga qodir. Zotan, men ham uning gunohingdan o‘tib, azobingni yengillatishi uchun qo‘limdan kelganicha yordam berishga tayyorman. Faqat sen o‘z nomingni va nimaga muhtojligingni aytsang bas.

– Barcha ins-u jinslar va bari aziz-avliyolar haqqi, qasamyod etamanki, men sizning qurolbardoringiz Sancho Pansaman va hali qazo qilganimcha yo‘q; gubernatorlikni tashlab kelishga majbur bo‘ldim, xolos. Nima uchun bunday qilganimni esa keyin

so'zlab beraman. Shu bugun tunda sizning huzuringizga oshiqib borayotib, eshagim bilan birga bu yerga qulab tushdim. U mening haqqoniy gapirayotganimni tasdiqlashga tayyor.

Shu payt, go'yo Sanchoning gapini tushungandek, eshak kuchining boricha hangrab yubordi, butun g'or bo'ylab aks sado yangradi.

– Ajoyib shohidlik bu! – deb qichqirib yubordi don Kixot. – Uning hangrashini xuddi o'z o'g'limning ovoziidek yaxshi taniyman, sening ham tovushingni tanidim, Sancho. Bir nafas sabr qil. Men hozir qasrdan yordamga odamlarni chaqirib kelaman, ular seni, albatta, o'z gunohing evaziga tushib ketganing, bu yer osti g'ordan qutqarib olurlar.

– Tezroq boring, muhtaram janobim, – deb javob qildi Sancho, – Xudo haqqi, tezroq boring! Qo'rqqanimdan yuragim yorilib o'lay deyaipman. Menga nuqul xuddi shu yerda kunim bitadigandek tuyulyapti.

Don Kixot biron daqiqa ham vaqtni zoye ketkazmay, qasrga tomon otini yo'rttira ketdi, u yerga yetib borib, Sancho Pansaning boshiga tushgan baxtsizlik haqida gersog bilan gersoginyaga so'zlab berdi. Ular Sanchoning qadim zamonlarda qasrdan katta yo'lga tomon qazilgan yer osti yo'lagining biror yeriga tushib ketganini o'sha zahotiyoq angladilar. Qasr egalari faqat bir narsanigina tushuna olmasdilar: bizga va xo'jayini don Kixotga xabar bermay turib, bu Sancho gubernatorlikni qanday qilib tashlab ketdiykin. Har holda, ular o'sha ondayoq Sanchoni qutqazib olish uchun xizmatkorlarni jo'natdilar. Ular Sancho bilan uning eshagini bir amallab zulmatdan yer yuzasiga tortib olishdi. Bu ajib voqea guvohi bo'lib turgan bir talaba:

– Hamma yaramas gubernatorlar mana shu yer osti g'orida Sancho Pansaga o'xshab, och qolib, ranglari murdadek holga tushsa, sariq chaqasiz o'z lavozimlarini tashlab ketgan bo'lardi-da! – deb qo'ydi.

Buni eshitgan Sancho:

– O'n kun muqaddam menga in'om qilingan orolni boshqarishga kirishgan edim, ey masxaraboz oshnam. O'sha fursatdan buyon biror marta ham qornim to'yib non yemadim; tabiblar

meni ochdan sirishdi, dushmanlarim azob berishdi; soliq yiqqani, pora olib boylik orttirgani qo'lim ham tegmadi. Inson har narsani orzu qilarkan-u, lekin Tangrining o'zi har kimga bilib taqsimlarkan: kimga nima lozimligi yolg'iz uning o'ziga ayon ekan. Shunday bo'lgach, hech kim burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymasin, o'zi suv ichadigan qudug'iga tupurmasin ekan; mening ahvolimdan Egamning o'zi xabardor, ana shu sababdan bir talay gaplarni gapirib tashlay olsam-da, indamay qo'ya qolaman.

— Qo'y, xafa bo'lma, Sancho, mabodo biron noma'qul gap aytadigan bo'lsalar, jahling chiqmasin, — dedi don Kixot. — Vijdoning pok bo'lsa bas, qo'yaver, odamlar og'izlariga kelganini gapiraversinlar. Fisqi-fasodchi odamning tilini bog'lab qo'yish bepoyon dalaga darvoza qurib, qulflab qo'yishdek mushkul bir narsa. Agar biror gubernator boy-badavlat bo'lib olgach, o'z lavozimini tashlab ketsa, uni o'g'ri, agarda qanday qashshoq bo'lib kelgan bo'lsa o'shandayicha ketaversa, uni go'l va ahmoq odam deydilar.

— Meni o'g'ri emas, ahmoq deyishsa kerak, albatta, — dedi Sancho.

Shu ko'yi suhbatlashib qasrga yetib borganlarida, gersog bilan gersoginya ularni rovonda kutib turishardi. Sancho u yoqqa borishdan avval kecha tunda qattiq shikastlangan eshagini tuzukroq yerga bog'lab qo'yimoqchi bo'ldi. U eshagini otxonaga olib kirib, yem berganidan keyingina o'z hukmdorlari huzuriga bordida, tiz cho'kib:

— Muhtaram sinorlar, sizdek oliy xazratlarning ixtiyor va irodalaringizga binoan men hech qanday xizmat ko'rsatmaganim holda Baratariya oroliga gubernator qilib tayinlangandim. Bu orolga hech vaqosiz qanday qadam bosgan bo'lsam, uni shunday tark etdim: men bundan hech nima yutganim ham, hech narsa yutqazganim ham yo'q. Orolni yaxshi boshqardimmi yoki yomonmi, buni ishlarimdan xabardor odamlar so'zlab berishsin. Men og'ir va mujmal ishlarni hal qildim hamda o'ziga yarasha hukm etdim. Men toki gubernatorlik qilarkanman, doim och qoldim; orol va gubernatorning tabibi tirteafueralik Pedro Resioning



inon-ixtiyori shunday edi. Tunda orolimizni yov bosdi. Zo'r olishuvdan so'ng orol aholisi mening mardona rahnamoligim ostidagina o'z ozodliklarini saqlab qola olganlarini aytishdi. Iloho, Tangrim ularga, gaplari qanchalik haq bo'lsa, shunchalik sihat-salomatlik ato qilsin. Xullas kalom, bu vaqt ichida men gubernatorlikdek lavozimning tamomiy burch hamda mushkilotlari bilan yaqindan tanishib, bu ish qo'limdan kelmasligini angladim. Shuning uchun ham gubernatorlik lavozimi meni tark etmasdan turib, ilgariroq men uni tark etishga ahd qildim. Kecha ertalab orolni tashlab chiqdim, u yerga kirib borganimda ko'chalari, uy va tomlari qanday bo'lsa, shundayligicha qoldi. Hech kimsadan qarz olganim, hech qanday foyda keltiradigan manfaatli ishlarga aralashganim yo'q. Rostini aytsam, bir necha foydali qonunlar chiqarmoqchi bo'ldim-u, ammo, baribir, amalga oshmasa kerak deb o'ylab, bunday qilmadim. Rostki, amalga oshmas ekan, ularni chiqardi nima-yu, chiqarmadi nima. Shunday qilib, hech qanday mulozimlarsiz, yolg'iz orolni tashlab chiqdim, faqat birgina eshagim ajralmas hamrohim bo'ldi. Kela turib yer osti g'origa tushib ketib, butun tunni o'sha yerda o'tkazdim. Nihoyat, kun yorishgandagina allaqanday yer osti yo'lagi bor ekanligini ko'rdim va zora bu qorong'i zindondan chiqib ketsa bo'ladigan joy topilib qolsa, degan umidda yo'lakdan olg'a qarab yurdim. Imonim komilki, agar Tangrim menga xaloskorimni – xo'jayinim don Kixot janoblarini yetkazmaganida, yer ostida umrbod qolib ketardim. Ana shunday qilib, janobi gersog va gersoginya, sodiq gubernatoringiz Sancho Pansa huzuringizda turibdi. U o'zining o'n kunlik gubernatorligidan faqat bitta manfaat ko'rdi – bu ham bo'lsa, birgina orolga emas, hatto butun dunyoga hokim bo'lish sariq chaqaga ham arzimagan ish ekaniga ishonch hosil qildi. Zotan, bunga ishonch hosil qilgan ekan, siz muhtaram janoblarning oyog'ingizni o'pib ta'zim etajak va ming bora afsus bilan gubernatorlik lavozimini bo'ynidan soqit qilajak hamda o'z xo'jayini janob don Kixot xizmatiga qaytajak. Uning xizmatida zahmat chekib, doim vahima ichida yuragimni hovuchlab yursam-da, har holda, to'yib ovqatlanaman. Bu eng muhimi; nima bilan to'yg'azsam ham mayli, qornimni – sabzi

yeymanmi yoki kaklik go'shtimi, ishqilib, to'q bo'lsam, bas.

Sancho shu bilan o'z kalomini tugatdi. Don Kixot bu orada sodiq qurolbardorim bema'ni gaplarni valdirab yurmasin deb yurak hovuchlab turdi. U Sanchoning odob bilan va oqilona so'zlayotganini ko'rib, qalbida Tangri sharafiga shukronalar o'qidi.

Gersog Sanchoni bag'riga bosib, uning gubernatorlikni bunchalik tez tark etganiga ming marta afsus-nadomatlar bildirdi. Ammo u Sanchoning o'z hukmronligidan serdaromad va ayni vaqtda mashaqqati kamroq biror lavozimga o'tirishi haqida g'amxo'rlik qilajagini aytdi. Gersoginya ham Sanchoni bag'riga bosib quchoqladi va ayanchli, aziyat chekkan qiyofasini ko'rib, uni yaxshilab ziyofat qilishlarini buyurdi.

Sancho boshdan kechirgan iztirob va hayajonlarini tezda unutib, ko'ngli taskin topdi, boplab ovqatlanib, miriqib uxladi, gersoginyaning iltifotiga sazovor bo'lganidan hamda yana saroyga kelib qolganidan behad mamnun edi.

Don Kixotga kelsak, bizning shonli ritsarimiz bunday dabdabali, bema'ni hayotdan zerikib, iztirob cheka boshlagandi.

Gersoglar xonadonining jahongashta ritsar sharafiga uyushtirayotgan bazm va ziyofatlariga qatnashib, vaqtini bekor o'tkazarkan, og'ir gunohga botayotganday his etardi u o'zini. Bu behuda o'tayotgan vaqtim uchun Tangri taborak oldida qat'iy hisob bermasam, deb cho'chirdi. Ana shu vajdan u kunlarning birida mezbonlardan bu mehmondo'st qasmi tark etishga ijozat so'radi. Gersog bilan gersoginya qattiq ranjiganlarini bildirdilar, lekin rozi bo'ldilar. Gersoginya Sanchoga xotinining maktubini tutqazdi, shunda uning o'pkasi to'lib, ko'z yoshi aralash shunday dedi:

– Mening gubernatorlik mansabiga minganimni eshitib, rafiqam Teresa Pansaning qalbida uyg'ongan mo'tabar orzu-umidlarning yana qaytadan xo'jayinim don Kixot janoblarining safarida unga yo'ldosh bo'lib qolishim bilan chilparchin bo'lishi kimning xayoliga kelibdi deysiz? Har qalay, Teresamning bizning shon-sharaf va nomusimizni bukmay, gersoginya xonimga cho'chqayong'oq yuborganidan bag'oyat xursandman. Endilikda

uni qadr bilmas nonko‘r deyishga hech kimning haddi yo‘q. Yana shuning uchun ham xursandmanki, bu sovg‘a-salomni pora deb bo‘lmaydi. Sovg‘a-salom yuborilgan damda men orolda hukmronlik qilib turgandim, shunisi tamoman ayonki, birovdan muruvvat ko‘rgan kimsa arzimas narsa bilan bo‘lsa ham, yaxshilikka yaxshilik qaytarmog‘i kerak. Marhamatingizga o‘zga biron nima bilan tashakkur bildirolmadik: gubernatorlikni sariq chaqasiz qup-quruq qabul qildim va o‘z lavozimimni sariq chaqasiz qup-quruq tashlab ketdim. Shuning uchun ham pokiza vijdonim bilan, bu juda katta gap, ayta olamanki: men hech nima yutmadim ham, yutqazmadim ham, – shu xilda o‘ziga-o‘zi taskin berdi Sancho.

Nihoyat, safarga chiqadigan kun ham yetib keldi. Kechqurunoq gersog va gersoginya bilan xayrlashgan don Kixot butun qurol-yarog‘larini taqib, tong saharda otiga minib qasr oldidagi maydonga chiqdi. Er-xotin gersoglar boshliq jami saroy ahli uni so‘nggi bor ko‘rgani qasr ayvoniga to‘plandi. Safar to‘rvasi bilan chamadonini ortib olgan Sancho o‘z eshagida g‘oyatda xursand bo‘lib o‘tirardi. Gersog bakovuli xayrlashuv oldidan don Kixotga sezdirmay, ikki yuz oltin eskudo solingan og‘ir hamyonni qistirgandi unga. Sancho xursandligidan og‘zi qulog‘iga yetib, chor atrofga ikki bukilib ta‘zim qilardi.

Don Kixotning esa sabri chidamay, qasrdan tezroq jo‘nab qolgisi kelardi. U er-xotin gersoglarga ta‘zim qildi-da, Rosinantning boshini burib, qasr darvozasidan chiqdi. Dalaga chiqishi bilanoq ritsarimiz o‘zini kuchiga kuch qo‘shilganday bardam va tetik seza boshladi. U qalbi quvonchga to‘lib, bo‘lajak xavotirli sarguzashtlar, ritsarlik qahramonliklari haqida o‘ylarkan, Sanchoga yuzlanib, dedi:

– Ozodlik – Tangri insonlarga ato qilgan baxt-saodatlarning eng mo‘tabaridir, Sancho. Yer qa‘rida va dengiz tubida yashirinib yotgan jamiki xazina-yu boyliklar unga teng kelolmaydi. Ozodlik yo‘lida, shon-sharafni himoya qilgandek, jonni tikish mumkin va zarur. Tutqunlik esa, aksincha, inson boshiga tushadigan falokat va baxtsizliklarning eng kattasidir. Gersogning bizni qanday dabdaba bilan kutib olganini ko‘rdingmi,

Sancho. Endi bu yog'ini eshit; ana shu hashamatli va to'kin-sochin, xushxo'r taomlar va o'tkir, xushta'm vinolar og'irligidan mayishib turgan stol yonida o'tirarkanman, ba'zan, nazarimda, albatta, ochlik va tashnalikdan azoblanayotganday bo'lardim. Zotan, men bu lazzatli taomlar va shirin-sharbat ichimliklardan bemalol hamda bamaylixotir totinolmasdim, huzur qila olmasdim. Birovning noni birovga botmaydi, uning xayr-saxovati va marhamati oliyjanob kishilarning qalbiga kishan uradi. Peshonasiga bitilgan bir burda nonni minnatsiz yeydigan kimsa olamda eng baxtiyor odamdir, uning hech kimdan tili qisiq yeri bo'lmaydi.

— Har holda, — dedi Sancho, — xayrlashuv oldidan menga bergan ikki yuz eskudolik hamyoni uchun bakovuldan minnatdor bo'lishimiz lozim. Uni har ehtimolga qarshi asrab qo'yaman. Bizni ziyofat qiladigan qasr-u saroylar hadeb yo'liqavermaydi, axir. Mushtlab rosa adabimizni beradigan mehmonxonalarga ham tushib qolarmiz hali. — Shunday deya Sancho pul solingan hamyonni ko'ksiga yanada mahkamroq bosib, eshagini niqtab haydayverdi.

## *ELLIK TO'RTINCHI BOB*

### **DON KIXOTNING BARSELONA YO'LIDA BOSH DAN KECHIRGAN SARGUZASHTLARI**

Do'stlarimiz gersog qasrida uzoq vaqt mehmondorchi-likda qolib ketib, Saragossadagi musobaqalarga kechikkanlari sababli tantanali bayramga tayyorgarlik ko'rilayotgan Barselona-ga borishga ahd qildilar. Safarning dastlabki kunlarida hech qanday hodisa yuz bermadi. Ular katta yo'ldan osoyishta va xotirjamgina ilgarilab borishardi. Tushki jaziramada ular biror soy yoki anhor bo'yidagi sershox daraxt soyasida salqinlab rohat qilib dam olishar, kechalari esa yo'l yoqasidagi mehmonxona yoki karvonsaroylarga qo'nishardi. Bunaqa sayohat, ayniqsa, Sancho-ga juda yoqib tushardi. Don Kixot ham ajoyib-g'aroyib va xatarli

sarguzashtlarni qo‘msayotgandek ko‘rinardi. Sodiq qurolbardori xo‘jayinining bir qadar tinchib qolganini ko‘rib taajjubda edi. U endi mehmonxonalarni hashamatli qasrlar, qovoqxonachilarni esa dongdor ritsarlar deb qaramas, ijaraga turuvchilarning janjal va mushtlashishlariga aralashmas, qarshidan kelayotgan yo‘lovchilarni beparvolik bilan kuzatib qolardi. Sanchoning vaysashlariga e‘tibor ham bermay, o‘yga tolib, g‘amga botib, oldinga tikilganicha borardi u. Chamasi, pahlavonimizning fikri-yodini bir o‘y band etgan, allaqanday bir tashvish yurak-bag‘rini tirnardi. Bu qanday o‘y va qanday tashvish ekanini muhtaram kitobxon hozir bilib oladi.

Bir kuni, safarga chiqqanlarining beshinchi yo oltinchi kuni ular shoxlari ulashib-chirmashib ketgan daraxtlar soyasida shaldirab oqayotgan, suvi tip-tiniq ariq bo‘yida dam olgani o‘tirishdi. Sancho Rosinant bilan eshagining egar-jabduqlarini olib, o‘tlagani qo‘yib yubordi, so‘ngra u odatdagi ombori – safar to‘rvasi yoniga oshiqdi, to‘rvadan bor-yo‘q tamaddisini chiqardi. Don Kixot ovqatga hadeganda qo‘l urmay, g‘amga botib, indamay o‘tirardi. Sancho esa odob saqlab ovqatga birinchi bo‘lib qo‘l urolmay, xo‘jayinining boshlab berishini kutardi. Lekin uning xayol daryosiga g‘arq bo‘lganini ko‘rib, Sancho odob-qoidalarni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘ydi-da, indamay pishloq va nondan olib kavshay boshladi.

– Ol, olaver, do‘stim Sancho, – dedi don Kixot, – tani sog‘likka olaver, men esa, mayli, yelkamdan bosayotgan g‘am toshi, taqdiri azalning og‘ir zarbalari ostida ezilib o‘lay. Men, Sancho, ajal bilan o‘ynashib yashagani, sen esa hayotga qo‘sh-qo‘llab yopishib olganingcha olamdan o‘tgani tug‘ilganmiz. Mabodo, so‘zlarimning haqqoniyligiga qanoat hosil qilmoqchi bo‘lsang, men va mening qahramonliklarim haqida bitilgan kitobda qanday tasvirlanganimni o‘qib ko‘r. Men janglarda dov-yurak, xushxulq, aslzodalar izzat-ikromiga sazovor, xonimlarga manzur odamman. Xo‘sh, hozir qanday ahvoldaman? Yovuz jodugarlarning sehr-afsunlari hamon yelkamni bosib turibdi, ularni uloqtirib tashlashdan hozircha ojimman. Ko‘zim nuri, qalbim gavhari go‘zal Dulsineya ham sehrlanganicha xunuk,

bedavo, qo'pol dehqon ayol qiyofasida sirli g'orda azob-uqubat chekib yotibdi hanuz. Buni o'ylaganim sari tishlarim o'tmaslanib, jag' tishlarimning madori qurib, ishtaham g'ippa bo'g'ildi. Eng dahshatli o'lim topishga, ochdan o'lishga qodirman.

– Muruvvatli xo'jam, – dedi Sancho og'zi tinmay kavsharkan. – Qorni to'q, osongina jon beradi degan maqolni manzur ko'rmasligingiz yaqqol sezilib turibdi. Menga qolsa, o'zimni ochdan o'ldirmoqchi emasman. Charmni mo'ljaliga yetgunicha tishlab tortadigan etikdo'zga o'xshashni ma'qul ko'raman. Peshonamga bitilgan umrim tugab, nasibam uzilguncha ovqat yeyishni qo'ymayman. Shu narsani bilib qo'yingki, janobimga o'xshab ataylab o'zini xit qilishdan ko'ra ahmoqona ish yo'q. Quloq soling gaplarimga: oldin tamaddi qilib, keyin manavi yumshoqqina maysa to'shakda mizg'ib olsangiz, ancha yengil tortasiz.

– Eh, Sancho, – deb e'tiroz bildirdi don Kixot g'amgin. – Gapimning tagida nima gap borligiga tushunmayotganing ko'rinib turibdi. O, mening iltimosimni bajo keltirishga rozi bo'lsang edi! Shunda o'sha zahotiyoyq yengil tortardim, qalbimdagi g'am toshi ko'tarilardi. Sendan iltimosim shu. Maslahatingga ko'nib, biroz mizg'ib olgunimizcha, sen Rosinantning tizginini olib, chekkaroqqa chiqqin-da, ust-boshingni yechib, Dulsineyaning ozod bo'lishi uchun belgilangan uch ming qamchi hisobidan badaningga uch-to'rt yuz qamchi ur. O'zing o'ylab ko'r, sening marhamating va ojizliging tufayli sho'rlik sinoraning yovuz sehrjodular asoratida hamon iztirob chekib yotishi qanday achinarli hol.

– Bu xususda ancha-muncha gaplarni aytsa bo'ladi, – javob berdi Sancho xotirjamlik bilan. – Keling, avval miriqib uxlab olaylik, u yog'i bir gap bo'lar. Shuni bilib qo'yingki, marhamatli janobim, o'zini o'zi savalash, ayniqsa, zarbalar semiz, miqti badanga tushmay, ozg'in tanaga tegadigan bo'lsa, juda mushkul ish. Keling, sinora Dulsineya picha sabr qila tursin. Yaqin kunlarda u o'zimning butun a'zoyi badanimni momataloq qilib tashlaganimni ko'radi. Hali-hozircha birov o'lgani yo'q, u hayot. Bu bilan demoqchimanki, hali men olamdan o'tganimcha yo'q, ha-

yotman, menki hayot ekanman, bergan va'damni bajo keltirman. Buning uchun so'z beraman sizga.

Don Kixot Sanchoning qasamini eshitarkan, ko'ngli ochilib, dimog'i chog' bo'ldi. U picha tamaddi qildi, Sancho esa qornini obdan to'yg'izib oldi. So'ngra do'stlarimiz – ikki ajralmas do'st maysalar qulf urib yotgan yaylovda o'tlab yurgan Rosinant bilan eshakni o'z ixtiyorlariga qo'yib, mizg'igani yotdilar.

Anchagina uxlashdi, ular yo'lga tushishganda kun og'ib qolgandi. Qanchalik oshiqmasinlar, baribir, kun yorug'ida birorta mehmonxona yoki karvonsaroyga yetib borolmadilar. Qalin bir o'rmonga yetganlarida, qop-qorong'i zimiston tun cho'kkandi. Bu o'rmondagi daraxtlar emanlarmidi yo po'kak daraxtlarmidi, bu haqda muallifning qo'lida aniq ma'lumot yo'q. Xo'jayin va uning xizmatkori egardan tushib, daraxtlar ostida tunagani yotishdi. Qornini boplab to'yg'azib olgan Sancho boshini qo'yar-qo'ymas uyqu saltanatiga ravona bo'ldi. Kunduzi mizg'ib olgan don Kixotning esa hadeganda uyqusi kelavermadi. Azob beruvchi o'y-fikrlar miyasida g'ujg'on o'ynar, bezovta xayollar esa bechora ritsarni yetti iqlim uzra aylantirib yurardi. Goh, nazarida, yana Montesinos g'orida yurganga o'xshaydi, goh ko'z o'ngida Dulsineya oddiy dehqon qiziga aylanib, sakrab eshakka minib oladi; quloqlari ostida Dulsineyani yovuz jodugarlar sehridan xalos etishning birdan bir chorasini ko'rsatgan donishmand Merlinning so'zlari jaranglayotgandek bo'ladi. U qurolbardori Sanchoning toshbag'irligi va noshudligini o'ylab ketadi. Don Kixotning hisobicha, u shu damgacha o'z badaniga bor-yo'g'i besh qamchigina tushirgandi, xolos.

Shu haqda o'ylasa, don Kixotning yurak-bag'ri ezilib keltardi. Bora-bora uning qayg'u kosasi to'lib-toshdi. Bu azobga chidashga zarracha sabri qolmay, shartta o'rmidan turdi-da, o'z-o'ziga dedi:

– Agar buyuk Iskandar chigal masalani «chigalni yechding nima-yu, shartta kesib tashlading nima – bari bir go'r» degan so'zlar bilan yechgan, shunga qaramay, har holda, butun Osiyoga hokim bo'lgan ekan, unda Dulsineyaning ozod bo'lishi yo'lida men ham, albatta, shunday qilishim mumkin. Buni ista-

masa-da, Sanchoni o'z qo'lim bilan savalayman. Zotan, hammasi shunga bog'liq ekan, bu uch ming qamchini o'z badaniga Sanchoning o'zi tushirdi nima-yu, boshqa birov savaladi nima, baribir emasmi?

Shunday qarorga kelgan don Kixot Rosinantning no'xtasini olib, Sanchoning yoniga bordi-da, ishtonbog'ini yechishga tutindi. Uning qo'li tegar-tegmas uyg'onib ketgan Sancho:

– Nima gap? Kim bu? – deb so'radi.

– Menman, – javob berdi don Kixot. – Sening iltifotsizligingga barham berib, dardi-alamimni yengillatmoqchiman. Seni savalamoqchiman, Sancho, bu bilan zimmangga olgan vazifangni bajarishingga ko'maklashmoqchiman. Dulsineya halok bo'lyapti, sening esa parvoyingga ham kelmaydi bu. Ammo men uning ishqida xazon bo'l yapman, inchunin, uni xalos etish uchun o'zimni o'tga ham, cho'qqa ham urishga tayyorman. Hayallama, tezroq yechin, mana shu kimsasiz yerda senga kamida ikki ming qamchi tushirmoqchiman.

– Ey, yo'q, – dedi Sancho, – biroz o'zingizni bosib oling, muhtaram janob, yo'qsa, Tangri haqqi, qasam ichamanki, shovqinimiz hatto karlar qulog'iga ham yetajak. O'zimni savalayman deb bergan va'damni zo'rlik bilan emas, balki o'z ixtiyorim bilan bajarishim kerak. O'zimni-o'zim savalashga esa hushim yo'q, ra'yim bo'lgan vaqtda o'zimni savalayman deb muhtaram janoblarga bergan va'damning o'zi ham katta gap.

– Sening va'dangga ishonolmayman, Sancho, – javob berdi don Kixot, – chunki yuragingda zarracha shafqat yo'q, bodaning esa, past tabaqadan bo'lsang ham, bag'oyat nozik, sezgirdir.

Shunday deya u Sanchoning ishtonbog'ini yechaverdi. Ishning xavotirli tus olib borayotganini ko'rgan Sancho Pansa yotgan yeridan sakrab turdi-da, xo'jayiniga tashlandi. Ritsar bilan uning qurolbardori o'rtasida shafqatsiz olishuv boshlandi. Nihoyat, Sancho epcillik qilib don Kixotni chalib yiqitdi-da, o'ng oyog'ining tizzasi bilan ko'krigidan shunday bosib oldiki, u na o'rnidan tura oldi va na nafas ololdi.

– Bu qanaqasi, xoin? Sen o'z xo'jayining va sinoringga



qarshi qo‘l ko‘tardingmi? O‘z valine‘matingga tajovuz qilyapsanmi hali? – qichqirdi don Kixot nafas ololmay bo‘g‘ilib.

– Hech kimga tajovuz qilayotganim yo‘q, – javob berdi Sancho, – o‘zimni qutqaryapman, xolos, chunki o‘zimga o‘zim sinorman hozir. Muhtaram janobim, o‘zimni xotirjam tutaman va savalashni hozir talab qilmayman, deb so‘z bersalar, shundagina bo‘shataman.

Don Kixot Sanchoga so‘z berib, senga hatto qo‘l tekkizmayman, ra‘yingga yoqqan va istagan vaqtingda savalarsan o‘zingni, dedi. Sancho xo‘jayinini bo‘shatdi, ular yana yarashib olishdi. Ammo Sancho shu mojarodan so‘ng don Kixotga unchalik ishonmay qo‘ydi, u bunday ko‘ngilsiz hodisa yana takrorlanib qolmasin deb, o‘z janobidan olisroqda tong ottirishga ahd qildi. Shu maqsadda u chekkaroqqa borib, bir azim tup daraxt ostiga joylashdi. Tunning bu yog‘i osoyishta o‘tdi. Sahar pallada uyg‘onishib, yengil-elpi nonushta qilib, endi yo‘lga tushay deb turishgan paytda, qo‘qqisdan daraxtlar ortidan allaqanday qurollangan kishilar chiqib kelishdi. Don Kixot bilan Sancho hatto orqa-o‘nglariga qarab ulgurmaslaridanoq hash-pash deguncha ularni qirq chog‘li qaroqchi qurshab oldi: ular katolonchalab sayyohlarimizga to ataman<sup>1</sup> yetib kelgunicha, qimir etmay turishni buyurishdi.

Ritsarimiz yayov va quolsiz edi, Rosinant sal nariroqda o‘tlab yurar, nayzasi esa chekkaroqda daraxtga suyab qo‘yilgandi – xullasi kalom, u o‘zini himoya qilishdan ojiz edi shu tobda. Shu sababdan u qo‘l qovushtirib, bosh egishni eng oqil ish deb bildi.

Qaroqchilar eshakning abzallarini tintib, Sanchoning safar to‘rvasidagi hamma narsani olishdi: yaxshiyamki Sancho gersog hadya qilgan eskudolar solingan hamyonni lippasiga qistirib qo‘ygan ekan. Ehtimol, bu saxovatli odamlar o‘zlarini ham boshdan oyoq tintigan bo‘lardilar, lekin shu daqiqada ataman paydo bo‘lib qoldi: bu o‘ttiz to‘rt yoshli, bug‘doymag‘iz,

---

<sup>1</sup> Ataman – 1) kazak askarlarda yoki kazak qishloqlarida: tayinlangan yoki saylangan boshliq; askarbooshi; 2) qaroqchilar boshlig‘i (bu yerda shu ma‘noda).

zabardast, baland bo'yli, amirona chehrali bir kishi edi. U baquvat otga minib olgan: egnida po'lat sovut, belida to'rtta to'p-poncha osig'liq. «Qurolbardorlar»ning – qaroqchilar o'zlarini shunday deb atashardi – Sancho Pansani tintimoqchi bo'lib turganlarini ko'rib, bu beboshlikni bas qilishni buyurdi. Qaroqchilar o'sha zahotiyoyq buyruqqa itoat qilib, orqaga chekindilar, Sanchoning hamyoni ana shunday omon qoldi. Ataman daraxtga suyab qo'yilgan nayzani, yerda yotgan qalqon va don Kixotning g'amga tolib, qayg'uga botgan qiyofasini birma-bir nazardan kechirarkan, g'oyat ajablendi. Ataman uning yoniga borib:

– Bunchalik qayg'urmang, ey saxovatli odam: siz qandaydir vahshiy qaroqchiga emas, balki qalbi shafqatsizlikdan ko'ra ko'proq rahm-shafqatga to'la Roke Ginartga<sup>1</sup> bandi bo'lgansiz, – dedi.

– Sening hukmingga tushib qolganimdan zarracha qayg'urmayman, shon-shuhrati olamga mashhur, ey shavkatli Roke Ginart, – dedi don Kixot. – Ammo beparvoligim tufayli g'aflatda sening sarbozlaring qo'liga tushib qolganim uchun o'zimni aslo afv etolmayman. Chunki men mansub bo'lgan jahongashta ritsarlik qonun-qoidalarini doimo jangovar holatda bo'lishimni taqozo etadi. Shu narsa senga ayon bo'lsinki, ey ulug' Roke, basharti manavi otliq sarbozlar qo'limda nayzam va qalqonim borligida ro'para kelganlarida, meni yengish oson emasdi, men shon-shuhrati butun olamga yoyilgan lamanchlik don Kixot bo'laman.

Shunda Roke Ginart kim bilan so'zlashayotganini fahmladi. U ritsarimiz haqida ilgari ham ko'p eshitgandi, lekin ritsarlik qahramonliklari ishtiyoyi odamni shunday bosh-ko'zini aylantirib, aqldan ozdirishgacha olib borishini tasavvur qilolmaganligi sababli bu gaplarning hammasi uydirma, mish-mish gaplar deb hisoblab yurardi. Shuning uchun ham ilgarilari faqat ovozasinigina eshitib yurgan odamni o'z ko'zlari bilan ko'rish bag'oyat qiziq bir hol edi.

---

<sup>1</sup> Qaroqchi Roke Ginart haqiqatan ham, Servantes zamonasida yashagan. U o'g'rilik va bosqinchilikda o'zining dovyurakligi, dahshati bilan butun Ispaniyaga dovrug solgan.

– Ey, dovyurak ritsar, – dedi u – qo‘ying, o‘z parvosizligingiz va g‘aflatda qolganingizdan darg‘azab bo‘lmang. Ehtimol, bu baxt va farovonlikka olib boruvchi yo‘l – bir imtihondir. Tangrining irodasi o‘ziga ayon, na qilsa, o‘zi biladi, u ko‘pincha, baxtsizlarga baxt, kambag‘al-bechoralarga davlat ato qiladi va yo‘ldan ozganlarni yo‘lga soladi.

Roke Ginart so‘zini tugatmasdanoq, yo‘lni kuzatib turgan soqchi ot qo‘yib kelib qoldi.

– Sinor, – dedi u, – Barselona yo‘ldan bir to‘da odam kelyapti.

– Nima, u odamlar bizni izlovchilardanmi yoki biz izlaydiganlardanmi? – so‘radi Roke undan.

– Biz izlaydiganlardan, – javob berdi soqchi.

– Unday bo‘lsa, fursatni boy bermanglar, – dedi Roke, – borib tezda bu yoqqa haydab kelinglar ularni. Biror odamni qochirib yubormaslikka harakat qilinglar.

Qurolbardorlar uning amriga itoat qilib, shoshilinch yo‘lovchilar tomon jo‘nashdi, don Kixot, Sancho Pansa va Rokelar shu yerda qolishdi. Shundan keyin Roke don Kixotga murojaat qildi:

– Bizning hayotimiz sinor don Kixotga juda g‘alati tuyulayotgandir: bizning barcha ishlarimiz, sarguzashtlarimiz va yurish-turishimiz g‘alati hamda xavfli bo‘lib ko‘rinayotgandir. Vijdonan aytsam, o‘zim ham kasbi-korimizdan ko‘ra xavotirliroq va behalovatroq kasb bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman. Tabiatan men rahmdil, yuvosh, bezor odamman. Ammo dushmanlarimning shafqatsizlarcha haqoratlashlari qalbidam intiqom olish ishtiyoqini qo‘zg‘adi, oqibatda, men oliyanob xislatlarimga xilof ravishda mana shu dahshatli hunarni kasb qilib oldim va agarda aql-idrokim bu yo‘ldan qaytishga da‘vat etsa-da, shunday hayot kechirishni sabot bilan davom ettiryapman. Buning ustiga, bir nojo‘ya ish ikkinchisini, bir gunoh boshqasini sudrab keladi. Bora-bora ana shularning hammasi qalbidam mujassamlanib, yolg‘iz o‘zimgina emas, o‘zgalarning ham dardi-alami uchun qasos olyapman. Aksincha, men yo‘ldan toyib, gunohlar botqo‘g‘iga botgan bo‘lsam ham, har qalay, bu botqoqdan qutulib, najot

dengiziga suzib chiqishdan umidimni uzganimcha yo'q.

Don Kixot Rokening bu oqilona so'zlariga hayratlanib quloq solardi. Kasbi-kori qotillik va talonchilik bo'lgan kishilar orasida bunday oqilona fikr yuritadigan odam topilishini u hech qachon xayoliga ham keltirmagan edi.

– Sinor Roke, – dedi u, – o'z dardini tan olish va hakim buyurgan dori-darmonlarni qabul etishga tayyorlik – shifo topishning ibtidosidir. Chunki muhtaram janob o'z dardlaridan boxabar ekanlar, samo yoki shafqatli Tangrim deganimiz ma'qulroq, sizni birdan emas, balki asta-sekin bu darddan xalos etadigan dori ehson etajak. Oqil gunohkorlar befarosat gunohkorlarga qaraganda tezroq tuzaladilar. Siz, muhtaram janob, o'z nutqingizda donoligingizni namoyon etgan ekansiz, ushbu so'zlarimga quloq soling: dadil turing va vijdon azobingizning yengillashishidan umid uzming. Basharti, muhtaram janob, najot yo'liga tezroq yuzlanmoqni istasangiz, men bilan yuring. Bu safarda boshdan kechirajak musibat-u falokatlarimiz siz uchun ayni gunohdan forig' bo'lish borasida qilgan tavba-tazarruingiz o'miga o'tajak va qarshingizda jannat darvozasini ochajak.

Bu orada o'lja izlab ketgan qaroqchilar ham qaytib kelib qolishdi: ular ikki kabaleroni, ikki piyoda ziyoratchini, otliqmi yayov olti nafar xizmatkor kuzatib borayotgan bir necha ayol tushgan kareteni ikki xachir haydovchi aravakashi bilan birga oldilariga solib kelib qolishdi. Qurolbardorlar ularni qurshab olishdi. Mag'lublar ham, g'oliblar ham Roke Ginartning gap boshlashini kutib sukut saqlashardi. U otliqlardan kimliklarini, qayoqqa ketayotganliklari va yonlarida qancha pullari borligini so'radi. Kabalerolardan biri javob berdi:

– Sinor, biz ispan piyoda qo'shinlarining kapitanlarimiz, bo'linmalarimiz hozir Neapolda: Sitsiliyaga jo'naydigan galerlar langar tashlab turgan Barselonaga ketyapmiz. Yonimizda ikki yoki uch yuz eskudo bor. Biz uchun shu ham kifoya, o'z taqdirimizdan nolimaymiz, zeroki bechora askarlar bundan ortig'ini orzu ham qilmaydilar.

Roke ziyoratchilarga ham shu savollarni berdi. Ziyoratchilar Rimga ketayotganlarini, yonlarini qoqishtirganda bor-

yo'g'i oltmish realcha pul topilishini aytishdi. Oxirida Roke karetdagi ayollarning kimligini va qancha pullari borligini so'radi.

– Bu karetda mening bekam, Neapol oliy sudi sudyasi-ning rafiqasi donya Giomar de Kinones xonim qizchalari bilan ketyaptilar, yonlarida oqsochlari va duenyalari ham bor: ularni olti nafar xizmatkor kuzatib boryapti, olti yuz eskudo pullari bor, – deb javob berdi otliq xizmatkorlardan biri.

– Shunday qilib, – dedi Roke Ginart, – yo'lovchilarning hammasida jami bo'lib to'qqiz yuz eskudo va oltmish real bor ekan. Mening sarbozlarim esa oltmishta. Qani, bir hisoblab ko'raylik-chi, kishi boshiga qanchadan tegarkin: negadir unchalik yaxshi hisoblolmayman-da.

Buni eshitib, qaroqchilardan biri ovozi boricha qichqirdi:

– Uning o'limini tilovchi ablahlarga qasdma-qasdlikka Roke Ginart omon bo'lsin!

Kabalerolar xafaliklarini yashirmadilar, sudyaning rafiqasi ma'yus bo'lib qoldi, hatto so'nggi reallaridan ajralajaklarini fahmlagan ziyoratchilarning ham basharalari burishib ketdi. Roke ularni bir nafas sarosimaga solib turdi-da, keyin bir chaqirim naridan ham chehralaridan sezilib turgan qayg'ularini tarqatish niyatida kabalerolarga qarab dedi:

– Sinor kapitanlar, marhamat qilib, menga oltmish eskudo qarz bera olmaysizlarmi? Oliy sudyaning rafiqalaridan esa bo'linmamdagilarni xushnud etgali sakson eskudo berishlarini o'tinib so'rardim. So'ngra hammalaringiz xotirjamgina, hech qanday qarshiliksiz yo'lingizni davom ettiraverasizlar. Men tinch safaringizni davom ettirishingiz uchun himoya qog'ozi yozib beraman, toki yo'lda uchragan biror boshqa bo'linmam sizlarga ziyon-zahmat yetkazmasin. Men hech qachon sarbozlarni ham, ayollarni ham, bolalarni ham aslo ranjitmayman.

Ikkala kapitan ham o'z pullarini o'zlarida qoldirib, ko'rsatgan muruvvati, saxiyligi va tantiligi uchun fashohat bilan birlari olib, birlari qo'yib Rokega minnatdorchilik bildira boshladilar. Sinora donya Giomar de Kinones karetdan otilib chiqib, ulug'Rokening qo'l va oyoqlarini o'pmoqchi bo'ldi-yu, lekin u bunga

yo'l qo'ymadi, balki ulardan og'ir kasbi majbur etgani tufayli ozor yetkazgani uchun afv etishlarini so'radi. Oliy sudyaning rafiqasi xizmatkorlaridan biriga sakson eskudoni tezda sanab berishni buyurdi, kapitanlar esa oltmish eskudoni o'z qo'llari bilan qo'sh-qo'llab topshirdilar. Ziyoratchilar ham bisotlaridagi arzimas chaqalarini topshirishga tayyor edilar-u, biroq Roke ularning aziyat chekmasliklarini aytdi-da, o'z odamlariga qarab:

– Har qaysingiz bu pullardan ikki eskudodan olasiz, qolgan yigirma eskudoning o'nini ziyoratchilarga, yana o'n eskudosini manavi ritsarning qurolbardoriga berurmiz, toki u ushbu mojaroni yaxshilik bilan eslab yursin, – dedi.

Rokega dovot-qalam keltirishdi, u yo'lovchilarga himoya qog'ozi yozib berdi. Bandilar bilan xayr-xo'shlashib, ularni ozod qildi, qaroqchilar atamanining oliyjanobligiga, mardligiga, kelishgan qiyofasiga va shirin muomalasiga qoyil qolib, yo'lga tushishdi yo'lovchilar.

– Atamanimizga qaroqchilikdan ko'ra rohiblik ko'proq yarashadi, – to'ng'illadi qurolbardorlardan biri o'z oshnalariga qarab. – Saxiylik qilgisi kelib qolgan bo'lsa, o'z hamyoni hisobidan tantilik qilsin.

Sho'rlik bu gapni ancha do'rillab aytgandi. Roke eshitib qoldi. U shartta qilichini sug'urib, bu beadabning boshini qoq ikkiga chopib tashlarkan:

– Tilini tiyolmaydigan bezbetning jazosi shu! – deb o'sh-qirdi. Hammalari dahshat ichra taxtadek qotib qoldilar. Hech kim churq etib og'zini ocholmaydi: ataman ularni ana shunday jilovlab olgandi.

Roke chekkaroqqa o'tib, Barselonadagi oshnasiga maktab yozdi. Maktubida u hammaning og'zidan tushmay qolgan jahongashta ritsar, mashhur lamanchlik don Kixot bilan uchrashganini xabar qildi. Roke yana uning nihoyatda alomat, shu bilan bir vaqtda eng mulohazali odam ekanini yozib, to'rt kundan so'ng, avliyo Ioann Krestitel bayrami kuni, uni boshdan oyoq qurollangan holda, Rosinantga mindirib, yonida qurolbardori Sancho Pansa bilan birgalikda Barselonadagi dengiz qirg'og'iga yetkazishni va'da qildi.

Roke bu maktubni o'z qurolbardorlaridan biriga topshirdi, u esa qaroqchilik libosini yechib, dehqoncha kiyinib yo'lga tushdi va maktubni Barselonaga, tayinlangan odamga yetkazdi.

Roke bu ishlarni bitkazgach, don Kixotga, endi siz mening mehmonimsiz deb, orqasidan yurishni iltimos qildi.

Ritsarimiz ataman huzurida uch kun mehmon bo'ldi. Don Kixot ataman huzurida uch yuz yil yashaganida ham, baribir, qaroqchilar hayotidan ajablanavergan bo'lardi. Bir yerda uyqudan bosh ko'tarsalar, boshqa bir joyda nonushta qilardilar, ular dam qochib, dam kutardilar, kimlardan qochib, nimani kutayotganlarini o'zlari ham bilmasdilar. Muttasil ayg'oqchilar yuborib turiladi, atrofdan biror xabar topib kelgan soqchilarning axboroti tinglanadi, akrebuzlarining piltalarini puflab qolishadi: akrebuzlari juda oz, ularning ko'pchiligi chaqmoq toshli to'pponchalar bilan qurollangan edi. Rokening o'zi esa tez-tez allaqayoqlarga g'oyib bo'lib qolardi. U doimo hech kim bilmaydigan allaqanday sirli xilvatgoh va pana joylarda o'z qurolbardorlaridan yashirinib yurardi. Barselona vitse-qirolining farmoyishlarida Rokening boshi evaziga katta mukofot e'lon qilingandi, shuning uchun u umrbod hushyor bo'lishi lozim edi: ataman o'ldirib qo'ymasinlar yoki odil sudga tutib bermasinlar deb, o'z sheriklaridan qo'rqardi, aslini olganda ojizlik edi bu.

Nihoyat, tashlandiq yo'llar, yashirin va gadoytopmas so'qmoqlar orqali Roke don Kixot, Sancho va olti nafar qurolbardori bilan Barselonaga yashiriqcha yetib oldi. Ular dengiz bo'yiga avliyo Ioann bayrami kuni kechasi kelishdi. Shu yerda Roke don Kixot va Sancho (unga va'da qilgan o'n eskudoni endigina berdi) bilan quchoqlashib xayrlashdi, ular bir-birlarining xizmatlariga doim tayyor ekanliklarini bildirib ajralishdi.

Roke jo'nab ketdi, don Kixot esa Rosinantdan tushmay, tong yorishishini kuta boshladi. Kun o'tmay sharq tomon yorishib tong otdi, shu ondayoq shaharda surnay va nog'oralar, do'mbiralar yangradi, mulozimlar: «Ey, chetlaninglar! Yo'l beringlar! Yo'l beringlar!» deb qichqira boshladilar. Bu orada tun chekinib, mo'jazzgina qalqondek quyosh gardishi ufqdan mo'ralay boshlagan edi.

Don Kixot bilan Sancho ko'zi o'ngida, ular to shu kunga qadar ko'rmagan dengiz namoyon bo'ldi. Dengiz ularga juda ulkan va bepoyondek ko'rindi, ona yurtlari Lamanchdagi Ruidera ko'rfazchasi buning oldida hech gap emasdi. Sohil yaqinida galerlar saf tortib turardi. Ulardagi turli-tuman belgilar yaltirab, xilma-xil bayroqlari hilpirab dengiz suvini erkalab yelpirdi; galerlardan ko'kka o'rlayotgan karnay, burg'u va surnaylarning yoqimli yoki jangari sadolari havoni larzaga keltirardi. Galerlar qo'qqisdan harakatga kelib qoldilar: go'yo dengiz jangini namoyish qilayotgandek, ular goh bir-birlariga yaqinlashar, goh uzoqlashardilar, sohilda esa tulpor otlarga mingan bir talay yasanib-tusangan otliqlar paydo bo'lib qolishdi. Galerlardagi askarlar mushketlardan betinim o'q uzishar, shahar qal'a devorlaridagi bo'linmalari esa ularga javob qaytarishardi; og'ir artilleriya to'plari gumburlab havoni larzaga keltirarkan, galerlardagi to'plar ularga jo'r bo'lardi. Sho'xchan dengiz, shodliklarga to'lgan shahar, ahyon-ahyonda to'p tutuni bilan qoplanib, yana ochilib ketayotgan musaffo osmon odamlar qalbiga quvonch baxsh etardi. Sancho bahaybat dengiz kemalarining qanday qilib chaqqonlik bilan harakatlanayotganiga aqli yetmay, og'zi ochilib angrayib qolgandi.

Shu tobda yasangan bir necha ajoyib otliq shovqin-suron ko'tarib, qiyqirishib, don Kixot hayrat ichra angrayib turgan yerga ot qo'yib kelaverdi. Ulardan biri, Rokedan maktub olgani, don Kixotga ta'zim qilib:

– Xush kelibsiz shabrimizga, ey, jahongashta ritsarlarning shon-shavkati, mash'ali va yo'lchi yulduzi! Xush kelibsiz, ey, jasur lamanchlik don Kixot janoblari! – dedi ovozini baralla qo'yib.

Don Kixot bunga javoban og'iz ham ochmadi, otliqlar undan javob ham kutmadilar. Ular ot qo'yishib, don Kixot atrofida poygada chopayotgandek charx urib aylana boshladilar.

– Ko'ryapsanmi, Sancho, shon-shuhratimiz Barselona-gacha yetib kelibdi. Bu odamlar bizni bir ko'rishdayoq tanishdi, – dedi don Kixot Sanchoga.

Don Kixotni qutlagan boyagi otliq yana ot yo'rttirib uning



yoniga keldi-da:

– Sinor don Kixot janoblari, iltifot ko‘rsatib ortimizdan yursalar: bizlar muhtaram janoblarining sodiq qullari va Roke Ginartning qadrdon do‘stlari bo‘lamiz, – dedi.

Don Kixot bunga javoban shunday dedi:

– Basharti mardi maydon Roke Ginart qadrdon do‘stingiz ekan, sinor kabalero, sizning ehtirom-iltifotingiz bu oliyhimmat odam iltifotining tuqqan qizi yoxud egachisidir. Qani, boshlang meni istagan tomoningizga, chunki mening erk-ixtiyorim sizning qo‘lingizda, xizmatigingizni ado‘etishga bajonidil tayyorman.

Otliq don Kixotning bu so‘zlariga yanada nazokatliroq qilib javob berdi. Uning hamrohlari ritsarimizni qurshab, karnay va nog‘oralalar sadosi ostida shahar tomon yo‘l oldilar.

Don Kixot bilan Sancho bu musiqa sadolari ostida shaharning bosh ko‘chalaridan o‘tib borarkanlar, xaloyiq ularni hayrat ichra kuzatib qolar, daydi bolalar esa hazil-huzil qilib, qiyqirishib ortlaridan yugurishib borardi. Nihoyat, ular do‘stlarimizni qirg‘oqda izzat-ikrom bilan kutib olgan mehmondo‘st kabaleroning hashamatli uyiga yetib kelishdi. Bu kabalero juda badavlat va e‘tiborli aslzodalardan bo‘lsa kerak; uning ismi sharifi don Antonio Moreno ekan.

Don Kixotni avrab uyiga olib kelgach, don Antonio ritsarni qiziqroq ermak qilish haqida bosh qotira boshladi. Lekin u don Kixotga biron ziyon-zahmat yetishini yoki uning ranjib, xafa bo‘lishini ham istamasdi. U hazil – hazilning keti zil, bo‘lishini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham u tuzukroq o‘ylab ish yuritishga ahd qilib, hozircha don Kixotga yarog‘-aslahalarini yechishni va yo‘ldan so‘ng nafasini rostlab olishini taklif etdi. Don Kixot yangi do‘stlarining maslahatlarini bajo keltirib, biroz dam olgach, don Antonio uni shaharning eng katta ko‘chalaridan biriga qaragan ayvonga boshlab chiqdi. Butun xaloyiq va bolalar ritsarga xuddi maymunni tomosha qilayotgandek tikilishardi. Bayramning fayziga fayz qo‘shish uchun emas, balki don Kixotning sharafiga o‘zlariga oro bergandek yasangan otliqlar uning oldidan ot o‘ynatib o‘ta boshladilar. Sancho, go‘yo allaqanday sehrli yo‘llar bilan qaytadan gersog qasriga borib qolganday,

zavq-shavqi toshib ketganidan terisiga sig' masdi.

Shu kuni don Antonionikidagi ziyofatga uning bir qancha do'stlari qatnashdi, hammalari don Kixotni g'oyatda hurmatlab, unga nisbatan jahongashta ritsardek mulozamat qilishdi: don Kixot bundan faxrlanib, mamnunlikdan o'zini unutilib, kekkayib o'tirardi. Sancho ajoyib qiziqchiliklar qilib, faqat xizmatkorlarnigina emas, balki hammani o'z og'ziga qaratib oldi. Ulfatlar dasturxon yoniga o'tirishgach, don Antonio Sanchoga qarab:

— Eshitishimcha, qadrdon Sancho, siz mazali tovuq go'shti bilan qiyma do'lmani shunchalik yaxshi ko'rarmishsizki, qorningizni boplab to'yg'azib olib, qolganini qo'yingizga urarmishsiz-a? — dedi.

— Yo'q, sinor, bu yolg'on, — javob berdi Sancho, — men juda pokiza odamman, unchalik suq, ochofat ham emasman. Mana janobim don Kixotning o'zlari aytsinlar, ba'zan haftalab bir hovuchgina cho'chqayong'oq bilan tirikchilik qilganmiz. Goho jahongashta ritsar qurolbardorining ahvoliga maymunlar yig'laydi. Shuning uchun menga sigir tegsa, boshvog'i bilan olsam, demoqchimanki, oldimga nimani qo'ysalar, shuni yesam, kim aybsita olardi meni. Kimki meni ochofat yoki isqirt derkan, juda yanglishadi, rosa boplab so'kardim-u, hozir o'shanaqalarni, lekin bu yerda o'tirgan xonimlarning hurmatini qilyapman-da.

— Darhaqiqat, — dedi don Kixot. — Sanchoning dasturxon ustidagi pokizaligi va o'zini tuta bilishi maqtovg'a sazovor hamda uning xotirasini kelgusi avlodlarimizga yetkazish uchun bronza taxtachalarga o'yib yozib, abadiylashtirishga arziydi. To'g'ri, juda ochqab qolganda biroz badnafсроqqa o'xshab ko'rinadi, chunki bunday paytlarda oshiqibroq ovqatlanadi va ikki jag'i ham tinmay ishlaydi, ammo doim pokizalik, ozodalikka rioya qiladi, gubernatorlik davrida u hatto uzum va anorni vilka bilan tanovul qilgan.

— Iye! Sancho gubernator ham bo'lganmi? — xitob qildi don Antonio.

— Ha, — javob berdi Sancho, — men Baratariya orolining gubernatori edim. Orolida miriqib rosa o'n kun hukmronlik qildim; bu o'n kun mobaynida oromimni yo'qotib, gubernatori

torlikdan nafratlanishga o'rgandim; u yerdan qochdim, yo'lda yer osti g'origa tushib ketib, jahannamga ravona bo'layozdim va bir mo'jiza bilan omon qoldim.

Don Kixot Sanchoning gubernatorlik tarixini boshdan oyoq so'zlab berib, suhbatdoshlarini bag'oyat xushnud etdi.

O'sha kuni oqshomda don Kixotga yarog'-aslahalarisiz, uy kiyimi va sap-sariq matodan tikilgan plashda shaharni aylanib chiqishni taklif etishdi, bu plash shunaqangi issiq ediki, ostida hatto muz ham erib suv bo'lib oqardi. Xizmatkorlarga Sanchoni turli yo'llar bilan chalg'itib turish, tashqariga chiqarib yubormaslik buyurildi. Don Kixot Rosinantni emas, balki qimmatbaho abzallar bilan bezatilgan baland bir xachirni minib olgandi. Ritsarning yelkasiga plash tashlab, orqasiga katta-katta harflar bilan «Lamanchlik don Kixot» deb yozilgan qog'ozni o'ziga sezdirmay qadab qo'yishdi. Sayr qilib yurisharkan, bu yozuv o'tkinchilar e'tiborini jalb etar va ular ovozlari baralla qo'yib: «Lamanchlik don Kixot» – deb o'qishardi. Buni eshitgan don Kixot ham quvonar, ham shuncha odam go'yo uni yaxshi taniyidigandek otini atab chaqirayotganidan ajablanardi. Qavatida bora-yotgan don Antonioga murojaat qilib, shunday dedi u:

– Buni qarang-a, sinor don Antonio, jahongashta ritsarlarga qanday shon-shuhrat yo'ldosh ekan. Shaharga qadam ranjida qilishim bilanoq butun xaloyiq, hatto anavi go'daklargacha, ular ilgari tushlarida ham ko'rmagan bo'lsalar-da, meni taniganiga qanoat hosil qildim!

– Bu ayni haq gap, sinor don Kixot, – javob berdi don Antonio, – oyni etak bilan yopib bo'lmaganidek, inson jasorati va shon-shavkatini bir joyda tutib turib bo'lmaydi; jangovar olishuvlarda erishilgan qahramonlik shon-shuhrati butun to'siqlarni yemirib tashlab, albatta, olamga taraladi.

Arzimagan bir voqeaning bu ko'ngilli sayrni barbod etishiga sal qoldi.

Allaqanday bir kastiliyalik don Kixotning orqasidagi yozuvni o'qib:

– Obbo, jin urgur, lamanchlik don Kixot-e! Shuncha tayoq yeb, o'lmay-netmay, bu yoqqa qanday yetib kelding-a? Axir, sen

tentak-san-ku! Jinniligingni uyginangda qilib o'tirsang-u, bir nav edi-ya, lekin sen bilan uchrashgan va suhbatlashganlarning barini aqldan ozdirasan: uzoqqa bormay qo'ya qolaylik, manavi senga ergashib yurgan sinorlarning o'zi buning dalili, Ey, tentak, uyingga qayt. Ro'zg'oringni boshqar, xotining va bola-chaqangga bosh-qosh bo'l, miyangni aynitib, aqldan adashtiradigan bu telbaligingni bas qil, – deb qoldi qichqirib.

– Yo'lingizdan qolmang, azizim, – dedi unga don Antonio, – sizdan birov maslahat so'ramaganidan keyin moshovaga qatiq bo'lmang. Janob don Kixotning aqli-hushi joyida, uni kuza-tib borayotgan bizlar ham tentak emasmiz. Shon-shavkat har doim qayerda bo'lmasin, hurmat-izzatga loyiq. Qani, jahannamga ravona bo'lgur, bir tuyog'ingizni shiqillatib qoling-chi, bundan buyon so'k oshiga surnay bo'lib yurmang!

– Turgan yerimda til tortmay o'layki, muhtaram janoblari haq! – javob berdi kastiliyalik. – Bu pahlavonga maslahat berish ho'kizning qulog'iga tanbur chalgan bilan baravar, lekin, har qalay, shunday donishmand odamning miyasiga allaqanday jahongashta ritsarlik haqidagi bema'ni xayollar uya qurib olib, es-hushidan ajralib valdirab yursa, kishi bo'g'ilib ketarkan. Ammo-lekin agar ming yil umr ko'rganimda ham, bundan buyon biror kimsaga maslahat berguday bo'lsam, muhtaram janoblari aytganlaridek, butun avlod-ajdodim bilan jahannamga ravona bo'lay. O'zi so'raganida ham aslo maslahat berma-ya!

Nasihatgo'y shunday deya nari ketdi, sayr yana davom etaverdi. Bora-bora ularga ergashib borayotgan bolalar va to-moshatalab olomon juda ko'payib ketganidan don Antonio don Kixotga sezdirmay orqasidagi qog'ozni olib qo'yishga majbur bo'ldi.

Tun kirib, hammalari uyga qaytishdi. Uyda ularni katta bazm kutardi. Don Antonioning mashhur aslzodalar avlodidan bo'lgan quvnoq, go'zal va oqila xotini, mehmonimni ziyofat qilib, uning mislsiz telbaliklarini ko'rib, ko'ngil yozib ketsinlar, degan maqsadda uyiga bir necha dugonalarini taklif qilgan edi. Ular bu taklifni zo'r quvonch bilan bajonidil qabul etishdi, lazzat-li taomlardan so'ng, tungi soat o'nlarda raqs boshlandi. Xonimlar

orasida qiziq-qiziq beozor hazillarni o'ylab topishga ustasi farang o'ynoqi va juda sho'x ikki qiz ham bor ekan. Ular don Kixotni holi-joniga qo'ymay o'zlari bilan raqsga tushishga tortaverib holdan toydirishdi, uni jismangina emas, ruhan ham qiynab tashlashdi. Bu qoq suyak, novcha, sap-sariq kiyingan odamning beso'naqay harakatlari ajoyib manzara kasb etardi. Xonimlar mulozamat qilishar, hadeb ko'nglini ovlashga tirishib unga ko'z suzishardi, don Kixot esa xushmuomalalik bilan odob saqlab, ulardan qutulishga urinardi. Ammo xonimlarning xiralik qilaverganlarini ko'rib, ritsarimiz sabri tugab, ovozi boricha fig'on chekdi:

– Fugite, partes adversae!<sup>1</sup> Tinch qo'yinglar meni. Boshqa xushtorlar va muhtaram zotlarni topinglar o'z'laringizga. Qalbim xoqoni, olamda tengi yo'q malak Tobosolik Dulsineya yuragimdan o'zidan boshqa kimsaning xayoli o'rin olishiga ijozat bermaydi.

Shunday derkan, u sulayib zalning qoq o'rtasiga o'tirib qoldi. Don Antonio uni ko'tarib olib borib o'rniga yotqizishni buyurdi. Sancho o'sha zahotiyuq uning yoniga kelib, qo'llari bilan xo'jayinini yelpib:

– Raqsga tushib nima qilar edingiz, sinor xo'jayin? Nahot hamma pahlavonlar raqs tushishni bilishlari, barcha jahongashta ritsarlar raqsga usta bo'lishlari kerak deb o'ylasangiz? Agar shunday deb o'ylasangiz, sizni ishontirib aytamanki, qattiq yanglishasiz: olamda shunaqa odamlar borki, ular chiroyli raqs tushishdan ko'ra biron devni o'ldirishni osonroq deb biladilar. Agar o'zimizning qishloqcha o'yinimiz bo'lganda-ku, sizning o'ringizga boplab o'yin tushardim-a, o'zimam o'ynaganimda lochindek parvoz qilaman-da, ammo-lekin janoblarning raqsiga esa tirnoqcha aqlim yetmaydi, – dedi.

Sanchoning bu gaplaridan mehmonlar huzur qilib kulishdi. U o'z xo'jayinini to'shakka yotqizib, shuncha raqs tushib terlab ketganidan shamollab qolmasin deb qo'rqib, ko'rpaga burkab qo'ydi.

<sup>1</sup> Fugite, partes adversae (lotincha) – daf bo'l, iblis.

## ELLIK BESHINCHI BOB

### DON KIXOTNING RITSAR OQ OYDIN BILAN UCHRASHUVI VA SHUNDAN KEYIN YUZ BERGAN HODISALAR

Balda bo'lgan hodisadan bir necha kun o'tgach, don Kixot to'liq qurollangan holda, daryo bo'yiga sayrga chiqdi. U libosim – jang anjomi, jang maydoni – mening hordig'im, deb takrorlashni yaxshi ko'rardi. Ritsar sohil bo'ylab beg'ubor dengiz havosidan huzur qilib borarkan, to'satdan o'zi singari boshdan oyoq qurollangan ritsarning ot qo'yib kelayotganini ko'rdi. Uning qalqonida oy tasviri bor edi. Ritsar gap eshitaladigan masofaga yetib kelib, don Kixotga baland ovoz bilan shunday dedi:

– Ey shuhratli, hech kim tomonidan nomi tillarda doston bo'lmagan lamanchlik ritsar don Kixot, shuni bilib qo'yki, qarshingda ritsar Oq Oydin turibdi. Umid qilamanki, mening mislsiz qahramonliklarim haqidagi gaplarni eshitgandirsan. Men bu yerga sen bilan jang qilgani hamda mening ma'shuqam, kim bo'lsa ham, sening husnda tengsiz Tobosolik Dulsineyangdan go'zalroq ekanligini tan olishga majbur qilgani keldim. Agar shu haqiqatni tan olsang, o'limdan qutulib qolasan, seni o'ldirish uchun ovora ham bo'lib yurmayman. Mabodo men bilan jang qilib yengilsang, mening aytganimni qilasan, ya'ni qurolingni tashlaysan. Yangi sarguzashtlar izlamaysan, o'z qishlog'ingga qarab ketaverasan. Qishloqda qilichga qo'l urmasdan o'z ro'zg'oring, joning foydasi uchun bir yil osoyishtalikda umr o'tkazasan. Mabodo meni yengsang, kallamni uzishing mumkin, ana unda mening otim ham, sovutlarim ham, qahramonligim uchun orttirgan shuhratlarim ham senga o'tadi, shon-u shuhrating yanada ortadi. Qanday qilsang, yaxshi bo'lishini xo'p o'ylab ol. Men darhol javob berishingni talab qilaman, chunki bu ishni shu bugunoq bir tarafli qilmoqchiman.

Don Kixot ritsar Oq Oydinning bunchalik takabburligidan hayratga tushdi. U mag'rur, o'ziga ishongan holda javob berdi:

– Ey qahramonligi menga hanuzgacha ma'lum bo'lmagan

ritsar Oq Oydin, ont ichib aytamanki, siz hech qachon olinasab Dulsineyani ko'rmagansiz, zotan, men aminmanki, agar uni ko'rganingizda, meni jangga chaqirishdan ehtiyot bo'lar edingiz, unga bir qiyo boqish bilanoq olamda Dulsineyadan go'zalroq malak yo'qligiga ishongan bo'lardingiz. Shuning uchun sizni yolg'onlayapti deb ayta olmayman, faqat xato qilyapsiz deyman, xolos. Jangga chaqirishingizni, barcha shartlaringizni qabul qilaman, faqat bittasiga qo'shilmayman: sizning shon-shuhratingiz kerak emas menga, o'zimmiki ham yetib ortadi. Xullas, ishni paysalga solmaylik. Mana bu maydondan istagan yerni tanlab oling, haqiqat kim tomonda ekanligini xudo o'zi ko'rsatadi.

Bu orada shu yerdan o'tib ketayotgan bir necha kabalero ritsar Oq Oydinni diqqat bilan kuzatib, don Kixotga katta xavf tahdid qilayotganini fahmlashdi-da, darhol bu haqda don Antonioga xabar berishdi.

Don Antonio sohil tomon shoshildi va yakkama-yakka jang bo'ladigan yerga don Kixot jangga shaylanib, Rosinantning boshini burayotgan bir paytda yetib keldi. Har ikkala ritsarning bir-biriga tashlanishga tayyor turganini ko'rib, don Antonio oraga tushdi va bunday xavfli jangni boshlashga nima sabab bo'lganini so'radi. Ritsar Oq Oydin o'rtalarida kimning go'zalligi haqida bahs ketganligini, don Kixotning nimalar deganini, yakkama-yakka jang shartlarini qisqacha aytib berdi.

– Sinor kabalerolar, – dedi don Antonio, – agar o'rtadagi bahsni boshqacha yo'l bilan hal qilolmasangiz, agar siz ham don Kixot, siz ham ritsar Oq Oydin, gapingizdan qaytmaydigan bo'lsangiz, xudo yor bo'lsin, jangni boshlanglar.

Ana shundan keyin ritsarimiz o'z taqdirini xudo va ma'shuqasi Dulsineya ixtiyoriga topshirib (u jangga kirish oldidan doim shunday qilardi), otini choptirib kelish uchun sal orqaroqqa ketdi, uning raqibi ham shunday qildi; har ikkovi hech qanday karnay va burg'u ovozini kutmay baravariga otlariga qamchi bosishdi. Biroq noma'lum kishining oti Rosinantdan ildamroq ekan, ritsar Oq Oydin nayzani ishga solmay (u, ehtimol, nayzani jo'rttaga balandga ko'targandir), don Kixotga shunday qattiq hamla qildiki, ko'z yumib ochguncha Rosinantni urib yiqitdi,

ritsarimiz esa oti bilan yerga ag'anab tushdi.

Ritsar Oq Oydin darhol otdan sakrab tushdi, don Kixotning oldiga chopib kelib, nayzasini uning sipariga qadadi va xitob qildi:

– Siz yengildingiz, ritsar, agar yakkama-yakka jangimiz shartini bajarishga ko'nmasangiz, shu zahotiyuq o'lasiz.

Yiqilishdan a'zoyi badani ezilgan va boshi g'uvullab ketgan don Kixot siparini ham ko'tarmay, qabrdan chiqayotganday ojiz, bo'g'iq ovoz bilan javob qildi:

– Tobosolik Dulsineya olamdagi eng go'zal ayol, men esa jahondagi eng baxtsiz ritsarman, ma'shuqamni himoya qilishga ojiz bo'lsam-da, haqiqatdan hech qachon voz kecholmayman. Hoy ritsar, nomusimdan mahrum qildingmi, bas, suq nayzangni, ol jonimni.

– Buni hech qachon qilmayman, – e'tiroz bildirdi ritsar Oq Oydin. – Mayli, Tobosolik Dulsineyaning shuhratiga shuhrat qo'shilsin. Mening talab qiladigan narsam bitta: yakkama-yakka jang oldidan shartlashanimizga ko'ra ulug' don Kixot bir yilga o'z qishlog'iga ketsin.

Bu gaplarni don Antonio, kabalerolar, o'sha yerdagilarning hammasi eshitdi; agar Dulsineyaning shuhratiga dog' tushirmaydigan bo'lsa, uning hamma talablarini halol va vijdonli ritsarlarga xos tarzda bajarishga rozi ekanligi haqidagi don Kixotning javobini ham hamma eshitdi. Ana shunday va'dani olgan ritsar Oq Oydin otini burib don Antonioga, o'sha yerdagi kabalerolarga odob bilan ta'zim qildi-da, shahar tomonga otini yo'rttirib ketdi.

Shu payt jang maydoniga harsillaganicha Sancho chopib keldi; u bo'lib o'tgan yakkama-yakka jang paytida yo'q edi. Bu yerda Sancho ikkita kabalero yordamida don Kixotni yerdan ko'tarib oldi va o'liknikiday ko'karib ketgan yuzini ochdi. Rosinant shunday lat yegan ediki, o'midan siljishga ham madori yetmasdi. Sancho shu qadar hayajonga tushgan ediki, nima qilishini, nima deyishini ham bilmasdi; unga bu ishlar tushda bo'layotganday, bunga sehrgarlik aralashganday bo'lib tuyuldi. Uning xo'jayini yengildi, bir yilga qadar qo'liga qurol olmaslikka va'da



berdi. U ulug' jasoratlar shuhrati so'nayotganini, amaldor bo'lish, boylik orttirish umidi va orzusi tutun singari tarqalib ketayotganini ko'rdi.

Don Antonio zambil keltirishga, jabrlangan ritsarni unga solishga va uyiga eltib tashlashga buyruq berdi. Don Antonioning o'zi esa mehmonidan shafqatsiz o'ch olgan ritsar Oq Oydinning kimligini bilishga qiziqib, g'olibning orqasidan ot choptirib ketdi. U ritsarni mehmonxona oldida otdan tushayotgan paytda quvib yetdi. Noma'lum kishining kimligini bilish ishtiyoqida uning orqasidan mehmonxonaga kirdi. Xizmatkor ritsarga peshvoz chiqib kutib oldi va uni pastki qavatning zaliga olib kirdi, don Antonio ularning orqasidan izma-iz kirdi. Noma'lum kabalero o'zining orqasidan qolmayotganini ko'rgan ritsar Oq Oydin shunday dedi:

– Sinor, nazarimda, mening kimligimni bilmogchisiz, kimligimni yashirishga hojat ham yo'q, xizmatkor mendan so-vutlarni yechib olguncha hamma narsani bajonidil aytib bera-man. Men bakalavr Samson Karrasko bo'laman, lamanchlik don Kixot yashaydigan qishloqdanman, uni taniganlarning hammasi don Kixotning tentakligi, aqlsizligidan chuqur qayg'uga tushgan, hammadan ham men ko'proq azoblanaman. Uni tentaklik kasalidan xalos qilishning birdan bir yo'li qishloqda tinch, osoyishta hayot kechirish ekanligini yaxshi bilganim tufayli idalgoni uyda o'tirishga majbur qilish uchun ayyorlik yo'liga o'tdim. Bundan uch oy ilgari don Kixot bilan uchrashdim. O'rmonlar ritsari sifatida uni yakkama-yakka jangga chaqirdim, g'olib nima desa, yengilgan kishi shunga ko'nishi kerak edi. Oldindan o'zimni g'olib deb hisoblab, undan uyga qaytish, hech qayoqqa chiqmaslik haqida va'da olishga urindim, shunday qilganda uning tentaklik kasali davolanar degan umidda edim. Lekin taqdir boshqacha ish qildi: uni yenga olmadim, u meni yengdi, otdan uloqtirib tashladi, mening niyatim mag'lubiyat bilan tugadi. Don Kixot tantana bilan yo'lida davom etdi, men esa yengilgach, sharmanda bo'lgan, yiqilishdan rosa dabdalam chiqqan holda uyga qaytib keldim. Lekin u bilan yana yakkama-yakka jangda kuch sinashish, uni topish hamda yengish ishtiyoqi hech so'nmadi. Qish-

log'imizga, Sancho Pansaning xotini oldiga gersog mahrami xat, sovg'a-salom bilan keldi, u don Kixot bilan uning qurolbardori gersog qal'asida ekanligini batafsil hikoya qilib berdi, men o'sha yoqqa oshiqdim, ritsarning Barselonadagi musobaqaga jo'naganini bildim, uning orqasidan yo'lga tushdim, nihoyat siz guvoh bo'lgan jang yuz berdi. Don Kixotning ritsarlik qonun-qoidalariga qattiq amal qilishiga tayanib turib, u o'z va'dasini buzmaydi, deb o'ylayman. Bo'lgan gap shu, aytganlarimga boshqa qo'shimcha qilolmayman. Lekin bitta iltimos: kimligimni don Kixotga bildirmang, toki aqldan ozgan u bechoraga biroz aql kirsin, ritsarlik alahsirashlaridan ozgina bo'lsa ham, qutulsin.

– Eh, sinor, – dedi don Antonio, – ritsarimizga aql kiritishga urinib, butun olamni unga ermak bo'lgan bir tentakdan judo qilib, orttirgan gunohingizni xudoning o'zi kechirsin. Nahotki, don Kixotning tentakligi baxsh etadigan huzur-halovat u tuzalgach, keltiradigan nafdan ortiqroq. ekanini tushunmasangiz? Biroq tentaklikka bunchalik berilib ketgan odamga aql kirgizishga hech qanday kuch ta'sir etolmasligiga imonim komil, insoniylik oldida gunohkor bo'lib qolishdan qo'rqaman, lekin don Kixotga aql kirishini istamayman, zeroki unga aql kirsam, faqat uning entak-tentak qiliqlaridangina emas, balki eng badqovoq odamni ham kuldirib yubora oladigan Sancho Pansaning hazil-mutoyibalaridan ham mahrum bo'lamiz. Biroq xotirjam bo'ling, men indamayman, don Kixotga ham hech narsa demayman, chunki sizning xatti-harakatingiz hech qanday natija bermasligini o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman.

Bakalavr boshqacha fikrda ekanligini, ishning yaxshi natija bilan tugashiga umidi katta ekanligini aytdi. Keyin u don Antonio bilan xayrlashdi, sovutlarini eshakka yuklashga amr qildi, don Kixot bilan jang qilganda mingan otiga minib uyiga jo'nadi. Yo'lda bu haqqoniy qissada bayon etish uchun e'tiborga sazovor birorta ham hodisa yuz bermadi.

Don Kixot olti kungacha ko'rpada g'amgin, ezilgan, qovog'i solingan, kayfiyati buzilgan holda o'zining yengilishini qayta-qayta xotirlab yotdi. Sancho uni yupatgan bo'lib shunday dedi:

– Xo‘jayin, boshingizni ko‘tarib, xursand bo‘lib o‘tirishga intiling. Yerga yiqilib qovurg‘alaringiz sinmaganiga xudoga shukur qiling, topmoqning yo‘qotmog‘i ham bo‘ladi... Kanorada<sup>1</sup> hamma vaqt lahm go‘sh<sup>1</sup>t bo‘lavermaydi, degan gap larni eslang. Tabibga ko‘rsatib o‘tirmang (chunki kasalingiz bunga muhtoj emas), noma‘lum yurt va shaharlarga sarguzasht axtarib borishdan voz kechib, uyga qaytaylik. Bu yerda, muhtaram janoblari ta‘ziringizni yedingiz, albatta. Ammo oqilona fikr yuritganda, men bu ishda hammadan ko‘ra ko‘proq narsa yo‘qotdim. Axir, gubernator bo‘lib hamda orolni boshqarib ko‘rib, unga bo‘lgan havasim yo‘qolgan bo‘lsa-da, graf bo‘lish umididan voz kechganimcha yo‘q hali. Lekin, hayhot, bu hech qachon bo‘lmaydi, chunki siz muhtaram janoblari ritsarlikni tashlaganingizdan keyin qirol ham bo‘lolmaysiz. Endilikda barcha orzu-umidlarim tutunday tarqalib ketarkan-da.

– Jim, Sancho, mening qamalib o‘tirishim faqat bir yilgagina cho‘zilishini bilasan-ku. Shundan keyin o‘ziming oliyjanob kasbimga qaytaman, ana o‘shanda qirollikni egallayman, senga graflikni beraman.

– Iloho, aytganingiz kelsin, – dedi Sancho. – Chindan ham to‘g‘ri, bu mashmashalarga e‘tibor bermasa ham bo‘ladi. Goh pirdan, goh muriddan, bugun sizni yengishadi, ertasiga siz yengasiz, buning uchun umidsizlikka tushmaslik, kelgusi jasoratlarga kuch saqlash zarur. Sancho xo‘jayinini ana shunday yupatib o‘tirdi.

Ritsarimiz yakkama-yakka jangda orttirgan jarohatlaridan xalos bo‘lib, asta-sekin tuzala boshladi. Kunlar ketidan kunlar o‘tdi, uning hamon ot minishga darmoni yetmasdi. Kunlar, uning nazarida, juda sekin, zerikarli, g‘amgin o‘tayotganday edi, chunki birinchi mag‘lubiyatdan keyin odamlarga ko‘rinishdan uyalar, doimo xona ichida qovog‘ini solib o‘tirardi. Nihoyat, u darmonga kirdi, uyiga qaytish uchun safarga yaraydigan bo‘lib qoldi. Ritsarimiz don Antonioga minnatdorchilik bildirib, Barseelonani tark etishga shoshildi. Don Kixot qurol-aslahasiz, yo‘l

<sup>1</sup> Kanora – qassobxonona yoki qassobxonadagi go‘sh<sup>1</sup>t ilinadigan ilgak.

## ELLIK YETTINCHI BOB

### DON KIXOTNING O‘Z YURTIGA QAYTGANI, SHUNINGDEK, BETOB BO‘LISHI, QOLDIRGAN VASIYATI VA VAFOTI

Don Kixot qishloqqa yaqinroq joydagi xirmon oldida janjallashayotgan ikkita bolani ko‘rdi. Ulardan biri sherigiga:

– Perikilo, behuda chiranma; sen uni endi umr bo‘yi hech qachon ko‘rolmaysan, – deb qichqirdi.

Buni eshitgan don Kixot Sanchoga shunday dedi:

– Do‘stim, ko‘rdingmi, anavi bola nima deyapti: «Sen uni endi umr bo‘yi hech qachon ko‘rolmaysan», dedi-ya.

– Xo‘sh, nima bo‘pti? – so‘radi Sancho. – Bola baqirdi-qo‘ydi-da.

– Nima bo‘pti deysan-a! – dedi don Kixot. – Bu yomon alomat ekanligini nahotki tushunmasang! Axir, bu Dulsineyani hech qachon ko‘rolmayman degan gap-da.

Sancho nimadir deb javob qilmoqchi bo‘lib turgan bir paytda, ikkita tozi it quvib kelayotgan quyonga ko‘zi tushdi, qo‘rqib ketgan quyon eshakning oyoqlari orasiga yashirindi.

Sancho uni qo‘li bilan ushlab, don Kixotga uzatdi, lekin u:

– Bu yomon alomat, quyon qochyapti, tozilar uni quvish-yapti: men Dulsineyani hech qachon ko‘rolmayman, – dedi.

– Sizga hayronman, muhtaram janoblari, – dedi Sancho. – Ishni chappasiga aylantiramiz! Mayli, manavi quyon Tobosolik Dulsineya bo‘lsin, uni quvib kelayotgan itlar Dulsineyani dehqon ayol qiyofasiga kiritib qo‘ygan yovuz sehrgarlar bo‘lsin. Men uni ushlab qo‘lingizga berdim, u bag‘ringizda turibdi. Buning nimasi yomon alomat bo‘lsin?

Shu payt bolalar quyonna ko‘rgani kelishdi. Sancho ularning biridan nega janjallashganlarini so‘radi. «Sen uni endi umr bo‘yi hech qachon ko‘rolmaysan» degan bola sherigidan qora chigirtka solingan qafasni tortib olganini, uni hech qachon bermasligini aytdi. Sancho yonidan hamyonini chuqarib to‘rt kvarto

oldi, uni bolaga berib, o'rniga qafasni oldi-da, uni don Kixotga uzatib, shunday dedi:

– Mana, sinor, mening kaltabin, ahmoqona fikrimcha, sizning ishingizga bulturgi bulutday daxli bo'lgan barcha yomon alomatlarni daf qilib, haydab yubordim. Ruhoniyimizning, aqlli odamlar hamda haqiqiy nasroniylar bunaqa ahmoqona narsalarga e'tibor bermasligi kerak, degani yodimda. Muhtaram janoblari-ning o'zlari ham yaqinda alomatlarga ishonuvchi nasroniylar tentaklar ekanligini aytib, meni ishontirgan edilar-ku. Bu yerda to'xtab turishda hech qanday ma'no yo'q, qani ketdik.

Shu payt ovchilar yetib kelib, quyovni talab qilishdi, don Kixot uni berdi. Ritsar bilan qurolbardor yo'lida davom etishdi, qishloqqa kiraverishdagi maysazorda qo'llarida oyatlar ushlagan ruhoniy va bakalavr Karraskoga duch kelishdi.

Ruhoniy bilan bakalavr darbadarlarimizni darhol tanishdi-yu, ularga tomon quchoq ochib yugurishdi. Don Kixot otdan tushib, do'stlarini mahkam quchoqladi. Don Kixotning kelganini eshitgan qishloq bolalari ham uni ko'rish uchun har tomondan chopib kelishdi.

Shunday qilib, ritsar bilan qurolbardor bolalar qursho-vida, ruhoniy va bakalavr hamrohligida don Kixotning uyi tomon yo'l olishdi. Ostonada allaqachon ritsarning kelganini eshitgan ekonomka bilan jiyani kutib turishardi. Bu xabar Sancho Pansa-ning xotini Teresa Pansaga ham yetib bordi, u nari-beri kiyingan, sochlari to'zigan holda, qizi Sanchikani yetaklaganicha erini kutib olishga oshiqdi. O'z fikricha, uning gubernatordan ko'ra kambag'alroq kiyinganini ko'rib qichqirib yubordi:

– Yo, Rabbim, nima gap o'zi, hoy er! Piyoda, buning ustiga oyoqlaringizni arang ko'tarib bosyapsiz! Negadir gubernatorga o'xshamay qolibsiz.

– Jim, Teresa, – dedi Sancho, – ko'pincha kanora bo'lgan bilan lahm go'sht bo'lavermaydi. Yur uyga, senga g'aroyib narsalarni aytib beraman. Eng muhimi, hech kimga ozor bermay, o'z aqlim bilan to'plagan pulim bor.

– Pul bo'lsa, changalda sho'rva, erjon, – dedi Teresa, – qayerdan olganingizning ahamiyati yo'q, pulni qanday qilib top-

mang, bu bilan hech kimni ajablantira olmaysiz.

Sanchika otasini quchoqlab, nima olib kelganini so'radi, chunki u otasining kelishini ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan edi. Xotini Sanchoning qo'lidan ushladi, qizi eshakni haydadi, to'rtovlari uyga jo'nashdi, don Kixotni esa uyida ekonomka bilan jiyani, ruhoniy bilan bakalavr ixtiyorida qoldirishdi.

Don Kixot fursatni boy bermay, uyni ichidan bekitib, darhol bakalavr bilan ruhoniyga yengilganini, zimmasiga bir yilgacha qishloqdan chiqmaslik yuklanganini aytib berdi. U o'zining ritsarlik ordeni qonun-qoidalariga qat'iy amal qiluvchi chinakam jahongashta ritsar sifatida ahdini aniq bajarish, undan zarracha orqaga chekinmaslik niyatida ekanini aytdi. Bu yil esa u cho'ponlik qilish, dalalarda tanho kezish, o'zining shirin xayollariga berilib, cho'ponlarcha saxovatli hayot kechirishga ahd qilganini ham so'zlab berdi.

– Ehtimol, – deb qo'shimcha qildi u, – agar boshqa xalaqit beradigan muhimroq tashvishlaring bo'lmasa, sizlar ham men bilan birga bo'larsizlar. Men bir suruv qo'y sotib olaman, shunday qilganimizda chinakam cho'pon bo'lishimiz mumkin. Biroq eng muhimi shuki, sizlarga ajoyib hamda dabdabali nomlar topib qo'rganman.

Ruhoniy qanday nomlar qo'yganini so'radi, u esa o'ziga cho'pon Kixotis, bakalavrga cho'pon Karraskon, ruhoniyga cho'pon Kuriambro, Sanchoga esa cho'pon Pansio nomlarini berganini aytdi. Ikkala do'st ham don Kixotning yangicha tentakligidan hayratga tushishdi. Biroq uning yana ritsarlik sarguzashtlarini axtarib ketishidan qo'rqishib, bir yil ichida aql kirib qolar degan umidda bu tentakona fikrini zo'r donolik hisoblashib, cho'pon bo'lishga va'da berishdi.

– Bu taklif mening ko'nglimdagidek bo'ldi, – dedi bakalavr. – Mening mashhur shoirligim olamga ma'lum. Dalalarda yurib, tinimsiz she'r to'qiyman. Sinorlar, eng muhimi har birimiz o'zimiz ardoqlaydigan cho'pon ma'shuqalarimizga ham nom o'ylab topishimiz kerak. Men aminmanki, oshiq cho'ponlarning qoidasi hamda ularning udumiga amal qilib, har qancha mustahkam bo'lmasin, ma'shuqalarimiz nomi o'yib yozilmagan birorta

ham daraxt qolmaydi.

– Juda soz! – qichqirib yubordi don Kixot. – Men xayoliy cho‘pon qiz uchun nom topib o‘tirmayman. Mening husnda tengsiz Dulsineyam bor, u mana shu sohillar shuhrati, mana shu may-sazorlar husni, nazokat cho‘qqisi, xullas, qancha maqtasa ham, maqtov ojjizlik qilib qoladigan bir go‘zal.

– Chin haqiqat, – dedi ruhoni, – biz ham o‘zimizga cho‘pon ma’shuqalar izlaymiz.

Samson Karrasko esa qo‘shimcha qildi:

– Ma’shuqalarimizni dunyodagi eng chiroyli nomlar bilan ataymiz. Agarda ma’shuqam, to‘g‘rirog‘i cho‘pon qizimning ismi Anna bo‘lsa, men uni Anarda deyman, mabodo oti Fransiska bo‘lsa men uni Fransenia deyman, agar Lyusiya bo‘lsa Lyusinda deb atayman. Agar Sancho Pansa ham bizga qo‘shiladigan bo‘lsa, u o‘zining Teresa Pansasini Teresona deb atasin.

Bu nomni eshitgan don Kixot kulib yubordi, ruhoni esa uning hurmatga sazovor, yaxshi niyatini maqtadi, bo‘sh vaqtini, albatta, ular bilan o‘tkazishga yana bir marta va‘da berdi. Har ikkala do‘st ham o‘z salomatligini saqlashi, buning uchun nima zarur bo‘lsa, hammasini qilishini o‘tinib, don Kixot bilan xayrlashdi.

Bo‘lib o‘tgan suhbatni jiyani bilan ekonomka eshitib turishgan edi, ruhoni bilan bakalavr ketishi bilan ular don Kixotning huzuriga kirishdi. Jiyani shunday gap boshladi:

– Bu qandoq bo‘ldi, sinor tog‘ajonim? Biz esa sizni tinch, huzur-halovatda yashash uchun butunlay qaytib keldi deb o‘ylabmiz. Lekin siz bizni tashlab, yangi sarguzashtlar axtarib cho‘pon bo‘lishga, hamma siz haqingizda:

– Qaytmoqdasan qaydan ey cho‘pon, Qaydan qaytib, shoshasan qayon? – deyishlari uchun bel bog‘labsiz-da. Menga ishonib, hushtak yasash uchun arapoya qattiqlik qiladi.

Ekonomka ham gapga aralashdi:

– Nahotki, siz yozning qoq tushdagi jaziramalariga, tumanli oqshomlarga va bo‘rilar uvullaydigan qish kunlariga bardosh berolaman deb o‘ylaysiz? Bardosh berolmaysiz. Bunga baquvvat, chiniqqan, shu ishda suyagi qotgan kishilargina yaraydi.

Yomon narsani tanlaydigan bo'lsangiz, cho'ponlikdan ko'ra jahongashta ritsarlik ming marta a'lo. Sinor, aqlingizni yig'ib, maslahatimga kiring: uyda qoling, xo'jalik ishi bilan mashg'ul bo'ling, tez-tez tavba-tazarru qiling, kambag'allarga xayr-sadaqa bering, agar shunday qilganingiz yaxshi bo'lmasa, mayli, boshim gunohdan chiqmasin.

– Jim, qizlarim, – dedi don Kixot, – nima qilishimni o'zimga bilaman. Meni o'ringa yotqizingar. Negadir mazam qochyapti. Lekin shunga ishonchlaring komil bo'lsinki, jahongashta ritsarimi, cho'ponmi, kim bo'lishimdan qat'i nazar, hamma vaqt sizlarning ehtiyojlaring haqida g'amxo'rlik qilaman.

Qizlar don Kixotning istagini bajo keltirib, uni o'ringa yotqizdilar, ovqatlantirib mehribonlik ko'rsatdilar. Biroq ana shunday g'amxo'rlik ko'rsatilishiga qaramay, ritsarimizga tuzalish nasib bo'lmadi. Bu dunyoda hech narsa abadiy emas, hamma narsaning, ayniqsa, inson umrining ham nihoyasi bor: don Kixotning umri esa o'z yugurishini sekinlata oladigan qobiliyatga ega emasdi, u hech kutmagan bir paytda o'lim tashrif buyurdi. Bu hol yengilganidan keyingi iztiroblardanmi yoki boshqa sabablardan paydo bo'ldimi, ishqilib, uni bezgak tutdi, olti kungacha o'rnidan qimirlayolmadi. Do'stlari – ruhoniy, bakalavr va sartaroshlar uning holidan tez-tez xabar olib turishdi, saxovatli qurolbardori Sancho Pansa esa uning yonidan jilmadi. Bechora idalgo Dulsi-neyaning ozod bo'lgani hamda sehrdan qutulganini o'z ko'zi bilan ko'rish istagi ro'yobga chiqmagani tufayli g'am-g'ussaga berilyapti deb o'ylashib, uni qo'llaridan kelganicha xursand qilishga urini shardi. Bakalavr uni dadil bo'lib o'rnidan turishga va cho'ponlik hayotini boshlashga undardi: u, ya'ni Samson Karras-ko bu hodisaga bag'ishlab ilgari yozilganlardan, ancha zo'r she'r ham to'qib qo'yganini, bundan tashqari, u podani qo'riqlaydigan ikkita ajoyib it ham sotib olganini, birining oti Barsino, boshqasini Butron ekanini so'zlab berdi. Lekin bularning hech qaysisi don Kixotning qayg'usini yoza olmadi.

Do'stlari tabib chaqirishdi, u don Kixotning tomirini ushlab ko'rib, ritsarimizga o'z ruhi borasida o'ylashini, chunki uning tanasiga katta xavf tahdid qilmoqda ekanini aytdi. Don Kixot



uning gaplariga xotirjam quloq soldi. Biroq tabibning gapiga ekonomka, jiyani, qurolbardori befarq qaramadilar, hammalari don Kixot allaqachon olamdan o'tganday yig'i-sig'i qila boshladilar. Don Kixot o'zini yolg'iz qoldirishlarini iltimos qildi, chunki u uxlab olmoqchi bo'ldi. Uning iltimosi bajo keltirildi, u miq etmay olti soat uxlab, u uxlab yotganida ekonomka bilan jiyani joni chiqib ketmadimikan deb tashvishlana boshladilar. Lekin ma'lum vaqt o'tgach, u uyg'ondi va uyni boshiga ko'tarib qichqirdi:

– Menga shunchalik marhamat ko'rsatgan Xudoyimga shukr. Xudoning dargohi shunchalik kengki, bandalarning gunohi uni o'zgartirolmaydi ham, bo'shashtirolmaydi ham.

Tog'asining gaplariga quloq solib turgan jiyaniga bu so'zlari uning oldingi entak-tentak gaplaridan ko'ra bama'niroqdek tuyulib, u shunday deb so'radi:

– Nimalarni gapirayotibsiz, sinorim? Qanaqa marhamat-u bandalarning qanaqa gunohi haqida gapirayotibsiz?

– Jiyani, shu payt xudoyimning menga ko'rsatgan marhamati haqida, – dedi don Kixot, – qilgan gunohlarim bunga xalaqit bermadi. Hozir hamma narsa haqida oqilona, aniq fikr yuritayapman, chunki aqlim manfur ritsar romanlarini o'qish tufayli yuzaga kelgan g'aflat tumanidan xalos bo'ldi. Endilikda o'sha qilmishlarimning bema'niligiga, shayton vasvasasi ekanligiga iqrorman, biroq aqlimning bunchalik kechroq kirganiga afsuslanaman, endi esa o'sha kitoblar yetkazgan ziyonlarni yuvish uchun, aql chirog'i bo'lgan boshqa kitoblarni o'qish uchun vaqt tig'iz. Jiyani, o'limim yaqinligini sezib turibman, lekin odamlar umrimni yomon, o'zimni tentak deb hisoblashmasa, shu ahvolda o'lib ketmasam. To'g'ri, tentaklik qilganman, biroq tentakligimni o'limim ham tasdiqlamasin. Azizim, saxovatli do'stlarim – ruhoniy, bakalavr Samson Karraskoni, usta Nikolasni chaqir, chunki men tavba qilmoqchiman, vasiyat qoldirmoqchiman.

Lekin jiyaning ularni chaqirishining hojati bo'lmadi, chunki ularning o'zlari shu payt xonaga kirib kelishdi. Don Kixot ularni ko'riboq gap boshladi:

– Meni qutlang, sinorlar: siz qarshingizda jahongashta

lamanchlik don Kixot emas, balki Marhamatli deb nom chiqargan idalgo Alonso Kexanani ko'rib turibsiz. Men shu daqiqadan boshlab Galliyalik Amadisning hamda uning hisobsiz avlodlarining dushmaniman: men jahongashta ritsarlarning gunohga to'la tarixidan jirkanaman; tentakligimni, o'sha kitoblarni o'qib o'zimni halokatga duchor etgan xavf-xatarni angladim, endi xudoyim menga aql berganda, o'z befarosatligimni qoralayman.

Xonada o'tirganlar bu gaplarni eshitib, yangi bir tentaklik boshlanmadimikin deb o'ylashdi. Samson shunday dedi:

– Sinor don Kixot muhtaram janoblari, bu qanday gap? Dulsineyaning ozod bo'lgani haqida xabar kelgan, ajoyib cho'ponlik hayotini boshlash uchun hamma narsa muhayyo bo'lgan bir paytda nimalarni aljirayapsiz? Xuddi shunday bir paytda hamma orzularingizdan voz kechmoqchimisiz-a?

– Shu kungacha gapirganlarimning hammasi alahsirash edi, – dedi don Kixot, – alahsirash bo'lganda ham juda xavfli, halokatlisi edi. Biroq o'lim daqiqa sida men uni xudoning marhamati bilan o'z foydamga o'zgartiraman. Sinorlar, o'limim yaqinlashganini his etib turibman; hazilni bas qilaylik. Tavbatazarru qilishim uchun meni ruhoniylar bilan yolg'iz qoldiringlar, vasiyat qoldirishim uchun mirzani keltiringlar, chunki bunday paytda kishi o'z ruhi bilan hazillashishi yaramaydi. Iltimos, sinor ruhoniylar meni tavba qildirguncha mirzaga odam yuboringlar.

Xonadagilarning hammasi don Kixotning gapiga hayron qolib bir-birlariga qarab qo'yishdi, garchi o'z shubhalaridan voz kechisha olmasa-da, unga ishonishga mayl bildirishdi. Bundan tashqari u yana ancha oqilona, ma'noli gaplarni ham aytdiki, uydagilarning shubhalari tumanday tarqab, ritsarning aqli joyida ekanligiga qattiq ishonishdi. Bunday keskin o'zgarish, nazarlarida, uning o'lim soati yaqinligi alomatiday bo'lib tuyuldi. Ruhoniylar hammalariga xonadan chiqishlarini buyurdi, don Kixot bilan yolg'iz qolgach, tavbatazarruni boshladi. Bakalavr mirzanikiga ketdi, ko'p o'tmay ular bilan Sancho Pansa ham yetib keldi.

– Alonso Kexana muhtaram janoblarning chindan ham qazosi yetib qoldi, uning es-hushi, xotirasi joyida. Uning huzu-

riga kirib, vasiyat yozilayotganda birga bo'linglar.

Bu so'zlar ekonomka, jiyan va qurolbardor Sancho Pansaning yana mo'l-ko'l ko'z yosh to'kib yig'i-sig'i qilishiga, chuqur oh-voh chekishiga sababchi bo'ldi, chunki u oddiy idalgo marhamatli Alonso Kexanaligi paytida ham, lamanchlik ritsar don Kixot chog'ida ham soddaligi, samimiyligi bilan ajralib turardi, don Kixotni ana shu xislatlari uchun yaqinlari, uni taniganlarning hammasi ham chuqur hurmat qilishardi. Boshqalar bilan birga mirza ham ichkariga kirdi. U vasiyatning sarlavhasini yozgandan keyin don Kixot nasroniylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda vasiyatni moddama-modda izhor qila boshladi:

– Avvalo, tentaklik paytida o'zimga qurolbardorlikka olgan Sancho Pansaning cho'ntagidagi pullar menga halol xizmat qilgani uchun uning o'zida qolishini istayman. Basharti tentakligimda unga bitta orolni idora qilishni hadya qilgan bo'lsam, endi hushyorligimda qo'limdan kelsa, unga butun bir qirollikni berardim, zeroki uning samimiy, sadoqatli qalbi shunday tuhfaga loyiq.

U Sanchoga murojaat qilib:

– Do'stim, meni kechir, men tufayli sen ahmoq degan nom olding, zeroki bu ahmoqona ko'chaga men sabab bo'lib kirganding, ilgari ham, hozir ham jahongashta ritsarlar borligiga ishonding, – dedi.

– Oh, – dedi Sancho ko'z yoshi to'kib, – bizni tashlab ketmang, sinor muhtaram janoblari, nasihatimga quloq soling, uzoq yillar umr ko'ring. Chunki kishi birov uning joniga qasd qilmay, jonidan to'ydirmay, faqat qayg'u-alam chekishning o'zigayoq o'lib ketaversa, bu inson tomonidan qilingan eng katta bema'nilik bo'ladi. Iltimos qilaman, o'ringizdan turing, dalalarni sayr qilgani boraylik, o'zimiz aytganday cho'poncha kiyinib yuraylik. Ehtimol, birorta chakalakzorda ozod qilingan Dulsineyani uchratib qolarmiz, unda dunyoda hech qanday armonimiz qolmaydi. Agar yengilganingizdan g'am chekib o'layotgan bo'lsangiz, butun aybni menga ag'darib qo'ya qoling. Rosinantning ayilini yaxshi tortmaganim uchun sizni egardan yiqitib yuborishganini aytavering. O'zingiz ham ritsarlik kitoblarida bir ritsar ikkin-

chisini otdan qulatgani kabi hodisalarni ko'p o'qigansiz. Bugun yengilgan ertaga, albatta, g'olib chiqadi.

– Albatta, – dedi Samson, – Sancho Pansa bu haqda juda haq gapni aytdi.

– Jim bo'linglar, sinorlar, – dedi don Kixot. – Ilgari tentak edim, hozir aqlim joyida, ilgari lamanchlik don Kixot edim, endi yana marhamatli Alonso Kexana bo'lib qoldim. Pushaymonim hamda samimiyligim tufayli yana ilgarigidek hurmatlarga sazo-  
vor bo'lishdan umidvorman. Endi esa, sinor mirza, yozishda davom eting.

«Men barcha uy anjomlarimni, mol-mulkimni jiyanim Antoniya Kexanaga vasiyat qilib qoldiraman, toki u men boshqa odamlarga rad qilgan mablag'larga ega bo'lsin, shuning bilan birga, avvalo, butun umr menga xizmat qilgan ekonomkaga maosh to'lashini iltimos qilaman, buning ustiga unga yana yigirma dukat pul hamda kiyim-kechak berilsin. Sinor ruhoniyni va sinor bakalavr Samson Karraskoni, shu yerdagilarning hammasini vasiylarim etib tayinlayman.

Bundan tashqari, mabodo jiyanim Antoniya Kexana erga tegadigan bo'lsa, tanlagan kuyovi ritsarlik romanlaridan bexabar bo'lishini aniq bilsin. Mabodo o'sha kitoblarni o'qigan, jiyanim esa unga erga tegadigan bo'lsa, jiyanimni merosdan mahrum etaman, vasiylarimdan esa mol-mulkimni savobli ishlarga sarf qilishlarini iltimos qilaman».

Shu bilan don Kixot o'z vasiyatini tamomladi, hushidan ketib, oyoq-qo'lini uzatdi. Uch kungacha o'ziga kelmay, hushsiz yotdi. Uy ichidagilarning hammasi katta tashvishda qoldi. Shunday bo'lsa-da, jiyaning tomog'idan ovqat o'tib turdi, ekonomka ham yeb-ichishni unutmadi. Sancho ham qornini siylab turdi, o'lim haqidagi fikr merosdan umidvor bo'lib o'tirgan merosxo'rlardagi tabiiy qayg'uni ana shunday yumshatadi va so'ndiradi. Nihoyat, don Kixot yig'i-sig'i qilayotgan hamxonalari va do'stlarining qurshovida tinchgina jon berdi. Shu yerda turgan mirza birorta ritsarlar romanida birorta jahongashta ritsarning don Kixot singari o'z to'shagida mana bunday tinchgina, nasroniychasiga jon berganini sira uchratmaganini aytdi.

Sancho, jiyani va ekonomka ko'z yoshlarini tasvirlab o'tirmaymiz. Don Kixot qabri ustidagi barcha rasm-rusumlarni ham aytmaylik, faqat Samson Karrasko to'qigan she'rni aytish kifoya:

*Jasorati olamni tutgan  
Mashhur botir yotar bu yerda.  
Qarshisida o'lim ham tuban,  
Qalb otashi yonar qabrda.  
Xayoloti bo'lsa ham biroz,  
Baham ko'rdi shodlikni, g'amni,  
O'lib ketdi donishmandga xos,  
Telba sifat yashasa hamki.*

Tarixini muallif shu romanda rostgo'ylik bilan hikoya qilgan lamanchlik uddaburo idalgoning umri mana shunday tugadi.

**B.M. Engelgardt**

## SERVANTES VA UNING ROMANI<sup>1</sup>

1605-yili Ispaniyada hammaning diqqatini birdaniga o'ziga jalb etgan bir kitob bosilib chiqdi. Bu o'sha vaqtlarda butun mamlakat berilib o'qiyotgan ritsar romanlariga hajviy tarzda taqlid qilib yozilgan o'tkir va qiziq asar edi. Uning muallifi «kishi ongida bema'ni ritsar tarixlariga nisbatan nafrat uyg'otishni» o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi. U o'z maqsadiga erishdi: «Don Kixot» bosilgach, ritsar romanlarini o'qish butunlay rasm-dan chiqib qoldi. Biroq g'alati voqea sodir bo'ldi: ritsar romanlarining kuni bitdi-yu, ammo ularga taqlidan yozilgan asar yashab qoldi. Asrlar ketidan asrlar o'taverdi, lekin bu kitobga qiziqish so'nmadi, balki tobora o'sdi. U butun dunyoga mashhur bo'ldi, juda ko'p tillarga tarjima qilindi; u haqda yuzlab kitoblar yozildi, kitob qahramonlarining nomlari atama bo'lib qoldi, ko'pgina ifodalar esa maqolga aylanib ketdi.

Telba bir idalgo haqidagi bu qissada shunday masalalar ko'tarilgan, shunday his-tuyg'ular ifodalanganiki, ular odamlarni hanuzgacha hayajonlantirib keladi. Bu kitob asar yaratilgan o'sha davrning asosiy belgilarini o'ziga qamrab olgan va unda muallifning darbadarlikda kechirgan sertashvish hayotining boy tajribasi ham o'z aksini topgan.

Migel de Servantes Saavedra 1547-yilda Madrid yaqinidagi kichik shaharcha Alkala de Enaresda dunyoga keldi. U tabiblik bilan shug'ullanuvchi, kambag'allashib qolgan dvoryanning o'g'li edi. Yetishmovchilik natijasida Migel yaxshi bilim ololmadi, biroq unda adabiyot va teatrga ilk uyg'ongan qiziqish maktab mashg'ulotlaridagi kamchiliklarni bir qadar to'ldirib turdi. U bolalik chog'idayoq shoir, dramaturg, yozuvchi bo'lish-

---

<sup>1</sup> Ushbu maqola va asardagi asosiy izohlar rus tilshunos adibi Boris Mixaylovich Engelgardt (1887-1942) qalamiga mansub.

ni orzu qilar va uni bu yo'lda madridlik o'qituvchi, gumanist Xuan Lopes de Goyos har tomonlama qo'llab-quvvatlar edi. Ammo muhtojlik Servantesni xizmat haqida o'ylashga majbur qiladi. U Ispaniyada ishga kirolmaydi. 1569-yilda u kardinal Akvavivaga oddiy mulozim bo'lib ishga joylashadi va Italiyaga, Rimga jo'nab ketadi.

Kardinal huzuridagi bu past xizmat uni qanoatlantirmadi. Xuddi shu vaqtda papa, ispan qiroli Filipp II va Venetsiya respublikasi turklarga qarshi urush boshladi. Servantes Akvaviva saroyini tark etib, harakatdagi qo'shinga ko'ngilli askar bo'lib xizmatga kiradi. Servantes keyingi to'rt yilni tinimsiz safar-u janglarda o'tkazadi. Jasurligi va fidokorligi tufayli u polkda katta obro' qozonadi, behad g'ayrati va hamisha xushchaqchaqligi tufayli esa o'rtoqlariga juda yoqib qoladi. Lepanto yaqinidagi dengiz jangida (1571-yil) u ko'krigidan og'ir yaralandi va chap qo'li ishdan chiqdi. Keyinchalik u «o'ng qo'limning shuhrat qozonishi uchun shunday bo'ldi» deb takrorlashni sevardi.

1575-yili harbiy harakatlar tinchib, Servantes vataniga qaytishga qaror qiladi. U vataniga qaytarkan, bisotida mayib qo'li-yu bosh qo'mondon va Neapol vitse-qirolning tavsiya mak-tubidan boshqa hech vaqosi yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, u Italiyani ko'radi, Rim va Neapolda uzoq yashadi, italyan tilini o'rgana-di, italiyalik gumanistlar yaratgan nodir asarlar bilan tanishadi. Uning miyasida talaygina adabiy rejalar pishib yetiladi, qalbi quvonchli umidlar bilan to'ladi. U Madridga tezroq yetib olishni o'ylaydi.

Neapoldan vataniga ketayotganida u og'ir sinovga duch keladi. U suzib borayotgan kemani mavritanlik dengiz qaroq-chilari ushlab olishadi va Jazoirga olib ketishadi. Servantes besh yil davomida erksizlikda azob chekadi. Hayotini xavf ostida qoldirib, bir necha marta qochishga urinadi, biroq – bu urinish-larning bari muvaffaqiyatsiz tugaydi. U faqat 1580-yildagina katta pul evaziga asirlikdan qutuladi va nihoyat Ispaniyaga yetib keladi.

Vatani uni xursandchilik bilan kutib olmaydi. Ota-onasi qashshoqlikda kun kechirishardi. Ma'murlar unga butunlay be-

parvolik bilan qaraydilar. Jasorati va mardligi bilan dong taratgan mayib askar ko'chaga quvib chiqariladi.

Servantes adabiyotga murojaat etadi. U adabiyotning turli sohalarida o'z kuchini sinab ko'radi, yildan yilga shafqatsiz qashshoqlik bilan mardona kurash olib boradi. Biroq hadeganda omadi kelavermaydi. Servantes hali o'z yo'lini topolmagan, tamomila adabiyot an'analari hukmida bo'lib, ko'p chaynalgan adabiy shakllarda ijod qilar va uning o'ziga xos alohida erkin quloch yozolmasdi. Uning she'rlari e'tibor qozonmadi, cho'ponlar haqidagi «Galateya» romani muvaffaqiyat qozonolmadi. Dramalari esa – u yigirmadan ortiq drama yozgan – bir marta qo'yilgach, sahnadan tushib ketardi.

Servantes qashshoqlik chohi yoqasiga kelib qoladi. 1587-yili u Madriddan ketadi. Avval g'alla yig'uvchi, keyinchalik esa Sevilyada boqimandalardan soliq yig'uvchi bo'lib ishlaydi. U o'sha davr Ispaniyaning chekka o'lkalaridagi hayot qaynoviga sho'ng'iydi, dehqonlar, boylar va mayda dvoryanlarning turmush ham odatlari bilan tanishadi. 1597-yili Servantesning boshiga yana falokat tushadi: u davlatning anchagina pulini bir bank xodimiga ishonib topshiradi, bank xodimi esa pul bilan birga g'oyib bo'ladi. Servantes qamaladi. To'g'ri, do'stlari uni tez kunda qutqarishadi, biroq 1598 va 1602-yillarda u yana qamaladi.

1604-yildagina u g'azna qarzidan uziladi va ma'murlar uni nihoyat tinch qo'yishadi. Shu yillar mobaynida u tasodifiy ish haqi va do'stlari ehsoni hisobiga yarim och holda qashshoqlikda hayot kechiradi.

Biroq og'ir muhtojlik va xo'rliklar uning irodasini buka olmaydi. Servantesga mardonavor xotirjamlik, ruhiy ko'tarinkilik va xushchaqchaqlik hamisha yor bo'ladi. Xuddi shu yillar mobaynida u o'zining «Don Kixot» asari ustida o'ylaydi va uni yozadi. Hajv tarzida taqlid qilish usuli uning bitmas-tuganmas fantaziyasi va beqiyos yumoriga keng yo'l ochib beradi. Nihoyat, uning dahosi butun borlig'i bilan namoyon bo'lishi uchun imkoniyat tug'iladi va kitob o'z o'quvchisini topadi. «Don Kixot»ning 1605-yilda bosilib chiqqan birinchi jildi alohida muvaffaqiyat



qozonadi. Ammo u o'z muallifini moddiy jihatdan ta'minlay olmaydi. Servantes Valyadolidada avvalgidek yarim qashshoqlikda hayot kechiradi. U nihoyatda holdan ketadi, lekin burungi g'ayrat bilan bor kuch-quvvatini adabiyotga bag'ishlaydi.

Umrlining so'nggi yillarida Servantes «Don Kixot»ning ikkinchi jildidan (1615-yil) tashqari «Ibratli novellalar» to'plamiga kirgan ajoyib novellalarini, «Parnasga sayohat» satirikostonini, o'ndan ortiq komediya va intermediyalarini yozadi va yangi fantastik romanini boshlab qo'yadi. Biroq o'lim endilikda uning yoqasiga chang sola boshlagan edi. U tugallanmagan kitobiga bag'ishlov qismini yozib ulgurar-ulgurmas, 1616-yilning 23-aprelida vafot etadi.

Buyuk yozuvchining mashaqqatli hayoti shunday o'tadi. Uning xilma-xil taassurotlar va kuzatishlarga qanchalik boy ekanini ko'z oldingizga keltirishingiz mumkin. U bu tajribadan o'z romanida keng foydalanadi. Asar mazmunining boyligi va badiiy shaklining o'ziga xosligi bilan Uyg'onish davrining eng yaxshi yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Bu Yevropa hayotida chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan davr edi. Eskirgan va qoloq shakldagi xo'jalikka ega bo'lgan feodal tuzum o'rniga kapitalizm vujudga kelayotgan bir davr edi. Savdo-sotiq tobora o'sib borardi. Amerikaning va Hindistonga suv yo'lining ochilishi bilan savdo-sotiq ishlari yanada rivojlanib, tobora kengaya borardi. Yevropa mollari – gazmol, movut, charm, temir buyumlarga bo'lgan ehtiyoj borgan sari ortardi. Manufakturalar paydo bo'la boshlaydi, birinchi yirik korxonalar egalari yetishib chiqadilar.

Okean ortidagi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari vahshiyona usullar bilan olib borilar va benihoya foyda keltirardi. Oltin uzoq mustamlakalardan Yevropaga daryo kabi oqib kelar, behisob boyluk to'planardi. Shaharlar tez boyib, tobora kattaroq salmoqqa va ahamiyatga ega bo'lib borardi. Shahar boylari feodal oqsuyaklari bilan faqat aysh-ishratda yashash va hashamdorfikdagina emas, balki davlat ishlariga o'z ta'sirlarini o'tkazishda ham raqobat qila boshladilar.

Feodallar hukmronligi asta-sekin cheklanib borardi. Mamlakat feodallar tomonidan o'zboshimchalik bilan joriy qilingan o'z qonunlari, soliqlari, bojlariga ega bo'lgan feodal mulklariga bo'linib ketgan edi. Bu savdo-sotiq va sanoatning rivojini juda cheklab qo'yardi. Yangi xo'jalik tartibi mustahkam markaziy davlatga, bir xildagi qonunlarga, alohida viloyatlar o'rtasidagi turli-tuman to'siqlarni yo'qotishga muhtoj edi. Bu davrda markazlashgan milliy davlatlar tashkil topa boshlagan edi. Shu asnoda kapitalizm hamma sohalarda Yevropaning xo'jalik va siyosiy hayotiga o'z ta'sirini har qadamda o'tkaza borardi. Albatta, eski feodalizm qullik zanjirini parchalab borar ekan, u mehnatkashlarga yangilik keltirar, bu yangilikning mashaqqatlari eski jamiyat qiyinchiliklaridan kam emasdi. Kapitalizmning dastlabki kapital jamg'arishi deb atalgan birinchi qadamdayoq okean ortidagi mulklarda yashovchi tinch aholini shafqatsizlarcha qirish va talash bilan belgilanadi. Manufakturalarda ular og'ir ekspluatatsiya qilinadi, dehqonlar tobora xonavayron bo'la boradi, ular yerlaridan haydab chiqariladi, bu joylarni poda haydaladigan o'tloqlarga aylantiriladi. Chunki jun savdosi kapitalistlarga katta foyda keltirardi.

Kapitalizm o'lib borayotgan feodal tuzumi bilan olib borayotgan kurashida, har holda, progressiv tarixiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Bu kurash shiddatli va shafqatsiz bo'lib, hamma sohada olib boriladi. Biroq u ma'naviy madaniyat sohasida alohida keng quloqchilik yoyadi. Bu borada u buyuk madaniy harakatni hayotga chorlaydi.

Bu harakatning asosini insonni katolik dini yaratgan xayoliy fantastik dunyodan ajratib olishga va uni haqiqiy mavjud dunyoga yaqinlashtirishga intilish tashkil qiladi. Yangi madaniy harakat aql-idrokning ko'r-ko'rona din aqidalariga bo'ysunishini qat'iy rad etadi va uning tabiat hamda inson hayotini erkin ravishda o'rganishga bo'lgan huquqini e'lon qiladi. U cherkov sxolastikasining mavhum uydirmalariga haqiqatlarga asoslangan fanni qarshi qo'yadi.

Basharti o'rta asr olimi tabiatning u yoki bu hodisasiga mog'or bosib yotgan ilohiy asarlarning tomlaridan izoh qidirgan

bo'lsa, Uyg'onish davri olimi jonli tajribaga murojaat qiladi, nazorat, tadqiqot qiladi, o'lchaydi va hisoblaydi. Koinotning tuzilishini bilishni istagandan u sayyoralar va yulduzlarning harakatini o'rganadi va bu harakatning qonunlarini bilishga intiladi. U Tavrot-u Injillardan samoviy mavjudotlar haqidagi turli-tuman ertaklarni qidirib o'tirmaydi. Uyg'onish davri olimi inson tanasining tuzilishi bilan qiziqar ekan, u odamni xudo yaratganligi to'g'risidagi Injil ertaklariga murojaat qilmaydi, balki insonning nafas olishini, qonning harakatini kuzatadi, murdalarning ichini yoradi, xilma-xil a'zolarining faoliyatini o'rganadi. U fizikaviy va kimyoviy tajribalar o'tkazadi, ilmiy asboblarni ixtiro qiladi, laboratoriyalar quradi. Shunday qilib, asta-sekin aniq fanlar binosi qad ko'tara boshlaydi. Bu bino insonning tabiat va hayotga bo'lgan barcha qarashlarini butunlay o'zgartiribgina qolmay, balki tabiatni insonga bo'ysundirishda qudratli qurol ham bo'ladi.

Ammo bu ham kifoya emas. Yangi madaniy harakat cherkovning yerdagi mavjud narsalarning gunohkorligi haqidagi zohidona ta'limotini qattiq tanqid qiladi. U shaxsining yerdagi jamiki noz-ne'matlarga bo'lgan ehtiyojini va istaklarini qondira olish huquqini tiklaydi. Uyg'onish davrining shoirlari, rassomlari hamda haykaltaroshlari o'zlarining ajoyib she'rlari, chiroyli rasmlarida hamda haykallarida insonning yerdagi baxtini, uning ehtirosining ulug'vorligi hamda qudratini, inson tanasining go'zalligini sharafloydi.

Uyg'onish cherkovning haqiqatni butunlay egallab olish monopoliyasini barbod qiladi. Cherkovning o'lik lotin tilini yagona adabiy til deb tan olish da'vosi ham barham topadi. Italyan, fransuz, ispan, ingliz tillari kabi jonli xalq tillari yangi maorif tizimiga tezda singib ketdi, ular bilan birga xalq adabiyoti folklor, rivoyatlar ham kirib keldi bu sohaga. Bu buyuk madaniy harakat o'zining asl mohiyati jihatidan hayotiy edi, chunki u ilohiy sxolastikaning tor doiradagi quruq safsatalaridan qutulishga, tabiat va hayotni bevosita keng ko'lamda o'rganishga intiladi. Shu bilan bir vaqtda u chindan ham xalqchilik xususiyatiga ega edi, chunki uning ko'p tomonlari keng xalq ommasiga ma'qul va manzur kelardi.

Davrning shu ikkala xarakterli xususiyati Servantes asarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tevarak atrofni o'rab olgan hayotdan u qiynalmasdan o'z romanining bosh qahramonini qidirib topadi. Kambag'allashib qolgan dvoryan, hozirgi zamonda jirkanib, undan yuz o'giruvchi va o'tmish to'g'risida xayol suruvchi shaxs – o'sha davrdagi Ispaniya hayotida tipik figura edi.

Ispaniya XVI asrning o'rtalarida o'z taraqqiyotining alohida shart-sharoitiga ko'ra chuqur iqtisodiy inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Bu inqiroz mamlakat xo'jalik hayotiga halokatli ta'sir qiladi. XV asrdayoq boshlangan ishlab chiqarishning yangicha kapitalistik usulga o'tishi to'xtab qoladi. Hamon «Yevropada birinchi mamlakat» bo'lib kelayotgan Ispaniya ayon-oshkora inqirozga yuz tuta boshladi. Dunyoga hukmron bo'lishga intilgan Filipp II ning halokatli siyosati mamlakatning sillasini quritardi. Xazina bo'shab qolgan, og'ir soliqlar va nohaq yig'imglar xalqqa kulfatlar keltirardi. Sanoat va hunarmandchilik, dehqonchilik tushkunlikka uchrab, mehnat qadrsizlana borardi. Aholi borgan sari qashshoqlashardi.

Mayda dvoryanlar – idalgolar ko'pchilik boshiga tushgan bu qismatdan qochib qutula olmadi. Mayda dvoryanlarning xo'jalikning yangi shakliga o'tishga quvvati yetmasdi, buning uchun ularning mablag'i yetishmasdi, buning ustiga butun Ispaniyaga yoyilgan inqiroz uning qashshoqlashuvini nihoyasiga yetkazadi. Kimningki imkoniyati bo'lsa, qirol xizmatiga ketadi, qolganlar kambag'allikda yashashadi, turli shubhali ishlarga kirishadi. Servantesning o'zi ham qisman turli sohalarga o'z kuchini sarflashga intilgan yarim qashshoq, mayda dvoryanlardan edi. Lekin Servantes buyuk ijodiy iste'dod egasi bo'lib, turli-tuman voqealar va taassurotlarga boy shaxsiy hayoti uni borliqni chuqur tushunishga o'rgatadi. O'z zamonasining eng yaxshi intilishlarini anglab yetgan Servantes qashshoq mayda dvoryan obraziga nihoyatda o'ziga xoslik va mazmun bag'ishlaydi.

U telba qiyofadagi don Kixot orqali yashashni bilmaydigan, mavjud shart-sharoitni tan olishni istamaydigan kishi

obrazini taqdim etadi bizga. Bu G'amgin Qiyofa ritsar eng ezgu niyat-maqсадlar bilan ilhomlangan. U haqoratlangan va ezilganlarga homiy bo'lishni istaydi, dunyodagi zo'ravonlik va zulmni tag-tomiri bilan yulib tashlashga intiladi, u jahonda adolat va erkinlik o'rnatmoqni orzu qiladi.

Bu buyuk niyatni amalga oshirish uchun olib borilgan kurashda u shunchalik fidokorlik, shunchalik mardlik, shunchalik matonatlilik va ruhan tetiklikni namoyish qiladiki, natijada o'z jasoratiga nisbatan chuqur hurmat uyg'otadi kishilarda. Don Kixot o'z intilishlarining oliyjanobliligi, e'tiqodining samimiyliги va qat'iyliги bilan, ishiga joni dildan berilganligi, shu yo'lda hamisha har qanday jasoratga va xavf-xatarga tayyor turishi bilan haqiqiy qahramondir. Uning qayg'uli, ayanchli siymosi romandagi boshqa hamma qahramonlardan ustunroq ajralib turadi, kitobxon uning holiga achinadi, xayrixoh, hamdard bo'ladi. Hamma balo shundaki, don Kixot o'zi ko'zlagan yuksak maqsadga erishish uchun noto'g'ri, fantastik yo'llardan boradi.

Turmushni o'zgartirish uchun uni bilish, hayot qonunlarini boshqarib turuvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuchlarni o'rganish lozim. Don Kixot esa borliq to'g'risida tamomila o'zicha fikr yuritadi, hayotda yo'q va bo'lishi ham mumkin bo'lmagan narsalarni tiklamoqchi bo'ladi, uning fikricha, jahongashta ritsarlik dunyodagi barcha yovuzlik va dard-u illatlarning yagona davosidir. Don Kixot bu ritsarlikni ritsar romanlari bo'yicha tasavvur qiladi, buning to'g'riligiga unda hech qanday shubha yo'q. Kitoblarda yaratilgan qahramonlarga maftun, bu asarlarda tasvirlangan jasoratlarga mahliyo bo'lgan don Kixot aslida ritsarlik qanday bo'lganligini bilishni xohlamaydi, u davrlarning qaytib kelmasligini tan olishni istamaydi. Don Kixot o'ziga xos, jo'shqin fantaziyasi yaratgan xayoliy dunyoda yashaydi. Borliq ritsarimizni zarracha qiziqirmaydi.

Mana u yo'l yoqasidagi g'aribona qovoqxonaga yaqinlashmoqda. Qarshisida kambag'al oddiy kishilar istiqomat qiluvchi faqirona, iflos bir kulba turganini o'z ko'zlari bilan ko'rib, barcha sezgi a'zolari bilan his etib, bunga ishonmog'i lozim edi. Biroq ritsar romanlariga asoslanganda, ritsar o'z yo'lida ajoyib

saroylarni uchratishi kerak. Shuning uchun ham bu ko'rimsiz qovoqxona, nazarida ko'z yumib-ochguncha hashamatli saroyga, ayyor egasi oliyjanob sinorga, yarim qashshoq xizmatkorlar esa go'zal xonimlarga aylanib qolishadi.

Don Kixot sarguzasht izlab yo'lga otlanar ekan, yuragini band etguvchi ma'shuqa tanlashga qaror qiladi. U qo'shni qishloqdagi yoqimtoygina dehqon qizini tanlaydi. Ammo ritsarlik qonunlariga ko'ra ritsarning ma'shuqasi aslzoda va boyvuchcha xonim bo'lishi kerak.

Ana shuning uchun ham haqiqat va aqlga zid o'laroq ismi Dulsineya deb o'zgartirilgan Aldonsa malika bo'lib qoladi. U saroyda ajoyib kaniz-u mulozimlar qurshovida, xusn-u malohatda, bilimdonlikda beqiyos.

Haqiqatda, saroy ham, bahaybat polvonlar ham bo'lmaganidek, Dulsineya ham aslida dunyoda yo'q, faqat karvonsaroylar va shamol tegirmonlari bor edi. Lekin buning ahamiyati yo'q. Don Kixot uchun xayolida ko'rayotganlari turmushdagi har qanday mavjud narsalardan ham hayotiyroqdir. U atrofini o'rab olgan jamiki narsalarni ritsarlik donoligi asosida idrok etadi va talqin qiladi. To'g'ri, bunda voqelik tamomila noto'g'ri ma'no kasb etadi. Ammo bu bilan uning ishi nima? Axir, muqaddas ritsar romanlari qanday talab qilsa, dunyo shunday bo'lishi kerak-ku – demak, u shunday hamdir. To'g'ri, goho, e'tiqod asosida yaratilgan xayoliy dunyo bilan borliq o'rtasidagi uzilish nihoyatda qat'iy lashadi, a'zoyi badani momataloq bo'lgan paytlarda hatto don Kixot ham undan butunlay ko'z yumish lozimligini sezmay qololmasdi, ammo bunday paytlarda u bu ins-u jins va yovuz jodugarlarning ishi deb taskin beradi o'ziga. Saroylarni karvonsaroyga, bahaybat polvonlarni shamol tegirmonlariga aylantirayotganlar ham o'shalar deb o'ylaydi. Hamma narsa yana o'z iziga tushadi va muqaddas ritsarlik yozuvlarining obro'siga zarracha putur yetmay qolaveradi.

«Muqaddas ritsarlik yozuvlari» deb bejiz aytmadik. Don Kixotning tafakkuri o'rta asr aqidaparasti tafakkuridan u qadar uzoqlasholmagandi. «Muqaddas yozuvlar va rivoyatlar»da karomat qilinganidek joylashtirishga intilardi. Don Kixotning miya-

sig a o'rnashib qolgan ritsar romanlarini muqaddas yozuv kitoblariga almashtirsangiz, ko'z oldingizda tipik xudojo'y-aqida-parast namoyon bo'ladi. Aksincha, istagan ilohiy, «muqaddas kitoblar» o'rniga ritsar romanlarini qo'ysangiz, siz yana don Kixotning dunyoqarashiga ega bo'lasiz. Shunday qilib, tentak bir idalgoning ajoyib sarguzashtlari to'g'risidagi alomat qissa sxolastikaga, borliqni mavhum e'tiqod shart-sharoitlari asosida tuzilgan deb tushuntirishga har qanday yo'l bilan zarba beruvchi o'tkir satiraga aylanadi.

Real hayotdan shunchalik orqada qolish nimalarga olib kelishini Servantes juda qattiq kinoya bilan yoritadi. Uning qahramoni haqiqat va adolatga joni-dilidan berilgan oliyjanob, ajoyib kishi. Biroq uning hamma qahramonliklari o'zi uchun ham, u yordamga shoshilgan boshqalar uchun ham bir xilda ko'ngilsiz tugaydi. U bolani himoya qiladi, lekin bu himoya oqibatida bola o'zidan ketguncha kaltaklanadi va ko'chaga uloqtiriladi, u zanjirband mahbuslarning zanjirlarini uzishga yordamlashadi, ammo bu kishilar chor-atrofga qochib, butun viloyatga dahshat solishadi; u go'zal Dulsineyani eng sof muhabbat bilan sevajagiga ishonadi, lekin bu yuksak his-tuyg'u atrofdagilar boshiga balo toshi bo'lib yog'iladi va hokazo.

Ritsar romanlaridagi uydirmalarga ko'r-ko'rona ishonish, mavjud dalillar bilan hisoblashishni qat'iy istamaslik don Kixotda insoniy ehtiyoj va maylga nafrat uyg'otadi. Unda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kekkayish va takabburlik avj oladi. U e'tiroz bildirishlariga toqat qilolmaydi. Kimki u bilan kelisholmasa, uni zolim deb e'lon qiladi va unga o'z tig'ini to'g'rileydi. Demak, voqelikdan uzilib qolishlik insonning eng yaxshi intilishlarini, qalbdagi ezgu istaklarini soxtalashtiradi va oliyhimmat Kexananing xavfli mutaassibga aylanib ketishiga oz qoladi.

Biroq Servantesning satirasi faqatgina o'rta asrdan meros qolgan dunyoga nisbatan mavhum va xayoliy munosabatlarda bo'lishgagina qarshi qaratilgan bo'lib qolmay, balki u Servantes zamonasidagi ispan voqeligining boshqa tomonlarini ham qamrab oladi.

Servantes romanida telba xayolparast bilan birga hushyor va ishchan Sancho Pansa ham harakat qiladi. Bu obraz to'laqonli va murakkablikda don Kixot obrazidan qolishmaydi. Sancho Pansa – bu don Kixotning qiyofadoshi, don Kixotning aksi, idrokli don Kixotdir.

Don Kixot ritsarlikka aloqador bo'lmagan hamma narsalar haqida anchagina aqllilik va donishmandlik ko'rsatganidek, Sancho ham o'z tentaklarcha orzulari doirasidan tashqaridagi narsalarga nisbatan hushyorligi va farosatliliigi bilan ajralib turadi va ko'pincha donishmandlarga xos fikr yuritadi.

Don Kixotning ritsar romanlarining xayoliy dovdirashlariga qarshi turishga kuchi yetmaganidek, oqko'ngil, aqlli va kamtarin, mehnatkash-dehqon Sancho ham osongina boylik orttirish kasaliga, avanturizmga duchor bo'ladi. Bu hol umuman o'sha davr uchun xarakterli bo'lib, lekin, ayniqsa, xonavayron bo'lgan Ispaniyada kuchli edi.

O'sha vaqtda Ispan shaharlari omad izlovchi ucharlar, gardkamchi olibsotarlar va avanturistlar bilan to'lib-toshgandi. Osongina boylik orttirish, noto'g'ri yo'llardan borib, tez boyib ketishda omadni sinab ko'rish ishtiyoqi borgan sari keng qatlamlarni o'z ichiga qamrab olardi. Bu ishtiyoq oddiy hunarmandlar xonadoniga ham, qashshoqlashib qolgan idalgolar qo'rasiga ham, Ispaniyaga va okean ortida afsonaviy boyib ketish hollari to'g'risidagi uydirmalar bilan birga xonavayron bo'lgan qishloqlarga ham kirib bordi.

Sancho Pansa ham ana shu kasalga muhtalo bo'lgandi. Uning ishchanligi ham, idrokliligi ham don Kixotning hotamtoylik bilan bergan va'dalari oldida bardosh berolmaydi. Buning ustiga u muhtaram idalgoni ko'pdan beri hurmat qilishga odatlanib qolgandi. Sancho Pansa gubernatorlik to'g'risidagi orzularga, qandaydir orolga, boylikka va dong taratishga qiziqib qolib, bir muddatga boylik orttiruvchi ritsarga aylanadi. oliy-himmat Kexana ritsar romanlariga berilib ketib, zanglagan sovut-u qalqonlarni tutib sarguzasht izlab yo'lga tushganidek, tezda boyib ketish orzusi bilan hovliqib qolgan Sancho ham mehnat bilan kechadigan qishloq hayotini afsonaviy qurolbardorlik



kasbiga almashtirib, jahongashta ritsarga hamroh bo'ladi. Agar don Kixotning borliqda nisbatan munosabati bema'ni, romanlardan o'qilgan ritsarlik qonunlariga amal qilish bilan belgilansa, Sancho tezda boylikka botib ketish, orolga ega bo'lish, graflik lavozimiga erishish va hokazo o'z ko'zgusi orqali qaraydi olamga. Mana shuning uchun ham bu sodiq qurolbardor bir jihatdan o'z xo'jayini singari tentakdir.

Servantes Sanchoni o'z xo'jayinining aljishlariga ishonishga majbur etadi, xuddi shu bilan u asarning boshqa biror yerida namoyon bo'lmagan noyob karomatini bergan bo'lishi mumkin. Birinchi qarashda bu haqiqatdan yiroqdek tuyuladi. Zotan hushyor, aqlli, shumroq Sancho o'z xo'jayinining aljishlariga, ya'ni janobiga mahtal bo'lib turgan imperatorlik toj-taxti va bepoyon qirolliklar haqidagi, yovuz jodugarlar va sehlangan malikalar to'g'risidagi, g'aribona qovoqxonalar chordoqlarida to'qilgan dahshatli maxluq-u bahaybat pahlavonlar qoni haqidagi bema'ni hikoyalarga Sancho qanday ishonsin? Biroq biroz o'y-lab ko'rilsa, Servantesga yon bosishga to'g'ri keladi. Haqiqatan ham, boylik orttirish ishtiyoqi bilan yongan, o'z baxtini sinab ko'rishga nihoyatda oshiqqan Sancho don Kixotning ishon-tirishlariga uchmasdan qola olarmidi? Gubernatorlik va orolga xo'jayinlik qilish hisobiga boylik orttirishni ko'zlagan bu reja-ni o'sha afsonaviy Eldoradoni ochish borasidagi fantastik reja-lardan, o'sha davr avantyuristlari kallasida g'ujg'on o'ynagan vahshiyona chayqovchilik rejalaridan nima kamchiligi bor edi?

Sanchoning o'z xo'jayini fantaziyasining tutqich bermas to'riga qanday ilashib qolganini ko'zdan kechirishdan ham zavq-liroq va ibratliroq hech narsa bo'lmasa kerak. «Aql» unga bularning bari quruq safsata ekanini shipshitadi. Ammo shu bilan bir vaqtda don Kixotning asosli so'zlari unda rad qilib bo'lmas darajada taassurot tug'diradi. U o't bilan suv orasida qoladi, ikkilanadi, dam u yoqqa, dam bu yoqqa og'adi.

Oxir-oqibat u haqiqat qayerda-yu, xayol qayerdaligining farqiga ham bormay qo'yadi, mavjud narsalardan xomxayolni ajratolmaydi. Sanchoning kayfiyatini uning ochiqko'ngilliligi va bilimsizligidan deb talqin qilib bo'lmaydi. Birinchidan, u butun-

lay sodda emas, ikkinchidan esa, don Kixotning telbaligi ko'zga yaqqol tashlanib turganidan uning bema'ni fantaziyalariga tanqidiy yondashish uchun hech qanday bilimning mutlaqo keragi yo'q!

Sanchoning laqmaligining sababi boshqa narsada: don Kixotga ishonish unga foyda keltiradi. Mana Sancho Pansaning aqlliligi va bama'niligi nimaga qaratilgan. Shon-shuhrat va rit-sarlik jasoratlariga ishtiyoq don Kixot dunyoqarashida qanchalik rol o'ynasa, boyluk orttirish Sanchoning dunyoqarashida ham shunchalik rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu ikkala dunyoqarash bir xilda asossizdir. Unisi ham, bunisi ham – har qaysisi o'z misolida turmush va dunyo manzarasini buzib ko'rsatadi, ikkisi ham voqelikni realistik tushunishdan uzoq turadi. Don Kixot hamma sodir bo'layotgan narsalarni zamonasini qayta tiklash orzusiga, Sancho esa gubernator bo'lish, boy, to'kin-sochin va quvnoq turmush haqidagi orzusiga bo'ysundiradi, ta'bir qiladi. Real haqiqatdan uzoq va har biri o'zgacha tushunchalar o'zaro mos tushunchadir: Sanchoning jo'n tirikchilik borasidagi avanturasi don Kixotning balandparvoz fantaziyalaridan qolishmaydi. Atrofdagilarda esa ularga qarab turib qaysi biri telba: jahongashta ritsarmi yoki uning sodiq qurolbardorimi? – degan savol tug'iladi. Haqiqatan ham, ular qiyofadosh va biri ikkinchisidan kam emas.

Shunday qilib, Servantesning kinoyasi ikki tomonga yo'naltirilgan bo'lib, don Kixot shaxsida u sxolastik dunyoqarash ustidan, Sancho Pansa shaxsida esa avanturizm va manfaatparastlik ustidan kuladi.

Servantes ritsarlikning qayta tiklanishini orzu qiluvchi qashshoqlashib qolgan idalgo bilan bema'ni avanturalarga berilib garangsirab qolgan oddiy kishilar obrazini zo'r sanatkorlik bilan umumlashtiradi. Servantes bir tomondan bu obrazlarda umuminsoniy his-tuyg'ularni mujassamlashtiradi, ularni turmushdan ajralib qolgan, asossiz idealizm timsollariga, ikkinchi tomondan «aqli raso» qashshoq meshchanlarga aylantiradi.

Servantes bunday kurash uchun kuchni hammadan avval o'z badiiy ijodining chuqur xalqchilligidan oladi. Servantes

ijodining xuddi ana shu chuqur xalqchilligi tufayligina o'z tabaqasining xurofotlaridan yuqoriga ko'tarila oldi. Faqat shugina atrofni o'rab turgan voqelikda sodir bo'layotgan jamiki hodisavoqealarni – xoh eskilik qoldig'i, xoh yangilik qusuri bo'lsin – hammasiga bir xilda tanqidiy yondashishga imkoniyat yaratib beradi unga. Servantes burjuaziyaga ham, hukmron sinflarga ham mansub bo'lmay, balki hammadan avval ispan xalqining farzandidir.

Uning romanida XVI asr oxirlaridagi ispan xalqi hayoti yorqin tasvirlarda atroflicha aks ettirilgan. Kitobda kimlar yo'q deysiz: dehqonlar va hunarmandlar, cho'pon va xachir haydovchilar, ruhoniy, qishloq ma'murlari, askarlar, talabalar, mayda o'g'rilar va johil qaroqchilar – hammasi bor! Ularning bari hayotdagidek xilma-xil ko'rinishda haqqoniy yoritilgan, ularning hamnalari o'z jonli tillarida so'zlashadi, butun roman o'tkir xalq maqollari, matallari va qochiriqlari bilan to'lib-toshgan. Xushfe'l mahmadona Sancho Pansa esa bularga nechog'lik boy.

Shu bilan bir qatorda oddiy kishilar va oddiy turmushni aks ettirishda ularga nisbatan doimiy mehribonlik ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Yozuvchi gersog va gersoginyani quruq va zerikarli tasvirlagan bo'lsa, oddiy kishilar qanchalik jonli, go'zal va yorqin tasvirlanganiga e'tibor bering. Servantes ularning har birining qalb to'ridan shunday bir fazilat topadiki, kitobxon unga xayrixohlik bilan yondashadi. Qo'pol, xunuk xizmatkor ayol Maritornes bisotida bor chaqasiga kambag'al Sanchoga bir finjon vino olib beradi. Qovoqxona bekasi xachir haydovchilar tomonidan kaltaklangan don Kixotning yaralariga samimiy hamdardlik bilan malham qo'yadi. Jinoyatchi va qamoqdan bo'shagan Xines de Pasamonte qo'g'irchoq teatrining hamda ajoyib maymunning ochiq ko'ngil egasi bo'lib chiqadi. Ayyor, albatta, ayyorligicha qoladi, biroq uning tasvirida kitobxonni hech qanday jirkantiruvchi tomonlar yo'q. Romandagi xalq vakillari bo'lgan hamma qahramonlarni ajratib qarasangiz, Servantes ijodiga xos bu xususiyatni siz doimo ko'rasiz. U o'z qahramonlarini tasvirlar ekan, ularni faqatgina bo'rttirib aks ettirish bilan kifoyalanmay, aksincha, ularning yaxshi tomonlarini ham bajonidil yoritadi.

Bu o'rinda Servantes insonparvarligining kuchi to'la namoyon bo'ladi. Uning realizmi, turmushni aks ettirishdagi juda katta mahorati, insonga nisbatan samimiy hurmati, uning yuksak iste'dodiga mustahkam ishonch bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Bu gumanizm Servantesga telbalik niqobi ostiga yashirangan oliyjanob his-tuyg'ular bilan to'lib-toshgan Kexanani ko'rishga imkoniyat tug'dirardi. U yozuvchiga mug'ambir dehqon – qurolbardor shaxsida saxiy, oliyjanob kishini ko'rishga yordamlashadi. Bu dono gubernatorning soxta orolni idora qilishi bema'ni, o'zboshimcha gersogga jonli ta'na rolini o'ynashi mumkin. Ko'p azob-uqubatni boshdan kechirgan Sancho obrazida Servantesning o'z xalqi farzandi ekani yorqin ifodasini topgandir. Servantes ijodining xalqchillik xarakteri borliqqa nisbatan hushyor hamda ochiq munosabatda bo'lish va chuqur insoniylik bilan bevosita bog'liq. Mahoratli yozuvchi dunyoqarashining bu tomonlari bir-birini to'ldiradiki, uning ijodiga alohida samimiyluk va o'tkirlik bag'ishlaydi.

Xuddi ana shu narsa Servantes kinoyalarining alohida xarakterini belgilaydi. Servantes turmush va inson ustidan qanchalik achchiq va ustalik bilan kulmasin, hech qachon uning kulgisida na umidsizlik, na ruhiy tushkunlik seziladi. U insonga va uning qudratiga haddan ziyod ishongani uchun ham umidsizlikka tushmaydi.

Romanning mazmuni aslida har qancha qayg'uli bo'lmasin, uning oxiri har qancha fojiali tus olmasin, Servantes bu borada ham o'z sermashaqqat hayotidagidek mard, tetik va xushchaqchaqligicha qoladi.

Shuning uchun kitobning hech qayerida noumidlik, horg'inlik, ishonchsizlik sezilmaydi. Aksincha, unda insonning bitmas-tuganmas qudratiga, xurofot va irim-sirimlarga qarshi, voqelikni tushunishda meshchanlarcha bir yoqlamalik, kaltabinlikka qarshi kurashdagi uning iste'dodiga, yer yuzida yangi ajoyib turmush qurishga bo'lgan chuqur ishonch barq urib turadi.

## MUNDARIJA

### **BIRINCHI BOB**

Lamanchlik don Kixotning kimligi ..... 7

### **IKKINCHI BOB**

Don Kixotning birinchi bor o'z mulki-davlatidan uzoqlashib safarga chiqqani ..... 14

### **UCHINCHI BOB**

Don Kixotning ritsarlikka o'tishi ..... 19

### **TO'RTINCHI BOB**

Ritsarimizning mehmonxonadan jo'nab ketgandan keyingi kechirgan sarguzashtlari ..... 26

### **BESHINCHI BOB**

Ritsarimizning uyga qaytib kelgani ..... 32

### **OLTINCHI BOB**

Ajoyib ritsarimiz lamanchlik don Kixotning ikkinchi safari ..... 41

### **YETTINCHI BOB**

Shu mahalgacha ko'z ko'rib, quloq eshitmagan shamol tegirmonlariga qarshi dahshatli jangda shavkatli don Kixotning g'alaba qozongani ..... 44

### **SAKKIZINCHI BOB**

Qo'rqmas biskaylik bilan jasur lamanchlik o'rtasidagi mashhur jang ..... 49

### **TO'QQIZINCHI BOB**

Don Kixot bilan Sancho Pansa o'rtasidagi antiqa suhbat . 53

### **O'NINCHI BOB**

Don Kixotning yangueslik otboqarlar bilan bo'lgan mash'um uchrashuvi ..... 59

### **O'N BIRINCHI BOB**

Ritsar qal'a deb o'ylagan karvonsaroyda don Kixot va uning sodiq qurolbardori boshiga tushgan savdolar ..... 66

### ***O'N IKKINCHI BOB***

Karvonsaroyini qal'a deb bilib, o'z boshiga balo orttirgan botir ritsar don Kixot va uning sodiq qurolbardorining tortgan behisob uqubatlari ..... 72

### ***O'N UCHINCHI BOB.***

Don Kixotning qo'ylar suruvi bilan qilgan jangi ..... 80

### ***O'N TO'RTINCHI BOB***

Sancho Pansa bilan uning xo'jayini o'rtasidagi oqilona suhbat va undan keyin murda olib ketayotganlar bilan to'qnashuv ..... 90

### ***O'N BESHINCHI BOB***

Lamanchlik ritsar don Kixotning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qahramonligi ..... 97

### ***O'N OLTINCHI BOB***

Buyuk sarguzasht va Mambrinning bebaho dubulg'asini qo'lga kiritish hamda ritsar bilan uning qurolbardori o'rtasidagi suhbat ..... 110

### ***O'N YETTINCHI BOB***

Zo'rlab olib ketilayotgan ko'pgina baxtsizlarga don Kixotning ozodlik bergani ..... 121

### ***O'N SAKKIZINCHI BOB***

Xines de Pasamontening Sancho Pansaning eshagini qanday qilib o'g'irlab ketgani ..... 131

### ***O'N TO'QQIZINCHI BOB***

Don Kixotning ma'yus go'zalga taqlidan tavba qilishni o'z zimmasiga olgani va Tobosolik Dulsineya huzuriga chopar yuborishga ahd qilgani ..... 135

### ***YIGIRMANCHI BOB***

Don Kixotning Siyerra Morenada ko'rsatgan yangi jasoratlari hamda Sancho Pansaga nima bo'lgani ..... 151

### ***YIGIRMA BIRINCHI BOB***

Don Kixotning o'zini o'zi majbur etgan tavba-tazarrudan qanday xalos bo'lgani ..... 159

### ***YIGIRMA IKKINCHI BOB***

Sohibjamol Doroteyaning donoligi va Sancho Pansaning  
eshagi topilgani ..... 171

### ***YIGIRMA UCHINCHI BOB***

Ritsarning o'z qurolbardori bilan suhbat va Andres ismli  
bola bilan uchrashgani ..... 181

### ***YIGIRMA TO'RTINCHI BOB***

Don Kixotning qizil vino meshlari bilan jang qilgani ..... 189

### ***YIGIRMA BESHINCHI BOB***

Don Kixotning harbiy ish va ilm-fan haqidagi antiqa  
fikrlari ..... 199

### ***YIGIRMA OLTINCHI BOB***

Karvonsaroyda yuz bergan g'aroyib hodisa ..... 208

### ***YIGIRMA YETTINCHI BOB***

Karvonsaroyda yuz bergan g'alati hodisalarning davomi 217

### ***YIGIRMA SAKKIZINCHI BOB***

Lamanchlik don Kixotning g'alati usul bilan sehrlangani 229

### ***YIGIRMA TO'QQIZINCHI BOB***

Sancho Pansa bilan uning xo'jayini o'rtasidagi oqilona  
suhbat, shuningdek, don Kixotning kanonik bilan g'oyat  
oqilona bahsi ..... 240

### ***O'TTIZINCHI BOB***

Cho'pon bilan uchrashuv, cherkov marosimi bilan  
bog'liq bo'lgan sarguzasht hamda don Kixotning uyiga  
qaytishi ..... 252

### ***O'TTIZ BIRINCHI BOB***

Don Kixot betobligida ruhoni, satarosh va uning  
orasida bo'lib o'tgan hangomalar ..... 262

### ***O'TTIZ IKKINCHI BOB***

Sancho Pansa bilan don Kixotning jiyani va ekonomka  
o'rtasidagi mojarolar ..... 273

### **O'TTIZ UCHINCHI BOB**

Don Kixot, Sancho Pansa va bakalavr Samson Karrasko o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat ..... 278

### **O'TTIZ TO'RTINCHI BOB**

Sancho Pansa va uning xotini Teresa Pansa o'rtasida bo'lib o'tgan oqilona va g'alati suhbatlar ..... 287

### **O'TTIZ BESHINCHI BOB**

Don Kixot, uning jiyani va Ekonomka o'rtasida bo'lib o'tgan voqea, ya'ni butun qissaning eng muhim boblaridan biri ..... 293

### **O'TTIZ OLTINCHI BOB**

Don Kixot bilan uning qurolbardori o'rtasida nima hodisa bo'lgani va hayratda qoldiruvchi boshqa voqealar ..... 298

### **O'TTIZ YETTINCHI BOB**

Sanchoning hiyla-nayrang yo'li bilan sinora Dulsineyani avragani ..... 305

### **O'TTIZ SAKKIZINCHI BOB**

Don Kixotning jasur ritsar bilan g'alati uchrashuvi va ikki qurolbardorning shirin suhbatlari ..... 322

### **O'TTIZ TO'QQIZINCHI BOB**

Noma'lum ritsar va uning qurolbardorining aslida kimlar ekanligi aniqlangani ..... 334

### **QIRQINCHI BOB**

Don Kixotning sherlar bilan bo'lgan sarguzashtda ko'rsatgan mislsiz qahramonliklari ..... 347

### **QIRQ BIRINCHI BOB**

Lamanch viloyatining qoq kindigidagi Montesinos g'orida sodir bo'lgan antiqa sarguzashtlar ..... 355

### **QIRQ IKKINCHI BOB**

Qo'g'irchoq teatri bilan bo'lgan alomat hangomalar tavsifi, shuningdek, «karomat» qiluvchi maymunning diqqatga sazovor karomatlari ..... 371



### ***QIRQ UCHINCHI BOB***

Ikki do'stning yo'qolgan eshakni izlashgani ..... 388

### ***QIRQ TO'RTINCHI BOB***

Sehrlangan qayiqdagi g'aroyib sarguzasht ..... 399

### ***QIRQ BESHINCHI BOB***

Don Kixotning go'zal ovchi ayol bilan uchrashgani ..... 405

### ***QIRQ OLTINCHI BOB***

Don Kixot va qurolbardorni gersog qasrida qanday kutib olganlari ..... 410

### ***QIRQ YETTINCHI BOB***

Tobosolik Dulsineyani sehrdan ozod qilish yo'lining qanday topilgani ..... 435

### ***QIRQ SAKKIZINCHI BOB***

Duenya Dolorida yoki grafinya Trifaldining ajoyib sarguzashtlari, shuningdek, Sanchoning o'z xotini Teresa Pansaga yozgan maktubi ..... 448

### ***QIRQ TO'QQIZINCHI BOB***

Don Kixotning orolni boshqarishga jo'nab ketish oldidan Sancho Pansaga qilgan pand-u nasihatlari ..... 474

### ***ELLIGINCHI BOB***

Sanchoning o'z oroliga qanday borgani va uni boshqarishga kirishgani ..... 483

### ***ELLIK BIRINCHI BOB***

Sancho Pansaning xotini Teresa Pansaga gersoginya mahramining qanday qilib maktub olib borib bergani ..... 500

### ***ELLIK IKKINCHI BOB***

Sanchoning Baratariya orolidagi hukmronligining davomi va gubernatorligining qayg'uli tugashi ..... 514

### ***ELLIK UCHINCHI BOB***

Sancho Pansaning o'z xo'jayini bilan qanday uchrashgani va ikkovlarining gersog qasrini tark etganlari ..... 528

### ***ELLIK TO'RTINCHI BOB***

Don Kixotning Barselona yo'lida boshdan kechirgan sarguzashtlari ..... 539

### ***ELLIK BESHINCHI BOB***

Don Kixotning ritsar Oq Oydin bilan uchrashuvi va shundan keyin yuz bergan hodisalar ..... 557

### ***ELLIK OLTINCHI BOB***

Don Kixot bilan Sancho Pansaning o'z qishloqlariga qaytayotganda yo'lda yuz bergan hodisalar ..... 563

### ***ELLIK YETTINCHI BOB***

Don Kixotning o'z yurtiga qaytgani, shuningdek, betob bo'lishi, qoldirgan vasiyati va vafoti ..... 577

**B.M. ENGELGARDT.** Servantes va uning romani ..... 587

**JAHON ADABIYOTI DURDONALARI**

**Migel de SERVANTES**

**DON KIXOTNING SARGUZASHTLARI**

*(sarguzasht roman)*

Asosiy izohlarni kirituvchi:

**B. M. ENGELGARDT**

Tarjimon:

**Sotiboldi YO‘LDOSHEV**

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Mas’ul muharrir:

Lolaxon **QO‘ZIBOYEVA**

Qo‘shimcha izoh va iqtiboslarni kirituvchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Musahhih:

Lolaxon **QO‘ZIBOYEVA**

Kompyuterda sahifalovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

**Litsenziya raqami AI № 274. 15. 07. 2015. da berilgan.**

Bosishga 2019.10.04. yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108 1/32.

Bosma tabog‘i – 19,0. Garnitura – «Times New Roman».

Qog‘oz – ofset bosma. Adadi – 1200 nusxa. Buyurtma raqami –33.

Bahosi kelishilgan narxda.

“ADAD-PLYUS” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, “Bunyodkor” shoh ko‘chasi 28-uy. 100097

34000

**Don KIXOTNING**  
**SARGUZASHTLARI**

MIGEL DE SERVANTES

**AZIZ KITOBXONLAR!**

Qo'lingizdagi ushbu kitob ispan adibi Migel de Servantes (1547-1616) qalamiga mansub «Don Kixotning sarguzashtlari» asari – jahon adabiyotining o'lmas durdonalaridan biri hisoblanadi! Bu asar nafaqat badiiy kitob orqali, balki yurtimiz telekanallarida yiliga bir necha bor berilgan videofilmi orqali ham juda mashhur.

Migel de Servantes ushbu asari orqali nafaqat soddalik va mug'ambirlikni hajv qiladi, balki shu bilan birga yuksak insoniy fazilatlarini ham tarannum etadi. Bu fikrimizning isbotida quyida berilgan «Yondaftarga muhrlanuvchi bitiklar»da ko'rishingiz mumkin.

Asarning ushbu nashrida hozirgi davr kitobxonlarining talab va iltimoslariga asosan qo'shimcha iqtiboslar kiritildi va hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalari asosida qayta tahrirlandi.

ISBN 978-9943-5858-4-3



9 789943 585843